

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**“O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI RIVOJIDA JADID ADIBLARI
IJODINING O‘RNI VA AHAMIYATI”**

Respublika ilmiy – amaliy anjumani materiallari

Jizzax 2022- yil 30-mart

Jizzax- 2022

UDK: 8 s (O‘z). (s.52)

O‘ - 17

Abdulhamid Cho‘lpon tavalludining 125-yilligi va Usmon Nosir tavalludining 110-yilligiga bag‘ishlanadi.

“O‘zbek tili va adabiyoti rivojida jadid adiblari ijodining o‘rni va ahamiyati”

Respublika ilmiy – amaliy anjumani materiallari.

Jizzax - 2022. – 228 bet.

Mas‘ul muharrirlar:

Usmonjon Qosimov filologiya fanlari doktori,

Sunatulla Soyipov f.f.n.dotsent.

Yulduz Karimova f.f.n.dotsent.

Taqrizchilar:

Nodira Soatova f.f.n.dotsent,

Feruza Jumayeva f.f.f.d (PhD), dotsent

Zubayda Jumayeva, f.f.f.d (PhD), dotsent

Maqolalarni to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchilari: Otabek Xidirov, Jo‘rayev Shukrullo,
Qushmurodova Dilshoda

Texnik kotiblar:

Jo‘rayev Shukrullo, Qushmurodova Dilshoda

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagi 101-F-son farmoyishi bilan tasdiqlangan reja asosida nashrga tavsiya etilgan

KIRISH SO‘ZI

Sharipov Sh.S. Jizzax DPI rektori, professor

Xalqimizning shonli o‘tmishi kabi uning tili va adabiyoti ham boy va yuksakligi bilan dunyo tamaddunida alohida ajralib turadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor...” Ana shunday qadriyatlarimiz, adabiyot va san’atimizni chuqur o‘rganish va ulardagi ibratli jihatlarni yoshlarimizni tarbiyalashga yo‘naltirish muhim va dolzarb vazifalar dan sanaladi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish hayotiy ehtiyoj va zaruratga aylandi. Xususan, fidoyi jadidlarimiz hayoti va ijodi biz uchun ko‘p jihatdan o‘rnak, ular bunyodkor yoshlarimizni vatanparvarlik, millatparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadid adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodini chuqur o‘rgangan atoqli olim, O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov kabi adabiyotshunos va tadqiqotchilarimiz ta’kidlaganidek, jadid ziyolilarimizning eng muqaddas tilagi Istiqlol edi. Shu orzu-tilak yo‘lida ularning betakror iste’dodi, navqiron yigitlik umrlari nisor bo‘ldi, aziz boshlari beayov ajal domiga tortildi.

XIX asr so‘ngi va XX asr boshlarida tarixiy zaruriyat tufayli vujudga kelgan jadidchilik mafkurasining xalqni milliy o‘zligini anglashga, milliy uyg‘onishga da’vat etishi, millat dardlariga darmon bo‘lishi davr talabi edi. Bunday ilg‘or g‘oyalar bosqinchi imperiyachilarga yoqmasligi tabiiy edi. Ular Turkiston xalqlarining madaniyatli, hur fikrli ziyolilari bo‘lgan jadid ijodkor-mutafakkirlaridan qo‘rqar, bu qatlamni “millatchi, xalq dushmani” deb ayblashga urinar, ularning vatanparvarlik g‘oyalari keng ommaga yoyilib ketishiga tish-tirnog‘i bilan qarshilik ko‘rsatar hamda turli qabihona yo‘llar bilan ularni jisman mahv etish choralarini ko‘rar edilar.

Totalitar tuzum davrida xalqimizning vatan uchun jonini ayamagan eng iste’dodli, fidoyi farzandlari quvg‘in qilindi, vahshiylarcha qatl etildi. Yurtimizning asl farzandlari bo‘lgan jadid ziyoli-mutafakkirlari va boshqa ko‘plab adabiyot va san’at namoyandalari mash‘um davr siyosatining qurboni bo‘lishdi. Lekin ular nafaqat Turkiston xalqlari, balki bashariyat uchun, uning porloq kelajagi uchun ham manfaat keltiruvchi mumtoz asarlarini yozishga ulgurdilar.

Afsuski, eng faol, millatparvar kuch sifatida maydonga kelgan jadidchilik harakati, adabiyotining asl maqsadi va ulkan ijtimoiy-siyosiy ahamiyati ko‘plab tarixiy-adabiy manbalarda butunlay biryoqlama talqin etildi. Behbudiy va Qodiriy, Fitrat va Cho‘lponlar asos solgan jadid adabiyoti tarixiy haqiqatni favqulodda katta jasorat va mahorat bilan xalq, millat manfaatlari nuqtayi nazaridan haqqoniy aks ettirgan. Ammo ijtimoiy-siyosiy va adabiy-estetik tafakkurimizning yuksak bir bosqichi bo‘lgan jadid adabiyotining bu kabi yorqin qirralari xolis baholanmasdan, aksincha, keskin qoralangan. Yoshlarimiz XX asr adabiyot tarixi, adabiy-estetik tafakur tadriji muammolarini o‘rganishda ana shunday murakkabliklarga to‘g‘ri yondashib, ularga mantiqan asoslangan mezonlar bilan baho berishlari lozim bo‘ladi.

Jadid ijodkorlarning aksariyati nomlari o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan so‘ng oqlanib, ijodiy meroslari yana tiklanib, xalqimizga qaytarildi. Ularning hayoti va faoliyatini yosh avlodga ko‘proq singdirish, adabiy-

ma'naviy merosidan bahramand qilishdek xayrli ishlarga barchamiz mas'ulmiz. Ana shunday ezgu maqsadda o'tkazilayotgan bugungi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyamizda poytaxtimizdan va viloyatlardagi yetakchi Oliy ta'lim muassasalaridan taniqli olimlar, umumta'lim maktablari o'qituvchilari hamda ilm-fan sohasida izlanish olib borayotgan yoshlar, magistr va iqtidorli talabalar qatnashmoqdalar.

OZOD SHARAFIDDINOV, O‘ZBEKISTON QAHRAMONI
SO‘NGGI JADID QISSASI
(BEGALI QOSIMOV)

O‘rtoqlari hazillashib uni shunday deb atashardi. Darhaqiqat, Begali Qosimov ilmiy faoliyatining hammasini to‘laligicha jadidlar mavzuyiga bag‘ishlangan, ularning ma‘rifatparvarlik sohasidagi, millatni uyg‘otib hozirgi zamon sivilizatsiyasiga esh qilish yo‘lidagi harakatlarini davom ettirgan edi. Deyarlik yarim asr davom etgan bu ish jarayonida Begalining o‘zi ham jadidlarning qay bir xislatlarini o‘zlashtirib olganday ko‘rinardi. Shuning uchun “So‘nggi jadid” degan laqab unga juda mos tushgan edi. Shunga ko‘ra, Begalining qalbida ilk marta vatan tuyg‘usini ona tabiat uyg‘otadi. U 50 yoshga kirganida bir guruh do‘stlarini qishloqqa taklif etgandi. Qishloq ozoda, sarishta, g‘oyatda fayzli edi. Begali o‘zi o‘qigan maktabni, bolaligi o‘tgan qishloqdagi ko‘chalar va manzillarni qandaydir ichki bir g‘urur bilan bizga ko‘z-ko‘z qildi. Keyin bizni tuman markazidan uncha olis bo‘lmagan qabristonga etakladi. Qabriston qadimiy bo‘lib, juda katta edi. Har bir maqbara ta‘mirlangan, supurib-sidirilgan. Odamlarning bu qabristonga ixlosi va hurmati g‘oyat balandligi ayon ko‘rinib turardi. Bu qabristonda juda ko‘p ulug‘ ulamolar va olimlar so‘nggi makon tutgandi... Meni hayron qoldirgan narsa shu bo‘ldiki, Begali har bir maqbaradagi azizlar bilan xalq o‘rtasida dong chiqargani, ular to‘g‘risida qanday eski-eski kitoblarda ma‘lumot berilganini juda yaxshi bilar edi. Suhbatdoshimga yana bir bor qoyil qoldim – men uning bilimdonligini bilar edim, ammo o‘z qishlog‘ini, uning tarixini, qadriyatlarini bu qadar e‘zozlashini bilmas edim. Xullas, bu sinchkovlik, yurt tarixiga, madaniyatiga qiziqish uni hozirgi Milliy universitet dargohiga olib keldi.

Begali juda yaxshi o‘qidi. U, ayniqsa, eski o‘zbek tilini, arab yozuvini mukammal o‘rgandi, bu uning mumtoz adabiyot bilan shug‘ullanishiga imkon berdi. U seminarlarda, ilmiy konferensiyalarda juda mazmunli ma‘ruzalar qilar, o‘rni kelganda ilmiy masalalarda munozara qilishdan qochmasdi. Uning nomzodlik ishi ham jadidchilikka bag‘ishlangan edi. Shundan keyin Begali doktorlik dissertatsiyasi ustida ish boshladi. Tabiiyki, bu tadqiqot ham jadidizm masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, endi Begali uni katta ko‘lamda, hamma nazariy jihatlari bilan birga yoritishni maqsad qilib qo‘ygan edi. Biroq bu paytga kelib, mafkuramizda yana bir evrilish sodir bo‘ldi – endi jadidlar masalasini umuman tilga olish mushkul bo‘lib qoldi. Mahalliy “dohiyalar”imizdan allaqaysisi, bilsa-bilmasa, “Jadidlar sinf iy dushmanimizdir”, degan hikmatni aytibdi. Sho‘rolar davrida, ayniqsa, O‘zbekistonda mafkura ana shunaqa ahvolda edi. Jadidlar, garchi XX asrda, ya‘ni nisbatan yaqinda yashab o‘tgan bo‘lsalar-da, sho‘ro hukumatining siyosatida qoralangani vajidan asarlari deyarli unutilayozgan edi. U material to‘plash uchun qo‘shni respublikalarga ilmiy safarlar qildi, ayniqsa, Tatariston va Boshqirdiston kutubxonalarida ko‘p ishladi. Aytmoq kerakki, Ufada va Qozonda XX asr boshidagi o‘zbek adabiyoti namunalari Toshkentdagiga qaraganda ko‘proq saqlanib qolgan. Masalan, men ham Cho‘lponning O‘zbek istondan topilmagan birinchi she‘riy to‘plami “Buloqlar”ni Qozon universitetining fundamental kutubxonasidan topgan edim. Va, umuman, bu kutubxona katalogidan o‘zbek adabiyotining menga ma‘lum bo‘lmagan 400 ga yaqin namunalari nomini yozib olgan edim...

Begali materiallarni misqollab yig‘di. Jadidlar haqidagi asarlari Begalini chet el ilmiy doiralari ham tanitdi. AQSH, Fransiya, Germaniya, Turkiya olimlari bila uning o‘rtasida yozishmalar vujudga keldi...Turkiyadagi turkshunos olimlar turkiy xalqlar adabiyoti bo‘yicha o‘nlab jildni tashkilchi tadqiqotlar matnlarini tayyorlash va chop etish ishiga Begalini muallif

va muharrir sifatida taklif qilishdi...Begali Qosimov nafaqat etuk iste'dodli tadqiqotchi oldim edi, u ayni chog'da o'qituvchilik san'atini puxta egallagan mohir pedagog ham edi. So'nggi marta Begali bilan 2004 yil iyulida ko'rishdik. Oradan bir oy o'tmasdan uni operatsiya qilishdi... Biz Begali bilan kelajakdagi ilmiy rejalarimiz to'g'risida gaplashdik. Begali Uyg'onish davri adabiyoti degan ilmiy darslikni nashriyotga topshirganini aytdi... Professor Begali Qosimov og'ir xastalikdan hayotdan ko'z yumdi. Shubha yo'qki, bu ajoyib insonning nomi tarixdan munosib o'rin egalladi.

Izoh: Maqola Ozod Sharafiddinovning "Domlalar" kitobidan olindi. Toshkent. "Ma'naviyat". 2009.207-214-bb.

JADID ADABIYOTI NAMUNALARINING QAYTA NASHRLARI MASALASIGA DOIR

Dilmurod Quronov, Andijon DU professori

O'tgan asrning 80-yillari oxirlari – 90-yillarda jadid adabiyoti namoyandalari qoldirgan ijodiy merosga qiziqish g'oyat kuchaydi. Bu hol jadid ijodkorlar asarlarining eng avval g'oyaviy-mazmuniy jihatlari bilan o'ta dolzarblik kasb etgani bilan izohlanadi. Zero, ularning millat ko'zini ochish maqsadi bilan yozilgan, milliy istiqlol va taraqqiy orzusi barq urib turgan asarlari mustaqillik epkinlari esa boshlagan sharoitda o'z tarixiy missiyasini yana bir bor bajarishi taqozo qilingan, jamiyatda ularni o'qishga, ularning ruhini singdirishga ehtiyoj bor edi.

Mazkur sharoitda jadid ijodkorlarning asarlarini qayta nashr qilish ishlari ham, tabiiyki, avj oldi. Aytish kerakki, biz qisqagina qilib "qayta nashr" deganimiz bilan, aslida bu vazifa o'z ichiga ko'p va mashaqqatli ishlarni oladi. Chunki jadid ijodkorlarning asarlari turli kutubxona va arxivlar fondlaridgi gazeta-jurnal taxlamlarida sochilib yotgan vaqt edi. Avvalo o'sha nashrlarni topish, ularni sinchiklab ko'rib chiqib, asarlar matnini ko'chirib olish (u vaqtlar kserokopiya degan narsa yo'q), ko'chirib olingan matnni nashrga tayyorlash. Xullas, ehtiyojning kattaligidan, bu ishga juda ko'p kishilar bosh qo'shdi. Ularning ichida adabiyotshunoslar ham, jurnalistlar ham, talabayu aspirantlar ham, boshqa soha kishilari ham bor edi. Zero, kutubxonalarda gazeta taxlamlarini varaqlab o'tirib Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon kabi ijodkorlar asarlariga duch kelganki odam o'quvchi omma bilan o'rtoqlashishga shoshar, matbuot nashrlari esa ularlari e'lon qilishga hamisha tayyor edi. Zotan, 70-80 yillar narida e'lon qilingan asarlar "yangi" maqomida qabul qilinardi, gazetxonlar ham ularni qo'yimay o'qir edilar.

Albatta, tavsif etilgan holatning yaxshi va yomon tomoni bor edi. Yaxshi tomoni – jadid ijodkorlarning juda ko'p asarlari o'sha vaqtdayoq o'quvchilarga yetib bordi va bu asarlar yana bir karra "millatni uyg'otish" ishiga safarbar etildi. Yomon tomoni – qayta nashrlarning matni aksar turli kamchiliklar – yanglish o'qilishlar, gohi ko'chirishdagi xatolar keltirib chiqargan uslubiy g'alizliklar, imlo xatolari bilan e'lon qilindi; ko'pincha zarur kirish so'zlar,

izohlar va lugʻatlar bilan taʼminlanmadi, taʼminlanganlari ham koʻngildagidek boʻlmadi. Natijada ilk nashrlar matni bilan qayta nashr matnlari sezilarli farq kasb etib qoldi. Bu farqlar imlodada ham, soʻz va soʻzshakllarning yozilishida ham, tinish belgilarining qoʻllanishida ham, matnning grafik shakllantirilishida ham kuzatiladi.

Hozirga qadar, yaʼni keyingi oʻttiz yil ichida jadid ijodkorlar asarlarini qayta nashr qilish ishida, nazarimda, ikkita bosqich kuzatiladi. Avvaliga ularning asarlarini keng koʻlamda ommalashtirish harakati kechgan boʻlsa (1987 – taqr. 2000), keyingi bosqichda ilk nashrlarga aynan mos matn tayyorlash yoʻlidan borildi. Hozirgi kunda bu ishni amalga oshirishning keyingi – ilmiy-tanqidiy matnlarni tayyorlash bosqichiga oʻtish vaqti yetdi.

Jadid ijodkorlar asarlarini nashr qilish ishini bir qator muhim omillarni hisobga olgan holda amalga oshirish kerak boʻladi. Hozirgacha bu yoʻnalishda qilingan ishlar tahlili, bu borada toʻplangan tajribadan kelib chiqqan holda, bizningcha, quyidagilarning eʼtiborda tutilishi maqsadga muvofiq:

1. Jadid ijodkorlar asarlarini qayta nashr qilish prinsiplarini ishlab chiqish va ularni toʻla joriy qilish. Shu shart bajarilsa, qayta nashrlarda kuzatiluvchi turlichalik bartaraf etiladi. Hozirda, masalan, Choʻlpon asarlarining turli yillardagi qayta nashrlari ham, turli kishilar amalga oshirgan nashrlari ham oʻzaro sezilarli farqlanadi. Natijada davr tili haqida ham, muayyan ijodkor tili haqida ham toʻgʻri tasavvur hosil qilish mushkul boʻlib qoladi.

2. Ilk nashr matnlarini hozirgi yozuvga oʻtkazishda amal qilinishi kerak boʻlgan imlo qoidalarini ishlab chiqish. Jadid ijodkorlar faoliyati yangi oʻzbek adabiy tili ham, uning imlo va punktuatsiya qoidalari ham toʻla shakllanib ulgurmagan sharoitda kechdi. Yaʼni ijodkorlar ham, asarlarni chop etgan vaqtli nashrlar ham, nashriyotlar ham oʻz holicha – “domla bilganini oʻqiydi” qabilida ish yuritgan. Bu davrda yozuv va imlo islohotlarining oʻtkazilgani, arab yozuvidan lotin yozuvi asosidagi alifboga oʻtilgani mavjud muammonlarni yanada chigallashtirdi. Mazkur holat qayta nashrlar imlosi, punktuatsiyasi masalalarini hal qilishga tilshunos mutaxassislarining faol ishtirokini taqozo etadi.

3. Qayta nashrlarni amalga oshirishda ularning bugungi kun oʻquvchisiga moʻljallanganini hisobga olgan holda til va imlo tomonlarini zamonaviy imloga yaqinlashtirish masalasi oqilona hal qilinishi zarur. Ommaviy nashrlar imkon qadar zamonaviy tilga yaqinlashtirilgan boʻlishi maqsadga muvofiq. Yaʼni bunda davr tilining “shirasi” sezilib turmogʻi ham kerak, ayni paytda matnlarda bugungi oʻquvchi uchun talaffuzi noqulay unsurlar kamaytirilishi lozim. Shu bilan birga, ilk nashrlarning asl nusxalari – arab va lotin yozuvida chop qilingan gazeta-jurnal yoki kitob nusxalari jamlangan elektron platforma yaratilmogʻi lozim. Bu platforma filolog mutaxassislar, talabalar va qiziquvchi ziyoli qatlama moʻljallangan boʻladi.

4. Jadid ijodkorlar asarlarining grafik shakllantirilishi qayta nashrlarda asliga monand berilishi muhim. Yaʼni ilk nashrlardagi qism va bandlarga ajratishlar, sarlavha osti va sahifa osti izohlari, yozilgan sana va joy qaydi kabi yondosh matn unsurlariga muhim unsurlar sifatida qaralishi kerak. Sheʼriy va

nasriy asarlardagi band va qismlarga ajratilish holati ham aslicha saqlangani maqsadga muvofiq. Jumladan, davr nashrlarida qoʻllangan band va qismlarni ajratuvchi chiziq yoki shunga oʻxshash grafik vositalar saqlanishi, yaʼni yo aslicha berilishi yoki muqobil shakli bilan almashtirilishi kerak. Shuningdek, agar ilk nashrda qoʻllangan tipografik vositalar (mas., “Oʻtgan kunlar”ning ilk nashridagi Kumush qabrtoshi tasviri; Choʻlponning “Ergashish” maqolasidagi guvohnoma) muallif koʻzda tutgan qoʻshimcha badiiy-informativ funktsiya bajarayotgan boʻlsa, ularning ham aslicha berilgani maʼqul.

5. Jadid nashrlarida qoʻllangan soʻzlarning aksariyati hozirda faol isteʼmoldan qolgani, mualliflar oʻzlari mansub shevaga oid soʻzlarni ancha faol ishlatganlari, davr vaqtli matbuoti tilida oʻzlashma soʻzlarning faol ishlatilganidan kelib chiqib, nashrlarning lugʻat bilan taʼminlanishi gʻoyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bu ish ham sistemali tarzda amalga oshirilishi lozim, toki turli nashrlardagi bitta soʻzga berilgan izohlar oʻzaro farqlanib qoladigan holatlar bartaraf etilsin. Bu oʻrinda xorijiy tillardan, xususan, rus tilidan kalka usulida oʻzlashtirilgan soʻzlar ham izohga muhtoj ekanligi nazarda tutilishi kerak.

6. Hozirda qayta nashrlarga ilova etilayotgan lugʻatlar koʻlami ancha tor boʻlib, ular ommaviy oʻquvchini asarni oʻqib-uyqishi uchun yetarli emas. Shuni hisobga olib, lugʻatlar soʻzligi eng avval ommaviy oʻquvchi ehtiyojidan kelib chiqib belgilanishi lozim. Tabiiyki, bu nashr hajmining kattarishi va mos holda harajatlar ortishiga olib keladi, lekin, aminmizki, erishilajak maʼnaviy-maʼrifiy samara ularni toʻla oqlaydi. Shu bilan birga, oʻtgan asr 10-30-yillarida chop qilingan vaqtli nashrlar va adabiy asarlar lugʻatini ishlab chiqish, uni internet tarmogʻiga joylashtirish ham gʻoyat samarali natija berishi aniqki, bu imkoniyatdan ham keng foydalanish kerak.

7. Jadid ijodkorlar asarlarining qayta nashrlarini tarixiy, madaniy-maʼrifiy, biografik sharhlar bilan taʼminlash ham gʻoyat muhim. Chunki, tan olish kerak, hozirgi oʻquvchilarning aksari oʻtgan asr boshlari – 30-yillarida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar haqida yetarli tasavvurga ega emas. Shuning uchun ham bu turdagi sharhlarsiz asar mazmunini toʻgʻri tushunib olishlari imkonsizdir. Xususan, davr nashrlarida ishlatilgan geografik nomlar, shaxs otlari, turli tashkilot va muassasa nomlari, urfda boʻlgan qisqartma otlar, tilga olingan yoki ishora qilingan voqealarga sharh berilsa, asar mazmun-mohiyatini toʻgʻri anglashga sharoit yaratiladi.

Yuqoridagi mulohazalar jadid ijodkorlar asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini tayyorlash vaqti allaqachon yetgan (balki oʻtgan, oʻtib borayotgan)ligini dalillash uchun, bizningcha, yetarli. Sirasini aytganda, bu gaplar mutaxassislar uchun yangilik emas, shunda ham yana bir eslatib qoʻyish foydali koʻrindi. Endi astoydil ishga kirishmoq: adabiyotshunoslik va tilshunoslik sohasida amaliy yoʻnalishdagi tadqiqotlarni koʻpaytirish zarur. Ayniqsa, oliy taʼlim tizimida taʼlim berish bilan ilmiy tadqiqot ishlarini uygʻun tarzda olib borayotgan hamkasblarimizda bu borada beqiyos imkoniyatlar bor. Zero, biz qayta nashrlarga qoʻyiladigan talablarni empirik yoʻsinda – talabalar ularni qanday qabul qilayotganlarini kuzatish asosida atroflicha va chuqur

o‘rganishimiz mumkin. Deylik, masalan, sizni biz matnini o‘qiganda u yoki bu so‘z tanish – hech bir izohga muhtoj emasdek ko‘rinaverishi mumkin, lekin, agar talabalarimiz shu so‘zni birdan anglay olmayotgan bo‘lsalar, uni shu on qayd etib qo‘ya olamizki, keyincha u lug‘at so‘zligidan joy olishi mumkin. Shuningdek, talabalarning mustaqil bajaradigan o‘quv ishlari (mustaqil ish, referat, kurs ishi, bitiruv ishi va b.)ni ayni ilmiy-amaliy maqsadga yo‘naltirsak, ular bilan birga tadqiqot olib borsak, bu ham yaxshi natijalar beradi. Xullas, hamkasb do‘stlar – matnshunos va manbshunoslar, tilshunosu adabiyotshunoslar, zikr qilingan ishlarni amalga oshirishda sizni bizga O‘zi g‘ayratu shijoat bersin!

**JADID ADABIYOTIDA VATANPARVARLIK VA MILLATPARVARLIK
G‘OYALARI
(Cho‘lpon she‘riyati misolida)**

Usmon Qosimov, fil.fan.dok. Jizzax DPI

Jadid adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodini chuqur o‘rgangan atoqli olim, O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov va bu mavzuda yirik tadqiqotlar yaratgan adabiyotshunoslarimiz ta’kidlaganidek, buyuk ziyoli-adiblarimizning eng muqaddas orzu-armoni davlat to‘ntarishi va yoki qonli to‘qnashuvlar bilan amalga oshiriladigan inqilob emas, balki Istiqlol edi. Ularning betakror iste’dodi, navqiron yigitlik umrlari ana shu orzu-tilak yo‘lida baxshida bo‘ldi, aziz boshlari, shirin jonlari ham shu yo‘lda beayov ajal domiga tortildi.

XIX asr so‘ngi va XX asr boshlarida tarixiy zaruriyat tufayli vujudga kelgan jadidchilik xalqni milliy o‘zligini anglashga va mustaqillikka da‘vat etishi, millat dardlariga darmon bo‘lishi davr talabi edi. Bunday ilg‘or g‘oyalar bosqinchi imperiyachilarga yoqmasligi tabiiy edi. Ular Turkiston xalqlarining , hur fikrli ziyolilari bo‘lgan jadid ijodkor-mutafakkirlaridan qo‘rqar, ulamni “millatchi, xalq dushmani” deb ayblashga urinar, ularning ma‘rifatparvarlik va vatanparvarlik g‘oyalariga tish-tirnog‘i bilan qarshilik ko‘rsatar hamda turli qabih yo‘llar bilan ularni jisman mahv etish choralarini ko‘rar edilar.

Totalitar tuzum davrida xalqimizning vatan uchun jonini ayamagan eng iste’dodli, fidoyi farzandlari quvg‘in qilindi, vahshiylarcha qatl etildi. Yurtimizning asl farzandlari bo‘lgan jadid ziyolilari va boshqa ko‘plab adabiyot va san‘at namoyandalari mash‘um davr siyosat ining qurboni bo‘lishdi. Ammo ular nafaqat Turkiston xalqlari, balki bashariyat uchun, uning porloq kelajagi uchun ham manfaat keltiruvchi mumtoz asarlarini yozishga ulgurdilar.

Afsuski, eng faol, millatparvar kuch sifatida maydonga kelgan jadidchilik harakati, adabiyotining asl maqsadi va ulkan ijtimoiy-siyosiy ahamiyati ko‘plab tarixiy-adabiy manba larda butunlay biryoqlama talqin etildi. Behbudiy va Qodiriy, Fitrat va Cho‘lpon lar asos solgan jadid adabiyoti tarixiy haqiqatni favqulodda katta jasorat va mahorat bilan xalq, millat manfaatlari nuqtay nazaridan haqqoniy aks ettirgan. Ammo ijtimoiy-siyosiy va adabiy-estetik tafakkurimizning yuksak bir bosqichi bo‘lgan jadid adabiyotining bu kabi yorqin qirralari xolis baholanmasdan, aksincha, keskin qoralangan. Yoshlarimiz XX asr adabiyot tarixi, adabiy-estetik tafakur tadriji muammolarini o‘rganishda ana shunday murakkabliklarga to‘g‘ri

yondashib, ularga mantiqan asoslangan mezonlar bilan baho berishlari lozim bo'ladi. Jadid ijodkorlarning aksariyati nomlari o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan so'ng oqlanib, ijodiy meroslari yana xalqimizga qaytarildi. Ularning hayoti va faoliyatini yosh avlodga ko'proq singdirish, adabiy-ma'naviy merosidan bahramand qilishdek xayrli ishlarga barchamiz mas'ulmiz. Zotan, hozirgi murakkab global lashuv sharoitida odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga yo'naltirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish hayotiy ehtiyoj va zaruratga aylandi. Xususan, fidoyi jaddidlarimiz hayoti va ijodi biz uchun ko'p jihatdan ibrat, ular ayniqsa, yoshlarimizni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asr o'zbek adabiyotining eng yirik siymolaridan biri Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpondir. Bu ulug' insonni taqdir shunday bir vaqtda tarix sahnasiga olib chiqdiki, oqibatda uning hayoti ham sha'nga, ham fojiga to'la bo'ldi. Negaki XX asrning dastlabki choragi o'zbek xalqi tarixiga erk, Istiqloq, ozodlik uchun kurash yillari, millatning o'zligini anglash, uyg'onish sanalari bo'lib kirdi. 1917-yilning oktabri Yevropa va Osiyo qit'asining katta bir bo'lakda sho'rolar saltanatining qaror topishi va pirovardida u saltanat xududiga kirgan millat va elatlar gullarining xazon qilib tashlanishiga, qullik saltanati zanjirlari dan qutulishni orzu qilgan pok vijdonlarning ayovsiz qatag'on qilinishiga olib keldi. Shoir va fuqaro Cho'lponning hayoti va ijodi tarixning mana shunday shiddatkor voqealari ichida kechdi. Shu bois uning nomi bilan bog'liq hodisa larni insoniyat tarixining eng dolg'ali, beayov to'fonlari, po'rtanalari tug'dirdi.¹ Cho'lpon, Qodiriy, Fitrat yangi - XX asr o'zbek milliy adabiyotiga asos soldilar. Bunday ijodiy baxt hammaga ham nasib qilavermaydi. Shu sababdan Cho'lpon ning shon-sharafga burkangan nomi abadiydir. U tarixning muhim burilish nuqtalarida ijodkorlar zimmasiga ham yuklanib turiladigan juda ulug'vor vazifani to'g'ri ilg'agan va a'lo darajada bajargandi. Uning she'riyati ruhan yangi edi. Cho'lpon she'riyatiga zamonning katta-kichik voqealari, xalq dardi, orzu armonlari bevosita mavzu bo'lib kirdi. Demak, o'tmish she'riyati XX asr ijtimoiy hayoti bilan, ya'ni o'z davri bilan chambarchas bog'langan edi.

Cho'lpon tong yulduzi demak. Cho'lpon kabi shoirlar milliy adabiyotning avvalgi shavkatini tiklashga jahd etishgan yangi zamonning qaldirg'och vakillari edilar. Shoir Bahrom Ro'zimuhammad: «Shu taxallusni olgan shoir haqiqatan ham yulduzlik maqomini oqladi, millatimizning kir osmoniga oydinlik baxsh etdi. Bu davrlar jahonni lol qoldirib, asta-sekin dovrug'i so' nayotgan, xor-zorlikka mahkum etilgan Turkiston Cho'lpon qalamidan chiq qan o'tli satrlar orqasida qisqa muddat bo'lsa-da, qaddi bastini rosladi. Cho'lpon dovrug'ini "Alisher Navoiyning shon-shuhratiga mengzaydilar», deb yozgan edi. Turkiston xalqlarining sevimli shoiri va adibi, ozodlik va Istiqloq kuychisi Cho'lpon Sharq va sharqliklar taqdirida o'zini va o'zligini ko'radi. Uningcha, bir zamonlar yer yuzida madaniyat va ma'naviyatni yaratgan u go'zal Sharq ("*Dunyoda hamma xalq qiziqqan gavhardek bebaho ot*") rus bosqinchilari iskanjasiga tushib qolgan edi. Biroq shoir faxr-iftixor bilan «Kun ham Sharqdan, Oy ham Sharqdan chiqadur» deb Sharqning ozod bo'lishiga ishonadi. Cho'lpon fikricha, omma-xalq mudom haqiqat uchun kurashuvchidir. Adabiyotshunos olim Botirxon Akram Cho'lponning «Xalq» she'ri haqida fikr yuritib, milliy uyg'onish ilk Istiqloqiyat davrinig keng miqyosidagi dunyoviy va ilohiy ma'rifatidan bahramand, chin ma'noda orif Cho'lpon xalq

¹ A Zunnov va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent, 1992. 199-bet

² Abdulhamid Cho'lpon. Go'zal Turkiston. Toshkent •Ma'naviyat», 1997. 5-b.

mavzusini bekorga qalamga olmagan, deb hisoblaydi. «Xalq» she’ri 1921-yilda yozilgan bo‘lib, ikki qismdan iborat. Shoir she’rning birinchi qismida xalqning tengsiz kuch-qudratini ulug‘laydi:

*Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir,
Xalq isyondir, xalq olovdur, xalq o‘chdir.*

Xalqning ijtimoiy taraqqiyot tarixida tutgan o‘rni, mavqeini, xalq irodasining mislsiz ruhiy-ma’naviy kuchini faqat dengiz bilan, dengiz to‘lqinlari bilan tenglashtirish mumkin. Turkistonda sodir etilgan haqsizlik, xunrezliklarning dahshatli manzarasi sitamdiyda xalqning gazabi, isyonkorlik ruhi, olovdek yonishi, o‘ch olishga shaylik bu shunday kuchki, uni to‘xtatish mumkin emas:

*Xalq qo‘zgalsa, kuch yo‘qdirki, to‘xtatsun,
Quvvat yo‘qkim, xalq istagin yo‘q etsun.*

Xalq qancha jabru sitam ko‘rmasin, falak gardishi aylanib, axir bir kun qasos soati keladi, xalqning haqligi, xalq istagi o‘lmasligini tarix kech bo‘lsa-da, Istiqlolga erishganligimiz isbotlab berdi:

*Xalq isyoni saltanatni yo‘q qildi,
Xalq istadi: toj-u taxtlar yiqildi.*

Rossiyada zulm saltanatini qulatgan aslida mohiyatan Fevral inqilobi, qo‘zg‘olon ko‘targan harbiy qismlar va boshqa guruhlarga mansub kuchlar emas, balki xalqdir. Asr boshida imperiyaga qaram bo‘lib qolgan ikki xonlik toj-taxtini yiqitgan ham aslida xalq, uning irodasi, qahr-u g‘azabidir.

Cho‘lponning mag‘rur shaxsiyatiga, erkparast va haqparast she’riyatiga g‘arazli munosabatda bo‘lgan markschi tanqidchilar ayni shu she’rning ikki satridan soxtalik topib, toj va taxtlari yiqilgan o‘lka, «Davlat inqilobi»dan bahra olayotgan o‘lkada yana qanday ozodlik kelishini istaydi u, deb uni millatchiga chiqarishdi. Shoir xalqni doim Milliy uyg‘onishga da’vat etdi. Cho‘lpon o‘sha og‘ir kunlarda xalq irodasiga ishondi. O‘tgan asrning XX-yillari xalqning Istiqlol haqidagi orzu-umidlari bukildi, umuminsoniy qadriyatlari oyoqosti qilindi, istiqbol yo‘lidagi intilishlar, milliy ozodlik harakatlari ataylab noto‘g‘ri talqin etildi. Tarixiy jarayonning, xalq taqdiridagi ana shu mash’um ahvolning butun jihatlarini ham anglagan millatparvar insonlardan biri Cho‘lpon bo‘ladi. Bu anglash, kuzatishdan tug‘ilgan iztirobli holatlar Cho‘lpon she’rlarining markazini tashkil etadi. Bundan «Xalq» she’ri ham mustasno emas. «Xalq» she’rining ikkinchi qismida shoir «Xalqning sabr kosasini» to‘ldirma, agar u astoydil jazm etsa, har qanday qarshiliklarni yengib, mustamlaka zanjirlar ini uzib, o‘z haq-huquqini tiklashga qurbi yetadi, degan fikrni kuyunib aytadi, tili boshqa-yu, dili boshqa siyosatdonlarni ogohlantiradi:

*Xalq istagi: ozod bo‘lsun bu o‘lka,
Ketsun uning boshidagi ko‘lanka,
Bir qo‘zg‘alur, bir ko‘pirar, bir qaynar,
Bir intilur, bir hovliqar, bir o‘ynar.
Yo‘qlikni-da, ochlikni-da, yo‘q etar,
O‘z yurtini har narsaga to‘q etar...*

She’rda qo‘llangan dengiz, to‘lqin, kuch, olov, isyon obrazlari shoir aytmoqchi bo‘lganfikrning jozibasini, ta’sirini oshiradi. Bugina emas, she’rning qismlari orasidagi ma’naviy izchillikni, mantiqiy yaxlitlikni ta’minlaydi. Tarixni harakatga keltiruvchi kuch — xalq ekanligiga shak-shubha bo‘lishi mumkin emas. Ammo xalq ham o‘zining imkoniyatlarini bilishi, mutelik, qullik ruhiyatidan qutilishi, kurashish, yaratish tuyg‘usi bilan yashashi zarur. Zero, “Bu tunda yorug’ sham yonmas, Chaqmasa gugurtni asl o’gillar”. Ana shundagina uning faoliyatidan biror salmoqli natija ko‘rish mumkin. Cho‘lponning “Ko‘ngil” she’ri “Xalq” she’ridan bir yil keyin, 1922-yilda yaratilgan. Ammo unda ham “Xalq” she’ridagi ma’naviy yo‘nalish boshqa jihatdan davom ettiriladi. Shoir ko‘ngliga murojaat qilish orqali xalqni o‘zining tabiatiga zid holda, “Kishanlar birla do‘stlashish”ning yomon oqibatlarini ko‘rsatib berdi. Shu ma’noda – “Ko‘ngil» “Xalq” she’rlarini to‘ldiradi:

*Ko‘ngil, sen munchalar nega Kishanlar birla do‘stlashding?
Na faryoding, na doding bor Nechun sen muncha sustlashding?*²

Bu o‘rinda ham kishan, ya’ni erksizlik inson qadrini yerga uradigan, uni tahqirlaydigan omil sifatida ko‘rinadi. «Kishan kiyma” bilan «odam bo‘lmoq» bir-biri bilan sira chiqishmaydigan, bir-birini rad etadigan tushunchalardir. Hurlik insoniylikning birinchi belgisi, belgisigina emas, birlamchi sharti. Hur inson o‘zining insoniy gururiga ega bo‘lmog‘i kerak va bu insoniy g‘urur boshqalar tomonidan hamisha ardoqlanishi shart. Shoir she’rda insonni mag‘rur bo‘lishga, boshini baland ko‘tarib yashashga undaydi. «Ko‘ngil» she’rida milliy uyg‘onishga da’vat, erk, hurriyatga chaqiriq, xalqni ruhan ozodlikka undovchi ohanglar barq urib turadi, she’r benihoya soddaligi bilan qalblarga yaqindir:

*Tiriksan, o‘lmagansan,
Sen-da odam, sen-da insonsan.
Kishan kiyma, bo‘yin egma,
Ki, sen ham hur tug‘ilg‘onsan!*

She’rning mazmuniga mos ravishda boshdan-oyoq murojaat, xitob va so‘rovlar asosiga qurilishi unga alohida harorat, joziba bag‘ishlagan. “Do‘stlashding”, “Sustlashding”, “Og‘ritmas”, “Ketmasmi”, “Sinmasmi” kabi jaran gdor qofiyalar, «munchalar», «nega», “ne”, “nechun», “muncha” kabi ta’kid so‘zlar she’rning ta’sirchan ligini oshiradi. Ayniqsa, she’rning mantiqiy yakuni bo‘lgan oxirgi bandi g‘oyat soddaligi, tarovati bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar:

1. Cho‘lpon. Yana oldim sozimni. Cho‘lpon 1991.
2. O.Sharafiddinov. Cho‘lponni anglash. T. 1994.
3. XX asr o‘zbek adabiyotitarixi. T.1999.

HIKOYA – IJTIMOYIY-TARIXIY DAVR TALABI VA IJODIY ZARURAT MAHSULI

Islomjon Yoqubov ,
ToshDO‘TAU professori, filologiya fanlari doktori

Najot – ilm va ma’rifatda

Cho‘lponning “Do‘xtur Muhammadiyor” xayoliy hikoyasida [1] bayon qilinishicha, Turkistonning “qorong‘i bir go‘shasi” da yashovchi 60 yoshlik kambag‘al satarosh Ahmad o‘n besh yoshligida otasi bilan haj safariga borib, padari buzrukvori vafot etgach, yolg‘iz o‘zi o‘n yil davomida Misr, Istanbul, Marokash, Afg‘oniston, Pokiston, Bag‘dod, Eron va Rossiya o‘lkalarida yashaydi. U yurtiga fors, arab, rus va ingliz tillarini o‘rganib, “hoji” bo‘lib qaytadi. Hojining xotini sil kasaliga chalinib vafot etgach, u Muhammadiyor ismli o‘g‘li bilan qoladi.

Hoji Ahmad o‘g‘lining ilm-ma’rifat olishi uchun astoydil harakat qiladi. Ufa madrasasida tahsil ko‘rgan muallimga berib, zamonaviy va milliy ruhda tarbiyalaydi. Muhammadiyor bo‘sh vaqtlarida rus ofitseridan jismoniy tarbiya mashqlarini o‘rganadi. Bir yil davomida islom hukmlari, tarix, geografiya fanlarini mukammal o‘zlashtirgan o‘g‘lini hukumat maktablariga bermoqchi bo‘ladi. Ammo iqtisodiy nochorlik tufayli Muhammadiyorning fazlu kamoldan bebahra qolayotganidan iztirob chekadi. Shahar ma’murlari ham, o‘ziga to‘q boylar ham uning mushkulini oson qila olmaydilar. Shahar ko‘chalariga bir qur boqqan adib to‘y, bazm, qimorbozlik, mast-alastlarning turfa janjallaridan iborat noxush manzaralarni ko‘radi. Muhammadiyorning tengqurlari esa choyxona, bazm va fahshxonalarda, bir oz tuzukroqlari bo‘lsa, boylarning eshigida mahramlik yoxud mirzolik bilan mashg‘ul. Ittifoqo qimorbozlarni mushtlashishdan ayirib, nasihat qilmoqchi bo‘lgan Hoji Ahmad jaholat tushovidagi kimsalar tomonidan vahshiyona tarzda o‘ldiriladi.

Muhammadiyor ota vasiyati bo‘yicha ilm olishga, jaholatga qarshi ma’rifat bilan chinakamiga kurashishga qaror qiladi. Uni ikkita holat iztirobga soladi. Ulardan birinchisi otasining jaholat qurboni bo‘lganligi bo‘lsa, ikkinchisi o‘tmishda ilm-ma’rifati bilan dunyo tamadduniga ulkan ulush qo‘shgan Turkistonning o‘z qoloqligi sabablarini anglab etmay, jaholat girdobida qolganligi edi. Bunday shaxsiy va ijtimoiy tuyg‘ulardan o‘rtangan qahramon sil kasaliga yo‘liqadi. Musulmonlarning arman millatiga mansub kishilar kabi zamonaga hamnafas emasliklari, tijorat ishlari va hatto mol-mulkini tabiiy ofatlardan sug‘urta qildirishni ham bilmasliklarini ko‘rganida vijdoni qiynaladi.

Teatr – ibratxona

Hikoya syujeti davomida “Ibrat” teatrida ichkilikning oqibatlarini haqidagi kinofilm namoyish etiladi. Ammo shaharning musulmon boylaridan ikkisining johil o‘g‘illari mastlikda karta o‘ynab pul talashishadi va biri ikkinchisini otib qo‘yadi. Yaralangan kishi shifoxonaga etmay jon taslim qiladi. O‘zini yo‘qotib qo‘ygan ikkinchi yigit esa qilmishidan talmovsirab qolib o‘zini otadi. Johillik tufayli ikki yosh musulmon farzandlari yorug‘ dunyo bilan vidolashadilar. Yolg‘izlik va etimlik iztiroblaridan behad qiynalgan Muhammadiyor g‘oyatda mahzun holda davolanadi. Vrachlarning maslahati va ko‘magi bilan Kavkaz shifoxonalariga yo‘llanma olgan qahramon tanish rus ofitserning hamdardligi qoshida ko‘z yoshlarini tiyolmay qoladi. O‘z vatanida harqancha noxush manzaralarni ko‘rmasin, uning

serviqor tog'lariga suqlanib boqarkan, vataniga, dindosh va millatdosh birodarlariga qarata shunday xitob qiladi:

“– Ey, Chingiz va Temur askarlarini ko'rgan qop-qora tog'lar! Ey, vatanim Turkistonning eski davrini ko'rgan tog' bobolar!

CHin ayting! Bu yigirmanchi asr madaniyatini ham ko'rub turubsiz! O'n kunlik yo'lni o'n soat qilg'on bu yigirmanchi asr madaniyatining ayg'irini ko'rub vatandoshlarim nimaga og'izlarin ochub qoladilar? Nimaga bu madaniyatga kirmakka o'zlari harakat qilmaydilar? Qachongacha ikki g'ildirakli, ko'chalarga sig'maydirgan arobalar?

Ey vatandoshlarim! Qachongacha bu g'aflat? Nimaga buncha xushyoqmassizlar? Axir sizlar ham odam-ku! Odamlardek harakat qilingizlar! Ko'z oldingizga kelub turg'on ilm va ma'rifat mevasidan foydalanmasdan nimaga og'izlaringizni ochub qarab turasizlar? Nimaga bu ishlarga kirishmaysizlar? Uyqudan ko'z ochinglar! Urununglar! Ilm, ma'rifat va hunar izlanglar! Vaqt etdi, balki o'tdi!” [2.275]

Shubhasiz, Muhammadiyorning mazkur xitobida oshkora tashviqiylik va da'vat ruhi kuzatiladi. Ammo unda Turkistonning ulug' tarixi va buguni XX asr madaniyatining darajasi nuqtai nazaridan haqqoniy baholanadi. Loqaydlikdan xalos bo'lib, tinimsiz harakat qilish, taraqqiyotga hamqadam bo'lish, g'aflat uyqusidan uyg'onib, ilm-ma'rifat va hunar egallashga bo'lgan mislsiz kuyunchaklik ham o'z ifodasini topadi.

Muhammadiyorning armoni

Boku shahri sharq me'moriy uslubida qurilgan obidalari, mehmonxona, kutubxona va kitob do'konlari, o'ziga to'q kishilarining homiylik yumushlariga bosh qo'shishlari, xayriya jamiyatlarining hatto qo'shni mamlakatlar yoshlariga-da xayrihohligi, “Kavkaz” singari vaqtli matbuot nashrlari, shifobaxsh suvlari bilan uni maftun etadi. Zotan o'z vatandoshlaridan yordam ko'rmagan Muhammadiyor Boku yoshlarining himmati bilan maktab va gimnazidan tortib, Petrograd dorulfununining tibbiyot sho'basigacha bepul o'qish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Tahsil davrida ham vatan va vatandoshlariga xizmat qilish armonlari bilan yashaydi.

Cho'lpon estetik ideallari

Muhammadiyor Petrogradda ekanligida Turkistonlik madrasa talabalari hayotini aks ettiruvchi “Umrluk shogirdlar” nomli 12 qismdan iborat milliy roman yozadi. Romanda madrasa talabalarining tahsilni unutilib, samovarlarda maishat bilan mashg'ul bo'lishlari mohirona hajv qilinadi. Mazkur asar hatto rus tiliga o'girilib, Petrogradda nashr etiladigan jurnallardan birida chop etiladi. Bundan behad ilhomlangan Muhammadiyor turkistonlik boylarining Moskva va Petrograddagi hayotini aks ettiruvchi “Poytaxt mehmonlari” nomli dramasi yozadi. Unda Rossiyaning markaziy shahar mehmonxonalarida ilmsiz boylar til bilmasliklari tufayli ajnabiylar tamonidan haqoratlanishi mahorat bilan tasvirlanadi. Bu kitobni muallifning o'zi rus tiliga o'girib nashr qildiradi. Talaba birodarlari bilan sahnalashtirib, bosh rolni o'zi ijro etadi. U nafaqat olqishlar oladi, balki mo'maygina pul ham ishlaydi. Shubhasiz, bu roman va sahna asarlari xayoliy bo'lib, Cho'lpon fikrini band etgan muammolar ruhini aks ettiradi. Zotan qahramonning xorijdagi muvaffaqiyatlarini Cho'lpon estetik ideallaridan ajratish mumkin emas.

Darhaqiqat, Petrograd dorulfununi tugatgach ham o'z vataniga qaytishga shoshilmagan Muhammadiyor Shveysariya dorulfununlarida tajribasini oshiradi. Shubhasiz, bu o'rinda adib syujet vaqtini real belgilamaydi. SHvetsariyadan qaytayotgan Muhammadiyor Italiya, Turkiya, Ruminiya, Bolgariya, Odessa, Toshkent shaharlari orqali Bokuga etib keladi. Uni

butun yosh ziyolilar qarshi olib, ma'naviy otasinikida ziyofat uyushtiradilar. Muhammadiyor Bokuda ochilgan Islom tib kursida uch yil muallimlik qiladi. Keyin esa ustozlaridan ruxsat olib, dengiz yo'li orqali Turkiston diyoriga o'tlanadi. Uni turfa gullar bilan olqishlab kuzatayotgan yosh ziyolilar oldida jaholatda qolgan yurtdoshlarini uyg'otmoqqa ahd qilganligini bayon etib otashin nutq so'zlaydi.

Tamaddun dengizi

Chamasi Cho'lpon Muhammadiyorni bejiz suvni yorib borayotgan mahobatli kemada tasvirlamagan. Birinchidan, kema ("madaniyat balig'i") va poezd ("madaniyat ayg'iri") kabi fan-texnika yangiliklari ilm kishilarining ulug' ixtirolari, ikkinchidan, dengizdan vataniga qaytayotgan kimsa millat dardida yo'lga chiqqan. Binobarin, to'lqinlari-la ko'pirgan dengiz uning qalbidagi toshqinlarga vobasta bo'lib, qahramon diliga buyuk ruh va umid bag'ishlaydi. Uchinchidan, ko'm-ko'k dengizning latif havolari, suvlarni ko'pirtirib toshtirgan shamollari Muhammadiyorni xorijiy ellarda ko'rgan go'zalliklari, hashamatli ziyo maskanlari, ilm-ma'rifatga tashna odamlardan ajratib turuvchi o'ziga xos to'siq vazifazini ham o'taydi. Zotan, Turkiston zaminida uni nochor va abgor binolargina emas, hanuz maishatga mukkasidan ketgan, umr bo'yi ishlab topgan mablag'iga dang'illama to'ylar qilib, uloq chopadigan, mulla-eshonlarga shaldiratib yaltiroq to'nlar kiydirib faxr etgani holda, qo'l ostidagi xizmatchilariga qul maqomida munosabatda bo'ladigan, suyuqli o'g'il-qizlarini o'qitishga g'ayrat ko'rsatmaydigan – ko'ngil ko'zi so'qir olomon qarshilashi mumkin. Demak, dunyo ko'rib, botiniy nigohi tiyraklashgan millatparvar Muhammadiyor o'y-xayollari bilan Turkistonga boqqan Cho'lpon xalq va millatni razolat botqog'idan qutqarib, tamaddun dengiziga olib chiqmoqni tilaydi.

Adibning milliy ta'lim va tarbiya konsepsiyasi

Yurtga qaytishda uzoq-uzoqlarda qad rostlagan tog'lar yo'l-yo'lakay xayol surib kelayotgan Muhammadiyorning ko'ziga tashlanadi. Ota-bobolarimiz davrida buyuk-buyuk qal'alar qad rostlagan bu yurtning tog'larini ko'm-ko'k maysalar qoplagan edi. Yam-yashil tepaliklar, daraxtzor o'rmonlar, sharqiroq suvlar, qum-adirlaru serhosil zaminga suqlanib boqqan qahramon ona diyoringing betakror chiroyidan mamnuniyat tuyardi. U o'z vatanining hech bir xorijiy diyordan qolishmasligidan faxr-iftixor sezadi. Ayni damda Turkiston ilmsiz boylari, johil "olim"lari, yolg'on eshonlari, isrofgar odamlari bilan ham hech bir qiyosi yo'q darajada ekanligi uni ruhan ezadi. Axiyri Muhammadiyor taraqqiyotga to'siq bo'layotgan illatlarni bartaraf qilmoq uchun milliy maktab va madrasalar ochmoq, yoshlarni Evropa dorilfununlariga yubormoq, vrach, huquqshunos, muharrir, savdogar, muhandis va hunarmandlarni tarbiyalamoq lozim degan to'xtamga keladi.

Turkistonda etishgan taraqqiyparvar yoshlar uni iliq qarshilashadi. SHaharning ruslar turadigan qismida yangi-yangi mehmonxonalar, bog' va xiyobonlar, magazin, teatr va maktablar qurilgan. Keng va ravon ko'chalar elektr chiroqlari bilan yoritilgan. Ammo eski shahar hamon o'sha-o'sha. Muhammadiyor magazin va xususiy shifoxona ochadi. U kambag'allarni tekin, boylarni esa pullik davolay boshlaydi. Qishloq chekkasidan sotib olgan bog'idan neft koni chiqib Muhammadiyor millionerga aylanadi. "Jamiyati xayriya" tuzib, uni katta mablag' bilan ta'minlaydi. Qiroatxona ochish bilan qanoatlanmay, "Vatan"nomli jurnal va "Xabar" nomli gazeta nashr ettira boshlaydi. O'zi ochgan muallimlar kursida ta'lim yo'llari, tarbiya usullari haqida ma'ruzalar o'qiydi. Vaqtli matbuot sahifalarida millat ichidan

etishib chiqqan shifokorning ezgu amallari kichik shaharda maorif maskanlarini ko'paytirganligi maqtala boshlanadi.

Ko'rinadiki, hikoyada Cho'lpon turkistonlik kambag'al bir yigitning o'z harakat va g'ayrati, xolis kishilarning ko'magida nafaqat Rossiyaning markaziy shaharlari, balki Evropaning ilg'or mamlakatlarida ham tahsil olishi hamda taraqqiyot yo'lida astoydil xizmat qilishi mumkinligi haqidagi konsepsiyasini ilgari suradi. U Muhammadiyor obrazini g'ayrat va shijoat, sabr va sabotning totli mevasi sifatida ibrat qilib ko'rsatar ekan, "Jamiyati xayriya" va "Nashri maorif" jamiyatlarining foydasiyu ittifoqlikning samarasini alohida ta'kidlaydi.

Demak, Muhammadiyor zamonasining eng ilg'or ijtimoiy ideallarini mujassamlashtiradi. Agar Eshmurod muhit bilan ochiq ziddiyatga kirisha olmagan, ruhan ezilish va iztirob chekish bilangina cheklangan bo'lsa, Muhammadiyor faol shaxsdir. Muhimi, uning ongida ham umid va umidsizlik kurashi kechadi. Cho'lpon ijtimoiy-ijodiy zaruratdan kelib chiqib undan kitobxon ibrat olishini ko'zlaydi. Bu istak kuchliligi natijasi o'laroq, ifoda jarayonida hamisha ham xarakter mantiqiga amal qila olmaydi. G'oyaviy-ma'rifiy maqsadini o'tkazish tilagida ko'proq badiiy fantaziyaga tayanadi. Aksariyat hollarda esa Muhammadiyor obraziga o'z shaxsiyatini singdiradi. Garchan muallifning ijodiy va hayotiy tajribasi etishmasligi tufayli ideallik va reallik yaxlit butunlik darajasiga chiqmagan, hikoyada tavsifiy-rivoyaviylik ustivor bo'lsa-da, mazkur asar Cho'lpon poetik idroki taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

"Do'xtur Muhammadiyor" da Cho'lpon xalq ertak va afsonalari, mumtoz adabiyot hikoyatlari ruhidan butkul uzoqlashmagan. Asarni bosh qahramon hayotining muayyan bosqichi bilan bog'liq sarguzashtlar xronikal tarzda batafsil bayon qilinishi, hayotiy qamrovining kengligi, syujet va kompozitsiyasining bir qadar murakkablasha borishi jihatidan Cho'lponning yirik nasrga qo'l urishi, xususan qissa yaratish yo'lidagi urinishi sanash mumkin. Zotan, 30-yillarning boshida Cho'lpon "Yov" nomli qissa yozgani ma'lum. [3.36] Garchand bu qissa hozirgacha topilmagan va uning mazmun-mundariyasi noma'lum bo'lsa ham, adib nasrida qissa janrining paydo bo'lishida "Do'xtur Muhammadiyor" xayoliy hikoyasida to'plangan ijodiy tajribalar ham muhim o'rin tutgani shubhasiz.

Adabiyotlar:

1. Cho'lpon. Do'xtur Muhammadiyor.// "Sadoi Turkiston" 1914 yil 24-, 30-, 34-, 45-, 46-, 47- sonlar.
2. Cho'lpon. Asarlar. Uch jildlik. Ikkinchi jild. – Toshkent., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.
3. Yoqubov I. Milliy uyg'onish davri o'zbek nasri. Monografiya. – Toshkent., "Fan va texnologiya", 2012.

O‘ZBEK ROMANLARIDA JADID OBRAZI TAQINI VA BADIY FUNKSIYASI

**Nasirov Azimdin Normamatovich,
Samarqand, SamDU dotsenti,
filologiya fanlari doktori**

O‘tgan asr boshlarida Turkiston o‘lkasida yangilanishga bo‘lgan ehtiyoj vujudga keldiki, buning zamirida tabiiy ravishda jadid adabiyotining etuk namoyondalari etakchilik qilar edi. Jadid adabiyotining etuk vakllari jamiyatni, uning taraqqiyotini belgilovchi barcha omillarni yangilash, isloh qilish ilinjida shaxs tafakkurini, uning dunyoqarashini o‘zgartirish yo‘llarini izlay boshladiki, buning asosida erk, ozodlik tuyg‘ulari ham mujassamlashganligini bugungi kunda baralla ayta olish mumkin.

Jadid adabiyotining etuk, iste’dod sohiblari insonni anglashda eng, avvalo, uning erki va ozodligi, erkin va ozod tafakkuri bo‘lishni istaganida ham ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklardan bezgan xalqning faryodi, dardu istaklari mujassamlashganligini inkor qilib bo‘lmaydi.

Shu o‘rinda bu qarashlarimizni asoslash maqsadida adabiyotshunos Dilmurod Quronovning quyidagi mulohazalariga diqqat qilaylik: “Ularning islohatchilik (jadidlar nazarda tutilgan-A.N.) g‘oyalari milliy turmushning barcha sohalariga – maorif, madaniyat, din, iqtisodiyot va ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlarga – birdek taalluqli edi/ aytish kerakki, xuddi Evropa ma’rifatchiligi kabi jadidchilik ham yogona dasturiga ega emas edi. Ya’ni jadidchilik harakatiga qo‘shilgan kishilarning qarashlarida muayyan farqlar bo‘lgani holda, ularni umumiy maqsad – millatni ma’rifatli qilish orqali yurtni taraqqiy ettirish g‘oyalari birlashtirar edi” [1, 13-bet].

Darhaqiqat, qayd qilingan tushunchalarda asoslar mavjud bo‘lib davr ziyolilarini birlashishiga xalqimizning ruhiy-ma’navi, madaniy-ma’rifi, ijtimoiy hayoti sabab bo‘lganligini teranror anglaymiz. Ularning tushunchalarida ijtimoiy muhit va hayot tarzini o‘zgartirishga bo‘lgan ilinj mavjud ediki, bu esa ularning erki va ozidligini, haq-huqini ta’minlash imkonini berar edi.

Adabiyotshunos H.Boltaboyev qayd qilganidek: “Insoniyat tarixida shunday daho san’atkorlar bo‘lganki, ular o‘z hayotini, ijodini, fikru zakovatini xalqning bugungi turmushini yaxshilashga, ertangi kunini charag‘on qilishga bag‘ishlaganlar” [2, 5-bet]. Tarix zaravaraqlaridan shunday xususiyatlari bilan o‘rin olgan ijodkorlar, tabiiy ravishda jadid adabiyotining etuk vakllari edi. Ular ilgari surgan qarashlarda xalqparvarlik, adolatparvarlik, erksevarlik kabi tushunchalar mujassam ediki, bu xalqni erki va ozodligi uchun ma’naviy tafakkurini o‘zgartirish, hayotga teranroq nazar solishga unadr edi.

To‘g‘ri, ularning bunday qarashlariga tizim, muhit imkon bermagan bo‘lsa-da, ularning bugungi kun ucun ham asqotadiga qarashlari, yoshlarimizni, millih ruh va vatanparvar insonlar sifatida shakllanishi uchun asos bo‘layotganligini alohida ta’kidlash lozim. O‘z davridayoq Abdurauf Fitrat “Yurt qayg‘usi” asarida ta’kidlaganidlab o‘tganidek: “Ey Ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi! Senga ne bo‘ldi? Holing qalaydir? Nechuk kunlarga qolding? Ey Chingizlarning, Temurlarning, O‘g‘izlarning, Otillalarning shonli beshiklari! Qani u chiqdig‘ing yuksak o‘rinlar? Qullik chuqurlariga nedan tushding?!” [3, 31-bet].

Mana shu hayqiriq zamiridagi achchiq haqiqat, yillar davomida Turkiston xalqlarining bo‘g‘izida qolib keldi. Bunday deyishimizga sabab, sobiq sho‘rolar davri buning mag‘zini

chaqish imkonini ham bermadi, ammo bugungi kunda esa istiqlolning qadriga etish, uning bir vaqtlar ham fidiy farzandlarini unutmaslikni, qalblardan joy olgan buyuk ma'rifatparvar-jadidlarni qoldirgan ijodiy, ma'naviy merosini o'rganishimiz va saboq chiqarish imkonini beradi.

Biz yuqorida jadid obrazi degan tushunchaga urg'u berishimizning asosiy sababi, XX asr boshlarida maydonga kelgan jadid harakatining yirik namoyaondalarining qarashlari, ilgari surgan tushunchalari badiiy asarlardagi obrazlar ruhiyatiga singdirildiki, bu esa ularning dunyoqarashidagi mulohazalarga hamohang tarzda talqin uchun asos bo'lganligini ta'kidlamochimiz.

Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi obrazlar olamiga nazar tashlar ekanmiz, ijtimoiy hayotning murakkab qirralarini inson ruhiyatiga, uning xarakter xususiyatiga ta'sir eta olganligini kuzatamiz. Akbaralining o'limi, Miryoqubning safarga chiqishi talqinlarida uning ruhiy-ma'naviy olamining o'zgarishiga, hayotga teranroq nazar solish imkonini berishi ham bejiz emasdek tuyuladi. Adibning maqsadi Miryoqubni xarakterini o'zgartirish emas, balki bu fikrlarni tinglagandan so'ng uning qalbida, ruhiy-ma'naviy olamida o'iga xos o'zgarish seziladikki, buning sababi o'likni anglashga bo'lgan ehtiyojning vujudga kelishi, "kurtak" otishi bilan uzviy bog'liqdir. Poezdada Mariyam (Mariya) bilan tanishgan Miryoqub (Jakob) qalbida bir anglab bo'lmas kayfiyat uyg'onadiki, uning ma'naviy qiyofasini o'zgarishiga ham sabab bo'ladi: "Millat uyg'onsin, ko'zini ochsin, o'qisin, bilim olsin, madaniy millatlar qatoriga kirsin, so'ngra u ham o'z davlati, o'z baxti, o'z saodatini quradi. – Millatni uyg'otish - uyg'onganlarning vazifasi. Mana siz: ancha eslik, hushyor, ziyrak odam ko'rinasiz. Ish bilasiz ekan. Davlatingiz bor ekan. Faqat birgin aaybingiz shuki, zamon ahvolidan xabardor emassiz. Gazet o'qimaysiz. Shu zamonda bundan yomon gunoh bormi? Qanday yaxshi gazetlar bor" [4, 185-bet].

Romandagi voqealar silsilasiga nazar tashlar ekanmiz, bu suhbatlardan Miryoqubning ruhiyatida ma'lum o'zgarishlar vujudga kela boshlaganligini his eta boshlaymiz. "Butun islom olami, musulmon o'lkalari birma-bir ajnabiylar qo'liga o'tayotir", - degan mulohazalarni tinglagan, Miryoqubning qalbidagi larzalar yanada kuchaya boshladiki, hatto "Har qalay, bu xotun menga hech narsa bermaganda ham roziman. Ko'zimni to'sib yotgan pardalarni olib tashladi-ku", - deya hayqirgisi keladi. Qayd qilingan tushunchalarni bugungi kunda izohlash osondek tuyular, ammo o'tgan asr boshlarida bu fikrlarni ayta olishi va talqin etishining o'zi adibdan katta badiiy mahorat bilan bir qatorda juda katta jasoratni ham talab etishi, tabiiy edi. Bu obrazda mujasmlashgan tuyg'ular, kechinmalarning asosida, o'zlikni anglashga bo'lgan intilishning taran talqinini kuzatamiz.

Darvoqe, hayotning murakkab qirralarini badiiy talqin etish orqali insonni anglashga, uning tafakkuridagi evrilishlarni namoyon qilishga intilagligini ham bejiz emas edi. Shuning uchun ham Miryoqub obrazi va uning badiiy xarakterining talqiniga nazar tashlask, murakkab obraz ekanligidan dalolat beradi. Uning turfa xil xususiyatlari, asrning badiiy kompozitsiyasidagi o'rni haqida so'z yuritgan Dolmurod quronov shunday yozadi: "Miryoqub dramasi uning faol harakatiyu, izlanishlari mahsuli sifatida yuzaga keladi: voqealar personajga ta'sir qilganidek, u ham ma'lum darajada voqealarni shakllantiradi, shu bois ham Cho'lpon voqealarni qahramoni xatti-harakati ritmiga muvofiq tasvirlaydi" [1, 252-bet].

Bu tushunchalarga nazar tashlar ekanmiz, Miryoqub obrazida mujassamlashgan tushunchalar zamirida, davr kishilarining ma'lum darajada hayotga teranroq nazar solish an'anasining shakllanishiga ham urg'u bermoqchimiz. Shu jihatdan o'zbek adabiyotining

yirik darg‘alaridan biri bo‘lgan Musa Toshmuhammad Oybekning “Qutlug‘ qon” romanidagi Abdishukur, Odil Yoqubovning “Diyonat” romanidagi Quadratxo‘ja obrazlarida ham ijodkorlarning eng murakkab davrda aytishi kerak bo‘lgan voqelikni, qalb istiroblarini epizodik obrazlarga singdirib yuborganligi bilan izohlash mumkin.

Oybekning “Qutlug‘ qon” romanidagi Abdishukur xarakterining badiiy talqinida murakkab davrning xarakterli jihatlaridan qat‘iy nazar, insonni anglashga, o‘zlikni his etishga, millat fojialkarini teranroq anglashga, ularning dardu istiroblarini anglashga intilganligi kuzatiladi: “– Qaerga borasizlar? Odamlarni qaerga boshlayabsan? – tupugini sachratib, gapira ketdi Abdishukur. – Bu narsa ayni nodonlik, axmoqlik! San nimani tushunasan, boruvchilar nimani tushunadi? Yurt ishiga g‘amg‘o‘rlik odamlar bor” [5, 321-bet].

Albatta, bu talqinlarda davrning achchiq haqiqati o‘z ifodasini topgan bo‘lib, Abdishukur odamlarni, yani olomonni yo‘ldan qaytarmoqchi bo‘ladi, ularni harakatga keltiruvchi, boshqaruvchi kuchlarning shakllanishiga diqqat qilingan. O‘tgan asrning boshlaridagi voqelik orqali, sobiq sho‘rolar davrining ba‘zi jihatlarini uzviy bog‘laydiki, bu albatta, inson erki, ozodligi, milliy g‘ururni anglash kabi jihatlar bilan bog‘lanib ketadi.

Xullas, milliy qahramon darajasiga ko‘tarilgan jadid harakatining yangilanish, islohatlar, ma‘naviy-ijtimoiy o‘zgarishlar haqidagi qarashlari u yoki bu darajada, badiiy asarlarda o‘z ifodasini topib keldiki, bu esa “Qutlug‘ qon” romanida ham o‘ziga xos talqinlarda ifodalanganligini kuzatamiz.

Adabiyotlar:

1. Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi. – Toshkent, “Sharq”, 2004. – 288 b.
2. Boltaboyev H. Fitrat va istiqloq ma‘naviyati. Qarang: Fitrat. Tanlangan asarlar. Jild I. Sherlar, nasriy asarlar, dramalar. – Toshkent, “Ma‘naviyat”, 2000. – 256 bet.
3. Fitrat. Tanlangan asarlar. Jild – I. Sherlar, nasriy asarlar, dramalar. – Toshkent, “Ma‘naviyat”, 2000. – 256 bet.
4. Cho‘lpon. Yana oldim sozimni: Kecha va kunduz. Roman. Yorqinoy. Pesa. She‘rlar (To‘plovchilar: N.Karimov, Sh. Turdiyev). – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1991. – 576 bet.

MUMTOZ NASR VA JADID HIKOYACHILIGI XUSUSIYATLARINING SINTEZLASHUVI

**Muqaddas Tojiboyeva, Andijon
davlat universiteti F.f.d., dotsent**

XX asr o‘zbek adabiyotida hikoya janrining vujudga kelishi, taraqqiyoti va takomilini milliy adabiy manbalardan ayro o‘rganish mumkin emas. Jadid hikoyachiligidagi zamonaviylik hayot davom etishi barobaridagi yuz berayotgan o‘zgarishlar, yangiliklarni badiiy nuqtai nazardan o‘zlashtirish va ularni badiiy timsollar orqali tasvirlashda zuhur bo‘lsa-da, ildizi mumtoz adabiyotga borib taqalishi tayin bo‘lgan hodisa. Jadid adabiyotida kichik epik turning go‘zal namunasiga aylangan «Uloqda» (Abdulla Qodiriy, 1913), «Juvonboz» (1915), «Haqiqat kimda?» (Hamza, 1916), «Oydin kechalarda» (Cho‘lpon, 1922), «Qor qo‘ynida lola» (1923), «Qiyomat» (Fitrat, 1923) hikoyalarida ta‘sirning o‘ziga xos tomonlari sintezlashganini ko‘ramiz. Qodiriyning “Uloqda” hikoyasining asosiy

boshlang'ich g'oyasi ma'naviy qadriyatlar va urf-odatlariga borib taqaladi. Asarda bir kunda bo'lib o'tgan voqea tasvirlanadi. Hikoyada mumtoz adabiyotdagi sarchashmalar tayanch va g'oyaviy manba vazifasini o'tagan. Hikoyaning umumiy manzarasini uloq voqeasi tashkil qilsa, shu o'yinni ko'rish va ishtirok etish istagida yurgan Turg'un obrazi vositasida muayyan g'oyani ifoda qiluvchi mazmunni topa olgani, aniq uslubda tasvirlay olgani bilan xarakterlanadi. Abdulla Qodiriy yangi hikoyachi-qahramon tipining vujudga kelishida epik tasvirning mumtoz nasrga xos belgilarini saqlagani uchun asar personajlari yorqin timsol darajasiga ko'tarildi. Muallif Xoja hikoyalaridagi ifoda uslubini takrorlash yo'lidan bormagan. Qodiriy o'z dunyoqarashi, ijtimoiy-ma'naviy, falsafiy qarashlariga mos bo'lib tushadigan lavhalar bilan an'anaviy voqealar tizmasini to'ldiradi. Natijada axloqiy-ta'limiy o'gitlar voqealar mag'ziga singdirilib, hayotiy-dunyoviy mohiyat kasb etadi. Hikoya hajman kichik bo'lsa-da, undagi qahramonlar soni ko'pday tuyuladi. "Uloqda" hikoyasi Qodiriyning ilk asarlaridan biri bo'lishiga qaramay, tasvirning qisqa va to'liqligi, mumtoz hikoyatlardagi kabi voqeani tafsilotlari bilan berishga urungani, qahramon ichki qiyofasini asarning asos - mohiyati sifatida ko'rsata bilgani bilan xarakterlidir. Hikoya bosh voqeasi tasviriga e'tibor qarataylik: "Endi uloq boshlandi. Birisi oladir, ikkinchi birisi tortadir... Ikkinchisining yonig'a uchunchi, to'rtunchisi tushib, birdan hamma uloqchilar o'rtaqa olub tortishadirlar... Har kim o'ziga olish harakatida... Biri uloqning dumidan tutsa, ikkinchi, uchunchilar oyog'idan, yolidan tortadirlar" [2.32]. Ayni manzara kitobxon ko'z o'ngida aniq jonlantirilgan ekan, u qahramon nigohi orqali berilgani bilan ham xarakterlidir. Muallif manzara tasviriga yosh Turg'unning qarashlarini ustalik bilan singdirib yuborganki, kitobxon bosh qahramon faqat voqea bayonchisi emas, balki hodisotlarni o'zicha tahlil qilib borgan analitik personaj darajasida harakat qiladi.

Voqealar yigitchaning uloqqa tayyorgarlikdagi quvonchi, "Turg'un chavandoz" unvoniga sazovor bo'lishi haqidagi shirin xayollari, qiziq tomoshani ko'rishdagi hayajoni bilan boshlanadi. Uloqning boshlanishi, unga hakamlik qilgan Orif sarkorning fotihasidan keyin boshlangan chek-chegarasiz qiyqiriqlar, "ota bolani, aka ukani tanimaydigan chang-to'zon" avjiga minishi, "boshi yorilib ko'zi chiqqan bilan, otdan yiqilib, qo'l singan bilan" hech kimning ishi bo'lmagan paytda, hech qanday kuch bu baqiriq-qiyqiriqni to'xtatishi mumkin bo'lmagan qizg'in pallada "birdan uloqchilar suv quygandek tinchib" qolishi, uloqchilardan biri Esonboyni besh-olti ot bosib ketgani va ertasiga Turg'un ertalab uyqudan uyg'onganda eshitgan birinchi gap otasini "Esonboyni janozasiga" borganligi kabi voqealarni tasvirlashda yozuvchi shunday bir manzara yaratadiki, bu manzarada xalq hayoti o'z fojialari, tashvishlari va muammolari bilan gavdalanadi. Abdulla Qodiriyning kichik epik asarlarini kuzatar ekanmiz, uning "Uloqda" hikoyasi misolida mumtoz adabiyot daholarining asarlaridan oziqlanganini, yozma adabiyot an'alaridan xabardorligini va ana shu an'analarning ijodiy hosilasi sifatida o'ziga xos ijod namunalari yarata olish salohiyatiga ega bo'layotganini ko'rsatadi. Qodiriy hikoya janriga qo'l urar ekan, mumtoz nasrning bu turidagi epik bayon va epik timsol yaratishda salaflarning adabiy an'alaridan foydalanish zaruratini his qiladi. Epik an'analarni o'rganish va o'zlashtirish jarayoni quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Yozuvchi turli mazmundagi voqealarni bayon etar ekan, ulardan axloqiy-ma'naviy xulosalar chiqaradi. Ya'ni "Uloqda" hikoyasidagi asosiy voqea – kichik qishloq xududidagi an'anaviy uloqchilik o'yini. Hikoyaning umumiy manzarasini uloq voqeasi tashkil qilsa, shu o'yinni ko'rish va ishtirok etish istagida yurgan Turg'un hikoyaning bosh qahramoni

darajasiga ko‘tariladi. Insonning botinida yashab, zohirida faoliyat ko‘rsatuvchi or-nomus, hayo, istihola tuyg‘ularini timsollar qatlamiga singdiradi.

2. Mumtoz adabiyot namunalari, xususan, Xoja hikoyalarida epik tasvir qariyb bir xil, ya’ni didaktik ohang va ritmda davom etsa, Qodiriy hikoyalarida bu xolat turli ranglarda o‘z ifodasini topadi, ya’ni voqealar jarayoniga mos holda tasvir usuli tanlanadi. Hikoya bolaning beg‘ubor quvonchi bilan boshlanib, falokat bilan yakun topdi. Voqea boshlanmasidagi to‘s-to‘polon xalqqa yuqori kayfiyat baxsh etgan edi, g‘ayri-tabiiy sukunat va jimlik unga yakun yasadi. To‘polon ko‘tarish va tinchib qolish, quvonch va kulfat kabi juft hodisalar asardagi epik tasvir jarayonida aniq qirralar kasb etib bordi, tasvirning bunday usuli epik tasvirga o‘ziga xos yangi to‘lqin bergan.

3. Qodiriy hikoyalari shakl va bayon uslubi jihatidan mumtoz hikoyatlarga o‘xshamasa ham muayyan g‘oyani ifoda qiluvchi mazmuni topa olgani, uni o‘ziga xos uslubda aniq tasvirlay olishi bilan xarakterlanadi. Hikoyada epik tasvirning muhim belgilari saqlangani tufayli asar personajlari yorqin timsol darajasiga ko‘tariladi va realistik mohiyat kasb etadi.

Mumtoz adabiyotda ma’rifat, ilm qudrati va uning jaholatni engishi asrlar davomida qudratli kuch bo‘lib talqin qilingan. Ma’rifatga egalik qilish xoh podshoh yoki gado bo‘lsin, “Qutadg‘u bilig” asaridan tortib jadid adabiyotiga qadar asosiy mavzu sanalgan. SHu ma’noda jadid adabiyotining darg‘alaridan bo‘lgan Abdulhamid Cho‘lpon hikoyalarida ham jaholat va ma’rifat zidligi, ma’rifatni jaholatdan ustun qo‘yilishi va kishini saodatga eltuvchi vosita ekanligi ta’kidlanadi. “Qurboni jaholat” (1914), “Doktor Muhammadiyor” (1914) kabi hikoyalar bilan adib ma’rifat uchun asosiy kurashchi sifatida tanildi. Bu hikoyalarda tasvir jihati, tarzi bayon, voqealar ketma-ketligi jihatidan mumtoz nasrga sodiq holda rivojlantirilmagan bo‘lsa ham, azaliy mavzuga munosabat, uni yangicha turmush sharoiti bilan bog‘lab talqin qilish, hikoyaning yakuni orqali ma’rifatning jaholat ustidan g‘alabasini ta’min etish Cho‘lpon hikoyalarining asosiy poetik jihatlarini belgilaydi va realistik tasvir, didaktik xulosa bilan sintezlashadi.

D.Quronov: “Cho‘lpon o‘z asari uchun (“Qurboni jaholat” nazarda tutilgan – T.M.) “hayotiy” material tanlaganida ham, uni tasvirlaganida ham g‘oyaviy-ma’rifiy maqsaddan kelib chiqadi. Natijada hikoyada realizmning ibtidoiy belgilari bilan didaktiklik qo‘shilib ketadi... “Qurboni jaholat”ni shartli ravishda “didaktik realizm” namunasi deyishimiz mumkin bo‘ladi” [3.24]. Haqiqatan ham Cho‘lpon mazkur hikoyasining kompozitsion qurilishi jihatidan ma’rifatchilik adabiyoti bilan mushtaraklik jihati bo‘lishi mumkin, ammo asarning mumtoz adabiy an’ana bilan bog‘liq xususiyatlari talaygina. Avvalo, asarda mumtoz hikoyatlardagi tavoze’lik, xushmuomalalik, mehmonnavozlik kabi yaxshi fazilatlar qarshisida tuhmat, behuda shubha, notavonliq, tarbiyasizlik singari yomon xislatlar doimiy ziddiyat sifatida turganini qayd etish lozim. Asardagi Eshmurod o‘z xonadoniga tashrif buyurgan Mo‘minjonni tavoze’lik bilan kutib oladi, uni mehmonxonaga olib kiradi. Va darhol xizmatchiga non-choy olib kelishini buyuradi. Bu uning asarda ko‘ringan birinchi mehmondo‘stlik fazilati. Ikkinchi fazilati shuki, ishonuvchanligi uchun o‘zi guvohi bo‘lmagan narsadan shubhalanmaydi, uchinchidan, ilmsizlikni “hayvon”iy bir jihat deb biladi. Kichik hikoyada oiladagi ota-bola munosabati haqida keng tasavvur olish mumkin. Ota farzandiga nisbatan qattiqqo‘l. O‘g‘il ilmga muhabbatli, ota esa mutlaqo savodsiz. Ota o‘g‘lini gazeta mutoala qilgani uchun uni “ahmoq” deb haqorat qiladi va gazetadan ko‘ra “Jangnomai Ahmad Zamjiy”ni o‘qib berishni talab qiladi. Bu narsa o‘g‘liga yoqmasa-da, otaning gapini ikki qilolmaydi, qolaversa, mehmon oldida (Nazarali so‘fi) farzandlik odobini

ham yaxshi saqlay biladi. Hatto, otasi uni nohaq o'g'rilikda ayblab, kaltaklaganda ham hech bir qarshilik ko'rsatmaydi. Ammo uning qalbi doim "odati qabihalar"dan aziyat chekadi. Bu o'rinda yozuvchi milliy xarakter yaratish orqali asar qahramonining ruhiyatini ochib beradi.

Cho'lpon hikoyalarning g'oyaviy olamiga davr uchun eng muhim masala – ma'rifatparvarlik singdirilgan. "Doktor Muhammadiyor" hikoyasida ham "adib ruhiyatidagi ayni shu holat (islohi qay yo'sinda amalga oshirish) Muhammadiyorning o'ylarida o'z aksini topgan. Shu bois ham Muhammadiyor "xalq o'z foydasini anglasa" deya surgan xayollarining-da amalga oshishiga ishonolmaydi" [3.29].

Cho'lpon hikoyalari roviy-hikoyachi qahramon tilidan bayon qilinadi. Mumtoz hikoyatlardagi rivoyaviylikni uning xarakterli belgilaridan biri deb bilsak, Cho'lpon hikoyachilarida ham epik tasvirdagi ifoda yo'sini o'zgarib, muallif hikoya qilish bilan birga voqealarning sinchkov kuzatuvchisi va unga munosabatini yashirmagan roviy sifatida bo'y ko'rsata boshlaganini kuzatamiz. "Do'xtur Muhammadiyor" hikoyasida: "Turkistonning qorong'u bir go'shasinda... nomlik bir uezdni(y) shaharda Hoji Ahmad ismli 60 yashar bir kambag'algina sartarosh hoji bor edi. Aning xotuni chaxo'tka (sil) kasaliga muhtalo bo'lib, to'quz oy qadar xastalik to'shagida yotgandan so'ngra vafot bo'lg'an edi. Ul xotundan Muhammadiyor isminda bir o'g'ul tug'ilgan edi" [1.279]. Bu o'rinda muallif kambag'algina sartaroshning "hoji" maqomini olish sabablari bilan ham o'quvchini tanishtirib ulguradi: "Aning hojiligining bosh sababi 15 yashar ekan vaqtida otasi ila hajga borgan edi. Otasi hajdan vafot topkandan so'ngra yolg'uz o'zi Misr, Istanbul, Marokash, Balujiston, Bag'dod, Eron va Afg'oniston taraflarni va ichki Rusiyani o'n yil qadar sayohat qilib qaytgan edi" [1.279]. Bu o'rinda roviy voqealarning sharhlovchisi bo'lib asarda "ishtirok" etadi. Asarga qahramon kirib keldi, endi roviyning nigohi uning harakatlariga qaratiladi. "Do'xtur Muhammadiyor" xayoliy hikoya bo'lganligi uchun ham voqealar juda tez, kutilmaganda shiddat bilan sodir bo'ladi, bu holat roviy-muallif tomonidan izohlanib boriladi. Natijada mumtoz roviylikdan asos ola boshlagan hikoya voqealar rivoji davomida yangi sifat kasb etadi. Ayni shu holat jadid nosirlari ijodiga xos bo'lib, ular passiv roviy yoki kuzatuvchigina emas, balki asar tarkibida baholovchi-sharhlovchi vazifasini o'tashi bilan xarakterlanadi va shu jihatdan Evropa nasriga yaqinlashayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cho'lpon. Asarlar. IV jildlik. II jild. / Nashrga tayyorl. va izohlar muallifi D.Quronov. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – B.279.
2. Qodiriy A. To'la asarlar to'plami. – B.32.
3. Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. – Toshkent: "Sharq" NMAK, 2004. – B.24.

I-SHUBA. JADID ADABIYOTINING ASOSIY GO`YAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI.

O`ZBEK ROMANCHILIGINING SHAKLLANISHIDA JADID ADIBLARINING O`RNI

**Rahimov Zokir Azimovich,
FarDU dotsenti**

XX asr boshlaridagi hayotiy o`zgarishlar inson tafakkurining yuksalishiga, davrning turfa xil xususiyatlarining vujudga kelishiga asos bo`lgan. Turfa xil janrlarning taraqqiyoti ham aynan shu davrga uzviy bog`lanadi. O`zbek nasri badiiyatida roman janridagi asarlarning maydonga kelishi va taraqqiy etishida davr ma`rifiy qarashlarining beqiyos katta o`rni mavjudligini alohida qayd etish lozim. SHu jihatdan Hamza, Mirmuhsin kabi ijodkorlar roman atamasini qo`llagan bo`lsa-da, haqiqiy mukammal roman janriga Abdulla Qodiriy asos soldi.

Jahon adabiyotida, qolaversa, o`zbek adabiyotida roman janri, uning vujudga kelishi haqida turli adabiy-tanqidiy qarashlar vujudga kelganligini ko`ramiz [1,2]. Roman nazariyasi va roman janrining tarixi muammosi haqida ham nazariy tushunchalar ilgari surildi [1,2,3,4]. Keyingi yillarda esa roman janrining badiiy-estetik xususiyatlari ya`ni, roman poetikasi haqida ham ko`plab tadqiqotlar yaratildi [5,6,7].

Roman janri har bir xalq adabiyotining o`ziga xos jihatlarini namoyon etuvchi janr sifatida baholanmoqda. Chunki roman voqelikning butun kengligi va o`ta murakkab tomonlarini ham o`zida mujassamlashtiruvchi janr sifatida ijtimoiy jamiyatning mohiyatini to`liqroq ochishga, insonning o`zligini anglash, ruhiy iztiroblari, inson va jamiyat, jamiyat va inson o`rtasidagi uzviy bog`liqlikni badiiy tadqiq etuvchi asardir. “Badiiy asar sifatida romanning vazifasi kundalik hayotdan va tarixiy voqealardan barcha tasodifiy narsani olib tashlash, ularning yashirin qalbiga, jonli ideyasiga kirish, tashqi, tarqoq voqealarni ruh va aql maskani qilishdir. Roman badiyiligining darajasi asosiy ideyaning chuqurligiga va ayrim xususiyatlardan u ideyani tashkil etgan kuchga bog`liqdir”, - deb ta`riflaydi rus adabiy tanqidchisi V.G.Belinskiy [8, 176-bet].

Darhaqiqat, roman janri voqelikni bir butunligicha badiiy tahlil etib, insonga ijtimoiy munosabatlar qonuniyatini, tarixiy o`zgarishlarni inson ruhiyati orqali namoyon etuvchi xususiyatini teran tahlil etishga qaratilgan. SHuning uchun ham V.Belinskiy “Roman uchun hayot odamdadir, inson qalbining, inson ruhining mistikasi, inson taqdiri, xalq hayotiga uning hamma munosabatlari roman uchun boy materialdir”, deya qayd qilsa, M.Baxtin esa “Roman boshidan zamonni his etish zamonida shakllandi va rivojlandi”, - deb ko`rsatadi. Shuningdek, P.Zarev “Romanning birinchi va asosiy vazifasi – jamiyatni tadqiq etish va anglashdir”, - deb yozadi. Haqiqatan ham, roman jamiyatni uning asosiy tayanchi bo`lgan inson va uning xarakteri orqali namoyon etuvchi vositadir. “O`zbek, qirg`iz, turkman romani o`zbek, qirg`iz, turkman kitobxonlari tomonidan milliy roman tarzida, yangi milliy shakldagi xalq tafakkurining, xalq ongining ifodasi tarzida, yaratuvchilik ijodiy qobiliyatining, o`z badiiy so`zlarning taraqqiyoti tarzida qabul etildi”, - deb qayd qilgan Muxtor Avezov.

Romanga xos tafakkur haqida so`z yuritgan adabiyotshunos S.Mamajonov shunday yozadi: “Eng avvalo hayotni, voqelikni bir butunligicha, yaxlitligicha – butun ziddiyatlari ... insonning ruhiy izlanishlarini teran tahlil qilishda, yozuvchining hayotga, voqelikka va

insonga yangicha qarashi, uning o'z konsepsiyasiga ega bo'lishi, g'oyaviy pozitsiyasining aniq va mustahkamligida ko'rinadi".

Shu ma'noda, so'z san'atining rivojida roman muhim o'rin tutganligini ko'rish mumkin. Chunki roman boshqa janrlardan voqelikni keng qamrovda badiiy obrazlar vositasida ifodalashi bilan ajralib turuvchi janrdir. O'tgan davrda roman o'z mohiyati va yo'nalishiga ko'ra yildan-yilga rivojlanib, hayotni va inson ruhiyatini chuqur, har tomonlama badiiy tasvirlayotgani bilan ham o'z janriy xususiyatlarini namoyon qildi.

Jahon romanchilik taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, har qanday janr o'zining ma'lum bir xususiyatlari bilan xalq og'zaki ijodiga chambarchas bog'liq holda bo'lgan. Shuningdek, o'zbek romanchiligi ham ma'lum darajada ana shu xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan. To'g'ri, milliy roman janrining vujudga kelishida xalq og'zaki ijodi an'alari ta'sirini alohida qayd qilib o'tish zarur. Bu xususiyat jahon adabiyotidagi roman janrining tarixida ham mavjudligini M.Baxtin: "Unda borliqni falsafiy bilish imkoni to'la shakllanganligi"da deb ko'rsatadi.

Milliy romanchilikning tug'ilishiga nazar qilinsa, uning milliy adabiy zamin bilan birga, ichki imkoniyatlar asosida rivojlanib borganligini ko'ramiz. To'g'ri, biz jahon romanchiligini o'zbek romanchiligining vujudga kelishida ta'siri yo'q, degan fikrdan yiroqmiz. Ammo roman janrining tug'ilishida folklor an'analari ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatganligini alohida ta'kidlamochimiz.

A.Qodiriy boshlab bergan va Cho'lpon davom ettirgan, A.Qahhor, Oybek, A.Muxtor, O.Yoqubov, P.Qodirov kabi adiblar izchilik bilan yuksak darajaga ko'tarishga intilgan janr taraqqiyoti yigirmanchi asrning 80-yillaridan so'ng o'ziga xos talqinlarni namoyon qilgan.

Bir asrlik tarixga ega bo'lgan o'zbek romanchiligi u yoki bu darajada taraqqiy etib keldi. Buning zamirida jahon romanchilik an'alarining ta'siri sezilarli darajada keyingi yillarda o'z ifodasini topganligini ham alohida qayd etish lozim.

XX asr adog'iga kelib, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar madaniy hayotimizga jahon xalqlari sivilizatsiyasi ta'sirida yangicha o'zgarishlar oqimining kirib kelishi sezilarli darajada kuchayib bordi. Bu xususiyat milliy tariximizga bo'lgan tahliliy kuzatishlarda tub o'zgarishlarning shakllanishi, xalqimiz ilmi va madaniyatini dunyoviy mezonlarda o'lchash, hamda haqqoniy borlig'icha ko'rsatib berish bilan bog'liqlikda tahlilga tortildi. Bu jarayonda nafaqat tarix fani, balki tarixiy voqelikni aks ettiruvchi tarixiy romanlarning taraqqiyotida sezilarli badiiy-poetik o'zgarishlarni vujudga keltiruvchi xarakterlarni chuqur tahlil qilish, tasvirda yangilikka intilish natijasida adib asarlari polifonik xususiyat kasb eta boshladi.

Darhaqiqat, "Ko'hna dunyo" romanidagi polifonik tasvir xususiyati keyinchalik o'zbek romanchiligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatganligini alohida qayd etish mumkin. Chunki ma'lum bir davrda o'zbek romanlarining asosiy qismi faqat g'oyaviy nuqtai nazardan tahlil qilinardi. Ammo 80-yillarga kelib, jahon va rus adabiyotshunosligidagi yangicha estetik talqin va tahlillarning ta'siri kuchayganligini ko'rish mumkin.

Fan-texnika taraqqiyoti inson tafakkurini ham keskin o'zgarishiga olib kelmoqda. Badiiy adabiyotda qahramon ma'naviy olamidagi kechinmalar, ziddiyatlarning mahsuli bo'lgan, sabab, oqibat va natijalarini anglashga intiluvchi, undan o'ziga xos muayyan saboqlar chiqarib olish maqsadida o'z ifodasini topmoqda. Keyingi yillar romanchiligida inson ruhiyatidagi ichki zaddiyatlarini talqin etish, murakkab xarakter egasi bo'lgan shaxsning ichki dunyosiga chuqurroq kirib borish, uni teranroq anglashni talab etmoqda.

Adabiyotshunos A.Rahimov qayd etganidek: «Hozirgi roman taraqqiyotining asosiy tendentsiyasi borliq hayotni keng ko'lamda tasvirlovchi panorama-romanlardan hayotni shaxs

tafakkuri prizmasidan o‘tkazib tasvirlovchi intellektual romanlarga, voqeaband romanlardan voqealarni o‘y-xayollar, tasavvurlar oqimi orqali beruvchi mulohaza-romanlarga intensiv ravishda o‘tish bilan xarakterlanadi» [9, 60-bet].

Darhaqiqat, roman insonning o‘ziga xos jihatlarini yoritishda yangi-yangi usullarni kashf etmoqda. Insonning ijtimoiy muhitga ta’siri, bunday muhitda xarakterning shakllanishi, o‘ziga xos makon va zamonda harakat etilishi, jamiyat va shaxsning birligi ham yanada asosliroq talqinlarni shakllantirdi. Shuning uchun ham har bir ma’lum davrning badiiy ijod jarayonidagi kompozitsion talablari, mezon va imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Yu.I.Pimenov qayd etganidek: “san’at tarixini kompozitsiya tarixi sifatida yozish mumkin, chunki birinchi galda faqat kompozitsiyagina ijodkorning g‘oyasini, tuyg‘usini o‘z tarovati hamda iliqligida ifodalay oladi” [10, 186-bet].

Shu bilan birga, makon, zamon (xronotop), voqea, syujet va hattoki asar arxitektonikasidagi badiiy unsurlar ham muayyan o‘zgarishlarga uchraganligini qayd etish lozim. Agar O.Yoqubovning «Ko‘hna dunyo» romanidagi poetik xususiyatlarga nazar tashlasak, syujet tuzilishining o‘ziga xosligi, konfliktning xilma-xil ko‘rinishi, syujetda afsonaviy unsurlarning qahramon xarakteri va ruhiyatini yoritish uchun xizmat qilganligi ijtimoiy hayotning ma’lum bir qirrasini yoritishga asos bo‘lgan. Yoki “Ulug‘bek xazinası” romanida tarixiy zamon fonida, badiiy zamon o‘z ifodasini topdi. Bu esa ijtimoiy hayot ziddiyatlarini qahramon ruhiy kechinmalaridagi iztirob va ziddiyatlarning teranroq talqinini vujudga keltirdi. Tarixiy zamonning so‘z san’atida tasvirlanishi, o‘z zamonasining o‘ziga xos belgilariga ega adabiy qahramonlar hayotidagi rolini yanada kuchaytirdi. Aynan shu jihatni roman qahramonlari Ulug‘bek Mirzo, Ali Qushchi kabi obrazlar tizimi misolida isbotlash mumkin.

Adabiyotshunos A.Nasirov qayd qilganidek: “Asarda tafsilotlar hajmi hamda izchil aloqadorligi voqelikni badiiy tadqiq etish miqyosi va adib fitratida tiklanadigan nazariy konsepsiyalarni ilgari suradi”[11, 121-bet]. Qayd qilingan tushunchalarga nazar tashlasak, badiiylik funksiyasiga ko‘ra, hayotiy voqelik zamirida, tarixiy ziddiyatlar fonida davrning dahshatli fojialari bilan bir qatorda, Mirzo Ulug‘bek iztiroblari yoritilganligini kuzatamiz. “Ulug‘bek xazinası” romanidagi voqelik makon va zamonning eng xarakterli jihatlarini tarixiy voqelikka singdiradi. Ijodkor fitratidagi talqinlarda Mirzo Ulug‘bek qalbidagi iztiroblarni, uning tarix sahnasidagi murakkab sharoitni tarix haqiqati asosida rivojlantirib boradiki, bu esa qayd qilingan qarashlarda asoslar mavjudligini namoyon qiladi.

Keyingi yillar o‘zbek romanchiligida romaniy tafakkur nuqtai nazaridan polifonik tasvir, falsafiy mushohadakorlik, o‘zlikni anglash, psixologik tasvir kabi usullar yanada yorqinroq shaklda namoyon bo‘lmoqda.

M.M.Do‘stning «Lolazor», Sh.Bo‘taevning «Qo‘rg‘onlangan oy», Omon Muxtorning «Ko‘zgu oldidagi odam», X.Do‘stmuhammadning «Bozor», U.Hamdanning «Muvozanat» kabi romanlari misolida yuqoridagi fikrlarni asoslash mumkin. SHuning uchun rus adabiyotshunosi M.M.Baxtin polifoniya poetikasi haqida so‘z yuritib: “Mustaqil tutashmagan onglar, ovozlar ko‘pligi hamda chinakkam ma’noda birdaniga jaranglovchi ko‘p ovozlilik, ko‘p qatlamlilikda” [12, 4-bet] aks etishini ilgari suradi.

Xullas, yangilanib borayotgan o‘zbek romani obrazlar tizimi, syujet va kompozitsiyaning o‘ziga xosligi, jahon adabiyotining estetik talqinlarini ham mujassamlashtirib bormoqda. Ayniqsa, realistik roman an’analarining rivojlanishi bilan bir qatorda, modernistik uslubiy izlanishlar mahsuli bo‘lgan romanlar yaratilmoqda. Keyingi yillar romanchiligidagi taraqqiyot yangi tamoyillarni estetik hodisaga aylantirmoqda.

Adabiyotlar:

1. Motleva T. Zarubejnyy roman segodnya. –Moskva, “Sov. pisatel”, 1965. – 280str.
2. Evnina E.M. Sovremey fransuzskiy roman. –Moskva, 1962. – 246 str.
3. Dneprov V. Chert romana XX veka, - M.-L.: “Sov..pisatel”, 1965. – 318 str.
4. Mirvaliev S. O‘zbek romani. –Toshkent, “Fan”, 1969. –
5. Qayumov L. O‘zbek prozasining yarim asri. – Toshkent, 1967. –196 bet.
6. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T.: «O‘qituvchi» 1986. –408 bet.
7. Umurov H. Adabiyot nazariyasi.– T.: «SHarq», 2002. – 256 bet. –313 bet.
8. Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar. – T.: 1955, 176-bet. – 420 bet
9. Rahimov A. Roman san’ati. – Farg‘ona, FarDU nashri, 2001, – 96 bet.
10. Pimenov YU.I. Neobyknovennost obyknovennogo. – Moskva, 1964. – 298 str.
11. Nasirov A. Odil YOqubov romanlari poetikasi. – Toshkent, “Fan”, 2012. – 160 bet.

FIKR VA TAFAKKUR UYG‘UNLIGI

Matyoqubova Tozagul Rajapovna

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Taajjub...

XX asr o‘zbek shoiri G‘.G‘ulom ijodiy merosini sinchiklab kuzatgan sari kishining hayrati orta boradi. Jumladan, 1933 yilda g‘ijduvonlik ilg‘or terimchi Xayribibi Tursun qizi haqida bitilgan “Umrin hali kifoya qiladi” nomli ocherk qahramoni o‘z qalbini ocharkan, shunday deydi: *“Men ancha qaridim. Er seni yutaman deb, quvlaganday bo‘ladi, daryolar pishqirib komiga sudrayotganday tuyuladi, o‘rmonlar haybati bilan ozg‘in gavdamni hazm qilishga jazm qilganday seziladi, biroq bunga men berilmayman”* [11.72]. O‘ttiz yashar yigit qalami bilan bitilgan bu satrlar chindan-da kishini taajjubga soladi. Zotan, zamin zalvori, daryolar pishqirig‘i va o‘rmonlar haybatini teran his qilish – muazzam borliqning haybati qarshisida o‘zlikni jisman behad ojiz sezish, ayni paytda, zinhor ruhan umidsizlanmaslik his-tuyg‘ulari muallif kayfiyat-holatiga, uning teran botiniy e‘tiqod-maslagiga ham vobastadir.

Qarilik – o‘qsiz kamon

G‘.G‘ulom 1966 yil 22 iyunda [vafotidan 18 yoki 19 kun oldin T.M.] “Toshkent oqshomi” mavzuida maqola yozgan. Mazkur maqola shu nomli gazetaning 1 iyul sonida chop etilgan. Biz unda shunday fikrlarni o‘qiyimiz:

*Bevafo umr ekan, o‘tdi-yu, ketdi,
Suvda qalqib borgan qizil olmaday,
Tong o‘tdi, kun o‘tdi, oqshom ham etdi,
Shu fursat mazmunin shimay holvoday.* [8. 418]

Ko‘rinadiki, shoir XX asrning o‘ttizinchi yillardan to umrining so‘nggi kunlarigacha borliq haybatidan kuchli hayrat tuygan. U inson umrini obrazli tarzda suvda qalqib borayotgan qizil olmaga mengzagan. Olma pishqirgan suvning shiddati qarshisida nechog‘lik ilojsiz bo‘lsa, inson ham qismat changalida shunchalik ojiz yaratiq ekaniga imon keltirgan. Shu bois, inson o‘tkinchi umrini tong, kun va shom tarzida tasnif etgan. Albatta, shoir hayratining miqyoslari uning yoshi o‘tgan, sog‘ligi yomonlashgan sari ancha kuchayib borgan. Zotan, dono xalqimiz *“Hammadan qarilik yomon, qarilik – o‘qsiz kamon”*, forslar

“*Mo‘ysafidi – hazor illat*”(Qarilik – ming illat), ruslar “*Starost – ne radost*” (*Qarilik – quvonadigan yosh emas*) qabilidagi maqollarni bejiz to‘qishmagan. Hatto hazrat Navoiy ham shunday mahzun misralarni bitgan edi:

*Soqol oqi o‘limga peshravdir,
Tiriklik sabzasi uzra qiravdir, –*

Anglashiladiki, ijod ahli qaysi zamon va makonda umrguzaronlik qilmasin, bevafo dunyoga etak siltab ketishidan zarracha nadomat chekmagan. Binobarin, G‘.G‘ulom hayot setorini chertib behad charchagan, o‘z umri poyoniga etganini teran anglagan. Shu bois, ruhining abadiy orom olishni istagan. SHubhasiz, bunday to‘xtamga kelishga uning real asoslari ham bor edi.

Dardning zo‘rayishi

1949 yilda G‘afur G‘ulomni Yozuvchilar uyushmasi Prezidiumi a‘zosi sifatida “yoshlar bilan faol ish olib bormaslik”da ayblashadi. O‘z “ayb”lariga iqror bo‘lish va “istig‘for aytish” uchun so‘z olgan G‘.G‘ulom barcha kamchiliklarini bartaraf etish, gunohlarini yuvishga so‘z berarkan: “*1947-1948 yillarda bo‘lgan dardim kuchayib ketishi, bu rasvo dard meni hamma oldida rasvo qildi*”, deya ko‘nglini ochadi. Ijtimoiy-mafkuraviy zug‘um iskanjasida qolgan ulug‘ shoir alohida inson shaxsiy dard-o‘rtanishlari bilan zinhor hisoblashmaydigan adabiy-siyosiy kuch qarshisida mislsiz iztirob chekkaniga shubha yo‘q. Aynan shu ilojsizlik sababli G‘.G‘ulom o‘z tengdoshlarini sho‘raviylarning bunyodkorlik qurilishlari haqida va ommaviy tadbirlarda kuylashga mos qo‘shiqlar yaratishga da‘vat etadi. Benihoya qaltis vaziyat bo‘lishiga qaramay, uning g‘afurona donishmandligi ish beradi. Notiq yaratilajak qo‘shiqlarni qadimturkiy vazn va ohanglarda, sodda va ravon uslubda kuylanadigan tarzda bitish lozimligini ta‘kidlab, o‘z adabiy-estetik konsepsiyasini izchil himoya qilishga erishadi. Bu bilan cheklanmay, turkiy aruz vazni sirlari to‘g‘risida maqola va risolalar yozish lozimligi xususida so‘zlarkan, o‘sha davr adabiyotshunoslarining muayyan ilmiy yo‘nalishlarini ham belgilab beradi.

G‘.G‘ulom 1950 yilning 5 avgustida Kislovodskdagi “O‘zbekiston” sanatoriyasidan rafiqasiga yo‘llagan maktubida: “*Toshkent professorlari hamisha vahima qilib meni qo‘rqitgan kasallarim, bu erdagi doktorlarning so‘zicha hech gap emas ekan*”, degan satrlar bitilgan. Bizningcha, o‘sha paytda shoirning salomatligi chindan-da birmuncha o‘nglangan. Yoki odatdagidek, Toshkentda qolgan farzandlarini (o‘g‘li Mirzo Ulug‘ hamrohi edi) juda-juda sog‘ingan G‘.G‘ulom bir jihatdan, ayolining ko‘nglini tinchitishni, qolaversa, imkon qadar tezroq uyga qaytishni ham mo‘ljallagan. Yana shunisi ham ayonki, Toshkent professorlari shoirda bir necha kasallikning alomatlarini aniqlashgan va astoydil davolanishni maslahat berishgan. Chamasi, Kislovodskdan qaytgach ham, G‘.G‘ulom o‘zini xastahol sezgan va Toshkentda jiddiy davolanishga ro‘yxushlik bermagan. Zotan, 1950 yilning 29 dekabr san‘asida N.S.Tixonov nomiga bitilgan maktubda: “*Pokistonga ketaringizda kasal bo‘lib, yo‘liqa olmadim*”, deya astoydil uzrhohlik bildirilgan.

Xalq dardining zalvari...

1966 yil 26 aprel kuni soat 5 dan 22 minut o‘tganda Toshkentda yuz bergan 8 ballik kuchli zilzila natijasida shahar jiddiy shikastlandi. Toshkentliklar dahshatli fojialarni o‘z boshidan kechirishdi. Tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra, ilk kuchli zarbadan so‘ng poytaxt shahar vayron bo‘lgan. Keyingi silkinishlarning soni 500 (qaytalab turishlari bilan 2000) dan ortgan. Ulardan bir nechtasining kuchi 7 ballga yaqinlashgan. Ayniqsa, o‘sha yilning 7, 9, 24 may, 4

iyun, 29 iyul kunlari sodir bo'lgan tebranishlar turar joy va ma'muriy binolar, savdo va umumiy ovqatlanish maskanlari, xo'jalik korxonalarini, o'quv yurtlari, madaniy-maishiy muassasalar, sanoat korxonalariga jiddiy zarar etkazgan. Halok bo'lgan va shikastlanganlardan tashqari 78 ming oila, 300 ming kishi boshpanasiz qolgan. 1966 yil 7 may kuni O'zbekiston kompartiyasi Markazkomi sobiq birinchi kotibi Usmon YUsupov olamdan o'tgan. U o'zbekistonliklarni urush dahshatlaridan omon olib chiqqan, ular boshiga yog'ilgan bu yangi kulfat zalvarini qalbiga sig'dira olmagan ulkan qoyalardan biri edi.

Toshkent zilzilasidan keyingi mashaqqatli kunlarda A.Qahhorning "Toshkent jamoli", M.Shayxzodaning "Javobgarlik" singari publitsistik maqolalari yuzaga keldi. Ular xalq dardiga sherik bo'lish, elning ko'nglini ko'tarish va ruhiy madadkor bo'lish ruhi bilan sug'orilgan edi. G'.G'ulom ham o'zining "Vatandoshlarimga tasalli" [9.412] nomli maqolasida Er yadrosidagi beqarorlik sabablarini fizik, geologik va seysmologik qonuniyatlar asosida ilmiy asoslagan. Insoniyat tarixida er yuzida sodir bo'lgan shiddatli zilzilalar va ularning oqibatlari haqida keltirilgan aniq ma'lumotlar, xususan eramizning 79-yilida Vezuvey yonar tog'i harakatga kelishi qadimiy Pompeya (Neapol yaqinida) shahri ahli boshiga yog'dirgan dahshatli fojialar, 1023 yili Tokio, 1556 yili Xitoy, 1868 yili Toshkent, 1883 yili Yava va Sumatra orollari o'rtasida vujudga kelgan Kraktau vulqoni, 1902 yili Andijon, 1927 yili Namangan, 1948 yili Ashxabodda yuz bergan zamin qalqishlarining ayanchli oqibatlari eslanishi ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Biz maqolada shunday satrlarni o'qiymiz: *"Ikki oydan buyon Toshkentda er qimirlab turibdi. Shunisiga shukurki, borgan sari kuchi ketib, dahshati pasayib, yaxshi kunlar yaqinlashayotganidan dalolatlar berib turibdi. Shoyad..."* [9.415]

Anglashiladiki, G'.G'ulom silkinish dahshati borgan sari susayib, yaxshi kunlar yaqinlashayotgani bilan ikki oydan beri tinchi buzilgan shahar aholisiga tasalli berish, vayronalik va talofatlar endi bo'lmasligiga ishontirishga intilgan. Muhimi, ayni lahzalarda uning qalbida: *"shunisiga shukurki"* tarzidagi shukronalik va *"shoyad"* qabilidagi ilohiy mo'jizaga umidvorlik tuyg'usi ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shoir qalbidagi uzluksiz zilzilalar...

Uzluksiz davom etayotgan va hatto qachon to'xtashi ham noma'lum bo'lgan silkinishlar G'.G'ulomning botinida ulkan zilzila qo'zg'agan, asab torlarini o'ynatib yuborgan. N.Karimov ta'biri bilan aytganda: *"Zilzila uning ko'ziga farzand va nevaralarini tiriklayin yutib yuborajak ajdaho bo'lib ko'ringan edi"*. SHu ma'noda, shoirning ushbu falokat vahimasidan qattiq tashvishga tushib, norasida oila a'zolari uchun panoht izlashi – oilasini olib, ukrain yozuvchilarining Odessadagi Ijod uyiga borishini to'g'ri tushunish lozim. Zotan, o'sha kezlarda G'.G'ulom qalbida cheksiz hadik hukmron bo'lgan.

Ma'lumki, Odessa Qora dengiz shimoliy-g'arbiy sohilida joylashgan bo'lib, Ukrainaning yirik sanoat, madaniyat, ilm-fan markazidir. Qadimiy "Xajibey" turk qal'asi o'rnida qad rostlagan bu shahar atrofi va chekkalarida Arkadiya, Luzanovka singari kurort markazlari joylashgan. G'.G'ulom ukrain xalqini ijtimoiy, diniy-milliy zulmga qarshi ozodlik kurashiga boshlagan, yurtini Polsha hukmronligidan ozod qilishda muhim rol o'ynagan mustaqillik kurashchisi Bogdan Xmelnitskiy (1595-1657) ga bag'ishlab yozgan bir she'rida: *"Uzoqlarni ko'rgan otaxon o'g'il"*, degan ko'ngil ardog'ini ifoda etgan. SHoir zohiran mutlaqo bog'lanmaydiganday tuyulgan XVI-XVII asr tarixidan so'zlay turib:

*Ota-bobolarning etuk idroki,
Farzandlik umriga ming yillik rahbar",* [8. 357]

deb yozgan edi.

G'.G'ulom Odessada ekanida ijtimoiy-adabiy jarayonga faol aralashgan. Jumladan, Abdulla To'qayning 80 yillik yubeleyi munosabati bilan Volga daryosi chap sohilida joylashgan Qozon shahriga ham tashrif buyurgan. O'shanda shoir Petropavlovsk sobori, Qozon universiteti majmuasi bilan bir qatorda, Suyumbeka minorasi, Marjoniy masjidi, Qul SHarif jome masjidini ham ziyorat qilgan.

G'.G'ulom o'zining tatar, rus, ukrain, boshqird, chuvash, udmurt, mordva millatlariga mansub ijodkor do'stlari bilan diydorlashgan. Ular orasida tatar adabiyotining taniqli qalamkashlari F.Karim, A.Alish, A.Kutuy, I.Yuziev, Sh.Galiev, N.Fattoh, G.Muxametshin, Yu.Aminov, S.Shakurov, T.Minulin singari shoir, nosir va dramaturglar bo'lganini taxmin qilish mumkin. Qizg'in suhbatlar asnosida A.To'qayning ilk tarjimoni A.Avloniy nomi ehtirom bilan eslangani, tatar shoiri G'alining "Yusuf va Zulayho" dostoni o'zbek xalq kitobiy dostoni "Yusuf va Zulayxo" ("Qissai Yusuf alayhissalom") bilan qiyoslanganini tasavvur qilsa bo'ladi.

G'.G'ulom 1966 yilning 26 iyun kuni Qozon shahrida so'zlagan nutqida qardosh do'stlarga dastavval zilziladan jafodan chekayotgan Toshkent ahlining salomini etkazgan. O'zbek diyorida tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etayotgan Qozon ahliga tashakkurlarini izhor etgan. Bu bir el va uning ziyolilari nomidan ikkinchi bir xalqqa ko'rsatilgan ehtirom edi. Biroq, notiq tatar xalqiga bo'lgan muhabbatini shu voqea bilangina bog'lamaydi. Odatiga ko'ra, muammoning tarixiy ildizlariga murojaat qiladi:

– *"Biz qadim-qadim zamonlardan bir oila bolalari bo'lib yashab keldik. Xususan, XIX asrning oxirlaridan buyon o'zbek kitoblari sizning Qozonda bosila boshladi. O'zbek xalqiga birinchi marta milliy shrift olib boruvchi ham tatar xalqi bo'ldi. Birinchi yangi zamon muallimlari ham, o'qituvchilari ham bizga tatar xalqi orasidan keldilar. Birinchi alifbe kitoblari yangi zamon tilida Qozonda barpo etildi"* [11.83].

Bizningcha, G'.G'ulom nutqdan keltirilgan yuqoridagi fikrning muhim bir nuqtasiga alohida ahamiyat qaratish kerak. Zotan, notiq Turkistonga Evropa madaniyati qardosh va qondosh xalqlar madaniyati, adabiyoti va san'ati orqali kirib keldi, -degan fikrni ustalik bilan o'tkazishga intilgan. Ayni paytda, G'.G'ulom o'zbek adabiyotining tarixi ming yillar bilan belgilanishini iftihar bilan ta'kidlashni unutmagan. XIX asrgacha Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino singari o'nlab buyuk ajdodlarimiz merosining tatar yozuvchilari ijodiga ta'siri nihoyatda kuchli bo'lganiga e'tibor qaratgan. Abdulla To'qayni Furqat va Muqimiydan keyingi ustoz so'z ustalari qatorida sanagan.

Demak, shoir o'zini xasta sezgani uchun ham uning Qozon safari uzoq davom etmagan. G'.G'ulom yubiley tantanalaridan so'ng yana Odessaga qaytib borgan. Bir jihati farzandlari va nevaralarining ayrimlari Toshkent shahrida ekani, eng asosiysi esa, sog'ligi jiddiy yomonlashayotganini ichki bir tuyg'u bilan sezgani bois, Muharram ayaga sezdirmay Toshkentga oshiqqan.

Xulosa o'rnida

Ko'rinadiki, G'.G'ulom uzoq yillar davomida yurak xastaligidan ozor chekib kelgan. Zilzila vahmi esa, o'sha kasallikni yana xuruj qildirgan. Silkinish boshlangan kundan to uning sohir yuragi urushdan to'xtagan 1966 yil 10 iyulgacha o'tgan 75 kunlik fursatda uzluksiz zilzilalar shoirning qalbida davom etgan. SHubhasiz, uning eng kuchli qasirg'alari va vayronalari ham nuqtadon, donishmand inson fikri hamda ruhini uyg'unlashtira olgan o'sha muhtasham qal'ada edi.

Shoirning o‘zi: “*She’r yozmoqqa farang G‘afur G‘ulom nomim mening*”, deya e’tirof etganidek, undan bizga dillardan o‘chmas ulug‘ nomi va bebaho ijod namunalari meros bo‘lib qoldi. Buni anglamoq uchun haqiqatan ham fikr va tafakkurni yagona nuqtada uyg‘unlashtira olishdan tashqari, behad miqyosli botiniy nigoh ham kerak. Binobarin, G‘.G‘ulom maktublari ham ular yuzaga kelgan davrlar hayoti, shoir ijodi, tarjimai holining ko‘plab noayon qirralariga oydinlik kiritishda qimmatli manba vazifasini o‘taydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yoqubov I., Matyoqubova T. Iste’dod va mahorat. – Toshkent, 2003.
2. Ibragimov R.N. Seysmogenные зоны Среднего Тяньшанья. – Tashkent, 1978
3. Ibrohimov R. Toshkent zilzilasi. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 8 –jild, –T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004
4. Karimov N. Maqsud SHayxzoda. – T.: SHarq NMAK Bosh tahririyati, 2010. – B. 273.
5. Mamajonov S. Uslub jilolari. – Toshkent, 1972
6. Matyoqubova T. G‘afur G‘ulom badiiyati. – T.: Fan va texnologiya, 2004
7. Nazarov B. G‘afur G‘ulom olami. – T.: Fan, 2004
8. G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. 12 tomlik. T.3.. – T.: Fan, 1984
9. G‘afur G‘ulom. MAT, VII tom. – T.: Fan, 1987.
10. G‘afur G‘ulom. MAT. XI tom. – T.: Fan, 1989
11. G‘afur G‘ulom. MAT, XII tom. – T.: Fan, 1990.

MASHRAB IJODIDA MA’NAVIY FIKRLAR

Hoshimxonov Mo‘min, JDPI dotsenti, fil.f.d.

XX asrning 90-yillarida u haqda «qissa»lar e‘lon qilingan bo‘lsa, XXI asr ilk o‘n yilligida uning g‘azaliyoti «Devon» shaklida jamoatchilik hukmiga havola etildi. O‘zbek adabiyoti, Falsafa tarixi va pedagogika tarixi sohasida endi mutafakkir shoir haqida dissertatsiyalar tayyorlanib, tadqiqotlar qilinmoqda, monografiyalar e‘lon qilina boshlandi. Ushbu maqolani ham shunday pedagogika tarixi sohasidagi urinishlardan biri deb hisoblaymiz. Boborahim Mashrab she’riy «Devon»ini nashrga tayyorlagan J.Yusupov kitobning «Kirish»ida kamtarona shunday lutf qilgan: Mashrabning hayot yo‘llari, bizga qoldigan boy adabiy meroslarini tadqiq qilish ishlari, «Mabdai nur» va «Kimyo» kabi asarlarini to‘liq va mukammal holda nashr qilishdek, mas’uliyatli va savobli yumushlarni davom ettirmoqdamiz. Mashrabning qo‘lingizdagi «Devon»lari tarkibiga avvalgi nashrlarga kiritilmay qolgan, komfirqa tuzumi e’tiqodlariga, ya’ni Xudosizlik g‘oyalariga to‘g‘ri kelmaydi, deb hisoblanganligi sababli tushirib qoldirilgan, aslida Mashrab ilmiy merosining qaymog‘i bo‘lgan ko‘plab axloqiy, diniy-tasavvufiy g‘azal, mustazod, murabba’, muxammas, musaddas, musabba’ va musammanlarni kiritdik.²

Mashrabning she’riy merosini asliy ko‘rinishiga yaqinlashtirish uchun uzoq yillardan beri izlanishdamiz. Bu yillar orasida menga madad berib, qo‘llab-quvvatlab, ruhiyatimga osudalik baxsh etib kelgan bobolarim Mullo Jo‘ramurod, Mullo Abduqodir, padari buzrukvorim va murabbiyim, beminnatim Muhammadyusuf Haqberdi o‘g‘illari va validayi

² Ж.Юсупов. Хаққинга бир дуо айлай. Машраб. Девон. Т., «Янги аср авлоди», 2006, 43-бет

muhtaramam Risolat Abdusalom qizlari bu dunyoyi dag'alni tark etib, dorilbaqo sari yuz tutdilar. Ularning har birlari ko'p o'qimishli, mumtoz adabiyotimizni teran tushunib etgan irfon sohiblari edilar.³Xalqimiz uning ma'rifiy merosidan bahramand bo'lgan.

Akademik, faylasuf olim I.M.Mo'minov fikricha, xalq norozilik qo'zg'olonlaridan so'ng mehnatkashlar ommasi har safar alam va ho'rlikni, g'azab va umidsizlikni ko'ngillariga tugib, qutulish yo'lini topish umidida sirli osmonga ko'z tikib, orqaga chekinishga majbur bo'lgan edilar.

O'zbek adabiyoti va o'zbek ijtimoiy tafakkurida ziddiyatlardan, o'ziga xos g'oyaviy oqimlar ana shu sotsial negizlardan kelib chiqdi. Ana shu jihatdan Mashrab ijodi birmuncha ahamiyatga egadir.

Sargardon shoir Boborahim Mashrab o'tkir ziddiyatli she'rlari bilan mashhur bo'lib, XIX asrda keng xalq ommasi orasida Bedildan ham ortiqroq nom chiqardi.⁴

Mashrab ijodi ichki qarama-qarshiliklarga egadir, bunda bir tomondan, mehnatkash ommaning zolimlarga qarshi noroziligi, ikkinchi tomondan ozodlikka intiluvchi, birlashmagan va uyushmagan xalq ommasining oh-nolasi, ojizligi ravshan ifodalangan.

Mashrab – shoirning taxallusidir. SHoirning ismi Boborahim bo'lib, uning yoshligi Farg'ona vodiysining Namangan shahrida o'tgan.

Mashrabning ajoyib she'rlari har bir kitobxonda chuqur tuyg'ular va ichki kechinmalar paydo qilib, ruhiy oziq beradi. Mana, Mashrabning yuksak badiiy lirikasidan misollar:

Ishqing o'tig'a kuygoli keldim
Oydek yuzingni ko'rgoli keldim.
Savdoi zulfing tushdi boshig'a,
Sendan davosin so'rgoli keldim.

Mashrab o'zbek badiiy so'zlarining mohir ustasi, farosatli, juda ham zo'r yumor kuchiga ega shoirdir.⁵Fitratning «Mashrab» haqidagi ilmiy maqolasi shoir Mashrab hayoti, merosi, mutafakkirning ma'rifiy qarashlarini o'rganishda dolzarb va muhim manbalar sirasiga kiradi. Maqolaning ilmiy qimmat, ahamiyati va mohiyati shundaki, Fitrat bu tadqiqotda Mashrab shaxsiyati va she'riyatini xalq ommasi tomonidan qabul qilinishi, omma uni ardoqlashi, lekin uning ijodiy merosi hali chuqur o'rganilmagani, uni tekshirish kerakligini, Mashrab ijodining keyingi shoirlarga ta'siri oshishi uchun u haqda alohida tadqiqotlar qilish zarurligini ta'kidlagan: Mashrabning o'z zamonida teran mutasavvif va kuchli shoirlardan bo'lg'anini asarlaridan onglag'animiz kabi u to'g'ruda Majzub Namangoniy «Tazkirat ul-avliyo»sida bizga ochiq xabarlar beradir. SHunday bo'lgach, uning zamondoshlarig'a va o'zidan so'ngragi o'zbek shoirlariga ko'zga ko'rinarlik ta'sir qilg'anini qabul qilmay chora yo'q. Lekin, bizning hali yaxshi tekshirilmagan, tartibka kirmagan, hatto keraklik materiallari, ma'xazlari to'planmag'an bir adabiyot tariximiz bor. Bu hol bizning istagimizcha tekshirishni davom ettirishimizga mone' bo'ladilar. Mashrabning o'zidan keyingi shoirlarga ta'sirini tekshirish uchun ayrica ishlashka to'g'ri keladir.⁶

Abdurauf Fitrat Mashrab haqida chuqur ilmiy tadqiqot yo'qligini, P.V.Vyatkina Mashrabni tarixiy shaxs emas, afsonaviy shoir darajasiga ko'targanligini, Evropada u mashhur ekanligini, Mashrabni Farg'onada hech kim bilmasligini afsus bilan qayd qilgan.

³ Ўша манба, 45-бет.

⁴ И.М.Мўминов. Танланган асарлар. 1 том. Т., «Фан», 1969, 211-бет.

⁵ Ўша манба, 214-бет.

⁶ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. «Маънавият», Тошкент, 2000, 105-бет.

Oramizda shu qadar ko‘b o‘qilib, shuhrat topqon Mashrab haqida chiqqan ilmiy, tadqiqiy, to‘la bir asar yo‘q. Ovrupa olimlaridan Mashrab haqida N.S.Likoshinning «Divana-i Mashrab» ismli bir tarjimai bilan P.V.Vyatkinning «Ferganskiy mistik divana-i-Mashrab» (bo‘lib) Vyatkin domullo Mashrabning tarixiy bir shaxs ekaniga shubha bilan qarab, uning afsonaviy ekaniga hukm qilmoqchi bo‘ladir va XVII-XVIII asrlarg‘a bir Farg‘ona taraflarida Mashrabning tarjimai holi nari tursin, uni eslagan bir iboratka (ishora) ham uchramag‘anidan shikoyat qiladir.⁷

Filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Boltaboev adabiyot tarixi, tasavvuf adabiyoti va SHarq mumtoz she‘riyatini chuqur ilmiy tadqiq etgan, teran mushohadali maqolalari bilan ilmiy doirada o‘z fikrlarini izhor etuvchi fidoiy pedagog olimlar sirasiga kiradi. Adabiyotshunos «Shoh Mashrab Fitrat talqinida» mavzusiga qo‘l urib, mazkur tadqiqotida «Fitrat va Mashrab mavzusi», «Boborahim Mashrab Namangoniymi?», «Ikki Mashrab ixtirochilari», «Mashrab va qalandariylik tariqati», «Mab dai nur ziyosi» kabi qismlarga bo‘lib, uni chuqur tahlil etgan va Fitrat ilmiy xulosalariga o‘z munosabatlarini xolisona bildirgan. E’tirof etmoq kerak, H.Boltaboev masalani har tomonlama o‘rganib, undagi har bir detalga Fitrat talqinidagi ilmiy faraz va qarashlar me‘yorida o‘z xulosasini bergan. Shu nuqtai nazardan bu tadqiqotning ahamiyati va mohiyatini nazarda tutib, qimmatli tahliliy ilmiy ishlardan biri deb hisoblash mumkin.

Biz (ta’kid: H.M.) Boborahim Mashrab merosi, ma’rifiy fikrlarini tadqiq qilinayotgan ushbu maqolada H.Boltaboevning ilmiy maqolasidagi ba’zi fikrlarga ehtiyoj sezgan holda kerakli o‘rinlarda unga murojaat qilishni lozim deb bilamiz.

Adabiyotshunos H.Boltaboev Fitrat Mashrab hayoti, uning qalandariya tariqatiga mansubligi, shoir asarlari haqidagi ilmiy qarashlari bilan o‘tgan asr 20-yillarida hech qaysi tadqiqotchi olim aytmagan fikrni aytganligini, bugungi adabiyotshunoslik ilmi uchun ham bu asar vaqt o‘tsa-da, qaytadan jonlanishi va Mashrab merosini o‘rganishda uning ilmiy qimmatini yuqori ekanligini ta’kidlagan:

Fitrat 20-yillarning oxirida Mashrab mavzusiga qo‘l urar ekan, XVI-XIX asrlar adabiyoti, xususan, Mashrab yashagan davrning barcha siyosiy-madaniy xususiyatlarini puxta o‘rgangandan keyingina bu mas’uliyatli vazifaga o‘zini bag‘ishladi.

Fitratning maqola-tadqiqotini dastlab nashrga tayyorlagan adabiyotshunos Boybo‘ta Do‘stqoraev olimning Mashrab mavzuga munosabatini shunday izohlagan: «Noyob ilmiy iste’dod egasi bo‘lgan Fitrat o‘zbek, umuman, Sharq klassik adabiyotiga oid yozilgan asarlardan etarli darajada qoniqish hosil qilmasa, ularda ko‘tarilgan mavzuga qo‘l urib boshqalar hal etib berolmagan ilmiy muammolarni echishga intilgan».

Fitrat maqolasida Mashrab mavzui bilan bog‘liq uch muhim masala ilgari surilgan bo‘lib, bu maqolaning tarkibida ham aks etgan: 1. Mashrabning hayoti. 2. Mashrab va qalandariylik tariqati. 3. Mashrab asarlari.⁸

H.Boltaboev B.Do‘stqoraevning e’tirofini keltirish bilan Mashrab tarjimai holi tiklanganligini e’tirof etilganligini keltirgan: «Fitrat talaygina ma’xaz, bayoz va boshqa manbalarga tayanib, Boborahim Mashrabning tarjimai holini birinchi marta ilmiy asosda tiklab bergan. Undan keyin Mashrab haqida yozganlar garchi Fitrat nomini tilga olmasalar-da, u tiklagan shoir tarjimai holini u yoki bu shaklda takrorlaydilar»⁹.

⁷ Ўша манба. 83-бет.

⁸ Ҳ.Болтабоев. Шоҳ Машраб Фитрат талқинида. Мумтоз сўз кадри. (Адабий-илмий мақолалар) Т., «Адолат», 2004, 148-бет.

⁹ Ўша манба, ўша жой.

H.Boltaboev Fitrat afsonaviylashib ketgan Mashrab tarjimai holi tiklanganligini, bunda manqaba, tazkira, tarix kitoblari masalaga aniqlik kiritganligini, Fitrat kabi olimlarning tadqiqotlari kelajak uchun qimmatli va qadrli bo'lib qolaverishini ta'kidlagan: Fitrat 1930 yilda yozilgan «Mashrab» nomli maqolasida o'zbek adabiyotshunosligida ilk bor Mashrab mavzuiga qo'l urib, uning yarim afsonaviy bo'lib ko'ringan tarjimai holini tikladi, manqaba bilan zamonasining tazkira va tarix kitoblarini qiyosan o'rganib, shoir tug'ilgan joyi va vaqti masalasiga aniqlik kiritgan.

Ulug' shoir Boborahim Mashrab ijodini o'rganishda va uning poetik dunyosining sirlaridan xalqimizni tanishtirishda istiqloq davrida yaratilgan shart-sharoitlar asosida xolis, beryoqlamaliklarga bo'yin bermagan ilmiy izchil o'rganishda Fitrat kabi nuqtadon mashrabshunos yaratib qoldirgan ilmiy asarlar kelgusida o'z ahamiyati, o'rni va quvvati bilan xizmat qilajakdir.¹⁰

SHuningdek, adabiyotshunos H.Boltaboev tomonidan tayyorlangan «Islom tasavvufi manbalari» (tasavvuf nazariyasi va tarixi) kitobida sharqning ulug' mutasavvif mutafakkirlari hayoti va faoliyati va ular merosidan muxtasar ma'lumotlar qayd qilingan. Unda Boborahim Mashrabga ham o'rin ajratilib, mutafakkir shoir haqida Ishaq Bog'istoniyning «Tazkirai qalandaron» asari ham berilgan.

Tasavvuf olimi N.Komilov tasavvufga bag'ishlangan «Tavhid asrori» kitobida Mashrab jazbasi haqida fikr yuritib uni «Kamoli nuri rahmatman» deb atagan. Unda tasavvuf tarixi, uni ta'limoti haqida fikr yuritilib, Mashrab Ibrohim Adham, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy ijodidan ilhomlangani, Mansur Halloj maqomini orzu etganligi tahlil etilgan.

Mashrab benavo-bechoralarni ko'rganda ezilgan, nohaqliklardan fig'on chekib o'tli satrlar bitgan. Biroq, u o'z tuyg'ularini ochiq, yalang'och tarzda, allaqanday isyon-to'polonlarga da'vat ruhida ifodalagan emas. U hayotga bir Ilohiy ishq oshig'i, tasavvuf nuridan porlagan qalb nigohi bilan qaraydi va hislari, muhokamalari ham shu asosda rivojlangan. Shuning uchun u «yurtga o'lturgan» Mahmud qatag'onbiyga qo'rqmasdan «taxtingga o'lturdim, nima deysan» deya olgan. «Anal-Haq» degan Mansur Hallojni zamonasida tushunib etmagan ulamolar va vazir nohaqdan o'limga hukm qilgani Mashrabda ichki isyonni keltirib chiqargan, shuning uchun endi ochiqchasiga kurash yo'liga o'tgan, Mashrab shuni xohlagan, unda Halloj kabi qo'rquv bo'lmagan. N.Komilov buni shunday izohlagan: Ammo bu e'tiqod Mansurga qanday fojea olib kelgan bo'lsa, Mashrabga ham shuni nasib etdi. Uning haq so'zidan otashin she'ri va tig'li hajvidan tahlikaga tushgan shariat «himoyachilari» hukmron tabaqa vakillari bilan qo'shilgan holda shoirni gunohkor hisoblab o'ldirdilar. Tarix yana bir marta qonga belandi, yana bir marta ma'rifat bilan zulmat, erkin tafakkur bilan taassuf va nodonlik to'qnash kelib, qurbonlik berildi – shoirning o'zi butun insoniyat falokati degan o'sha Nafsi lain johil ulamolar qiyofasida haqiqatdan o'ch oldi¹¹. Biroq Mashrab ruhi, she'rlari tirik, xalq bu gavharni bag'rida saqlab keldi. SHunisi ham borki, uning so'zlarini hali ham turli xil talqin etuvchilar, o'z qarashlari, manfaatlariga xizmat qildiruvchilar bor. Tushunib-tushunmay u haqda gapirish, o'zgarayotgan zamonga qarab, uning ma'nolarini moslab olishga urinish kuzatilmoqda. Soyai rahmat boshiga tushgan shahid shoir ogohlantirgan edi:

Mashrabo, har bir so'zingdir gavhari qimmatbaho,

¹⁰ X.Болтабоев. Мумтоз сўз кадри. 167-168-бетлар.

¹¹ Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. Тавхид асари. Т., Ф.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат ҳамда «Ўзбекистон» нашриётлари, 1999, 142-бет.

Aytma bu soʻzlarni har nokasga nodonlik bila.

Mashrabning Ilohiy pok sheʼriyati tadqiqi ham pok niyat, pokiza qalb mehnatini talab qiladi.¹² Tasavvuf olimi Ibrohim Haqqul Mashrab maʼrifiy ijodi va uning tasavvufiy qarashlari haqida teran fikr yuritgani holda, mashrabshunoslik uchun dolzarb ilmiy-tadqiqiy maqolalar eʼlon qilgan. Adabiyotshunosning «Haqiqat yoʻl tutay desang» va «Soʻzlar bizga ogʻriqdan soʻzlar» maqolasi ana shunday ijod mahsulidir.

Mashrab sohibjunun shoir. Mashrabdagi junun Ilohiy ishq hosilasi. U ishqning eng shiddatli tugʻyonlarida «junun vodiysi»ga qochadi. Uni hamma joyda va hamma tomonda «gʻam lashkari» taʼqib qiladi. «Gʻam lashkari ichra «hayronu xarob» shoir goh «jismi» joni»ning afgorligidan soʻzlasa: «Lashkari gʻam bu sinuq koʻnglumni afgor ayladi»; «Jismi jonimni figor etti gʻamingni lashkari», goh oʻzligini «gʻam tarozusigʻa» tortadi: «Gʻam tarozusigʻa tushgan bori vazminmen bugun». Mashrabning dardi – gʻam, dardiga darmoni ham gʻam:

Gʻamdin oʻzga boʻlmadi dardimga darmon oqibat,-degandi u. Mashrabning shaxsi gʻam quyuni ichidagi bir daraxtga oʻxshaydi. SHoir qalbidagi beqarorlik, sargashtalik, oʻvoralik va hayronlik mana shundan. Mashrab shaxsiyatini tinglagan kishi uning ichki hayotida hech qachon sokinlik, xushnudlik boʻlmaganligiga darhol ishonch paydo qiladi.¹³

Mashrab haqidagi fikri davomida Ibrohim Haqqul shoirning insoniy va ijodiy oʻzligi soxta tahlillarga duch kelganligini, hanuzgacha, uni oʻta Ilohiylashtirib, uning nomi qaysidir toifa manfaatlariga mos talqin qilinayotganligi haqida soʻzlaydi: Boborahim Mashrabni Mashrab taxallusi bilan ijod qilgan boshqa shoirlardan ajratish uchun oʻzbek adabiyotshunosligida ancha ishlar amalga oshirildi. SHu maʼnoda shoir sheʼrlarini yigʻib, nashr ettirgan olimlarning mehnatlari tahsinga loyiqdir. Lekin asl Mashrabning qiyofasi - uning sheʼriyatida, adabiyotshunoslik ilmida, Mashrabning insoniy va ijodiy oʻzligi tubdan oʻzgartirilgan hamda soxta talqinlarga giriftor etilgan.¹⁴

Mashrab sheʼrlarini oʻqib turib, beixtiyor oʻylanib qolasan: shu qadar sevish, yurakni shu darajalarda iztirobga solish va qaygʻuga chulgʻash mumkinmi? Men bunday savollarga qatʼiy javoblarni qatorlashtirib tashlashdan choʻchiyman. Negaki, buyuk shoir nosamimiylilik sababidan yoxud mubolagʻaga ehtiyojidan:

Hech kima maʼlum emas holi parishonim mening,
Osmonni pora qildi ohu afgʻonim mening,

demagan. Mashrab holatidagi parishonlik, gʻussasozlik, figʻon saslarini sharhlash uchun «gʻayrat tigʻi birla yurak»ni chopish, «jon togʻini gʻam teshasi birlan» tinimsiz qazish, yorning birgina koʻzi xayolida «Hu-hu qushidek kechalar goʻyanda»lik qilish, ishq kuyida «bir oʻlib, ikki tirilish», firoq dashtlariga chiqib «Majnun ila hamxona» yigʻlash, «Dunyo yasanib jilva qilib» oldiga kelganda ham «Borgʻil nari» deb ketiga shattalab oʻta olish singari qanchadan-qancha aqlning esini ogʻdiradigan zahmat va ruhiy mehnatlardan ogohlik zarur. Ulugʻ sanʼatkorlar ichki bedorliklarimiz olam chirogʻi boʻlsin, deb orzu qilishgan. Mashrab qalbi va ruhiyati toʻgʻrisida soʻzlashning eng katta masʼuliyati hali mana shunda. Mashrabdagi bedorlik, yurak yolqini, tafakkur olamni nurlantiradigan chiroqqa aylangan. SHoirning maʼnaviy-maʼrifiy uygʻoqligiga hamohang ravishlarda fikri mulohaza yuritmoq

¹² Ўша манба, ўша жой.

¹³ Иброҳим Ҳаққул. Тасаввув ва шеърят. Т., Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси. 1991, 173-бет.

¹⁴ Ўша манба, 178-бет.

uchun gʻofillik, biqlikning barcha turlaridan deyarli ozod Ruh, keng va nur sohadigan qalb kerak. Bu esa juda mushkul talab.¹⁵

Ibrohim Haqqul forsiy va turkiy tillarni, tasavvuf adabiyotini chuqur bilguvchi va tahlil etuvchi olimlardan. U Mashrab oʻlimining sababi nima ekanligini, mutafakkir oʻz oʻlimini xushnudlik bilan qabul etishini, bu oʻlim moddiy oʻlim ersa-da, ruhoni oʻlim emasligini, u oʻz-oʻzini muborak etishini chuqur, falsafiy tahlil etgan:

Fors-tojik shoiri Sohib Tabriziy «Daryo shudi, Ey dil, daryoyad muborak» - «Daryo boʻlibsan, ey dil, daryoliging muborak» degan gʻoyatda hayajonli, yurakka olqish yogʻdiruvchi soʻzlarni yozgan.

Sevgisiz kun kechirish – sahroga oʻxshash tap-taqir, huvillagan koʻngilga sudralish. Bu – dahshatli anduh. Bunday anduhning ishq uchun hech dahshati yoʻq. U dasht, sahro boʻlib, yotgan qalblarni darhol yashnatib yuboradi. Inson dilidagi shu ikki holat, manzarani bir oʻrinda Mashrab quyidagicha gʻavdalandirgan¹⁶:

Avval edim dasht, gulxona boʻldim.

Bunaqa tole va iqbol sharafiga har qancha shukronalar aytsa, qutlov soʻzlari topsa arziydi. Ammo Mashrab ushbu joyda ishlatmagan «muborak»ni qarang, qanday haqiqat uchun qoʻllayotir:

Chun muborak boʻlsun, ey Mashrab, qizil qoning seni,

Xoʻb ish boʻldi senga, jon berganing – ofat emas.

Ochigʻini aytish kerak, romantik kayfiyat, samoviy xayol, joʻshqin va koʻtarinki ehtiroslardan tabiati yiroq kishilar uchun mazkur baytdagi maʼno va ifoda zavq qoʻzgʻamaydi. Odatda bunday romantik boʻyoqli soʻzlar koʻngli «dasht» kimsalarningmas, dili «gulxona» boʻlganlarning tushuncha va tuygʻularini aks ettiradi. Va u ichki erkini axtarayotgan, maʼnaviy hurlikka chanqoq hamma davr va hamma zamon odamlarining qalbini hamisha toʻlqinlashtirishga qodirdir. Mashrab ishq bahonasida, baʼzan qonlar toʻkib ham erishib boʻlmaydigan, jon berishni ham «ofat emas», «xoʻb ish»ga aylantiradigan, «gʻofil odam»larga nasib etmas siyrat ekanligini ulugʻlagan.¹⁷

Akademik, V.A.Abdullaev «Oʻzbek adabiyoti tarixi» kitobida Boborahim Mashrab hayoti, faoliyati, ilmiy merosi haqida oʻtgan asr soʻnggi choragida oʻz davri uchun qimmatli fikrlarni bergan. Ammo u tahlil bugungi kun uchun ahamiyati yoʻqday tuyuladi. Chunki kitob shoʻrolar tuzumi talabi doirasida yozilib, oʻz davri mafkurasi bilan sugʻorilgan. Unda Ofoqxoja va mullo Bozor oxundlar tamoman boshqacha tarzda talqin etilgan. Buni albatta zamonasozlik deb tushunmoq va bilmoq kerak. V.Abdullaev Mashrab faoliyati va merosi haqida toʻxtalib shunday fikrlarni keltirgan: Boborahim mullo Vali oʻgʻli Mashrab asosan oʻzbek tilida, qisman tojik tilida sheʼrlar yozgan, oʻz hayoti va faoliyatini Oʻrta Osiyoning koʻpgina shahar va qishloqlarida oʻtkazgan, isyonkorlik ruhidagi xalqchil sheʼrlari va ishqiy asarlari bilan shuhrat qozongan¹⁸.

Mashrab merosida maʼrifiy fikrlar xulosa qilinganda, uning ilmiy merosidagi axloqiy, diniy, tasavvufiy ruhdagi asarlari xalqqa yaqinligi, inson zotini yaxshilikka, ezgulikka, ilm – maʼrifatga, yuksak axloqqa undashi bilan muhim ahamiyat kasb etadi, necha asrlar oʻtsa

¹⁵ Иброҳим Ҳаққулов. Сўзлар бизга оғрикдан сўзлар. Адабиёт ва санъат. Т., Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988, 106-бет.

¹⁶ Ўша манба, ўша жой.

¹⁷ Ўша манба, 199-120-бетлар.

¹⁸ В.А.Абдуллаев. Ўзбек адабиёти тарихи. Иккинчи китоб. Т., «Ўқитувчи», 1980, 140-141-бетлар.

hamki, nafaqat sharq xalqlari, balki g'arb xalqlari ham uni ardoqlab, o'rganib kelayotganligi bilan qimmatlidir.

ABDULLA AVLONIY SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLAR VA ULARNING YANGILANISHI

**Matmusayeva Nodiraxon, Andijon davlat
universiteti katta o'qituvchisi**

XX asr boshlaridagi ijtimoiy-madaniy, ma'rifiy hayotdagi evrilish, yangilanish badiiy adabiyotda o'z ifodasini topdi. Har bir davr ijodkorining maqsad va g'oyalari turlicha bo'lganidek, jamiyat hayotining tasviri turli ranglarda akslanadi. Tabiiyki, bu masalada badiiy adabiyotning asosiy tasvir quroli bo'lgan poetik obrazlarga juda katta ma'no yuklanadi. Jamiyatdagi insonlar tafakkurining o'zgarishi bilan poetik obrazlarda ham yangilanish sodir bo'ladi [3]. XX asr boshlari o'zbek adabiyotida mumtoz obrazlar an'anaviyligi saqlangan holda, ular anglatgan mazmun yangilandi, ya'ni she'riy timsollar dunyoviy, milliy, ijtimoiy asosga qurila boshlandi. "Shu bilan bir qatorda mumtoz an'anaviy she'riyat ta'sirida o'zlashgan obrazlar tarkibida ularning qo'llanish doirasida ham evrilish, yangilanishlar yuz berdi" [2. 138].

Abdulla Avloniy o'z she'riyatida ko'hna adabiyot an'analarini mahorat bilan davom ettirdi, ayni damda ularga yangi ruh, yangi hayot baxsh etdi. Abdulla Avloniy mumtoz she'riyat go'zalliklaridan, an'analaridan ayro holda ijod qilmadi. An'anaviy poetik obrazlar, ya'ni "oshiq", "yor", "bulbul" kabilar shoir she'riyatida yangilikka intilgan holda ijtimoiy ziddiyatlarga qarshi o'laroq yuzaga chiqdi. Chunonchi, quyidagi baytlarda irsoli masal badiiy tasvir vositasida shoirning bedor qalbini larzaga solgan jamiyatning eng og'riqli nuqtalari, millatning ayanchli ahvoli ifodalanadi:

Zamonga boqmasang, sanga aslo nazar qilmas,
Ketar hamrohlar tashlab, sanga aslo xabar qilmas.

Etib g'ayrat ila bir yurmasang aslo nazar qilmas,
Tarozuga qarab toshni qo'y, aslo zarar qilmas [1.59].

Shoir xalqimiz orasida keng tarqalgan "zamon senga boqmasa, sen zamonga boq" maqolasining ma'nosini satrlar zamiriga singdirgan holda, agar millat asri taraqqiy vaqtida ortda qolsa, g'aflat uyqusidan uyg'onmasa taraqqiyotdan ortda qolishi bilan bog'liq kuyunchak g'oyani ilgari suradi. Mumtoz she'riyatda ko'p qo'llangan irsoli masal she'riy vositasining umrini uzaytirish bilan bir qatorda mumtoz she'riy san'at bag'riga o'zi yashab turgan hayotning umumiy manzarasini joylay olgan. Bu esa yangi hayotga intilayotgan, katta yo'lga o'tlanishni maqsad qilgan lirik qahramonning zamondoshlariga chorlovi edi.

Mumtoz she'riyatdagi an'anaviy gul, ya'ni ma'shuqa timsoli Avloniy she'riyatida Turkiston qiyofasida gavdalanadi. Shuningdek, "Hasratlik hollarimiz", "Ilm ahvolindan bir

nazar” “Taajjublik hollar” kabi she’rlari bunga misol bo’la oladi. Chunonchi, “Hasratlik hollarimiz” she’rida gul Turkiston manzarasi:

***So’ldi g’aflatdan jahon bog’indagi gul – yorimiz,
Xor ila to’ldi gulistoni Eram – gulzorimiz.***

Abdulla Avloniy mazkur she’rida Turkistonni yor, ya’ni suyukligi kabi o’ziga aziz deb biladi. Avloniy uchun Vatanni mustamlaka tikonlaridan xalos bo’lganini ko’rmoqlik uning yagona orzusi edi. Kuyunchak shoir dardi kundan kun og’irlashayotgan, yuzi guldek so’lib borayotgan xalqining ahvolidan qayg’uradi:

***Mizoji sustlandi, dardi kundan ziyod o’ldi,
Qizil gul yafrog’idek yuzlari isloh uchun so’ldi.***

Shoir faqat gulni Vatan yoxud bag’ri qon millat holini ifodachisi sifatida bilmaydi. Gulning go’zalligini maktab uchun ham bezak sifatida izohlaydi:

***Guldastayi gul maktab, sunbul-u jambul maktab,
Bulbul kabi tolibga gulzori jahon maktab.***

Maktab birgina gul emas, butun bir gullar jamlanmasidan iborat guldasta, unda xushbo’yi bilan olamni tutgan jambul ham, go’zallikda insoniyatni lol qilgan sunbul ham bor. Bu gullar nomi shunchaki keltirilgan emas, unda ham majoziylik bor. Xususan, bu gullar ilmning tuli shakllaridir: maktabda ham diniy ham dunyoviy ilm mujassam bo’lib, ajib bir go’zallik paydo qilgan. Ma’lumki, bulbul gul vasfini madh qilib sayraydi, gullarning makoni bo’lmish gulzorlarda kuylaydi, tolibi ilm ham xuddi bulbuldek gulning ishqida maston va maktab uning mahbubasi - ilm panoh topgan joy. Jadid she’riyatida ma’rifat mavzusi Avloniy she’riyatida gul timsolida o’zining yangicha talqinini topdi.

Bundan tashqari shoirning “Sadoyi bulbul”, “Xijroni bulbul”, “Fig’oni bulbul” kabi she’rlarida ham gul ishqida yongan haqiqiy bulbul, oshiq emas, hurriyatni kuylayotgan shoir sifatida ko’z o’ngimizda gavdalanadi:

***Jahon bog’ini gulzorinda faryod etdi bir bulbul,
O’turdi nag’mazorida gulin yod etdi bir bulbul.***

Dunyoning qanchalar yuksalib borayotganligini ko’rib, bilib turgan ma’rifatparvar ziyoli, o’zining “nag’mazori”dagi holatdan qattiq iztirobda. Bu iztiroblarining nishonasi badiiy obraz orqali bulbul fig’oniga ko’chmoqda. Bulbul-shoir gul - millati ishqida, hajrida kecha-yu kunduz fig’on chekib nola qiladi. Butun umrini unga bag’ishlaydi, natijada, bu bedorliklari oqibatida “bog’bon qo’liga, qafas”ga tushadi:

***Bo’lurman gulga hamdam deb, o’zini bog’latur doma,
Fidoi jon etar mushtoq chin diydor o’lur bulbul.***

U zolim qafas zulmida ozor chekadi. SHuni aytish kerakki, bu erdagi zolim endi mumtoz adabiyot kabi zolim “falak” emas, “qafas” millatni, uni kuylaguvchilarni tutib turgan mustabid tuzumdir. Undan hech kim qutulishni hoxlamaydi, shoirga yo’ldosh, maslakdosh bo’lmaydi. U tobora yolg’izlanib qolganidan, kecha-kunduz qilgan nolalarini hech kim eshitmaganidan endi uning yo’ldoshi g’am bo’lib qoldi. Shoir buni ham mahorat bilan, obrazli tasvirlaydi:

***Kecha -kunduz qafasda, oh gul, deb aylayur faryod,
Omon bermas anga zolim qafas, ozor o’lur bulbul.***

Ko’ringanidek, Avloniy she’rlari pishiq, mantiqiy lo’nda. SHoir mumtoz timsollardan unumli foydalangan bo’lsa-da, ularning aynan takrori bo’lib emas, balki zamon talablari asosida yangilanganligi, yangicha ma’no qatlamlarini ochishga harakat qilgani bilan o’ziga xoslikni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. -Toshkent: Ma'naviyat, 2009.
2. Tojiboeva M. Jadid adabiyotida mumtoz obrazlar // Sharq yulduzi jurnali, 2016 yil, 8-son.
3. Xrapchenko M.B. Gorizont xudojestvennogo obraza. – M., 1984.

CHIN ZIYOKORLIK HAQIDA O'YLAR

Xo'jamberdi Tog'aev, London (Buyukbritaniya) FA va Oliy Ta'limining "Butun dunyo qit'alararo, mintaqalararo, millatlararo ilmiy ishlar tahlili bo'yicha birin chiligi"ning tarix, biologiya, fizika, matematika, texnika fanlari bo'yicha ekspert a'zosi, shu fanlar bo'yicha xalqaro mutafakkir, Jizzax DPI

Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida 1075 yilda tug'ilgan buyuk mutafakkir Abulqosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy (yoshligida bir oyog'idan ajralgan) o'zining "**Atvoq uz-zahab fi-l-mavozi va-l-xutob**" ("O'git va nasihatlarining oltin shodalari") asari ning "Ilm xosiyati" bobida "Savdogarning sharofati cho'ntagida, olimning sharofati kitoblaridadir",- deydi. Bu purma'no hikmat millatparvar jadidlarimizga va ular ning qutlug' an'alarini davom ettirib, ko'p yillik ilmiy-pedagogik faoliyatida ziyokorlikdan baxt topgan va uchinchi Renessans uchun zamin yaratishga munosib hissa qo'shayotgan fidoiy ziyolilarimizga ham taalluqli. Shu xususda fikr yuritmoqchimiz. Xitoyning Fudan universitetida imtihonda yonidagi o'rtog'i bilan gaplashgan talaba talabalar safidan chiqariladi. U qayta tiklanganda ham unga diplom emas, balki universitetni bitirganligini tasdiqlovchi hujjat beriladi, xolos. Dunyoda ikki milliardga yaqin aholisi bo'lishiga qaramasdan bugungi kunda jadal rivojlanib borayotgan Xitoyning bosh yo'li va mezon, ularda ta'lim tizimining ana shunday chin ziyokorlik asosida yo'lga qo'yilganligida desak adashmagan bo'lamiz. Agar bizda ham ana shunday chin ziyokorlik, uning burchi (hatto imtihonda gaplash gani uchun o'qishdan haydalis), e'tiqodi (bitirgandan keyin ham diplom berilmasligi) qonun asosida yo'lga qo'yilsa, hozirgi danda yuz karra ko'p muvaffaqiyatlarga erishish mumkinligini, bu esa chin ziyokorlik, uning burchi va e'tiqodiga sodiqlikning ahamiyat ini va oramizda ana shunday o'ta jiddiy mas'uliyatni his etib faoliyat ko'rsatayotgan chin ziyokor insonlar borligi haqidagi tasavvurlarni oydinlashtirish edi. Hayotda shunday insonlar bo'ladiki, yuz yil umr ko'rsalar ham dunyodan nom-nishonsiz o'tib ketaveradi. Ularning umr daftarini bezaydigan hech vaqo yo'q. Yoki aksincha, shunday insonlar borki, ularning shirin suxanidan, mag'zi to'q, ziyo nuri bilan farahlangan muloqotidan qalblar munavvar bo'ladi va ularning ilm va hayot yo'lini qog'ozga tushirmoqchi bo'lsangiz, jumla lar o'z-o'zidan kelaveradi. Buning boisi-ularning hayoti ilm-ma'rifatga boy va iboratli

Men oddiy muhandis sifatida barcha ilm-fan sohalarini, ularning hayotda qoldirgan betakror moddiy va ma'naviy meroslarini hech bir kamsitmagan holda, adabiyotni insonlar ma'naviyatini shakllantirishning eng buyuk mo'jizasi, ruhiyat oftobi, qalb gavhari deb atagim keladi. Har bir xalqning o'zi yashab turgan azaliy eri, uning bosib o'tgan yo'llaridan olamga shahodat beruvchi tarixi, ming yillar mobaynida shakllanib, unga qurol va qalqon bo'lib kelayotgan tili va adabiyotidan ortiqroq boyligi bo'lmasa kerak. Chunki har bir

xalqning tili va adabiyotida nafaqat tarixi, balki buguni va buyuk kelajagi yashaydi. Unda xalqning cheksiz hayot tajribalari, umr saboqlari tugun-tugun jumboq bo'lib yotadi, har bir satri qatlamlarida xalqining asrlar davomida to'pla gan ma'naviy xazinasini yarqirab, nur sochib turadi. Bu shundoq xazinani, ziyokor uning oldidan beparvo o'tolmaydi, shu ezgulik oldida izzat- ehtirom bilan bosh egishini o'zi ning burchi va e'tiqodi deb bilmog'i lozim. Ana shunday shaxslar ustoz va murabbiylar chin ziyokorlar toifasiga kiradi. Ular o'zlarining ongli hayotida Alisher Navoiyning "Umrni zoe etma, mehnat qil, mehnatni saodat kaliti bil" degan hikmatiga amal qilib yashaydi. Bunday ezgu g'oyalar chinakam ziyoli ustozlarning butun borlig'i, ilmiy faoliyati va hayot maslagi bo'lib hisoblanadi.

Dunyoda va kundalik hayotimizdagi tabiat hodisalariyu har xil qarashlar ham juft yaralganligini hech kim inkor etolmasa kerak. Ana shu tabiat va hayot qonuniyatlaridan kelib chiqib, ziyokorlarni ham chin, hamda soxtalarga ajratish mumkin va bu hayotda hamon mavjud. Ana shu ikkita atamaga maktabda 11 yil, institutda 5 yil, aspiranturada 3 yil o'qishdagi ustozlar sabog'i, 50 yillik pedagogika sohasidagi tajriba va kuzatuvlarim asosida quyidagicha fikr bildirishga urindim.

Chin ziyokor – bamisoli mevali daraxt: uning ko'm-ko'k yaproqlari- chuqur bilim, teran tafakkur, ma'naviy-go'zallik; o'q ildizi-burchi va e'tiqo diga sodiq qolib uni o'ziga qismat deb bilgan ichki dunyosi qasamyodi; mevasi – ma'naviyati va ma'rifati, aql-zakovati yuksak kamolot cho'qqisini zabt etgan insonlar ezgu manfaatlari ro'yobi uchun nihoyat katta hissa qo'shadigan, ilg'or jonli mushohada va mantiqiy qarashlarga ega bo'lgan, Ona yurtining porloq kelajagi uchun butun borlig'ini baxshida etishga bel bog'lagan, tomirida buyuk ajdodlari qoni oqayotgan kelajagimiz vorislaridir.

Chin ziyokorni majoziy ma'noda asalariga o'xshatish mumkin. Asalari uchib-qo'nib, zahmat chekib turli-tuman gullardan, dorivor giyohlardan, jigdalar shoxidan oshib uning xushbo'y gullaridan nektar to'plab, uni dorivor asal qilib insonlarga hadya etadi. Chin ziyokor esa olamni ko'rib, o'zi yashab turgan zamon va zaminning siru asrorlarini ilgari roq ilg'ab, uning xush-noxush jihatlari tahlil qilib, topganini insonlarga ulashadi.

Soxta ziyokorlar – oramizda shunday faoliyat ko'rsatadilarki, ularni asta-sekin, ammo muqarrar ravishda buyuk kelajagimiz vorislari farzandlarimizning umri va ke lajagini, oxir-oqibatda esa Ona-Vatanimiz nurli kelajagini payhon qiluvchilarga o'xshatish mumkin. Ular "buyuk bo'lish istagi" (o'z huzur-halovati, mansab, daraja, unvo nlarga erishish yo'li) da chin ziyokorlik burchi, e'tiqodini buzadilar va bu yo'lda o'zla rini mas'uliyat, adolat, vijdon, ijodiy izlanishdan mahrum qiladilar. SHu bois soxta ziyokorlarni Vatanimiz ravnaqiga zimdan pinhona zarba beradigan ichki, ko'zga ko'rinmas va tilsiz yovlar deyish mumkin. Ana shu iboralarga izoh berish ehtiyoj seziladi:

1. Biror soxta diplom olgan tibbiyot jarrohi bemorni noto'g'ri operatsiya qilib, umriga zomin bo'lsa uni darrov bilib jazolash mumkin; Mashinasozlik zavodlarida stanokchi favqulodda noto'g'ri tayyorlagan yaroqsiz detalni eritib qaytadan quyib va ishlov berib, yaroqligini aylantirish mumkin. Ammo soxta ziyokorlarning yillar osha necha millionlab farzandlarimizni "yaroqsiz" holga keltirayotganligini tuzatishning iloji yo'q.

Chin ziyokor, burch, e'tiqod. Bu uch tushuncha har bir mamlakatning uchta: o'tmishi, buguni va kelajagi timsolida uzviy bir butun taqdir bo'lib tutashadi. Bu haqda buyuk Fransuz faylasufi Sen Simonning "Agar Fransiyada chin ziyokor olimlar soni ellik nafardan kamayib ketganda, u jonsiz jasadga aylanib qolar edi" degan so'zlari g'oyat ibratlidir. Bu uch tushuncha uch tomonidan yuksalib, keyin bir biri bilan birikkan nur li tog' cho'qqisiga o'xshaydi. Ana shu nurli cho'qqini o'z tafakkuri bilan zabt etolgan chin ziyokorlarga

xalqiga manzur bo'lib, ularning yuragida abadiy yashaydi. Zero, bu nurli cho'qqiga boqish-ulkan ma'rifiy yuksalishni, unga ko'tarilish esa o'ta jiddiy mas'uliyatni talab qiladi. Shu ma'noda "Chin ziyokorlikni –mamlakat jasadining joni, burchini –uning qomusi, e'tiqodini –uning nomusi" desak mubolag'a bo'lmas. Mazkur uch tushuncha ga o'zining ko'p yillik faoliyatida amal qilib kelgan va chin ziyokorlik burchi va e'tiqodini o'ziga qismat deb bilibgina qolmasdan, boshqalarni ham unga da'vat etib kelayotgan o'qituvchi-murabbiylarning fidokorliklarini har qancha ulug'lasak arziydi. Zotan, muh taram Prezidentimiz qayta-qayta ta'kidlaganlaridek, najot ilmda, ilm esa ustozlarda.

Shu o'rinda Nobel mukofoti garchi ko'pchilikka ma'lum bo'lsa-da, u haqda qisqa **izoh**-ma'lumot berib o'tish orqali mamlakatimizdagi chin ziyokorlarning ahvoriga etibor qar atishga extiyoj seziladi. Nobel mukofoti 1901-yilda ta'sis etilgan. Xalqaro Nobel mukofoti Shvetsiyalik muhandis, ximik, dinamit ixtirochisi, yirik sanoatchi **Alfred Bernxard Nobel** (1833-1896) nomi bilan ataladi. Nizomga ko'ra, bu mukofot har yili bir marta 10-dekabr, ya'ni u vafot etgan kuni unga loyiq deb topilgan kishiga tantana li yig'ilishda nutq so'zlagandan so'ng fizika, ximiya, iqtisodiyot bo'yicha SHvetsiya Qirollik Fanlar Akademiyasida, fiziologiya yoki meditsina bo'yicha Qirollik meditsina-xirurgiya institutida, badiiy asarlar bo'yicha Shvetsiya Akademiyasida, tinchlikni mustahkam lash faoliyati uchun Norvegiya parlamentining Nobel qo'mitasida taqdim etiladi. Ma'l umotlarga ko'ra dunyoda chin ziyokorlari eng ko'p davlat-Irlandiya deyishmoqda. Chunki har million Irlandiya fuqorosiga 3 nafar Nobel sovrindori to'g'ri kelar ekan. Bu ko'rsat gichni Respublikamiz aholisiga tatbiq etadigan bo'lsak, u 90 tani tashkil etardi. Afsus ki, bizda hozirgacha bironta Nobel mukofoti sovrindori yo'q.

Bugungi kunda jahon chin ziyokorlari chorpoymasining to'ridagi faxrli o'rinni egalla gan Irlandiyaliklar yonidan biz ham joy olishimiz uchun barcha sohalardagi soxtalik bu lutlari tagida g'arq bo'lib yotgan ziyo nurlarining jamol ko'rsatishini ta'minlash yangi O'zbekistonimizning muhim vazifalaridan biri deyish mumkin.

Izoh: Filds mukofoti¹ – matematiklar Nobel mukofotidan qoldirib ketilganligi uchun Kanada matematigi Jon Charlz Filds nomi bilan bog'liq, 1936 – yilda ta'sis etilib, Osloda 35 yildan keyin birinchi marta L.V.Alfons (Finlandiya) va Jon Duglas (AQSH) larga berilgan. Bu mukofot har 4 yilda 41 yoshdan oshmaganlarga beriladi. Uni matematika bo'yicha Nobel mukofoti deb ham yurit iladi. **Krafoord mukofoti²** – Nobel mukofotida tabiatshunoslik, matematika, Er-haqidagi fanlar, astronomiya va boshqa muhim sohalar ko'zda tutilmagani uchun Shvetsiya Qirollik Akademiyasi 1981-yilda aka-uka Gremm va Xolger Krafoordlar nomidagi yangi ilmiy mukofotni ta'sis etgan. U ham har to'rt yilda bahor payti: 1. Matematika va astronomiya; 2. Er haqidagi fanlar; 3. Biologiya (Ekologik tadqiqotlar); 4. Artirit – bo'g'in yallig'lanishi bo'yicha ilmiy kashfiyotlarga beriladi.

JAHON SHE'RIYATINING YORQIN SAHIFAIARI

Dilbar Aliyeva, Jizzax Politexnika instituti

Ko'p asrli jahon adabiyoti tarixida o'zining yorqin iste'dodi va ijodi bilan tanilgan shoirlar ham oz emas. Lekin ularning hech qaysi Zulfiya darajasida o'z xalqi bilan xuddi ona-boladay qon-qardosh, yakdil va ham nafas bo'la olmagan va Zulfiyadek jo'shqin va matonatli, betakror, nafasatli ijodkor bo'lish baxti ham hammaga nasib etavergan emas.

Shoiraning o‘zi “Baxtim shulki, o‘zbekning Zulfiyasiman”- deya, faxr bilan e’tirof etishida ham xalq bilan jon-dildan yaqinlik, cheksiz g‘urur va iftixor jamuljam. Zulfiyaning tug‘ma iste’dodi va she’riyatining parvozigaga bamisoli bir qanot bo‘lib, unga tunganmas ilhom va mazmun bag‘ishlagan qudratli ruhiy manba ham, eng avvalo, xalq bilan yakdil lik, uning jo‘shqin hayoti va umid-ishonchi bilan hamnafaslikdir. O‘zbekona kamtarinlik bilan o‘zini “qalam dehqoni” deb bilgan va yonib kuylashni yuksak orzu-a‘moliga aylantirgan shoiran ing ijoddan, har bir she’rdan asl maqsadi ham ulug‘vor va nekbin:

“Qalam-la men to‘qiyman qo‘shiq,
U – insonga, elga xizmatim...”

Zulfiyaning yuksak e’tiqodi va qahramonona hayotining mazmun-mohiyati ham ana shunday ezgu maqsadlar bilan yo‘g‘rilgan:

“Shuhratni o‘ylamay, tebrangan qalam
Avlodga xizmatdan qolmas hech qachon...”

Bu satrlarda shoiraning muqaddas ijodiy aqidalari ham ifodalangan. “Ertani bugunga kel tirmoq” va “bugundan go‘zalroq” hayot qurish uchun jo‘shib mehnat qilayotgan xalq hayoti va orzu-umidlarini kuylash, uning qalb sadosi va ovozi bo‘la olish-ijodkor uchun ulkan baxt, sharaf. Ammo bunday ta’rif Zulfiyaning kamolot cho‘qqisiga ko‘tarilgan ijodi va beqiyos poetik olamiga nisbatan kamlik qiladi. O‘tmishdagi shoiralardan farqli o‘laroq, Zulfiya o‘zining ulkan iste’ dodi va zalvorli she’riyati ufqidan taralgan shuhrati bilan nafaqat Nodirabegim va Mahzuna larning armonlarini ushaltirib gina qolmasdan, ba lki butun Sharq ayollarining orzu-tilakla rini dunyo bo‘ylab yoyishdek sharafli vazifani ham ado eta oldi.

Butun iste’dodi, qalbini xalqqa va ijodga baxsh etgan shoira, nihoyat, “she’riyatning yorqin ta xti”ga munosib malikaday e’zoz va baxt topdi. Mehnat Qahramoni unvoni, Davlat mukofoti va Xalqaro mukofotlar sohibasi bo‘ldi. Hech qachon so‘lmaydigan she’riyat chamani- ijodiy maktab yaratdi. Haqiqiy iste’dodning kamol topishi va san’at asarining yaratilishi qancha shart-sharo itu omillarga bog‘liqligi-ayon haqiqat. Zulfiya ham o‘zining “Uni Farhod der edilar”, “Bahor keldi seni so‘roqlab”, ”O‘g‘lim, sira bo‘ lmaydi urush”, “Mushoira”, “O‘g‘irlamang qalamim bir kun”, “Quyoshli qalam” va ”Xotiram siniqlari” kabi nodir asarlari bilan kitobxonlar qa lbini zabt etishi uchun ulkan san’atkorlarga xos mashaqqatli izlanish va ijodiy balog‘at yo‘lini matonat bilan bosib o‘tdi.

Zulfiyaning ilk to‘plami “Hayot varaqlari” bilan so‘nggi yillardagi ham mazmunan, ham shaklan ko‘rkam she’r- dostonlari xayolan taqqoslansa, shoiraning murakkab ijodiy yuksalish yo‘llari qanchalar samarali va ibratli bo‘ lganligiga amin bo‘lamiz. Fikrimizning dalili sifatida Zulfiyaning birgina “Mening meh ribon onaginam” she’rini eslaylik. Jahon adabiyotida, jumladan, o‘zbek she’riyatida ham bu qutlug‘ mavzuda necha yuzlab asarlar yaratilgan. Ammo Zulfiyaning ushbu she’ri nafaqat mazmun- ruhiyatining milliyligi, boyligi va teranligi bilan, balki poetik tashbeh-tamsillarining originalligi bilan ham ajralib turadi. Darhaqiqat, quyidagi quyma satrlarni faqat “poetik mahorat natijasi”- deya, baholash bamisoli daraxt ortidagi o‘rmonni ko‘rmaslikday umumiy bir xulosa bo‘lib qolsa kerak:

“Tizlaringda yotgan qo‘llaring charchog‘,
Hordiq olarmikan qalb-la silasam,
Oppoq sochlaringga qora ko‘zimning
Minnatdor nurini qilolsam taroq...
Bir umrlik yo‘lda kechib, ko‘rganing
Zarrasi madhiga etarmi kuchim!..

Zulfiya siyomosidagi donishmand inson, sadoqatli farzand va mu'tabar ona-shoiragina bitishi mumkin bo'lgan bu misralar zamiridagi umumin soniy tuyg'u-ma'nolarni anglash, ichdan tuyish va ularni qalbdan kechiri shdek saodatmandlik baxtini zikr etuvchining did-saviyasiga havola etib, bu o'rinda bir kuzatishimizni aytish bilan cheklanamiz: Onalar chekkan zahmatni, cheksiz mehr va fidoyilikni bu qadar tabiiy, samimiy va teran misralarda ifodalay olish dunyo she'riyatida ham- kamyob hodisa... Shoiraning bunday hayotiy teranlik va yuksak insoniy dard bilan yo'g'rilgan fasohatli she'riyati bugun nafaqat yurtimiz bo'ylab, balki ko'plab dunyo xalqlari qalbida ham aks-sado berayotgan ekan, bu baxtli qismatning asosiy sabab- manbai ham, eng avvalo, Zulfiyaning o'zligida, uning yorqin shaxsiyati va yuksak e'tiqodida deyilsa, xato bo'lmas.

Darhaqiqat, Zulfiya ijod olamiga o'tmishdagi ko'plab shoirlar kabi ishq va vafo, sevgi va sad oqat deb atalmish an'anaviy mavzu va tuyg'ularni kuylash bilan kirib keldi. Lekin beshafqat hayot va "yozda yoqqan qorday bevaqt o'lim" baxt qasrini vayron qildi va yosh boshiga og'ir musibat tushdi. Hamid Olimjonday umr yo'ldoshi- tog'day tayanchi va tengsiz ustozidan bevaqt judo bo'lgan Zulfiyaning "Hijroning qalbidam, sozing qo'limda, Men hayot ekanman, hayotsan sen ham"-, deya olishi uchun qanchalar ruhiy qudrat va ijodiy jasorat kerak edi. Bu og'ir judolik Zulfiyaning iroda-bardoshini qanchalar toblab, metindek mustahkam qilgan bo'lsa, uning qalb nigohini ham shuncha lar tiyraklashtirib, shoirona tafakkurini teranlashtirdi. Hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, Zulfiyaning iste'dodi va badiiy mahorati qanchalar kuchli bo'lsa, shoiraning insoniy dard-musibati va ijodiy jasorati ham ulardan-da yuksak va qudratliroq edi. Shu buyuk, iztirobli haqiqat va ilhombaxsh jasorat Zulfiya ijodiga, xususan, ayrim tanqid chilar tomonidan nohaq kamsitilgan hijron motiv larini kuylovchi she'rlariga yuksak insoni ylik, hayotiy hikmat va joziba baxsh etadi. SHikasta ko'nglidan she'riyatiga ko'chgan bu hayotbaxsh ruhiyat, fidoyilik va mardonalik, aslida, Zulfiya qalbi va ulug'vor siyomosining o'ziga xos poetik ifodasidir.

Zulfiya shaxsi va she'riyati haqida O'zbekiston Qahramoni mashhur shoirimiz E.Vohidov aytgan fikri ham shu jihatdan juda xarakterlidir: "Zulfiyani shoir qilgan,- deydi Erkin Vohidov,- o'z dardli qismati va dardli qismat haqidagi samimiy va ehtirosli nidosi. Uning mehr va sog'i nch bilan to'lgan satrlari judolik dard ida o'rtangan necha ming yuraklarga malham bo'lganini, necha ming ko'ngil daftariga ko'chirilganini xayol qilmoq kerak"*.

Bu so'zlarda yorqin iste'dod, ulkan insoniy qalb va dard, ijodiy jasorat va yuksak poetik mahorat mujassami bo'lgan Zulfiya she'riyati va shaxsining yaxlit, ajib bir olam ekanligi haqqoniy inkishof etilgan.

Beixtiyor umuminsoniy tafakkur va tuyg'ular bilan yo'g'rilgan "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush" she'ridagi mashhur satrlari xayolimizda jonlanadi: Urush! Noming o'chsin jahonda,

Hamon bitmas sen solgan alam.

Sen tufayli ko'p xonadonda

Ota nomli buyuk shodlik kam!

XX asrning eng mash'um tarixiy voqeasi bo'lgan, 45 milliondan ortiq kishining yostig'ini quritgan, millionlab norasida go'daklarni ota-onasid an judo qilib, etim qoldirgan, millionlab kishilarni umrbod majruh- nogiron qilgan va necha yuzlab shaharu qishloqlarni vayronaga aylantirgan Ikkinchi jahon urushining dahshatli kechinmalari va fashizm balosining mudhish asoratlari insoniyat yodidan toabad o'chmaydi. Ardoqli shoiramiz Zulfiyaning "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush" nomli she'ri ham dunyo xalqlari va musibatdiyda insonlar qalbida aks- sado berib turganligi ayni haqiqat:

Bas, bas, ezgu onalar qalbi
Yashay olsin bexavf, baxt bilan...
Ona qalbi oyoqqa tursa,
O'g'lim, sira bo'lmaydi urush!

Urushning bitmas alam-iztiroblarini teran aks ettirgan bunday nodir asarlar kishilarni hamisha ogohlikka da'vat etishi bilan birga, ayni vaqt da, bugungi tinch va farovon hayotimizni qadrlashga va uni saqlash uchun hamj ihatlik va sobitqadamlik bilan kurashishga chorlashi bilan yanada e'zozli va ahamiyatli idir.

Zulfiyaxonim umri poyonida yozgan she'rlaridan birida shunday bashorat qilgandi:

Men ketsam, mung'aymas umrim hech qachon,
Bu bog'lar - bir bog'lar bo'ladi hali...

Bugun o'z iqtidori bilan ilm va ijod sohasida ibratli faoliyat ko'rsatib kelayotgan Zulfiyaxonim izdoshlari umidli qizlarimiz yuzlab topiladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning farmoniga asosan Jizzax shahrida barpo etilgan Zulfiya va Hamid Olimjon nomidagi yodgorlik majmui xalqimizni behad quvontirdi. Bu so'lim maskanda qad rostlagan Hamid Olimjon, Zulfiya va Sharof Rashidov muzeyining muhtasham binolari, ona tili va adabiyot chuqur o'rgatiladigan maktab-internat va zamonaviy bolalar kutubxonalarining tashkil etilganligi ham yoshlarimiz kamoloti yo'lida ularga ko'rsatilayotgan cheksiz g'amxo'rlikning yorqin bir namunasidir.

Adabiyotlar:

1. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. T.O'qituvchi.
2. 1999. .Zulfiya. Visol.T.1972.55-b
3. E.Vohidov.Iztirob.T.1992.243-b.
4. Ozod Sharafiddinov.Ijodni anglash baxti.T.2004.384-b.
5. Ibrohim G'afurov. Mangu latofat.T. 2008, 236-b.

KOMEDIYA JANRINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI XUSUSIDA BA`ZI MULOHAZALAR

f.f.f.d. (PhD) Murodulla Jo'rayev JDPI

O'zbek adabiyotida komediya janrining tarixiy taraqqiyotiga e'tibor beradigan bo'lsak, uning janr sifatida bir qancha o'zgarish va yangi lanishlarga uchraganligini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, adabiyotimizda komediya janrining ilk qaldirg'ochi hisoblangan "Maysaraning ishi" asari bilan Abdulla Qahhor, Said Ahmad hamda Sharof Boshbekovlarning komediyalari o'rtasida janr spetsifikasi jihatidan olib qaralganda, bir qancha tafovutlar borligini sezish qiyin emas. Bu narsa bevosita asarlar tahlili misolida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Jumladan, "Maysaraning ishi" komediyasida komizm, komik vaziyatlar ko'proq personajlarning tashqi turli holati va harakati vositasida yuzaga keltiriladi. Lekin bu komik holatlarning yuzaga keltirilishi tomoshabinga oldindan ma'lum bo'ladi. YA'ni komik holatni hosil qilish haqida o'quvchi-tomoshabinni oldindan xabardor qilib qo'yish, kulgili vaziyatlarni hosil qilish rejasini oldin dan tuzib chiqish, go'yoki, o'quvchi-tomoshabinga qaerda kulish lozim, qaerda kulmaslik kerakligi haqida muallif maslahat berayotgandek ko'rinadi. Qaerda, qay vaziyatda komik holat yuzaga kelishi haqida

o'quvchi-tomosha binning oldin xabardor bo'lishi, tabiiyki uning ta'sir darajasini, kulgili vaziyatning ahamiyati va qimmatini ham birmuncha tushiradi.

Umuman olganda, Hamzaning "Maysaraning ishi" komediyasida deyarli barcha komik holatlar, komik vaziyatlar bosh qahramon bilan bog'lanadi va komizm yuzaga keltirishda ham Maysara bevosita va bilvosita etakchilik qiladi. Maysara o'zini kulgili tarzda namoyon etmaydi, satiraga xos fosh etish va jazoga tortish unga nisbatan ishlatilmaydi. Bundan ko'rinadiki, ushbu komediyada komik holatlarning vujudga kelishi va syujet tuzilishi birmuncha sxematik xarakterga ega. Ammo shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, "Maysaraning ishi" komediyasi yaratilgan davr nuqtai-nazaridan, o'zbek adabiyotida birinchi namuna va bu sohadagi ilk tajriba ekanligini hisobga olganda, adabiyotimiz uchun mazkur asar alohida ahamiyatga ega, deyish mumkin. 30-40-yillar o'zbek dramaturgiyasi boshqa janrlarga nisbatan u qadar rivojlanmadi. Hamzadan keyin o'zbek adabiyotida komediya janrining yuksak namunalarini yaratgan adib - Abdulla Qahhor bo'ladi.

Abdulla Qahhorning qahramon xarakteri xususiyatlarini uning tili vositasida ochib berishi, taqdir va qismatini, ichki ruhiy olamini, xarakterning rivojlanish jarayonini dialoglar orqali bera olish, voqealar rivojini va badiiy konflikt ziddiyatlarini o'zaro dialoglarda hamda monologlarda yoritish va o'ziga xos so'z qo'llash mahorati dramatik asarlarining ham shuhratiga sabab bo'lgan asosiy omillardan sanaladi. Ayni

vaqtda, ularning muvaffaqiyatini ta'minlagan muhim sabablaridan yana biri - bu - o'z davridagi jamiyat muammolarini umumlashtirib, tipik xarakterlarda ko'rsatib bera olganligidadir. YA'ni Abdulla Qahhor insonlar hayotida uchrayotgan muammo va kamchiliklarni, jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan ixtiloflarni mahorat bilan tanqid ostiga olib, ularni kulgi va satira yordamida ochib tashlashga erishadi. Ushbu komediyalar komizmning yuzaga chiqishi, satirik kulgining fosh etuvchi qudrati, komik tip va xarakterlarning milliyliigi va mukammalligi, badiiy konfliktning hayotiyliigi, takrorlanmas xarakterga egaligi jihatlaridan olib qaralganda, bemaol jahon adabiyotidagi eng sara komediyalar bilan tenglasha oladi.

Hamza Hakimzoda o'z komediyalarida komiklikni, asosan, turli xatti-harakatlar va holatlar vositasida amalga oshirsa, Abdulla Qahhor esa, bunga badiiy til bobidagi yuksak mahorati orqali erishadi. Adib o'zining ilk sahna asari "SHohi so'zana" komediyasi bilan o'z iqtidorining yangi qirralarini namoyish qildi va millionlab kitobxon va tomoshabinlarning, jumladan, xorijiy ellarning ham muhabbati va olqishiga sazovor bo'ldi.

Qisqa muddat davomida Abdulla Qahhor o'zbek komediyana visligining katta va etakchi vakiliga, bu janrning sermahsul ijodkoriga aylanib qoldi. U o'zbek komediyasi janrini yangi yangi xususiyatlar, o'ziga xos sifatlar bilan boyitgan "Og'riq tishlar" hamda "Tobutdan tovush" asarlari bilan bu janrning o'lmas namunalarini yarata oldi. Xullas, Abdulla Qahhorning dramaturgiya sohasida erishgan yutuqlari adabiyotimizda komediya janrining keng taraqqiy etishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, boshqa ijodkorlarning ham hajviy sahna asarlari yaratishlariga ijodiy bir ilhom bag'ishladi.

Nihoyat, keyingi yillarda o'zbek komediyana visligida yaratilgan g'oya viy-badiiy etuk asarlardan biri sifatida SHarof Boshbekovning "Temir xotin" komediyasini mamuniyat bilan tilga olishimiz o'rinli bo'ladi. "Temir xotin" komediyasi g'oyaviy-badiiy quvvati, emotsional va estetik saviyasi jihatidan nafaqat muallif ijodida, balki o'zbek komediya navisligida ham o'ziga xos, betakror asarlardan biri bo'lib hisoblanadi.

O'zbek adabiyotida mazkur komediya singari xalqimiz turmush tarzini, hayotini bor bo'yicha, murakkabliklari bilan tasvirlab bera olgan boshqa bir badiiy asarni topish mushkul

bo'lsa kerak. To'g'ri, ancha yillar o'tgandan keyin va Mustaqilligimiz sharofati bilan yaratilgan ayrim asarlarda bu hayotiy haqiqat bir qator asarlarda o'zining real ifodasini topa boshladi. Bu o'rinda birgina yorqin misol keltirish bilan cheklanamiz. Ya'ni Sharof Boshbekov kabi o'zbek ayolining mashaqqatli hayoti va fojeaona taqdirini haqqoniy aks ettirgan etuk asarlardan biri, bu, shubhasiz, talantli yozuvchimiz Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanidir. Darhaqiqat, oy-u yillar paxtakorlar bilan birga yashab, birga turgan va ularning butun azob-uqubatlari-yu, g'am-anduhlarini birga totgan shijoatli yozuvchi Tog'ay Murod zaxmatkash o'zbek dehqonining tuganmas ranju mehnatlarini shu qadar kuchli ehtiros va ichki to'liq bilan jo'shib tasvirlab beradi. Fidoiy xalqimizga, munis onalarga o'z jigarbandidek jonkuyar bo'lgan va qanchalik og'ir bo'lmasin, hayot va tarix haqiqatidan chekinmagan jasoratli adibgina "joni toshdan, tani temirdan yaralgan", gulday umri paxta egatlarida bevaqt xazon bo'lgan o'zbek ayolining o'kinch-armon to'la hayoti va ayanchli taqdirini jamiki mudhish fojealari bilan shu darajada mardona ko'rsata olishi mumkin. Ana shunday haqqoniy tasvir orqali o'quvchi Dehqonqul va Qo'chqorlarga o'xshab qishin-yozin o'zini ayamasdan ishlab, umrida biror ro'shnolik ko'rmagan yuzlab sofdil va diyonatli insonlarning achchiq qismatiga qalban sherik bo'ladi. Sharof Boshbekov va Tog'ay Murod kabi realist adiblarimizning bunday asarlarining asosiy g'oyaviy-badiiy va ijtimoiy-estetik qimmatini ham mana shunda. Ya'ni ular mudroq bosgan tarixiy ongu-tafakkurimizni, milliy g'urur va ruhiyatimizni uyg'ota olishida, desak haqiqatga xilof bo'lmaydi deb hisoblaymiz.

O'zbek millatining, ayniqsa, qishloq odamlarining fojiali hayot tarzini kulgili yo'sinda aks ettira olganligi bilan esa ushbu komediya adabiyotimizda betkror sanaladi. SHarof Boshbekov komediyaning bosh sahnasidayoq Qo'chqorning oilasi, ro'zg'oridagi hamma narsada nimadir etishmayotganligini tasvirlab beradi. Tasvirdagi bu o'ziga xoslikning sabablarini ilg'agan tomoshabin-kitobxonigina asarning hayotiy zamini va badiiy beqiyosligini tushunib oladi. Qo'chqorning uyi dasviriga e'tibor beraylik: uydagi derazaning bir oynasi singanligi, deraza romlaridan biri bo'yalgan bo'lsa, ikkinchisi bo'yalmaganligi, so'lining bir oyog'i kamligi, choynak jo'mragining siniqligi, piyolasining bir tomoni uchganligi kabi ro'zg'ordagi ko'plab kamchiliklar tasviri mazkur qahramonning g'aribona va aftodahol turmush tarziga ko'nikkan va boshqacha bo'ishni xayoliga ham keltira olmaydigan inson ekanligini ochib berishga xizmat qilgan.

TARIXIY VOQELIK VA BADIY TALQIN

**Yulduz Karimova, JDPI dotsenti
Toshpo'lat Umirov JDPI o'qituvchisi**

Insoniyat tarixida "Birinchi muallim" degan yuksak martabaga musharraf bo'lgan buyuk mutafakkir Aristotel o'zining "Poetika" asarida Tarix va Adabiyot fanlarini qiyoslab, Adabiyotning o'ziga xos san'at turi ekanligi va uning Tarix fanidan ko'ra hayot voqeliklarini tasvirlash imkoniyati kshpligini alohida ta'kidlagan edi. Bu haqiqatga ulug' shoir va yozuv chilarning tarixiy mavzuga bag'ishlangan asarlari misolida to'la ishonch hosil qilish mumkin. Masalan, jahon adabiyotining buyuk daholaridan biri Alisher Navoiy ijodi, atoqli adib **Fitrat** aytganidek, bamisoli bir ummondur. Har bir yangi avlod bu bebaho merosga murojaat qilib, undan ma'naviy ehtiyoji va imkoniyatiga yarasha bahramand bo'ladi. Alisher Navoiy turkiy nazm-u nasrning shoh asarlarini ijod etgan ulug' so'z san'atkoridir. Asrlar davomida bu

buyuk daho qalamiga mansub bebaho tarixiy va ilmiy-adabiy meros insoniyatning ma'naviy kamolotiga munosib xizmat qilib kelmoqda. Ular shoir yashagan davridanoq ilhom manbai sifatida ijodkorlar qalbi va tafakkurida yangi-yangi mavzu-g'oyalalar, fikr va tuyg'ular paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Navoiyning "Majolis un-nafois" («Nafosat ahlining majlislari») — XV asrda Movarounnahr va Xurosonda yashagan 450dan ortiq ijodkor hayoti va ijodi haqida hamda adabiy hayot bilan aloqador muhim voqealardni haqqoniy bayon etuvchi va turkiy tilimizda yaratilgan birinchi noyob tazkira sifatida qimmatlidir. Tazkiraning yettinchi majlisi ulug' sohibqiron **Amir Temur** shaxsining badiiy adabiyotga munosabatini oydinlashtirish bilan ibtido topadi. Muallif buyuk hukmdorni «muluk shajara sining bo'stoni va salotin gavharlarining ummoni, xoqoni jahongiri sohibqiron»,- deya ta'riflaydi va quyidagi ma'lumotlarni bayon etadi: «Temur Ko'ragon, agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xo'jb mahal va mavqe'da o'qubdurlarkim, aningdek bir bayt o'qug'oni ming yaxshi bayt aytqoncha bor» (2.163). Ayonlashadiki, Amir Temur garchi badiiy ijod bilan shug'ullanmagan bo'lsa-da, juda ko'plab nazmiy va nasriy asarlardan xabardor bo'lgan, ulardan namunalar yod bilgan va adabiy davralarda faol ishtirok etgan hamda iste'dodlarni qo'llab-quvvatlab kelgan. Yoki ushbu tazkiraning temuriylar davrida adabiyot qanchalik rivojlangani xususida fikr yuritilarkan, yosh sultonlardan biri shunday tavsiflanadi: **Shohg'arib Mirzo – shahzoda. U – Husayn Boyqaroning farzandi.** Ammo Shohg'arib Mirzo tabiatan boshqa shahzodalardan, shuningdek, o'z aka-ukalaridan farq qiladi. Uning mayli ov, qush janglari singari ko'ngil ochish o'yinlaridan anchagina uzoqda. Bularning teskarisi o'laroq, uning o'qish, o'rganish, ijod bilan band bolishga rujui baland. Zotan, Shohg'arib Mirzo tabiatidagi bu tomonlar Alisher Navoiyga juda ma'qul kelgan. Shuning uchun ham ulug' o'zbek shoiri Shohg'arib Mirzoni ayricha ehtirom ila xotirlaydi. Manbalarning guvoh ligidan ayonki, Shohg'arib Mirzo shunchaki ermak yoki shuhrat uchun onda-sonda badiiy ijodga murojaat qilgan shahzodalar dan emas edi. Aksincha, ijod dardi uning asosiy mashg'uloti, qalb zarurati sifatida doimiy hamdami bo'lgan. (1.145.)

Bizga tarixiy va adabiy manbalardan ma'lumki, ayrim hikoyat va manoqiblarda shoir va adiblarning hozir javobligi, topqirlik, zakovat, badihago'ylik kabi qobiliyatlari alohida qadrlanadi. Shuningdek, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy o'rtasida qizg'in ijodiy musobaqalar, o'zaro ruhlantirish, aql va zehnni charxlashga xizmat qiluvchi sinovlar va ko'plab bahs-munozara, dilkash suhbatlar bo'lib turganligi yaqqol namoyon bo'ladiki, bular tarixiy va ilmiy jihatdan ham juda ahamiyatlidir. Fikrimizning dalili sifatida tarixiy bir misol kelirishni lozim topamiz. Alisher Navoiy XV asr Xuroson mamlakatining adabiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida yuksak mavqega ega bo'lgan ulug' zotlarning nomlarini abadiylikka muhrlash, ularning yorqin insoniy fazilatlarini ibrat namunasi sifatida ko'rsatish maqsadida «Xamsat ul-muttahayyirin» (1493-1494), «Holoti Pahlavon Muhammad» (1493-1494) va «Holoti Sayyid Hasan Ardasher» singari yodnomalarni ijod etadi. Ushbu asarlar Navoiy davri nasriy uslubining qonun-qoidalari asosida yozilgan bo'lib, ularda o'rni bilan she'riy parchalar, hikoyat va rivoyatlar ham keltiriladi.

«Xamsat ul-muttahayyirin»ning daslabki maqoloti ikki hikmat sohibi, ya'ni Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar o'rtasida sodir bo'lgan ko'plab g'aroyib voqea lar, hayratli holatlar, latif sarguzashtlarni o'zida mujassam etgan hikoyatlardan tuzilgan. Bir misol: Sulton Muzaffar Husayn Mirzoning boshiga musibat tushadi. Uning o'g'li Ahmad Husayn vafot etadi. Ta'ziya izhor etmoq uchun Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar «Bog'i safed»ga

borishadi. Alisher Navoiy shu musibat munosabati bilan yozgan marsiyasining bir baytini Abdurahmon Jomiy qulog‘iga aytadi:

**Gar sham’ murd, mehri falakro mador bod,
Gar qatra rext, obi bahoro qaror bod.**

Ulug‘ o‘zbek shoirining mazkur bayti Abdurahmon Jomiy ijodiy imkoniy-atlarini ilhomlantirgan va u qog‘oz hamda qalam so‘rab olib, quyidagi misralarni yozib, Alisher Navoiyga o‘qib bergan ekan:

**Farzand mevayest zi shoxi daraxti umr,
Gar z-on ki meva rext, shajar poydor bod (2.20).**

Har ikki bayt satrlaridagi mazmun va hatto tashbehtar ham g‘oyat uyg‘un. Birinchi satrda olamni tark etgan o‘g‘il - o‘chgan shamga, ota esa falakda kezuvchi va manguikka daxldor Quyoshga qiyoslanadi. Abdurahmon Jomiyning bayti ham ta’sirchan. Uning talqinicha, ota daraxt, farzand shu umr daraxti shoxlarining mevasidir. Umr uzoqqa cho‘zilsa, bardamlik poydor bo‘lsa, shox ham, hosil ham serob bo‘ladi. Modomiki shunday ekan, daraxt shoxlaridan hosilning bemavrid to‘kilishidan o‘ksinish yaramaydi. Manba—asos omon bolsa, yana son-sanoqsiz mevalarning tug‘ilishi tabiiydir. Demak, hayotiy voqea adabiyotda, ayniqsa, etuk she’rlarda shu darajada chuqur va ma’nodorlik bilan aks ettirilishi shoirlarning mahoratidan dalolatdir.

Bunday ibratimiz tarixiy voqea va hodisalarni XX asr adabiyotidan ham ko‘plab keltirish mumkin. Masalan, jadid adabiyoti namoyanda larining ijodi bunga yorqin dalil bo‘la oladi. Taassuf bilan aytish joizki, o‘tgan asr ikkinchi yarmi va asrimiz boshlarida yuz bergan tarixiy voqea- xodisalar to mustaqillik yillariga qadar biryoqlama, ya’ni tarixiylik va badiiylik mezonlariga butunlay zid ravishda yoritib kelindi. Turkiston o‘lkasining chor Rossiya tomonidan qonli to‘qnashuvlar va ayovsiz janglar ostida shafqatsizlarcha bosib olinganligi va oqibatda bu o‘lka mustamlakachilikka aylantirilganligi ayrim soxta baynalmilalchi olimu siyosatdonlar tomonidan xaspo‘shlanib kelindi. Oqibatda go‘yo “O‘rta Osiyo o‘z ixtiyori bilan Rossiyaga qo‘shilgan, Rossiya O‘rta Osiyoga madaniyat va ma’rifat olib keldi“ qabilidagi uydirmalar to‘qib chiqarildi. (3.26.)Xalqimizning yaqin o‘tmishi va madaniyati tarixini xolisona o‘rganish, O‘rta Osiyo va chor Rossiya munosabatlari tariximavzusini ilmiy asosda yoritish va unga ijtimoiy adolat nuqtai nazaridan baxo berish hamda tarixiylik va badiiy talqin muammolarini keng o‘rganish ma’naviyatimiz va istiqlol mafkurasining ham dolzarb muammolaridan sanaladi. Darhaqiqat, rus hamda boshqa qardosh xalqlar bilan birodarlarcha munosabatlarimiz va turli sohalaridagi xamkorligimiz tufayli ijtimoiy-iqtisodiy turmushimiz va adabiy-estetik tafakkurimizda sodir bo‘lgan ijobiy o‘zgarishlardan ko‘z yummaganimiz xolda tarixiy xaqiqatga va o‘tgan ajdodlarimizning muqaddas xotiralariga nisbatan xolis bo‘lishimiz lozim. O‘lkamizda chorizm siyosati qanchalik daxshatli oqibatlarga sabab bo‘lganligini ko‘plab tarixiy hujjatlar va adabiy manbalar to‘la isbot qila oladi.

Millatimiz va adabiyotimiz faxri bo‘lgan Qodiriy, Fitrat va Cho‘lponlarning 20-yillarda chuqur dard bilan yozilgan achchiq alam va faryod to‘la asarlari xalqimiz boshiga tushgan ana shu fojialarni xaqqoniy aks ettiruvchi adolatli bir aybnomadek jaranglaydi. Cho‘lponning 1921-yili yozilgan “Yong‘in” nomli she’rida aks ettirilgan davr fojialari ko‘lami va daxshatini quyidagi she’rlar orqali ham bilib olishimiz mumkin:

**Shunday katta bir o'lkada yonmagan,
Yiqilmagan, talanmagan uy yo'qmi?
Bir ko'z yo'qmi qonli yoshi tommagan,
Butun ko'ngli umidsizmi,siniqmi?.. (4.418)**

Bunday she'rlar o'sha yillari hukmron sinfiy mafkura tomonidan millatchilik ruhida yozilgan va sotsialistik hayotni buzib tasvirlovchi g'oyaviy zararli asarlar sifatida keskin qoralangan bo'lsa-da,aslida, ularchinakam millatparvar shoir Cho'lponning shafqatsiz realizmidan, Qodiriydek haqgo'yiligidan dalolatdir. Xalqimiz boshidan kechirgan bu fojialar badiiy adabiyotda, qator realistik asarlarda ham o'z aksini topganligini ta'kidlash zarur. Bugungi yangilanayotgan O'zbekistonimiz yoshlari ana shu tarixiy haqiqatni chuqur anglashi va mustaqilligimizni yanada ko'proq qadriga etishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Majoli un-nafois. Toshkent. 2011.
2. Alisher Navoiy. Xamsat ul-mutaxayyirin. T. 2012.
3. O'zbekiston tarixi. O'qituvchi. Toshkent. 1982.
4. Cho'lpon. Yana oldim sozimni. Toshkent. 1991.

“AFLOTUN” ROMANIDA POETIK MUSHOHADA KENGLIKLARI

Nigora Samandarova – UrDU tadqiqotchisi

Qadimiy ajdodlarimizning samoviy tasavvurlari to'g'risidagi mifologik qarashlarni o'rgangan olimlar [6] mifopoetik tafakkur va olamning tuzilishi haqidagi tasavvurlarga alohida e'tibor qaratib. ularning e'tiqodiy tasavvurlar mohiyatini izohlashda muhim xarakter kasb etishini ta'kidlashgan. Jumladan, folklorshunos olim M.Jo'rayev kosmogonik miflar asosida yuzaga kelgan samoviy afsonalar syujetining tarixiy asoslari va motivlar tizimini sinchiklab o'rganar ekan, ular matniga asos bo'lgan birlamchi mifologik tasavvurlarning qoldiq holda saqlanib qolgan talay unsurlarini aniqlab, tasnif qilgan. [4] Prof. M.Jo'rayev ta'kidlashicha, samoviy afsonalar qadimiy e'tiqodlar va mifologik tasavvurlar asosida yuzaga kelgan og'zaki hikoyalar bo'lib, etiologik miflarning talqinlarini badiiy tafakkur qonuniyatlari vositasida bayon qiladi. [4.9.]

Badiiy-estetik mohiyat kasb etgan verbal shakldagi samoviy afsonalar esa, o'ziga xos shakllanish hamda takomillashish bosqichini o'tagan. Samoviy asotirlar va mifologik qarashlar asosida yuzaga kelgan e'tiqodiy ishonchlar bugungi kunda nafaqat xalq an'anaviy marosim, rasm-rusumlari, balki uning tafakkur tarzi, xususan, nasriy asarlari poetikasi va uslubida ham saqlanib kelayotganini kuzatish mumkin. Jumladan, Omon Muxtorning “Aflotun” romani [7] tafakkur tarzida xalq mifologik qarashlari asosida yuzaga kelgan e'tiqodiy ishonchlarga asoslanish poetik mushohadaning badiiy-estetik qimmatini oshirgani guvohi bo'lamiz. Bu hol zamonaviy o'zbek adabiyoti, xususan romanchiligi o'z an'anaviy ildizlari bilan chambarchas aloqada rivoj topayotganini dalillaydi. Romanda antik faylasuf Suqrot bilan XX asr boshlarida yashatan adib va dramaturg Fitrat qismatidagi ayrim mushtarak jihatlariga asoslanib, o'zbek jadid adabiyoti va jadidchilik harakatlari avj olgan davr madaniy-ma'rifiy hayotining faol kurashchisi bo'lgan donishmand inson siymosi o'z

zamondoshlari davrasida tasvirlanadi. Zamondoshimiz Usmonning jadid bobokalonlarimizga intiqlik hissi romanni nurlantirib turadi.

Qizig'i shundaki, bu hol odatdagi xronologik bayon tarzida emas, balki barqaror ramzlar qo'llash orqali yuzaga chiqadi. O.Muxtor shu ifoda usuliga tayanib voqea-hodisalar asl mohiyatini ishonchli ifodalashga erishadi. Ta'kidlash o'rinliki, mif mazmuniga asoslangan bunday poetik ifoda usuli zamonaviy adabiyotimiz uchun nihoyatda xarakterlidir. Chunki Usmon ezgulik ruxsoriga etib, uning qo'lidan choy olishi, suv ilinjidagi tashna qalbning qonishiga ishonch tug'diruvchi ishora vazifasini o'taydi. Quduqning tagida mis lagan atrofida o'tirgan odamlar ham, qiz ham Usmonga suv yo'lini ochish uchun Rauf (Abdurauf Fitrat)ni yoki mo'jaz bir sandiqni izlash kerakligini aytishadi. Hajmi qalinroq kitobdek keladigan bu sandiq shunchaki uy-ro'zg'or buyumi emas. Biroq unda saqlanayotgan bisot roman mohiyatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sandiq – ko'ngil, undagi bisot tarixiy xotira ekani anglashilsa, Usmonning ham, xalqning ham kelajagi aynan shu sandiqqa bog'liqligidan ko'zlangan ma'no oydinlashadi.

Anglashiladiki, O.Muxtor sho'ro adabiy siyosati tarix sahifalaridan nomlarini o'chirishga intilgan Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jaev kabi o'nlab siymolar, aslida milliy ong, milliy g'urur tuyg'usi kuchli, tobelikka qarshi isyonkor shaxslar edi, degan fikrni badiiy libosda bergan. Kitobxonning irodasi mustahkam, iymon-e'tiqodi but, milliy g'urur tuyg'usi baland bo'lishini orzulagan adib, buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan ma'naviy bisotga ega bo'lish orqaligina bunyod etilgan mustaqil davlatni yanada yuksaltirish mumkinligini anglatmoqni istaydi. Bu istak-tilaklarning zamonamiz intilishlariga hamohang ekani e'tiborlidir. Zotan muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyov haqli ravishda ta'kidlaganlaridek:

“Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. SHu yo'lda ular o'zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Ular “Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas”- degan hadisi sharifni hayotiy e'tiqod deb bildilar. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma'rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisobladilar... Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo'lida jonini fido qilgan jadiclarning ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun bugun ham beqiyos ahamiyatga ega”. [1] Buni yaxshi anglagan adiblarimiz shu yo'sinda ijod qilishgani quvonchli holdir. Masalan, yo'lsizlikdan qiynalgan Usmonning o'tmish ajdodlar bilan shajaraviy rishtani tiklashi romanda shunday tasvirlanadi: *“Usmon o'rnidan turib, quduqning bir chetida ochilgan qopqadan indamay ichkariga yo'naldi”*[7. 80] Ko'rinadiki, Er osti olamiga quduq orqali o'tib, ajdodlar ruhi bilan yuzlashgan, ularning ko'rsatmasi bo'yicha quduq chetidagi qopqadan ichkari kirib “daryodek keng ko'cha”dan chiqib qolgan Usmon sarguzashtlari mifologik ishonch-e'tiqodlar asosida bayon qilingan. Ulug'vor tariximiz va buyuk ajdodlarimizga munosib bo'lishga da'vat etilgan. Uning sandiqni topishi va suv yo'lining ochilishi roman optimistik echimini ta'minlagan.

“Xalqimiz er osti olamiga go'r, quduq, yoriq-teshik yoki g'or orqali o'tish mumkin deb o'ylagan”, deb yozadi M.Jo'raev.[4.120] Xalq ishonch-e'tiqodlariga ko'ra Osmon – maloiklarning makoni, er osti – o'liklar mulki. Bu qadimiy mifologik tasavvurlar asosidagi motivdan hozirgi o'zbek romanlarida ham foydalanilmoqda. Romanda butun-butun avlodlar Turkiston qayg'usi, hasrati, armon va iztiroblari bilan yashashga mahkum qilingan XX asr fojialari ma'lum ma'noda bir ipga tiziladi. Mif mazmuniga ishora qilishdan ko'zlangan

maqsad ham aslida hayotda insonning o‘z qiyofasini saqlab qolmoq uchun intilib, kurashib yashashi zarur ekanligini uqtirishdan iborat. O‘z- o‘zidan norozilik sezgan qahramonlar *“Dunyo muhabbatdan boshqa narsaga yaramas ekan!”* degan qarorga kelishadi. [7.59]

O‘tgan asr to‘fonlarida surilib-sirg‘alib “suvsiz chuqurlik”ka tushib qolgan Usmon o‘sha xalq g‘am-tashvishlari bilan yashaydi. Uning ruhi “Oliy bir maqom” kasb etadi. Shu bois ham, Usmon avlodlari etisha olmagan olisdagi nur jilvasi – guldek Sanam ruxsoriga erishadi. Boshqacharoq aytganda, jaholatni ma‘rifat bilan mahv etadi: *“Mis lagan yonida barvasta, ko‘zlari katta-katta kishilar emas, Rayhon pari degandek egnida harir oq ko‘ylak, boshiga ham harir oq ro‘mol tashlagan Qizmi, Kelinchakmi?!- o‘tirar edi!.. Qiz unga qo‘lida paydo bo‘lgan piyolada choy uzatdi”*. [7.79.]

«Oq harir ko‘ylak», «oq xarir ro‘mol»ga ahamiyat qaratsak, boshdan-oyoq oqlikka burkangan sanam ustidagi harir (yupqa va nozik) mato ko‘chma ma‘noda tozalik va musaffolikni anglatadi. O.Muxtor badiiy tafakkurning eng qadimiy vositasi bo‘lgan rang bilan bog‘liq ramzlarga ahamiyat qaratib, poetik mushohadaning badiiy-estetik qimmatini oshirishga erishadi. Zero oq rang azal-azaldan ezgulik, yorug‘lik, farovonlik ramzi sanalgan. *“Rang bilan bog‘liq ramzlar xalqning ko‘p asrlik tarixida u yoki bu rang haqida yuzaga kelgan e‘tiqodiy, kosmogonik tasavvurlariga asoslanadi»*¹⁹, deb yozadi adabiyotshunos Nasiba Jumatova.[5.12]

Shveysariyalik taniqli psixiatr, analitik psixologiyaning asoschisi Karl Gustav Yung: *“... har bir inson o‘z mifini yaratishi, har qanday san‘at asarlarida mifning qayta ishlangan shakliga duch kelinishi tabiiy jarayon”* ekanini ta‘kidlagan edi. [10.402] Tadqiqotchi Manzura Otajonova ham Shukur Xolmirzaev, O‘tkir Hoshimov, Omon Muxtor, Nazar Eshonqul, Asad Dilmurod, Ulug‘bek Hamdam, Shoyim Bo‘taev kabi adiblarning asarlarida mifologizmning o‘ziga xos tarzda badiiy talqin qilinishiga diqqat qaratadi. Ularning badiiy idrok etilgan voqelikni tasvirlash usulida olamni mifologik anglash asosiga qurilgan universal arxetipik modellar, obraz va motivlardan foydalanishga intilish hamda badiiy asarning mifologik podtekst asosiga qurilishi polifonizmni keltirib chiqaruvchi asosiy omilga aylanib borayotganligini ta‘kidlaydi. Olima fikricha: *«Mifopoetik an‘anadan foydalanish asarda tasvirlanayotgan voqelik bayonida realistik talqin bilan ramziy-metaforik, mifologik-simvolistik ifodalarning uyg‘un holda berilishiga hamda xronotop yo‘nalishi va tasvirlangan badiiy olam zamiriga arxaik tafakkurga xos mifik qarashlar va tasavvurlarning singdirib yuborilishiga olib kelmoqda»*. [8.21]

Yuqorida keltirilgan iqtibosdan anglashiladiki, o‘z zamondoshlari asarlari kabi, Omon Muxtor romanlarida tasvirlangan poetik ifodalar qorishiligi ham mifopoetik an‘anadan ijodiy oziqlanish, talqin usullarini qorishiq holda qo‘llash negizida yuzaga chiqadi. Binobarin, adib arxaik mifologik tasavvurlarni qayta ishlab, yanada boyitadi va zamonaviy shakl-shamoyilda badiiy sayqal beradi. *“An‘anaviy mif bilan “yangi” shaxs haqiqatini o‘zaro sintezlashtirgan holda potik ifoda etish”* [2.175] esa, inson mavjudligi va hayot yo‘lini badiiy idrok etishning yangicha usullarini topishga intilish samarasidir.

O.Muxtor “Aflotun” romanidagi voqealar bayonida foydalangan “quduq” detalidagi qahramonning quduqqa tushishi bir jihatdan, Yusuf (a.s.) qissasi va xalq ertaklarida ham bayon etilgan. Zamonaviy nasr, xususan E.Samandarning “Tangri qudug‘i” [9] romanida ham Som payg‘ambar tushida otasining ruhi bilan uchrashadi. Tushda ota va o‘g‘il o‘rtasida bo‘lib

¹⁹ Жуматова Н.С. Ҳозирги ўзбек шеърлятида ранг билан боғлиқ рамзий образлар. Филол. фанл. номзоди дисс... автореф. –Тошкент, 2000. –12 б.

o'tgan suhbatdan qahramon qalbida umidvorlik va o'ziga yanada ishonch paydo bo'ladi. Ruhning qahramonga dalda berishi rivoyat asosida bayon qilinadi. Bu rivoyat bilan roman voqealari uzviy bog'lanib, quduq va shaharning ilohiyligiga ishora qilinadi. Tarixiy romanda voqealar ichki mantig'ini ta'minlash va xarakterlar ruhiyatini aks ettirishda xalq ishonch-e'tiqodlari bilan bog'liq an'anaviy motivdan foydalanilgan. Prof. I.Yoqubov haqli e'tirof etganiday: Ichan qal'adagi "tangri qudug'i" bilan bog'liq timsol hatto roman syujeti va kompozitsiyasiga kuchli ta'sir o'tkazib, muallifning Abulg'oz Bahodirxonni bosh qahramon sifatida tasvirlash rejasini keskin o'zgartirib, "quduq" obrazi birinchi planga chiqishiga olib kelgan.

S.Vafo "Oltinchi unsur" hikoyasida ko'hna mavzuga yangicha yondasharkan, Tangri qahridan yaralgan "shamol"ni "quduqqa tushgan" bolasi tashvishida ketmon-belini olib chopadigan, mehribon, shavqatli yaratiq sifatida tasvirlaydi. *"Adiba xalqimizning qadimgi inonch-e'tiqodlari vositasida shaytoniy nafsning quliga aylangan banda o'z o'zligini mahv etmas ekan, ko'hna bu olamni gunohlardan poklash maholdir, degan fikrni ilgari suradi"*. [3.166]

Umuman, O.Muxtorning "Aflotun" romanida keltirilgan quduq detali qahramon hayotidagi sirli voqealar echimini topishda o'quvchiga yordam beradi. Yozuvchi o'z qahramonining quduq tubidagi darcha orqali o'zga bir olamga o'tishi uchun er osti dunyosi to'g'risidagi quduqqa tushish an'anaviy mifologik motivdan foydalanadi. Romanda Usmon quduq tubida uchrashgan odamlar jadid bobolarimizning ma'naviy madadkor ruhlari poetik timsollaridir.

ADABIYOTLAR:

1. O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // "Xalq so'zi", 30 sentyabr 2020 yil.

2. Vladimirova N.V. Ontologicheskaya xudojestvennaya kartina mira v sovremennoy uzbekskoy proze. / Razvitie uzbekskoy prozy XX veka i voprosy xudojestvennogo perevoda. – T.: 2012. Fan, - S. 175.

3. YOqubov I. Hozirgi adabiy jarayon. O'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 2005. – B.166.

4. Jo'raev M. O'zbek xalq ertaklarida "sehrli" raqamlar. – Toshkent, 1991. – B. 106-126; O'sha muallif. Etti homiyning mifologik asoslariga doir // Adabiy meros. 1989, №2, – B. 65-69; O'sha muallif. O'zbek xalq samoviy afsonalari. – Toshkent: Fan, 1995; Jo'raev M., SHomusarov SH. O'zbek mifologiyasi va arab folklori. –Toshkent: Fan, 2001.

5. Jumatova N.S. Hozirgi o'zbek she'riyatida rang bilan bog'liq ramziy obrazlar. Filol. fanl. nomzodi diss... avtoref. –Toshkent, 2000. –12 b.

6. Kreynovich E.A. Ocherk kosmogonicheskix predstavleniy gilyakov. Saxalin. // Etnografiya, 1929. №1; Karinovskaya L.E. Predstavleniya altaysev o vselennoy. // Sovetskaya etnografiya. 1935 № 4-5; Anisimov L.F. Kosmologicheskie predstavleniya narodov Severa.

JADID SHE'RIYATIDA RANG BILAN BOG'LIQ RAMZIYLIK

Yoqubova Sevinchoy –
ToshDO'TAU 2-bosqich
tayanch doktoranti

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida jadid she'riyati o'zining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. Jadid she'riyatida millatparvarlik, erk va hurlik haqidagi qarashlar etakchi o'rin tutib bu bevosita ramziy ifodalar orqali tasvir etiladi. Shuning uchun ham bu she'riyatda rang-barang obrazlar, ifoda vositalari, ramziy tasvirlar mahorat bilan qo'llanilgan. Ayniqsa, rang bilan bog'liq ramziylik ko'p uchraydi.

O'zbek jadid she'riyatidagi rang bilan bog'liq ramziylik mohiyatini chuqurroq englash uchun ranglar va ularning o'ziga xos tabiati, she'riyatdagi vazifalari haqida muayyan tasavvurga ega bo'lishimiz lozim.

Ma'lumki, ranglar xalqning urf-odatlarini, ijtimoiy hayoti, madaniyati, diniy qarashlari bilan bog'liq bevosita bog'liqdir. Adabiyotshunosligimizda ranglarning ramziy ma'noga egaligi xususida bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu o'rinda S.O'tanovanning "Alisher Navoiy g'azaliyotida rang simvolikasi" [7], N.Jumatovanning "Hozirgi o'zbek she'riyatidagi rang bilan bog'liq ramziy obrazlar" [1] nomli nomzodlik dissertatsiyalarini misol qilishimiz mumkin.

Taniqli navoiyshunos Y.Ishoqovning Alisher Navoiyning "Xazoyin ul- maoniy" devoni asosida yaratilgan "Ranglar ramzi" nomli maqolasi ham jiddiy tadqiqotlardan hisoblanadi. Ushbu maqolada ustoz navoiyshunos "Xazoyin ul- maoniy" da rang bilan bog'liq 31 ta g'azal borligini keltirib o'tadi va ulardan ayrimlarini tahlilga tortadi [4. 124].

Yer yuzidagi qutblarning har biri alohida ranglar bilan belgilangan. "Qora rang – shimolning, qizil – janubning, yashil – sharqning, oq – g'arbning ramzi degan ma'lumot – o'ttizinchi, qirqinchi yillardayoq fanda xrestomatik bir ma'lumotga aylangan" [2. 14].

Ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi azaliy kurash tasvirlangan "Avesto" da ham ranglar tasviriga alohida e'tibor berilgan. Jumladan, unda qora rangning ziddi o'laroq oq rang ta'rif va tavsif etiladi. O'rta Osiyo xalqlarida oq rang, ezgulik, soflilik, haqiqat belgisi hisoblanadi. Ushbu ranglarga har bir xalqda turlicha qarashlar mavjud. Masalan, hindlarda oq rang motam ramzi hisoblansa, ko'pgina xalqlarda qora va ko'k ranglar qayg'u ramzi sifatida ko'riladi.

O'tmishdagi janglarda engilgan tomon oq bayroq ko'targan va bu sulh mazmunini anglatgan. Qoraxoniylar va Abbosiylar hukmronligi davrida qora rang alohida nufuzga ega bo'lganligini ko'plab tarixiy manbalar tasdiqlaydi.

Adabiyotshunos Ibrohim Haqqulning bir qator ilmiy maqolalari aynan qora rang tadqiqiga bag'ishlangan. "Turkiy qavmlar islomgacha va islomdan keyin ham qora rangdan salbiy ma'no, holat va hodisalarni xarakterlashda nechog'lik keng foydalanishgan bo'lmasin, haq ahli, ma'no va ishq sohiblaridan hech bir kishi mohiyati ilohiyada qora rangning muqaddasligiga shubha qilmagan. Hatto, SHarq she'riyatida takror-takror ishlatilgan «qora ko'z» (chashmi siyoh), «qora zulf» (zulfi siyoh), «qora xol», «qora balo» singari o'nlab istioraviy ibora va tashbehtar irfoniy haqiqatlar ifodasi uchun ham xizmat ettirilgan" [3. 34].

Asrlar osha she'riyatimizda qo'llanilib kelingan rang bilan bog'liq ramziylik jadid she'riyatida ham alohida o'rin tutadi. Jadid shoirlari ijodida ham qora rang bilan bog'liq ko'pgina tasvirlarni uchratishimiz mumkin. Cho'lpon "O'ch" nomli she'rida shunday yozadi:

Xayolimning qora kiygan hur qizi,

Parda to'sgan yuzin senga ochdi! [6. 372]

Ushbu o'rinda qora rangning motam rangi ekanligiga urg'u berilgan bo'lib, xayolning motam kiyimini kiyishi uning qayg'u-g'amga cho'mganligini, ammo, shunga qaramay erk, ozodlikka bo'lgan yuksak ishonchini so'ndirmagan, ruhan hur bo'lgan qizga o'xshatilishi Cho'lponning san'atkorona mahoratini ko'rsatadi.

Cho'lponning "Tun" nomli she'rida esa lirik qahramon:

Hijronni boshima yoyma,

Ey tunde sochi qora qiz!... [6. 388]

deya tuyg'ularini ifoda etadi. She'rda qorong'ulik ramzi birinchidan, yorning sochlari qoraligiga, ikkinchidan, mahbubasisiz o'tayotgan kunlar zulmatdek ekanligiga ishora qilyapti. Shoir tashbeh sanati orqali yorning sochini tunga qiyoslaydi. Bu esa mahbubani g'oyatda go'zalligini ifodalashga qaratilgan.

Xotin-qizlar taqdiri va nafosatiga bag'ishlangan "SHarq qizi" she'rida esa lirik qahramonning o'z ma'shuqasiga munosabatini qora rangi vositasida tasvirlaydi:

Mening qora ko'zim kiyik ko'zidek,

Belgisiz ovchining o'qin ko'rgusi. [6. 454]

CHO'lpon tabiat mo'jizasi sanalmish ayollar dunyosi va qalbini nozik did bilan ilg'ab oladi va shoh satrlarga joylaydi.

Qora rang bilan bog'liq ramziy ifodalar Abdurauf Fitrat ijodida ham kuzatiladi. Fitratning "Yurt qayg'usi" (Temur oldinda) mansurasida shoir o'z qahramoni tilidan Amir Temurga murojaat qiladi:

Bag'rim yoniq, yuzim qora, ko'nglim siniq, bo'ynim bukuk.

Sening ziyoratingga keldim, sultonim!

Ijodkor yurtni zulmkorlardan xalos etish uchun Amir Temur kabi millat fidoyilari etishmayotganligidan chuqur iztirob chekadi. SHu yurtning jonkuyar farzandi sifatida Turonning eski sharafini qaytarishni astoydil istaydi va "g'ayrati dunyoga sig'magan" bobomizdan bu yo'lda oq fotiha so'raydi. "YUzim qora" iborasi orqali shoir o'zi singari millat fidoyilarining erk va ozodlik kurashida bobolarga munosib bo'la olmaganliklaridan chekkan iztiroblarini tasvirlaydi.

Bu kabi sadafdek so'zlarni tanlay olishi shoirning mahoratidan dalolat beradi.

"Parcha" nomli she'rida ham shoir qora rangdan foydalanib, go'zal misralarni qalamga oladi:

Cholg'i qili sening nozli tirnog'ingla titrarkan,

Umidimni qoplab turg'on qora bulut yirtilsun. [5. 36]

Fitrat lirik qahramoniga borliq oshiq va mashuqa munosabatlaridan iboratday tuyuladi. Mashuqaning barmoqlari cholg'i qilini titratganida, qora bulutlar bunga bardosh bera olmay, natijada parchalanib ketadi va umid quyoshi chiqadi. Fitrat "Ovunchoq" nomli she'rida shunday yozadi:

To'sib turgan oydinlikning yo'lini

Shu qop-qora, eski, titrak bulutlar.

Kuchli bir el ko'rgach turmas, yirtilar,

Umid kuni sening uchun ham tug'ar [5. 27]

Ushbu she'ning mohiyatida shoirning erkin va ozod vatan orzusi mujassamlashgan. Shoir lirik qahramoni millat taqdirini o'z qismati deb bilgan, uning erksizligidan ruhiy izzat chekuvchi insondir. Ammo lirik qahramon umidsizlikka tushmaydi. Kelajakda baxtli va faravon kunlar kelishiga ishonadi. She'rdagi "oydinlik yo'li" – erkinlik, "qop-qora, eski, titrak bulutlar" - erkinlik yo'lidagi to'siq, "kuchli bir el" – kurashchanlik ma'nosini ifodalab kelgan. Shoir ramziy ifodalar orqali o'zining ezgu niyatlari, orzu-umidlarini ifodalay olgan.

Xullas, rang bilan bog'liq ramziy ifodalar jadid shoirlariga fikr va tuyg'uni ta'sirchan ifodalashga yordam bergan. Shoirlarimiz rang bilan bog'liq ramzlar orqali lirik qahramonning turfa xil holatini ta'sirchan tasvirlaydi. Rang bilan bog'liq ramziy tasvirlar Cho'lpon mahoratining o'ziga xosligini ta'minlash bilan birgalikda, uning she'rlariga o'ziga xoslik baxsh etadi. Bu esa shoir lirik merosining asrlar osha kitobxonlar tomonidan sevib o'qilishini ta'minlagan omillardan biridir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Jumatova N. Hozirgi o'zbek she'riyatidagi rang bilan bogliq ramziy obrazlar. Fil. fan. nomzodi...dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, 2000
2. Ibrohim Haqqul. Zanjirband sher qoshida. – Toshkent: YUlduzcha, 1989, 43-bet
3. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. – T.: Fan, 2007
4. Ishoqov YO. Navoiy poetikasi. - T.: Fan, 1983
5. Fitrat. Chin sevish. – T.: Adabiyot va san'at, 1996
6. Cho'lpon. Yana oldim sozimni. – T.: Adabiyot va san'at, 1991
7. O'tanova S. Alisher Navoiy g'azaliyatida rang simbolikasi. Fil. fan. nomzodi...dissertatsiyasi avtoreferati –

BEGALI QOSIMOV JADIDSHUNOS OLIM

Bektasheva Gulbahor Rayimjonovna
AndijonDU 2-bosqich tayanch doktoranti

Jadid adabiyoti o'z nomi bilan yangi adabiyot bo'lib, o'zbek adabiyoti tarixida nodir iste'dodlarning namoyon bo'lishi uchun asosiy maktab vazifasini o'tadi. Begali Qosimov jadid adabiyoti ilmiy maktabini tadqiq etar ekan, siyosiy vaziyat talabi bilan "milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotini "inqilobiy adabiyot" istelohi bilan tadqiq qila boshladi. Zero, zamon behad murakkab va ziddiyatli edi. Millatning neki fazilati bo'lsa, uning hayotidagi nimaiki yorug' bo'lsa, inqilob sharofatiga yo'yilar edi. Bu isteloh esa, jadid adabiyotini o'rganishda yangidan-yangi imkoniyatlar eshigini ochdi." U jadid adabiyoti namoyondalari ijodini chuqur tahlil va tadqiq etib, bu davr adabiyotining yangicha ruhini kashf etdi. "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" istelohini istiqloq sharofati bilan adabiyotshunoslik ilmi maydoniga olib kirib, noan'anaviy maktab- "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" kafedrasiga asos soldi. Bunday yuksak jasorat tufayli kafedra bag'rida ko'plab jadidshunos olim va olimalarning jamoasi shakllandi. Ushbu jamoaning samarali mehnatlari bois, yigirmaga yaqin jadid ijodkorlarining, jumladan, M.Shermuhammedov, Ismoilbek Gaspirinskiy, Abdulla Avloniy, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Tavallo, Sirojiddin Sidqiy, Abdulhamid Majidiy, So'fizoda, Ibrat, Ajziy, Hoji Mu'in, Vadud Mahmud singari jadid ijodkorlarining adabiy merosi hamda ijtimoiy- siyosiy faoliyati keng tadqiq qilinib, maktab va oliy o'quv yurti

darsliklariga kiritildi. Mustaqillik davrigacha N.Karimov, B.Qosimov, E.Karimov, A.Aliev kabi olimlar jadid adabiyotini o'rgangan bo'lsalar, istiqloldan keyin bu saf ancha kengaydi. O. SHarafiddinov, U. Normatov, N.Karimov, B. Nazarov, H. Boltaboev, D. Quronov, SH. Rizaev, B. Karimov, I. G'aniev, N. Afoqova, U. Jo'raqulov kabilar mafkuraviy tazyiqlardan holi ravishda jadid adabiyotini o'rgandilar. Bu tadqiqotlar ichida Begali Qosimovning ilmiy merosi alohida ahamiyatga ega bo'lib, jadid adabiyoti bo'yicha ayrim tadqiqotlarning yaratilishiga manba bo'lib xizmat qiladi.

Har qanday yozma faoliyatga ijodiy va estetik motivlar bilan bir qatorda ekstralingvistik omillar ham turtki bo'ladi, ular psixologik, kundalik va biografik tajribalar va, albatta, muallif ijodining madaniy va tarixiy sharoitlarini o'z ichiga oladi. Hech shubha yo'qki, tarixiy burilish voqealari doimo insonning dunyoqarashini, asosiy badiiy yo'nalishlarini, estetik ong harakati dinamikasini, g'oyaviy yo'nalishini belgilab beradi, bu esa o'z navbatida adabiy jarayonda o'z aksini topadi. Har bir davr ma'naviy izlanishlarining o'ziga xos g'oyaviy-estetik paradigmasining mavjudligi, jamiyat inqirozi va ijtimoiy ongdagi siljishlar, albatta, mazmun-mohiyati uning yaxlitligini belgilab beruvchi adabiy jarayonda o'z izini qoldirgan.

60-yillarning o'rtalarida paydo bo'lgan ijtimoiy jamiyatdagi "erish" hodisasi sobiq ittifoq xalqlari madaniyati uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lib, tub burilish yuz bergan bo'lsa-da, shaxsga sig'inish oqibatlari tugatilgandan so'ng ham biroz muddat hadik, qo'rquv holati saqlanib turadi. Faqat 70-yillarga kelib, umumiy dunyoqarash yo'nalishi tarkibida g'oyaviy - estetik yo'nalish ham ijobiy tomonga o'zgara bordi. SHu tariqa, jadidchilik davri faoliyati sekin-asta tilga olina boshlagan bo'lsa, 80-yillardagina bu jarayon bir qadar izchillasha bordi. B.Qosimov, SH.Turdiyev, A.Aliev, N.Karimov, H.Boltaboev, I.G'anievlar jadidlarning badiiy va ilmiy ijodini jiddiy va keng qamrovda tadqiq eta boshladilar. Istiqlol tufayli mazkur davr ijodini o'rganish uchun imkoniyatlar eshigi keng ochildi.

Ilmiy-ijodiy faoliyatining asosiy yadrosi "milliy uyg'onish davri adabiyoti"ni ham badiiy-estetik, ham ijtimoiy-falsafiy jihatdan chuqur tahlil qilishni maqsad qilgan etuk olim B.Qosimov jadidlar merosini asl manbalar va arxiv materiallari asosida tadqiq qilganligi e'tiborga molik. Uning bu sohada olib borgan tinimsiz izlanishlari muhim ilmiy qimmatga ega bo'lib, "B.Qosimov ulkan va nihoyatda ziddiyatli kechgan XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy harakatchilikni milliy istiqlol mafkurasi g'oyalari asosida tadqiq va talqin etadiki, bu tamoyil, ayni paytda, o'zining tahlil prinsiplarini shakllantirayotgan o'zbek adabiy tanqidchiligi faoliyatida jiddiy yangilanishlarga turtki berdi."²⁰

Ma'lumki, adabiyotshunoslik nafaqat so'z san'ati asarlarini, balki ular bilan bog'liq turli omillarni ham qamrab oladi:

- 1) yozuvchilarning ijodiy faoliyati jarayonlari va ularning tarjimai holi;
- 2) adabiyotning kitobxonlar tomonidan idrok etilishi;
- 3) turli xil adabiy "jamoatchiligi" - janrlar yoki milliy adabiyotlar; adabiy davrlar; jahon adabiyoti yoki badiiy shakllar va ijodiy tamoyillar evolyusiyasi va boshqalar.²¹

Olim O'zbek adabiyoti tarixida "ma'rifatchilik adabiyoti" va "jadid adabiyoti" tarzida talqin qilinadigan bosqichlarni "Milliy uyg'onish davri adabiyoti" tarzida birlashtirish

²⁰ O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi: darslik/B. Nazarov va boshq. Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi, 2012. - B. 240

²¹ Хализев В.Е. О составе литературоведения и специфике его методологии // <https://cyberleninka.ru>

g'oyasini ilgari suradi. Shu o'rinda B.Qosimov tadqiqotlarida qiyosiy-tarixiy, sotsiologik tahlillar qatorida hermenevtik yondashuv ustun ekanligini kuzatish mumkin.

Germenevtika atamasi "sharhlash, talqin qilish va tushuntirish san'ati" sifatida qadimgi dunyo madaniyatiga borib taqaladi. Tadqiqotchilar atamaning kelib chiqishini qadimgi Yunon afsonasida xudolardan xabar keltiruvchi Hermes nomi bilan bog'laydilar: u kishilarga xudolarning buyruqlarini tushuntirib berar va odamlarning xohish, irodalari va iltijolarini Olimpga etkazar edi. Hermenevtikani ilmiy nazariya sifatida shakllantirish F.Shleyermaxer va V.Diltey asarlarida o'z yakunini topdi. F.Shleyermaxer hermenevtikani umumiy tushunish nazariyasi sifatida talqin qildi. Diltey hermenevtikada ijtimoiy fanlarning uslubiy asosini ko'rdi. Hayot falsafasining vakili sifatida u tarixiy hodisalarni tabiiy jarayonlardan farqli o'laroq, "tirik va jonli" gavdalantirish lozim deb hisobladi.²²

Germenevtikaning asosini tashkil etuvchi nazariy prinsiplar sifatida: 1) umumiy, kontekstual prinsipi; 2) shu soha doirasiga kiruvchi talqin usullarini; 3) muallif maqsadi va muloxazalarini xisobga olgan holda matnning tarixiy va turli ijtimoiy sharoitdagi o'rni, vazifasi, unda yuz berishi kutilgan o'zgarishlar va ularning talqinini kayd etish mumkin.²³

Demak, aytish mumkinki, hermenevtika, keng ma'noda, adabiy jarayonga oid xususiyatlarni tadqiq qilish uchun ham metodologik asos bo'la oladi.

B. Qosimov puxta ilmiy metodologiyaga, adabiy hodisalarni g'oyaviy-badiiy yaxlitligida tahlil qilishning aniq tamoyillariga tayanib, butun umrini xalqimiz tarixining yorqin bir parchasi bo'lgan "milliy uyg'onish davri adabiyoti"ni chuqurroq va xolis tadqiq qilishga bag'ishladi. SHu ma'noda, olim jadidchilik harakatining tub mohiyatini butun bo'y-basti bilan yoritib berishga, jadidlar faoliyatini turli rakursdan tadqiq qilishga jazm qiladi. Uning o'z tadqiqotlarida "jadidlar va milliy g'oya", "jadidchilikning etakchi g'oyalari", "jadid adabiyotida milliyat muammolari", "madaniy-adabiy harakatchilik", "millatni uyg'otish istagi", "jadidchilar hayoti va faoliyati" kabi qator masalalarni o'rganishi o'zbek jadidshunosligining teran tarixini yaratishga salmoqli hissa bo'lib qo'shildi. SHu tariqa, jadidchilik harakatining keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy harakat ekanligini hamda uning jamiyatdagi o'rni va rolini ilmiy asoslashga bel bog'ladi. B.Qosimovning fikriga ko'ra (jadidchilik harakati):

1) jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg'onish mafkurasi bo'lib xizmat qildi;

2) mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g'ayrat va tashabbusi bilan dunyo ko'rgan Turkiston muxtoriyati bu yo'ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi;

3) maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy maqsadlarga moslab chiqdi.²⁴

Jadidchilar oldida mazkur davrdagi murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, yurt tanazzuli, xalqning og'ir turmush sharoiti ustiga mustamlakachilik siyosatining mustabid tuzumini fosh etibgina qolmay, xalqni erk ozodlikka undash, ilm-fan va ma'rifatni egallash bilangina istiqbolga erishish mumkinligini xalq ongiga singdirishdek qiyin vazifa turar edi. Masalan, "Jadid she'riyatida davr voqealari" maqolasida adabiy-estetik tamoyillar bilan ijtimoiy tuzum sho'rishlari bir-biriga bog'liq holda shunday bir usulda tahlil qilinadiki, munaqqidning o'ziga xos uslubi, "ijtimoiy-adabiy tanqid" yo'sini namoyon bo'ladi.

²² Ахмедова М.А. умумий тахрири остида. Фалсафа: дарслик. Т.: 2006. – Б. 220

²³ Назаров Б., Расулов А., Ахмедова Ш., Қахрамонов Қ. Ўзбек адабий танкиди тарихи: дарслик. Т.: Tafakkur qanoti, 2012 - Б.16

²⁴ Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. Т: Маънавият, 2002. - Б. 6

O.Sharafiddinov “Milliy uygʻonish: jasorat, maʼrifat, fidoyilik” (2002) toʻplamining chop etilishi mustaqilligimizni mustahkamlash bosqichida juda katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini eʼtirof etar ekan, mazkur kitobda B.Qosimovning salkam qirq yillik ijodiy faoliyati davomida jadidchilikni oʻrganish borasidagi ishlari umumlashtirib berilganligini taʼkidlaydi.

BEHBUDIYNING OʻZBEK ADABIY TILI TARAQQIYOTIDA TUTGAN OʻRNI

*Maxmudova Asolat JDPI magistranti,
Ilmiy rahbar: f.f.d. (PhD) O.Xidirov*

Behbudiyning Turkiston jadidchiligida tutgan oʻrni, uning bu harakat gʻoya va fikrlarining yoyilishida, ijtimoiy-siyosiy sohaning turli jabhalarida islohotlarni amalga oshirishdagi faoliyatini baholashda, tabiiyki, u yozib qoldirgan fikrlar, asarlar katta ahamiyatga ega. Shu maʼnoda uning (umum)adabiy til, til meʼyorlari, imlosi, soʻzlar etimologiyasi borasidagi fikrlari maʼlum maʼnoda Behbudiyning tilshunoslik sohasidagi faoliyatiga ham muayyan baho berishga, uning bu yoʻnalishdagi harakatlariga xolisona baho berishga imkon tugʻdiradi. Behbudiyning Turkiston sheva va lahjalarini mukammal bilishi, zamonasining nisbatan taraqqiy etgan turkiy shevalarda nashr etilgan vaqtli matbuot tilini davrlashtirish, ularga muayyan baho bera olish, tahlil qila olishi uni Turkistonlik ziyolilar orasidan yetishib chiqqan ilk tilshunos deb atashimizga asos boʻla oladi.

Behbudiyn (umum)adabiy til masalasida tilni soddalashtirish, omma tushunadigan shaklga olib kelish fikrini qoʻllab-quvvatlashda, tilni soflashtirish, yaʼni, arabcha, forsha soʻzlar oʻrniga muqobillarini qidirib topish va tilga tatbiq etish masalasini “ijrosi mumkin emas, quruq xayoli fosidgina” deb baholaydi. Shu bilan bir qatorda, Behbudiyn gazeta va jurnallarda boshqa tillardan yangi kirib kelayotgan soʻzlar istalgan shaklda qoʻllanilishi masalasiga toʻxtalar ekan, buni “bu zamonda fan va hunar taraqqiy etgani uchun va yangi chiqqon begona lugʻatdagi ismlik nimarsalargʻa turkiy ism taqadurgon jamiyatlar barpo etib, turkiy tilimizgʻa xizmat etaturgon kishilarni bizgʻa yoʻqligi”dan deb taʼkidlaydi. Bu bilan Behbudiyn tilda yangi oʻzlashmalarni tartibga soladigan ilmiy jamiyat tashkil etish masalasini ham kun tartibiga chiqaradi.

Tilni soflashtirish masalasida “Sadoyi Turkiston” gazetasida berib borilayotgan maqolalarni tahlil qilar ekan, Behbudiyn gazeta- ning bu harakatiga “ijrosi mumkin emas, orzu” deb qaraydi. Sababi, asrlar davomida arab va fors tili taʼsirida qolgan turkiy tilni “yana bir necha ming sanada bularni taʼsiridan chiqarmoq” ishiga berilsak, “maʼnan va moddatan va fannan mahkum millatlarni(ng) tili (qatorida) boʻlgan tilimizgʻa yana taraqqiy etgan millatlarni(ng)” tilidan yangi soʻzlar kirib kelaveradi. Behbudiyn tilni soflashtirish masalasida mana shunday fikrda edi.

Behbudiyn tilni soddalashtirish borasida fikrlar ekan, arabcha koʻplikdagi soʻzlarni imkon qadar turkiy koʻplik shaklida, masalan, “ulum, funun, ulamo, quzzot va ...demoq yerinda fanlar, ilmlar, olim- lar, qozilar va... lar” kabi yozilishini hamda gazetalarda berilayotgan “kurrai arzda yashamakda boʻlgan har millatni oʻziga maxsus bir lisoni milliysi vordur” kabi gaplarni imkon qadar turkiylashtirishni taklif qiladi. Biroq yuqorida yozilganidek, Behbudiyn butun tilni soflashtirish masalasida “butun fanniy va ilmiy va diniy

istiloh va iboratlarga muqobil turkchadan ism ta'yin qilmoq fikriga cho'm- moq o'zni charchatib va matbuotni zo'ye' qilmoqdan boshqa nimarsa emas", degan fikrda qat'iy turdi.

Behbudiy sodda til "atrofindagi qavm-u qarindoshi ilan so'ylashmoq" uchun kerak bo'lsa, adabiy va ilmiy til "mavjud ilmu fan va tarixni bilmoq va alardan foydalanmoq" uchun zarur deb hisoblaydi. Uningcha, sodda til, ya'ni, sheva yoki lahja mintaqaga ko'ra turli bo'lishini hisobga olsa, bu tilni adabiy deb bo'lmaydi va uni istifodaga olib kirishdan ham hech qanday ma'ni yo'q. Bundan tashqari, Behbudiy Turkiston sheva va lahjalari adabiy til bo'lishga "qodir emas" deb hisoblaydi. Behbudiyning bunday xulosaga kelishiga sabab "ilmiy va adabiy tilni har bir qishloq va ko'ydagi onalarni tilinda bo'lmoqligi" uchun boshqa taraqqiy etgan millatlar onalari kabi "qorindan qoring'acha" o'qimishli bo'lishi kerak. Shunday ekan, Behbudiy (umum)adabiy til masalasida "modomiki, bizga ilmu fan kerak va modom(iki), turk tilining ba'zi sho'ba va lahjalariga zamoniyligi, fanniy, diniy, tarixiy har nav' kitoblar bordur, ani o'qub fahmlamoqiga g'ayrat etishimiz lozimdur" degan xulosaga keladi.

Yuqorida qayd etilganidek, Behbudiy Turkistonning avom xalqi qay gazeta tilini yaxshi tushunishi va qabul qilishi borasida o'tkazgan ijtimoiy so'rovnomasining asosiy sababi ham "Tarjimon" yoki "Ulfat" gazetasi tilini (umum)adabiy til darajasiga ko'tarish edi. Behbudiy o'zining bu qarashini quyidagicha izohlaydi: *"Dunyomizni ilm-u fanidan xabardor bo'lmoq uchun rus, nemis, fransaviy, anglis, itoliyoli, arabiy, jopuniy tillaridan birini bilmoq kerak va alarni bilmaganda Kafkoz va yo Qrim lahjai adabiyasini bilgan kishini dunyodan xabarlik bo'lushiga vosita bo'lur"*.

Behbudiyning adabiy til borasidagi qarashlari o'z davrida katta qarshiliklarga sabab bo'lgan. Uning eng yaqin safdoshlaridan bo'lgan Hoji Muin Behbudiyning adabiy til borasidagi fikrlariga qarshi chiqqan edi. Hoji Muin mahaliy tilni soflashtirish va begona (arabcha va forsha) so'zlardan tozalash orqali uni adabiy til sifatida shakllantirish tarafdori edi [Muin 1914]. Bundan tashqari, Hoji Muin Behbudiy taklif qilgan ikkitillik, ya'ni butun Turkistonda turkiy bilan bir qatorda forsiyni ham ishlatish fikrini ham ma'qullamaydi. Ingeborg Baldaufning ta'kidlashicha, Hoji Muin o'z qarashlarining amaliy tatbiqini Behbudiy safarga chiqqan vaqtda "Oyina" jurnaliga vaqtincha muharrir bo'lgan vaqtda amalga oshirishga qisman muvaffaq bo'lgan. Baldaufga ko'ra, Hoji Muin qisqa muddat ichida ikkitillik bo'lgan "Oyina" jurnalini sof turkiy tildagi jurnalga aylantirishga ulgurgan [Baldauf, 44].

Behbudiy "Til masalasi" maqolasining so'ngida hech qaysi bir til faqatgina o'z so'z boyligi bilan taraqqiy eta olmasligi, boshqa tillardan yangi so'zlar qabul qilish hisobiga rivojlana olishini ta'kidlash bilan bir qatorda, tilni soflashtirish bilan vaqtni bekor sarflamasdan uning o'rniga "kelar zamon uchun hozirlanayluk, o'tgan zamon uchun emas" degan qat'iy fikrni o'rtaga tashlaydi. Bundan tashqari, u Turkistonning turli mintaqalari shevalari orasida farq bo'lgani uchun ushbu shevalarda adabiy asarlar yozish ham maqsadga muvofiq emasligini ta'kidlaydi. Behbudiy (umum)- adabiy til yaratish borasidagi asosiy muammo va to'siq sifatida millat onalarining savodsizligini ko'radi. Adabiy til yaratmoq uchun, Behbudiyga ko'ra, birinchi navbatda, "biz avval onamizni o'qutub, anga til o'rgatmoqimiz kerak". Adabiy tilning hamda ilm-fanning rivoji millat onalarining bilimiga bog'liq ekanligini ta'kidlagan Behbudiy, birinchidan qiz bolalarni maktablarga ko'proq berish, ularni savodli qilish masalasini ko'targan bo'lsa, ikkinchi tarafdin, bir adabiy til yaratish uchun imkon qadar arabcha va forsha so'zlardan kam ishlatish, sodda, boshqa turkiy tillardan keng istifoda qilgan holda yozishni taklif qiladi [Mahmudxo'ja 1915].

Mahmudxo‘ja Behbudiyning tilshunoslik borasida e‘lon qilgan maqolalari orasida “sart” so‘zi bilan bog‘liq fikrlari ham bugungi tilshunoslik nuqtayi nazaridan katta ahamiyat kasb etadi. Ko‘rinadiki, Behbudiy o‘z davrida birinchilardan bo‘lib so‘z etimologiyasi bilan shug‘ullangan, izlanishlar olib borgan, zamonaviy til bilan aytadigan bo‘lsak, madaniy antropolog sifatida ko‘zga tashlanadi.

“Sho‘ro” jurnalida e‘lon qilingan “Sart so‘zi majhuldir” [Behbudxo‘ja 1911] maqolasida Behbudiy ruslar tarafidan mahalliy o‘troq xalqqa nisbatan qo‘llay boshlagan “sart” so‘zining ishlatilishi, turli lug‘atlarda mavjud yoki mavjud emasligi, yon-atrofdagi ko‘chmanchi xalqlar bu so‘zni nima ma‘noda qo‘llashi va hokazo dalillardan 24 tasini keltiradi va so‘ngida “sart” so‘zi Turkistonning mahalliy o‘troq xalqiga nisbatan ishlatilishi noo‘rin ekanligini isbotlab beradi. Behbudiy ushbu maqolada “sart” so‘zi bilan bog‘liq dalillarni tahlil qilsa, muallif tarixiy kitoblardagi dalillardan tortib turli lug‘atlarda, ko‘chmanchi xalqlar nutqidagi ma‘nosiga qadar izohlashga harakat qilgan. Bu esa, o‘z navbatida, “sart” so‘zining etimologiyasiga oid Behbudiyning katta izlanish olib borganini ko‘rsatadi. Behbudiy barcha dalillarni keltirgach, maqola so‘ngida “sart” so‘zining tarixi ham “majhul” bo‘lganini hamda turkistonlik o‘troq aholiga nisbatan “sart” atamasi ko‘chmanchi qozoqlar tarafidan ishlatilgani sabab ulardan so‘ralsa, biror tayinli javob chiqishi mumkinligi haqida ruslarga tavsiya beradi.

“Sart” so‘zi bilan bog‘liq “Oyina”da berilgan maqolalarning birinchisi “Sho‘ro” jurnalida e‘lon qilingan maqola nomi bilan bir xil “Sart so‘zi majhuldir” deb nomlangan bo‘lsa, ikkinchisi “Sart so‘zi ma‘lum bo‘lmadi” sarlavhasi bilan e‘lon qilingan [Behbudxo‘ja 1914; 1914]. Behbudiy bu maqolalarda “Sho‘ro” jurnalida o‘zi hamda boshqa mualliflar tomonidan e‘lon qilingan maqolalarni tahlil qiladi. Behbudiy barcha mualliflarning fikrlarini jamlagan holda “sart” atamasini Turkiston o‘troq aholisiga nisbatan qo‘llash “haqorat” ekanligini bildiradi.

So‘zlarning kelib chiqish tarixi, ildizlariga oid kuzatishlarini inobatga olib Behbudiyini hozirgi zamon atamasi bilan madaniy antropologiya sohasida ham muayyan yutuqlarga erishgan olim deyishimiz mumkin. Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, Behbudiy o‘zbek adabiy tilining taraqqiy etishi uchun tilshunos, shevashunos, etnograf, sotsiolog, madaniy antropolog sifatida samarali faoliyat olib borgan ko‘p qirrali olimdir.

Adabiyotlar:

1. Baldauf, Ingeborg. 2001. XX asr o‘zbek adabiyotiga chizgilar
2. Behbudiy Mahmudxo‘ja. 1906 "Vahdati lison-dil birligi". Tarjimon 61.
3. "Dil, dil, dil" Tarjimon 103. 1905.
4. Mahmudxo‘ja. 1913. "Ikki til emas, to‘rt til lozim". Oyina. 1.
5. Mahmudxo‘ja. 1914. "Sart so‘zi majhuldir" Oyina. 22-226; 314-315; 338-340;
6. Mahmudxo‘ja. 1915. "Til masalasi". Oyina. 11-12.
7. "Sart so‘zi ma‘lum bo‘lmadi". 1914. Oyina. 39. 922-924.

ZIYOLI OBRAZIGA CHIZGILAR **(A.Qahhor va O'.Hoshimov ijodi misolida)**

Mohira Sobirova, mustaqil tadqiqotchi, Jizzax DPI

Bu qadimiy va mas'uliyatli mavzu bo'yicha mulohazalarimizni qancha ijodkorlar va fazl ahliga ustoz bo'la olgan hazrat Alisher Navoiy va shayx Sa'diy hikmatlari va saboqlaridan boshlasak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero, Navoyning ustoz va shogird munosabati xususida bitgan birgina baytida ifodalangan shart va talablari ham teran ma'nolari bilan ta'lim-tarbiya jarayonida o'ziga xos bir dastur bo'lishi mumkin:

**Haq yo'lida kim sanga bir harf o'qutmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila (*"Mahbub ul-qulub"*)**

Eng avvalo, Haq yo'lida, ya'ni Olloh yo'lida beg'araz, beta'ma saboq berish kerakligi uqdirilgan; Ikkinchidan esa, ustozning dars-sabog'i talabalarni haqiqat, to'g'rilik va ezgulikka boshlashi lozim. Yana muhimi: o'zgalarga saboq berish uchun ustoz bir umr o'qitish-o'rgatish mashaqqati va ranj-zahmatini sabr-bardosh bilan chekishi talab etiladi.

Yoki Shayx Sa'diyning mashhur "Guliston" dostoni necha yuz yillar davomida oliy madrasalarda darslik sifatida o'qitilib kelingani ma'lum. (Yosh Alisher, Husayn Boyqarolar ham bu asarlarni katta qiziqish bilan mutolaa qilishgan) Asardagi hikoyatlarda ham ustoz-shogird munosabati, ularning saboq olishida qunt va intizom bilan birga ustozning talabchanligi ham alohida ahamiyat kasb etishi hayotiy misollar orqali

bayon etiladi. Chunonchi, o'sha davrdagi bir podshohning o'g'li ustozning dars-saboqlariga e'tiborsizlik va quntsizlik qilganligi oqibatida boshqa hamsaboqlariga nisbatan chalasavod bo'lib qoladi. Podsho buning sabablarini surishtirib, bilgandan so'ng o'g'lining bo'yniga taxta bitik osib qo'ydiradi va bu taxtaga shunday satr yozdiradi:

**"Jabri ustod beh az mehri pedar".
(Ustoz jabri ota mehridan afzal)**

Muqaddas kalom va hadislarda ham ustod-shogirdlik insoniyat tamadduni uchun qanchalar zarur va ahamiyatli ekanligi ta'kidlangan. Ko'p asrli tariximiz va buyuk ajdodlarimiz hayoti va hikmatlari misolida ham bunga ishonch hosil qilamiz. Masalan, "Boburnoma"da o'tmishda ilm toliblarining, jumladan, shahzoda va beklarning ham ustozlardan dars-saboq olishlarida odob saqlashi, hamisha diqqat-e'tiborli bo'lganligi xususida shunday ibratli bir voqea bayon etiladi: zamonasining piri komillaridan bo'lgan Xoja Ahror Valiyning navbatdagi va'zxonlik-suhbati chog'ida kutilmagan holat voizning diqqatini tortadi. Ya'ni ustozga hurmati, irodat-e'tiqodi baland bo'lgan va juda xushxulq bir sulton zodaning ko'p betoqat bo'lib, nimadandir azoblanayotganday qiynalib o'tirganini sezib qoladi. Suhbatini tamomlagandan so'ng xodimlariga o'sha sulton zodaning muridi o'tirgan joyni ko'zdan kechirishni buyuradi. Qarashsa, haligi sulton zodaning o'tirgan to'shanchining ostida uchi o'tkir tig'li suyak bor ekan. O'sha o'tkir tig'li suyak shahzodaning soniga ancha botib kirgan va yaralagan. Shu holatda ham sulton zodaning jarohat og'rig'iga chidab o'tirgan va ustozining va'zini oxirigacha tinglagan ekan... .

Barchamiz uchun birinchi ustoz-ota va onalarimiz bo'ladi. Yaxshi ota-onalar farzandlari, yaqinlariga, qo'ni-qo'shni va mahallasidagilarga ham so'zi, ishi va to'g'ri maslahati bilan ta'sir eta oladi. Ziyoli-ustoz esa yuzlab, minglab yoshlarga saboq berishi va ularning ongu-tafakkuri va qalbiga ta'sir o'tkaza olishi mumkin. O'qituvchi-murabbiylarning

hayotda, jamiyatda tutgan yuksak mavqe-martabasining qadri ham zimmasidagi vazifasining muhim va sharafligi bilan bog'liq. Shu boisdan ham shoir va mutafakkirlar

Ustoz-muallimsiz qolsa bir zamon,

Qaro bo'lur edi butun jahon.

deb, o'qituvchilik kasbi qanchalar ulug'ligini ta'kidlashgan. Ayni paytda, uning jamiyat va xalq oldidagi burch-mas'uliyati nechog'lik yuksak va og'ir ekanligidan ham ogoh etishgan. O'quvchilariga saboq berishi uchun o'qituvchi ulardan o'n, balki yuz karra ko'p o'qigan, o'qiganlarini uqqan, anglab etgan bo'lishi shu talablarning biridir. Hammamiz ham o'qishga borgan ilk kunlarni tez-tez eslaymiz. Ayniqsa, bizga o'qish-yozishni qunt bilan o'rgatgan fidoiy o'qituvchilarimiz har bir o'quvchiga e'tiborli bo'lganlari xotiramizda o'rnatilgan. Keyinchalik o'qigan kitoblar va ko'rgan kinofilmlar orqali ham o'qituvchilik kasbining ulug'ligi, ayni vaqtda, sermashaqqatligini, eng muhimi, hayotning mazmun va mohiyati va insoniylik fazilatlarini tushunishda ham ustozlarning o'rni be

qiyos bo'lishini anglay boshladik.

Jumladan, taniqli adiblardan Parda Tursunning "O'qituvchi" romani, Abdulla Qahhor va O'tkir Hoshimovlarning o'qituvchi siymosini yoritgan asarlari va ularga bag'ishlangan filmlar ham tasavvurimizni boyitgan.

O'qituvchi kasb mahorati va ayniqsa, adabiyot va she'riyatni chuqur his eta olishi, qolaversa, o'zining savodxonligi bilan ham o'quvchilariga ibrat bo'la olishi ta'lim-tarbiyada va yoshlar ma'naviy kamolotida alohida ahamiyat kasb etishi mumkin. Bu haqiqat atoqli adibimiz Abdulla Qahhor asarlarida va xotiralarida ham yaxshi ochib berilgan. Masalan, "Xat" deb nomlangan maqolasida ana shunday etuk bir ziyoli-o'qituvchi siymosini samimiyat bilan xotirlab, bugungi kunlarimiz uchun ham ibratomiz fikrlarni ifoda etadi.

"Texnikumning tayyorlov bo'limiga kirgunimcha har xil maktab va o'qituv chida o'qib, xatim juda xunuk bo'lgan ekan, buni shu erda, birinchi darsda payqadim. Birinchi darsga Muhammadjon Holiqiy degan novcha bir o'qituvchi kirdi, biz bilan salomlashdi-yu, indamay borib, taxtaga ikki qator she'r yozdi. O'qituvchining xati shunday chiroyli ediki butun sinf baravariga "U-uv!" deb yubordi.

O'qituvchi bizga yuzlandi.

- Nima gap?

- Xatingiz judayam chiroyli ekan!

- Bundan chiqdiki, sizlarning xatlaring xunuk ekanda! Xatlaring

xunuk ekanini bilsalaring, demak, mendan chiroyli yozadigan bo'lasizlar.

Odatda yangi o'qituvchidan bola begonasiraydi, uning fe'l-atvorini bilib olgunicha tortinadi, hatto qo'rqadi. Biz bu o'qituvchiga darrov el bo'lib qoldik: shunday chiroyli yozadigan o'qituvchi nazarimizda faqat xush fe'l, faqat mehribon bo'lishi kerak edi.

Boyagi ikki satrni o'qituvchiday chiroyli yozishga urinib biron yuz marta ko'chirgandirman! Ona tiliga doir hamma yozuvlarni chiroyli yozadigan, bu darsdan hamisha a'lo baho oladigan bo'ldim. Keyinchalik shuni payqadim: qaysi darsni chiroyli yozmasam, o'sha darsdan pastroq baho olar ekanman.

Hali-hali qo'limga qalam olsam tepamda Muhammadjon domla "chuval chang" chang" deb turganga o'xshaydilar. (4..463.)

Nafaqat A.Qahhorday ulug' shaxslarning, balki xalq mehrini ham qozongan, ammo sho'ro davrida qadrlanmagan bunday fidoiy o'qituvchilarning yana bir yorqin timsoli sevimli yozuvchimiz O'tkir Hoshimov asarlarida ham yaratilganligini ko'rish mumkin. O'tkir Hoshimov "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" kitobida o'zining maktab o'quvchisi bo'lgan

yillaridagi o'qituvchilarining ayrimlari g'oyat bilimli va mehr-shafqatli insonlar bo'lganligi va aksincha, ayrimlari esa o'ta pastkash va munofiq bo'lganligini ham xolisona xotirlaydi. "To'rtinchi "A" sinfda o'qirdim,-deb yozadi adib xotiralarida. G'alati

o'qituvchimiz bor edi. Sho'xlik qilsak, koyimaydi, faqat "xa", bolajon-a, bola jon! deb xo'rsinib qo'yadi. Ammo ko'zlarini yarim yumib she'r o'qiganida sinfimiz jim bo'lib qoladi. O'sha she'rlarning ba'zi satrlari chala-yarim esimda qolgan. "Haqiqatni ko'rganlarning ko'zi ko'rdir, haqiqatni tinglaganning qulog'i kar..."

Kunlardan birida o'qituvchimiz darsga kirmadi. Ertasiga ham... Indiniga ham...

Qiziq, biz uni sog'ina boshladik. Bir haftadan keyin yangi "kitelli" muallim keldi. Oramizdagi dadilroq bola "o'zimizning muallim qani?" deb so'ragan edi, "kitelli" muallim sapchib o'rnidan turdi.

Shoir ma'liming Magadanda!-dedi qo'lini paxsa qilib. U ma'lim emas. Xalq dushmani! Antisovet shoirlarning shig'irini o'qigan! Mutaassib! Dindor!" Keyin ma'lum bo'lishicha, kitelli bu kimsa davlat organlarining xufya-odami bo'lib, oldingi o'qituvchini ham shunday kimsalar "sotgan" ekan.

Oradan ko'p yillar o'tib, O'tkir Hoshimov elimizga taniqli adib bo'ladi. Tasodifan o'sha Adabiyot o'qituvchisi bilan Navro'z kunlari uchrashib qoladi. Buni qarangki, qancha yil olis Sibir o'lkalarida qamoq va surgunlarda ne azob-xo'rliklarni boshidan kechirgan keksa ustoz haligacha yosh o'quvchisini yoddan chiqarmagan ekan. "Qariyaning o'zi gap boshlaydi: Siz meni tanimaysiz. Men sizning kitoblaringizni o'qiyman, bolajon!

"Bolajon" degani qalbimda qandaydir sog'inch tuyg'ularini uyg'otgandek bo'ldi. Pokiza kiyimli, qaddi bukik qariyaga sinchiklab tikildim.

Siz. Ha-da! – dedi qariya muloyim kulib.- Men o'sha "shoir" o'qituvchingizman... Xursandman, bolajon, yozganlaringizdan xursandman"... Ustoz va shogird uchun bunday uchrashuv va unutilmas xotiralar ham katta bir baxt deyish mumkin. Ha, ezgulik va yaxshilik unutilmaydi. Adabiyotimizda, jumladan, Abdulla Qahhor va O'tkir Hoshimov kabi yirik adiblarimizning "O'tmishdan ertaklar", "Dunyoning ishlari" qissalari va qator hikoyalari maktab hayoti va ziyoli-o'qituvchilarning rang-barang obrazlari muhim o'rin tutadi. Ularni chuqur o'rganish va ulardan ibratli saboq olish bugungi kunlarimiz uchun ham zarurdir.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mahbub-ul qulub. Toshkent. 1983.
2. Sa'diy. Guliston.. T. 1968.
3. Bobur Z.M. Boburnoma. T. 1960.
4. Abdulla Qahhor. Asarlar. 6-t. T. 1971.
5. O'tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. T. 2016.

ADABIYOTIMIZNING YORQIN YULDUZI *(U. Nosir tavalludining 110 yilligiga)*

Yo'ldosheva Sarvinoz, magistr, JDPI.
Ilmiy rahbar: U. Qosimov, f.f.d.

Istiqlol yillarida jamiyatimiz hayotining deyarli barcha sohalarida chuqur islohotlar va ijobiy o'zgarishlar sodir bo'layotganligini xalqimiz katta quvonch bilan e'tirof etmoqda.

Mustaqilligimiz sharofati bilan hayotimizning deyarli barcha jabhalarida chuqur islohotlar, ijobiy o'zgarishlar va yangilanish jarayonlari boshlandi. Jumladan, xalqimizning ko'p asrlilik tarixi va adabiyotini yangidan, ilmiy xolislik bilan o'rganilayotganligi va bu sohada qator ijobiy natijalarga erishilayotganligi endilikda barchamizga ayondir. Ayniqsa, ona tilimizga va adabiyotimizni chuqur o'rganishga e'tibor har qachongidan ham kuchayganligi o'zining ulkan samaralarini bermoqda. Xalqimizning o'zligini anglashida va ma'naviti yuksalishida ona tili va adabiyotimizning o'rni va ahamiyati beqiyos ekanligi isbot talab etmaydigan haqiqatdir.

XX asr adabiyotimiz osmonida chaqmoqdek charaqlab namoyon bo'lgan va qisqa umr ko'rsa-da, o'zining noyob iste'dodi bilan ijod olamida o'chmas iz qoldirib ketgan yorqin siymolardan biri - Usmon Nosir edi. Namangan shahrida kambag'al kosib Mamatxo'ja oilasida tug'ilgan Usmonning bolaligi xuddi G'afur G'ulom va Hamid Olimjonlarning hayoti singari g'oyat qiyin kechadi. G'am- g'ussaga to'la bu alamli yillar haqida Usmon Nosir keyinchalik yozgan "Kechmish kunlarim" nomli avtobiografik manzumasida armon bilan shunday eslaydi:

**Men o'ksib tug'ildim,
Bir kosib otadan,
Bir g'arib onadan...
Turmush qiyindi
Bizdek ko'plarga.**

Mustamlakachilik siyosati avj olib, mehnatkash xalq qullarcha yashashga mahkum etilgan suronli yillarda otadan yetim qolgan to'rt yashar Usmon onasi Xolambibi bilan yanada nochor ahvolda qoladi. Namanganlik kosibning chevar qizi bo'lgan Xolambibi eri vafotidan so'ng (1916 y) boylar xonadonida xizmatchi bo'lib, kir yuvib, arang tirikchilik o'tkazadi va norasida Usmonni ulg'aytiradi. Sharoin yashash qiyinligidan Usmon ham to'qqiz yoshigacha boylar xonadonida turli yumushlarni bajarishga, hatto gadolik qilishga ham majbur bo'ladi. Chorizm mustamlakasiga aylangan butun Turkiston o'lkasida o'sha yillari hukm surgan qashshoqlik va dahshatli ochlik minglab odamlarning yostig'ini quritadi va necha minglab oilalarni xonavayron qiladi. Mazlum xalq boshidan kechirgan og'ir ekspluatatsiya, erksizlik va xunrezliklar XX asr boshlarida yaratilgan ko'plab realistlik asarlarda haqqoniy aks ettirilganligi Mustaqillikka erishganimizdan so'nggina keng jamoatchilikka ayon bo'lmoqda. Binobarin, Cho'lponning "Qip-qizil qon bo'lib kunlar botadir, Yomon hidga to'lib tonglar otadir" satrlari zahirida xalqning unsiz iztirob-nolalari ham ifodalangan edi. Jafokash xalqimizning bu fojeali o'tmishi Usmon Nosirning ham bir qator she'r va dostonlarida chuqur hamdardlik bilan tasvirlanganligini ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, "So'zla, tarix-chol" deb nomlangan she'rida ikkiyoqlama zulm iskanjasida yashagan erksiz va huquqsiz xalqning ayanchli qismati keksa Tarix tilidan chuqur ifodalanganini ko'rishimiz va uning mahoratiga guvoh bo'lish mumkin.

Usmon Nosir o'zbek adabiyoti uchun nisbatan yangi janr bo'lgan dramaturgiya sohasida ham ijod qilib, "Zafar", "Nazirjon Xalilov", "Dushman" va "Atlas" nomli bir nechta dramalar ham yaratgan. Ulardan ayrimlari 30-yillar boshida sahnalarda qo'yilgani uning zamondoshlari tomonidan bitilgan zarif xotiral-arda ham alohida e'tirof etiladi.

Usmon Nosir iste'dodining yorqin bir qirrasini uning tarjimonlik faoliyatida yaqqol namoyon bo'lgan edi. Shoirning Firdavsiy va Shekspir kabi dahlo san'atkorlar she'riyatidan qilgan tarjimalari, Pushkinning "Bog'chasaroy fontani", Lermontovning "Demon" kabi mashhur dostonlarini mohirona o'zbek tiliga o'girganligi uning ijodiy salohiyati nechog'lik

ulkan bo‘lganligidan guvohlik berib turadi. Shu munosabat bilan tarixiy bir faktni keltirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi: 1937 yil 26 mayda “Literaturnaya gazeta”da Usmon Nosir va Hamid Olimjonlarning “Pushkin na uzbekskom yazыke” sarlavhali maqolasi e‘lon qilingan. Ushbu maqolada dunyo adabiyotining buyuk siymolari asarlari o‘zbek tilimizga tarjima qilinganligi va tilimizning naqadar boyligi va bu tilda jahon adabiyotining eng yuksak namunalarini tarjima qilish mumkinligi faxr bilan ta’kidlangan. Zotan, ular 30- yillardayoq o‘zlarining mumtoz tarjimalari bilan ham bu haqiqatni to‘la isbot qilib berdi. Ming afsuski, betakror iste’dodi va jo‘shqin ijodi barq urib turgan Usmon Nosir ham ulug‘ ustozlari- Cho‘lpon, Fitrat va Qodiriylar bilan birga yovuz imperiyaning mustamlakachilik siyosatining qurboni bo‘ldi. Hukmron mafkuraning qattol-dastyorlari Usmon Nosir she‘rlaridan siyosiy xatolar topib, shoirni mutlaqo asossiz ravishda ayblashdi. Masalan, shoirning quyidagi satrlarini ham siyosiy xato deb, uni qoralashgan: Yo‘lchiman, manzilim ufqdan nari Lojuvard dengizning tubiga yaqin.

Ya’ni “lojuvard dengizning tubida Amerikani nazarda tutyapti” degan ayblovlardan bugun yoqa ushlaymiz. Yoki

She‘rim, yana o‘zing yaxshisan,
Boqqa kirsang gullar sharmanda.

misralarini ham buzib talqin qilishadi va yana shoirni siyosiy xato qilganlikda ayblashadi: uni ham “Xalq dushmani”, “Sovet tuzumiga qarshi” degan tuhmatlar bilan 1937 yil qamashadi. Abdulla Oripov haqli ravishda yozganidek, mash’um siyosat tufayli xalqimiz necha o‘nlab yorqin iste’dodlaridan bevaqt ayrildi. Ularni hamisha iztirob bilan yodga olamiz. Ular nafaqat betakror ijod sohiblari, balki xalqimiz va vatanimiz erku ozodligi yo‘lida mardona kurashgan Istiqlol fidoyilari edi.

U bor-yo‘g‘i o‘n yil ijod bilan shug‘ullandi, ammo shu qisqa fursatda nomini abadiylikka muhrlab ke-ta olishdek baxtga musharraf bo‘ldi. Shoir o‘zi chuqur ishonch bilan bashorat qilganidek:

Bargdek uzilib ketsam,
Unutmas meni bog‘im.
Ishimni hurmat qilur,
Gullardan haykal qurur,

Muhimi ana shundaki, bu asarlarning barchasi kitobxonlarning ko‘ngliga yetib borsa, ularni ma‘nan va ruhan boyitadi hamda shu orqali hayotimizni yanada mazmunli va fayzli bo‘lishiga xizmat qiladi. Ana shunday ezgu niyat va olijanob maqsad bilan yaratilgan adabiy asarlar qaysi janrda bo‘lmasin, ularda ijodkor qalbi va uning shaxsi manaman deb ko‘rinib turadi. Binobarin, yorqin iste’dod va kuchli shaxs qalamiga mansub bo‘lgan har bir asar jiddiy o‘rganishga munosibdir. Ha, ona- Vatanni va she‘riyatni jon-dilidan sevgan, qalbida Istiqlol yolqini barq urib turgan Usmon Nosirday yorqin iste’dod sohiblari mustaqil diyorimida hamisha qadrlanishi va e‘zozlanishi shubhasizdir.

Adabiyotlar:

1. Usmon Nosir. Asarlar. 1-2- tt. Toshkent. 1969-1970.
2. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. O‘qituvchi. 1999.

II - SHUBA. UMUMFILOLOGIK TADQIQOTLAR: TALQIN VA TAHLIL MUAMMOLARI.

OLTUN YORUG‘” ASARIDAGI QIPCHOQ DIALEKTIGA XOS BA’ZI LUG‘AVIY BIRLIKLAR SEMANTIKASI

**Kilichov Nazarbay Radjapbayevich,
f.f.f.d (PhD), Qoraqalpoq davlat universiteti**

Qadimgi turkiy dialektlarni o‘rganish nafaqat turkiy tillarning shakllanishi va differensiyasiga aniqlik kiritishga, balki u xalqlarning etnogenezi, madaniyati, turmush tarziini aniqlashga imkon beradi. Ayniqsa, bu jihatdan turkiy tillarning qadimgi, eski turkiy til davrlariga xos alohida asarlar leksikasi asosida ularning leksikasini zamonaviy turkiy tillar lug‘aviy qatlami bilan qiyosiy o‘rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ana shu ma’noda “Oltun yorug‘” asari leksikasi tarkibidagi lug‘aviy birliklarning o‘zbek tili qipchoq dialekti xos ba’zi so‘zlarga va turkiy tillarning qipchoq guruhiga kiruvchi qoraqalpoq, qozoq tillariga munosabatini tahlil qilamiz.

“Oltun yorug‘” leksikasini zamonaviy turkiy tillar leksikasi, ularning dialektlari lug‘aviy tarkibi bilan qiyoslab o‘rganish, shu asosda turkiy tillar leksikasi taraqqiyotini asoslash muhimdir. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, qadimgi turkiy dialektlar haqida so‘z yuritilganda o‘sha davr leksik qatlamiga xos so‘zlarning dialektik belgilari hozirgi davr turkiy tillardagi lug‘aviy qatlamning fonetik strukturasi, semantikasi, valentlik imkoniyatlarini (bir so‘zning boshqa bir so‘z bilan mazmuniy bog‘lana olishi) kabi xususiyatlarini e’tiborga olgan holda tasniflash mumkin, dialektal mansubligini dalillash asoslidir. Jumladan, atoqli shevashunos Ahmad Ishayev o‘zbek tilidagi shevalar lug‘atiga kiritiladigan so‘zlar haqidagi maqolasida o‘zbek shevalaridagi lug‘aviy birliklarni adabiy tilga va shevalararo munosabatiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganadi: 1. Sof leksik-dialektal so‘zlar. 2. Etnografik-dialektal so‘zlar. 3. Leksik-semantik dialektal so‘zlar. 4. Leksik-fonetik dialektal so‘zlar. 5. Leksik-derivatsion dialektal so‘zlar. 6. Morfologik-dialektal so‘zlar [3;37-42].

Demak, “Oltun yorug‘” asaridagi leksik farqlilik asosida yuzaga kelgan dialektal qatlamni an’anaviy ravishda qarluqcha, qipchoqcha va o‘g‘uzcha birliklar tarzda o‘rganish mumkin. “Oltun yorug‘” tarjima asari bo‘lganligi sababli tarjimonlar tarjimadagi muqobillikni ta’minlash maqsadida o‘z davrida qo‘llanishda bo‘lgan qadimgi turkiy tilning barcha dialektlariga xos lug‘aviy birliklardan unumli foydalanganlar. Bu esa o‘ziga xos qadimgi turkiy dialektlarga xos panorammani yuzaga keltirgan. Turkiy dialektlarning qarluqcha, qipchoqcha va o‘g‘uzcha birliklarni alohida o‘rganish mumkin. Jumladan, “Oltun yorug‘” leksikasi bo‘yicha kuzatishlar olib borgan qoraqalpoq tilshunosi, professor Sh.Abdinazimovning ta’kidlashicha, asar leksikasida “qoraqalpoq tili tarixini o‘rganishda qimmatli ma’lumotlar beruvchi quyidagi so‘zlar ishlatilgan: аш-ас, ашшы, ақын-сел, алын-маңлай, апа, арыґ-таза, арыў, бар, барча, барыс, бас, е(э)мгек-еңбек, өбке-өкбе, өтүн, өтүнч, тамғақ-тамақ, татығ-татлы, тыңла, жалын, жалбарыныў, жас, жасын, жалын, жалтыр [1;166] va h.”.

Darhaqiqat, *ariy* leksemasi tahlili ham shuni ko‘rsatadiki, qadimgi turkiy til davridayoq *ariy* leksemasi asosida erkaklar ismini nomlovchi atoqli ot mavjud bo‘lgan: *ariy* tegin ‘oliyjanob shahzoda’ [2;52]. Mazkur leksema semalarining ma’no torayishi hodisasi asosida atoqli otlarning hosil bo‘lishini zamonaviy turkiy tillarda ham kuzatishimiz mumkin. Ya’ni

hozirgi qoraqalpoq tilida ayol-qizlarning *Arıw, Arıwxan* [4;34] ismlari faol. *Arıy* sifati qoraqalpoq, qozoq tillarida ko‘proq inson – ayol-qizlar go‘zalligini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Qadimgi turkiy tilda esa shaxslarga ham, suv, havo, narsa-predmetlarga nisbatan ham qo‘llanilgan.

“Oltun yorug‘” asari leksikasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, unda boshqa turkiy dialektal leksik qatlam bilan birgalikda qipchoq dialektiga xos birliklar ham anchagina miqdorni tashkil qiladi. Xususan, *qiytaq* (mahalla), *qunçuy* (malika), *qut, qutlugh* (baxt), *kök qaliq* (osmon, samo), *atagh* (nom, unvon), *aghdar* (tarjima qilmoq), *atın atap* (nomini tilga olmoq, alohida izzat-hurmat qilmoq), *tatigh* (ta‘m), *ötün* (iltimos qilmoq, so‘ramoq, iltijo qilmoq), *ört* (o‘t, olov), *örtünü turur* (yonmoq, kuymoq), *ämğäk* (mehnat), *äw qapughı/qapıqı* (eshik), *qaraq* (ko‘z), va b. Ushbu so‘zlarning ba‘zilarini hozirgi dialektlar bilan qiyoslab ko‘ri chiqamiz.

QIYTAQ. Mazkur so‘z «Oltun yorug‘» asarida ‘mahalla’ ma’nosida qo‘llanilgan: *Yänä anta kin ol oq İnçü 18 baliqta Anqu atl(i)gh qıytaqı 19 Künçing atlıgh bägning kishisi 20 bir yil tüni uzun igläp – YAna shunday keyin o’sha İnçyu 18 shahrining Anqu degan mahallasidagi 19 Kun ching degan bekning xotini 20 bir yil(dan) ortiq ancha xasta bo’lib, ovqat(dan) 21 qoldi, tildan (ham) qoldi, aqldan 22 ozdi* (I.9a). Hozirgi qoraqalpoq adabiy tilida «qiytaq» so‘zi «tomorqa» ma’nosini ifodalaydi.

QUNÇUY. Ushbu so‘z qadimgi turkiy tilga xitoy tilidan o‘zlashgan [2;466. 4;34] va «Oltun yorug‘» asarida “malika, oliy nasabli ayol” ma’nosida qo‘llanilgan: *Ötrü antada kin 18 ol qunçuyular kün küningä 19 ädgü bolup öngräkidäg igsiz 20 käm(siz bol)ti* – Shundan keyin 18 o’sha malika kundan-kunga 19 yaxshi bo’lib, ilgarigiday sog‘lom 20 bo’ldi. (I.10b). Hozirgi qozoq tilida bu so‘z “Қаншайым” shaklida atoqli oti (ayol-qizlar ismi) va umuman ayol-qizlarga murojaatda hurmat ma’nosini anglatuvchi, ya’ni o‘zbek tilidagi “begoyim” so‘zi ma’nosida qo‘llaniladi.

ÖRT. “Oltun yorug‘” asarida bu so‘z ‘o‘t, olov’ ma’nolarini ifodalagan va ushbu so‘z asosida “örtün” yasalma hosil bo‘lgan: *ört yalın 16 üzä örtünü turur ät’özlüglär – yonayotgan alanga yolqinida 16 kuyayotgan tanalar* (II.33a). Hozirgi qoraqalpoq adabiy tilida *ört* so‘zi “o‘t olmoq, yonmoq” ma’nolarini ifodalaydi va qadimgi turkiy tildagi ma’nosini saqlab qolgan: *Adamlardı ört sөndirio’ge bөlistirip jiberdi* (A.Bekimbetov) [5;464].

Umuman, turkiy tillar dialektlari o‘rtasidagi differentsiatsiya qadimgi turkiy til davridan boshlangan va hozirgi turkiy tillar leksikasi (shu bilan birga fonetik, grammatik sathlari)dagi o‘ziga xos farqlarni, jumladan, sinonimlikni, yuzaga keltirgan. Xususan, “Oltun yorug‘” asari leksikasi asosida lug‘aviy birliklar semantikasini turkiy tillar, ularning dialektlari bilan qiyosiy tadqiq qilish so‘z ma’nosi taraqqiyoti, dialektal farqlarini aniqlashga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Абдиназимов Ш. «Алтын йарук» естелиги // Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети «Ахборотномаси». Нукус, 2019 №4, 166-б.
2. Древнетюркский словарь, -Л.:1969, С.52.
3. Ишаев А. Шевалар луғатига киритиладиган сўзлар/ Ўзбек тили ва адабиёти. 1998 йил 2-сон. 37-42-бб.
4. Сайымбетов О.Т. Қарақалпақ тилиндеги меншикли адам атлары. –Нөкис: «Билим», 2000. 34-б.
5. Қарақалпақ тилинің түсіндірме сөзлігі. 4 томлық, IV том. -Нукус:

TURKIY TILLARDAGI ARABCHA O‘ZLASHMALARDA UNLILAR ALMASHUNUVI

(o‘zbek, qoraqalpoq, turkman tillari misolida)

Orazbaev Ergash, Qoraqalpoq davlat universiteti

Turkiy tillar lug‘aviy tarkibidagi arabcha o‘zlashmalar haqida so‘z yuritilganda dastlab ushbu tillarning fonetik-fonologik, orfografik-orfoepik tizimlaridagi o‘ziga xosliklarga to‘xtalib o‘tish zarur bo‘ladi. Zotan, o‘zbek, qoraqalpoq, turkman tillari turkiy tillarning alohida uch guruhi – qarluq, qipchoq, o‘g‘uz guruhlariga mansub tillar hisoblanadi. Shu bois ularning til sathlariaro (ayniqsa, fonetik jihatdan) farqliliklarni yuzaga keltirishi tabiiy. Bunda turkiy tillardagi arabcha o‘zlashma so‘zlarda fonetik variantlanishni tavsiflash juda muhim.

Arabcha o‘zlashma so‘zlardagi fonetik variantlanish masalasiga to‘xtalar ekanmiz, mazkur masala turkiy tillardagi so‘z o‘zlashish tamoyillari va imlo qoidalari bilan bog‘liq ekanligini alohida ta’kidlab o‘tmoq joiz hamda ularning turkiy tillar fonetik qonuniyatlari asosida yuzaga kelishi tabiiy holat. SHu bois mazkur tillarning fonetik xususiyatlari va lisoniy tabiati xususida ham to‘xtalib o‘tish lozim.

O‘zbek tili kirill alifbosida 35 ta harfiy belgi bo‘lib, ulardan ikkitasi tovush ifodalamaydi (, ‘), to‘rtta harfiy belgi grafemadir (e, yo, yu, ya), ya’ni bir harfga ikkita tovush kodlangan. O‘zbek-lotin alifbosida esa 26 harf, 3 ta harfiy birikma (sh, ch, ng) va 1 ta tutuq belgisi (apostrof)dan (’) iborat bo‘lib, 6 ta harf unli tovushlar ifodasi uchun kodlangan.

Qoraqalpoq tili kirill alifbosida 41 ta harfiy belgi bo‘lib, to‘rtta harfiy belgi grafemadir (e, yo, yu, ya), shulardan ikkitasi (, ‘) tovush ifodalamaydi. Qolgan 35 ta harfiy belgi ma’lum bir tovush ifodalashga yo‘naltirilgan. Qoraqalpoq-lotin alifbosi 32 harf, 2 ta harfiy birikma (sh, ch)dan iborat bo‘lib [5, 330], ulardan 9 ta harf unli tovushlarni ifodalaydi.

Turkman tili kirill alifbosida 38 ta harfiy belgi bo‘lib [4; 24], to‘rtta harfiy belgi grafemadir (e, yo, yu, ya), shulardan ikkitasi (, ‘) tovush ifodalamaydi. Qolgan 32 ta harfiy belgi ma’lum bir tovush ifodalashga xoslangan. Turkman-lotin alifbosida 30 harf bo‘lib [3; 42], ulardan 9 ta harf unli tovushlarni ifodalaydi.

Ushbu turkiy tillar vokalizmining miqdor tarkibiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, o‘zbek-kirill alifbosida ularning soni 10 ta *a, o, u, o‘, i, e, e, yo, yu, ya*; o‘zbek-lotin alifbosida 6 ta harf bilan ifodalanadi: *a, o, u, o‘, i, e*. Qoraqalpoq tilida unli fonemalar 9 tani tashkil etib, kirill va lotin alifbolaridagi soni bir xil: *a (a), ə (á), o (o), ø (ó), u (u), y (ú), i (i), ı (ı), e (e)*.

Qoraqalpoq va turkman tillarida unlilar miqdor va sifat jihatidan qadimgi turkiy til davridagi tovushlar tilzimini saqlab qolgan hamda alifboni shakllantirishda ushbu holat hisobga olingan. Qadimgi turkiy tilda unlilar 9 ta bo‘lgan [2; 60]: *a, ä, o, ö, u, ü, i, ĩ, e*. SHuningdek, qoraqalpoq va turkman tillarida unlilar miqdorining ko‘p bo‘lishi bevosita singlarmonizm hodisasi bilan bog‘liq. Ushbu tilda singlarmonizm hodisasi ancha kuchli saqlangan. SHu bois matndagi so‘zlar tarkibida bo‘g‘inlarning o‘zaro lab yoki tanglay garmoniyasiga ko‘ra uyg‘unlashib ketishi o‘zbek tilidagi til birliklari bilan fonetik variantlilik sodir bo‘lishiga olib keladi.

O‘zbek alifbosidagi unlilarning miqdor va sifat jihatdan qoraqalpoq va turkman tilidagi unlilardan farqlanishining o‘ziga xos sabablari mavjud. O‘zbek tilida umumturkiy 9 talik tovushlar tizimi saqlangan, og‘zaki nutqda to‘la ifodalanadi va farqlanadi, ammo alifboda ayrim tovushlar uchun maxsus harflar olinmagan. Masalan: *qul, uzun* so‘zlardagi *u* tovushi bilan *kul, uzum* so‘zalridagi *u* tovushi bir-birdan farqlanadi, ya’ni ular *u, ü* fonemalaridir;

qizil, qiz soʻzlaridagi *i* tovushi bilan *ikki, kiyim* soʻzlaridagi *i* tovushi farqlanadi, yaʼni *i, ĭ* fonemalaridir.

SHuningdek, oʻzbek tilidagi orqa qator ochiq keng *o/ā/* unlisi qoraqalpoq va turkman tillarida uchramaydi. Mazkur unli qoʻllanilgan oʻrinlarda qoraqalpoq tilida orqa qator, quyi keng, lablanmagan *a* unlisi ishlatiladi. Ushbu unilining oʻzbek tilida paydo boʻlish tarixi uzoq zamonlarga borib taqaladi, eski turkiy til davrida *-o/ā/* unlisi mustaqil tovush tarzida mavjud emas edi, shuningdek, bu tovushning paydo boʻlishi uchun baʼzi turkiy soʻzlarda zamin bor edi. Jumladan, *qalin, qattiq* kabi turkiy soʻzlar boshida qoʻsh alif yoki alif madda bilan ifodalangan choʻziq etimologik *ā* tovushi hamda chuqur til orqa *q, gʻ* va spirant *x* undoshi yonida kelgan etimologik *a* tovushi orqa qator ochiq keng *o/ā/* unlisining paydo boʻlishiga sabab boʻlgan fonetik hodisalardan biridir. Ikkinchidan, fors-tojik tilidan oftob, osmon, dono, obod, otash, bogʻ, bodom, ozod, bozor kabi soʻzlarning turkiy tillar leksik qatlamiga oʻzlashishi ham ochiq keng *o/a:/* tovushining yuzaga kelishiga sabab boʻlgan. Uchinchidan, arab tilidan oxir, olim, osor, olloh, ulamo, umaro, fozil-fuzalo, qodir, zohir kabi juda koʻp soʻzlar turkiy tillar tarkibiga kirgan, bu soʻzlarni talaffuz qilish muammosi paydo boʻlgan. Bu fonetik zarurat ham ochiq keng *o/ā/* tovushining paydo boʻlishiga zamin yaratdi [1; 41].

Umuman, turkiy tillardagi arabcha oʻzlashmalar turli xil imlo tamoyillari orqali kodlashtirilgan. Ularning shakl va maʼno farqliliklarining oʻrganilishi ushbu tillardagi terminologik tizimning hamda badiiy, ilmiy, rasmiy matnlar tarjimasida turli muammolarning bartaraf etilishida muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov Gʻ., Shukurov Sh., Mahmudov Q. Oʻzbek tilining tarihiy grammatikasi. –Toshkent: “OʻZBEKISTON FAYIASUFLARI MILLIY JAMIYATI NASHRIYOTI”, 2008-yil, 41-bet.
2. Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятниках (VII – IX вв.). –Л.: «Наука» 1980, С.60.
3. Täçmyradow T. Häzirki zaman türkmen dili. Fonetika. -A.: Ylym, 2002. -42-nji sah.
4. Худайгулыев М. Хэзирки заман түркмен дили. Фонетика. –Ашгабат: «Туран-1» неширияты, 1992 й. 24-с.
5. Qaraqalpaq tiliniñ imla sózligi. –Nókis: “Bilim”, 2017. 330-bet.

SINONIMIYA VA UNGA YONDOSH HODISALAR

Jumayeva Feruza Uralovna, JDPI dotsenti

Polisemem leksemaning sememasi qaysi sememaga sinonim boʻlsa, uning antonimi bilan antonim boʻladi. Masalan, *boʻsh* leksemasi hosila sememasida *yumshoq* leksemasiga sinonim, shu sememasi bilan *qattiq* leksemasiga antonim boʻladi. *Boʻsh kesak, yumshoq kesak* birikmalarida *boʻsh* va *yumshoq* leksemalari sinonim sememalarni hosil qilgani uchun *qattiq* leksemasi bilan antonim boʻladi. *Boʻsh kesak, qattiq kesak. Bu yoqning toshi u yoqniki singari qattiq, yaxlit emas, juda boʻsh, gʻoʻrasha edi. (M. Ismoilij Fargʻona tong otguncha), Yumshoq, yengil va ogʻir* leksemalarida ham shunday holatni kuzatish mumkin. *Yumshoq jazo, yengil jazo, ogʻir jazo. Yengil va ogʻir* leksemalari oʻz va koʻchma sememalarida antonim. *Yumshoq va yengil* polisemem leksemalari koʻchma sememasida sinonim semalarni

yuzaga keltira olgani uchun *yumshoq* va *og'ir* leksemalari antonim sememalarni yuzaga keltirgan. Ba'zi sinonimik qatorlar antonimik munosabatni hosil qiladi. Buni sememalar doirasida ham kuzatish mumkin. M.: *yumshoq*, *yengil* – *qattiq*, *og'ir* polisemem leksemalari ko'chma sememalarida sinonimik va antonimik munosabatni yuzaga keltiradi. *Yumshoq jazo* – *qattiq jazoladi*. *Engil jazo* – *og'ir jazo*.

Demak, sinonim semalar sinonimiyaga yondosh bo'lgan birliklar doirasida ham kuzatiladi. Polisemem leksemalar doirasida yuzaga chiqadigan sinonim semalar so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra farqlanuvchi quyidagi turlarida mavjud:

1. Antonimlar doirasida.
2. Graduonimlar doirasida.

Tilimizda ham sinonim, ham antonim semalarga ega bo'lgan polisemem leksemalar mavjud. M., *dasturxonga quyuuq*, *suyuq tortildi*. *Quyuuq*, *suyuq* antonimlari “ovqat”, “taom” kabi sinonim semalarni ifodalagan.

Tushmoq, *chiqmoq* antonimlari ham sinonim semalarga ega. M.: *yo'lga tushmoq*, *yo'lga chiqmoq* iboralari tarkibida kelib, “yurishni boshlamoq”, “yo'l olmoq” sinonim semalarni ifodalaydi. M.:

a) [Nuri] ..*qovun polizni sayr qilishni bahona qildi-da akasining o'g'li Rafiqjon bilan birga yo'lga tushdi* (Oybek. *Tanlangan asarlar*);

b) *Do'konga chiqdi*. *Yo'lga chiqdi*.

Turmoq, *o'tirmoq* leksemalari ham sinonim va antonim semalarga ega: *stulga o'tirmoq*. *O'tirmoq* leksemasi “cho'kmoq” semasini ifodalamoqda, ya'ni “quyi vertikal yo'nalish” sememasiga ega. *Stuldan turmoq* birikmasidagi *turmoq* leksemasi “qaddini tiklamoq” sememasiga ega, ya'ni “yuqori vertikal yo'nalish” sememasi hosil bo'lgan. “Quyi”, “yuqori” semalari antonim hisoblanadi. *Turmoq*, *o'tirmoq* polisemem leksemalari quyidagi sememalarida sinonim semalarni ifodalaydi:

a) *Mullajon amakim bozorga shunday yaqin Gulzorobod mahallasida turadilar* (E.Raimov. *Ajab qishloq*);

b) *Nuri bunday gaplarni beparvolik bilan eshitishga urinib boqardi: “Ayajonimning bag'rida o'tiribman-da, shoshmasalar ham bo'lar edi”* (Oybek. *Tanlangan asarlar*).

Bu gaplardagi *turmoq* va *o'tirmoq* leksemalari “istiqomat qilmoq”, “yashamoq” kabi sinonim semalarni ifodalamoqda.

Kirmoq, *chiqmoq* leksemalari *otam oltmishga kirdi*. *Yoshim qirqqa chiqdi* gaplarida sinonim semaga ega.

Sinonim semalarni affiks antonimlarda ham kuzatish mumkin. M.,-*li* va -*siz* affikslari antonim hisoblanadi: *odobli-odobsiz*. Bu qo'shimchalar polisemem leksemalar doirasida sinonim semalarni yuzaga keltiradi: *uyat gaplar*, *uyatli gaplar*, *uyatsiz gaplar*.

Otlashgan so'zlar sifat va otga xos semalarni ifodalaydi. M.: *Yaxshiga yondash*, *yomondan qoch*. (Maqol) *Yaxshi-yomon* leksemalari “odam” integral semasiga ko'ra sinonim, xususiyat ifodalovchi semalariga ko'ra antonim bo'ladi. Sinonim semalar ellipsisga uchragan so'z asosida hosil bo'lgan.

Sinonim semalar graduonimik qatorlarda ham kuzatiladi. Shuning uchun graduonimik qatorlarning ayrimlari sinonim leksemalar sifatida tahlil etiladi. M.: *shivirlamoq*, *gapirmoq*, *baqirmoq*. Sinonim semalarga ega bo'lgan graduonimik qatorlarning ayrimlari antonim semalarga ham ega bo'ladi. M., *juvon*, *xotin*, *kampir* leksemalarida “turmush o'rtoq”, “rafiqa” kabi sinonim semalar mavjud. Shuningdek, *juvon*, *xotin*, *kampir* graduonimik qatordagi *juvon* va *kampir* leksemalarida “katta”, “kichik” antonim semalari bor.

Demak, semalarning ma'nodoshligi keng ko'lamli hodisa bo'lib, u sinonim bo'lmagan leksik birliklar doirasida ham kuzatiladi.

BADIIY ADABIYOT MILLIY MADANIYATIMIZ IFTIXORI

f.f.f.d.(PhD) Z.Sh.Jumayeva

“Til bilgan – el biladi” ushbu maqol hozirgi taraqqiy etayotgan va jadal rivojlanayotgan davrda izlanishga juda ham mos tushadi. Barchamizga ayonki, til bu – muomala vositasi bo'libgina qolmay, balki uning yordamida biz butun bir dunyodan voqif bo'lish imkoniyatiga egamiz. Masalan, kundan kunga o'rganishga bo'lgan talab doirasi ancha yuqorilashib borayotgan Ingliz tilini olsak. Bugun bu tilda dunyoning deyarli barcha mamlakatlari ikkinchi til sifatida so'zlashmoqdalar. Bu esa o'z navbatida turli mamlakat vakillarining o'zaro muloqot qilishlariga, bir-birlari bilan fikr almashishlariga, qolaversa, o'ziga xos bo'lgan madaniyatidan bahramand bo'lishlariga zamin yaratmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning 2012- yil 10-dekabrda qabul qilgan “Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori o'z o'rnida mamlakatimiz yoshlarini bugungi zamon bilan hamnafas bo'lishga undamoqda. Xususan, respublikamizda o'sib kelayotgan yosh avlod uchun zamon talablariga mos keluvchi barcha sharoit- larning yaratilganligi ularning mukammal darajada bilim egasi bo'lishlariga xizmat qilmoqda. Hozirda kichik yoshdagi bolalarga bog'cha yoshidan xorijiy tillarni o'rgatish tizimining joriy qilinishi bunga yorqin misol bo'la oladi. Albatta, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning barchasi yoshlarning ertangi kuni uchundir. Hozirda esa barchamizning diqqat e'tiborimiz kitob mutolaasiga qaratilgan. Zero, kitob o'qish orqali inson o'zining nafaqat dunyoqarashini kengaytiradi, balki undan olam-olam ilm olish, o'zining qiziqtirgan savollariga javob topish hamda o'zi uchun xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, o'zbek adabiyotida shunday asarlar borki, ular yozilganiga ko'p vaqt o'tgan bo'lsada, ammo ularning ma'no-mazmuni bugungi hayotimizda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shulardan biri ko'p yillardan buyon qalbimizdan chuqur o'rin egallagan buyuk yozuvchi Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanidir. Bu roman haqida qancha gapirsak shuncha oz. Abdulla Qodiriy bu romanga shu qadar mahorat bilan yondashganki, hatto uning mukammal darajaga yetishi uchun bir qancha qiyinchiliklarni boshidan kechirishga majbur bo'lgan. Buni esa 1935-yilda “Qizil O'zbekiston” gazetasida bosilgan “Yozuvchi o'z ishi to'g'risida” nomli maqolalarida aytib o'tadi. Asar nashr qilingan paytda esa odamlar navbat kutishib, bu romanni o'qishga oshiqishgan. Odamlar bu romanni bir marta qo'lga olishsa, uni to tugatmaguncha qo'ldan qo'yishmagan. Taniqli tojik yozuvchisi Jalol Ikromiy shunday yozadi: *“Men 1930-yillar boshida Toshkentdagi bilim yurtida o'qir, bir qozoq kursdoshim bilan yotoqxonada turar edim. Shunda birinchi bor “O'tkan kunlar”ni o'qidim. Uni kecha-kunduz berilib o'qir ekanman, qozoq do'stim “bu kitobni muncha o'qiyverasan”, deb ajablanardi. Men esa “to'xta, sen ham o'qiysan”, deb kitobdan bosh ko'tarmasdim. Nihoyat, romanni bitirdim va qozoq do'stinga o'qishga tavsiya qildim. U avvaliga tilar-tilamas o'qiy boshladi va keyiniga menga o'xshab, berilib ketdi. Bir kun, yotoqxonada dars tayyorlab o'tirardim,*

do‘stim esa, “O‘tkan kunlar”ning oxirgi varaqlarini o‘qirdi. Birdan sakrab o‘rnidan turdi va borib pechkani ochdida, qo‘lidagi “O‘tkan kunlar”ni yonib turgan o‘tga tashladi... Men hayratlanib, “Xay, senga nima bo‘ldi?” dedim. U xo‘ngrab: “Kumush o‘ldi” dedi. Chala kuygan kitobni arang o‘chirdim...”. Bu ma‘lumotdan bilishimiz mumkinmi, asar shu qadar tabiiy va jonli tarzda yozilganki, uni o‘qigan odam asar oxirida shu kabi holatga tushadi. Bularning hammasi adibning naqadar o‘z ishiga mas‘uliyat bilan yondashgani va bu yo‘lda barcha qiyinchiliklarni kuchli sabr-toqat bilan yengganini isbotlaydi. Hamda Abdulla Qodiriyning hayot yo‘li ham yoshlarga o‘rnak bo‘lish bilan birga, bizning madaniyatimizning naqadar beqiyos ekanligidan darak beradi. Endi romanga to‘xtalsak. Bu roman yoshlarga axloq-odob jihatidan namuna bo‘luvchi asar desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Masalan, romanning boshlanishidagi bir qismga e‘tiborimizni qaratsak. “Otabek mehmonlarni tanchaga o‘tqazib, fotihadan so‘ng Xasanalidan so‘radi :

Tuzukmisiz, ota?

Xudoga shukr, – dedi Xasanali, – boyag‘idan bir oz yengillashdim. Mazmuni is tekkan ekan.

Ba‘zi yumushlarni buyursam...

Buyuringiz, o‘g‘lim.

Rahmat, ota, bo‘lmasa bizga choy qaynatib bersangizchi.

Xo‘b, begim.

Xasanali chiqdi. Raxmat Otabek bilan yana bir qaytib sog‘liq so‘rashqandan keyin so‘radi:

Bu kishi kimingiz bo‘ladir, bek aka? Otabek Raxmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Xasanalini hujradan uzoqlatib so‘ngra javob berdi:

Qulimiz.

Bu so‘zdan nima uchundir Xomid ajablangan edi.

Qulingiz?

Shundog.

Bu parchaga diqqat bilan nazar tashlaydigan bo‘lsak, Otabekning yosh bo‘lishiga qaramay, odob-axloq jihatidan naqadar yetuk shaxs ekanligini payqashimiz mumkin. Garchi Otabek Xasanalini yonida ham “qulimiz” deganida ham Xasanali undan xafa bo‘lmasdi. Ammo tarbiyaning naqadar yuqori ekanligidan hamda Xasanaliga ota sifatidagi hurmati yuzasidan «uni hujradan uzoqlatib» keyingina javob beradi. Bu esa o‘zbek madaniyati, qadr-qimmatini shuningdek, o‘ziga xos qadriyatidan darak beradi. Endigina balog‘at yoshiga yetayotgan, hali ma‘naviy jihatdan yetuk bo‘lmagan yoshlarimiz bu romanni o‘qish orqali o‘zlari uchun qimmatli bo‘lgan tarbiya va xulosalarni olishlari mumkin. Roman davomida mana shunday tarbiyaga ijobiy ta‘sir etuvchi sahnalarga bir necha bor duch kelamiz. O‘zbek adabiyoti haqida so‘z yuritar ekanmiz, bunday bebaho adib va asarlardan ko‘plab keltirishimiz mumkin. Masalan, adabiyotimizning yorqin namoyandalaridan Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Zulfiya, Asqad Muxtor, G‘afur G‘ulom, Oybek, Said Ahmad, Saida Zunnunova va shu singari ko‘plab boshqa yozuvchi, shoirlarni keltirishimiz mumkin. Shuning bilan birga hozirgi kunda yosh avlodga ziyo tarqatayotgan otaxon yozuvchilarimiz Xudoyberdi To‘xtaboyev va Tohir Maliklardir. Ular yaratgan nodir asarlar turli xil xorijiy tillarga tarjima qilinib, bugungi kunda dunyoning turli burchaklaridagi havasmandlar tomonidan sevib o‘qilayotgani bizni quvontirmasligi mumkin emas, albatta. Bugun O‘zbekiston atalmish

go‘zal diyorning mana shunday bebaho madaniyati butun dunyoga ayondir. Bundan esa har bir o‘zbek farzandining qalbi g‘urur va iftixorga to‘ladi, desak aslo yanglishmaymiz. Shu o‘rinda Birinchi Prezidentimizning yana bir fikrlarini ta’kidlash joiz, ular “*Yoshlar bizdan ko‘ra bilimiroq va donoroq bo‘lishlari kerak. Buning uchun yoshlarni bo‘layotgan barcha o‘zgarishlardan voqif qilishimiz, ularni yetuk bo‘lib yetishlariga, bilim olishlariga e‘tiborli bo‘lishimiz kerak*”,

– deganlar. Bu vazifa, albatta har birimizning oliy burchimiz hisoblanadi. Yoshlarni to‘g‘ri tarbiyaga yo‘naltirish barobarida, ularni badiiy kitobga qiziqishlarini oshirishimiz hammamizning farzandlik burchimizdir. Davlatimizga, milliy madaniyatimizga o‘z hissamizni qo‘shib, Birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, barcha yangilik va voqeadan xabardor bo‘lishimiz lozim. Buning uchun esa faqatgina milliy adabiyotimiz bilan cheklanmay, jahon adabiyotidan ham boxabar bo‘lishimiz kerak. Sababi, jahon adabiyotida ham shunday asarlar borki, ularni o‘qib-o‘rganishimiz bugungi zamonning asosiy talabidir. Misol tariqasida Ingliz adabiyotining buyuk asoschisi sanaluvchi Uilliam Shekspir, Agata Kristi, Ernest Hemingvey, Charles Dikins, Katrina Mansfieldlar o‘z zamonasida betakror asarlar yaratishgan va ushbu til madaniyatiga o‘z hissalarini qo‘shishgan. Shuningdek, Amerikaning ilk yozuvchilaridan biri Benjamin Franklin o‘zining “Poor Richard’s Almanack” asari bilan juda mashhur bo‘lgan. Bu asar millionlab nusxada sotilgan va u Amerikaning ilk eng mashhur kitoblaridan biri sifatida nom qozongan. Bu asarda shunday ibratomuz so‘zlarni uchratishimiz mumkin: “*You can not succeed in life without working hard*”, - ya’ni “*Qattiq mehnat qilmasdan muvaffaqiyatga erisha olmaysan*”, shuningdek, “*The gains you’ve already made are more valuable than future gains you merely dream about*”, buning tarjimasida “*sen allaqachon qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatlaring shunchaki tushingda ko‘radigan kelajak yutuqlaringdanda qadrliroqdir*”. Birinchi so‘zlarga e‘tibor bersak, haqiqatan ham inson mehnat qilmasdan turib, hech qanday muvaffaqiyatlarga erisha olmaydi, biron narsaga erishish uchun tinimsiz harakat mashaqqat zarur kabi ma’nolarni uqishimiz mumkin. Bu ibratli so‘zlar yoshlar ongiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatishi tabiiy. Ularning tarbiyasiga ayni shunday so‘zlar bilan ta’sir qilsak kelajagimiz poydevori hisoblangan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalay olamiz. Franklinning ikkinchi so‘ziga kelsak, uning mazmuni inson uchun qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatlari kelajakdagsidan ko‘ra qimmatliroqdir, degan ma’no mujassamlashgan. Albatta, inson o‘z mehnati evaziga erishgan yutug‘i uning uchun ko‘proq qadr-qimmatga ega bo‘ladi. Bunday so‘zlarning asl mohiyatini anglab, hayotda ularga amal qilsak, o‘ylaymizki, hayotimiz yanada go‘zal va betakror bo‘ladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, tilning bu kabi imkoniyatlari biz yoshlar uchun barcha ilm cho‘qqilarini zabt etishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Birgina til o‘rganish orqali xorijiy davlatlarning ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, o‘ziga xos madaniyati va ayniqsa, boy badiiy adabiyotidan bahramand bo‘lish imkoniyatiga egamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.I.A.Karimov. “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. 1998.
- 2.Karimov. “Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz”. T. 7. –T.: “O‘zbekiston”, 1999-yil. 371-b.

JAHON TILSHUNOSLIGIDA SINTAKTIK TEGGLASH (IZOHLASH) NAZARIYASI

Xidirov Otabek, f.f.d (PhD), JDPI

Ilk korpuslarni yaratishda sintaktik razmetkalash noavtomatik bo'lsa, keyingi avlod korpuslari sintaktik razmetkasi parsing dasturi asosida, avtomatik/yarim avtomatik tarzda amalga oshirilgan. Korpus tuzish tajribasi kuzatilar ekan, sintaktik razmetkaning turli usullari borligini ko'rish mumkin. Ulardan biri gapda so'z bog'lanishining shajara usuli bo'lsa, ikkinchisi matn birliklariga sintaktik teg biriktirish orqali amalga oshadi.

Ingliz adabiyotlarida razmetkalanmagan va razmetkalanmagan korpuslar farqlanadi. Razmetkalanmagan korpus – qayta ishlanmagan, oddiy, “xom” matn, lingvistik informatsiyaga ega bo'lmagan korpus. Masalan, present so'zi ma'lum kontekstda ot bo'lib kelishini ko'rsatuvchi aniq fakt yo'q. Bu ma'lumot tushuniladi, ammo yuzaga chiqarilmaydi. Razmetkalanmagan korpus o'zida lingvistik axborot saqlaydi: Masalan, present – noun/verb, ya'ni present so'zi ham ot, ham fe'l bo'lib kela oladi. O'z navbatida, Lankaster universiteti olimlari Toni Makenri, Endryu Uilson korpus tilshunosligi (korpus lingvistikasi) to'g'risida quyidagi fikrlarni aytishgan: “Korpus lingvistikasi - bu tilni o'rganish bo'lib, yozma yoki og'zaki o'qiladigan matnni qayta ishlash, foydalanish va tahlil qilish bilan bog'liq barcha jarayonlarni o'z ichiga oladi. Korpus tilshunosligi nisbatan zamonaviy atama bo'lib, “jonli til”dan foydalanishga asoslangan metodologiyaga asoslaniladi. Hozirgi vaqtda korpus tilshunosligining samaradorligi va ahamiyatliligi kompyuter lingvistikasining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Har qanday matn tarkibini yaratish tamoyillari uning amaliy maqsadiga bevosita bog'liq [1, 94.]

M.K.Maxmutovanning fikricha, dastlab, tillarni tadqiq qilishda korpusdan foydalanishning maqsadi turli til elementlarining chastotasini hisoblab chiqishdan iborat edi. Bunday elementlar so'z, so'zshakl, morfema va iboralar bo'lishi mumkin. Korpusdan til va nutq birliklari bo'yicha turli xil ma'lumot va statistika olish uchun foydalanish mumkin.[2,149.] Bunday texnologiya, xususan, leksikografiya, so'zni avtomatik qayta ishlash tizimlari sohasida turli vazifalarni hal qilish imkonini beradi. Nutqni aniqlash, sintez qilish, avtomatlashtirilgan va mashina tarjimai, imlo va grammatikani tekshirish kabi murakkab lingvistik muammolarni hal qilishda statistik usuldan ham foydalaniladi. Masalan, korpus materialida qaysi so'zning turg'un iboralar guruhiga tegishli ekanligini aniqlash mumkin. Buning uchun olingan ma'lumotda, birliklar o'zaro muntazam ravishda birika olishini tekshirish kerak.

Gollandiyadagi Nijmegen universitetida ishlab chiqilayotgan grammatikalar korpus matni holatlarida sinovdan o'tkaziladi. Grammatika asosida korpusni qayta ishlaydigan tahlil dasturi tuziladi. Olingan ishlov berish natijalari grammatika ma'lumotlarini qanchalik aniq tasvirlashini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqqan holda, korpus texnologiyasi tilshunoslikning yangi nazariyalari, so'zni avtomatik qayta ishlash tizimlarini sinab ko'rishga imkon berishini ko'ramiz.

1993 yilda Lancaster-Oslo/Bergen (LOB) korpusi va Britaniya milliy korpusi (BNC) yaratuvchisi Jeffri Leich tomonidan 1993 yilda tuzilgan annotatsiyalash postulatlaridan biri til belgilarining aniq va tushunarli tavsiflash prinsipi e'tiborga molik. Shuningdek, uning fikriga ko'ra, umumfoydalanishga mo'ljallangan korpusning razmetkasi uchta prinsipga muvofiq bo'lishi kerak.

1. Razmetka foydalanuvchi uchun qo‘llanma yoki ko‘rsatma shaklida mavjud bo‘lgan tahlil sxemasiga asoslangan bo‘lishi, har bir parametr undan joy olishi kerak.

2. Foydalanuvchi uchun ochiq korpus razmetkasi “nazariy jihatdan neytral” bo‘lishi lozim: razmetka parametrlari barcha uchun tushunarli bo‘lgan tushunchalar tizimidan tashkil topgan bo‘lishi talab etiladi. Agar korpus aniq bir loyiha uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, uni razmetkalashda maxsus, aynan muallifga xos, umumqabul qilingan tasnifdan foydalanish lozim: bunda ham tuzuvchidan u yoki bu til nazariyasiga tayanish talab qilinadi.

3. Korpus annotatsiyasi sxemasi kim tomonidan, qaysi auditoriyaga mo‘ljallanganligi aniq, ravshan ko‘rsatilishi lozim, chunki korpusdan foydalanishda yuridik va texnik jihatdan turli chegaralar mavjud.[3, 275]

J.Leichning birinchi postulati mukammal ishlangan, ammo u hamma korpusda ham yuzaga chiqavermaydi. Albatta, barcha korpuslar u yoki bu darajada ma’lumot(teg)lar tizimi bilan ta’minlangan bo‘ladi. Har bir parametrning qanday ma’lumot tashiyotganligini aniqlashga doim ham erishib bo‘lmaydi. Bu borada “matnni avtomatik qayta ishlash” (<http://www.aot.ru>) guruhida faoliyat olib borgan olimlarning faoliyatni alohida ta’kidlash lozim. Ular asosan, rus tilidagi matnlarga avtomatik ishlov berish jarayonlarini ishlab chiqishgan; kompyuter texnologiyalari yutuqlari nazariy tilshunoslik bilan birlashtirib, amaliy natijalarga erishilgan.

Demak, har qanday sintaktik teglar tizimini ishlab chiqish uchun kompyuter texnologiyalari yutuqlari bilan birgalikda o‘zbek tilshunosligida sintaksis bo‘yicha yaratilgan nazariyalar asosida korpus uchun parser dasturi ishlab chiqish mumkin. Sintaksis bo‘yicha yaratilgan barcha nazariy materiallarni to‘plash, o‘rganish, umulashtirish hamda sintaktik teglar yaratishda foydalanish zarur.

Ma’lumki, korpusni sintaktik razmetka ma’lumotlari bilan ta’minlash jarayoni avtomatlashtirilsa ham, morfologik razmetkadan farqli o‘laroq, inson omiliga ko‘proq ehtiyoj seziladi. Shu sababli katta hajmli matnni detallashtirilgan sintaktik tahlil qilish talab etilmaydi. Sintaktik razmetkada qo‘llaniladigan asosiy algoritm sintaktik dekompozitsiya sanaladi. *Kirishda* matn berilsa, *natijada* matnning nechta gapdan tashkil topganligi miqdori hamda matndagi gaplar ro‘yxati ko‘rsatiladi. Bunday algoritmi ishlab chiqish 1960-yillarda boshlangan. Sintaktik dekompozitsiya algoritmi belgi asosida bo‘shliq, tinish belgilari asosida jumlani taniydi.

Morfologik jihatdan muhim iborani tahlil qilish uchun *chankerlar* ishlatiladi. So‘rovga berilgan javobda ular ma’lum bir turdagi (nominal, fe‘l, sifat, ravish) iboralar ro‘yxatini chiqaradi. Ko‘pincha, ro‘yxatga olingan qism (ot birikmasi)lar *chanker* sifatida foydalaniladi. Ular jumlani boshqaruvchi ot orqali taniydi. Ushbu turdagi jummalarni “tanib olish” nutq qismlari teglari bilan oldindan izohlash, nutqning ayrim qismlarini grammatik qoidalar asosida iboralarga birlashtirish asosida amalga oshiriladi.

Tubingen korpusidagi rus tilida sintaktik belgilash elementlari so‘zning ekvivalenti sifatida ishlaydigan barqaror sintaktik burilishlar izohini o‘z ichiga oladi (masalan, *chunki, baribir, shunga ko‘ra*). Bu korpusda qo‘shma gap ham teglanadi, ya’ni ushbu korpus so‘z birikma, sodda gap, qo‘shma gap kabi birliklarini avtomatik ravishda farqlay oladi.

Xelsinki loyihasi mualliflari grammatik ma’lumotni maksimal qamrab olish uchun matnni cheklab, korpusga sintaktik teg (belgi)ni batafsil qo‘shishni rejalashtirganliklari mantiqan to‘g‘ri. Hozirda ushbu ish natijasi Xelsinki korpusining onlayn versiyasida mavjud emas, ammo yaqin orada joylashtirilishi kutilmoqda. Mualliflarning fikriga ko‘ra, sintaktik belgi ikki izohli sxemani murakkab shaklda birlashtiradi (aniqrog‘i, parallel ravishda taklif

qiladi): gap bo‘laklari nuqtai nazaridan bizga keng doiradagi foydalanuvchilar ishlatishi mumkin bo‘lgan sintaktik izohlarni tasvirlash imkonini beradi; shajara daraxtlari nuqtai nazaridan bizga, birinchi navbatda, sintaktik bo‘g‘in turlari hamda ierarxiyasini aniq ko‘rsatishga imkon beradi.[4,281]

Rus tili milliy korpusi tarkibidagi matnlarning barchasini sintaktik razmetkalash ko‘zda tutilmagan; korpusga bunday talab ham qo‘yilmagan. Butun korpusda yuzaga chiqarish talab qilinadigan sintaktik tahlil elementlariga turg‘un iboralarni teglash (1), korpus vositasida ularning statistikasini chiqarish (2) tegishli. SHu bilan birga, rus tili milliy korpusi saytida korpusning (hajmi 30000 gapdan ko‘proq) sintaktik razmetkalangan fragmentini qo‘yish rejalashtirilgan. Ushbu tahlil shajara daraxti vositasida amalga oshirilishi kutilmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Maxmutova M.K. Проблемы аннотирования (тагирования) текстов в корпусной лингвистике // Выпускная квалификационная работа YUUrGU. – Chelyabinsk, 2018. – 94 s.

2. Chernyakova, T. A. Metodika formirovaniya navykov studentov na osnove lingvisticheskogo korpusa [Tekst] / T. A. Chernyakova. – Tambov, 2012. – 149 s.

3. Leech, G. Corpus annotation schemes / G. Leech Literary and Linguistic Computing, 1993. – 8/4. – P. 275-281.

4. Leech, G. Corpus annotation schemes / G. Leech Literary and Linguistic Computing, 1993. – 8/4. – P. 275-281.

O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA BA‘ZI ZONIM KOMPONENTLI FRAZELOGIZMLARNING SEMANTIKASI

**Madraimova Iroda Shermatovna,
Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti**

Frazeologiya til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko‘rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma‘noviy tabiatga ega bo‘lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: *tepa sochi tikka bo‘ldi, sirkasi suv ko‘tarmaydi* va h². Ma‘lumki, frazeologizm deganda, ko‘chma ma‘no anglatadigan, ibora yoki turg‘un so‘z birikmalari tushuniladi. Frazeologik birlikdan (iboradan) yaxlitligicha anglashiladigan ma‘no uning tarkibidagi so‘z komponentlariga xos leksik ma‘nolarning oddiy yig‘indisiga teng bo‘lmaydi, iboraning ma‘nosi umumlashma ma‘no, maxraj ma‘no sifatida namoyon bo‘ladi³. Frazeologiya nazariyasiga dastlab fransuz tilshunosi Sh.Balli asos soldi. Frazeologizmlarning grammatik, semantik, funksional-uslubiy jihatlarini rus tilshunoslarining tadqiqotlarida ham ko‘rish mumkin. Masalan, V.Vinogradov iboralarni leksik qatlam sifatida ma‘no guruhlariga ko‘ra tasniflaydi. V.Jukov esa frazeologizmlarning kategorial ma‘nolarini aniqlagan. O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlar Sh.Rahmatullayev, M.Sodiqova, I.Qo‘chqortoyev, A.Rafiyev, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov, Q.Hakimov, K.Bozorboyev kabi olimlar ishlarida keng o‘rganilgan⁴.

Frazeologizmlarning muayyan guruhi xalqlarning urf-odatlarini, an‘analari va irimlari ta‘sirida shakllanadi. Frazeologiyani tilning xazinasiga qiyoslasak bo‘ladi. Chunki aynan u xalqning tarixini, madaniyati va o‘ziga xosligini ko‘rsata oladi. Frazeologizmlar asosan millat

an'analari-yu, urf-odatlarini, o'zida mujassamlashtiradi. Quyidagi berilgan misollar tahlili jarayonida bunga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining frazeologik lug'ati"da "*quyon yurak*" frazemasi izohlangan bo'lib, so'zlashuv uslubida ham, badiiy uslubda ham juda keng qo'llaniladi. Bu ibora "qo'rqqoq, jur'atsiz, biror ishni qilishga botina olmaydigan" kabi ma'nolarda qo'llaniladi. Masalan: "Sizni durust odam deb yurardim. Qo'rqqoq, quyon yurak odam ekansiz" (Said Ahmad, "Hukm"). Qoraqalpoq tilida ham xuddi o'zbek tilidagi kabi ma'noni beruvchi "*qoyan júrek*" iborasi mavjud. Masalan: "*Bunday waqıtta geypara qoyan júrek erkekler mañlayına qos qollap urıp, yegitilip julay baslaydı*" (Muratbay Nizanov, «Tañlamalı shıǵarmalar» II tom, 88-bet).

O'zbek tilida "*it azobida*" frazemasi mavjud bo'lib, u nihoyatda qiyin, mashaqqatli holat, ahvol ma'nolarini anglatadi. ("O'zbek tilining frazeologik lug'ati", 241-bet). "*It azobida kechani kunduzga ulab mehnat qila-qila, endi yurt orasida she'r qildim deganda, obro'ni to'kib qo'ysam, qanday ko'rgilik!*" (Hamza "Paranji sirlari"). Aynan shu sema qoraqalpoq tilidagi "*uïm азабын коруу*" iborasiga to'g'ri keladi. Bu ibora *jüdá azaplanıw, qattu qıynalıw* ma'nolarda qo'llaniladi. ("Qaraqalpaq tiliniñ qısqasha frazeologiyalıq sózligi", 88-bet).

Shuningdek, o'zbek tilida "*Sichqonning ini ming tanga bo'ldi*" va shu iboraning varianti "*Sichqonning ini ming tanga bo'lib ketdi*" frazemalari mavjud. Bu iboralar Sh.Rahmatullayevning frazeologik lug'atiga kiritilgan bo'lib, "*qochib qutilgani joy topolmay qolmoq*" ma'nosini bildiradi. Masalan: "*Cho'lga bahor keldi. Bir balo qilib otdan tushdim-da, qochdim. Sichqon ini ming tanga bo'lib ketdi. Otdan ham, terilardan ham ajraldim*". (I.Rahim. "Olovkor"). Qoraqalpoq tilida ham aynan shu ma'noni anglatuvchi "*Тышқан тесиги мын тенге болуу*" iborasi mavjud. Bu ibora asosan badiiy asarlarda ko'proq uchraydi. Masalan: *Jumagulding de tinisi tarilip, tishqan tesigi ming tenge boladi. OL kisini korgende Sanemning de, Jumagulding de tinisi tarilip, tishqan tesigi ming tenge boladi.* (T.Qayipbergenov). Ikkala misolda ham asar qahramonlarining qochib qutilishga joy topolmay qolishi sichqonning harakatiga o'xshatilgan.

O'zbek tilida ya'na bir "*Yotgan ilonni (boshini) qo'zg'amoq*" zoonim komponentli frazemasi mavjud. Lekin bu ibora frazeologik lug'atga kiritilmagan. Ushbu ibora "O'zbek tilining izohli lug'ati"da berilgan bo'lib, uning ma'nosi "*zarar yetkazadigan, lekin tinch yotgan shaxs yoki narsani qo'zg'atish*", "*ishga tushirish*" kabi izohlangan.

Aynan shu ibora "Qaraqalpaq tiliniñ qısqasha frazeologiyalıq sózligi" da "*Жатқан жыланның күйрығын басыу*" shaklida berilgan bo'lib, "*зыянсыз нарсеге тийуу*" ma'nosida izohlangan. Misollardan ko'radigan bo'lsak, frazemalarda komponentlar almashinishi bo'lsa ham, ibora ifoda etadigan ma'noga putur yetmagan.

O'zbek tilida it leksemasi bilan bog'liq "*Tuyaning ustida ham it qopadi*" frazemasi "*ishi biror to'siqqa uchrab, doim yurishmaydi*" ma'nosida ishlatiladi. "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"da ham "*Tuyaning ustida ham it qopadi*" frazemasi "*ishi biror to'siqqa uchrab, doim yurishmaydi*" ma'nosida qayd etilgan. Masalan: "*Ammo mudom uni tuyaning ustida it qopar edi: ukasidan yashirincha do'ppi tikkani ipak oldirgan edi, nima falokat bo'lib, uning ustiga binafsha siyoh to'kib yubordi*" (A.Qahhor "Sarob"). Bu ibora qoraqalpoq tilining frazeologik lug'atida "*Туїенин устінде иўм қабыу*" tarzida berilgan bo'lib, uning ma'nosi "*мусанир, ғарип, анқау*" shaklida ifoda etilgan.

O'zbek tilida "bexad sevinmoq" ma'nosini beruvchi "*Qo'yi mingga yetdi*" frazemasi mavjud bo'lib, bu iboraning "*boshi ko'kka yetdi*", "*terisiga sig'may ketmoq*", "*og'zi*

qulog'iga yetmoq”, “*og'zining tanobi qochmoq*” kabi sinonim variantlari mavjud. Bu ibora ko'proq jonli so'zlashuvda qo'llaniladi. Masalan: “*Singlisi bolalari bilan yo'qlab kelganini ko'rib tog'amizning qo'yi mingga yetdi*”. O'zbek tilidagi bu frazeaning varianti qoraqalpoq tilining frazeologik lug'atida “*Қойи қирға шығыу*” tarzida berilgan. Ushbu iboraning qoraqalpoq tilidagi varianti bo'lsa, “*Жилқиси тауға шығыу*” shaklida berilgan. Har ikkala tilda ham sevinmoq, xursand bo'lmoq ma'nolarini ifoda etish uchun turli komponentli frazemalar qo'llanilgan va ularning ma'nosiga hech qanday ta'sir qilmagan.

Xullas, frazeologizmlar dunyo, obyektiv borliq va jamiyat haqida madaniy informatsiya tashuvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Shuning uchun ham frazeologik birliklar o'zida xalq mentaliteti va madaniyatini saqlovchi “hikmatlar xazinasi” bo'lib, ular avloddan avlodga meros qilib qoldiriladi va bu frazemalar orqali har bir xalqning turmush tarzi va urf-odatlaridan xabardor bo'lish mumkin.

DOSTONLAR TILIGA XOSLANGAN KIYIM-KECHAK NOMLARINI BILDIRUVCHI LINGVOMADANIY BIRLIKLAR

D.Fayzullaeva, Katta o'qituvchi JDPI

Muayyan jamiyatda shakllangan til taraqqiy etishda davom etadi. Bu jarayonda o'z yaratuvchisi bo'lgan xalqning o'ziga xos barcha milliy xususiyatlarini aks ettirib boradi. Natijada, tillar bir-biridan nafaqat tuzilishiga ko'ra, balki milliy-ijtimoiy jihatdan ham farqlanadi. Bu farqlar esa til birliklarida yaqqol namoyon bo'ladi. Muayyan til vakili ayni damda muayyan madaniyat vakili hamdir. Har qanday madaniyat tilda o'z ifodasiga ega bo'ladi va ular frazeologizmlarda ham o'z ifodasini topmay iloji yo'q. Bugungi kunda lingvokulturologiya ushbu masalalarni chuqur o'rganuvchi, milliy tilda va til jarayonlarida namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy madaniyatni o'rganuvchi ijtimoiy soha hisoblanadi. Shuning uchun, u madaniyatning yaratilishi, rivojlanishi, saqlanishi va namoyon bo'lishi kabi tushunchalarini o'zida qamrab oladi.

Lingvokulturologiya – madaniyatning mif, afsona, urf-odat, an'ana, udum, taomil, ramzlarini o'rganuvchi soha. Bu konseptlar madaniyat ko'rinishlari bo'lib, ular tilda maishiy taomil muomilasi shaklida mustahkamlanib boraveradi. V.N.Teliyaning fikriga ko'ra, lingvokulturologiya, avvalo, jonli kommunikativ jarayonlarni va ularda qo'llaniladigan til ifodalarining sinxron harakatidagi xalq mentaliteti bilan aloqasini tadqiq qiladi. Lingvokulturologiya tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga keldi va ushbu termin (lot. **lingua** “til”, **cultus** “hurmat qilish, ta'zim qilish”; yunon. “ilm, fan”) V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan izlanishlar bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan²⁵.

Lingvokulturologiyani tavsiflar ekan, N.F.Alefirenko bu soha haqida quyidagi izohlarni keltiradi:

–lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u sintezlovchi xususiyatga ega;

²⁵Телия В.Н. Русская фразеология: семантические, прагматические и лингвокультурологические аспекты. –Москва: Школа “Языки русской культуры”, 1996. –С.286.

–lingvokulturologiyaning asosiy eʼtibori tilda izohlanadigan madaniy dalillarga qaratiladi;

–lingvokulturologiya tilshunoslik fanlari tarkibiga kiradi, shuning uchun uning tadqiqot natijalaridan ona tili va chet tillarini oʻqitish jarayonida amaliy foydalanish mumkin;

–lingvokulturologiya tadqiqotlarining asosiy yoʻnalishlari: a) lisoniy shaxs; b) til madaniy qadriyatlarining semiotik gavdalanirish tizimi hisoblanadi²⁶. Tilshunos bu farazlarning barchasini madaniy qadriyatlar omilini belgilovchi tizim deb bilib, misollar orqali dalillaydi.

Lingvokulturologiyaning asoschilaridan biri V.A.Maslova esa sohaning rivojlanishini uch davrga ajratadi: 1. Fanning shakllanishiga asos boʻlgan dastlabki tadqiqodlarning yaratilishi;2. Lingvokulturologiyaning alohida tadqiqot sohasi sifatida shakllanishi;3. Lingvokulturologiyaning fundamental, mustaqil fan sifatida vujudga kelishi²⁷.

XXI asrning boshlariga kelib lingvokulturologiya jahon tilshunosligidagi etakchi yoʻnalishdan biriga aylanib ulgurdi. Lingvomadaniyatshunoslik obʼekti sanalgan frazeologizm ikki va undan ortiq soʻzlarning oʻzaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud boʻlgan barqaror birikmalardir²⁸ va ular oʻz ichiga iboralar, maqol-matallar, hikmatli soʻzlarni qamrab oladi.

Maʼlumki, insoniyat turmush tarzi taraqqiyoti kiyim-kechak bilan chambarchas bogʻliq holda yuzaga kelgan. Aynan kiyim insonni hayvondan ajratuvchi muhim tashqi alomatlardan biri hisoblanadi. Anʼanaviy milliy kiyimlarning shakllanishiga nazar tashlar ekanmiz, asrlar mobaynida uning qator muhim funksiyalari tarkib topganini koʻrishimiz mumkin. Xalq madaniyati maʼlum bir millatga yoki maʼlum bir hududda yashovchi barcha elatlarga xos voqelikdir.

Oʻzbek xalqi kiyinish madaniyati nuqtai nazaridan ham dunyodagi halqlarning oldingi saflarida turadi. Bir necha ming yillar ilgari ota-bobolarimiz egniga yaktak, oyoqqa kovush-maxsi, etik, boshga shabpoʻsh, doʻppi, telpak, ustga chopon, toʻn kiyib, belga belbogʻ, qars bogʻlashgan²⁹.

Ildizlari juda qadim davrlarga borib taqaladigan koʻp qirrali oʻzbek eposi xalqimiz maʼnaviy madaniyati taraqqiyotida faxrli oʻrin tutadi. Xalq bilan bogʻliq boʻlgan, yaʼni xalq hayoti, uning turmush intilishlari, u bilan bogʻliq boʻlgan narsa va hodisalar, ularning oʻziga xos tili, soʻzlashuv uslubi tasvirlangan asarlar xalq oʻrtasida uzoq yashaydi. Bunday asarlar tili obrazli boy materiallarga egadir. “Umuminsoniy madaniyat – deb yozadi S.A.Arutyunov, – inson zoti uchun, umuman, Erning tabiiy planetar sharoitiga hamda ushbu planetar muhitni oʻzlashtirishning kengayishidan kelib chiqadigan ijtimoiy oqibatlariga moslashish vositasi sifatida keladi”³⁰. Umuminsoniy madaniyat yoki madaniyatdagi umuminsoniylik Erda, tabiiy planetar sharoitda inson uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, uning ushbu muhitga moslashishini taʼminlash vositasidir. Bu fikr Inson va Er munosabatlarini ifoda etadi, inson tomonidan yaratilgan boylik, orttirilgan tajriba, tarixiy anʼanalar umumplanetar xarakteridagi

²⁶Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. –Москва: Флинта.Наука, 2010. –С.21.

²⁷Маслова В.А. Лингвокультурология.Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – Москва: Изд.Центр «Академия», 2001. –С.208.

²⁸Нурмонов А., Собиров А., Юсупова Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Шарқ, 2002. –Б.103.

²⁹Жумаева З.Ш.Фразеологик бирликларнинг семантик ва лингвокультурологик тадқиқи.Филол.фан.фалсафа док.(PhD)дис...автореф. Жиззах.2021.-Б.12.

³⁰Арутюнов.С.А.Народы и культуры: развитие взаимодействие . –Москва: Наука, 1989. –С.133.

voqeliklardir. Bu xarakter bilan umuminsoniy madaniyat milliy madaniyatdan farq qiladi. Milliy madaniyat ayrim millatga, etnosga taaluqli ijtimoiy-tarixiy voqelik hisoblanadi. Ular o'rtasidagi farqlar nisbiydir. Dialektik bog'liqlik va hamkorlik ular mavjudligining rivojlanib borishi sharti hisoblanadi. Mana shunday boylıklarimizdan biri xalq dostonlari va ularning tilidir. Biz ushbu bo'limda "Xoldorxon" va "Alpomish" dostonlarida qo'llanilgan kiyim-kechak nomlari, ularning doston tilidagi ko'rinishlarini tahlilga tortishni lozim topdik. Ularni quyidagicha tartiblash mumkin:

1. Kiyim-kechaklarning umumiy nomlari.
2. Bosh kiyim nomlari.
3. YOzgi va qishki kiyim nomlari.
4. Oyoq kiyim nomlari.
5. Kiyimlarning qismlari nomlari.
6. Taqinchoqlar nomlari.
7. Jangda kiyiladigan maxsus kiyimlar nomlari.

1. Kiyim-kechaklarning umumiy nomlari.

Biz o'rganayotgan doston tilida kiyim-kechaklar xilma-xil umumiy nomlar bilan atalganligini ko'ramiz. Fikrimizning dalili sifatida doston tilidan olingan quyidagi misollarga e'tibor qaratsak:

Libos: ... ikki pari erkak libosini kiydi, qirq yigitning xotinlariga ham erkak libosini kiygizdi. *Libos* – arabcha kiyim, ust-bosh ma'nosida kelgan. Hozirgi o'zbek tilida ham qo'llanadi. SHunisi e'tiborliki, *libos* so'zi mazkur doston tilida kiyim-kechak ma'nosida emas, balki uy-ro'zg'or buyumlarining umumiy nomi sifatida ham qo'llanilgan. Masalan: Qrim mamlakati necha ming mehmonxonalarini libos bilan aro berdi (36-bet). *Libos* so'zining doston tilida ikki xil ma'noda qo'llanishi shoirning so'z boyligi va so'z qo'llash mahoratining yuqoriligidan dalolat beradi.

Sarpo: Go'ro'g'libek katta sarpolar kiydirib, haftadan so'ng "xush kelding" deb jo'natdi. Lug'atlarda *sarpo* (f-t) – to'y va boshqa rasmiy marosimlarda ma'lum tegishli kishilarga taqdim etiladigan bosh-oyoq kiyim yoki to'n, do'ppi, qiyiqcha (belbog'cha).³¹ Bundan tashqari, doston tilida yana *toza sarpo*, *qimmatbaho sarpo* kabi birikmali holatlar ham ko'p uchraydi. SHuningdek, *sarpo*, *ola sarpo*, *toza sarpo*, *qimmatbaho sarpo* birikmalarining qo'llanishi dostonning badiiyligini, emotsionalligini oshiradi va qaytariqqa yo'l qo'ymaydi. Bu esa shoir tili boyligining isbotidir.

Kiyim: –Mingan otin o'ynatib, qizil kiyim jaynatib, ko'rganlarning yuragin, Ahmad Sardor qaynatib (50-bet).

Kiyim – badanni va tana a'zolarini yopish uchun kiyiladigan, asosan mato va teridan tayyorlanadigan narsalarning umumiy nomi.³² Lekin ushbu dostonda "kiyim" so'zi boshqa vazifani bajaruvchi atama ma'nosida ham qo'llanilganini ko'ramiz. Masalan: –Go'ro'g'libek kelgan mehmonlarni yaxshi chodirlarga tushirib pokiza kiyimlarning ustiga o'tqazdi (331-bet). Bu jumlada "kiyim" so'zi *to'shanchi*, *to'shaladigan narsa* o'rnida qo'llanmoqda. Doston tilida qo'llanilgan kiyim-kechak nomlari deyarli hozirgi o'zbek adabiy tilidan keskin farq qilmaydi.

2. Bosh kiyim nomlari

³¹ Ўзбек тилиниг изоҳли луғати. –Тошкент, 2007, 3-жилд. 453-бет

³² Ўзбек тилиниг изоҳли луғати. –Тошкент, 2006, 2-жилд. 364-бет

Biz o'rganayotgan dostonlar tilida bosh kiyim nomlari xarakterli o'rinni egallaydi. Xarakterli tomoni shundaki, ularning aksariyat qismi hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmaydi. Chunki ular eskirgan yoki ayrim shevalargagina xosdir. Doston tilidan olingan misollarga e'tibor qaratsak.

Lachak: –Agar men shundan Qrimga bormasam, xotinning lachagi bo'lsin boshima (33-bet).

Lachak – keksa xotinlar boshiga o'raydigan oq doka, yoki surpdan tayyorlangan bosh o'rovi.³³ Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmaydi, eskirgan so'z, ayrim qishloq shevalaridagina uchraydi. Badiiy adabiyotlarda qahramon yoki personajlar nutqini yaratishda qo'llaniladi.

Ushbu so'z mumtoz adabiyot tilida faol qo'llangan: Tun uzra oydinu oydingda subx erkinmu, vayo sochingda burunchak uza lachakmu ekin? (A.Navoiy "Xazoyinul-maoniy" (1b.475-bet).

Jig'a (f-t). Bosh kiyimga taqiladigan, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ziynat buyumi (asosan, qiz to'yida kuyovning, xatna to'yida esa to'ybolaning bosh kiyimiga taqiladi.³⁴ Hozirgi kunda iste'moldan chiqib ketgan, shevalarda ham uchramaydi: –O'n ming botir qoshida, tilla jig'a boshida (49-bet)

Toj: SHohlarning hukmronlik ramzi bo'lgan, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan, ziynatli bosh kiyim, fors-tojik tilidan olingan, hozirda shevalarda va adabiy tilda uchramaydi.³⁵ Faqat tarixiy asarlarda, manbalarda uchraydi: Jahon mulkida mustaqil podshoh, anga topshirub shohlar toju quloh. (A.Navoiy "Saddi Iskandariy", 255-bet).

3. YOzgi va qishki kiyim nomlari.

"Xoldorxon" dostoni tilida bosh kiyimning umumiy nomlanishi bilan bir qatorda yozgi va qishki kiyim nomlari ham o'z ifodasini topgan. Ular quyidagilardan iborat:

Silovsin to'n: ... yurtin yig'dirib, ochni to'ydirib, qirq yigitga silovsin to'n kiydirib Go'ro'g'libek o'tdi (5-bet). Silovsin – mushuksimonlar oilasiga mansub, tumshug'i uzun, ko'zi juda o'tkir yirtqich hayovon, kam uchraydi, terisi qimmatbaho, silovsin to'n – to'nga shu hayvonning terisi, mo'ynasi qo'yib tikiladi. Mazkur dostonda to'nning boshqacha turlari ham tilga olinadi:

Kirovkadan sovut to'n,
kumush bo'lar tarlon qushning chegasi,
kirovkadan sovut to'nning yoqasi (107-bet).

Kirovka – ko'pincha sovut ostidan kiyiladigan, qattiq narsadan yoki metaldan ishlanga nimcha. Eskirgan, shevalarda ham, so'zlashuv nutqida ham uchramaydigan, dostonlar tiliga xos tarixiy so'z.

Kark teri: Ostida o'ynaydi G'irko'kday hayvon.

Egnida kark teri, belida isfihon (30-bet).

Ushbu misolda kark teri (f-t.) birikmasi karkidonning terisidan ishlangan, tayyorlangan jangovor kiyim turi ma'nosini ifodalagan, etimologik jihatdan eskirgan, sheva va dialektlarga ham xos emas..

To'n – oldi ochiq, uzun milliy kiyim,³⁶ **chopon** – ustki, uzun o'zbek milliy kiyimi.³⁷ Xalq dostonlari tilida qariyb ikkalasi ham bir xil tushunchada qo'llanilgan. Bu holat hozirgi

³³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент, 2006, 2 жилд. 490-бет

³⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент, 2006, 2 жилд. 96-бет

³⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент, 2008, 4 жилд. 132-бет

³⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент, 2008, 4 жилд. 238-бет

so‘zlashuv nutqida ham shu nom va ma’nolarda qo‘llanilmoqda. “*To‘n*” so‘zi turkiy tillarda nihoyatda keng tarqalgan kiyim nomi bo‘lib, ushbu so‘zning turli xil kiyim nomlarini anglatgani uning xomashyoga ko‘ra nomlanganini V.V.Radlov taxmin qilgan va *to‘n* so‘zining dastlab “teri” ma’nosini anglatganini tahlillarga tortgan³⁸. SHu o‘rinda ushbu so‘zni lingvokulturologik tahlil qilib ko‘rsak. O‘zbek madaniyatida *chopon* (to‘n) kiyim ustidan kiyiladigan, ichiga paxta solib qavilgan uzun milliy kiyim [O‘TIL.V.507] bo‘lib, alohida qiymatga ega. Chunki o‘zbeklarning ko‘pgina urf-odat va marosimlarida, xususan, o‘g‘il chaqaloqqa bag‘ishlab o‘tqaziladigan beshik to‘yi marosimida, ko‘pincha xonadonning katta yoshli vakillari tomonidan chaqaloqqa zarbof choponcha kiydirib qo‘yiladi. To‘y marosimlarida kelinning xonadoni tomonidan yuboriladigan sarpolarda to‘n yuboriladi. Motam marosimlarida azali xonadonning erkak a‘zolari *chopon* (to‘n) kiyadilar. Bundan shu narsa aniq bo‘ladiki, o‘zbek madaniyatida *chopon* (to‘n) inson tug‘ilganidan so‘ng hayotining barcha onlarida unga hamrohlik qiladi. O‘zbeklarda *chopon* (to‘n)ning yozda issiqdan asrashi va qishda sovuqdan himoyalashdagi eng qulay ustki kiyim ekanligi ham madaniyatda bu kiyimning o‘rnini qat’iylashtiradi³⁹.

Ayollar uchun tikilgan chopon ham o‘zbek madaniyatida o‘z o‘rniga ega. Odatda ayollar choponi o‘zbek milliy matolari – *atlas* (bir tomoni yaltiroq, guldor, mahalliy ipak gazlama)⁴⁰, *adras* matolaridan tikiladi. Navro‘z bayramlarida, to‘y-marosimlarda kiyilishi bilan birga, hozirgi kunga kelib, kundalik kiyimga ham aylanib ulgurgan. Milliylik xalq madaniyatining negizini tashkil etadi. Milliylikni o‘ziga jo etmagan xalqning madaniyati rivojlanmaydi.

YUqoridagi fikrlardan ham ko‘rinib turibdiki, xalqimiz dostonlar tilida yozgi va qishki kiyim nomlaridan o‘rinli foydalana olgan. Eskirgan, ammo eski o‘zbek tili uchun xarakterli so‘zlar mohirona tanlab ishlatilgan.

4. Oyoq kiyim nomlari.

Doston tilida oyoq kiyim nomlari nisbatan kamchilikni tashkil qiladi. Lekin bu dostonning badiiyligiga ta’sir qilmaydi. Leksikasi boy emas degan fikrni keltirib chiqarmaydi, balki bu so‘z mulkidan ehtiyojga qarab foydalanishdir. Doston tilida faqat bitta *choriq* so‘zi qo‘llanilgan.

Choriq –... belini mahkam bo‘g‘ib, choriqlarining ipini mahkam-mahkam tortib, chaqqon bo‘lib, o‘zini juda chog‘lay berdi (247-bet). *CHoriq* – qattiq xom teridan tikilgan, asosan, tog‘lik tuman xalqlarida rasm bo‘lgan oyoq kiyim.⁴¹ Hozirgi o‘zbek tilida uchramaydi, eskirgan so‘z.

5. Kiyimlarning qismlari nomlari.

Doston tilida kiyimlarning nomlanishi bilan bir qatorda kiyimlar qismining nomlari ham mavjud. Demak, Ergash shoir xalq hayotini, turmush tarzini sinchiklab kuzatgan, kuzatishlar, izlanishlar samarasi esa el nazariga tushgan doston tilida o‘z ifodasini topgan.

YOqa – Afzar zangi, o‘ynab-o‘ynab Kulbarning, Uzatilib yoqasidan umlodi (151-bet).

³⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент, 2008, 4- жилд. 506-бет

³⁸Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. Том III. –СПб, 1905. –С. 1360-1361.

³⁹Холмонова З. Лингвокультурологияга оид тушунчалар тадқиқи. . –Тошкент: Наврўз, 2018. –Б.45.

⁴⁰WWW.urbandictionary.com/define.php?term=kilts+on+stilts

⁴¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент, 2008, 4-жилд. 510-бет

YOqa hozirgi tilimizda “kiyimning bo‘yin o‘rni uchun ochilgan qismi va unga birlashtirib tikilgan mato” tushunchasida kelmoqda. Adabiy til normasida ham shunday ma’noda qo‘llanadi. Keng iste’molda.⁴²

6. Taqinchoq nomlari.

Dostonda taqinchoq nomlari ham mavjud bo‘lib, ular doston tili leksikasida katta ahamiyatga egadir. Masalan: –Munavni nega yubording. Munchoq taqqan mushtiparni (148-bet).

Munchoq – shisha va toshdan yasaladigan, asosan ziynat uchun ipga tuzib, bo‘yniga taqiladigan dumaloq yoki boshqa shakldagi ayollar zaynati.⁴³ Doston tilida *munchoq* so‘zi voqelikni to‘laroq yoritish uchun, ya’ni jang maydoniga chiqqan odamning kuchsizligi va raqibiga teng emasligini ifodalash uchun keltiriladi.

7. Jangda kiyiladigan kiyim-kechak nomlari

Doston tilida jang paytida kiyiladigan kiyim-kechak nomlari ko‘p uchramaydi.

Sovut – tanani nayza, o‘q zarbidan saqlash uchun kiyiladigan, po‘lat simdan to‘qilgan kiyim (hozirda deb ataladi).⁴⁴ –Po‘lat sovutlar ustida, Ot chopib baland pastida (38-bet). Dostonni o‘qish jarayonida *oq sovut, po‘lat sovut, tilla sovut* kabi ko‘rinishlari ham mavjudligining guvohi bo‘ldik. *Sovut* so‘zi hozirda eskirgan so‘z hisoblanadi, jumladan shevalarda ham uchramaydi. Faqat tarixiy asarlarda saqlanib qolgan. Yana bir misol: –Turkman elning og‘asi, Sovut to‘nning yoqasi (41-bet). *Sovut to‘n* ham xuddi yuqorida aytganimizdek, o‘zini himoya qilish uchun po‘lat simdan to‘qilgan, jang maydoni uchun mo‘ljallangan kiyim.

Turkiy xalqlar xalq og‘zaki ijodi, jumladan o‘zbek xalq dostonlarida jangovor otlarning buyumlariga bag‘ishlangan epizodlar ko‘p uchraydi. Masalan, otlarni egarlash holati alohida ko‘rsatiladi. “Otlarni egarlash ko‘p o‘zbek dostonlarida tipik epizod kabi, u eposning ichiga kirib, unda har bir oqinning usul va badiiy mahoratini ko‘ramiz” –deb yozadi X.Zarifov⁴⁵.

Xalqimiz an’anaviy kiyimlari va ular bilan bog‘liq tarzda o‘tkaziladigan urf-odatlarda islomgacha bo‘lgan diniy-e’tiqodiy qarashlar, jumladan, fetishizm, animizm, magiya, totemizm kabi e’tiqodiy qarashlar keyinchalik islomiy an’analar bilan uyg‘unlashgan holda saqlanib qolganiga guvoh bo‘lamiz. O‘tmishdagi ijtimoiy tengsizlik, haq-huquqsizlik hukm surgan zamonlarda bevosita moddiy boyliklar yaratgan mehnatkashlar o‘z mehnatlari samarasidan bahramand bo‘la olmaganlarki, bu holatlar dostonlarda ham o‘z aksini topgan.

ANTROPOSENTIRIK FRAZELOGIZMLARNING OMONIM,SINONIM, ANTONIM VA PARONIM TURLARI.

Abdujalilova Feruza, JDPI o‘qituvchisi.

O‘zbek tilini iboralarsiz tasavvur qila olmaymiz va har bir so‘zlayotgan so‘zimizda, bayon qilayotgan fikrimizda iboralarni qo‘llaymiz Chunki, aynan frazeologizmlar nutqimizni go‘zal va ta’sirchan qiladi, bildirmoqchi bo‘lgan fikrimizga turli ma’no nozikliklarini yuklaydi. “Ibora -ikki va undan ortiq so‘zning barqaror munosabatidan tashkil topgan,

⁴² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент, 2006, 2-жилд. 54-бет

⁴³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент, 2006, 2-жилд. 642-бет

⁴⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент, 2007, 3-жилд. 540-бет

⁴⁵ Х.Т.Зарипов. –От асбоблари // Пўлкан шоир. Тошкент, 1976, 74 бет.

ma'nosi odatda bir so'zga, ba'zan so'z birikmasi, gapga teng keladigan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi, ko'chma ma'noli barqaror birikmadir.”⁴⁶ Masalan, “quling o'rgilsin”, “peshonamizda bori”, “oyog'osti qilmoq”, “qo'y og'zidan cho'p olmagan” kabilar shular jumlasidandir. Frazeologizmlarni ham o'z o'rnida qo'llash katta mahorat hisoblanadi. Biz iboralarni qo'llaganimizda ularda milliy mentalitetimiz, milliy qadriyat va an'analarimiz yaqqol aks etadi. Bu xususda D. Ochilov quyidagi fikrlarni bildiradi: “Avvalambor, frazemalar mutloq milliy xarakterga ega bo'ladi. Milliylik ularning tarkibiy tuzilishi, komponentlik tarkibi, obrazlilik va ma'no – mazmunida namoyon bo'ladi. Frazemalarning milliyligi u yoki bu xalqning hayot tarzi bilan bog'liq. Iboralarning til birligi sifatida shakllanishi ham u yoki bu til vakilining jug'rofiy joylashishi, tarixi, madaniyati, urf- odatlari, dini, ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy – ma'rifiy hayoti bilan bog'liq.”⁴⁷ Shuningdek, iboralarning xususiyatlari to'g'risida Sh.Rahmatullayevning “Frazeologiya. Hozirgi zamon o'zbek tili”, “O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati”, “O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari”, “O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati” kabi ilmiy tadqiqot va kitoblaridan ma'lumot olishimiz mumkin.

O'zbek frazeologiyasining antroposentrik jihatlari Sh. Rahmatullayev, A.Mamatov va B.Yo'ldoshevlar tomonidan chuqur tadqiq qilingan. Tilimizda frazeologizmlar shu qadar bisyorki, ba'zan bir nechta ibora bir xil ma'noni anglatishi ham yoki bo'lmasa bir xil ko'rinishdagi ibora turli ma'nolarni ham bildirishi mumkin.

Ba'zida iboralar anglatgan mazmuniga ko'ra zidlanadi va bunday holatda iboralar omonim, sinonim, antonim va paronim kabi guruhlarga ajratiladi. Frazelogizmlarning omonimlik, sinonimlik, antonimlik va paronimlik xususiyatlari N.M.Shanskiy, A.M.Melerovich va Yastenko ishlarida keng tahlilga tortilgan. Bittadan ortiq ma'no ifodalay olish xususiyati til birliklariga xos xususiyat bo'lib, iboralar orasida ham bu xususiyat keng tarqalgan. Omonim iboralarning ikki ma'noli, uch ma'noli, hattoki besh ma'noli bo'lish holatlari ham uchraydi. Masalan, “aql(i) yetadi” iborasi ikkita ma'noni, “bo'yn(i)gi qo'ymoq” iborasi uch ma'noni, “qo'lga olmoq” iborasi esa to'rt ma'noni anglatadi. Shuningdek, Sh.Rahmatullayevning “O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati” kitobida “barmog'ini tishlamoq” iborasining ikki xil ma'nosini ham keltirib o'tgan: Masalan;

1.Hech narsa qilolmay,natijaga erisholmay qolmoq. Masalan, “Dushmanlar, raqiblar barmoqlarini tishlab qolsalar, maqsadga yetishgan bo'lardim.”(Oybek, “Nur qidirib” qissasi)

2.Afsuslanmoq. Masalan, “...Voy attang, g'aflatda qolibmiz”, -dedi barmog'ini tishlab Hayitmat aka.(H.Maqsudiy. “Laylatulqadr”).⁴⁸

Frazeologik iboralarning deyarli barchasi ekspressivlikka, obrazlilikka, alohida ifodalilikka egadir. Masalan, “kutmagan” so'zi “yetti uxlab tushiga kirmagan” iborasi bilan ma'nodosh, ammo ibora ifodalilik jihatdan so'zdan ancha ustun. Frazeologik iboralar o'z ma'nodoshlari bo'lmish so'zlarga nisbatan, birinchidan, ma'noni kuchli daraja bilan ifodalasa, ikkinchidan, ularda obrazlilik yorqin bir tarzda aks etadi.⁴⁹

⁴⁶ N.Ulug'ov.Tilshunoslik nazariyasi. “Barkamol fayz mediya”.2016.113-bet

⁴⁷ D.Ochilov//O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2011, 2-son.

⁴⁸Sh.Rahmatullayev “O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati”. “O'qituvchi” nashriyoti.Toshkent.1978.

⁴⁹ 11-sinf Ona tili. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent- 2018.77-bet

Iboralar bir butun yaxlit holda bitta so'roqqa javob bo'lishi, ko'chma ma'noda qo'llanilishi, gapda butunicha bitta gap bo'lagi vazifasini bajarishi barchamizga ma'lumdir. Masalan, "Xinalar muhabbat ko'klamida qizlarning qo'lini o'pish uchun yerdan bosh ko'taradi." (G'afur G'ulom) Ushbu gapdagi "boshini ko'tarmoq" iborasi bitta birikma sifatida bitta so'roqqa javob bo'lib, kesim vazifasini bajargan. "Boshini ko'tarmoq" iborasi ikki o'rinda omonim hisoblanadi. 1. Qaramoq - Birozdan so'ng boshini ko'tardi. 2. Kurashga chog'lanmoq - Ichi kir odamlar faqat senga emas hammamizga bosh ko'targanlar. Tilimizda omonim iboralar ko'pchilikni tashkil qiladi. Jumladan, "Ko'z yummoq", "so'z bermoq", "qo'l ko'tarmoq", "dam bermoq", "boshiga ko'tarmoq" kabi iboralar ham ko'p ma'noli iboralaridir.

O'zbekiston xalq shoir Muhammad Yusuf ijodiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, shoir tilining soddaligi, xalqchilligi bilan ajralib turganligiga, iboralardan ham mahorat bilan foydalanganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, shoirning ushbu she'riga e'tibor qarataylik:

Yuzlaringni yoritgan shu sharq ziyosi,
Dardlaringni aritgan shu sharq ziyosi.
Sinoning etagin o'pib Ovrupasi,
Amirkosi Beruniydan qolgan dunyo.⁵⁰

Ushbu she'rda so'z san'ati ustasi "yuzini yoritmoq", "dardlarini aritmoq", "etagini o'pmoq" kabi iboralardan unumli foydalangan. Iboralarning har bir misrada qo'llanilishi she'rga o'zgacha ko'rk bergan, she'r mazmuniga qo'shimcha ma'no yuklagan va ta'sirchanligini oshirgan.

Bir-biriga yaqin ma'noli iboralar sinonim iboralar hisoblanadi. Bunday iboralar orqali nutqimiz go'zallashadi, nutqda takrorning oldi oldinadi. Sinonim iboralar bir xil ma'noni ifodalasa ham, ammo ularning o'ziga xos ma'no qirrasini saqlanib qolinadi. Masalan;

1. "Og'ziga tolqon solmoq" 2. "Mum tishlamoq" 3. "Og'zida qatiq ivitmoq" iboralarning barchasi "mutlaqo gapirmaslik" ma'nosini anglatadi, ammo hech qaysi ibora mutlaqo bir xil bo'lmaydi. Masalan, "suhbatda mutloq gapirmaslik" ma'no ikkinchisida kuchliroq, uchinchi ibora so'zlashuv nutqiga, boshqalari esa umumnutqqa xos; nutqda uchrashi 3-2-1.⁵¹

Sinonim iboralarga yana quyidagilarni ham misol keltirishimiz mumkin:

O'ylayverib gangimoq: "boshi shishmoq", "boshi qotmoq", "miyasi g'ovlab ketmoq".

O'ta darajadagi ardoqlamoq: "yeru ko'kka ishonmaslik", "o'tkazgani joy topolmaslik".

Nihoyatda qattiq qo'rqmoq: "Jon-poni chiqib ketdi", "esi chiqib ketdi", "joni halqumiga keldi".

So'rayverib miyasini charchatmoq: "miyasini qoqib, qo'lga bermoq", "quloq-miyasini yemoq".

Tilimizdagi iboralarning ma'nosiga qarab ba'zan ularni zidlashimiz ham mumkin. Bunday iboralar antonim frazeologizmlar deyiladi. "Antonimiya til birliklari orasidagi semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo'lib, iboralarda ham

⁵⁰ Bevafo ko'p ekan.../Muhammad Yusuf - Toshkent: "O'zbekiston" NMUI, 2016.120-bet.

⁵¹ Sh. Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati". "O'qituvchi" nashriyoti. Toshkent 1978.

so'zlardagi darajada uchraydi. Antonimiyani belgilash, bir tomondan, iboralarning lug'aviy ma'nosini chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchidan, polisemiya da bir iboraning ma'nolarini o'zaro farqlashga yordamlashadi, uchinchidan, sinonimlarni belgilashga ham foyda keltiradi.”⁵²

Iboralarni antonim qo'yayotganimizda ular tarkibidagi komponentlar ham ba'zan zid qo'yilishi mumkin. Masalan, “salom bermoq”, “javob qaytarmoq” iboralardagi har ikki komponentlar, “yerga urmoq”, “ko'kka ko'tarmoq” iboralardagi birinchi komponentlari bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan. Ba'zida ibora tarkibidagi komponentlar zid bo'lmasligi ham mumkin. Misol uchun, “ko'ngli joyiga tushdi” va “yuragiga g'ulg'ula tushdi” iboralari antonim ibora hisoblanadi, ammo frazeologizm tarkibidagi komponentlar o'zaro zid emas. Shuningdek, antonim iboralarga quyidagilarni ham misol keltirishimiz mumkin:

Gapida turmoq – so'zidan qaytmoq , Yuzi yorug' – yuzi shuvut ,Istarasi issiq - so'xtasi sovuq, Tili uzun bo'lmoq – tili qisq bo'lmoq, Ichi qora - oqko'ngil, ko'ngli toza , Yomon ko'rmoq – yaxshi ko'rmoq,Dunyoga kelmoq – olamdan o'tmoq, Fe'li keng – fe'li tor ,Ko'ngli bo'sh - ko'ngli qattiq, Yerga ursa ko'kka sapchiydi – qo'y og'zidan cho'p olmagan .Ba'zi iboralar o'zaro leksik tarkibidagi bir so'zning komponenti bilan farq qiladi, shu farqli so'z - komponentlar ham bir – biriga o'xshash bo'ladi. Ana shunday shakily yaqinlikka ega ikki iboraga frazeologik paronimlar deyiladi .⁵³ Frazeologik paronimlar tilimizda nisbatan ozchilikni tashkil qiladi. Jumladan , bunday frazeologizmlarga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin :

Yetti uxlab, tushiga kirmaslik – yetti uxlab, tushida ko'rmaslik ,

Yuragi tars yorilib keta yozdi – yuragi qoq yorilib keta yozdi ,

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, iboralarning shakl va mazmun jihatdan har xil bo'lishi nutq komponentlarining ta'sirchan va jozibador bo'lishini ta'minlaydi. Frazeologizmlarning badiiy asarda bunday aks etishi xalqimizning milliyligini aks ettirishda bir nishonadir.

BOBUR MIRZONING MANGULIK KARVONI

Sapura Ne'matova, JDPI o'qituvchisi

Zahiriddin Muhammad Bobur inson va adib, madaniyat arbobi va sarkarda, e'tikodi butun takvodor va shoh rostgo'y adabiyotshunos bag'oyat murakkab, ziddiyatlar to'liqini bilan yo'g'rilgan takdir sohibi edi. Umr bobida Bobur Mirzoni «qisgan»Parvardigori karim unga saxiy qalb, ulkan yurak, sehrigar qalamu keskir kilich ato etdi. Ayni inoyatlar uning hayot sahifalarini nurlantirdi, teran mohiyat va ma'no bag'ishladi. Asrlar to'foniyu buhronini pisand etmay! insoniyatning yangi-yangi avlodlariga etib boruvchi mangulikni uning nasibasiga bitib quydi. Bobur Mirzoning mangulik karvoni o'z qo'ng'irog'ini jaranglatib, itlarlar tajovuzini nazarga ilmay, hamon olg'a intilmokda. Yillar va yo'llar utadi, bezavol karvon esa poyoni yo'q bokiylk manzili sari intilishda davom etadi... Bobur Mirzo shoir, adib, she'rshunos-adabiyotshunos, donishmand faqih (islom qonunshunosi), tilshunos,

⁵² Sh. Rahmatullayev “O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati”. “O'qituvchi” nashriyoti . Toshkent . 1978.

⁵³ <https://fayllar.org.frazeologik-paronimiya>

tabiatshunos, mantiq va riyoziyot ilmlaridan puxta xabardor jamoat arbobi sifatida o‘zidan bebaxo ma’naviy meros qoldirdi. Boburning tarjimai holini tadqiq etgan g‘arblik olim Xerald Lemb uning ilk ta’lim olgan davri xususida shunday yozadi: «Bobur yoz oylari bogda ustozining qarshisida cho‘kkalab o‘tirgancha mutolaa qilar, qishda esa o‘qish katta-katta manqallar isitib turadigan xonada davom etardi. U shu qadar bilimga tashna ekanligidan 11 yoshida juda ko‘p ilmni egalladi. Bundan keyin tahsilni davom ettirishga fursat etmadi. Ustoz Bobur va uning saroydagi ukalariga hisob masalalari, sayyoralarning harakatlari, ilohiyotdan dars berar, Temur va Chig‘atoydan oldingi ajdodlarning tarixini o‘rgatardi. Boburning tabiatida qiziquvchanlik kuchli edi. Tez orada u o‘z xotirasiga ma’lumotlar xazinasini joylab oldi». Bolalik yillari haqida Xerald Lemb shunday yozadi: «Bobur yashagan muhitda uch tilda gapirilardi. SHuning uchun ham qishloq odamlarining eski turkiy tili, ko‘cha va bozorlardagi forsiy shevasi, ahli ilm gapiradigan arab-forsiy tillarini o‘rganib olish qiyin bulmadi. So‘z o‘yinini eshitib, bahri-dili ochilardi. Chor atrof idagi odamlarning hol-ahvoliga qiziqardi. Ko‘p o‘tmay o‘zi tugilib o‘sgan vodiy kishilariga ulamo-yu fuzalolarning so‘zlari va shoirlarning eng yaxshi she’rlarini aytib bera boshladi. U haqiqatni sevuvchi edi, nimaiki qiziq, sirli tuyulsa, tagiga etmay qo‘ymasdi» Yoshlik yillari o‘tar-o‘tmas, Bobur o‘z vatanidan ayri tushdi. Lekin bu yam-yashil vodiyning go‘zalliklari bir zumga ham yodidan ko‘tarilmadi. Andijondan o‘qib o‘tadigan bir daryoni Bobur o‘z asarida qayta-qayta eslaydi. Men uni ko‘rganman. Afsuski, hozir u qurib, 2-2,5 futlik balandlikdagi bir chog‘roqqina ariqqa aylangan. Andijondan 20-25 mil narida go‘zal O‘sh shahri joylashgan. U Andijondan ko‘ra balandroqda. Yoz faslini Bobur ko‘proq shu joyda o‘tkazgan ekan. Gapning rosti, tabiat bu tog‘li Fargona vodiysiga mislsiz husn ato etgan, Bobur esa uning shaydosi bo‘lgan. Tabiatning mana shu so‘lim go‘shasida Boburning shoirona tafakkuri kurtak ochgan.

*Sen gulsvnu men haqir bulbuldurmen,
Sen shu’lasenu ul shu’lag’a men kuldurmen,
Nisbat yo’qtur deb ijtinob aylamakim,
Shahmen elga, vale sanga quldurmen,*

Bobur o‘zining 47 yillik umri davomida har xil odamlar, har xil voqealarga duch kelganini aytib o‘tadi. O‘z boshidan kechirgan tahliqali voqealarni eslab, keyinroq o‘z masnaviyilarida e‘zgan edi:

Ko‘rsatib davlat yitmaging na edi,
Erga urding, ko‘tarmaging na edi.
Goh johilni sarbaland aylar,
Goh oqilni poyband aylar.
Ne vafo qilganini bilsa bo‘lur,
Ne jafosig‘a sabr qilsa bo‘lur.
Ne qilay, ne kishidin istay dod?
Kimga dahr ilgidin qilay farèd.
Arzimas g‘am emakka bu dunè,
Bal otin xam demakka bu dunè.

Bobur o‘zining yuqoridagi hasbi holida obrazli qilib “ erga urish bo‘lsa ko‘tarmakka na hojat edi” mazmunida taxtga o‘tqazib turli balolarga giriftor qilgan falakdan narozi bo‘ladi. Bu dunèparvar zamonda aqllini ham, johilni ham ajratib bo‘lmasligini aytib, bunday ikki yuzlamachi insonlardan kimga dod etishni bilmaganini, bu buqalomunliqqa aslida hafa ham bo‘lishning keragi yo‘qligini, bu dunèparvar dunè uchun g‘am emak ham va dunèning otini

tilga olmoq ham ahamiyatsizligini aytib o‘sha paytdagi vaziyatga qarab tez-tez o‘zgarib turuvchi insonlar kirdikoridan haqli ravishda noroziligini ifoda etgan edi.

*Arbobi hasadki, dunyodin dur o‘lg‘ay,
Istar sevaridin kishi mahjur o‘lg‘ay
Doim ko‘rayin yuzung alo rag‘mi hasud,
Har kim ko‘ra olmasa, ko‘zi ko‘r o‘lg‘ay.*

Besh yuz yildan ziyodroqdavr o‘tibdiki, mazkur satrda naqshlangan dard xolis insonlar qalbiga ozor etkazib keladi. Bugun ham undan forig‘ emasmiz.

Bobur Mirzodan ulkan ma‘naviy meros qoldi. Afg‘onistonu Hindistonda tartib berilgan she‘riy devonlar (to‘plamlar), «Boburnoma», «Risolai aruz», «Xatti Boburiy», «Volidiya», «Mubayyin», ilmi musiqa va harbga doir risolalar o‘ttiz olti yilga yaqin umrini davlat va taxt tashvishlari bilan o‘tkazgan inson mo‘‘jizaviy qalamining tuhfaridir.

Boburning yuksak did egasi bo‘lganligini uning barcha qilgan ishlarida va ijodiyotida har qadamda ko‘rish mumkin. Boburning kagta o‘g‘li Humoyu nga yozgan j avob xati badiiy prozaning deyarli barcha elementlarini o‘zida jamlagan bo‘lib, katta ahamiyatga m olik hisoblanadi. U yozadi: «Bu xatning ma‘nosini chaqish uchun ancha bosh qotirdim. Mujmallik tufayli xatning ma‘nosi aniq emas, buning asl sababi - musajja’ so‘zlar. Bundan keyin so‘zlarni qo‘llaganda soxtalik va mulozamatdan parhez qilishni odat qil. Neki demoqni istasang, ochiq-oydin yoz». 539 yil avval badiiy proza bobida aytilgan bu fikr hali-hanuz o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Bobur Mirzo shuncha tashvish taraddudlari bilan bir qatorda mehru shafqati baland ota edi. Taqdir unga yigirma nafar farzand ato etdi.

Bobur Mirzoning hamma farzandlari ham otaning ko‘zi ochiqligida balog‘at yoshini ko‘rmasdilar. Ularning o‘n uch nafarini tuproqqa topshirishga to‘g‘ri keldi. Bobur Mirzoga Muhammad Humoyun Mirzo, Komron Mirzo, Askariy Mirzo, Hindol Mirzo, Gulrangbegim, Gulchehrabegim, Gulbadanbegim kabi bir-biridan shirin farzandlarni voyaga etkazishgina nasib qildi. O‘shalar tufayli yani Boburona berilgan tarbiya tufayli Hindistonda asoslangan boburiylar sulolasining saltanati uch yuz yildan ziyodroq yashadi. Bobur Mirzo shoir, adib, she‘rshunos-adabiyotshunos, tilshunos, tabiatshunos, mantiq va riyoziyot ilmlarida hali hanuz bilim o‘rganuvchilarga eng bebaho manba bo‘lib kelmoqda.

Adabiyotlar.

1. Qoyumov A. Asarlar 10 jildlik Toshkent Mumtoz so‘z 2007.
2. G‘anieva S. Navoiy yodga olgan asarlar. Toshkent 2009.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent FAN. 2007.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent: Sharq, 2002. – B. 57.

ERKIN VOHIDOV IJODINING O‘ZIGA XOS QIRRALARI

**Jizzax davlat pedagogika instituti
Jo‘rayev Shukrullo Alishboyevich**

“Adabiyot xalqning yuragi, elning ma‘naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar pul topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta‘sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga

munosib buyuk adabiyot uchun hamma sharoitlarni yaratamiz”⁵⁴ 2020 yil 20 may “Adiblar xiyoboni” ochilishidagi aytib oʻtgan edi, prezidentimiz Sh.Mirziyoyev.

Xiyobonda Navoiy, Bobur, Ogohiy, Muqimiy, Furqat, Avloniy, Behbudiyalar qatorida XX asr oʻzbek adabiyoti dargʻalari Qodiriy, Choʻlpon, Oybek, Hamid Olimjon va Zulfiya, Abdulla Qahhor, Said Ahmad va Saida Zunnunova, Gʻafur Gʻulom, Ozod Sharafiddinov, Abdulla Oripovlar qatorida, XX asr ikkinchi yarmi oʻzbek adabiyoti rivojida oʻzining munosib oʻrniga ega Erkin Vohidovning oʻrin olishi adib ijodi davlatimizda oʻz oʻrniga ega ekanligidan dalolat beradi. “Chinakam badiiy asar shoirning yurak bilan yolgʻiz qolib suhbatlashishi. Hozir joʻn nasihat zamoni emas. “Ey birodarlar, koʻproq kitob oʻqinglar!” degandan koʻra oʻsha kitobni yozish kerak. “Teatrga koʻproq tushinglar, televizorni ham tez-tez koʻrib turinglar” degandan koʻra ularning maʼnaviy saviyasini balandroq koʻtarish lozim. Kerak boʻlsa shoirning oʻziga dars berib qoʻyadilar”, “Yuraklarni larzaga soladigan sheʼriy soʻzning boʻlmasa toʻgʻricha gapingni toʻgʻricha ayt qoʻy. Undan ham ham yaxshisi sukut qukut qil”⁵⁵ deydi, 1993-yil “Vatan” gazetasiga bergan maqolasida. Bundan koʻrinadiki adibning maʼnaviyat, sheʼriyat, bilim haqidagi qarashlari qanchalar dolzarb voqeylik ekanligi bugungi kunda jamiyatimizda insonlar hayotida bilimga boʻlgan dunyoqarash insonlarning bozor munosabatlari jamiyatida bir muncha pasayganligi maʼnaviyat esa telekanallarimiz orqali berilayotgan ayrim qoʻshirnoq orasidagi seriallar hamda koʻrsatuvlar orqali nomoyon boʻlmoqda desak aslo yanglishmaymiz.

Bu soʻzlarning isboti sifatida adibning “Lekin koʻnglimda bir hadik bor: Amerika va Ovruponing bozor sharoitida yashayotgan koʻplab davlatlarida boʻlib, shu narsaga iqror boʻldimki, bozor qonunyalari hokim boʻlgan yurtda adabiyot va sanʼatning qadri bir qadar past boʻladi. Tirikchilik ketidan quvib ketib, maʼnaviyatdan uzilib qolmasak edi. Bu marakkab muammo. Goho vatan nomukammal boʻlib qolmasaydi, degan tashvishli hayollar orom bermaydi.”⁵⁶

Darhaqiqat, Vatanimiz oxirgi oʻttiz yilda qanchadan qancha yutuqlarga erishdi, iqtisodiy hamda ijtimoiy islohotlar oʻz samarasini bermoqda. Sportchilarimiz, bilimli yoshlarimiz jahon miqyosida vatanimiz bayrogʻini yuksaklarga olib chiqishmoqda. Shuni ham aytib oʻtish lozimki, maʼnaviyat tushunchasi insonlar orasida mavqeyi jihatidan bir muncha orqada tasavvur etiladigan tushunchaga aylanganligi hech birimizga sir emas. Bozor munosabatlari jamiyatida odamlar tirikchilik tashvishlari bilan tarbiyalangan avlod ongida Vatan tushunchasi ham nomukammal tushunchaga aylanayotganligi ham bugungi jamiyatimizga yod tushunchalar qatorida emas. Erkin Vohidov ijodini kuzatar ekanmiz, undagi falsafiy teranlik, yorqin poetik obraz va badiiy sanʼatlar, milliy tafakkur va xalqona donishmandlik kabi qirralarni koʻramiz. Bularning hammasini shoirning yuksak saviyadagi poetik tasvir vositalarini qoʻllash mahorati orqaligina roʻyobga chiqqanligini anglash qiyin emas. Shoir sheʼriyatidagi poetik tasvir vositalari, xususan, sheʼriy nutq qurilishidagi soʻz tanlash va ularning badiiy matnda mohirona ishlatilishi nafaqat adabiyotshunoslarni, balki

⁵⁴ <https://uzreport.news/> 2020 yil 20 may “Adiblar xiyoboni” ochilishidagi aytib oʻtgan edi prezidentimiz Sh.Mirziyoyev

⁵⁵ E.Vohidov “Saylanma. Erk saodati. 6-jild: Maqolalar, suhbatlar, sharhlar, xotiralar“ Mirzo Kenjabek, Nosirjon Joʻrayev, Feruza Basharova “Sharq” nashriyat-matbaa_aksiyadorlik_kompaniyasi 2018 y 19-bet

⁵⁶ E.Vohidov “Saylanma. Erk saodati. 6-jild: Maqolalar, suhbatlar, sharhlar, xotiralar“ Mirzo Kenjabek, Nosirjon Joʻrayev, Feruza Basharova, “Sharq” nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi 2018 y 19-bet

keng kitobxonlar ommasini ham bahs-munozaraga chorlaydi. Erkin Vohidov ijodi ko'pdan beri ilmiy jamoatchilik, adabiy tanqidchilik e'tiborini o'ziga tortib keladi. Shoir lirikasi va ayrim asarlari haqida Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Ibrohim G'afurov hamda Usmonjon Qosimov singari yetuk tanqidchi-adabiyotshunoslarning ilmiy tadqiqotlari, yana bir qancha olimlarimiz tomonidan yaratilgan maqolalar mavjud. Ammo hozirgi kunga qadar Erkin Vohidov badiiy publitsistikasi, adibning badiiy ijod, so'z qadri va ularni qo'llashdagi muallif mahorati kabi muammolarga bag'ishlangan publitsistik maqolalari yetarlicha tadqiq qilingan emas.

Adib tomonidan 1993-yil 22-iyunda "Xalq so'zi" gazetasiga bergan javoblarida shunday deydi. "Ruhlar isyoni"da shunday satr bor: "Iste'dodning tabiati isyondir". Bu dunyoda shoir bor – isyon bor. Haqiqiy shoir ko'rgan kuniga qanoat qilib, bir joyda to'xtab qola olmaydi."⁵⁷

Shu o'rinda adibning mustabid tuzumi sharoitida ham o'zining haq so'zi bilan el orasida e'tibor qozonganini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Yozuvchi o'z she'riy asarlarida hamisha haq gapni aytishga intildi. Buning yorqin misolini shoirning "O'zbekim" qasidasida ko'rishimiz mumkin, o'z vaqtida xalq o'rtasida og'izdan tushmaydigan bo'lib qolgan edi. Bu qasida 1968-yilda chop etilgan bo'lib, muallif she'riyatining eng avj pallasi hisoblanadi. Sharq mumtoz she'riyatida qasidalar asosan podshohlar, amir-u xonlar sha'niga, ular tomonidan amalga oshirilgan ezgu amallarni olqishlash maqsadida bitilardi. Erkin Vohidov esa ona xalqi – o'zbekimga qasida bag'ishlaydi. Bu shoir ijodidagi dastlabki badiiy publitsistik isyon deya baholasak yanglishmagan bo'lamiz, negaki, bunday **ijodiy jasorat shunisi bilan alohida ajralib turadiki, qasida yozilgan davr sobiq sho'ro mustamlakasi barcha millatlar «sovet xalqi» degan umumiy, sun'iy nom bilan atalar, insonlarning ma'lum bir millat vakili ekani bilan faxrlanishlari millatchilik deya atalib, bunday ijod na'munasini yaratgan ijotkorlar ham siyosiy ham ijtimoiy taziq ostiga olinar edi.** Ko'rinib turibdiki adib ijodi iste'dodining dastlabki isyoni ayni "O'zbekim" qasidasida ulkan bir portlash ko'rinishida, so'z qudrati, millat qudrati, ijodkorning mahoratida yaqqol ko'rinadi deb aytsak aslo yanglishmaymiz.

Bu o'rinda qasidani maxsus sharhlab o'tirishga hojat yo'q: u haqda ko'p yozildi. "Asar darsliklardan joy olgan. Millatning sha'ni-g'ururi toptalgan, tarix darsliklarimizda xalqimizning shonli o'tmishi qora bo'yoqlar bilan bulg'angan, har tongda kuylanadigan davlat madhiyasi ulug' og'aga, partiyaga hamdu sanolar bilan boshlanadigan zamonlarda kechmishning shonli sahifalarini ulug'lovchi "O'zbekim" qasidasi g'ayrirasmiy milliy madhiyaga aylandi."⁵⁸ Ehtimol, uning she'rlarida yuzaki o'rinlar bordir, ammo adib hech qachon yolg'on gap aytmagan, mustabid, mafkura, siyosat nog'orasiga o'ynab vijdonini sotmagan, murosasozlik yo'liga kirmagan. U o'tkinchi mayllarga berilmay, so'z san'atining azaliy muammosi – shaxs jumbog'i, ijtimoiy adolat tuyg'usi ifodasi bilan qiziqdi.

Muallif qo'lidagi qalam go'yoki yozmaydi, balkim qalami uchidan so'zlar musiqa singari quyilib keladi uning she'rlari yakka so'zda chalingan dilrabo kuydek yangraydi, ko'p ovozli simfoniyani eslatadi, publitsistik maqolalarini o'qiganda inson ko'ngil xazinasining, tuyg'ularining xilma-xil jilolari mujassam, oddiy maishiy kechinmalardan tortib ulkan

⁵⁷ E.Vohidov "Saylanma. Erk saodati. 6-jild: Maqolalar, suhbatlar, sharhlar, xotiralar" "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi 2018 y 17-bet

⁵⁸ <https://uz.wikipedia.org/> Ximik1991 ochiq ensiklopediya

ijtimoiy mushohadalar, qabohatlar haqida qalam tebratganda ham ajib samimiyat, hazin va nurli bir kuy aks-sado berib turadi.

80-yillarga kelib Erkin Vohidov ijodida milliy adabiyotimiz istiqboli uchun muhim ahamiyatga molik yangi tamoyillar ro'y berdi.

“Yani, avval So‘z kelgan, Olloxning “bo‘l” degan nidosi kelgan va mayda zarrachalar olamidani yangi Olam yaralgan. Agar shu ilohiy So‘z kelmaganda olam kukunligicha qolgan bo‘lardi”⁵⁹ Adib ijodida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan bu asar ijodkorning butun bir hayotidagi so‘z bilan bo‘g‘liq bo‘lgan o‘y-hayollar, ilmiy-nazariy qarashlar, insoniy kechinmalar, qadriyat va urf-odatlar, milliy madaniy shuningdek diniy qarashlarda o‘z aksini topgan. Shuningdek inson va insoniyat hayotida so‘zning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligi, millatlarni bir biriga bo‘g‘lovchi va shu bog‘lash orqali butun insoniyat bir-biriga naqadar kuchli bo‘g‘langanligini chuqur his etishga qaratilgan asosli qarashlari o‘z aksini topgan. Erkin Vohidov shaxsiyati va ijodi butun O‘zbek xalqi tomonidan qanchalik qadrlanishi va e‘zozlanishi, asarlari xalqning barcha qatlamlari tomonidan sevib o‘qilishi hech qanday isbot talab etmaydigan haqiqat ekanligi barchamizga ayon, shuni alohida aytib o‘tish joizki adibning qanchalik serqirra ekanligini u tomonidan yaratilgan sheriy hamda nasriy asarlarida ko‘tarilgan mavzular misolida ko‘rishimiz mumkin jumladan; “So‘z latofati” kitobida “Ibtido”, “Uch daryodan suv ichgan dengiz”, “Bo‘yinbog‘ desang o‘larmiding”, “Axiy men bitdim”, “Kenguru va belmes” kabi ilmiy nazariy qarashlari jamlangan maqolalari adibning naqadar falsafiy va ilmiy dunyo qarashga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Yozuvchi, o‘zining nafaqat eng sara asarlari bilan balki, o‘zining badiiy publististik maqolalari bilan ham kitobxonlar qalbini zabt etganligini ham alohida takidlab o‘tishimiz lozim, shuningdek adibning radio va televideniya orqali jiddiy chiqishlar shuningdek, matbuotda birin-ketin o‘tkir publitsistik maqolalar e‘lon qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Erkin Vohidov “So‘z latofati” 2014 y
2. Ximik1991 ochiq ensiklopediya
3. 2020 yil 20 may “Adiblar xiyoboni” ochilishidagi aytib o‘tgan edi prezidentimiz Sh.Mirziyoyev
4. Hoshimov O`. O‘zbeklar.-T: O‘qituvchi. 2006 yil
5. Karimov A. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T: Sharq. 1997 y
6. Erkin Vohidov asarlar 6-jild “Erk saodati” “Sharq” 2018 y

SO‘Z ZARGARI – TOG‘AY MUROD IJODIGA BIR NAZAR

Xidirova Munavvara
JDPI tayanch doktoranti

Tog‘ay Murod (1948-2003) – (Tog‘aymurod Mengnorov) xalq og‘zaki ijodi, mumtoz va zamonaviy adabiyot bilan bir qatorda, jahon adabiyotini ham yaxshi biladigan, tabiatan jo‘shqin va kurashchan adib edi. Adib ijodidagi jo‘shqinlikning bir ildizi folklorga, ikkinchi

⁵⁹ Erkin Vohidov “So‘z latofati”, “O‘zbekiston nashriyoti” 2014 y 5-bet

ildizi A.Qodiriy feletonlariga xos hajviy-satirik uslub, ijtimoiy-siyosiy tanqid hamda davr muammolariga bo‘lgan badiiy-publitsistik hozirjavob munosabatga, Oybekona ko‘lamdorlik va falsafiylikka tutashadi. Darhaqiqat uning “Oydinda yurgan odamlar” (1980) qissasi uchun Oybek nomidagi mukofotga, 1994-yilda Abdulla Qodiriy nomidagi Respublika mukofotiga sazovor bo‘lishi bejiz emasdi.

Tog‘ay Murod ijodining uchinchi ildizi jahon adabiyotidan oziqlanadi. Zotan u 1985-1987- yillarda Moskvadagi adabiyot institutida tahsil oldi. Amerikalik adib Jek London hikoyalari va “Boyning qizi” dramasini, kanadalik adib Ernest Seton-Tompsonning mashhur “Yovvoyi yo‘rg‘a” kitobini o‘zbek tiliga tarjima qildi. 1999-yilga kelib haqli ravishda “O‘zbekiston xalq yozuvchisi” degan faxrli unvonga loyiq ko‘rildi.

Yozuvchini 150 yil davomida tobe o‘lkalarda yurgizilgan ijtimoiy siyosat masalalari, chor Rossiyasi bosqini va sho‘ro qatog‘onlari, qo‘rqitish ta’sirida millat tiynatiga singdirilgan mutelik illati, millatning ijtimoiy-axloqiy qiyofasi, azaldan mehnatsevar millat o‘z halol mehnati evaziga “boqimanda” sifatida kamsitilishi, uning e’tiqodi, yaratuvchanlik fazilati va qayta qurish davrining quruq gapbozlik va yaqin o‘tmishga tosh otish bilan bog‘liq amallari (demagogiya) kabi ko‘plab muammolar tashvishga solardi. Yozuvchi ayni masalalarning badiiy-publitsistik echimini topish, yaqin tarix voqeligi ustidan poetik hukm chiqarishga intildi. Haqparvar va xalqparvar adib shuning uchun badiiy so‘z orqali mehnatga bo‘lgan munosabat, insoniy burch, mas’ullik, iymon-e’tiqod, jasorat, haqqoniylik, samimiylik, mehr-oqibat, ona zamanga muhabbat masalalarini ifoda etdi. O‘z asarlarida xalq hayoti, orzu-umidlarini ro‘y-rost ifoda etgani uchun ham T.Murod qoldirgan adabiy meros: “Bobosi bilan nevarasi”, “Ku-ku-ku”, “Er-xotin”, “Kuzning bir kunida” hikoyalari; “Yurt qo‘shig‘i” badiasi; “Oydinda yurgan odamlar”, “Ot kishnagan oqshom”, “Yulduzlar mangu yonadi”, “Momo –Er qo‘shig‘i” qissalari; “Otamdan qolgan dalalar” va “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romanlari hanuz sevib o‘qilmoqda.

Binobarin, Tog‘ay Murod o‘zining hikoya va qissalarida Surxon vohasi okko‘ngil, tanti va mard chavandozlarining fe‘l-atvori, o‘y-xayollariyu orzu-umidlarini, mirishkor bog‘bonlari va chevar pillakorlari halol mehnatini, ko‘ngil qo‘shiqlarini badiiy ifodaga ko‘chirdi. “Otamdan qolgan dalalar” ramziy “roman trilogiya” sida e’tiqodida sobit Jamoliddin ketmon, faol kurashchi Aqrab qo‘rboshi, shuningdek ularning uchinchi avlodi Dehqonqul timsolida butun umr o‘z dalasida ketmon chopib, quyoshli yurtda elkasi oftob ko‘rmagan, qut-barakot yurtida kosasi oqarmagan munis o‘zbek xalqi siymosini badiiy talqin etdi. Roman Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. Ushbu asar asosida badiiy film yaratildi (2001), “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romanida XX asr o‘zbek ziyolilarining barcha ko‘rgiliklari, dard-alamlari, fojialari aks etdi.

Muayyan badiiy asarning yaratilishi va ijod jarayoni bilan bog‘liq g‘oyat murakkab ruhiy, biografik, g‘oyaviy-estetik va hayotiy omillar Alisher Navoiyning adabiyotshunoslikka oid asarlari, Boburning “Boburnoma” kabi ishonchli memuari, shuningdek, ko‘plab tazkiralarda bayon qilingan. Ularda mumtoz asarlarning ijodiy tarixi haqidagi qimmatli fikr-mulohazalar keltirilishi adabiy an‘ana tusini olgan. Jahon adabiyotshunosligida ham bu kabi muammolar keng yoritilgan.

XX asr o‘zbek adabiyotshunosligida Abdulla Qodiriy boshlab bergan bu ijodiy tajriba Oybekning Qodiriy shaxsi va ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlari va “Men “Navoiy” romanini qanday yozdim” kabi maqolalari, Abdulla Qahhorning “Yoshlar bilan suhbat” va “Hayot hodisasidan badiiy to‘qimaga” singari turkum asarlari bilan ilmiy-adabiy an‘anaga aylanadi. Bu adabiy izdoshlik keyinchalik A.Muxtor, S.Ahmad, O.Yoqubov, P.Qodirov, E.Vohidov,

A.Oripov, O'.Hoshimov kabi mashhur adiblarimizning badiiy ijod sirlarini yorituvchi rang-barang asarlari bilan muvaffaqiyatli davom ettirildi. Ijodiy mehnat bilan bog'liq hayotiy saboq va o'g'itlar yosh yozuvchilar uchun ibrat maktabi vazifasini o'tadi.

Ustoz adiblar ijodiy prinsiplariga yuksak hurmat bilan yondashgan Tog'ay Murod asarlari yaratilishi va adibning badiiy ijod laboratoriyasi ham alohida o'rganishga munosibdir. Chunki adib asarlari "odamlar qalbini qalbiga payvand qila olish" samarasi bo'lib maydonga kelgan. Tog'ay Murod asarlari va qahramonlarining yaratilish jarayonini yaqindan o'rganish hamda yozuvchining "Men" deb nomlangan o'ziga xos badea-essesini, shuningdek, adib zamondoshlarining yoniq xotiralarini o'qib, to'liq amin bo'lamiz. Qodiriy va Qahorning adabiyotga munosabati va ijod jarayoni haqidagi mushtarak qarashlari bilan Tog'ay Murodning fikrlariga qiyosiy nazar solinsa, ular o'rtasida juda yaqinlik, o'xshashliklarni ko'rish mumkin. *"Men yozmoqchi bo'lgan asarim mavzusini mayda detallarigacha o'rganib chiqaman. Tasvirlayotgan joyimni borib o'z ko'zim bilan ko'raman, bo'lmasa ko'nglim to'lmaydi. Asar pishib-etilgandan keyin esa uyga qamalib olaman. Chunki bu payt menga hech kim xalaqit bermasligi kerak..."*[1.280] Yozuvchining bunday e'tiroflari ulug' adiblar fikrlariga hamohangligi bilan ham diqqatni tortadi.

Jahon adabiyotining ko'plab yetuk namoyandalari singari Tog'ay Murod ham o'z ijodiy faoliyatini kichik janrdagi badiiy va ilmiy-pulitsistik asarlar: hikoya va maqolalardan boshlagan. Ta'kidlanganiday, yozuvchi o'z qissalarini yaratishdan oldin "Bobo va nevara", "Ku-ku-ku" va "Er-xotin" kabi hikoyalarda qalamini charxladi. Bu hikoyalar, avvalo, milliy ruhda yozilgani, hayotiy mazmuni va haqqoniy tasvirlarga boyligi bilan ajralib turadi. Muhimi shundaki, ilk hikoyalar adibning qissalari va romanlari uchun o'ziga xos g'oyaviy-badiiy tayyorgarlik bosqichi bo'lib xizmat qildi. Ma'lum ma'noda ijodiy mashq, eskiz rolini o'ynadi. Tog'ay Murod yaxlit ijodiga xos fazilatlar dastlabki hikoyalaridayoq ko'zga tashlana boshladi. Chunki u o'zi kuzatgan, guvohi bo'lgan va ruhan kechingan hayotni, hayvonot-u nabotot dunyosini tabiiyligi, nafasati bilan badiiy adabiyot maydoniga olib kirdi.

"Yulduzlar mangu yonadi" (1976) nomli ilk qissasi o'zining yangi mavzusi, milliy xarakterlari va shirali tili, ko'p jihatlariga ko'ra yozuvchi shaxsiy hayotiy kechinma va bolalik taassurotlariga asoslandi va kitobxonlar e'tiborini tortdi. Dastlab "Davra" nomi bilan nashr etilgan bu asar ustoz adiblar va kitobxonlar taklifi bilan qayta ishlanadi. Mukammallashadi va nomi "Yulduzlar mangu yonadi" deb o'zgartirildi. O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi muhokamalarida "Yilning eng yaxshi qissasi" deb topildi. Zotan, qissaning dastlabki varianti nomiga chiqarilgan "Davra" so'zi ko'p qo'llangan va ma'nosi ham umumiyroq ekani bois, yozuvchiga ma'qul kelmadi. [2.168]

Adib asarlari va insoniy shaxsini yaqindan bilgan shoir Chorsha'm Ro'ziyevning eslashicha, Tog'ay Murod asarlarining nomlariga katta ahamiyat berar, ularni juda uzoq vaqt tanlar edi. Masalan, "Ot kishnagan oqshom" va "Oydinda yurgan odamlar" qissalari uchun ham o'nlab nomlar yozib chiqqan. *"Nom asar ruhini to'la ifoda etishi kerak. Toki sarlavhani o'qshi bilan o'quvchining yuragi "jiz" etsin, unda shu asarni o'qishga istak uyg'onsin"*,[3.242] -deb orzu etar ekan. Darhaqiqat, "Yulduzlar mangu yonadi" degan sarlavhada ma'nodorlik va shoirona sirlilik ham kuchli. Bu yangi nom hayotiy va falsafiy jihatdan keng ma'noni anglatib, xalqimizning asrlar davomida yashab kelayotgan milliy qadriyatlarini bardavomligini ham ramziy tarzda ifodalay olgan.

Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" (1979) qissasi adib uchun ham, adabiyotimiz uchun ham muhim qimmat kasb etuvchi asarlar sirasiga kiradi. Qissa chuqur g'oyaviy-badiiy muammolari va jozibali obrazlari bilan adibning boshqa asarlardan ajralib

turadi. Uning asosiy qahramonlari – Ziyodulla kal, uning Tarlon ismli oti va chavandozlardir. Zamonaviy o‘zbek nasri va ehtimol, jahon qissachiligida ham yangi bir sahifa bo‘lib maydonga kelgan bu qissa yosh adibning katta yutug‘i bo‘ldi.

Tog‘ay Murodning mahorati shundaki, “Otamdan qolgan dalalar” romanida xalqimiz boshidan kechirgan zalvarli tarixiy o‘tmish haqqoniy aks ettiriladi. Natijada, adibning badiiy-estetik tafakkuri hosilasi bo‘lgan roman ta’sirida “baxtiyor va farovon sotsialistik turmush” deb madh etib kelingan va endi tarixga aylangan kechagi kunlarimiz haqidagi fikr-tuyg‘ularimiz butunlay o‘zgaradi. Binobarin, o‘zbek dehqonlari va qishloq ayollarining dard-sitamli kechinmalari, qul kabi itoatkor va fidoiy paxtakorlarning beqadr mehnati, aftodahol turish-turmushi haqidagi tasavvurlarimiz o‘ta yuzaki ekanligiga va ular romandagi dongdor yozuvchilar bilan shaharlik sayyor rejissyorlarning balandparvoz so‘zlari-yu haqoratomuz hamd-u sanolariday hayot haqiqatidan juda yiroq bo‘lgan soxta maqtovlar ekanligiga iqror bo‘lamiz. Shu jihatlariga ko‘ra asarni xalqimiz va ona yurtimiz boshidan kechgan fojialarga to‘la bo‘lgan butun bir davrning muxtasar badiiy solnomasi deb atash ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Tog‘ay Murod zamondoshlari xotirasida. – T.: YAngi asr, 2007. – B. 280.
- 2.Qosimov U. O‘zbek adabiyoti va tanqidchiligi tarixidan lavhalar. – T.: Iqtisodiy – moliya. 2006 . – B. 128.
- 3.Tog‘ay Murod zamondoshlari xotirasida. – T.: YAngi asr, 2007. – B.242.
- 4.Said Ahmad.So‘z zargari. - Men qaytib kelaman.T.: 2007.

BARQAROR BIRIKMALARNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI (Erkin Vohidov asarlari misolida)

Qushmurodova Dilshodaxon Farxod qizi mustaqil tadqiqotchi

Tilga bir butun tizim sifatida qarash hamda uni nutqqa zidlab o‘rganish til birliklarining nutq faoliyatida kontekst va vaziyat bilan bog‘liq tarzda yuzaga chiquvchi pragmatik vazifalariga aniqlik kiritadi. Til birliklarini pragmatik yo‘nalishda tadqiq etish ularning bevosita ko‘zga tashlanmaydigan, faqat nutqda yuzaga chiquvchi ichki imkoniyatlarini aniqlashga yo‘l ochmoqda. U.Nosirova o‘zining “Poetik nutqning pragmatik xususiyatlari” mavzusidagi maqolasida pragmatika yuzasidan bir qator tadqiqotlar olib borilganligi, lekin poetik nutq pragmatikasi va uni ifoda etuvchi til birliklarining strukturaviy xususiyatlari yetarli darajada tadqiq etilmaganini qayd etgan. Bu esa tadqiqotchilar uchun til birliklarining nutqdagi pragmatik ma‘no hosil qilish imkoniyatlari mavjudligini anglatadi.

Erkin Vohidov asarlari tilida barqaror birikmalar poetik aktuallashib lingvopragmatik tahlilga ehtiyoj sezganini ko‘rishimiz mumkin. Maqol, matal, ibora, aforizm kabilar semantik-sintaktik qurilishiga ko‘ra barqaror birikmalardir. Ijodkor barqaror birikmalardan lokutiv, illokutiv va perllokutiv nutq aktlarini yaratishda mahorat bilan foydalanadi.Qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarzini tasvirlovchi okkozional ma‘noni hosil qilish maqsadida turg‘un birikmalarning shakl ifodasiga o‘zgartirish kiritadi. Shu tarzda xalq maqollari, iboralari shaklan va mazmunan sayqallanib, yangi ma‘no nozikliklari bilan to‘yinib

boradi. Masalan, Erkin Vohidovning ushbu misralarida o'zbek xalq maqolining she'riy ifodasi aks etgan:

Do'st qidir, do'st top jahonda,
Do'st yuz ming bo'lsa oz,
Ko'p erur bisyor dushman
Bo'lsa u bir dona ham.

Bu kabi misralar orqali mumtoz she'riyatda irsoli masal san'ati yaratilgan. Xalq tilida “Do'st ming bo'lsa ham — oz, Dushman bir bo'lsa ham — ko'p” maqoli mavjud. Shoir maqolga xos yuz so'zining o'rnida yuz ming so'zini qo'llaydi. Bundan maqsad, aytaylik, maqolni she'r uslubiga moslashtirish bo'lsa, mazmunan esa nutq aktini kuchaytirish, ta'kidlashdir. Shoirning ayrim misralarida maqol tarkibidagi leksik-semantik o'zgarishlar obraz tasvirini bo'rttirishga, kuchaytirishga emas, aksincha pasaytirishga hizmat qilayotganini anglaymiz.

Umrini oshiq hamisha,
O'tkazur orzu bilan,
Oyning o'n beshi qorong'u,
O'n beshi **yog'du** bilan.

Aslida, o'zbek xalq maqoli “Oyning o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi-yorug” – edi. Erkin Vohidov esa maqolni she'r uslubiga moslashtiribgina qolmay, yorug' leksemasini yog'du leksemasiga ko'chirish orqali har qanday qiyinchiliklardan so'ng, asta-sekin barchasi yaxshi bo'lishiga ishora bor ekanligini mahorat bilan tasvirlagan. O'zbek tilining izohli lug'atida yog'du so'zi yorituvchi manbadan taralayotgan nur degan ma'noni berayotganiga ahamiyat bersak, har qanday qiyinchilikdan so'ng hayot sekin asta yaxshilanishiga ishora borligini ko'rish mumkin. Matn mazmunini va muallifning maqsadini yoritib beruvchi vositalardan biri leksik birliklar sanaladi. Ular matn qismlarining semantik bog'lanishini ta'minlaydi. Yuqoridagi satrlarda shoir- “Oyning o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi-yorug” maqolini poetik aktuallashtirish holda qo'llagan.

Kuyida men tosh boshimni
Urmagan ostona yo'q
Elda bor shunday masal
Jon chekmasang jonona yo'q.

Aslida o'zbek xalq maqolida “Jon chekmasang jonona qayda, Toqqa chiqmasang do'lona qayda” deya ritorik so'roq bilan kitobxonga ta'sir etish maqsad qilingan bo'lsa. She'rda esa bu maqol hukm vazifasida kelayapti. Aslida harakat qilmasang, tirishqoq bo'lmasang hech narsaga erisha olmaysan deya ritorik so'roq bilan inkor etish mavjud. Erkin Vohidov poetik aktuallashtirib bunda ham inkor shakli bilan ifodalayapti. Ammo maqoldan farqli o'laroq qat'iy inkorni ifodalash orqali okkozional yondashuvga erishgan. Shuningdek “bosh urmoq” iborasi tosh leksemasi bilan aktuallashtirib bardosh chidamli semasini berayapti. Aslida toshga berilayotgan polisemantik leksemalar anchagina, shoir misralarda esa toshning bardosh ma'nosida qo'llangan semantikasini ifodalashga harakat qilgan.

Ijodkor foydalangan poetik aktuallashtirish birliklar shunisi bilan qimmatliki, u fikr bilan uyg'un holda sodda va tabiiy yuzaga kelgan.

Ming yil xira yulduz bo'lgandan,
Bir dam yoniq sham bo'lgan afzal.

Shoir umrni qancha emas, balki qanday yashashga sarflash lozimligini yuqoridagi satrlarda jamlagan. Bu kabi jumla akademik shoir G'afur G'ulomning “Vaqt” she'rida ham

“Ba’zida bir nafas olgulik muddat- ming yulduz so’nishi uchun yetgulik” tarzida ishlatilgan. Bu satrlarda o’zaro zidlik nafaqat barqaror birikmalar balki xira yulduz va yoniq sham birikmalari orqali ham assotsiatsion maydonni yuzaga keltirishga harakat qilgan.

O’ynashmagin arbob bilan,
Arbob garchi ming dilkash.
Bilki, bo’ri qo’zichoqqa
Sher ohuga hazilkash.

Misrada keltirilgan maqolning lingvopoetik moslashtirilishi satrdagi bo’ri bilan qo’zichoq hamda sher va ohu munosabati asosida yoritilgan. Aslida maqol “O’ynashmagin arbob bilan, arbob urar harbop bilan” – edi. Lekin ijodkor maqolning bir qismidan foydalanmay arbobning turli hiyla nayranglariga ehtiyot bo’l degan hukmni majozning bir qancha turi orqali ifodalab bergan.

Yaxshidir achchiq haqiqat,
Lek shirin yolg’on yomon,
Ul shirin yolg’onga mendek
Aldanib qolg’on yomon .

Bu misralar mazmunini “**to’g’ri-rost, haq gap achchiq bo’ladi**” yoki “**To’g’ri gap tuqqaningga yoqmaydi**” mazmunidagi xalq maqoli singdirib yuborilgan. Ayni shu baytda shoir yuksak mahoratini namoyon qilgan, ya’ni bir necha badiiy san’atlarni qo’llab, irsoli masal san’ati bilan birga, fikrlarini mahorat bilan ifodalagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. U.Nosirova . “Poetik nutqning pragmatik xususiyatlari” .
2. O’zbek xalq maqollari. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati 2005
3. .Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. - Т.: Фан, 2007.
4. F. U. Jumayeva Polisemem leksemalar doirasidagi sinonim va antonim semalar tadqiqi. Fil.fan....falsafa doktori diss. avtoreferati. – Farg’ona 2018. B. 18.

“O’ZBEKISTON” SHE’RIDA FALSAFIY TAFAKKUR VA BADIY TALQIN

Kiryigitova Nigora
O’zbek tili va adabiyoti kafedrasida o’qituvchisi

She’riyatda falsafiy tafakkur tarixi uzoq o’tmishga – xalq qo’shiqlariga borib taqaladi. Bu qo’shiqlarda xalq dardi, orzu-niyatlari, armonlari bilan bir qatorda falsafiy dunyoqarashi va tafakkur tarzi ham akslangan. [Bu haqda qarang: Yoqubekova M. Xalq qo’shiqlarida so’z sehri./ O’zbek folklorshunosligi. Toshkent: Antologiya. Toshkent O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi . –B.447-453]

Keyinchalik falsafiy tafakkurning badiiy talqini yozma adabiyotda turli tur va janrlarda aks etdi. Bu borada ruboiy va qit’a janrlarining o’ziga xos o’rni bor. XX asr adabiyotida esa bunday talqin asrning buyuk shoiri Abdulla Oripov qalamida o’zgacha ma’no tovlanishlari bilan aks etdi. Fikrimizni ijodkorning “**O’zbekiston**” she’ri misolida isbotlashga harakat qilamiz.

Ayta olish mumkinki bitta she'r yozish uchun shoir qancha tarixiy bilimga ega bo'lgan. Va bitta she'rdagi millatning ming yildan ziyod o'tmishi ko'z o'ngimizda kitob sahifalari yoki kino lentalaridek jonli tarzda tasvirlanmoqda.

Abdulla Oripov qasidasida ayni paytda tarix va bugun, armon va orzu xuddi dengiz to'lqinlaridek navbatma-navbat o'rin almashadi:

*Bobolardan so'zladim, lekin
Bir zot borkim, baridan suyuk.
Buyuklarga baxsh etgan dahol,
Ona xalqim, o'zingsan buyuk.
Sen o'zingsan eng so'nggi nonin
O'zi etmay, o'g'liga tutgan.
Sen o'zingsan farzandlar shonin
Asrlardan opichlab o'tgan.
Ona xalqim, jon-tanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim!(120-b)*

Ushbu satrlarda hamma buyuklarga ma'naviy quvvat baxsh etgan xalq dahosi madh etilmoqda. Xo'sh, ma'naviy quvvat nima? Ma'naviy quvvat bu – o'zi emay o'g'liga non tutish burchi. Ulug'lar shonini asrlardan eson-omon, ziyon-zahmatsiz o'tkaza olish qobiliyatidir. Xalq dahosi bu oltinga teng urf-odat va qadriyatlarini, noyob qo'lyozmalar va osori-atiqalarni, muhimi esa eng og'ir daqiqalarda ham inson bo'lib qola olish iqtidorini kelajak avlodga etkaza olish vazifasidir.

She'r o'qirgan, she'rxon shuuri nafaqat mana shu tuyg'ularni his etadi. Balki u ongli ravishda bu bilimlarni qabul qiladi. She'rning badiiy-estetik vazifasi mana shundagina, ya'ni his va ong to'laqonli faoliyat yuritgandagina to'la bajariladi.

Abdulla Oripov she'riyati haqida so'z yuritgan tadqiqotchi ning so'zlari bu borada o'rinni: "Abdulla Oripov Vatan haqidagi she'rlari bilan ko'hna mavzuni tub mohiyati bilan yangilash va uni hech bir shoironikiga o'xshamaydigan tasvirlarni yaratishga muvaffaq bo'ldi" [Ashurova G. Abdulla Oripov she'riyatida an'ana va badiiy mahorat. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – B.19.] yakunida esa donishmandona ulug'vorlik asnosidagi nasihatimiz satrlar keladi:

*Mayli, yurtim, kezsang ham dunyo,
Fazolarga qo'ysang ham qadam,
O'zligingni unutma aslo,
Unutma hech jonajon o'lkam.
Bir o'g'lingdek men ham shu zamon
Kechmishingni qildim tomosha.
Iqbolingni ko'roldim ayon
Erkin va hur kengliklar osha.
Iqboli hur, sho'x-shanim manim,
O'zbekiston Vatanim manim! (122-b.)*

Bandda garchi shoir o'lkam, yurtim deb murojaat qilsa ham, bu nasihatlar dunyoga chiqayotgan xalq farzanlari uchun aytilgan. Shoir ular misolida yurt kelajagini ko'rgani tufayli ham ularga shunday deb murojaat qilmoqda.

Abdulla Oripov she'rida xulosa ancha murakkab. Unda niyat va bu niyat ijobatida qat'iyat akslangan:

Zavol ko'rma, hech qachon o'lkam,

*Zavol bilmas shu yoshing bilan.
Muzaffar bo'l, g'olib bo'l, o'ktam
Do'stu yoring, qardoshing bilan.
Asrlarning silsilasida
Boqiy turgay koshonang sening.
Asrlarning silsilasida
Mangu yorug' peshonang sening.
Mangu yorug' maskanim manim,
O'zbekiston Vatanim manim. (122-b)*

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagicha xulosalarga keldik:

1. Abdulla Oripovning "O'zbekiston" qasidasida vatanparvarlik, millatparvarlik kabi qadriyatlar badiiy tarzda talqin etildi.
2. Abdulla Oripov badiiy tafakkurida donishmandona tilaklar, hatto yurtga, o'lkaga qilingan nasihatlar uchraydi.
3. Ijodkor talqinida millat tarixi bilan haqli ravishda faxrlanish va yorqin kelajagiga umid qilish kabi falsafiy tafakkur unsurlari biz ko'rib o'tgan she'rlarda avvalgi o'rinlarda turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yoqubbekova M. Xalq qo'shiqlarida so'z sehri./ O'zbek folklorshunosligi. Toshkent: Antologiya. Toshkent O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi . –B.447-453]
2. Oripov A. Saylanma. Toshkent: Sharq. 1996. 464 bet.
3. Rahimjonov D. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. Toshkent: Fan, 2007.

OZOD SHARAFIDDINOV TADQIQOTLARINING ADABIY TANQIDCHILIGIMIZ RIVOJIDAGI O'RNI

Gulzina Tulishova, JDPI o'qituvchisi

Albatta, hech qanday tuzum talqin va tanqidni inkor etmaydi. Lekin ayrim jamiyatdagi mavjud siyosiy-mafkuraviy munosabatlar tizimi xolis, haqqoniy talqiniga imkon bermasligi sir emas. Shu ma'noda mustaqil O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma'naviy vaziyat tufayli ma'naviy qadriyatlar va adabiy manbalarni xolis, haqqoniy ilmiy talqin etishga keng yo'l ochilgani adabiyotshunoslikning yutug'idir. Birinchi Prezident Islom Karimov Navoiy shahrida Alisher Navoiyning yodgorlik majmui ochilishida so'zlagan nutqida shunday degan edi: «Hazrat Navoiy shunday buyuk zot ekan, uning tafakkur durdonalari bo'lmish boqiy asarlari zamonlar osha yashab kelayotgan ekan, bu ulug' merosdan xalqimizni, ayniqsa yoshlarimizni qanchalikko'p bahramand etsak, ma'naviyatli yuksaklikka ko'tarilishda insoniy fazilatlarini kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz. Ayni paytda bu vazifa ilgari ham aytilganidek har birimizni Navoiyni yanada yaxshiroq o'qishga, Navoiyni yanada teranroq o'rganishga, uning umr daftaridan ibrat va saboqlar olib yashashga da'vat etadi.⁶⁰

⁶⁰ Karimov I. A. «Ulug'lar e'zozlagan yurt zavol ko'rmagay». Xalq so'zi – 2001. 25-avgust.

Darhaqiqat, ushbu fikr va mulohazalarni zamondoshimiz bo`lgan buyuk adabiyotshunos olim, iste`dodli munaqqid Ozod Sharafiddinov hayoti va ijodiy faoliyatiga nisbatan qo`llash ham mumkin.

Davr adabiy hayotini chuqur bilish ijodkor ahlining sermashaqqat dardi quvonchlarini teran his qilish va ularni aks ettirishga intilishi Ozod Sharafiddinov ilmiy faoliyatiga kuchli bir qanot baxsh etdi va natijada uning tadqiqotlari ham hayotiylik, ham chuqur haqchilik kasb etadi. Ozod Sharafiddinov tanqidchilik faoliyati shunday bir mahorat maktabi darajasiga ko`tarilganki, endi biz XX asrning ikkinchi yarmi o`zbek poeziyasining murakkab va ziddiyatni taraqqiyot bosqichlarini yaqqol ko`rishimiz mumkin. Ozod Sharafiddinov salmoqli tadqiqotlarni yuzaga kelishi manbalari nimalardan iborat va uning yetuk adabiyotshunos bo`lib shakllanishida hamda bu darajada buyuk bir munaqqid bo`lib yetishishida qanday omillar asosiy rol o`ynagani shular xususida fikr yuritishdan oldin Ozod Sharafiddinov adabiy-tanqidchilik kirib kelgan dastlabki davrdagi adabiy hayotni ko`z oldimizga keltiraylik. Shuni alohida ta`kidlash kerakki, Ozod Sharafiddinov va boshqa munaqqidlarimiz adabiy tanqidchilik maydoniga kirib kelgan davr – XX asrning 50-yillarida butun xalqimiz madaniyatimiz tarixida eng murakkab hamda ziddiyatli bo`lgan bir davr edi.

Bu murakkab davrning haqqoniy manzaralari, xalqimiz va millatimiz boshida turgan og`ir fojialar eng avvalo Fitrat, Abdulla Qodiriy va Cho`lpon singari otashnafas adiblarimiz asarlarida ham o`zining yorqin ifodasini topgan edi. Afsuski, bu adiblarimizning o`sha davr haqiqatini butun fojialari bilan aks ettirgan o`lmas asarlari qadrlanishi yoki to`g`ri tushunish o`rniga so`nggi yillargacha butunlay qoralanib kelindi.

Ozod Sharafiddinov xuddi mana shunday mustabid tuzumning mafkuraviy hukmronlik va zo`ravonlik siyosati avj olgan bir paytda adabiy tanqidchilik maydoniga kirib kelgan. O`sha yillarda Ozod Sharafiddinov kabi adabiyotshunoslarimiz chekiga tushgan bu qismat ham ijodiy, ham salbiy mazmunga ega edi. Ijodiy tomoni shundaki, Ozod Sharafiddinov bevosita ana shu jo`shqin va murakkab hayot ichida yashadi, adabiyot ahliga hamnafas, hamdard bo`lib, yetuk bir adabiyotshunos sifatida shakllandi.

Haqiqatdan ham, buyuk so`z san`atkori, iste`dodli munaqqid Ozod Sharafiddinov, eng avvalo, o`zining Benazir shaxsiyati va adabiy-estetik qarashlarining favqulodda boy va rang-barangligi bilan ilmiy-adabiy jamoatchilikni hayratga solishi tabiiy. Necha ming yillik taraqqiyot yo`lini bosib o`tgan so`z san`ati va adabiy-estetik tafakkur sohalarida noyob asarlar yaralib olamshumul shuhrat qozonganko`plab ulug` alloma hamda mutafakkirlar yashab o`tgan. Lekin ham adabiy tanqidchilikda ham adabiy-estetik tafakkur olamida Ozod Sharafiddinov kabi bebaho kashfiyotlar yarata olish baxti hamma ulug` adabiyotshunos munaqqidlarga ham nasib etavermaydi. Zero, Ozod Sharafiddinov o`zbek adabiy tanqidchiligi rivojiga nechog`lik yuksak darajaga ko`targan bo`lsa, jahon adabiy-estetik tafakkur olamida ham shu qadar yuqori bir mavqeni egallaydi, desak mubolag`a bo`lmaydi. Bu muhim haqiqat eng avvalo shunda namoyon bo`ladiki, badiiy adabiyotning o`zbek adabiy tanqidchiligining sardorlaridan biri sanalgan Ozod Sharafiddinov adabiy-estetik qarashlari silsilasida asosiy o`rin tutuvchi dolzarb muammolar nimalardan iborat hamda ular bugungi adabiy-tanqidiy jarayon va adabiy-estetik tafakkur rivojida ahamiyat kasb etadi. Albatta, mavzuni keng yoritish uchun juda ko`plab salmoqli tadqiqotlar talab qilinadi. O`rni bilan shuni alohida ta`kidlash lozimki, Ozod Sharafiddinovning hayoti, ilmiy-pedagogik hamda adabiy-tanqidchilikdagi faoliyatini o`rganish borasida adabiyotshunosligimizda bir qancha ishlar qilinmoqda. Bu izlanishlar, ayniqsa, so`nggi yillarda yanada samarali tus olganligini e`tirof etish lozim.

Darhaqiqat, shuni ta'kidlash lozimki, Ozod Sharafiddinov adabiy-estetik qarashlari o'zining teranligi, mavzu-muammolarining rang-barangligi, qamrov doirasining kengligi hamda badiiy ijod jarayoni va amaliyoti bilan chambarchas bog'liq ekanligi alohida diqqatga sazavordir. Shubhasiz, badiiy adabiyotning ijodiy-estetik ahamiyati va ijodkor ma'sulyati haqidagi qarashlar Ozod Sharafiddinov estetikasining asosiy mezonini, bir so'z markaziy nuqtasi hisoblanadi.

Ijtimoiy-estetik mohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida Ozod Sharafiddinovchalik ko'p, chuqur va izchil fikr-mushohada yuritgan munaqqid o'zbek adabiy tanqidchiligi tarixida kamdan-kam uchraydi. Ozod Sharafiddinovning adabiy tanqidchiligi hamda adabiy-estetik tafakkuri rivoji oldidagi buyuk xizmatlaridan biri shundaki, u o'z davri adabiyotini, tanqid va adabiyotshunosligining eng dolzarb va eng muhim muammolarini g'oyat hozirjavoblik va o'ziga xos bilimdonlik bilan hal etib bera oladi. Buyuk munaqqidning badiiyat, tanqid va adabiyotshunoslik borasidagi ko'p yillik ilmiy, ijodiy izlanishlari va salmoqli asarlarining samarasi sifatida XX asr so'nggi choragi va asrimiz boshlarida badiiy ijod va adabiy-estetik tafakkur sohasida yaxlit bir ta'limot maydonga keladi.

Shubhasiz, Ozod Sharafiddinovning adabiy tanqidchilik hamda adabiy-estetik tafakkur, rivojidagi yaratgan ijodiy ta'limoti so'z san'ati va adabiy tanqid ilmining keyingi yillarida taraqqiyoti uchun ham mahorat va tajriba maktabi vazifasini o'taydi.

DAVR VA ADABIYOTGA MUNOSABAT MUAMMOLARI

Umida Farmonova, Samarqand viloyati 6-maktab o'qituvchisi.

Bir yarim asar davom etgan mustamlakachilik davri va mustabid sho'ro yillarida boy tariximiz va adabiyotimiz xolisona o'rganilmasdan, aksincha, bunday harakatlar "o'tmishni ideallashtirish", "millatchilik" degan tamg'alar bilan qoralanib, taqiqlab kelingan. 1917 yil Oktyabr "inqilobigacha bo'lgan davr o'zbek adabiyoti xon va beklar uchun yozilgan saroy she'riyatidan va diniy mazmundagi asarlardan iborat", - deb, butunlay inkor ham etilgan edi. Adabiy merosga nisbatan nigilistik munosabatning oqibatlari Yassaviy, Navoiy va Boburlardan boshlab, So'fi Olloyor, shoh va shoir Feruz va Abdulla Qodiriy kabi ulug' siymolarimiz shaxsi va ijodiga nisbatan qilingan johilona munosabat va tahqiqlarda yaqqol ko'rinadi. Navoiy ta'rifi bilan aytganda, Turkiston elining ulug' shayxul mashoyixi" Yassaviy hikmatlari xolis baholanish o'rniga hukmron mafkura tazyiqi tufayli butunlay qoralanib va taqiqlanib kelingan. Masalan, sobiq sovet davridagi hukmron sotsialistik mafkura talabi bilan yaratilgan "Adabiyot tarixi" va "Adabiyot nazariyasi" darsliklarida ham bunday salbiy holatlar aks etgan."Yassaviy "Hikmat"laridagi diniy-mistik g'oyalar, tarkidunyo falsafasi Sulaymon Boqirg'oniy, So'fi Olloyor, Xaziniy tomonidan davom ettirilgan... diniy-mistik adabiyot hamma vaqt va hamma joyda reaksiya rol o'ynagan"-deb keskin qoralangan. {1.78} Bunday adolatsizliklar keyingi davr adabiyoti rivojiga ham to'siq bo'lganini tasavvur etish qiyin emas, albatta. Hatto Alisher Navoiydek buyuk ajdodlarimiz ijodi ham "fisqu fujur adabiyoti" deb e'lon qilinganini bugungi o'quvchilar aqliga sig'dirolmasa kerak. {2.76}

Mumtoz adabiyotimizga nisbatan bunday johilona munosabatlar tariximizning malomatli faktlari sifatida unutmasligi lozim deb o'ylaymiz.. Bunday nohaqlik buyuk shoir va mutafakkir Boburning ulkan ijtimoiy-siyosiy faoliyati va beqiyos ijodiga nisbatan ham

boʻlganligidan yoshlarimiz bexabar boʻlishi mumkin. Mustaqilligimizdan sal oldinroq, yaʼni 1980-yillar oxirida kompartiyaning Bobur shaxsi va ijodiga nisbatan koʻrsatgan tazyiq-taʼsiqlari va natijada zahmatkash adibimiz Pirmqul Qodirovning Boburiylar sulolasiga bagʻishlangan “Avlodlar dovoni” romani nashrdan toʻxtatib qoʻyilgani ham manfur mafkuraning yana bir siyosiy “nayrang” boʻlgani endilikda fosh boʻldi.

Adabiyotshunos olimlarimiz taʼkidlaganidek, hukmron mafkura siyosati oqibatida koʻplab adolatsizliklar roʻy berganini Soʻfi Olloyor shaxsi va merosini ixlos bilan oʻrgangan Togʻay Murodga nisbatan qilingan nohaqlik misolida ham koʻrish mumkin. Oʻsha davrdagi tazyiq va taʼsiqlashlarga qaramay, Togʻay Murod oʻziga xos shijoat bilan hayotiy haqiqatni oʻsha 80-yillarda ham ayta olgan: ”Koʻrasizlar, yaqin qoldi. Odamlar islom maʼ rifatiga qaytadi. Har bir uyda Qurʼon kitobi osigʻliq turadi”. Ana shunday diniy maʼrifat va umuminsoniy gʻoyalarni mlgari surgani uchun adib asarlari qattiq qoralangan va oʻzi ishdan boʻshatilib, jabrlangani endi maʼlum boʻlayapti. {5.186} Aslida esa, Togʻay Murod oʻz asarlarida Soʻfi Olloyorning yorqin shaxsi va uning el-yurtlar orasida katta shuhrat qozongani xususida koʻplab asosli fikr va mulohazalarni bayon etgan va oʻsha ogʻir 80-yillarda oʻquvchilarni bu tarixiy siymo shaxsi va ijodi bilan yaqindan tanishtirishga harakat qilgan. Binobarin, islom dini ahkomlarini xalq orasida keng yoygan va Mashrabdek benazir shoir va allomaga hammaslak boʻlgan Soʻfi Olloyorning tasavvufona tafakkurida va Olloh kalomi boʻlgan muqaddas “Qurʼon”ni beqiyos ulugʻlashida va uning xalqchil asarlarida ham Imom Buxoriy kabi buyuk ajdodlarimizga xos ibratimiz talqinlarni koʻplab uchratamiz. Allomaning turkiy va forsiy tillarda yaratilgan va elaro keng tarqalgan asarlaridagi purmaʼno gʻoya va hikmatlari bugun ham milliy mafkuramizga va maʼnaviyati mizga hamohangligi bilan ham alohida ajralib turadi. {3.8.}

Sobiq shoʻro davrida barcha shoir va yozuvchi ijodi faqat “Oktyabr revolyutsiyasining mevasi deb talqin etilar va adabiyotimizdagi hamma asar lar revolyutsiya gʻoyalari taʼsirida yozilgan” degan biryozlama qarashlar soxta shiorlarga aylangan edi. Endilikda bu nuqtai nazarlar tarixiy haqiqatga butunlay zid ekanligi va ular ijod psixologiyasi va ruhiyat jarayonlariga ham mutlaqo muvofiq kelmaydigan gʻayriilmiy va havoyi, sunʼiy qarashlar ekanligi ayon boʻldi.

20-30-yillari avj olgan beshafqat mafkuraviy xurujlar keyinchalik ham davom etadi. Masalan, Oybekning Ikkinchi jahon urushi va urushdan soʻnggi ogʻir yillarni aks ettiruvchi asari, jumladan, 1947 yili nashr etilgan “Qizlar” poemasi ham xalq hayotini buzib tasvirlaganlikda va asarda bolshevistik partiyaning tashkilotchilik rahbarlik roli toʻgʻri koʻrsatib berilmagan deb ayblanadi va dostonni qayta yozish talab qilingan. Yoki Abdulla Qahhorning “Qoʻshchinar” (1947) romanida haqqoniy tasvirlangan xalq hayoti va milliy hamda diniy urf-odatlar, voqeya va holatlar ham mashʼum tuzum siyosati va mafkurasi tomonidan keskin qoralangan va ularni zararli epizod sifatida asardan chiqarib tashlash talab etilgan. Yaʼni romandagi hayotiy voqeyalar tasviri oʻsha davrdagi partiyaning haybarakallachi mafkurachilari tomonidan sovet tuzumi siyosati uchun zararli va xavfli epizodlar sifatida tanqidiy baholangan va ular adibing “siyosiy xatosi” deb tanqid qilingan ekan. Ana shunday siyosiy ayblovlar roʻkach qilinib, asar “sotsialistik voqyelikni buzib koʻrsatuvchi roman” deb, badnom etilgani va yozuvchini uni qaytadan yozishga majbur qilingani ham adabiyot va tanqidchilik tariximizning hali jamoatchilikka maʼlum boʻlmagan qora sahifalaridan sanaladi.

Ulkan adiblarimiz- Oybek va Qahhor, Shayxzoda va Mirtemirlarning yetuk asarlarining gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari, xalq hayoti, milliy ruhiyati va diniy urf-odatlarini haqqoniy aks ettirganligi ham xolis oʻrganilmagan. Koʻplab yirik asarlar partiyaning siyosiy-mafkuraviy

matbuotida keskin qoralanib, Oybek ham, Abdulla Qahhor ham lenincha bolshevistik partiyaning tashkilotchilik va donolarcha rahnamolik rolini keng miqyosda ko'rsata olmaganlikda va sotsializm g'alabalarini tarannum eta olmaganlikda ayblanganlar. Taassufki, ulug' ijodkorlarimiz hayoti va sog'lig'iga shikast yetkazib, ularning bevaqt o'limiga ham sabab bo'lgan bunday ayanchli fakt va fojeaviy voqealar murakkab va ziddiyatli davrni boshidan kechirgan adabiyotimiz va tariximizda ozmuncha bo'lmagan.

Istiqloлга erishganimizdan so'ng tarixiy haqiqat tiklandi va boshqa sohalarda bo'lganidek, jamiyatimiz ma'naviy hayotida ham tub burilish va ulkan o'zgarishlar boshlandi. Badiiy adabiyoti mizda ham turli shakl va mazmun o'zgarishlari, diniy mavzular va tasvirlar xilma-xilligi namoyon bo'lmoqda. Adabiyot va san'atdagi bu ijobiy o'zgarish va tamoyillar, eng avvalo, badiiy ijodga erkinlik berilishi bilan bog'liq umidbaxsh jarayondir. Keyingi yillar adabiyot-san'atda haq so'zni va haqiqatni aytish huquqi berilib, Qur'on va hadislariga ham e'tibor oshganiga guvoh bo'layapmiz. {3.8}

Mustaqillik yillarida tarixga, tarixiy shaxslar obraziga, hayot haqiqatiga haqqoniy yondashish an'anasi yetakchilik qilyapti. Jamiyat hayotidagi ulkan islohot va evrilishlar badiiy tafakkur saviyasi va mezonlarining yangilanishiga, obrazlar tizimi va talqinlar ida ham jiddiy o'zgarishlar ro'y berishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi va natijada rang-barang badiiy asarlar yaratila boshlandi. Jumladan, Tog'ay Murodning mashhur qissalaridan keyin "Otamdan qolgan dalalar", "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanlarining yuzaga kelishi ham jamiyat hayoti va real voqyelikka asoslangani bilan kitobxonlar e'tiborini jalb etadi. Bu asarlarda mustabid sovet tuzumi davridagi bo'g'iq hayot, xususan, salkam bir asr hukmronlik va zo'ravonlik qilib, insonlar dunyoqarashi va tafakkurini cheklab, adabiyot va san'at rivojiga g'ov bo'lgan mash'um kompartiyaning dahshatli siyosati va uning mudhish oqibatlari haqqoniy aks ettirilgan. Adibning "Kundaliklari"dagi qaydlarida ham xalq va millat qayg'u-alamlari ifodalanishi bilan birga ularda millatparvar ijodkor shaxsning iztirobli o'y-fikrlari va yuksak orzulari ham yorqin aks etgan: "Azaldan bizni o'z milliy kurashimiz bor. Ammo sovet tuzumi rahbariyati, hukumati ana shu milliy kurashimizni taqiqlab boshladi... Keyin ko'pkari taqiqlandi....Hayit degan so'zlar taqiqlandi. Navro'z so'zi taqiqlandi. Janoza so'zi taqiqlandi. Namoz, ro'za taqiqlandi. Ko'ngil qo'zg'oldi. Ko'ngil g'alayon qildi. Men shunday asar yaratmoqchi bo'ldim.. "ko'nglimda borini to'kib solaman". Adib asarlari bilan xalqimizga haykal qo'ydi desak mubolag'a bo'lmaydi. {4.109}

Tog'ay Murodning "Yosh qalamkashlarga tilaklarim" maqolasida haqiqiy ijodkorning adabiyot va xalq oldidagi muqaddas burch-vazifasi haqidagi so'zlari hech bir vatandoshimiz ni loqayd qoldirmaydi. "Birodar, men sizni O'zbekiston davlatingiz yo'lidan borsangiz, deyman. Men sizni o'zbek elidan namuna olsangiz, deyman"-degan so'zlari ulug' adiblarimizning bir vasiyatidek tuyuladi. Ya'ni ular xalqimiz boshidan kechirgan fojialarni unutmaslikka, milliy uyg'onish va tiklanishdan milliy taraqqiyot sari yuksalib borayotgan bugungi yangi O'zbekistonimiz ravnaqi yo'lida buyuk ajdod larimizva fidoiy jadidlarimizday sadoqat bilan xizmat qilishga va mustaqilligimizni yuksak qadrlashga da'vat etadi.{5.184} Millatparvar adiblarimiz hayoti va ijodining barchamizga ibratli saboqlari ham, eng avvalo, mana shunda desak yangishmagan bo'lamiz.

Adabiyotlar:

- 1.Mallaev N.O'zbek adabiyoti tarixi.T.:O'qituvchi.1976.
- 2.I.Sulton.Adabiyot nazariyasi.T.O'qituvchi".1986.

3.Sh.M.Mirziyoev.Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir.“Jahon adabiyoti”.№8.2017;

4.Tog'ay Murod. Tanlangan asarlar. 3-jild. T. Sharq ANMK. 2019.

5.XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. T.O'qituvchi. 1999.

BADIIY TIL SABOQLARI

Sunatulla Soyipov, JDPI dotsenti

Vazira Sultonova, JDPI mustaqil tadqiqotchisi

Har bir xalqning o'zligini namoyon etuvchi milliy va umuminsoniy qadriyatlari bo'ladi. Ana shunday bebaho milliy qadriyatlarimizdan biri- bu, shubhasiz, ona tilimizdir. Adabiyotimizning faxri bo'lgan Cho'lpon asrimiz boshlarida “Adabiyot yashasa- millat yashaydi”,- deb bashorat qilgan edi. Bu hayotiy fikrni bir oz o'zgartirib, “Ona tilimiz yashasa- millatimiz kamol topadi”, deya davom ettirilsa ham, xato bo'lmas. Zero, til- tengsiz bir ne'mat, bebaho ma'naviy va intellektual boylik. Til- millatimizning qalbi, ma'naviyatimiz ko'zgusi. Jahon adabiyoti tarixiga nazar tashlasak, shunday bir haqiqatning guvohi bo'lamiz: ulug' adib va muta fakkirlar hamisha o'z milliy tilining ravnaqi va istiqboli uchun faol kurashib kelganlar. Ayni paytda, ko'plab Sharq va G'arb tillarini ham puxta o'rganib, o'z asarlarida hamda nutq va maqolalarida ulardan oqilona foydalanganlar va shu yo'l orqali ham ona tilimiz va milliy tafakkurimizni boyitishga muvaffaq bo'lganlar. Bu xususda ayniqsa, Alisher Navoiy va Bobur, Fitrat, Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor va Mirtemir, Erkin Vohidov va Abdulla Oripov singari ustoz adiblarimiz ijodi va faoliyati alohida o'rganishga arziydi. Masalan, Navoiy turkiy, ya'ni o'zbek adabiy tilimizning asoschisi va buyuk yalovbardori bo'lish bilan birga, fors va arab tillarini ham puxta bilganligi uning favqulodda nodir iste'dodining yorqin bir qirrasini bo'lgan.(1.26) Ulug' shoir ijodi va butun she'riyati bunga dalil bo'la oladi. Navoiyning barcha she'rlari, mashhur g'azallari, qit'a, ruboiy va tuyuqlarining ham mavzulari rang-barang. Ammo ularning deyarli barchasiga xos bo'lgan yorqin bir fazilat bor. Ya'ni ularning ham ma'nan, ham shakl jihatidan poetik mukammalligidir. Bunday g'oyaviy-badiiy mukammallikka erishishda, eng avvalo, Navoiyning o'zbek tilimizning serjilo va ma'nodorligi kabi o'ziga xos jihatlari va boy imkoniyatlaridan mohirona foydalanganligi ustuvor ahamiyat kasb etganligidir. SHu bilan birga Navoiy she'rlarida hikmat durdonalarini teran ifodalashda tilimizda keng qo'llanadigan fors va arabcha so'z – iboralar ning ham muayyan o'rni borligini inkor etib bo'lmaydi. Fikrimizning dalili sifatida ulug' shoir ijodidan bir-ikki misollar keltiraylik:

Nazmki ma'ni anga marg'ub emas,

Ahli maoniy oldida xub emas...

Yoki: Xub el bila suhbat tutubon, xub o'lg'il,

Yaxshini talab qilg'ilu matlub o'lg'il. Shirin so'z ila xalqqa marg'ub o'lg'il,

Yumshoq de hadisingniyu mahub o'lg'il. (2.36)

Hamisha ma'no va suratning bir-biriga mutanosibligini qadrlagan Navoiyning insonlarni komillikka boshlashdek olijanob maqsadi, ularning go'zal axloqiy fazilatlarini jamiyat va xalq uchun qanchalar zarurligi va ahamiyatli ekanligini ifodalash san'ati ushbu muhtasar she'rida ham yaqqol ko'rinib turibdi. E'tibor berilsa, mazkur ruboiyda ilgari surilgan ezgu g'oya va yuksak insoniy talablar, eng avvalo, kitobxonni hayotga va o'ziga

nisbatan mas'uliyatli bo'lishga o'rgatadi. Odamzod hamisha o'zi va yaqinlarini, ayniqsa, farzandlarining komil inson bo'lishini orzu qiladi.

Bunday yuksak ma'naviyatga erishishning asosiy bir sharti, Navoiy aytganidek, axshi odamlar bilan suhbatlashish, ularning so'z-amali, insoniy fazilatlaridan ibrat-saboq olib, etuk bo'lib borishdir. "Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga, Yomon bilan yursang, qolarsan uyatga", degan xalq maqolida gi hayotiy tajriba va hikmat ushbu satrlar zamiridagi g'oya bilan hamohang. Keyingi misrada ham chuqur hayotiylik va izchil mantiq xalqona tarzda ifodalangan: "Bug'doy noning bo'lmasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin" degan hikmat bejiz aytilmagan. Ya'ni nonday aziz va totli so'z bilan ham elga manzur bo'lish mumkin. So'nggi misrasi ham jiddiy mushohada qilishga undaydi. Ya'ni noxush, sovuq xabarni ham qo'pol, keskin ohangda emas, balki yumshoq, oqilona bir yo'sinda aytish ham fazilat sanaladi.

Bu bilan Navoiy bizga so'zlash odobidagi zarofat va nuktadonlik bobida ham saboq berayotgandek bo'ladi. Zero, "yamon tillik andoq kim, el ko'ngliga jarohat etkurur, o'z boshiga ham ofat etkurur". Keltirilgan nazmiy matnidagi barcha so'zlar ma'nodor va ohangdorligi bilan ularning ta'sirchanligini oshiradi. She'r misralarning qofiyalari arabcha-forscha so'zlar: xub- yaxshi, matlub- talab qilingan, marg'ub-yoqimli, mahbub-sevimli, do'st ma'nolarini anglatadi. Ammo ular o'zbekcha so'z-iboralardek asosiy fikr va tuyg'ularni kuchaytirib, she'rning g'oyaviy mazmunini chuqur ifodalashga xizmat qilgan. Navoiy mazkur ruboiyda ham har bir so'z, hatto tovush-ohangigacha e'tibor berganligini ko'ramiz. Fors va arab tillaridan boxabarlik va bu tillardagi so'zlarning ma'nolarini to'g'ri tushunish nafaqat mumtoz adabiyotimiz, balki hozirgi zamon adiblarining ham asarlari ma'no-mazmunini hamda muallifning g'oyaviy-badiiy maqsadini to'g'ri anglashga ham yordam beradi. Zero, ustoz shoir-mutafakkirlar yakdillik bilan ta'kidlagandek, "Kalidi ganji ma'ni zabondir, Agar bir nuqta ko'p bo'lsa ziyondir". Ya'ni san'at asari mazmunini anglash va uning go'zalligidan bahramand bo'lish uchun ham, eng avvalo, lisoniy bilim, jumladan, Sharq tillarini ham bilish talab etiladi.

Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari matnida arabcha-forscha so'z-iboralar va diniy istilohlar ko'p uchraydi, lekin ularning barchasi o'z o'rnida va mahorat bilan qo'llangan. Chunki Abdulla Qodiriy so'z qo'llashda ham "uzoq andisha" va mulohazakor likka qat'iy amal qilgan. Dalil tariqasida bir-ikkita misolni eslaylik. "O'tkan kunlar"ning oxirgi faslida Kumushning fojeona o'limi bilan bog'liq voqealarni tasvirlashda yozuvchi arabcha "maqtula", "madfun" kabi so'zlarni qo'llaydi. (2.373.) Bu so'zlar bekorga qo'llanmagan. Chunki Kumush o'z ajali bilan emas, balki kundoshi Zaynab tomonidan zaharlanib, qatl etildi. Shu sababdan ham bu so'zlarning tanlanishi har jihatdan maqbul bo'lgan. Mashhur adibimiz Abdulla Qahhor asarlarida ham fors-tojikcha so'z-iboralarning mohirona qo'llanganini ko'plab uchratamiz. Chunonchi, yozuvchining "To'yda aza" hikoyasiga "Zo'ri behuda miyon meshikanad" ("Behuda chiranish belni sindiradi") degan maqol epigraf qilib olingan. (4.178) Darhaqiqat, hikoya qahramoni keksa domlaning yosh bir tannozga uylanib, o'zini zo'r berib yosh ko'rsatishga behuda urinishiyu nomunosib qiliqlari alal-oqibat uning ham ma'nan, ham jisman o'limiga sabab bo'lganligini chuqurroq tushunishimizda anashu maqol o'ziga xos bir kalit vazifasini o'taydi. (U.Qosimov).

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida ham bu ibora ("O'rinsiz chiranish belni sindirar") Yusufbek hoji tomonidan O'zbek oyimning behuda urinishlariga nisbatan aytilgani ham bejiz emas. (3.301) Ko'rinadiki, arabcha va forscha so'z-iboralar xalqimizning tarixiy o'tmishidan guvohlik berishi bilan birga ularning azaliy turmush tarzi, tili va dini, madaniyati

va ruhiyatidagi o‘zaro yaqinlik va mushtaraklikni ifodalashi bilan ham ahamiyatli. Xulosa o‘rnida Abdulla Qahhorning quyidagi fikrlarini keltirish adabiyotda badiiy tilning nechog‘lik muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi: “Adabiyot- bu til! Men shu vaqtga qadar biror yozuvchining tilsiz, imo- ishoralar bilan badiiy asar yaratganini eshitganim yo‘q. Agar mendan “Siz uchun til badiiy ijodning boshqa muammolari orasida qanday o‘rin tutadi?”- deb so‘rashsa, javob berishga qiynalaman. “Asosiy o‘rinni”, - deyishdan boshqa so‘zim yo‘q”. Bu so‘zlarda yozuvchi hamisha qat‘iy amal qilgan muqaddas e‘tiqodi mujassam. Bu so‘zlar yosh ijodkorlarni o‘zlariga talabchanlikni oshirishga va badiiy til sirlarini egallash yo‘lida doimiy izlanishga undovchi ezgu vasiyatdir. Zero, O‘zbekiston Qahramoni, taniqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov ta’kidlaganidek, Abdulla Qodiriy va Abdudoda Qahhor adabiyotimiz osmonidagi eng yorqin yulduzlardan edi va ularning yorug‘ shu‘lasi bugun ham tevarakatofga nur taratib turibdi, desak, bu aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Darhaqiqat, Qodiriy va Qahhorlar yashab, ijod qilgan davrdan tobora uzoqlashib boryapmiz. Ammo o‘tayotgan yillar bu ulug‘ adiblarimizning mumtoz asarlariga nisbatan qiziqishning susayishiga emas, balki, aksincha, yanada oshishiga sabab bo‘lyapti. Har bir yangi avlod ular shaxsi va ijodining buyukligini o‘zlarining saviyasi darajasida kashf etmoqda.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. Toshkent. 2014.
2. Alisher Navoiy. Hikmatlar. Toshkent. 1986.
3. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. Mehrobdan chayon. T.1994.
4. Abdulla Qahhor. Asarlar. Olti tomlik. 1, 6-tt. T.1967-1971.
5. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. T.2004.
6. Qosimov U. Adabiyotning hayotbaxsh kuuchi. T.2008.

KORPUS LINGVISTIKASI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

**Eshqulova Nilufar JDPI magistranti,
Ilmiy rahbar: f.f.d. (PhD) O.Xidirov**

Korpus va korpus lingvistikasi XX asrning 60-yillarida paydo bo‘ldi. Korpus atamasi ko‘p ma’noli bo‘lib, tilshunoslikda turli ob’ektlarni atab keladi. Umuman olganda, korpus – ma’lum tilga oid materiallar yig‘indisi: u to‘liq matn yoki uning katta fragmentini qamrab oladi. K.Baush korpus atamasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Korpus faqat (yozma yoki og‘zaki) matnlar yoki ularning qismlaridan iborat cheklangan miqdordagi til materialidir”[1]. Tuscan Word Centre xodimi Djon Sinkleyrning ta’kidlashicha, korpus til yoki lingvistik xilma-xillikni tadqiq etish, ma’lumot manbai sifatida namoyish etish uchun ko‘rinadigan mezonlarga muvofiq tanlangan elektron ko‘rinishdagi matnlar fragmentidan iborat.

Korpus lingvistikasi jahon kompyuter lingvistikasining juda tez rivojlanib ketayotgan sohasi bo‘lib, bu borada ancha yutuqlarga erishilgan. Dunyo oliy ta’lim muassasalarida korpus lingvistikasi fan sifatida ham o‘qitiladi. Bu sohaning predmeti korpus yaratish nazariyasi va amaliyoti bo‘lsa, fan sifatida korpusning o‘ziga xosligi, dasturlash asoslari kabi jihatlari o‘qitiladi. Korpus lingvistikasi kompyuter lingvistikasining tarkibiy qismi, til korpusini yaratish, kompyuter texnologiyasi yordamida ulardan foydalanishning umumiy

nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanadi. Korpus lingvistikasining predmeti—til korpusi. U ingliz tilida linguistic corpus yoki text corpus kabi atamalar bilan qo'llanilib, ilmiy adabiyotlarda turlicha ta'riflangan. "Korpus – ma'lum maqsadda yig'ilgan matnlar majmuini tashkil etuvchi til birliklarining yig'indisi", "korpus – alohida tilning yozib olingan og'zaki hamda yozma matnlari asosidagi lingvistik ma'lumotlar majmui", "korpus – istalgan tabiiy (real) tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma yoki og'zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga joylashtirilgan matnlar yig'indisi" kabi. Demak, til korpusi ma'lum tilning belgilangan davrdagi, xilma-xil janr, rang-barang uslub, hududiy hamda ijtimoiy variantdagi matnlarining elektron shakldagi maxsus dasturiy ta'minot asosidagi yig'indisidir. Til korpusi bugungi kunda jahonda tez taraqqiy etayotgan soha – korpus lingvistikasi mutaxassislari tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borish, til o'rgatish maqsadida yaratilmoqda. Jahon tillarining juda ko'pchiligi mukammallik darajasi, matni (ilmiy) qayta ishlash imkoniyati bilan farq qiluvchi o'z milliy korpuslariga ega. Zero, "bugungi kunda lingvistik tadqiqot va amaliy topshiriqlar echimi uchun til korpuslari zamonaviy tilshunoslikning inkor etib bo'lmaz ish quroliga aylandi, chunki korpus turli lingvistik topshiriqlarni echishga xizmat qiladi"

Korpusda tilni keng, to'liq, ob'ektiv ko'rsatish imkoniyati bor, shu tufayli u har qanday axborot bankidan afzalligi bilan ajralib turadi.. Korpus turli xildagi tadqiqot uchun asos, manba, vosita vazifasini o'tay olganligi uchun ham dunyoda juda ko'p sohalar korpusga tayanib ish ko'radi. Ta'kidlash joizki, til korpuslari, eng avvalo, tilshunos uchun kerak. Zero, korpusiz bugungi kunning nazariy hamda amaliy filologiyasini tasavvur etish qiyin. Tilshunoslikka oid tadqiqotlar hamisha dalillar asosida ish ko'rishni, muayyan tadqiq mavzusi doirasida faktlar yig'ishni, to'plangan materiallarni sistemaga solishni taqozo etadi. Bunday katta hajmli ishni bajarishda korpus tilshunosning vaqtini, mehnatini tejaydigan bebaho ish qurolidir. Aslida, korpus texnik jarayonni tezlashtiruvchi vosita bo'libgina qolmay, ma'lum til zamonaviy shaklining axborot tizimi, kutilmagan savollarga ham javob bera oladigan, tilshunoslik oldiga avval qo'yilmagan dolzarb muammoni qo'ya oladigan tizimdir.

Korpus asosida ish ko'radigan eng birinchi soha leksikografiya, u katta hajmli lug'atlarni tuzish uchun asosiy, betakror manba hisoblanadi. Yaratilayotgan barcha zamonaviy, so'nggi lug'atlar korpusga asoslangan, ular misollarining haqiqiyliги, ishonarliligi bilan baholanadi. Chunki korpusda til jamiyatda qanday yashasa, shunday aks etadi, natijada, lug'atdagi misol ishonarli, asosli bo'ladi. Chunki korpus leksikografiya sohasi uchun boy manba hisoblanib, ular asosida kompyuter yordamida lug'atlar avvalgiga nisbatan tezlik bilan tuziladi, qayta ishlanadi. Korpus yaratilishi, taraqqiy etishi, til korpuslari asri kirib kelishi bilan lug'atshunoslarda so'zlarning qo'llanilish holatlariga doir juda katta matnlar to'plami bilan ishlash imkoniyati paydo bo'ldi.

Rus, Evropa tilshunosligida til bo'yicha qilinadigan barcha tadqiqotlarning til korpusiga asoslanishi odatiy holga aylangan, hatto ba'zi tadqiqotlarda majburiy ham sanaladi. Rus tilshunoslari bu sohada AQSH, Evropa, Yaponiyadan orqada qolganligini afsus bilan tan olishadi, vaholanki, rus korpus lingvistikasi ancha taraqqiyot yo'lini bosib o'tib, bu borada rivojlangan mamlakatlarga tenglashyapti. Mutaxassislarning fikricha, yaqin orada til o'rganayotgan o'quvchi yoki tilning biror jihatini tadqiq etayotgan tadqiqotchi, izlanuvchining lug'atga bo'lgan ehtiyoji korpusga ko'chishi shubhasiz.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Maxmutova M.K. Проблемы аннотирования (tagirovaniya) tekstov v korpusnoy lingvistike // Выпускная квалификационная работа YUUrGU. – Chelyabinsk, 2018. – 94 s.

2. [Xianyao Hu, Richard Xiao](https://www.researchgate.net/publication/294138492_How_do_English_translations_differ_from_non-translated_English_writings_A_multi-feature_statistical_model_for_linguistic_variation_analysis). How do English translations differ from non-translated English writings? A multi-feature statistical model for linguistic variation analysis // https://www.researchgate.net/publication/294138492_How_do_English_translations_differ_from_non-translated_English_writings_A_multi-feature_statistical_model_for_linguistic_variation_analysis/references

3. Baranov, A. N. Vvedenie v prikladnuyu lingvistiku [Tekst]: uchebnoe posobie / A.N. Baranov. – M.: Izd-vo Editorial URSS, 2001. – 347 s.

“OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ASARIDA SOMATIZMLAR ISHTIROK ETGAN FRAZEMALAR VA ULARNING TAHLILI

Abdullayeva Maftuna, JDPI magistranti

Yozuvchi Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asari o‘zbek adabiyotida yorqin iz qoldirgan asarlar sirasiga kiradi. Asar tili ham boy jozibali puxta va mazmundor. Mazkur asarda jonli xalq tili boyliklaridan foydalanilgan. Asardagi har bir qahramonga qahhorona nom berish bilan birgalikda, har birini o‘ziga yarasha nutq bilan ta‘minlaydi. Asarda frazeologik birliklar bo‘lgan iboralar, xalq maqollari va hikmatli so‘zlardan unumli foydalanilgan. Ular orqali qisqa, lo‘nda, mazmundor, go‘zal jumlar yaratilgan.

Ma‘lumki, til fanining iboralarni o‘rganadigan bo‘limi frazeologiya deb ataladi. Iboralar lingvistik terminologiya tili bilan aytsak, frazeologizmlardir. Frazeologizm qadimgi grek tilidan olingan bo‘lib, (gr. phrasis-ifoda, logos-tushuncha, ta‘limot) demakdir. Bu atama ikki ma‘noda ishlatiladi. 1) til frazeologik tarkibini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi; 2) shu tilning frazeologizm majmui. [1;128-129] Frazeologiya nazariyasiga dastlab fransuz olimi SH. Balli asos solgan. Ferdinand de Sossyur o‘z davrida frazeologizmlarni tildagi tayyor birliklari sifatida qayd etgan edi. [2;157]

Frazeologizm atamasining turli adabiyotlarda bir necha variantlarini ko‘rishimiz mumkin. Masalan: **ibora, frazeologik birlik, barqaror birikma, turg‘un birikma, frazeologik birikma** kabilar shular jumlasidandir. Ibora tuzilishiga ko‘ra so‘z birikmasiga o‘xshab ketsa ham nutq birligi sanalgan bunday birliklardan tamoman farq qiladi. U so‘z birikmasi kabi har gal nutqning o‘zidagina yuzaga kelmaydi. Til birligi sifatida nutqqacha tayyor holda mavjud bo‘ladi. Shunga ko‘ra iboralarni tilshunoslikda turg‘un so‘z birikmasi deb ham yuritiladi. So‘z birikmasining tarkibidagi so‘zlar o‘z leksik ma‘no mustaqilligini saqlagan bo‘ladi. Iboraning tarkibidagi so‘zlar esa o‘z leksik ma‘nosi bilan qatnashmaydi, ma‘nosini yo‘qotgan bo‘ladi. Iboralar ham so‘zlar kabi ifoda va ma‘no butunligiga ega. So‘zning ifodaviy tomonini tovushlar tashkil etsa, iboraning ifoda tomonini esa so‘zlar tashkil etadi.

Kishi tana a‘zolari nomlari va ularning faoliyatini ifodalovchi so‘zlar ishtirokidagi frazemalar ilmiy adabiyotlarda somatik frazemalar deb yuritiladi. Bunday frazemalar sirasiga bag‘ir, bet, bosh, bo‘y, et, ensa, ich, jasad, jon, kalla, ko‘z, ko‘ngil, musht, orqa, oyoq, o‘pka, o‘taka, og‘iz, qorin, qad, qadam, qosh, quloq, qo‘l, soch, ta‘b, tirnoq, teri, til, tiz, tomoq, uchcha, yelka, yuz kabilarni kiritish mumkin.

Aynan somatik frazeologiyada har bir xalqning ko‘p asrlik tajribasi, turmush tarzi, madaniyati, ma‘naviyati, urf-odatlar va an‘analari o‘z aksini topgan bo‘ladi.

Jahon tilshunosligida somatik frazeologizmlar doirasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Somatik frazeologizmlarning ilk tadqiqotchilaridan biri F.Bakk sanaladi. U butun somatik frazeologizmlarni uch guruhga: faqat odamlarni tasvirlaydigan, odamlar va hayvonlarni tasvirlaydigan, faqat hayvonlarni tasvirlaydigan iboralarga ajratdi.[3;2]

T.Murodning “ Otamdan qolgan dalalar” asarida ham bir qancha somatik frazemalar uchraydi. Xususan , **bosh** soʻzi bilan bogʻliq iboralarga toʻxtalsak. Asarda **boshi oqqan, bosh olib, boshi aylanmoq, bosh koʻtarmoq** kabi frazemalar qoʻllangan.

Boshi oqqan- *oʻzining* roʻpara kelgan, oʻylab koʻrilmagan tomon. Variant: bosh oqqan bosh(i) qayoqqa ogʻsa oʻsha (“tomon”) [4;52]

— Endi men nima qilayin?

— Qoch.

— Bola-chaqamni tashlab qayoqqa qochaman?

— **Boshing oqqan tarafga qoch.**

— Anavilar koʻz uzmaydi, qanday qilib qochamane. [5;13]

Yuqorida Jamoliddin ketmonning Fargʻona vodiysidan Surxon vohasiga ketish sabablari koʻrsatilgan dialogdan parcha keltiriladi. Koʻrib turganimizdek ibora izohi va undan foydalanilganda yuzaga kelgan maʼno dearli bir xil.

bosh olib- *oʻzining* butunlay tashlab, qaytmas boʻlib. .(OʻTFL, 51-bet).

Ayolimiz daladan bosh olib ketayin, dedi — ketolmadi (OQD,112-b)

Ushbu frazema Dehqonqulning fojeaviy ravishda vafot etgan ayoli haqida. Farzand tarbiyasi, turmush tashvishlari , hayot qiyinchiliklari yetmaganidek davomiy dala mashaqqatidan bosh olib ketolmagan oʻzbek ayoli obrazi. Ayol bu qiyinchiliklarga dosh berolmaydi va oʻziga oʻt qoʻyadi. Bu davrda ayollarning oʻzlariga oʻt qoʻyish holati juda koʻp boʻlganligi asarda ham taʼkidlanadi. Ammo bu holat “davr kattalari” tomonidan “ruhiy xastalik” deb eʼlon qilinadi.

boshi aylanmoq-kimning 1. Bexud boʻlmoq, muvozanatni yoʻqotmoq (organizmning kasallangan holati , bunda goʻyo atrofdagi hamma narsa aylanib ketayotgandek tuyuladi.) Varianti : **boshi aylandi(-); boshni aylantirmoq** nima.

2. *nimadan*. Esankiramoq .(OʻTFL, 45-bet).

Men quloch yoyib-yoyib sel balogardon boʻldim...Boshim aylandi. Koʻnglim ozdi. Koʻzim tindi... (OQD,54-b)

Yuqoridagi gapda birdaniga uchta ibora qoʻllanilgan. Bu iboralar maʼno jihatidan ham bajarilish ketma –ketligi jihatidan ham bir birini toʻldirib boradi. Bu esa uslubiy jihatdan maʼnoni yaʼnada kuchaytiradi. Seldan gʻoʻzalarni saqlab qolishga harakat qilgan Dehqonqul kechasi bilan sovuq suvda qolib ketadi va boshi aylanib,koʻngli ozadi,koʻzi tinib ,hushini yoʻqotadi.

bosh koʻtarmoq- I kim 1 qaramoq , 2 qilib turgan ishini toʻxtatmoq, 3 nima .

qoʻzgʻalmoq harakatga kelmoq, 4. Kimga qarshi. Kurashga chogʻlanmoq.

bosh koʻtarmoq II- nima . Unib chiqmoq .

bosh koʻtarmoq III- Yostiqdand bosh koʻtarmoq .(OʻTFL, 54-bet)

Koʻrib turganimizdek **bosh koʻtarmoq** frazemasini omonimlik va koʻp maʼnolilik xususiyatiga ega. Ammo bu frazema maʼnolarining hammasida “bosh” leksemasi bilan bogʻliqlikni koʻramiz.

Dixlorfenidim degich kulrang gerbitsid koʻp pallali begona oʻtini oʻn-oʻn besh kun yer ostida bosh koʻtartirmay turdi . (OQD 48-b)

Asarda bosh koʻtarmoq iborasining unib chiqmoq maʼnosi qoʻllanilgan.

O‘simlikning unib chiqishiga e‘tibor qaratsak, u ham boshini yuqoriga harakatlantirganga o‘xshaydi. Bu esa “yostiqdan bosh ko‘tarish” va “kimgadir qarash” ma‘nolariga o‘xshab ketadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, ba‘zi omonim frazemalar semalari o‘rtasida ham ma‘no yaqinligi bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari asarda ko‘ngil, bag‘ir, bet, ko‘z, oyoq komponentli frazemalar ham uchraydi. “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”da **“beti chidaydi-beti chidamaydi”** iboralari keltirilgan. Romanda aynan shu iboralarning varianti qo‘llangan bo‘lib, ular uyalish, nomus qilish, andisha qilmoq ma‘nolarini anglatadi. **“Men chaqiribsizlar deya, ichkari kirib ketaberayin dedim – betim bo‘lmadi”** (OQD, 117-bet).

So‘zlashuv nutqiga hos iboraning bu varianti xalq tiliga yaqin bo‘lib, dearli barcha sheva vakillari uchun tushunarlidir.

Xalqimizda **“ko‘zi to‘ymaydi”** iborasi mavjud. U har qancha nazar solsa ham qoniqmaslik, har qancha mol-mulkka ega bo‘lsa ham, yetarli deb bilmaslik ma‘nolarini anglatadi. (O‘TFL, 142-bet). T.Murod esa bu iborani inkor ma‘noda emas, bo‘lishli, tasdiq ma‘noda ishlatadi: **“Bozorni yaxshi ko‘raman! Noz-me‘matlardan ko‘zim to‘yadi. Shirin-shakarlardan ko‘nglim to‘yadi. Bozorda yeganim oldimda bo‘ladi, yemaganim ketimda bo‘ladi!”** (OQD, 195-bet).

Mazkur parchaga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak muallif **“yaxshi ko‘rmoq”, “ko‘zi to‘ymoq”, “ko‘ngli to‘ymoq”, “yegani oldida, yemagani ketida”** kabi to‘rtta frazema qo‘llagan. Frazema ma‘nolari bir birini to‘ldirishga hizmat qiladi. Ushbu frazemalar asarda tasvirlangan Surxon bozorining to‘kin-sochinligi, meva-chevalarning mo‘lligi, achchiq-chuchuk ziravorlarning ko‘pligidan dalolat beradi. Ammo asarni o‘qish jarayonida frazemalarning pragmatik ma‘nolari ham seziladi. Xususan, hamma narsasi muhayyo bozor bor, ammo undagi noz ne‘matlarni sotib olishga tinimsiz mehnat qiluvchi dehqonning mablag‘i yo‘q. Buni asrdan olingan quyidagi parchadan ham sezish mumkin.

Dardmand Qulmatimiz ingilladi: — Ota, pomidor bering! — dedi. Men hayronlandim — to‘rxaltada pomidor yo‘q bo‘ldi. — Pomidor? Qani pomidor? — dedim. Qulmatimiz qo‘li bilan xurmoni ko‘rsatdi. E, tavba-e, o‘g‘limiz xurmoni tanimadi! E, tavbangdan-e, o‘g‘limiz xurmoni taniyolmadi! Men palag‘daroq bir xurmo olib berdim. — Ma, bu pomidor emas, — dedim. — Bu xurmo, ha, xurmo! (OQD 121-B)

Ko‘rib turganimizdek Dehqonqulning farzandi yoshi ancha katta bo‘lsada hanuz xurmo yemagan. Mevaning xurmo ekanliginida bilmaydi.

Asarda “oyoq ildi” frazemasini ham juda ko‘p qo‘llanilgan. Lug‘atda bu frazema izohi uchramaydi. Shunga ko‘ra bu ibora shevaga hos bo‘lishi mumkin. Ushbu frazema asarda turli ma‘nolarda kelgan. Xususan, to‘xtab o‘tmoq ma‘nosida: **“El-yurt Aqrab shahid poyidan o‘ta-o‘ta bir oyoq ilib oladi”**. (OQD, 47-bet)

Bu frazema shaxslardan tashqari narsa, predmet, hayvonlarga ham ishlatilgan. Quyidagi misolda esa uning “yurmoq” “harakatga kelmoq” ma‘nosini ma‘nosini ko‘rishimiz mumkin.) *Yo‘lda bolalar qo‘shiq aytadi. Kim qandaychikin qo‘shiq biladi – ana shu qo‘shiqni aytadi. Shunda, mashina yo‘l chetlab oyoq iladi. Direktorimiz kabinadan tashqarilaydi. Kabina pillapoyasida tikka bo‘ladi. — O‘rtoqlar, o‘lan-laparlar aytmanqlar! — deydi. — Partiya-sovet qo‘shiqlaridan aytinglar! Mashina ko‘prik ostida oyoq ildi.* (OQD, 224-bet)

Sabr qilmoq, kutib turmoq ma‘nosida: : **— Barcha uy-uyiga, kapa-kuyiga! — deya majlis tarqatdi raisimiz. — Dehqonqul aka, siz bir maydon oyoq iling.** (OQD, 122-bet)

Xulosa qilib aytganda, “Otamdan qolgan dalalar” asarida frazemalardan unumli foydalanilgan. Ularning salmoqli qismini somatik frazemalar tashkil qiladi. Ushbu frazemalar

o‘zbek xalqining urf-odatlarini, an‘analari va kundalik turmushidagi mushtarak tomonlarini ochib berishda katta ahamiyat kasb etadi. Asarda qo‘llanilgan har bir frazema asar mazmuni bilan bir butunlikni tashkil qiladi. Bunda bevosita yozuvchi mahoratiga tan bermasdan ilojimiz yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. R.Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.- T.: Fan va texnologiya 2009.128-129 b
2. Сосюр де Труды по языкознанию.-М.: Прогресс, 1977.-С.157
3. f.f.n. Shabanov Jumali ToshDSHI “Turkiy tillar” kafedrasini dotsenti Shabanova Sadaf Djumaliyevna ToshDSHI magistranti SOMATIZMLAR ISHTIROK ETGAN IBORALARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA O‘RGANISH MASALALARI.MAQOLA 2-b
4. Sh. Rahmatullayev .O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati.-T.: “O‘qituvchi” 1978 52-b
5. Т.Мурод. Отамдан қолган далалар. – Тошкент: 1994, 13-bet. Bundan keyingi misollarning romandan olingan sahifasini ko‘rsatish bilan chegaralanamiz

QO‘SHMA GAPLARNING TILSHUNOSLIKDA O‘RGANILISHI

Asrorova Mo‘mina, JDPI magistri

Sintaksis grammatikaning tarkibiy qismi bo‘lib, sintaktik qurilmalarning semantik-struktur xususiyatlarini o‘rganadi. Sintaksis (grek tilida sintaksis — birlashtirish, tuzilish) til tizimining bir sathi hisoblanib, so‘z shakllaridan iborat bo‘ladi⁶¹. Rus olimi V.V.Vinogradov sintaksis so‘zning so‘z birikmasi va gap tarkibidagi birikish qoidalarni va usullarni hamda so‘z birikmalarini, ularning tuzilishini, funksiyasi, rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan deb ataydi. “Sintaksisning xarakterli xususiyati shundaki, uning har bir o‘rganish ob‘yekti o‘zidan yuqoriroq bo‘lgan grammatik birlikning struktur elementi sifatida funktsiyalashadi: so‘z va uning shakllari so‘z va gapning, so‘z birikmasi turli yoyiq gaplarning, gap doirasida esa, o‘z navbatida, sodda gap qo‘shma gapning struktur elementi sifatida xizmat qiladi”⁶². Sintaksisning so‘z birikmasi, gap haqidagi ta‘limot. Gap grammatikaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda gapning semantik, sintaktik xususiyatlari tishunoslikning turli yo‘nalishlarida o‘rganilmoqda, jumladan, kontrastiv tilshunoslik, areal tilshunoslik, qiyosiy tipologiya, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya va pragmatik tilshunoslik.

O‘zbek tilshunosligida sodda gap sintaksisining takomillashuvida B. O‘rinboyevning «Hozirgi o‘zbek tilida vokativ kategoriya», N. Mahmudovning «O‘zbek tilidagi sodda gaplarda mazmun va shakl assimetriyasi» monografiyalari ahamiyatli bo‘lsa, qo‘shma gaplarga oid ilk asar 1941- yilda H.G‘oziyev tomonidan yaratildi. Olimning «Hozirgi zamon o‘zbek tilida ergash gaplarning sostavi» nomli asarida qo‘shma gaplarning tuzilishi haqida

⁶¹ Nurmonov A. Tanlangan asarlar. — Toshkent «Akademnashr», 2012. — B.288

⁶² Виноградов В. В. Основные вопросы синтаксиса предложения (на материале русского языка) //Исследования по русской грамматике. — М. 1975– С.154.

ma'lumot berildi. O'zbek tili qo'shma gap sintaksisi shakllanishida akademik G.Abdurahmonov va M.Askarovlarning xizmati kattadir. O'zbek tili qo'shma gaplarning tadqiqiga bag'ishlangan «Hozirgi zamon o'zbek tilida ergashgan qo'shma gaplarning sostavi» asari bilan o'zbek tilida qo'shma gaplar alohida tadqiq qilindi. 1955-yilda F. Kamol «Qo'shma gaplarga doir masalalar» kitobini nashr etdi va unda qo'shma gaplarning maqomi, ularning tasnifi haqida dastlabki ma'lumot berdi⁶³.

O'zbek tilida G.Abdurahmonovning qo'shma gaplar tadqiqiga bag'ishlangan ishlari salmoqlidir. G.Abdurahmonov qo'shma gaplarning 15 turini izohlaydi. Jumladan, olim qo'shma gaplarni mazmun jihatdan quyidagi guruhlarga bo'lib chiqadi: aniqlovchi, ega, kesim, payt, o'rin, sabab, shart, maqsad, to'siqsiz, natija, ravish, qiyoslash ergash gapli qo'shma gaplar. O'z navbatida, qiyoslash ergash gapli qo'shma gaplar uchga bo'linadi: chog'ishtirish, o'xshatish, miqdor-daraja ergash gapli qo'shma gaplar⁶⁴. G. Abdurahmonov bog'lovchisiz qo'shma gaplar va komponentlarning biriktiruvchi bog'lovchilar, bog'lovchisiz qo'shma gaplar va ularning komponentlarining sabab, natija, shart kabi mazmun munosabatlari, murakkab qo'shma gaplar va uning turlari bo'yicha masalalarni atroflicha talqin etdi. Olim uyushiq kesimli gaplar haqida shunday ta'rif beradi: «Sodda va qo'shma gaplarni farqlashda qiyinchilik tug'diradigan holat shundan iboratki, ba'zi bir sintaktik konstruktsiyalarning tarkibida faqat bir ega — sub'yekt bo'lishiga qaramay, qo'shma gap sanaladi, chunki bu xil konstruktsiyani tashkil etgan qismlarning ham grammatik, ham semantik jihatdan o'ziga mustaqil ekanligi ko'rinib turadi; bu xil konstruktsiyani tashkil etgan qismlarning har biri ma'lum fikr tugalligini ifodalaydi, ularning predikativlik va modallik xususiyatlari bo'ladi»⁶⁵.

Olima M.Asqarova qo'shma gaplarni bog'langan, ergashgan, bog'lovchisiz kabi turlarga ajratadi. G. Abdurahmonov tomonidan tavsiya berilgan qo'shma gaplarning turlarini qiyoslab va chog'ishtirib o'rgandi.

Shuningek, A.Berdaliyev qo'shma gaplar sintaksisi sohasiga tizimli tilshunoslikning o'xshashlik (paradigmatika), sintaktik ziddiyatlar (oppozitsiya) kabi tushunchalarni olib kirdi⁶⁶. Lekin A.Berdaliyevning ishida qo'shma gaplarning ajratilish va tasniflash masalalari qo'yilmagan. Mazkur masala G. Abdurahmonov, M.Asqarova va N.Turniyozovlarning ishlarida ko'rinadi. A.Nurmonov o'z ishlarida qo'shma gaplarni mazmun jihatdan o'rganib, gaplarning semantik tizimidagi propozitsiya aspekti, predikativ qurilmalar va kommunikativ aspekti kabi masalalarga o'z e'tiborini qaratdi. R. Sayfullayeva o'z tadqiqotlarida qo'shma gaplarni substantsial jihatdan talqin etgan.

Professor G.Hoshimov qo'shma gaplarni hajm jihatdan tadqiq qilish alohida ahamiyatga egaligini aytadi. Olim qo'shma gaplarni quyidagi turlarga bo'ladi: politaksema o'z navbatida kollotaksema (collotaxeme), parataksema (parataxeme), gipotaksema (hypotaxeme), gipertaksema (hypertaxeme), supertaksema (supertaxeme), ultrotaksema (ultrataxeme), arxitaksema (architaxeme), sinkrotaksema (syncrotaxeme)⁶⁷.

⁶³ Nurmonov A. Tanlangan asarlar. — Toshkent «Akademnashr», II jild, 2012. — B.422

⁶⁴ Абдурахмонов Ф. Қўшма гаплар классификацияси // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. — 1980. № 4.

⁶⁵ Абдурахмонов Ф. Қўшма гаплар классификацияси // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. — 1980. № 4

⁶⁶ Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma gaplarning substantsional (zotiy) talqini. — Toshkent. «Fan», 2007. — B.19.

⁶⁷ Hoshimov. G. M. Типология сложных предложений разносистемных языков. — Т. «Фан», 1991-С.105

Qo‘shma gaplarning tadqiqi ustida ko‘plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Ammo ayrim masalalarga yechim topish zarurati bor. Ayniqsa, qo‘shma gaplarning semantik qurilishi, pragmatik xususiyatlarini chuqur o‘rganish, ularning nutqdagi ahamiyatini ochib berish muhimdir.

ETNONIM VA ETNOTOPONIMLAR TARIXIGA BIR NAZAR

Abdug‘aniyev Ma‘rufjon JDPI magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.d(PhD) dots. F.Jumayeva

Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida vujudga kelgan **qabila, elat, xalq, millat** kabilar etnik birlashmalar, ya‘ni etnoslardir. Xalqlarning kelib chiqish tarixini (etnogenezi) va shakllanish jarayonini o‘rganishda ijtimoiy fanda “etnos”, “entik birlik” iboralari qo‘llaniladi. Etnos atamasi juda keng va tor ma‘noda ishlatiladi. Kishilik jamiyatining kichik qatlamlariga nisbatan ham “xalq” so‘zi ishlatiladi. M., Amerika xalqi, Rossiya xalqi, O‘zbekiston xalqi va boshqalar. Shuning uchun ham ma‘lum bir ijtimoiy tuzumda vujudga kelgan etnik uyushmaga “etnik birlik” “rus tilida “etnicheskiy obshonosti” so‘zi ishlatiladi. Etnik birlik “xalq” atamasiga nisbatan ma‘no jihatidan farqlanadi.

Etnik birlik aniq sharoitda, tabiiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida vujudga kelgan ijtimoiy uyushmadir. Etnik birliklar bir davlat tarkibida yoki turli davlatlarda vujudga kelishi mumkin. M., o‘zbek xalqi boshqa mamlakatlarda ham uchraydi. Afg‘oniston, Tojikiston, Qirg‘iziston kabi ko‘plab davlatlarda o‘zbek xalqi istiqomat qiladi. Fanda entik birliklar guruhi uch turga ajratib o‘rganiladi:

- a) *qabila*;
- b) *elat*;
- d) *millat*.

Ma‘lumki, insonlar muayyan ijtimoiy mohiyatga ko‘ra taraqqiy etib, ko‘plab guruhlariga, to‘plarga ajralib yashaydi. Kishilar *urug‘, qabila, elat, xalq, millat* kabi ijtimoiy guruhlariga ajralib, jamiyatda yashaydi, faoliyat yuritadi.

Ma‘lumki, *barlos, nayman, saroy, qo‘ng‘irot* kabi o‘zbek urug‘ va qabilalari, *to‘p, shox, avlod, qavm* kabilariga tarmoqlanadi. *To‘p, to‘par, shox, ticha jamoa, toifa avlod, qavm, urug‘, qabila, elat, xalq, millat* nomlari **etnonim** (yunoncha *etnos* – “xalq” va *onim* – “nom”)lar deyiladi. Etnonimlar majmui **etnonimiya, etnonimika** deyiladi.⁶⁸ T.Enazarov etnonimlar haqida fikr yuritib, “Etnonimlar izohi haqida ta‘rifni sal mukammallashtirish tarafdorimiz – etnonimlar bu **qabila, urug‘, aymoq, el, elat va xalq(lar)** nomi hisoblanadi desak, tadqiqotchilarning nazaridan qolib borayotgan el, elat, aymoq terminlarini ham e‘tiborga olgan bo‘lamiz. Bu terminlarning har biri o‘ziga xos ma‘nolarga ega”, – deb yozadi. Bunday bo‘linish bir tomondan ahillikka xizmat qilgan bo‘lsa, bir tomondan qabilalar orasidagi nizolarga, o‘zaro janjallarga sabab ham bo‘lgan. Bu jarayon natijasida, ba‘zi kichik qabilalar yo‘qolib ketgan. Ularning ichida katta obro‘ga ega, tarkiban ko‘p sonli bo‘lgan qabilalar hozirga qadar saqlanib qolgan. Bunga yuz, qirq, saroy, kenagas, barlos kabi urig‘larni misol qilib keltirishimiz mumkin. Qavm, shox, tira kabi atamalar qadimdan

⁶⁸ Oxunov N. Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari – Toshkent: Fan, 1989. – 37-bet.

xalqimiz orasida ko'p qo'llanilgan. Ketma-ket almashib kelgan bu atamalar turli davrlarda vujudga kelgan; ular o'z davrlariga xos xususiyatlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar.⁶⁹

Qavm arabcha so'z bo'lib, bir avloddan tarqalgan o'zaro qarindoshlik munosabatlari bilan bog'langan kishilar birlashmasidir. Xalqimiz jamoani qavmga ajratishda uni turli xil nomlar bilan ataydi.: *ota (o'zak), toifa, urug', to'p, to'da, avlod*. Ba'zi urug' va qavmlar ma'lum hududda o'rnatilib, chorvador-ko'chmanchi hayot tarzidan, o'troq dehqonchilik sharoitiga moslashganlar. Buning natijasida o'sha xalqlar yashaydigan hudud nomi ham xalq nomi bilan birlashib ketgan. Baxmal tumani hududi bo'ylab bunday nomlarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Masalan Baxmal tumani Mo'g'ol QFY hududiga kiruvchi Mo'g'ol, Uyas kabi qishloqlar va Baxmal tumani Navbaxor MFY hududiga kiruvchi Qoraqursoq qishlog'i hududlarini fikrimizga misol bo'la oladi. Bu hududlarda hozirda aynan mana shu qavmga mansub *jamoalar avlodlari soni kam bo'lsada, ko'pchiligi turli qavmlar bilan aralshish natijasida vujudga kelgan xalqlar sanaladi*.

Qabila a'zolari bir-birlari bilan qon-qardosh bo'lgan urug' va boshqa mayda guruhlarga bo'lingan. Qabila a'zolari muayyan birlikka ega umumiy hududda yashagan, iqtisodiy birlikka ega bo'lgan. Ya'ni jamoa bo'lib ov qilishgan, bir-birlariga yordamlashishgan, yagona tilda gaplashishgan. Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida qabilalar birlashib, elat hosil qiladi. Qabilachilik qoldiqlari sinfiy jamiyatda saqlanib qolishi va quldorlik, feodal va kapitalistik ketishi mumkin.

Elat kishilarning til jihatdan, hududiy, iqtisodiy va madaniy birligi bo'lib, millatdan oldingi bosqichdir.

Millat kishilarning barqaror tarixiy birligi, umumiy iqtisodiy turmush hamda til, hudud birligi, madaniyat, ong va psixologiyaning o'ziga xosligi zahirida qaror topgan ijtimoiy taraqqiyot shaklidir.

Mamlakatimizdagi etnonimlar ikkita katta guruhga bo'linadi:

1. Umumturkiy va o'zbek xalqiga tegishli etnonimlar.
2. Umumturkiy bo'lmagan etnonimlar.

Shu o'rinda o'zbek etnonimiga maxsus to'xtalishni lozim deb bilamiz: "Bizningcha, *o'zbek* atamasi xuddi turk so'zining ekvivalenti – ma'nodoshi bo'lib, *o'ziga ishonuvchi, mustaqil fiklovchi va ish tutuvchi, botir, mard, yovqur*, chekinmas singari fazilatlarini anglatgan. Shunday fazilatli kishilarga nisbatan o'zbek iborasi ishlatilgan. Bora-bora otanonalar orasida o'g'lim shunday fazilatlariga ega bo'lsin deb bu nomni farzandlariga qo'yish ham rasm bo'lgan. XIII asrda yashagan mo'g'ul xoni O'zbekxon ham shundaylardan biri bo'lgan desak yanglishmagan bo'lamiz.

O'zbek atamasining Movorounnahrda urf bo'lishi va joylashishi haqida tarixchi olim Ahmadali Asqarov shunday yozadi: "Oxir-oqibatda temuriylar mamlakatni himoya qilishga ojiz bo'lib qolganligini sezgan Jo'jixon avlodlari XVI asr boshlarida Shayboniyxon boshchiligida Movorounnahrda bostirib keldi va juda qisqa muddat ichida bu zaminda o'z hukmronligini o'rnatdilar. Shundan boshlab Movorounnahr va Xorazmda o'zbek atamasi el nomi sifatida paydo bo'ldi"⁷⁰

Turkiy xalqlar uch katta bo'lakka: qorluq-chigil, qipchoq va o'g'uz singari katta urug'larga bo'linadi. Dunyodagi barcha turkiy xalqlar mana uch bosh urug'lardan tarqab, so'ng turli kichik urug' va shajaralarga bo'linib ketadilar. Bizning nisbiy jihatdan o'zbek xalqi deb

⁶⁹ Shoniyozov K O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent: Sharq 2001. – 75-bet.

⁷⁰ A.Asqarov- O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. I tom. Toshkent"O'zbekiston" 486-bet

atalib qolgan xalqimizning o'zi yuzlab urug', elat, xalqlardan tarkib topgan bo'lib, ming yillar davomida bir-biriga aralashib, ko'pchilikning qoni qo'shilib, bugungi avlodlar, avlodlarimiz paydo bo'lgan. Tarixdan shu narsa ma'lumki, o'zbek etnonimi X asrda Dashti Qipchoqdagi qabilalar bilan birgalikda hozirgi O'zbekiston zaminiga kirib kelgan va bu yerdagi boshqa turkiy qabila-urug'larga qo'shilib ketgan. Sho'ro hukumati 1924-yilda milliy davlatlarni tashkil qilib, milliy chegaralarni tuzishi orqali qozoq, tojik, qirg'iz etnonimlari kabi o'zbek etnonimi ham alohida bir davlatning nomiga asos bo'ldi va mana shu davlatdagi aholining ko'pchilik qismini tashkil qilgan etnonimlardan biri bo'lib qoldi. Bu fikrga qo'shilgan holda shuni aytishimiz mumkinki o'zbek atamasi faqat XVI asrga kelib shakllangan degan qarashdan yiroqmiz. Shayboniyxon bosqini o'zbek atamasini xalq orasida hukmron tabaqaga aylantirgan. XVI asrgacha ham mamlakatda o'zbek urug'iga mansub aholi ko'plab istiqomat qilgan.

“Turk so'zi tarixiy va zamonaviy ma'nolarga ega. Turk degan so'z, eng avvalo olis o'tmishda Turon mamlakatida tavallud topgan va yashagan xalqning nomini bildiradi. Turk eli deyilganda mard, yovqur, qo'rqmas, bahodir, mustaqil xalq ma'nosi anglashilgan. Majoziy ma'noda sifat vazifasini o'tab, ko'rkam, qomati kelishgan, sog'lom, jismonan baquvvat, chidamli, chiniqqan, sabrli, bosh tushganni Tangrining buyrug'i deb bilib, shukur qiladigan odam tushunilgan. Turk o'g'lon degani shunday ma'naviy va jismoniy fazilatlariga ega yigitdir. Shuningdek, go'zal ma'nosini ham bildirgan. Ma'lumki, qadimda tilimizda “o” tovushi bo'lmagan, “k” o'rnida “g” ham ishlatilgan. Shundan kelib chiqib, go'zal so'zi qadimda “ko'zal”, keyinchalik hozirgi shaklini kasb etgan.

Mashhur tarixchi Rashiddin – Fazlulloh Qazviniiy (Hamadoniy) o'zining “Jome-at tavorix” asarida 24 urug` haqida fikr yuritgan.

Buxoro xonligida o'zbek urug'lari 32 ta deb hisoblangan. Ulardan asosiysi to'rtta deyilgan. Keyinchalik uch urug`, yeti urug`, o'ng va so'l kabi nomlar yuzaga kelgan.

Tarixiy manbalarda yozilishcha, o'zbek xalqining shajarasi 92 qabiladan tashkil topgan. Professor Xudoyberdi Doniyorov xalq orasida yig'ilgan o'zbek urug` (etnonim)larini xalq vakillari og'zidan yozib olib, ro'yxat qilib, ularning soni 300 dan ortiqligini aniqlagan.

Etnotoponim tushunchasi urug', qabila, elat nomlarining bir joyda o'troqlashuvi va keng tarqalishi natijasida joy, hudud nomiga ko'chishiga aytiladi. Bu sohani o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi esa etnotoponimika (yunoncha etnos-xalq, topos-joy va nomos-nom) deb yuritiladi.

Urug', qabila nomidan davlat nomlarining yuzaga kelish tarixdan ma'lum. Masalan hozirgi Fransiya qadimda Galliya deb nomlangan va qadim Gallar sharafiga qo'yilgan. Yoki Angliya nomi Angl-saks qabilalari nomidan kelib chiqqan. Shundan bilish mumkinki, bu tarixiy va an'anaviy jarayon bo'lib bir necha ming yillardan buyon bu an'anani davom etib kelmoqda.

O'zbekiston nomi 92 o'zbek urug'laridan eng katta va obro'lilaridan biri O'zbek urug'i nomidan hosil bo'lgan.

Etnotoponimlar odamlarning ko'chmanchi hayot tarzidan- o'troq hayot tarziga o'tish, obikor yerlar, suvli hududlarni o'zlari uchun makon tutishi asosida shakllangan. U hududlar aholi tomonidan o'zlashtirilib, aholi manzilgohlariga aylantirilgan. Shu jarayonda aholi vakillari aralashib, yangi etnik birliklar va yangi qavmlar ham paydo bo'la boshlagan. O'zbek xalqi 92 qabila va urug'lardan iborat deb qaralsa-da, zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki o'zbek xalqi 400 dan ziyod qabila va mayda elatlardan iborat bo'lgan. Ko'rinadiki, biz kuzatgan adabiyotlarda urug'lar va ularning shaxobchalari 373 nomda uchragan bo'lsa,

bizning informantlar bilan bevosita suhbatlarimiz natijasida esa ularga qo‘shimcha ravishda yana 87 nomdagi urug‘ va ularning shoxobchalari aniqlandi.⁷¹

Barlos, Uyas, Kalto‘pi, Shodmon kabi nomlarni respublikamizning barcha hududlari bo‘ylab uchratishimiz mumkin va ularning barchasida bir urug‘ga mansub bo‘lgan kishilar istiqomat qilishadi. Baxmal tumani hududi qadimdan obikor yerlarga va aholi yashashi uchun qulay sharoitga ega hudud bo‘lgan.

Baxmal tumani Barlos QFY tarkibiga 3 qishloq Barlos, Muzbel va Soylik qishloqlari kiradi. Muzbel va Soylik qishloqlari Aholisi etnotoponimik asosga ega bo‘lmasa-da Barlos xalqining kelib chiqishi, tili haqida turlicha fikrlar mavjud. Turkshunos olim Bartold barloslarni mo‘g‘ul tilli xalqlardan deydi⁷² Tarixchi olim Rashiddin Fazlulloh esa barloslarning ilk ajdodlari turk qavmidan bo‘lgan edi deydi.⁷³ Tarixchi A.Asqarov barloslarni turkiy qavmlarga kiritadi.⁷⁴ Barlos nomi manbalarda turlicha izohlanadi. Masalan Abulg‘ozi Bahodirxon bu urug‘ nomini ”qo‘mondon”, ”boshliq” deb izohlasa⁷⁵, Alisher Navoiy esa ”bahodir” ma’nosida ishlatilishini aytib o‘tadi.⁷⁶

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, Barlos nomi bahodir, mard, jasur ma’nolarini anlatgan. Barloslar Suyun Qorayev tuzgan ma’lumotga ko‘ra Qashqadaryo vohasida XVI asrda o‘zbeklar kelib o‘troqlashgunga qadar hukmronlik qilishgan⁷⁷. Ko‘chmanchi o‘zbek urug‘larining ta’siri kuchayib o‘troqlashuvi natijasida bu xalqlar Zarafshon vodiysi atroflariga, Samarqand viloyatining ayrim hududlariga kelib o‘rnashganlar.⁷⁸ Hozirda Samarqand viloyatining ayrim hududlarida va Baxmal tumani hududida ham Barloslarning avlodlari hozirga qadar istiqomat qilib kelmoqda. Yana bir katta etnotoponimlardan biri bu Saroy nomidir. Baxmal tumani Saroy MFY tarkibiga kiruvchi Saroy qishlog‘i hududi ham Baxmal tumani hududidagi yirik etnotoponimlardan biridir.

ADABIYOTSHUNOSLIK RIVOJIDA XOTIRA- MEMUARLARNING O‘RNI

Salohiddinova Muborak, magistr Jizzax DPI

Ilmiy rahbar: U.Qosimov, f.f.d.

Mustaqillikdan so‘ng tariximiz va adabiy merosimiz xolsona va chuqur o‘rganila boshlandi. Hatto XX asr boshlarida ham adabiyotimiz, jumladan, Navoiy ijodi ham haqqoniy bahosini olmagan va chinakam, munosib qadrini topnagan edi. Haqiqatan ham, buyuk so‘z san’atkori, iste’dodli munaqqid Alisher Navoiy, eng avvalo, o‘zining benazir shaxsiyati va adabiy-estetik qarashlarining favqulodda boy va rang-barangligi bilan ilmiy-adabiy jamoatchilikni hamisha havratga solishi tabiiy. SHuni alohida ta’kidlash lozimki, Alisher Navoiyning hayoti, badiiy ijodi, tarixiy-memuar asarlari hamda adabiy-tanqidchilikdagi faoliyatini o‘rganish borasida adabiyotshunosligimizda bir qancha ishlar qilinmoqda. Bu

⁷¹ Ne‘matulla Elmurodov-Zarafshon vohasi o‘zbek xalqi etnik guruhlari. –Samarqand-2008 44-bet

⁷² Bartold. V.V. Dvenadsat leksii po istoriya turetskix narodov Sredney Azii. Tom 5 178-bet

⁷³ Rashiddin Fazlulloh. Tarixi Rashidiy. Toshkent 1987 178-179-bet

⁷⁴ A.Asqarov- O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. I tom. Toshkent”O‘zbekiston” 458-bet

⁷⁵ Abulg‘ozi Bahodirxon”Shajarayi turk- Cho‘lpon nashriyoti. Toshkent 1992. 172- bet.

⁷⁶ A.Navoiy” Badoe ul lug‘at”- Fan nashriyoti. Toshkent 2008 123-124-bet

⁷⁷ Suyun Qorayev Toponimika. O‘zbekiston faylasuflari ilmiy jamiyati nashriyoti Toshkent 2006 88-bet

⁷⁸ Suyun Qorayev. Toponimika. O‘zbekiston faylasuflari ilmiy jamiyati nashriyoti Toshkent 2006 76-bet

izlanishlar, ayniqsa, so'nggi yillarda uana ham samarali tus olganligini e'tirof etish lozim. Bizga ma'lumki, tanqid va adabiyotshu noslik rivojida tarixiy asarlar va xotira-memuarlarning ham katta o'rni va ahamiyati hamisha e'tirof etib kelingan. Bu jihatdan ham Alisher Navoiyning tarixiy asarlari, tanqid va adabiyot shunoslikka doir tazkira va manoqiblari faxrli o'rinni egallaydi.

Xotiralar turkumi tanqid va adabiyotshunoslikning an'anaviy sohalaridan hosob lanadi. Bu ijodiy an'ananing o'zbek tilimizda rivojida Navoiy va Boburlarning faoliyatlari tahsinga loyiqdir. Xotiralar muayyan davr adabiy jarayonlarini aks ettirishi bilan birga ular mualliflarning shaxsiy hayoti va kechinmalari bilan bevosita bog'liqligi bilan ajralib turadi.

Masalan, XV asrning oxiri va 90-yillarning boshlanishi Alisher Navoiy uchun ham katta yo'qotislilar davri bo'ldi. 1489-yilda ma'naviy-ruhiy jihatdan nihoyatda yaqin bo'lgan, keyinchalik o'kinch bilan xotiralar bag'ishlagan? ota maqomidagi aziz kishisi- Sayyid Hasan Ardasherdan bir umrga ajraladi. "Alar tariq va ravishi bu faqirni andoq shefta qildikim, bir kun alar mulozamat ig'a yetmasam erdi, sabr-u toqatim qolmas erdi va alar ham kelib ahvol so'rarlar erdi deb armon bilan eslaydi. Bu ikki nozik qalb sohiblarining mangu ga qadar o'zaro vidolashishlari, shubhasiz, katta yo'qotish bo'lgan. 1492- yilda shoirning mehribon ustozlari va hamdardi, samimiy maslahatchisi Abdurahmon Jomiy, 1493-yilda qirq yillik qadrdon insoni Pahlavon Muhammad ham bu foni dunyoni manguga tark etishdi. Alisher Navoiy XV asr Xuroson mamlakatining adabiy, ma'naviy- ma'rifiy hayotida juda yuksak mavqega ega bo'lgan bu ulug' siymo larning nomlarini abadiylikka muhrlash, ularning yuksak insoniy fazilatlarini ibrat namunasi sifatida ko'rsatish maqsadida «Xamsat ul-muttahayyirin», «Holoti Pahlavon Muhammad» va «Holoti Sayyid Hasan Ardasher» singari yodnomalarni yaratadi. Ushbu asarlar Navoiy davri nasriy uslubining qonun-qoidalari asosida yozilgan bo'lib, ularda o'rni bilan she'riy parchalar, hikoyat va rivoyatlardan foydalaniladi. Ayniqsa, bu yodnomalardagi ijodkor mushohadalari, asar qahramonlari bilan bog'liq badiiy lavhalar axloqiy-ta'limiy mohiyat kasb etishi bilan qimmatlidir. Bu silsilada Alisher Navoiyning beqiyos darajadagi ustozlari va maslahatg'oyi, ma'naviy do'sti Abdurahmon Jomiy vafoti munosabati bilan yozilgan «Xamsat ul-muttahayyirin» asari jahon adabiyoti tarixida ham alohida bir sahifani tashkil etadi.

Asarning muqaddimasida Abdurahmon Jomiyning tarjimai holi, shajarasi, tahsil yillari, yashash manzillari haqida fikr yuritiladi. Alisher Navoiy o'rta qo'yilgan mazkur masalalarni yoritishda aniq hujjatlarga, Abdurahmon Jomiyning o'z asarlariga tayanadi. Yodnoma muallifi ustozining inson, olim, shoir va jamoat arbobi sifatida shakllanish jarayoniga, mudarris va madrasalar qurshovida o'tgan yillari tafsilotiga jiddiy e'tibor qiladi. Muqaddimadagi ayrim ishoralar A.Jomiy Allohning xos bandalariga ko'rsatayotgan inoyatlaridan bebahra bo'lmagan, degan xul'osaga kelishga imkon beradi. Jomiy va Navoiyning o'ttiz yildan ziyodroq muddatga cho'zilgan hamkorlik tarixida turli sahifalar, ibrat olsa, ergashsa arzigulik an'analar nihoyatda ko'p. Ayni zamonda poklik, halollik, imon va diyonatgina hukm surishi mumkin bo'lgan ijod olamida kuzatilmagan yoki noyob hodisalar bu ikki alloma tajribasida yaqqol namoyon bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan she'riy misralarning yana bir jihatini alohida ta'kidlash kerak. Navoiy Jomiyga nisbatan qo'llagan tashbehlarining zaminida teran ma'no va tuyg'ular mujassam. Eng muhimi, sheri misralardagi badiiyat hayot haqiqati talablariga va Jomiy shaxsiyatining buyuk ligiga muvofiq keladi. Ko'rinadiki, bir-birini qalb-qalbdan his etmay, badiiy tafakkurda mush taraklik tuymay turib, bunday hamohang she'riy misralarni yaratish imkondan tashqaridir. Ikkinchidan, ayni misralar har qanday o'quvchida hayrat va qiziqish

uygʻotadi, Abdurahmon Jomiy va Ali sher Navoiylar oʻrtasida kechgan samimiy va sadoqatli birodarlikdan ibrat olishga undaydi.

XX asrda ham adiblar hayoti va ijodi, ularning insoniy shaxsini hamda etuk asarlarining yaratilishini yorituvchi xotiralar, esse-badialar yaratilishi alohida bir yoʻnalishga aylangan. Ayniqsa, soʻnggi yillarda adabiyotshunosligi mizda Navoiy, Ayniy, Qodiriy, Oybek, Shayxzoda, Mirtemir, Said Ahmad, O. Sharafiddinov, E.Vohidov, A.Oripov, Oʻ. Hoshimov, M.Yusuf va Togʻay Murod kabi ulugʻ siymolarga bagʻishlangan bu rukndagi asarlar yanada boyib bormoqda. Masalan, “Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida” toʻplami hajman va mazmunan koʻlamdorligiga koʻra ham eʼtiborli. Toʻplam mazmundorligi, badiiy ijod va sanʼatkor shaxsi haqidagi teran fikr va kuzatishlarga boyligi bilan ham adabiy-estetik tafakkur rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xotiralar Abdulla Qahhorning yorqin ijodi va takrorlanmas siymosi haqidagi rang-barang mushohadalar va unutilmas taassurotlarga asoslangan boʻlishi bilan birga mushtarak xususiyatlarga ham ega. Mazkur xotiralar-adibning zamondoshlari, qalamkash doʻstlari tomonidan bitilgan satrlaryoki minnatdor shogirdlar va muhiblar muhabbatining ramzi sifatida aytilgan qalb soʻzlarimi-barchasida chuqur bir haqiqat ayon. Abdulla Qahhorning adabiyotimiz rivoji dagi xizmatlari ulkan ekanligi va ijodda qanchalar ulugʻ boʻlgan adib hayotda ham shunchalar buyuk shaxs boʻlganligi yorqin aks etib turadi. Shu maʼnoda adib hayoti va ijodi koʻplab zamondoshlarimizga va yosh ijodkorlarga ham haqqoʻylik va haqiqatga sadoqatning namunasi boʻla oladiki, bu xotiralarning umumiy ruhi va gʻoyaviy yoʻnalishini belgilaydi.

Toʻplamdagi maqolalarning yana bir ahamiyatli tomoni bor. Ularda Abdulla Qahhorning bir qator ustoz yozuvchilar ijodi hususida, jumladan, Abdulla Qodiriy, Gʻafur Gʻulom, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir kabi atoqli adiblar, shuningdek, ijod yoʻlibir qadar murakkab boʻlgan Choʻlpon, Fitrat va Botu kabi talantli soʻz sanʼatkorlari haqida aytgan qimmatli fikrlari ham bayon etilgan. Bu ulkan sanʼatkorlar haqida yirik asarlar va tadqiqotlar yaratilgan boʻlsa-da, Qahhorning ixcham va loʻnda iboralari ularning eng yorqin jihatlarini bamisoli koʻzgudagidek aks ettiruvchi teran muloh azalardir. Quyidagi fikrlar allomalar-Gʻafur Gʻulom, Shayxzodalar haqida jiddiy oʻylashga daʼvat etadi: ”Gʻ.Gʻulom mislsiz isteʼdod egasi edi. Afsuski, oʻzidagi shu ulkan isteʼdodning hammasini toʻla ishga sololmay, toʻqson foizini oʻzi bilan olib ketdi. Ammo shu ishga solingan isteʼdodi mahsuli bilan ham u adabiyotimizda klassik boʻlib qolaveradi”.

“Maqsudning shoirligi -yu, dramaturgligini bir yoqqa qoʻyib turganda ham, adabiyotshunos-tanqidchi sifatida u oʻzbek adabiyotshunosligining yarmini tashkil etardi” (4.180). Bunday qahhorona mulohazalar mazkur adiblar ijodi va shaxsini chuqurroq oʻrganish va ular yashagan davrdagi adabiy-tarixiy jarayon haqida keng tasavvurga ega boʻlishga ham koʻmaklashadi. Bunday xotiralar adabiyot tarixi hamda adabiyotshunosligimizni ham yangi bilim va maʼlumotlar bilan toʻldiradi. Adiblar hayoti, ijodi va ularning ijod jarayoni, badiiy asar yaratish jarayonlarini ham oʻrganishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

- 1.Alisher Navoiy. Asarlar oʻn tomlik. T.2010-2012.
- 2.Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. T. 1987.
- 3.Oʻzbek adabiy tanqidi.Antologiya. T..2012.
- 4.Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida. T.2007.
- 5.Mallaev N.Oʻzbek adabiyoti tarixi. T.1976.

ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA SAFAR MOTIVI

Karimova Shahnoza, JDPI magistranti
Ilmiy rahbar: dotsent Zuhra Mamadalieva

Har bir harakatda bo‘lgan inson borki u bir joydan ikkinchi bir joyga nimadir sabab bilan yo‘lga otlanadi, shu birgina sabab insonni o‘zi bilmagan holda o‘zligini topishga yordam beradi. Safar komillikka qo‘yilgan bir qadam desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Insoniyat yaralibdiki, safar orqali dunyoni bildi va o‘zga insonlarni tanidi. Ajdodlarimiz o‘zlarining hech qanday boylik bilan tenglashtirib bo‘lmaydigan boy va serqirra ilmlariga aynan shu safar orqali erishdilar. Jumladan, Ibn Sino o‘z bilimlarini to‘plash va amaliyotga tadbiiq qilib o‘rganishda bir joyda muqim turmasdan Niso, Obivard, Tus, Shiqqon va Xurosonning boshqa shaharlari shuningdek, Jurjon amirligi, Ray, Hamadon shaharlariga qilgan sayohatlari yordam berdi. Ibn Sino o‘zining aynan shu sayohatlari orqali o‘z yurtida olgan bilimlarini yanada mustahkamladi. Ibn Sino kabi dunyo kezib o‘z bilim xazinasini boyitgan olimlarning sanog‘i yo‘qdir. Shu o‘rinda diniy ta’limotimizda Qu’roni Karimdan keyingi o‘rinda turuvchi Payg‘ambarimiz hadislarida ham safar va uning foydalariga alohida to‘xtalganini ko‘rishimiz mumkin. Hadislardan birida safar shunday deyilgan: “Safar qilinglar sog‘lom bo‘lasizlar va rizqlanasizlar”⁷⁹ Darhaqiqat Allohga tavakkal qilib safar qilgan odam albatta musofir yurtda ham o‘z rizqini topadi. Safar qilib havo almashtirish orqali ayrim kasalliklar umuman yo‘qolishi, unga davo topishni tibbiyot hodimlari ham isbotlashgan. “Bironxial astma, nevrozlar(asabiy zo‘rqishlar) kabi ayrim kasalliklar havo almashtirib safar qilish orqali davolanadi”.⁸⁰Yana bir hadisda safar haqida shunday deyiladi. Pishay desang safar qil. Unda besh foyda bor: ko‘ngil yozish, kuch to‘plash, ilm va adab o‘rganish, dono kishilar bilan ziyoratda suxbatda bo‘lish.⁸¹

Safar haqida yozar ekanmiz yozma adabiyotda ham og‘zaki adabiyotda ham yaratilgan asarlarda safar mavzusi yoritilmagan asar yo‘qligini kuzatishimiz mumkin. Alisher Navoiyning Xamsa dostonlarining barchasida safar va uning foydalari haqida obrazlar orqali xulosa chiqarib olishimiz mumkin. SHu o‘rinda Farxod va Shirin dostoniga alohida to‘xtalib o‘tishni joiz topdik Farxod va SHirin dostoni Xamsa dostonlari ichida alohida ahamiyatga molik asardir.

Farxod va Shirin haqidagi qissa nihoyatda qadimiy bo‘lsada, Navoiy yaratgan doston kitobxonlar ko‘nglidan alohida joy oldi. “Navoiy dostoni syujet e’tibori bilan ham, qahramonlarni tanlash, ularga avtor munosabati, ularning ichki kechinmalarining chuqur hayotiyliigi, tasvirning har tomonlama xalqchilligi, til va uslubdagi shoir mahorati bilan ham tamom original asar bo‘lib, bu xususiyatlari ila u SHarq dostonchiligining keyingi taraqqiyotiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.”⁸² Degan edi bu doston haqida adabiyotshunos olim A.Xayitmetov. Doston syujetidan bilamizki Farhod tug‘ilganidan ishqqa muhtalo bo‘lib tug‘ildi. Buni Navoiy shunday ta’riflaydi:

Muhabbat nuri ollinda xuvaydo,
Jamolida vafo tug‘rosi paydo.

⁷⁹ Минг бир хадис www.ziё.uz.com

⁸⁰ Чучалин А.Г. Кучли бронхиал астма. ВС: 2000.482-бет.

⁸¹ Минг бир хадис www.ziё.uz.com

⁸² Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi: Toshkent, 2006. 245-bet.

Falak deb dard elining shohi oni,
Malak deb dard o'ti ogohi oni.

Tushub ishq ahli ichra har taraf jo'sh,
CHu tug'di o'tda sayr aylar siyovush.

Vafo xaylida g'avg'o shodlig'idin,
Biri-birga muborakbodlig'din.⁸³

Farhodning dardiga davvo to'rt qasr qurdirib ham topolmagan xoqon, Farhodga xonlik taxtini taklif qilganida Farxod undan bosh tortadi. SHu o'rinda Farhodning bergan javobidan, uning qanchalik nafsi to'q, komil shaxs ekanligi namoyon bo'ladi:

Vale chun men haqiru ish ulug'dir,
Bu so'z arzin zarurat qilg'ilug'dir.

Chu men bu choqqa tegru g'ofil erdim,
Bu ish taklifidin forig'dil erdim.

Ishim ishratqa bazmarolik erdi,
Farog'at birla beparvolik erdi.

Bir-ikki yil inoyat aylasa shoh,
Ki, xizmatdin o'zumni qilsam ogoh.

Shoh ollinda hamisha hozir o'lsam,
Bu ish kayfiyatig'a nozir o'lsam.

Yaqin balsam rivojin ham kasodin,
Tanisam ham salohin, ham fasodin.⁸⁴

Farhod uchun toj-u taxt, mol-dunyoning umuman qizig'i yo'q edi, uning ko'ngli Alloh ishq bilan to'la, ishq dardi bilan o'zligini yo'qotgan. Uning ko'ziga ishqning ilohiy olami kerak edi xolos. Oldinda uni mashaqqatli safar kutayotgandi, aynan shu safar mashaqqatlarigina uning dardiga darmon topa olardi. Taqdir uning boshiga solayotgan bu azoblar ilohiy ishq tomon etaklayotgan ekan, u har qanday qiyinchilikni engib o'tishganda tayyor edi. Farhod bularning barchasi uning taqdiriga yozilgan mukofot deb biladi va bu taqdirni o'zgartirib bo'lmasdi. Navoiy yozganidek:

Agar shoh, ar gadodur odamizod,
Emas bo'yni qazo hukmidin ozod.

Yozilg'on nuktani tag'yir qilmoq,
Erur suv uzra xat tahrir qilmoq.

⁸³ Алишер Навоий. Фарход ва Ширин. Тошкент: Фан, 1992. 47-бет

⁸⁴ Алишер Навоий. Фарход ва Ширин. Тошкент: Фан, 1992. 89-бет

Qazo qilki ne xatkim qildi mastur,
Emas xargiz ani tag'yiri dastur.

Farhod yunon o'lkasi tomon safar uyushtirdi va bu safar unga Suhaylo hakim bilan bilan ko'rishish imkonini berdi. Hakim go'yo tariqat yo'lidagi piri komildek Farhodga yo'l ko'rsatadi. Keying safar nafsni engish yo'lidgi safar edi. Farhod ham huddi shu bosqichlardan o'tishi kerak edi. U bu yo'lda ajdar bilan devni o'ldiradi va behisob xazina-yu, Sulaymon uzugini qo'lga kiritdi. Bu qiynchilikarni engib u shariat va tariqat bosqichidan o'tadi, endigi safar ma'rifat yo'liga edi u dastlabki safarida erishgan boyliklaridan vos kechmasdan haqiqatni topa olamasdi. Shuning uchun ham Suhaylo hakim boyliklarni xoqonga topshirishni buyuradi. Farhod Suqrotning oldiga kelganda undan qimmatli bu dunyoning qimmatli sir-sinoatini eshitadi. Suqrotning aytishicha insonning haqiqiy mahbubi Ilohiy ma'shuq, ya'ni Olloh bo'lib, bo'lib, unga erishish uchun yo'l yurib safar qilmoq lozim.

Chu mahbubi haqiqiy uldurur ul,
Aning vasli sori qat' aylamak yo'l.

Shu o'zlikni topish uchun bosgan yo'li bo'ylab hisobsiz dard-u g'amlarga uchraydi. O'zligidan vos kechgan insongina haqiqiy mahbub vasliga erisha oladi. Kishi o'zligini yo'qotishning birdan-bir chorasi ishq majoziydir. Uni Navoiy dostonida quyidagicha izohlaydi:

Bu o'zlikdan qutulmoqning chorasoz,zi,
Nima yo'q o'ylakim ishq majoziy .

Angakim qoldi g'am shomig'a jovid,
Burun subh o'ldi tole, so'ngra xurshed.

Majoziy ishq bo'ldi subhi anvar,
Haqiqiy ishq anga xurshedi xovar.⁸⁵

Farhod ham ishq dardiga bilan yo'g'rildi va o'zligini yo'qotdi. Bu yo'qotishdan keyin u majoziy ishq tomon safar uyushtirdi. Ne ne mashaqqatlar bilan safar tufayli majoziy ishqni – Shirinni topdi. Majoziy ish uni haqiqiy ish tomon etaklab, haqiqiy ishq uning o'zida ekanligini ko'rsatdi. Uzoq davom etgan bu mashaqqatli safar orqali yo'qolgan o'zligini haqiqiy ishqda, ya'ni Allohga bo'lgan ishqda topgan Farhod safar tufayligina Suhaylo hakim bilan uchrashishga, Xizr ta'limini olishga, Suqrot hakimdan kelajagi haqida bilim olishga muyassar bo'ldi. Farhodning bu safari kitobxon uchun bir qadamchalik yo'l ko'rinsada, u har qanday safardan ham mushkul, lekin hech bir safar bilan tenglasha olmaydigan, oxirgi bekati ilohiy makon bo'lgan ulug'vor bir safar edi.

⁸⁵ Алишер Навоий. Фарход ва Ширин. Тошкент: Фан,1992. 138-бет

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ming bir xadis. www. ziyouz.com
2. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi: Toshkent, 2006. 245-bet.
3. Alisher Navoiy. Farhod va SHirin. Toshkent: Fan, 1992. 47-bet
4. Chuchalin A.G. Kuchli bronxial astma. BC: 2000. 482-bet.

SHARQ ADABIYOTIDA PANDNOMA ASARLARINING QIYOSIY TAHLILI (S.Sheroziy, A.Jomiy, J.Rumiy asarlari misolida)

Nigora Shuxratjonova, JDPI magistranti
Ilmiy rahbar: Nodira Soatova f.f.f.n, dots.

Bizga ma'lumki, Sharq adabiyoti o'zining didaktik ruhdagi adabiyotlari bilan ma'lum va mashhurdir. Sababi, G'arbda voqelikni real tarzda ifodalash birinchi planda tursa, Sharqda esa pand-nasihat ruhida ifodalash ustun turadi. Mumtoz klassika namoyondalari o'zlarining pandnoma asarlarini yaratib, insonlarni komillikka, ezgu amallarga, yomon illatlardan holi holda hayot kechirishga, poklik sari ildamlashga, qalblarni imon nurlari ila sug'orishga chorlagan. Yaxshi amallarning arjini, yomonliklarning esa muqarrar jazosini o'zlarining ibratli hikoyatlari bilan ko'rsatib berishgan. Sharq adabiyoti pandnoma asarlari o'zining tasavvufiy ruh bilan yo'g'rilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Sharqning mashhur adiblari bo'lmish Jaloliddin Rumiy, Sa'diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiylarning yaratgan pand-nasihat ruhidagi asarlarini olaylik. Ular yaratgan asarlar garchi turfa davrlarda va turli sharoitlarda yaratilgan bo'lsada, lekin g'oyaviy - badiiy jihatdan o'zaro mushtaraklikka egadir. Ta'limiy-tarbiyaviy jihatda o'z davrlarida ham hozirda ham g'oyatda dolzarb hisoblanib kelingan masalalarni go'zal hikoyatlari orqali insonlarga ibrat tarzida yoritib berishgan.

Sabr-qanoat insoniylikning eng yuksak ko'rinishlaridan bir desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Islomda ham sabr-qanoat ulug' fazilat hisoblanadi. Zero, boshiga tashvish va qiyinchiliklar tushgan vaqtda ham, ochlik va yo'qlikka ham sabr qila olgan insongina hidoyatga erishadi. Fikr dalili sifatida Sa'diy Sheroziyning sabr-qanoat haqidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin:

**Jahon tashvishidir eng og'ir balo,
Bo'lsa ham, bo'lmasa ham qiyin mojaro.
Agar sen istasang boylik va davlat,
Eng katta boylikka tengdir qanoat. [1:79]**

Qanoatning fazilati haqida keltirilgan bir hikoyatida esa sabr-qanoatning eng yaxshi ne'mat ekanligini shunday ta'kidlaydi:

**Davlatmand qilg'il, ey qanoat, meni,
Chunki yo'qdir sendan yaxshiroq ne'mat.
Luqmonning murodi-sabr burchagi,
Sabrsiz kishida bo'lmaydi hikmat. [1:93]**

Jaloliddin Rumiy o'zining tasavvufiy qarashlarida sabrni : "**Nafs insonni har maqomga sola oladi. Undan sabr tufayli xalos**

bo'lasan. Zero, sabr qilguvchilar Yaratganga yaqindirlar",- deya ulug'langan. [2:11]

**Ey musulmon, senki istarsan adab,
Sabr qil, gar bersa ozor beadab.**[2:10]

Yana bir eng ezgu fazilatlardan biri bu insondagi saxovatlilikdir. Saxovat har ikki dunyoda ham insonni ulug'laydi va Allohning rahmatiga sazovor bo'lishiga hissa qo'shadi.

Alisher Navoiy saxovatni shunday ta'riflaydi:

**"Saxovat insoniyat bog'ining borvar shajaridur, balki ul
shajarning mufid samaridur. Odamiylik kishvarining bahri
mavjvari, balki ul mavj bahrining samin gavhari"** [3: 86]

Saxovat har doim chin dildan qilinishi, unda zarracha ta'ma bo'lmasligi kerak, aks holda u saxovat darajasiga ko'tarilmaydi. Abdurahmon Jomiy saxovat haqida go'zal nasihat qiladi:

**Saxiy dema saxovatiga,
Biror talab qo'ysa gar odam.
Saxiylikmas, bu savdogarlik,
Bunda yo'qdir sharaf va karam.
Saxovatda kimning maqsadi-
Agar bo'lsa shuhrat,ovoza,
Ahli karam shahrida unga
Har doim berkdir darvoza.** [2:34]

Shirinso'zlik, xushmuomalalik insonning ko'rki sanaladi. Har qanday yomon vaziyatlarni va nizoli vaziyatlarni yaxshi xulq va shirin muomala bilan to'g'ri yo'lga solish mumkinligini Shayx Sa'diy shunday ta'riflaydi:

Zulm ko'rsang kiygil chidam etigin,
Yumshoqlik yopadi, urush eshigin.
Yumshoq muomala, shirinso'z odam,
Bir qil bilan tortib ketar filni ham.
Yumshoq bo'lgil, yumshoq ipakni hatto
O'tkir qilichlar ham kesolmas aslo.

Odamlar orasida hurmat va ehtiromga erishning yagona yo'li bu bilim,hunar va mehnatdir. Fikrimiz dalilini Jomiyning betakror misralarida ko'rishimiz mumkin:

"Har bir kishining qadr-qimmatini uning fe'l-u kamoli va so'zlari jamoli bilan o'lchanadi"

**Odamning qiymati emas siymu zar,
Odamning qiymati-bilim va hunar.
Nazar sol, dunyoda hunar tufayli
Hojasidan qadri ortiq ko'p qullar.
Qanchalab hojalar hunarsiz uchun-
Qullari oldida beo'q bepisar.**

[4:35]

Ma'lumki, pandnoma asarlar tasavvuf chashmasi bilan sug'orilgan.Tasavvufda esa ishq mavzusi bosh mavzu sanaladi. Allohga yetishishning yagona yo'lini tasavvufda o'zlikni anglash orqali Haqqa bo'lgan ishqdir. Haqiqiy ishq faqat Allohga bo'lib, u insonni ezgulikka, komillikka yetaklaydi.

Jaloliddin Rumiy ishqni ta'riflab " **Ey o'g'il, ishq ilohiy ne'matdir. U ko'nglingga jo bo'lsa olamni va uni yaratgan Haq taoloni tanishga darcha (yo'l) topasan"** ,-deydi.

Abdurahmon Jomiy ham ishqni o'zining betakror misralari bilan ulug'laydi:

Ey, sening nomingdan yog'iladi ishq,

Noma-paymoningdan yog'iladi ishq.

Ko'changdan kim o'tsa bo'ladi oshiq,

Eshigu tomingdan yog'iladi ishq.[4 :5]

Shayx Sa'diy ishqni go'zal talqin qiladi:

Chiqarmasman etaging hech qo'limdan,

Agar o'tkir tig' ursang chiqmas ohim.

Agar qochsam yana senga kelurman,

Mening yo'q sendin o'zga pusht-panohim. [1 :125]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir inson hayotida insoniylikning azaliy tamoyillarini egallashga, odamiylik mulki bilan ziynatlashiga, qalbini imon nurlari bilan to'ldirib yashashga harakat qilmog'i darkor. Qalblaring sohibi Alloh ekan, uni doim sof saqlash har birimizning burchimiz bo'lib qolmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Sa'diy Sheroziy. "Guliston", Toshkent -1968
2. Jaloliddin Rumi. " Nay navosi", Toshkent- 2011
3. Alisher Navoiy. " Mabub ul qulub", Toshkent- 2018
4. Abdurahmon Jomiy. " Bahoriston", Yangi asr avlod- 2007

ADABIYOTDA DAVR MUAMMOLARI AKS ETISHI

(Abdulla Oripov va Tog'ay Murod ijodi misolida)

Umarova Nuriniso, JDPI mustaqil tadqiqotchisi,

Rahmonova Surayyo, JDPI magistranti,

Ilmiy rahbar U.Qosimov,f.f.d.

Bizga ma'lumki, har bir iste'dodli san'atkor o'z davrining farzandi sifatida ijod qiladi, tabiiyki, uning asarlarida o'sha davr muhitining ob'yektiv ta'siri u yoki bu tarzda aks etadi. Abdulla Oripov va Tog'ay Murodlar ijodi ham o'z davr-muhitining ijtimoiy-siyosiy muammolari ta'siridan, xususan, hukmron mafkura iskanjasidan butunlay xolis bo'lishi mumkin emas edi. Sobiq sho'ro davridagi adabiy muhit haqida fikr yuritganda, og'riqli savollar tug'iladi. Aslida, u yoki bu adib asarlariga baho berish va ularni tadqiq etishda o'sha davr va tarixiy sharoitni e'tiborga olishimiz zarur bo'ladi. Chunki sobiq sho'ro davrida yashab, ijod qilgan Qodiriy va Cho'lpon, Oybek va Qahhorlar va boshqa san'atkorlar kabi Abdulla Oripov va Tog'ay Murodlar ham butunlay erkin bo'lmaganini unutib bo'lmaydi. Bu jihatdan Ozod Sharafiddin o'vning Cho'lpon ijodini o'rganish borasidagi fikrlari asosli: "Muayyan zamon, muayyan jamiyatda yashagan shoir, tabiiyki, bu jamiyatdan tashqariga chiqib keta olgan emas. Cho'lponning badiiy ijodidagi yoxud adabiy-tanqidiy maqolalaridagi hukmron mafkura g'oyalari yon berilgan o'rinlarni ko'rganda, uning nomiga malomat toshlarini otishga shoshilmaslik kerak. Bil'aks, uni tushunmoqqa harakat qilaylik. Bu mulohazalar faqat Cho'lponga emas, balki Oybek, G'.G'ulom, H.Olimjon, A.Qahhor, Shayxzoda, Mirtemir kabi ko'p yillar mobaynida adabiyotimizning chinorlari hisoblanib kelgan, keyingi yillarda esa o'rinli-o'rinsiz ta'na-dashnomlarga ro'para kelayotgan ijodkorlarga ham taalluqli." {1.64}

O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov ulug‘ ustozlari va shaxsan o‘zi ham ko‘rgan nohaqligini fojealarning asl sabab-oqibati haqida armon bilan mushohada yuritib, jumladan, G‘.G‘ulom ijodi va qiyin qismati haqida shunday yozadi: “G‘afur G‘ulom o‘z safdoshlari qatorida g‘oyat murakkab, g‘oyat ziddiyatli, tahlilali bir davrda yashab o‘tdi. Mustabid imperiyaning beomon mafkurasi, mustamla kachilik siyosati minglab haqgo‘ylar boshini yeyishga ulgurdi, qanchadan-qancha iste‘dod egalarining bo‘yniga bo‘yunturuq solishga erishdi. Nog‘orasiga o‘ynashni xohlamaganlarni qatl qildi, quvg‘in ostiga oldi. Shu tariqa o‘zbek xalqi o‘zining o‘nlab beqiyos farzandlaridan bevaqt ayrildi. Madhiyabozlik adabiyotning ommaviy taomiliga aylangan. Ne-ne go‘zal tashbehlar, chaqmoqdek misralar somon orasidagi qahrabo bug‘doy donalaridek nazardan qolib ketar edi. Ushbu achchiq haqiqatni, ayniqsa, bugungi yoshlar teran tushunmoqlilari kerak...” {5.4.}

Abdulla Oripov va Tog‘ay Murod ijodi va shaxsiga baho berishda ham ana shu sharoit va holatlarni, ya‘ni mash‘um tuzum siyosatini va hukmron mafkurani nazardan qochirmaslik lozim.

Mustaqilligimizdan so‘ng adabiyotimiz tarixi va ulug‘ ajdodlarimiz adabiy merosi chuqur va xolisona o‘rganilmoqda. Sho‘ro davridagi mafkuraviy ta‘rif-tavsiflar soxta shiorlar ekanligi oshkor bo‘lmoqda. “XX asr adabiyoti Oktyabr revolyusiyasi mevasi, o‘zbek adabiyoti tug‘ilgandan boshlab revolyusiya g‘alabalarini mustahkamlash uchun kurashdi; sotsializm adabiyot mazmun-g‘oyasini belgilovchi bosh omil; partiya va sovet davlati g‘amxo‘rligi adabiyotni yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tardi” kabi madhiyalar tarixiy haqiqatga, ijod psixologiyasi jarayonlariga zid, g‘ayriilmiy qarashlar ekani ayonlashdi. Zero, Istiqloldan oldingi davrda xalqimiz boshidan kechirgan og‘ir hayot zahmatlari, urushlar va qirg‘inbarotlar, ekologik fojealar, tabiiy ofatlar, ma‘naviyat va ruhiyatdagi evrilishlar va yolg‘on shiorlar kechagi o‘tmish hayotidan qolgan bir meros ekanligi og‘riqli haqiqatdir. Ijodkor shaxsining shakllanishi, o‘ziga xosligi tarixiy sharoit va muhit ta‘sirida ro‘y beradi. Adibning hayotiy pozitsiyasi va ideali ham ijtimoiy-tarixiy, siyosiy va diniy-ma‘rifiy sohalar bilan bog‘liq holda rivojlanadi. Adabiy muhit, davr, zamon, makon va keng bilim kabi komponentlar san‘atkor tafakkuri va dunyoqarashini boyituvchi omillar sanaladi. Jahon adabiyoti shundan guvohlik beradiki, ijodkor iste‘dodi tabiiy, tug‘ma bo‘lishi bilan birga uning kamol topishi, o‘ziga xos novator ijodkor bo‘lishi ko‘plab ob‘ektiv-sub‘ektiv shart-sharoit va omillarga bog‘liq bo‘ladi. Yozuvchilik iqtidori ijodkorning fe‘li-sajiyasida, zuvalasida bo‘lganligi va bunday yuksak missiyaning mas‘uliyat va mashaqqatlarini ham juda erta anglagani ularning butun hayot yo‘li, yashash tarzi va ijodida namoyon bo‘lib turadi.

Adabiyot olamida yangilik yaratish uchun tabiat in‘om etgan iste‘dod bilan birga xalqiga, Vataniga xizmat qilishdek ezgu niyat bilan yo‘g‘rilgan mehr to‘la ko‘ngil, katta hayotiy tajriba kabi fazilatlar talab etiladi. Ma‘lumki, estetik idealga intilish ham ijodkorni faollashtirib, uni ezgu maqsadlarga yo‘l laydi. Binobarin, har bir san‘atkor ijod olamiga kirib kelar ekan, uning oldida adabiyot va san‘atning mangu savollari ko‘ndalang bo‘lib turadi. Adabiyot va ijodni o‘zining qismati deb bilgan barcha iste‘dodli adiblar singari Abdulla Oripov va Tog‘ay Murod ham o‘z ijodini boshlar ekan, eng avvalo, adabiyotning oliyjanob maqsad–vazifasini va san‘atkorning jamiyat va xalq oldidagi yuksak burch-mas‘uliyatini to‘g‘ri tushunib etadi, hamisha ularga sodiq qoladi. Dastavval, sobiq sovet davrida adabiyot va san‘atga, shoir va yozuvchi shaxsiga, iste‘dod va uning taqdiriga munosabat qanday bo‘lganligini va katta avlodimiz yashab, ijod qilgan davr muhitini ko‘z oldimizga keltiraylik. Chunki ular ijodi va nurli siymolari navqiron adabiy avlod uchun yuksak ibrat namunasi bo‘lib xizmat qilganligi shubhasizdir. Tog‘ay Murodning “Yozuvchi

qanday paydo bo‘ladi? Yozuvchi-yo‘qchilikdan, kamchilikdan, och-nochorlikdan, mutelikdan, xor-zorlikdan paydo bo‘ladi! Yozuvchi – qamoq, azob, xo‘rlilikdan, ezilishdan paydo bo‘ladi. YOzuvchi-boshga tushgan qora kunlardan paydo bo‘ladi”.(3-jild, 91b.) degan so‘zlarida ham uning ijodga qat’iy ishonch-e’tiqodi ifodalangan.

Millat qayg‘usi va kelajagi uchun qayg‘urib, shu yo‘lda butun talant va salohiyatini tikkan, shu yo‘lda aziz jonlarini ham fido qilgan Behbudiy va Munavvar qori kabi jadidlarning qismati A.Oripov va T.Murodlar uchun ham bir ibrat bo‘lgan bo‘lsa ne ajab!. YOxud XX asr o‘zbek adabiyotining ta‘mal toshini qo‘ygan tengsiz iste’dod sohiblari Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon kabi buyuk adiblarimiz Oktyabr inqilobi dan keyin o‘rnatilgan mash‘um sovet tuzumi siyosatining dastlabki qurbonlari bo‘lganligi ham xalqimiz tarixining eng qora sahifa laridir. Totalitar tuzumning razilona manfur siyosati, qabohat va zo‘ravonliklari keyingi yillarda ham uzoq davom etganligi endilikda butun dahshati bilan ayon bo‘lmoqda. Masalan, Istiqloldan so‘ng yaratilgan “O‘zbek adabiy tanqid tarixi”(2012) darsligida adabiyotimiz rivojiga katta to‘siq bo‘lgan sinfiylik va partiyaviylik deb atalmish mafkuraviy kishanlar badiiy ijod bilan birga tanqid va adabiyotshunoslikning ham boshiga tushgan balo bo‘lgani ham to‘g‘ri ko‘rsatib o‘tilgan.

20-30-yillarda ne orzu-umidlar bilan adabiyot maydoniga kirib kelgan G‘.G‘ulom, Oybek, A.Qahhor, H.Olimjon, U.Nosir, Shayxzoda, Mirtemir va Elbek singari yorqin iste’dod sohiblari ham mustabid tuzumning zulmi va zug‘umlaridan xalos bo‘lgan emas. Ularga izdosh bo‘lib ijod olamiga kirib kelgan M.Ismoilijon, S.Ahmad, SHuhrat, O.YOqubov, P. Qodirovlar avlodi–chi? Ular ham “eng baxtiyor zamon” deb ta’riflanib kelingan sotsialistik mamlakatda hukmron siyosat va mafkuraning tazyiqlaridan butunlay qutulib, erkin ijod qila olganlarmi? Bu jihatdan atoqli adibimiz O.Yoqubovning 50-60-yillardagi adabiy muhit haqidagi quyidagi dardli xotiralari ulardan keyinroq ijodini boshlagan A. Oripov va Tog‘ay Murodlar avlodi yashagan davrning ham murakkabligini tushunishimizga yordam beradi:“Bizning avlod,-deydi O.Yoqubov,-konfliktsizlik deb atalmish g‘ayriadabiy qarashlar, sotsialistik realizm deb atalmish biqiq, tafakkurni cheklovchi va endilikda soxtaligi barchaga ayon umumtushunchalar, stalincha qatag‘on hukm surgan, qatliom tufayli hamon yuraklardan qon silqib turgan bir vaziyatda adabiyotga kirib keldiki, buning ijodga salbiy ta’siri hanuz sezilib turadi. SHu ma’noda, garchi adabiy muhit taqozosiga ko‘ra keyinchalik muayyan qiyinchiliklarni boshlaridan kechirgan bo‘lishsa-da, A.Oripov va uning avlodini nisbatan baxtli salaf deb atashni istardim. Ular ijodini boshlagan paytda ijtimoiy-siyosiy vaziyat nisbatan yumshagan, bahor epkinlari yanglig‘ mayin va umidbaxsh nasimlar esa boshlagan edi...”

Abdulla Oripovning “Olomonga” she’rini o‘qigan kitobxonda Botir firqaning olomon to‘g‘risidagi ta’riflari ancha asosli ekanligiga ishonchi ortadi hamda uning olomon va uning tarixiy o‘tmishimizda va keyingi yillardagi ayachli mohiyati to‘g‘risida gi tushuncha-tasavvuri yanada kengayishi va ong-tafakkuri ham yanada chuqurlashishi shubhasizdir. Bu asarlarda ifodalanyotgan g‘oya va mazmunning umumiy mushtarakligi shunchaki tashqi yoki tasodifiy o‘xshashlik yoxud qandaydir taqlidchilik natijasi ham emas. Balki turli janrlarda bitilgan bu asarlar E.Vohidov, A.Oripov va ularga izdosh va maslakdosh bo‘la olgan M.YUsuf va T.Murodlarning xalq va millatimizning dard-hasrat va armon to‘la qalbidagi asriy nidolarining chuqur va yakdil bir aks-sadolaridir deyilsa, mubolag‘a bilmaydi. SHu muqoyasa orqali ham A.Oripov va T.Murod kabi millatparvar adiblarning xalq dardi-tashvishi

bilan yashagani va jamiyat ma'naviy hayotidagi illat larni tezroq bartaraf etish haqida qayg'urgani va bu orzu-harakatlari bilan jadid larning izchil davomchilari bo'lganligini tasavvur etamiz. "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romani ham fosh qiluvchi asar bo'lib, unda sho'roviy g'oyalarga berilib ketgan odamning fojiasi ko'rsatilgan. Hayoti o'tkinchi sotsializm va kompartiya g'oyalari bilan sug'orilgan va umri shu soxta va balandparvoz g'oya-shiorlarga xizmat qilish bilan o'tgan insonning oxiri hech narsasiz qolishi fojiasi ishonarli tasvirlangan va Tog'ay Murodga xos, san'atkorona aks ettirilgan. Yana "Olomonga" she'ridagi satrlar tahliliga qaytaylik. O'zining nodir iste'dodi va betakror ijodi bilan milliy o'zligimizni anglashimizga beqiyos hissa qo'sha olgan benazir shoirimiz A.Oripov bejizga she'ringing so'nggi misrasini "Qachon xalq bo'lasan, ey, sen-olomon?" degan zalvorli savol bilan yakunlamagan. Bu siz bilan menga, kelajak avlodga, shu yurt farzandi bo'lgan-barchamizga qarata aytilgan dardli bir mur ojaat, da'vat emasmi? Bugun el-yurtimiz sha'niga daxldor katta- kichik masalalar atrofida jipslashib, mustaqil yangi O'zbekistonimiz ravnaqi yo'lida bir tanu bir jon bo'lishga inti layotgan yurtdoshlarimizni ko'rib, xalq bo'layotganimizdan quvonib, ko'nglimizda umid uchqun lari paydo bo'la boshlaydi. Buyuk ajdodlarimiz, fidoiy jadidlarimiz va ularning munosib vorislari bo'lgan millatparvar ijodkorlarimizning ezgu orzu-armonlari ham shu emasmi.

IJODIY TA'SIR VA ADABIYOT RIVOJI MUAMMOLARI HAQIDA

Turdiyeva Nargiza, magistr, Jizzax DPI.

Ilmiy rahbar:U.Qosimov, f.f.d.

Adabiy ta'sir, an'ana va novatorlik hamisha badiiy ijod va adabiy-estetik tafakkur rivojining muhim va zaruriy bir sharti, qudratli omili bo'lib xizmat qilishini jahon adabiyoti taraqqiyoti to'la tasdiqlaydi. Bu mavzuni yoritishni ham Navoiy ijodiy faoliyatidan boshlash maqsadga muvofiqdir. Navoiy she'riyatdagi ilk qadamlaridanoq turkiy va forsiy zabon salaflariga ixlos bilan ergashdi, ulardan ruhiy madad va ilhom oldi. Navoiy bilan ular o'rtasidagi ustoz-shogirdlik va adabiy ta'sir jarayoni tom ma'noda ijodiy yo'nalishda bo'lgan. Navoiy ustozlari an'alarini muvaffaqiyatli davom ettirish bilan birga ular bilan ijodiy musobaqaga kirishib, ulkan badiiy "kashfiyot"lar yarata oldi. Masalan, jahon xalqlari adabiyotida ham, folklor asarlarida ham keng tarqalgan an'anaviy obraz va hikoyatlardan biri Hotam Toyi hikoyatidir. Chunonchi, Sa'diyning "Guliston" va Jomiyning "Bahoriston" dostonlarida Hotam toyining saxovatpeshaligi ulug'lanadi. Navoiy esa o'tinchi chol obraziga katta e'tibor berib, asar g'oyaviy-badiiy va axloqiy mazmunini kengaytiradi; saxovat-ulug' fazilat, ammo o'zgalardan ta'ma kutmay, xalol mehnati bilan yashash undan ham yuksak insoniylikdir. Yoki jahon adabiyotining Gyote, Volter, Pushkin, Tolstoy, Turdi, Furqat, Avloniy, Qodiriy, S.Xondayliqiy, S.Esenin, R.Hamzatov kabi mashhur namoyandalari ham Sa'diy asarlaridan qator iqtiboslar olganligi bejiz emas. Tolstoy uning "Du rafiq" ("Ikki o'rtoq") hikoyatini ijodiy tarjima qilib, bolalar uchun yaratgan majmuasiga kiritganligi ham mutafakkir shoir an'alarining ilhombaxsh ta'siridan guvohlik berib turadi. Adabiyotshunos U.Qosimov kabi tadqiqotchilarimiz to'g'ri ta'kidlaganidek, Sa'diy va Navoiyning ko'plab mashhur baytlari bugun ham barcha xalqlar uchun odamiylikning yuksak axloqiy mezon bo'lib jaranglaydi: Tu gar mehnati digaron beg'ami,

Nashoyadki nomat nihand odami. (“Guliston”)

O‘zgalari haqida chekmaguchi g‘am,

Nechuk sanaladi qatori odam.

Shu o‘rinda hazrat Navoiyning millionlab komil insonlarning hayotiy maqsad-dasturi ifodalangan dono o‘gitini yodga olaylik:

Odami ersang, demagil odami,

Oniki, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami (“Hayrat ul-abror”)

Bunday hamohanglikka yana ko‘plab misollar keltirish mumkin. Navoiy “Xamsa”sini yaratishda ustozlarning dostonlaridan va xamsanavislik an‘analaridan ijodiy foydalanganini o‘zi e‘tirof etgan. Yoki «Tarixi muluki Ajam»ni yozishda muallif Firdavsiyning «Shohnoma», Jaloliyning «Jome‘ ut-tavorix», G‘azzoliyning «Nasihati ul mulk», Hamidulloh al-Mustavfiyning «Guzida» asarlari, shuningdek, «Tarixi Tabariy», «Tarixi Banokatiy», «Qozi Baydoziy» kabi tarixiy manbalarga tayanadi.

Ijodiy ta‘sir, an‘ana va novatorlik hamisha badiiy ijod va adabiy-estetik tafakkur rivojining muhim bir omili bo‘lib xizmat qilishi mumkinligini o‘zbek-rus adabiyoti aloqalari va badiiy tarjimalari misolida o‘rganish ham bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari sirasiga kiradi. Masalan, O‘zbekiston FA Til va Adabiyot instituti va taniqli adabiyotshunoslar tomonidan nashr etilgan va 90-yillargacha asosiy darslik sifatida foydalanilib kelingan “O‘zbek sovet adabiyoti tarixi ocherki” darsligida Mayakovskiyning o‘zbek shoirlariga ta‘siri xususida bahsli mulohazalar bildirilgan deb o‘ylaymiz. Chunonchi, Maqsud Shayxzodaga bag‘ishlangan biografik ocherkda uning deyarli barcha she‘rlari bevosita hayot voqealari va shoir tafakkuri bilan emas, balki, asosan, Mayakovskiy ta‘siri bilan bog‘lab o‘rganilishida shunday biryoqlamalik va sun‘iy bo‘rttirish alomatini ko‘ramiz. “Davrimizning buyuk shoiri V. Mayakovskiy faqat Shayxzodaninggina emas, boshqa ko‘pgina o‘zbek shoirlarining ham ijodiy o‘shida katta rol o‘ynagan. V. Mayakovskiy maktabini o‘tmagan, undan o‘rganmagan biron ham o‘zbek shoiri yo‘q desak, xato qilmagan bo‘lamiz.

Albatta, partiya daholarini madh etish ommaviy tus olgan 30-50-yy. bunday fikrlar avj olgan. Ammo bunday ko‘tarinki ta‘rif Navoiy yo Tolstoy kabi daholarga nisbatan aytilsa, mubolag‘a bo‘lmas edi. Darslikda Mayakovskiyning hamma o‘zbek shoirlariga mubolag‘aviy darajada ustozligi va ijodiy ta‘siri shu qadar ko‘p (40 marta) qayd etiladiki, beixtiyor o‘ylab qolasan kishi: bu bob SHayxzoda ijodi haqidami yo Mayakovskiyning hech bir qolip yo tasavvurga sig‘maydigan zo‘r “novatorligi” haqidami? Afsuski, 60-yillar keng tarqalgan bunday sun‘iy bo‘rttirishlar 80-yillar tanqid-adabiyotshunosligida ham ustuvor bir tamoyil bo‘lib keldi. Bunday e‘tiroz bildirishimizning jiddiy sababi shundaki, ustoz adabiyotshunoslarning ayrim asarlarida ham rus va o‘zbek adabiyoti ta‘siri masalalari ba‘zan biryoqlama-bo‘rttirib talqin etilgan. Bu holat ham sotsialistik mafkuraning zo‘ravonlik siyosati bilan bog‘liq

Tanqid va adabiyotshunosligimizdagi yana bir holatga e‘tiboringizni qaratishni istar edik. Ba‘zi adib va munaqqidlarimiz so‘nggi yillardagi adabiy jarayondagi ayrim ijobiy tamoyillarni ham, asosan, G‘arb adabiyotining ijodiy ta‘siri bilan bog‘lab talqin qilishga ko‘proq moyillik bildirishmoqda. Mas, tadqiqotchi D. Toshpo‘latova o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida “XX asr tongida Joysdan keyin maydonga chiqqan har qanday iste‘dod ijodida uning “men”i sezilib turadi. F. Kafka va A. Kamyu ijodining o‘zbek adabiyotining 90-

yillarida kirib kelgan vakillar iga ta'siri bugun qanday asarlarning dunyoga kelganligini vaqtning o'zi isbotlab turibdi"-deydiyu (18.) Bizningcha, bu o'rinda adabiy ta'sir fakti bir oz bo'rttirib yuborilgan ko'rinadi.

To'g'ri, ko'p yillar davom etgan siyosiy va mafkuraviy zug'umlardan so'ng bizda ham falsafiy-g'oyaviy, asos jihatdan xilma-xil yo'nalishga mansub, yangi adabiy va badiiy mukammal asarlar paydo bo'la boshladiki, bu esa adabiyotning san'at sifatida o'zining turli obrazli asl tabiatini namoyon qilishga zamin tayyorladi. Realizm bilan barobar deyarli barcha adabiy tur va janrlarda diniy-ma'rifiy, modernistik, an'anaviy va noan'anaviy talqin ustuvorligi seziladigan badiiy asarlar maydonga keldi. Biroq J.Joys, Kafka va Kamyu kabi G'arb adiblarining o'zbek adabiyotiga ko'rsatgan ijodiy ta'siriga ortiqcha baho berish ham biryoqlama fikr yuritish bo'lar edi. Bu jihatdan atoqli adibimiz Odil Yoqubovning "So'z"("Sharq" NMAK. Toshkent.2019. 496 b.) kitobidagi fikrlari muhimdir: "G'arb adabiyotiga intilish masalalarida chalkashib ketishdan ehtiyot bo'lish lozim... Men tabiatdan misollar keltiray, soddaroq bo'lishi uchun. Afrikada bo'abab degan daraxt o'sadi... Kokos degan bir daraxt ham bor...Ana shu daraxtlar O'zb-nga keltirilsa o'smaydi...Adabiyotda ham ana shu tabiatdagi xususiyat bor. U ham o'z zaminiga, ildiziga, an'alariga ega bo'lishi kerak. Ab.Qodiriylar buni yaxshi tushunishgan, shuning uchun ularning asarlarini xalq yaxshi ko'radi..."

Masn, yangi davr o'zbek adabiyotining asoschilari bo'lgan Abdula Qodiriy va Cho'lpon yoxud Oybek va Abdulla Qahhordek buyuk adiblarimiz ijodining milliy o'ziga xosligi va originalligini bir tomonga qo'yib turganimizda ham, XX asr 70-yillarida ijodt olamiga kirib kelgan birgina Tog'ay Murod kabi yosh adiblarimizning betakror asarlari va sof o'zbekona qahramonlariing, eng avvalo, milliy zaminga asoslangani va milliy tafakkur va ijodiy an'alarimiz asosida yaratilganining o'zi ham fikrimizni to'la isbotlaydi. Tog'ay Murod ko'proq an'anaviy baxshiyona yo'nalishdagi yozuvchi sifatida talqin qilinadi. Biroq uning adabiyotimizdagi eng jiddiy badiiy kashfiyoti, Nosir Fozilov ta'kidlaganidek, shaxs talqinidagi yangilikdadir. Bu borada o'zi sevib o'qigan, o'rgangan Kafka, Joys, Kamyu bisotlaridan o'tgan nimalardir bor: shaxs tabiati, baxti, baxtsizligi, qismati talqinida. Professor U.Normatov ta'kidlaganidek, T.Murod XX asr jahon modern adabiyotining eng muhim tamoyillarga hamohang yo'llardan borgan. Ma'suma Ahmedovaning aytishicha, adib haqiqatan ham J.JOYSNING "Uliss" romanining kattagina qismini, yuz sahifasini tarjima qilgan. Afsus, qo'lyozmaning taqdiri noma'lum: yo tarjima yoqmay yo'q qilingan, yoki qaergadir tashlab qo'yilgan. T.Murodning ayrim "modernchilar"ga qarata." Men ularga o'zbekona absurd, modern nimaligini ko'rsatib qo'yaman",-deb aytgan fikrlari ham bejiz emas edi. YA'ni chinakam milliylik va haqqoniylik demoqchi bo'lgan... T.Murod tanqidchilikda ko'proq an'anaviy baxshiyona yo'nalishdagi yozuvchi sifatida ham talqin qilinadi. Bu ham bir tomonlama yondashuv oqibati bo'lsa kerak. Masalan, Tog'ay Murod ot haqida yozganida shunaqa chiroyli tasvir qila oldiki, u tasvir qilgan otni beixtiyor "Boychibor" deb yuborging keladi! Nosir Fozilov yana bir ibratimiz xotira keltiradi: Ustoz(S.Ahmad) qanchalik katta yozuvchi bo'lmasin, baribir u kishi shaharlik-da, Tog'aydan maslahat olibdi. Davr masalasini hisobga olsak, unda qardoshlar sahnasiga chiqqan bizning asarimiz yakkayu yagona shu Tog'ay Murodniki bo'lib qoladi.

Bu mulohazalarga adabiy ta'sir va ijodiy an'ana kabi muammolarga bog'liq yana bir muhim tarixiy fakt va xotirani ham qo'shimcha qilishni lozim topamiz. Ba'zi yosh adabiyotshunos va kitobsevarlar uchun ham foydali bo'lishi mumkin bo'lgan bu tarixiy misol T.Murod va rus adabiyoti mavzusiga ham muayyan aniqlik kiritadi deb o'ylaymiz.

Darhaqiqat, Tolstoy, Dostoevskiy, Mandelshtam kabi ulug' klassiklar shaxsi va ijodini chuqur ixlos bilan o'rgangan Tog'ay Murod "Otamdan qolgan dalalar" romani dagi o'zbek ayollarining o'ziga o't qo'yishdek fojeali taqdirlariga yuksak insoniylik bilan hamdardlik ko'rsatgan rus shoiri **Mixail Dudinning** kuchli bir she'rini keltirishi ham adibning didi va madaniyati baland ekanligidan guvohlik beradi. Muhimi shundaki, ushbu she'r romanning etakchi g'oyaviy-badiiy mazmuniga hamohang ekanligi bilan tasvirni yanada kuchaytirishga xizmat qilganligini ham e'tirof etish lozim. Shuningdek, Tog'ay Murod Valentin Rasputinni "Rossiyaning eng kuchli yozuvchisi", deb bilardi. Ularning milliy tafakkuri, keng dunyoqarashi va adabiyotga, ijodkor shaxsi ga munosabatlarida ham havas qilsa arziydigan mushtarak xususiyatlar ko'pligi uchun ham T.Murod o'z asarlarini V.Rasputin rus tiliga tarjima qilishini xohlagan bo'lsa kerak. Valentin Rasputin ham bunga mamnuniyat bilan rozilik bildirganligi haqida etarli ma'lumotlar endilikda ayonlashmoqda. Bugungi kunga kelib u adabiyotimizning mumtoz siymosiga aylandi. Endilikda bunga yana bir karra ishonch hosil qilamiz.

Adabiyotlar:

- 1.Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. T.1983. Mirhaydarov H. Tafakkur gavhari. Xo'jand, 2006 y.178-b.
- 2.Qosimov U. Adabiyotning hayotbaxsh kuchi. T.2008.
- 3.Tog'ay Murod. Tanlangan assarlar. 3-jild. T. 2019.
- 4.Toshpo'latova D.Zamonaviy o'zbek nasrida muallif ongi va uni ifodalash shakllari.Fil.f.dis.T.2022, 18-b.

OTAMDAN QOLGAN DALALAR ASARIDA DAVR VA SHAXS RUHIYATI

JDPI magistranti: D. Usanov

Ilmiy rahbar: f.f.n, dots. Nodira Soatova

Bizga ma'lumki, har bir yozuvchining o'z uslubi, o'z yo'li bor. Misol qilib aytganda, ustoz yozuvchilarimiz Oybekning psixologik yondashish mahorati, Abdullar Qahhorning qisqa va teran fikrlash, mustaqillik davrida ijod qilganlardan Sharof Boshbekovning uslubi – yumor. Demakki shunday ekan, o'z yo'li va o'z uslubiga ega bo'lgan, nafaqat o'zbek, balki yevropa olimlarini ham asarlari bilan tanishtira olgan, nazariga tushgan yozuvchilar ham bor. Bu Tog'ay Murod. Ijodkorning har bir asarida surxoncha qarash, xalqona qarash bor. Asar qahramonlari oddiy, jaydari, bir so'zli, erkaklari g'ururli, ayollari esa itoatli va hayoda tengsiz. Buni biz "Oydinda yurgan odamlar", "Ot kishnagan oqshom", va biz batafsil to'xtalmoqchi bo'lgan "Otamdan qolgan dalalar" asarlarida oshkora va yaqqol ko'rishimiz mumkin. XIX asrda yurtimizni bosib olgan qashqirlar to'dasi xalqimizni qul qilishdi. Bu yo'lda qo'llaridan kelgan har narsani sinab ko'rishdi. Oddiy xalqni jismonan qiynoqlarda ruhiyatini sindirishdi, ziyolilarni esa ham jismonan, ham ma`nan sindirishdi. O'z yerimizning begona oyoqda toptalishini kuzatib turgan yuragida cho'g' yonayotgan erlar dushmanga qarshi bosh ko'tarishdi, bundayin ishga belida kuchi bo'lmagan bobolar esa ko'rmayin-kuymayin deya, yurtni tashlab bosh olib chiqib ketishdi. "Otamdan qolgan dalalar" romani yozuvchi Tog'ay murodning ilk romanlaridan hisoblanadi. undan oldingi asarlari ham xuddi

shu yo'sinda xalqni maqtadi, xalqni ulug'ladi. O'zbek ayol-u erkaklarini mardligini, tantiligini, bir-biriga bo'lgan muhabbatini yoritdi. Kishilarning ruhiyatini ochib berishda qisqa – qisqa so'z birikmalari, qisqa gaplar, so'z takrorlari, gap takrorlaridan foydalandi. Oqibat, asarlari dunyo yuzini portlatdi. Asardagi Jamoliddin ketmon, Aqrab Chayon, Dehqonqul, Aqrabning xotini, Dehqonqulning xotini, rais, Klara va Roza, umuman boringki, hamma qahramon ruhiyati, xarakteri ro'y-rost ochib berilgan. Har gapda o'zbek xalqi xarakteri, ruhiyati ochilgan. Birinchi navbatda ismlarga e'tibor qilsak, Jamoliddin – dinning yuzi, jamoli. Haqiqatan ham asarda kofirlar kelib yerini toptaganini hazm qilolmagan bobo yerini tashlab ketdi. Shu yerda chiroyli keltirish keltirib o'tilgan. Ariqdagi suvga nimadir tushsa, u loyqa bo'ladi. bu tabiat hodisasi. Endi Oqposhsho kelib, yerimizga o'tirdi, bo'liq yer rasvo bo'ldi, suvimizga cho'mildi, suv loyqa bo'ldi, deyiladi. bu yerda xalqimizning begona oyoq toptalishini yurtga isnod ekanligini yurakdan qanchalik his qilinishi aks ettirilgan. Ikkinchi avlod vakili bo'lmish Aqrab Chayon bu bilagida kuchi bor, mard o'zbek er yigitlari umumlashma obrazidir. Uning ruhiyatidagi dushmanga bo'lgan nafrat, ruhiyatidagi bosqinchilarga g'azab, ruhiyatidagi vatan va oriyat hissi butun o'zbek xalqi umumlashma ruhiyati edi. Uning gaplaridan hattoki rus askari ham ta'sirlanib, tan beradi. Ismi ham jismiday. Aqrab – ramziy ism. Butun oqposhsho askarlarining uyqusiga ham, ko'zi ochiqligida qo'rquv beruvchi odam. So'zlari ham keskir. Unga xoinlik qilib ushlab berishgandagi holatida aytgan so'zlari musulmon erlariga eng qattiq bo'lgan qarg'ish edi: - Ay, Normurod xunasa!- deya ket buriladi otamiz. – sen meni o'rislarga ushlab berding! Iloyim, qarigan chog'ingda tentak bo'l, ayolingni uch taloq qo'y, elga ermak, xalqqa shaloq bo'lib o'l, Ollohu akbar! [1:52]. Uning jiddiy so'zlari yurakka nashtarday sanchiluvchi so'zlar edi. U oxirgi o'lim chog'i ham faqat Vatan deya, hayqirdi. Shu yerda o'lishni afzal ko'rdi. Buning isboti sifatida mana bu parchani kiritib o'tamiz: **“Kafansiz o'ligim it o'likdayin O'rusiyada qolb ketadi. Bola-baqram qaysi mozorim borib yig'laydi? Shunday ekan, otarmanbo'lsang, mana, ko'krak – ot. O'z yurtimda ot. Shaxid bo'lsam – o'z el-yurtimda shaxid bo'layin. Shaxidimni o'z el-yurtim ko'msin!**

-oshingni yesa-da mard yesin, boshingni yesa-da mard yesin! Mana ko'krak – ma! [1:60]. Asarning keyingi avlod qahramoni Dehqonqul o'z oti bilan dehqon. Bu ism ham ramziy ma'noda bo'lib, fikrimizcha chor rossiyasigadek, sho'ro hukumatiga butun bir xalqimiz dehqon, ya'ni hamma ishlaydi, ishlaydi, yetkazib beradi, xuddi qul kabi. Qancha qiyin zamonlar o'tdi. Dehqonqul bu qiyinchilikni yoshlikdan ko'rib keldi. Yonida yosh payti ustidan dori sepilgan do'sti Ziyod bor edi. U dunyoga ziyodlik qildi-olamdan o'tdi. Yozuvchi Tog'ay Murod yer va odamning taqdirini o'xshash deya fikr bildirdi. Chunki yerga bahordan to kuzgachayin tinimsiz zahar solindi. Tindirishmadi. Oqibatda yer charchadi, unumsiz bo'ldi. Inson ham muttasil azobga, qadrsiz mehnatga duchor qilindi. Oxiri azobli o'lim topganlar qancha. Muttasil xo'rlik, kun otishi faqat dala bilan boshlanadigan, kun botib, tun boshlanishi bola qarash bilan o'tish, soatlik ham dam yo'qligi ayollarni-da bezdirdi. Qancha ayollar o'zlariga yog' quyib yoqib yuborishdi. Oxirida esa hech nima bo'lmaganidek, urug'ida shizofreniye(ruhiy xasta) kasalligiga uchraganlar bor edi, deyildi. Ularning fikricha, baxtli, quyoshli sovet davrida esi bor odam o'ziga o'lim tilamaydi. Shu so'zlarni o'zlariga g'oya qilib olishdi, hattoki bu haqda she'r, qo'shiqlar ham bitishdi:

Muncha shirin ekan bu – Sovet davroni

Mamnun yashar har inson yo'qdir armoni.[1:273]

Bunaqa ahmoqona she'rlar, qo'shiqlar faqat odamni kuldiradi, xolos. Kulganda ham achchiq kulgi. Asardagi keyingi qahramon Klara Xodjayevna. Dehqonqul ta'biri bilan

aytganda, Ideologiya. Bu qahramon bevosita o'ris mafkurasi qurboni. Ular nima desa, bajaruvchi robot. Rais ham xuddi shunday. Kattalar kelsa, qo'li ko'ksida. Shu zamonning real qahramoni. Chunki, biz to'g'ri tushunimiz kerak bo'lgan narsalar ham bor. Hayotda jon saqlab turish uchun qulluq qilishga –da majburlar bor. Bora-bora bu holat ularning tanlariga singib ketishadi va hayotida oddiy hol bo'lib qoladi. Bu kabi shaxslar befarq, loqayd insonlar sirasiga kiradi. Kimga nima bo'lyapti, qanday hol ro'y beryapti, ularga qizig'i yo'q. bu qahramonlarning hammasi hayotiy ramzlar timsoli. Ezilgan xalq timsoli, yaltoqlangan xameleonlar timsoli, ochko'z amaldorlar timsoli edi. Xususan, Aqrab chayonning xotini, Dehqonqulning onasi – Bolxin momo. Bu qahramon paxta deb bolasidan ayrilgan obraz. U keyingi kechirayotgan hayotida bu siyosat qanday siyosat ekanligini tushunib yetgan, oddiy qishloq hayotida ham bu siyosatning chirkin ekanligini eslatib turuvchi ramziy qahramondir. Dehqonqulning xotini esa ruhiyati taslim bo'lgisi kelmayotgan, yorug' kunlarni kutayotgan sho'ro davri ayolidir. Uning ruhi qo'zg'olon qilishga moyil edi. Faqat buni ilojisiz ekanligi uni doim ezib kelgan. Yaxshi kunlarga bo'lgan ilinj uni oldinga chorlagan ayollar ramzidir. O'lim oldidan uning beshikka yozgan gaplari uning bor hayotida ko'rib o'tgan hayoti achchiq kunlari edi. Shu yerda savol tug'iladi: xo'sh? Nega u aynan beshikka yozdi bu so'zlarni? Sababi, endi tug'ilgan chaqaloqni-da shu hayot kutyapti. Shu norasida ham begonalar uchun tinimsiz mehnat qiluvchi inson bo'lib yetishadi deb o'ylamoqdaydi. Dehqonqul obrazi ham aynan yerni sevuvchi, oddiy xalq vakili sifatida tanishtiriladi. U qayga borsa ha, xo'p deb turuvchi inson sifatida ko'rsatiladi. Bu uning aybi emasdi. Oddiy xalqning ishi nima bo'lsin? Kattalar o'z fikrini o'tkaza olmayotgan bir davr edi. Sho'ro hukumati har taraflama o'ylab, boshliq o'rinlariga faqat o'zlaridan kiritar edi. Dehqonqul asar oxirigacha yerni sevdi, yer uning do'sti bo'ldi. 1982-yillarda boshlangan “paxta ishi” deb nomlangan qatag'on mashinasi o'zbek ziyolilaridan tortib, oddiy axoligacha qonini so'rdi. Qilmagan ishlarini bo'yniga qo'ydirish uchun har qiynoqqa solib ko'rishdi. O'zbek xalqi buning-da oldida bo'yin egmadi. Boshini mag'rur ko'tardi. Asar oxirida Dehqonqul Sho'ro hukumatini tushunib yetdi. Oddiy xalqning vakili bo'lmish kishi tushunib yetdimi, demak, hamma tushundi. –**Ivan Ivanovich!**

Men 130 yil o'zim kiymadim, senga kiydirdim! Dini boshqa minba'd-minba'd el bo'lmaydi! Tili boshqa minba'd-minba'd el bo'lmaydi! Sen tirigim tirnog'ini yeding, o'ligim tirnog'ini yeding – ammo to'ymading! Men endi seni aka degan tillarimni kesib itga tashlayman! Men ... dalalarimni deya, qaytib kelaman! Yetti iqlimdan bo'lsa-da, qaytib kelaman! [1:333]. Bu hayotini qayta boshlovchi insonlar hayqirig'i bo'lib, jarangladi. Oqibat 1991-yil O'zbekiston mustaqil bo'ldi. Yurt o'ziga bek bo'ldi. Vatan bizniki bo'ldi. Qancha yurtni tark etganlar qayta kelib yurt uchun xizmatga qaytib keldi. Muhammad (SAV) shunday degan ekanlar: **“agar qavmim meni Makkadan chiqib ketishga majbur qilmaganida, hech ham o'z ixtiyorim bilan uni tashlab ketmagan bo'lar edim”**. [2]

Jaloliddin Rumiy esa shunday deya, aytib o'tganlar:

“Bo'ylakim, hubbul Vatan ermish ravo,

Sen vale bilgin vatanni, avvalo”. [3:112]

Qancha azobni ko'rgan yurtimiz tuprog'i endilikda yorug' va havosi musaffo bo'ldi. Milliy boyliklarimiz o'zimizda qoldi. Xalq erkin nafas ola boshladi. Har birimizga xalq uchun, yurt uchun nafi tegadigan inson bo'lish yor bo'lsin!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tog'ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”, Toshkent-2018
2. Internet saytlari
3. Jaloliddin Rumiy. “Nay nolasi”, Toshkent-2011

“JAZIRAMADAGI ODAMLAR”DA SAMAD OBRAZI TASVIRI

*Xamroyeva Soxiba, JDPI magistranti,
Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) Murodulla Jo‘rayev*

O‘zbek adabiyotida sermahsul ijod qilgan va qilayotgan yozuvchilarimiz ko‘p. Ana shunday ijodkorlardan biri iqtidorli adib Luqmon Bo‘rixon 1965-yil 15-fevralda Qashqadaryo viloyatining Yangiobod qishlog‘ida tug‘ilgan. Yozuvchining “Hizr ko‘gan yigit”, “Sirli muallim” qissalari, “Temir yo‘l”, “Jaziramadagi odamlar” kabi romanlarida insonlarning hayoti, keng ko‘lamli muammolar kichik taqdirlar orqali yoritib beriladi.

“Jaziramadagi odamlar” romanida ovloq cho‘l hududidagi cho‘lquvarlarning hayotiy kechinmalari ifoda etilgan. Asarning nihoyatda go‘zal va jozibali badiiy tili o‘quvchini beixtiyor o‘ziga rom qiladi. Yozuvchi asar voqealarini katta shahardagi oliygohda tahsil olayotgan Samadning bolaligida ko‘rgan kechirganlari, his-tuyg‘ulari haqida uning tilidan hikoya qiladi. “Qahramon tiliga singdirilgan piching, kinoya, ma’noli tabassum bilan adib o‘z qiyofasini ochgandek bo‘ladi”⁸⁶

Roman “Ashur qamoqdan chiqibdi” iborasi bilan boshlanadi. Odaticha otasidan kelgan xatlarni talabalar yotoqxonasining ikkinchi qavatidagi xonasiga yetgunicha o‘qib ulguradigan Samadning o‘y-hayollarini bugungi kelgan maktub birdan chalkashtirib yuboradi. “Ashur ... tajang qiyofa, chayir bo‘yu bast, o‘siq-quyuq sochlar ko‘z o‘ngimda jonlandi”⁸⁷ – deya eslay boshlaydi. Shu asnodda bolalik xotiralari birin-ketin bor bo‘y-basti bilan ko‘z oldidan o‘ta boshlaydi. Issiq jazirama cho‘l o‘rtasidagi 41-sovxoza (romanda mustaqillikdan oldingi voqealar aks ettirilganligi taufyili “sovxoza” shaklida qo‘llanilgan), unda yashovchi oddiy odamlar, otasi, onasi, Ulash agranom, Safarmurod chavandoz, Shabnam, O‘roqboy, Lolaxonlar bir-bir xotirasining uzoq qatlarida jonlana boshlaydi. Yozuvchi davr va muhit qiyofasini aks ettirishda peyzaj tasviridan o‘rinli foydalangan. “Qishlog‘imiz, to‘g‘rirog‘i, 41-sovxoza qarashli posyolka, uzoqdan qaraganda, paxta paykallari o‘rtasiga to‘kib tashlangan tosh-shag‘al, temir-tersak uyumiga o‘xshab ko‘rinadi”⁸⁸. Ushbu so‘zlar bir qarashda tabiat tasviriga xizmat qilayotgandek, lekin aslida cho‘lni o‘zlashtirish uchun harakat qilib, mehnat qilayotgan oddiy mehnatkash insonlarning turmush tarsi, qiyinchiliklari haqida fikr boradi.

Asarda Samad endigina beshinchi sinfni bitirgan, ko‘ngli toza bola. U O‘roq va Shabnamning “pochtachisi”. Bir kunda undan bunga, bundan unga besh-olti martalab xat tashisada charchamaydi. Qaytanga bu ishni hech og‘rinmasdan, bolalarcha soddalik va maroq bilan bajaradi. O‘roqday mashxur “akaxon” ga sirdosh ekanligidan quvonadi. O‘zi kabi xat tashuvchilik maqomida bo‘lgan To‘lqin hamda Durbeklar bilan bolalarcha qiziqish va quvlik bilan ovloq-ovloqda hech narsani tushunmasalarda xatlarni hijjalab o‘qishadi. Bu esa bolalarga xos qiziquvchanlikni ko‘rsatadi. Bu bilan yozuvchi asar qahramonlari orqali millatning oddiy odamlari qiyofasini ochib bermoqchi bo‘lgan, - desak xato bo‘lmaydi.

Samad roman bosh qahramoni Lolaxonning ayanchli qismatiga qishloq odamlarining fikrlari va qarashlari sababchi ekanligiga ishora qiladi. Ya‘ni shahardan qishloqqa kelin bo‘lib tushgan Lolaxon go‘zalligi va muloyimligini hisobga olmaganida, oddiy ayol. Uni avvaliga maqtab ko‘klarga ko‘tarishadi. Turmush o‘rtog‘ining vafotidan so‘ng uni vafo va sadoqat

⁸⁶ <https://kh-davron.uz>.

⁸⁷ L.Bo‘rixon “Jziramadagi odamlar” Toshkent-2012. 7-bet.

⁸⁸ Yuqoridagi manbadan. 8-bet.

timsoliga aylantirishadi. Qaynisi Ashur tomonidan o'ldirilganidan so'ng esa aynan o'sha odamlar uni xiyonatkorlikda ayblaydilar. Nomini balchiqqa belaydilar.

Asarda Qalqonov muallimning qizi Shabnamning yigitdan-yigitga ko'chuvchi beqaror muhabbati bolakay Samad tilidan juda chiroyli tasvirlanadi. "... sirdosh dugonalari tarqatgan mish-mishga ko'ra, to'y ayni qizigan pallada xiyonatkorlikka qarshi oshkora isyon ko'tarib, qishloqning qoq o'rtasidagi sershox daraxtlarning birida mag'rur osilib turgan bo'lishi kerak edi"⁸⁹. Lekin to'yni ko'zi qiymay dugonalari qurshovida bazmni kuzatayotgan qiz bolakayni hayratga soladi. Yana ham hayratlanarlisi keyinchalik Shabnamning Sherbek bilan xat yozishib yurishi (bu paytda ham Samad ularga "pochtachilik" qilad), vaqti kelib Sherbekni ham bir chetga surib boshqa bir yigitga turmushga chiqishi. Lolaga sevgi va sadoqat timsoli sifatida topinish odatini boshlab berishi toza ko'ngilli hikoyachi Samad qalbida g'alayon uyg'otadi. Muhabbat haqidagi tasavvurlarini ostin-ustun qilib tashlaydi.

Samad Lolaxon yangasini bolalarcha beg'uborlik bilan sevadi, qizg'onadi. Lolaxon unga sovg'a beradi va bera turib, – Meni yanga qilasizmi? – deganda Samad allanechuk bo'lib ketadi. Yangasining bergan sovg'asini qo'lidan qo'ymay asrab yuradi. Hatto uni olib qochib hazillashgan o'rtog'ini ham bu ishi uchun pushaymon qildiradi. Chunki Samad bu sovg'ani emas Lolaxonni o'zini asrab avaylayotgandek edi go'yo. U Lolxonni O'roq tirikligida qanday sevgan bo'lsa, yigit vafot etgandan so'ng ham shunday sevadi. Lolaxon Samad uchun muhabbat va ezgulik timsoli edi. Shuning uchun ham Lolaxon fojeali tarzda o'ldirilgandan keyin ham bunga ishonmaydi. Uning qayerlardadir tirik yurganiga umid bog'laydi. Hatto uni izlashga tushadi. Kursdosh qiz qiyofasida Lolaxonni izlaydi, ammo uning ko'zlarida o'zini topa olmaydi. Chunki Samad bu ayol timsolida ma'naviy idealini ko'rgan edi.

Bir so'z bilan aytganda, yozuvchi romanda Samad obrazi va uning odamlarga munosabati orqali turli insonlar ruhiyatidagi turlichaliklar, beqarorliklarga munosabat bildiradi. Olis qishloqlarda yashovchi odamlar hayoti orqali millatning turmush tarzi va tabiatidagi quvnoqlik va tundlik, yutuq va kamchiliklarni mahorat bilan tasvirlaydi. Asarning yutug'i ham ana shunda.

ALISHER NAVOIY--BUYUK ADABIYOTSHUNOS

**Xidirova Dilnoza, magistr, Jizzax DPI,
Ilmiy rahbar:f.f.d.U.Qosimov**

Ko'p asrlik jahon xalqlari tarixi silsilasida va umuman, insoniyat tamaddunida o'zbek xalqimiz tarixi kabi uning adabiyoti ham g'oyaviy-badiiy yuksakligi bilan alohida o'rin tutadi. "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz, ulug' ajdodlarimiz, beqiyos boylıklarimiz bor... nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham" bo'lishi shubhasiz.(1.8.)⁹⁰ Asrlar bo'yi o'z erki va mustaqilligi uchun kurashib kelgan matonatli xalqimiz hayoti va shonli tarixining badiiy in'ikosi bo'lgan adabiyoti ham boy va rang-barangligi bilan dunyo tamaddunida haqli ravishda faxrli o'rinni egaallydi.

⁸⁹ Yuqoridagi manbadan. 8-bet.

Ming afsuski, mustabid sho‘ro davridagi hukmron sotsialistik mafkuraning taqiqlari natijasida boy tariximiz va adabiyotimiz xolisona o‘rganilmasdan, aksincha, bunday harakatlar “o‘tmishni ideallashtirish”, “millatchilik” degan tamg‘alar bilan qoralanib, taqiqlab kelingan. 1917 yil Oktyabr “inqilobigacha bo‘lgan davr o‘zbek adabiyoti xon va beklar uchun yozilgan saroy she‘riyatidan yoki diniy mazmundagi asarlardan iborat”, - deb, butunlay inkor ham etilgan edi. Chinakam millatparvar shoirimiz Cho‘lpon o‘zining 1919 yili yozgan “O‘zbekim” nomli she‘rida ham faxr va armon bilan shunday satrlarni bitgan edi:

Dunyoda hamma xalq qiziqan gavhardek bebaho ot edi,
Hurriyat bo‘lganda sen kelding semrgan otga minayin deb.
Og‘zingga mallalar bir tepdi ma‘rifat xaromdir sartga deb...

Bu satrlarda tarixiy o‘tmishimiz va xalqimiz, millatimizning buyuk daholaridan qolgan bebaho ilmiy-adabiy merosimiz va uning mustamlaka davrida inkor etilgani chuqur aks etib turadi. Adabiy merosimizga nisbatan johilona munosabat va nigilizm siyosatining ayanchli oqibatlari Ahmad Yassaviy, Navoiy, Bobur, So‘fi Olloyor, shoh va shoir Feruz va Abdulla Qodiriy kabi ulug‘ siymolar shaxsi va ijodiga nisbatan qilingan johilona munosabat va tahqiqlarda yaqqol ko‘rinadi. Hatto Navoiydek buyuk daho ijodkorimizning dunyo tan olgan asarlariga nisbatan ham bepisandlik bilan munosabatda bo‘lingan va asossiz kamsitib kelingan. O‘zbek tilimiz va adabiyotimizni dunyo miqyosida tarannum etgan, xalqimiz ma‘naviyati rivojiga benihoya kuchli va samarali ta‘sir ko‘rsatgan va endilikda yanada yuksak qadrlanayotgan benazir siymo-bu, shubhasiz, Alisher Navoiydir. Dunyo miqyosida badiiy-estetik tafakkur taraqqiyoti va mumtoz adabiyotimiz, ayniqsa, butun turkiy olamda va dunyo sivilizatsiyasida ham yuksak mavqeni egallagan buyuk gumanist Alisher Navoiy ijodi va estetik an‘analarisiz qashshoq va sayoz bo‘lar edi. Navoiy yaratgan ilmiy-nazariy ta‘limot so‘z san‘ati va nafosat ilmining keyingi asrlardagi taraqqiyoti uchun ham ijodiy dasturilamal bo‘lib kelmoqda. Sharq va O‘rta Osiyo xalqlari she‘riyati tarixini Alisher Navoiy lirikasisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Uning lirik merosi o‘zigacha yaratilgan fors-tojik va turkiy she‘riyatning davomi bo‘lish bilan birga barcha zamonlardagi o‘zbek she‘riyatining eng yuksak cho‘qqisi hamdir. Har ikkala tilda yuksak badiiy asarlar yarata olish qobiliyatiga ega bo‘lgan hassos shoir 45 ming misraga yaqin turkiy tildagi she‘rlari va 12 ming misradan ortiq fors-tojik tilidagi she‘rlari bilan o‘sha davr she‘riyatiga katta hissa qo‘shdi.

Navoiy ijodi va g‘oyaviy-estetik an‘analari o‘zbek shoir va yozuvchilari ning badiiy-estetik tafakkuri shakllanishida muhim omil bo‘lishi bilan birga Istiqlol davri adabiyoti va ma‘naviyati uchun ham yuksak ijodiy namuna bo‘lib xizmat qilmoqda. Navoiyning bu ilhombaxsh badiiy va estetik an‘analari nafaqat o‘zbek adiblari ijodiga, balki butun turkiy xalqlar adabiyoti namoyandalari tomonidan ijodiy davom ettirilishi va ularning qudratli ta‘siri alohida tadqiqotlarga mavvzu bo‘la oladi. U nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun turkiy olamning betimsol shoir va mutafakkiri sifatida jahon badiiy-estetik tafakkuri rivoji va Renessans tarixida eng yuksak mavqeni egallagan genial san‘atkoridir. O‘zbek adabiyoti va estetik tafakkur tarixi va taraqqiyotini Navoiy ijodi va adabiy an‘analarisiz to‘liqtasavvur etib bo‘lmaydi. Navoiy adabiy-estetik ta‘limotining XX asr adabiyoti rivojidagi beqiyos o‘rni va ahamiyati, ilhombaxsh an‘ana va aqidalari o‘zbek va boshqa xalqlarning ko‘plab shoir va yozuvchilari tomonidan ijodiy davom ettirilishi muammolari o‘rganilmagan. “Insonshunoslik, haqparastlik va adolatparastlik g‘oyalari”⁹¹ bilan yo‘g‘rilgan Navoiy asarlari estetik qarashlari

bilan uyg'unligi, konsolidatsiyasi bilan ham-beqiyos ijodiy boylik sanaladi. Navoiy badiiy-estetik merosi va hikmatlari "insoniyat xizmatiga qaratilgandir". (2..3.)

So'nggi yillar yurtimizda Islom ma'rifati keng yoyilayotgani, xalqimiz qalbida muqaddas "Qur'on" va muborak hadislariga bo'lgan imon-e'tiqodi ortishi adabiyotning asl mohiyati, hayotiy va ruhoniylar ildiz va manbalarini, xususan, Navoiy ijodiyotining ahamiyatini kengroq idrok etishimizda ham muhim asos bo'ladi. Badiiy-estetik tafakkur olamiga bunday yondashuv nafaqat mumtoz adabiyotimiz namunalarini, balki hozirgi zamon adiblarimiz ijodidagi diniy motivlar, islomiy ma'rifat va e'tiqod g'oyalari teran ildizlarini chuqurroq anglashgimizga ham imkon beradi. Istiqbolimizdan so'ng o'tmish madaniy merosimizni va Alisher Navoiy ijodini chuqur o'rganish va haqqoniy baholashga sharoit yaratildi.

Haqiqatan ham, buyuk so'z san'atkori, iste'dodli munaqqid Alisher Navoiy, eng avvalo, o'zining benazir shaxsiyati va adabiy-estetik qarashlarining favqulodda boy va rang-barangligi bilan ilmiy-adabiy jamoatchilikni hamisha havratga solishi tabiiy. Bu muhim haqiqat eng avvalo shunda namoyon bo'ladiki, badiiy adabiyotning ijtimoiy-estetik mohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida Navoiychalik ko'p, chuqur va izchil fikr- mushohada yuritgan munaqqid o'zbek adabiy tanqidchiligi tarixida kamdan-kam uchraydi. Alisher Navoiyning o'zbek adabiy tanqidchiligi hamda adabiy-estetik tafakkuri rivoji oldidagi buyuk xizmatlaridan biri shundaki, u o'z davri adabiyoti, tanqid va adabiyotshunosligining eng dolzarb va eng muhim muammolarini g'oyat hozirjavoblik va o'ziga xos bilimdonlik bilan hal etib bera oldi. Buyuk munaqqidning badiiyat, tanqid va adabiyotshunoslik borasida ko'p yillik ilmiy-ijodiy izlanishlari va salmoqli asarlarining samarasi sifatida XV asr va XVI asr boshida badiiy ijod va adabiy-estetik tafakkur sohasida yaxlit bir ta'limot maydonga keldi. O'zbek adabiy tanqidchiligi va adabiyotshunosligining sardorlaridan biri sanalgan Alisher Navoiy adabiy-estetik qarashlari silsilasida asosiy o'rin tutuvchi dolzarb muammolar nimalardan iborat hamda ular bugungi adabiy-tanqidiy jarayon va adabiy-estetik tafakkur rivojida nechog'lik ahamiyat kasb etadi. Albatta, mavzuni keng yoritish uchun juda ko'plab salmoqli tadqiqotlar talab qilinadi. O'rni bilan shuni alohida ta'kidlash lozimki, Alisher Navoiyning hayoti, badiiy ijod hamda adabiy-tanqidchilikdagi faoliyatini o'rganish borasida adabiyotshunosligimizda bir qancha ishlar qilinmoqda. Bu izlanishlar, ayniqsa, so'nggi yillarda uana ham samarali tus olganligini e'tirof etish lozim. Alisher Navoiyning adabiyotshunos olim sifatidagi faoliyatini ko'rsatib beruvchi asosiy bir asar bu "Majolisu-n-nafois" tazkirasidir. Navoiy tazkirani 1491-98-yillar davomida yaratadi. Tazkirada XV asrda yashab, faoliyat yuritgan 459 shoir haqida ma'lumot keltiriladi. Navoiy tazkiraning muqaddimasida asarning tarkibiy qismi va nomlanishi haqida shunday yozadi: "... chun bu maqsudg'a yetildi, oni sekkiz qism etildi har qismi bir majlisg'a mavsum bo'ldi va majmuig'a "Majolisu-n-nafois" ot qo'yildi". Tazkiradagi shoirlar majlis, ya'ni qismlarga quyidagicha taqsimlangan: 1-majlisda 46 ta, 2-majlisda 91 ta, 3-majlisda 175 ta, 4-majlisda 72 ta, 5-majlisda 21 ta, 6-majlisda 31 ta, 7-majlisda 22 ta va 8-majlisda Husayn Boyqaro bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan. Alisher Navoiy adabiy-estetik qarashlari o'zining teranligi, mavzu-muammolarining rangbaranligi, qamrov doirasining kengligi hamda badiiy ijod jarayoni va amaliyoti bilan chambarchas bog'liq ekanligi alohida diqqatga sazovordir. Shubhasiz, badiiy adabiyotning yuksak san'at ekanligi, ijtimoiy-estetik ahamiyati va ijodkor ma'suliyati haqidagi qarashlar Alisher Navoiy estetikasining asosiy mezoni, bir so'z bilan aytganda, buyuk munaqqid qarashlarining markaziy nuqtasi hisoblanadi. Shubhasiz, Navoiyning adabiy tanqidchilik hamda adabiy-estetik tafakkur rivojidagi yaratgan

ijodiy ta'limoti so'z san'ati va adabiy tanqid ilmining keyingi yillardagi taraqqiyoti uchun ham yusak poetik mahorat va ilodi tajriba maktabi vazifasini o'taydi va bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.M.Mirziyoev. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi". №8.2017.

2. Alibek Rustamov. Alisher Navoiy hikmatlari. . So'zboshi. Toshkent. 1985.

3. Alisher Navoiy. "Majolisu-n-nafois. Toshkent. 2011.

4. Mallaev N. O'zbek adabiyotitarixi. T.1976.

FE'LNING SHART MAYLI SHAKLI VA ASIMMETRIYA

Ochilova Gulhayo, JDPI magistranti
Ilmiy rahbar: dots., Feruza Jumayeva

Ma'lumki, zamon, shaxs-son, mayl qo'shimchalari fe'l asoslariga qo'shib sintaktik jihatdan kesim vazifasiga xoslaydi va shu jihatdan fe'lning munosabat shakllari deyiladi. Fe'lning shart mayli shakli -sa qo'shimchasi yordamida yasaladi va turli grammatik ma'nolarni hosil qiladi⁹². M., shart, taxmin, gumon, orzu, istak, payt, to'siqsizlik, maslahat, sabab, tanbeh, xavotir kabi ma'nolarni yuzaga chiqaradi. Shu jihatdan shakl va ma'no nomutanosibligi, ya'ni asimmetriya hodisasi ro'y beradi.

Asimmetriya (nomutanosiblik) til taraqqiyotining ichki omillaridan biridir. Asimmetriya tushunchasi dastlab Praga lingvistik maktabining namoyandalaridan biri S.D.Karsevskiy tomonidan ilmiy asoslangan⁹³. O'sha davrdagi tadqiqotchilarning ishlarida asimmetriyani yuzaga keltiruvchi lisoniy omillar haqida so'z yuritilgan.

Bu borada ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Shularga asoslanib, bu hodisaning leksik-grammatik birliklarga taalluqli ekanligini ta'kidlab o'tamiz. Grammatik birliklar doirasida hosil bo'lishini shart mayli qo'shimchalari misolida o'rganamiz.

Shart mayli shaklidan so'ng kerak so'zi kelganda taxmin-gumon ma'nosi hosil bo'ladi. M., Shundan bo'lsa kerak, onda-sonda ustara tegadigan do'rdoq labining ikki cheti oqarib yotadi. (O'.Hoshimov "Dunyoning ishlari").

Shart mayli edi, ekan to'liqsiz fe'llari bilan kelganda orzu-istak ma'nosini bildiradi. M., Qaniydi, javobgarligi bo'lmasa. (O'.Hoshimov, "Dunyoning ishlari").

Tanbeh ma'nosini bildiradi. M., Kap-katta xotin nonni uvol qilib o'tirsang. (A.Muxtor "Chinor")

Shart mayli shakli bo'lmoq fe'li bilan kelganda xavotir ma'nosini bildiradi. M., Xudo yo'ldan ozdirmasa bo'lgani. (A. Muxtor "Chinor")

⁹² F.Jumayeva. Ona tilidan saboqlar. Qamar-media// Toshkent. 2020. b.203.

⁹³ Б.Х.Эшонкулов. Хозирги Ўзбек адабий тилида арабча луғавий ўзлашмаларнинг парадигматик ассиметририя муносабати, автореферат // Тошкент. 1996, - б.86.

Ergash gapli qo‘shma gap qismlarini bog‘laganda shart, to‘siqsizlik, payt, zidlik, sabab ma’nolarini bildiradi:

- Shart ma’nosini bildiradi. M., Aytgan ishlarimizning hammasini qilsang, seni oboramiz. (A. Muxtor “Chinor”);

- Zidlik ma’nosini ifodalaydi. M., “Fabrikant” ichida qoyil qildimmi deb tursa ham sirtida beparvolik bilan qo‘l siltadi. (A. Muxtor “Chinor”);

- Payt ma’nosini bildiradi. M., Xonada yolg‘iz ishlab o‘tirsam, farrosh kampir Vera xola kirdi. (O‘. Hoshimov “Dunyoning ishlari”);

- Sabab ma’nosini bildiradi. M., To‘rttasini yeb olsangiz, yarim kun kekirib yurasiz. (O‘. Hoshimov “Dunyoning ishlari”)

Maslahat ma’nosini ifodalaydi. M., Qissamiz oxirlashga oxirladi-yu lekin biromadi-da, bir uchrashuv haqida aytib o‘tmasak, tugallanmaganga o‘xshab qolyapti. (A. Muxtor “Chinor”) Bu gapda shart mayli shakli maslahat, zaruriyat, shart ma’nolarini ifodalagan. Bir shakl orqali turli ma’nolarning ifodalanishi asimmetriya hodisasini yuzaga chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda, shart mayli qo‘shimchasi ko‘plab gammatik ma’nolarni ifodalaydi. M., shart, gumon, taxmin, orzu. istak, payt, to‘siqsizlik, sabab, maslahat, zidlik va h.k. Shart mayli shakli alohida-alohida gaplarda kelib, turlicha ma’no anglatadi. Ba’zan bitta gapning o‘zida shart, istak, maslahat kabi ma’nolarni ifodalaydi. Shakl va manodagi nomutanosiblikning bunday ifodasi asimmetriya hodisasini yuzaga chiqaradi. Shart mayli qo‘shimchalari polisemantik bo‘lib, uning qaysi semani voqelantirayotgani nutq vaziyati, matndagi vazifa xususiyatlariga ko‘ra anglashiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. У.Турсунов, А.Мухторов, Ш.Раҳматуллаев Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 400 б.
2. M.Asqarova, R.Yunusov, M.Yo‘ldoshev, D.Muhamedova O‘zbek tili praktikumi. – T.: “IQTISOD-MOLIYA” 2006. – 304 b.
3. Б.Х.Эшонқулов. Ҳозирги Ўзбек адабий тилида арабча луғавий ўзлашмаларнинг парадигматик асимметирия муносабати, автореферат // Тошкент. 1996, - б.86.
4. F. Jumayeva Polisemem leksemalar doirasidagi sinonim va antonim semalar tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Qaqnus Mediya. 2019. -136 b.
5. F. Jumayeva, Ona tilidan saboqlar (Ma’ruza matnlari) – T.: “Qamar-media” nashriyoti, 2020. – 324 b.

FORS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI MUSHTARAK SOMATIK FRAZELOGIZMLARNING QIYOSIY TAHLILI

Narbayeva Nilufar Baxtiyor qizi
Fors tili yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Jahondagi ko‘pchilik tillar frazeologiyasining asosiy qismini somatik frazeologizmlar tashkil etadi. Somatik frazeologizmlar tarkibida somatizmlar, ya’ni tana a’zolari nomlarini bildiruvchi so‘zlar qatnashgan birliklardir. Aynan somatik frazeologiyada har bir xalqning

ko‘p asrlik tajribasi, turmush tarzi, madaniyati, ma‘naviyati, urf-odatlar va an‘analari o‘z aksini topgan bo‘ladi [Usmonova, 1998:11].

O‘zbek tilida somatik frazeologizmlar A. Isayevning “O‘zbek tilining somatik frazeologizmlari” nomli nomzodlik ishida tadqiq qilinadi. Mazkur ilmiy ishda hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi somatik frazeologizmlarning miqdori, ularning kommunikativ funksiyalari, variantlilik, sinonimiyasi, omonimiyasi va antonomimiyasi o‘rganiladi. “Bosh” va “ko‘z” so‘zi bilan yasalgan frazemalar ustida batafsil to‘xtalib, ularning tatarcha, turkmancha va ozarbayjoncha variantlari bilan qiyosiy tahlili beriladi. Olim somatik frazeologizmlar doirasini cheklab, unga hayvon tana a‘zolarining nomlarini kiritishga qarshi chiqadi. Shu bilan birga, “jon”, “ko‘ngil” singari so‘zlarni somatik leksikaga kiritishga asos yo‘q deydi.

A.Isayev tomonidan hozirgi o‘zbek adabiy tilida 1400 ta somatik frazeologizm borligi aytilgan [Isayev, 1976:8].

Sh.Usmonovning tadqiqotlari natijasida o‘zbek adabiy tilidagi qariyb 8000 frazeologizmdan 1800 tasi somatik frazeologizm ekanligi aniqlangan. Eron tilshunosligida somatik frazeologizmlar alohida tadqiqot obyekti sifatida deyarli o‘rganilmagan. Ular frazeologizmlar tarkibida *Amir Quli Aminiyning* “فرهنگ عوام تفسیر امثال” *Hasan Anvari* boshchiligida chiqqan ikki jildlik “فرهنگ کنایات سخن”, *Parviz Notel Xonlariyning* “تاریخ زبان فارسی”, Ali Akbar Dehxodoning “الغتمه دهخدا” hamda rus tilshunoslari tomonidan nashr etilgan *Golevaning* “Фразеология современного персидского языка”, *Yu.A. Rubinchikning* “Основы фразеологии персидского языка”, “Персидско-русский словарь”, *Veretennikovning* “Очерки глагольной фразеологии персидского языка”, o‘zbek tilshunoslari tomonidan M. Abidovning “Субстантивные фразеологизмы в современном персидском языке”, X.Z. Alimovning “Дарий тилида соматизмларнинг структур ва семантик таснифи” nomli dissertatsiyalarida, S.Sultonxo‘jayevaning “Forscha-O‘zbekcha- Ruscha frazeologizmlar lug‘ati” da uchraydi.

Iboralarning qiyosiy asnodda o‘xshash va o‘ziga xos tomonlarini o‘rganish ularni quyidagi turlarga ajratish imkonini beradi:

1. Mazmun va shakl jihatdan muqobil iboralar;
2. Ma‘no tomondan muqobil, ammo tarkibiga ko‘ra farqlanuvchi iboralar;
3. Shaklan bir xil, ammo ma‘no jihatdan farqlanuvchi iboralar

Frazeologizmlar tashqi ko‘rinishi jihatidan so‘z birikmasi va gap ko‘rinishida bo‘ladi. So‘z birikmasi ko‘rinishidagi frazeologizmlar: *ko‘ngli bo‘sh, enka-tinkasini chiqarmoq, jig‘iga tegmoq, bel bog‘lamoq, kir izlamoq, terisiga sig‘may ketmoq va h.k.* Gap tipidagi frazeologizmlar «**gap kengaytiruvchisi+kesim**» qolipi mahsulidir: *istarasi issiq, ichi qora, labi-labiga tegmaydi, ko‘ngli ochiq, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq, kapalagi uchib ketdi, po‘konidan yel o‘tmagan, tepa sochi tikka bo‘lmoq va h.k.*

Bundan tashqari frazeologizmlar leksik birliklar kabi iste‘mol chastotasi nuqtai nazaridan ham tasnif qilinadi. Bunga ko‘ra umumiste‘mol frazeologizmlari (*holdan toymoq, shunga qaramay, ro‘yobga chiqmoq*) va qo‘llanilishi chegaralangan frazeologizmlar farqlanadi. Qo‘llanilishi chegaralangan frazeologizmlar qo‘llanilish davri (eskirgan va zamondosh) va doirasi (dialektal, ilmiy, badiiy, so‘zlashuv) bilan ham ma‘lum bir tafovutlarga ega.

Fors va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning muhim bir qismini mazmun va shakl jihatidan muqobil iboralar tashkil etadi. Mazkur iboralar ma‘no va qurilish mosligi bilan cheklanib qolmay, ularning hadlari ham mos bo‘lib, morfologik qurilishi jihatidan bir xil

shakllangan bo'ladi. Quyida fors va o'zbek tillaridagi ba'zi mushtarak somatik frazeologizmlarning qiyosiy tahlili berilgan:

دیده چشم دیدن کسی یا چیزی را ندانستن *češm didan-e kasi, čizi rā nadāštan* “(kim yoki nimanidir) ko'rgani ko'zi bo'lmaslik”.

Ibora “*yomon ko'rmoq, nafrat bilan qaramoq, ko'rgani ko'zi yo'q*” kabi ma'nolarni anglatadi. Mazkur ibora kimni yoki nimanidir o'taketgan darajada yomon ko'rgan holatlarda ishlatiladi. Masalan:

دده یاسمن چشم دیدن راسو را ندانشت و اگر دستش میرسید با دست خودش خفه اش میکرد.

Dade Yāsoman češm didane rāsu nadāšt va agar dasteš mirasid bā dast-e xodaš xafe-aš mikard.

“Qariya Yosumanning **sichqonni ko'rgani ko'zi yo'q edi**, agar qo'lida bo'lganida uni o'z qo'llari bilan bo'g'ib o'ldirgan bo'lar edi”

Quyida xuddi shu iboraning o'zbek tilidagi shakli keltiriladi:

“Qo'ying! **Oson turmush qidiruvchilarni ko'rgani ko'zim yo'q!**”

دست راست کسی بودن *dast-e rāst-e kasi budan* “kimningdir o'ng qo'li bo'lmoq” iboraning fors tilidagi ma'nosi:

Kimningdir oldida eng yuqori darajaga ega bo'lmoq va uning eng yaqin kishisi bo'lmoq
تو را دست راست خود می کنم

To-rā dast-e rāst-e xod mikonam

“Seni o'zimning **o'ng qo'lim** qilaman”.

Iboraning o'zbek tilidagi ma'nosi: Rahbar, boshliq va sh.k. ning eng birinchi, eng ishongan yordamchisi.

“Soli sovuq mingboshining **o'ng qo'li** bo'lsa, Juma pismiqli Soli sovuqning **o'ng qo'li**”.

Tahlilga tortilgan ikkala jumla hamda ta'riflardan anglashimiz mumkinki, “kimningdir o'ng qo'li bo'lmoq” *دست راست کسی بودن* iborasi ikkala tilda ham birovning yaqin va ishongan kishilariga nisbatan qo'llanilib mazmun va shakl jihatdan to'liq muqobillikni hosil qilayapti.

پاها را توی یک کفش کردن / هر دو پا را توی یک کفش کردن *(tu-ye) yek kafš kardan // har do pā-rā dar (tu-ye) yek kafš kardan* “oyoqlarini bir etikka tiqmoq”, “ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq”.

پاهایش را توی یک کفش کرد که حضرت مرا طلبیده باید برم و اسخوام را سبک کنم

***Pāhāyaš-rā tu-ye yek kafš kard** ke “hazrat ma-rā talabide, bāyad beravam ostoxānam-rā sabok bekonam”.*

“**Ikki oyog'ini bir etikka tiqib** “hazrat meni istadilar, borib gunohlarimni yuvishim kerak” deb turib oldi”.

در نظر و عقیده *pāhārā tu-ye yek kafš kardan* iborasi “o'z aqida va qarashida oyoq tiramoq, qaysarlik qilmoq” degan ma'noda ishlatilmoqda. Bu o'rinda adabiy nutqdagi *dar* predlogi o'rinda, asosan, og'zaki nutqda qo'llaniladigan *توی tu-ye* predlogi qo'llanilganligini e'tiborga olish lozim. Ibora o'zbek tilida “Aytganini darhol bajarilishini talab qilmoq, qistovga olmoq” degan ma'noni bildirib keladi va ishlatilishi quyidagicha:

Otam uylantiraman deb, **ikki oyog'ini bir etikka suqib olgan**, holi-jonimga qo'ymaydi.

Yuqorida tahlilga tortilgan misollarda qo'llanilgan *pāhā-rā dar yek kafš kardan // har do pā-rā dar yek kafš kardan* “oyoqlarini bir etikka tiqmoq”, “ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq” iboralari ikki tilda ham bir xil ma'noni anglatib keladi, biroq iboralardagi fe'llarning turlichaligi tufayli qisman mutanosiblikni tashkil etadi.

be xun-e kasi tašne budan “kimningdir qoniga tashna bo‘lmoq”. azkur ibora Kimgadir “kuchli dushmanlik qilmoq, gina saqlamoq va alal-oqibat uni o‘ldirishga qasd qilmoq” degan ma’nodan fors va o‘zbek tillarida ishlatiladi:

" تا آن خدا بيمارز زنده بود بخونش تشنه بودی، حال يکھو عزيز شد؟"

*Tā ān xodā beyāmorz zende bud **hexunaš tašne budi**, hālā yekhu aziz šod?*

“U Xudo rahmat qilgur tirikligida **qoniga tashna eding**, hozir to‘satdan aziz bo‘lib qoldimi?”

“Ha xo‘roz? Buncha xo‘mrayasan? **Ooningga tashna** bo‘lib yuribsanmi deyman” (ziyouz.com).

Xulosa shundan iboratki, mazkur ibora fors va o‘zbek tillarida “kimningdir o‘limini istamoq” ma’nosida bir xil shakl va ma’nodan qo‘llaniladi.

Tahlil natijasida fors va o‘zbek tillaridagi mushtarak 200 ga yaqin somatik ibora aniqlangan bo‘lib, shulardan *دست dast* “qo‘l” (37 ta), *دل del* “yurak” (26 ta), *چشم češm* “ko‘z” (22 ta), *سر sar* “bosh” (14 ta), *جان jān* “jon” (12 ta), *گردن gardan* “gardan” (10 ta), *گوش guš* “quloq” (10 ta), *زبان zabān* “til” (10 ta), *دهان dahān* “og‘iz” (10 ta), *خون xun* “qon” (9 ta), *رو ru* “yuz” (6 ta), *پا pā* “oyoq” (5 ta), *پوست pust* “teri” (5 ta), *کمر kamar* “bel” (5 ta) ni tashkil etgan.

Tadqiqot so‘ngida shunday xulosaga kelish mumkinki, fors va o‘zbek tillarida somatik frazeologizmlarning salmog‘i anchaginani tashkil qilib, shulardan *دست dast* “qo‘l” (37 ta), *دل del* “yurak” (26 ta), *چشم češm* “ko‘z” (22 ta), *سر sar* “bosh” (14 ta), *جان jān* “jon” (12 ta) somalari ishtirokidagi iboralardir sermahsul, qolganlari esa kammahsuldir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка: Дисс канд.филол.наук. – Т.,1976
2. Усмонова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар: Филол. фан. номзоди. дис. – Т., 1998

KO‘MAKCHILARNI TARJIMA QILISHDA SEMIK TAHLIL USULI

Abralova Nafisa JDPI talabasi
Ilmiy rahbar: dots., Feruza Jumayeva

So‘zlarning leksik, grammatik, pragmatik ma’nolari, qo‘llanish doirasi, uslubiy bo‘yoqdorligi, tushunchani ifodalash imkoniyatlari, odatda, semantik tahlillar asosida o‘rganiladi. Shuningdek, so‘z ma’nosini semalarga ajratib o‘rganish nutqni rivojlantirish, boyitishda katta ahamiyatga ega. Jumladan, ayrim ko‘makchilar ko‘p semali bo‘lib, ularning ma’nosini ilg‘ash va nutqda o‘rinli foydalanish zarurdir. Ma’lumki, gap mazmunini to‘g‘ri ifodalash gap bo‘laklarining o‘rinli va tartibli qo‘llanishi bilan bog‘liqdir. Mazmunli gap tuzish, nutqni ravon va izchil bayon etishda ko‘makchilarning ham alohida o‘rni bor. Ayniqsa tarjima jarayonida gap mazminini ochishda ko‘makchilarning qanday ma’no qirrasini namoyon qilayotganiga e’tibor qaratish shart bo‘ladi. M., o‘zbek tilidagi ko‘p semali bitta ko‘makchi ingliz tiliga bir nechta so‘zlar bilan tarjima qilinadi. Tarjima jarayonida uning qaysi semani ifodalayotgani e’tiborga olinadi. Shu jihatdan tarjima jarayonida semantik

tahlillarga tayanish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. M., bilan ko'makchisi quyidagi ma'nolarni bildiradi:

1. "Ish-harakatning amalga oshishidagi birgalik, hamkorlik" ma'nosi;
2. "Vosita" ma'nosi;
3. "Ish-harakatning qachon sodir bo'lgani, qancha vaqt davom etganligi" ma'nosi;
4. "Harakatning bajarilish holatini, tarzini ifodalash" ma'nosi;
5. "Biror narsaning nima bilan mavjudligini bildirish" ma'nosi;
6. "Ish-harakat yoki holatning ro'y berishi, yuzaga chiqishiga asos bo'lganligi" ma'nosi.

Bilan ko'makchisining yuqoridagi ma'nolaridan ayrimlari ingliz tilida "with" so'zi bilan, ayrimlari esa "by", "on" predloglari va "all", "when" olmoshlari bilan ifodalanadi.

1. "Ish-harakatning amalga oshishidagi birgalik, hamkorlik" ma'nosida "with" predlogi ishlatiladi.

M.: I went to the library with my friends after class. (Men darsdan keyin do'stlarim bilan kitubxonaga bordim)

2. "Vosita" ma'nosida bilan ko'makchisining o'rnida bir nechta predloglarni qo'llash mumkin. M.:

a) He reaped with a sickle (O'roq bilan o'rdi) gapida "with" so'zi;

b) I go to university by bus (Men universitetga avtobus bilan boraman) gapida "by" (orqali, vosita) predlogi;

s) She goes to school on train (U maktabga poyezd bilan boradi) gapida "on" predlogi "bilan" ko'makchisining "vosita" ma'nosida ishlatiladi.

3. "Payt" ma'nosida, aynan bir paytda yoki ketma-ket sodir bo'lgan voqea-hodisalarni anglatishda "when" so'roq olmoshidan foydalaniladi. M.: The children entered the room, when the bell rang (Qo'ngiroq chalinishi bilan bolalar xonaga kirdilar). "Ish-harakatning qancha vaqt davom etganligi" ma'nosida esa "all" olmoshi ishlatiladi. M.: I read a book all night (Men tuni bilan kitob o'qidim)

4. "Ish-harakatning qay holatda bajarilganligi, ya'ni tarzini ifodalash uchun "with" yordamchi so'zidan foydalaniladi.

M.: The door opened with a hammer (Eshik zarb bilan ochildi)

5. Biror narsaning nima bilandir mavjudlik ma'nosini ifodalashda ham "with" so'zini qo'llash mumkin.

M.: "Her eyes were filled with fears" (Uning ko'zlari yosh bilan to'lgan edi)

6. "Ish-harakatning yuzaga chiqishiga nima asos bo'lganligi"ni "on" predlogi bildiradi. M.: "I came on the assignment of the rector" (Rektorning topshirig'i bilan keldim)

Demak, o'zbek tilidagi bilan ko'makchisining semalari ingliz tilidagi "with" yordamchi so'zi, "all" va "when" olmoshlari, "by", "on" predloglari bilan ifodalanadi.

O'zbek tilida uchun ko'makchisi ko'p ma'noli bo'lib quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1. "Atalganlik" ma'nosi;
2. "Madsad" ma'nosi;
3. "Sabab" ma'nosi;
4. "Xoslik, mo'ljallanganlik" ma'nosi;
5. "Evaz" ma'nosi.

Uchun ko'makchisining ushbu ma'nolarini ifodalashda ingliz tilida "for" va "to" so'zlaridan foydalaniladi.

1. “Atalganlik” ma’nosida “for” so‘zi ishlatiladi. M.: I got the book for you.
(Kitobni sen uchun oldim)
2. “Maqsad” ma’nosida “to” so‘zi qo‘llaniladi. M.: He returned home to see his mother. (U onasini ko‘rish uchun uyiga qaytdi)
3. “Sabab” ma’nosida ot so‘z turkumi (noun)dan oldin “for” so‘zi qo‘llaniladi. M.: He could not read the letter due for illiteracy. (Savodsizligi uchun xatni o‘qiy olmadi)
4. “Mo‘ljallanganlik” ma’nosida “for” so‘zidan foydalaniladi. M.: Textbook for students (O‘quvchilar uchun darslik)
5. “Evaz” ma’nosida “for” so‘zi qo‘llaniladi. M.: Thank you for your attention.
(E’tiboringiz uchun rahmat)

Demak, o‘zbek tilidagi uchun ko‘makchisining semalari ingliz tilida “for” va “to” yordamchi so‘zlari bilan ifodalanadi.

Orqali ko‘makchisining ma’nolari:

1. “Biror narsaning ichidan, o‘rtasidan yoki ustidan, biror narsa oralab, bir tomondan ikkinchi tomonga” ma’nosida ingliz tilida “through” so‘zi ishlatiladi.
M.: The garden is entered through the courtyard. (Bog‘ga hovli orqali kiriladi)
2. “Biror kimsa yoki narsa vositasida, yordamida, yordami bilan” ma’nosida esa “by” predlogidan foydalaniladi. M.: Will be sent by mail (Pochta orqali jo‘natiladi)

Sayin ko‘makchisining ma’nolari:

1. Sayin ko‘makchisi -gan shaklidagi sifatdoshlar bilan kelib, ish-harakatning tobora kuchaya borishini bildiradi. Ushbu ma’noni bildirishda ingliz tilida “as” predlogi ishlatiladi. M.: As they walked, the road became longer (Ular yurgani sayin , yo‘l uzoqlashardi)
2. Vaqt bildiruvchi so‘zlar bilan kelib, ish-harakatning tadrijiy rivojlanishini yoki takrorlanishini bildiradi. Bu ma’noda “by” predlogi ishlatiladi. M.: The country is growing by year. (Mamlakat yil sayin yuksalyapti)

Sari ko‘makchisining ma’nolari:

1. “Ma’lum tomonga , tomon, qarab” ma’nolarini bildiradi va bunda “to” predlogidan foydalaniladi.
M.: Science leads us to salvation (Ilm bizni najot sari yetaklaydi)
 2. -gan qo‘shimchali sifatdoshlar bilan kelib, ish-harakatning tobora kuchaya borishini bildiradi. Bu ma’nosida sayin ko‘makchisi bilan sinonim bo‘ladi va ingliz tilida “as” predlogi ishlatiladi.
M.: The rain grows heavier as they walk (Ular yurgani sari yomg‘ir kuchaydi)
- Qadar ko‘makchisining barcha ma’nolarida “until” ishlatiladi. M.: She read a book until morning. (U tongga qadar dars qildi)

Demak, o‘zbek tilidagi ko‘makchilar semalarining ifodasiga ko‘ra ingliz tiliga turli yordamchi so‘zlar, olmoshlar, predloglar yordamida tarjima qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Турсунов У., Мухторов А., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 400 б.
2. M.Asqarova, R.Yunusov, M.Yo‘ldoshev, D.Muhamedova O‘zbek tili praktikumi. – T.: “IQTISOD-MOLIYA” 2006. – 304 b.
3. F. Jumayeva Polisemem leksemalar doirasidagi sinonim va antonim semalar tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Qaqnus Mediya. 2019. -136 b.
4. F. Jumayeva, Ona tilidan saboqlar (Ma’ruza matnlari) – T.: “Qamar-media”

nashriyoti, 2020. – 324 b.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (ЎТИЛ). 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд, 2006. – 680 б; 2-жилд, 2006. – 672 б; 3-жилд, 2007. – 688 б; 4-жилд, 2008. – 608 б; 5-жилд, 2008. – 592 б.

NUTQNING TA’SIRCHANLIGINI OSHIRVCHI EMOTSIONAL-EKSPRESSIV FRAZEOLOGIZMLARNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Hamraqulova Mashhura, JDPI magistri
Ilmiy rahbar: f.f.f.d.(PhD) Z.SH.Jumayeva

Frazeologik birlik kelib chiqish jihatidan juda qadimiy bo‘lib, qariyb ikki asrni o‘z ichiga oladi degan taxminlar mavjud. Uning mohiyatiga to‘xtalganda quyidagicha izoh berish mumkin: “Frazeologik birliklar til egasi bo‘lgan xalqning ma’naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, yashash sharoiti, intilishi, voqelikka munosabati bilan uzviy bog‘liqdir”.

Frazeologik iboralar turli tillarda turli so‘zlar bilan birikib kelishi va bir xil ma’noga ega bo‘lgan so‘zlarning boshqa tillarda turlicha ma’no anglatishi bilan ham dolzarbdir. Chet tilini o‘rganishda, ayniqsa, so‘zlashuv va badiiy uslubda frazeologik ibora va birliklarning o‘rni nihoyatda katta.

Frazeologik iboralarning o‘ziga xos tomoniga nazar solsak, til birligi sifatida nutqqacha tayyor holda mavjud iboraning turli o‘ziga yarasha ma’no tomoni mavjud. Shunga ko‘ra iboralar turg‘un so‘z birikmasi deb ham yuritiladi. Iboradan anglashiladigan ma’no uning tarkibidagi so‘zlardan anglashiladigan ma’nolarning oddiy yig‘indisi bo‘lmay umumlashma, obrazli, ko‘chma ma’no sifatida gavdalanadi.

Shuningdek, frazeologik birliklardagi polisemiya, sinonimiya, variatsiya, antonimiya, omonimiya hodisalarini o‘rganmay turib, lug‘aviy birlik sifatida iboralarning boshqa belgi xususiyatlarini o‘rganib bo‘lmaydi.

Ma’lumki, iboralarning quyidagi xususiyatlari mavjud:

- Iboralar ahamiyati va qo‘llanilishi jihatidan, odatda, so‘zga teng keladi.
- Iboralar ko‘chma ma’no ifodalaydi va ta’sirchanlikka, obrazlilikka ega bo‘ladi.
- Iboralar gap tarkibida yaxlit ko‘rinishda bitta so‘roqqa javob bo‘ladi va bitta gap bo‘lagi vazifasini bajaradi.
- Ayrim iboralar tarkibiga boshqa so‘zlarni kiritish yoki tarkibidagi so‘zlarni o‘zgartirishi mumkin.

Frazeologik birliklardagi o‘rganish jarayoni hanuzga qadar o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Xususan, L.E. Binovich o‘z davrida polisemiya hodisasi mutlaqo o‘rganilmaganini ta’kidlaydi. Yana bir polisemiya haqida fikr yuritgan olimlardan biri Y.D. Apresyandir. U frazeologik sinonimiyani o‘rganish jarayonida polisemiya tufayli ancha murakkablikka duch kelganligini alohida ta’kidlaydi. Frazeologik birliklar, shuningdek, nutqning badiiy-tasviriy vositalari sifatida fikrning oddiy, betaraf bayonidan ko‘ra ko‘proq turli-tuman uslubiy vazifalarni hisobga olgan holda, ularni tarjimada bejirim talqin etishga intilish badiiy asarning obrazli hamda hissiy-tasviriy qiymatini qayta yaratish yo‘lidagi jonbozlik bilan chambarchas bog‘liqdir.

Frazeologik birliklar odatda hayotiy kuzatishlar zaminida paydo bo‘ladi. Xalqlarning moddiy dunyoni tasavvur etishda esa o‘xshashlik ko‘zga tashlanadi. Ammo

hech bir tilda frazeologik birliklar obyektiv borliqning barcha jabhalarini qamrab ola olmaydi. Masalan, muayyan tushunchani obrazli yoki his-hayajonli ifoda etadigan bir til o'zga til frazeologiyasi tizimida o'zining mos ekvivalentiga yoki muqobil variantiga ega bo'lmashligi mumkin. Agar ba'zan asliyat va tarjima tillarida mavjud bo'lgan ayrim frazeologik birliklar mazmuniy-uslubiy jihatdan bir-birlariga mos kelsalarda, ular ochiq-oydin ko'zga tashlanib turadigan milliy bo'yoqqa ega bo'ladi, bu xususiyati ularning tarjimada bir- birlarini almashtirishlariga yo'l qo'ymaydi.

Frazeologik iboralarning ahamiyati va qo'llanilishi jihatidan so'zga teng kelishi, ko'chma ma'noni ifodalashi, ta'sirchanlikka, obrazlilikka ega bo'lishi, gap tarkibida yaxlit ko'rinishda bitta so'roqqa javob bo'la olishi va bitta gap bo'lagi vazifasini bajarishi kabi xususiyatlari ham ahamiyatga molikdir. Iboralardan unumli foydalanish nutq ta'sirchanligini ham oshiradi.

Frazeologik birliklar nutq madaniyatini, badiiy-tasviriy vositalarini, fikrning turli-tuman uslubiy vazifalarini hisobga olgan holda, ularni bejirimgina talqin etishga, obrazli hamda hissiy-tasviriy qiymatini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Frazeologik birliklarning o'ta murakkab jarayon ekanligi asosan ularning leksik, semantik va qurilish jihatlaridan murakkabligiga bog'liqdir.

Har bir til frazeologik zaxirasi tarkibida xalq hayotiga mansub ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar, axloqiy va ma'naviy-madaniy me'yorlar, ruhiy holatlar, diniy tasavvur, milliy an'ana va urf-odatlar o'z aksini topgan bo'ladi. Bir talay frazeologizmlar esa milliy xususiyatga egaligi bilan ham bizga har bir millatning dunyoqarashini, yashash tarzini, urf-odatlari va an'analarini to'la aks ettirib bera oladi.

V.V.Gudikova o'z fikrini quyidagicha ifodalaydi: "Frazeologiya – o'ta murakkab hodisa bo'lib, uni o'rganish tadqiqotning o'ziga xos metodini talab qiladi, ayniqsa, boshqa fanlar – leksikologiya, grammatika, stilistika, fonetika, til tarixi, falsafa, mantiq, o'lkashunoslikka doir bilimlarni qo'llashni talab qiladi" deb hisoblaydi.

Muayyan frazeologik birlikni goho na ekvivalent, na muqobil variant va na qalqa yordamida o'girishning imkoni topiladi. Bunday hollarda san'atkorlar noiloj tarjima amaliyotining tasviriy usuliga murojaat qiladilarki, mazkur usul yordamida birliklar ma'nolari erkin ma'nodagi so'z yoki so'z birikmalari vositasida tushuntirib qo'ya qolinadi. Ushbu holatlarda asliyatdagi frazeologik birliklar tarkibida mujassamlashgan uslubiy vazifalarining qayta yaratilishi haqida so'z bo'lishi mumkin emas. Ushbu holatlarda bayon etilgan fikrning ta'sir kuchi pasayadi, aniq va siqqligi yo'qoladi. Bu esa o'z navbatida asliyat matni badiiy qiymatining pasayishiga olib keladi.

Bir xil qurilishli hamda ma'no va uslubiy vazifali frazeologik variantlar tarkibida o'zaro yaqin narsa va hodisalar nomlari qo'llaniladi. Bunday frazeologizmlar tarjima tilida ko'pincha bir-birlariga variant hisoblanib, tarjimada foydalanish mumkin bo'lgan o'z ekvivalentlariga ega bo'lmaydilar. Basharti mavjud variantlardan biri tarjima tilida unga leksik tarkib jihatidan mos ekvivalentiga ega bo'lsa, ikkinchisi undan bir, goho ikki komponentga farq qiladi.

Frazeologik iboraga milliy xususiyat baxsh etuvchi komponent sof milliy asos sifatida xizmat qiluvchi tarixiy, diniy va boshqa dalillarga tayanmasdan, tarjima tili sohiblariga tanish milliy urf-odatlar bilan bog'liq bo'lsa-yu, ularning urf-odatlariga zid bo'lmasa, bunday iborani bemalol tarjima usullaridan biri kalka usulida talqin etish mumkin. Bunday paytda asliyatda qo'llanilgan birlikning obrazlilik hamda his-hayajon ifodasi xoli bo'lishining ahamiyati katta.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, frazeologiya bilan bog‘liq jarayonlarda tarjima, tahlil, ijodkorlik kabi xususiyatlar uning davlat tilining so‘z boyligini, ularning turli qirralarini namoyon etuvchi ifoda vositasi bo‘lib xizmat qila oladi.

FOYDALANILGAN DABIYOTLAR:

1. O‘zRXTV Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti O‘zbek tilshunoslik kafedrasida ma’ruza matnlari. – Nukus, 2012. 114-bet.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/qarshi>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/xorazm_shevasi

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTIMIZ YALOVBAR DORI

Abdullayeva Zilola, magistr, Jizzax DPI.
Ilmiy rahbar: f.f.d U.Qosimov

Necha ming yillik taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan so‘z san‘ati va adabiy-estetik tafakkur sohalarida noyob asarlar yaratib, olamshumul shuhrat qozongan ko‘plab ulug‘ alloma hamda mutafakkirlar yashab o‘tishgan. Lekin ham badiiy ijodda, ham adabiy-estetik tafakkur va tilshunoslik olamida Alisher Navoiy kabi bebaho kashfiyotlar yarata olish baxti hamma ulug‘ ijodkorlarga munaqqidlarga ham nasib etavermaydi. O‘zbek adabiy tilimiz va adabiyotimizning benazir asoschilaridan bo‘lgan Alisher Navoiy g‘oyat serqirra ijod sohibi sifatida ham duhyoilm ahlini hayratga solib keladi. U chinakam vatanparvar va millatparvar daho san‘atkor sifatida ona tilimizni ham jonkuyar yalovbardori va himoyachisi bo‘la olganligi ham tahsinga loyiqdir. Bu jihatdan **“Muhokamat ul-lug‘atayn” (“Ikki til muhokamasi”)** asari na faqat o‘zbek tilshunosligida, balki jahon tilshunosligida ham alohida o‘rin tutadi.

Alisher Navoiy o‘zining ulkan dengizga qiyos etishga arzigulik badiiy ijodi bilan turkiy adabiyotni jahoniy mavqega ko‘tardi, ayni choqda, bu til imkoniyatlarini o‘sha davrda mashhur bo‘lgan arab, fors-tojik, hind tillaridan qolishmasligini amalda isbotladi. Ulug‘ shoir turkiy til yetukligini nazariy jihatdan ham asoslash niyatida 1499-yilning dekabrda “Muhokamat ul-lug‘atayn” risolasini yozib tugatdi.

“Muhokamat ul-lug‘atayn”da so‘z durga qiyoslanadi, uning daryosi ko‘ngil sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, so‘zning durdan tafovut etiladigan jihatlarining benihoya ko‘pligi, uning “sharafidin o‘lgan badang‘a ruhi pok et”ishi, “kasifidin (qo‘polligi, nojo‘ya aytilishidan) hayotlig‘ tang‘a zahri halok xosiyati zuhur et”ishi bayon qilinadi. Shu tariqa insonga in‘om etilgan ilohiy ne‘mat so‘z so‘zlashdan muddao ma‘no ekanligi asarda o‘z ifodasini topadi: «Ammo chun alfoz va iboratdin murod ma‘nidur va mazkur maxluqotdin maqsud insondur va ul mazhari maoniy va bayon, so‘z aning so‘zindadur va takallum aning kalomida borur”(4.9)

Alisher Navoiy turkiy tilning “fasohat-u diqqati” (ravon, yoqimli, qoidaga muvofiq-u nozikligi) va “balog‘at-u vus‘ati” (badiiy ifoda-yu keng imkoniyatlari) haqidagi rad etib bo‘lmas fikrlarini risolada bayon qilish uchun uni o‘zi mukammal bilgan fors-tojik tili bilan chog‘ishtirishni ma‘qul topadi/ Bu uslub muallifning risola yozishdan ko‘zlangan maqsad-muddaosini amalga oshirish uchun eng to‘g‘ri imkoniyat edi. Alisher Navoiy turkiy til haqidagi umumlashma- xulosalarini boshqa bir til imkoniyatlari bilan qiyoslamay bayon qilsa, uning nazariy mulohazalari shunchaki o‘z ona tilini maqtashdangina iborat bo‘lib qolishi

mumkin edi. Shu bois risola muallifi har ikkala tilning zukko bilimdoni, bu tillarda o'las badiiy asarlar ijod etgan taniqli shoir sifatida asardagi turkiy tilning fazilatlariga oid mulohazalarini juda asosli dalillar bilan quwatlantiradi.

“Muhokamat ul-lug‘atayn”da turkiy-o‘zbek va fors-tojik tillari imkoniyatlarini taqqoslashdan yana bir muddao: o‘sha davrda fors-tojik tilida ijod qilishga mayli ko‘proq bo‘lgan o‘zbek shoirlarini turkiy tilning “fasohat-u diqqati, balog‘at-u vus‘ati”dan xabardor qilish edi. Alisher Navoiy risolada fors-tojik tilida jahoniy mavqega ega bo‘lgan badiiy asarlar ijod etilgan bo‘lib, turkiy tilda bu jarayonning rivoji ancha sust borayotganligiga e‘tiborni qaratadi. Shuningdek, buning sabablarini izohlashga harakat qiladi. Muallifning fikricha, shoirlar turkiy tildagi ko‘p ma‘noli so‘z va ifodalarni yetarUcha anglab, ularni she‘riyatda mahorat bilan qo‘llash mehnatidan qo‘rqadilar, mushkullardan zadalanib, osonlikka mayl qiladilar. Ikkinchi sabab: ba‘zi idrokli so‘z san‘atkorlari o‘z zamonasidagi hukmron an‘ana doirasida qolishni ma‘qul ko‘radilar. Uchinchi sabab: yosh ijodkorlar o‘zlariga ma‘qul bo‘lgan asarlarini tajribali shoirlarga ko‘rsatib e‘tirofga sazovor bo‘lishni istaydilar. Biroq o‘sha taniqli so‘z san‘atkorlari forsiygo‘ylardir. Ular turkiy tildan bahramand emaslar. Shu bois endi ijod yo‘liga kirib kelayotgan shoirlar turkiyga emas, forsiyga mayl ko‘rsatadilar. Alisher Navoiy turk shoirlarini nihoyatda latofatli bo‘lgan o‘z ona tillarida ijod qilishga da‘vat etadi va zamon hukmdori Sulton Husayn Boyqaro tomonidan bu haqda maxsus farmonlar qabul qilinganligini eslatadi: “Va iltifot va ehtimom yuzidin ba‘zi ma‘nilar topib, nazm qilurg‘a hukmlar ham joriy boldi va so‘z uslubig‘a ta‘yinlar va adosig‘a ta‘limlar ham izhori bo‘ldi”(4.38). Turkiy til va adabiyot ravnaqini niyat qilib risola yozishga kirishgan Alisher Navoiy o‘z ona tilining fors tiliga xos bo‘lmagan, muhimi, badiiy ijod uchun juda qo‘l keladigan ba‘zi xususiyatlarini “Muhokamat ul-lug‘atayn”da keng bayon qilib beradi.

Ma‘nodoshlik—badiiy uslub ziynatidir. Alisher Navoiy masalaga mana shu nuqtai nazardan yondashib, turkiy tildagi bir sinonimik qatorni tashkil qiluvchi so‘zlarning barchasini fors-tojik tilida uchratib bo‘lmashligiga diqqatni jalb etadi. Buning isboti sifatida “Muhokamat ul-lug‘atayn”da fors tilida «muqobili bo‘lmagan» yuzta fe‘lning ro‘yxati keltiriladi. Jumladan, “sipqarmoq” va “tomshimoq” so‘zlari haqida bildirilgan mulohazalari turkiy til nafosatini yaqqol namoyon etishi bilan ahamiyatlidir;

1 “Shuaro akobiridinki, ba‘zi “may” ta‘rifida mubolag‘a qilibdurlar va bu mo‘taddun bih amredurki, may ichmoq qavoidida so‘z ko‘p surup, zarofat nihoyatsiz zohir qilurlar. Biri sipqarmoq lafzidurki, mubolag‘a mundin o‘tmas. Turkcha nazmda bu matla’ bordurkim. Bayt:

Soqiyo, tut bodakim, bir Iahza o‘zumdin boray,

Shart bukim, har necha tutsang labo-lab sipqaray.

Oyo! Bu sipqaray lafzi mazmunig‘a yetganda, forsiy she‘rda ne iloj qilg‘aylar? Va tomshimoqki, g‘oyat zavqdin bot ichmas va lazzat topa-topa, oz-oz ichar. Bu g‘arib ma‘ni adosida turkchada bu matla’ bordurki. Bayt:

Soqiy chu ichib, menga tutar qo‘sh:

Tomshiy-tomshiy ani qilay no‘sh” (3. 13-14)

“Muhokamat ul-lug‘atayn”ning muhim xususiyatlaridan yana biri shuki, unda turkiy tilda shakldosh so‘zlarning juda ko‘plab uchrashiga alohida e‘tibor qaratiladi. Bu tajnis va iyhom badiiy san‘atlari bilan ziynatlangan baytlar, she‘rxon tuyg‘ularini junbushga keltiruvchi tuyuqlar ijod etish uchun qo‘l keluvchi til imkoniyatidir. Alisher Navoiy risolada ot (ism), ot (hayvon), ot (otmoq fe‘l) va it (ko‘pak), it (yo‘qol), it (itar) shakldosh so‘zlarining she‘riyatda qo‘llanishiga misol tariqasida ikki tuyuq keltiriladi va bir necha jinsdosh

soczlarning ma'nosini izohlaydiki, bular ham o'zbek tilimizning boyligidan yorqin dalolatdir (4.18-19).

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Xamsa. Toshkent. 1960.
2. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-Iug'atayn. T.2014.
3. Mallayev N. O'zbekadabiyoti. T. 1976.

HIKOYALARIDA KO'NGILDAGI YASHIRIN ISHQ MASALASI (Luqmon Bo'rixonning "Tokchadagi tumor" hikoyasi misolida)

**Aliyeva Sevinch Sayfiddin qizi JDPI magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.f.d (PhD) Turopova Parizoda**

Har bir insonning tashqi ko'rinishi har xil bo'lganidek, uning ichki dunyosi, o'y-hayollari, dunyoqarashi ham turlicha bo'ladi, albatta. Shuningdek, insonda yana bir ulug' nemat borki, bu Ko'ngildir. Ushbu ko'ngilda insonning eng samimiy va beg'ubor tuyg'ulari, illohiy hissiyot hisoblanmish muhabbati yashirindir. Ko'ngil illohiy tuyg'u bo'lsa, adabiyot - ko'ngil ishidir. Istiqloq davri adiblarining aksariyati qahramon yaratishda mana shu ko'ngil masalasini yoritishga harakat qilishadi, zamonaviy o'zbek adabiyotida sermahsul ijodkorkardan biri bo'lgan, Luqmon Bo'rixon asarlarida ham ko'ngil muhim o'rin egallaydi. Inchun Luqmon Bo'rixon hikoyalaridagi beaded samimiyat, tuyg'ular chinligi kishini beixtiyor o'ziga asir qiladi. Adib tasvirlagan obrazlar inson tuyg'ularini, hissiyotini shu qadar chuqur aks ettiradiki, ularni darhol sevib qolasiz. Chin insoniy sezimlarning yaxlit va ta'sirchan ifodasi bilan dilni rom etadi.

Quyida Luqmon Bo'rixonning "Tokchadagi tumor" hikoyasidagi qahramonlar ko'ngildagi yashirin tuyg'ularini to'g'risida to'xtalamiz. Hikoyaning bosh qahramoni o'rta yoshli, oilali, ishli inson bo'lib uning ko'ngilida bir evrilish sodir bo'ladi, yani bir ayolga bo'lgan muhabbati uni chuqur o'yga tortadi va yana o'z hayotiga qaytadi. Uning ko'nglidagi kechayotgan o'y-kechinmalar ayollar obrazi orqali ochib beriladi. Shu o'rinda aytish mumkinki, "Insonshunos bo'lmish adabiyot birinchi navbatda ayolshunoslik, ya'ni ayolni o'rganish, inkishof etish ilmidir. Kuzatsak, eng qadimgi asarlar ham ayolga bag'ishlangan, ular konfliktini ayol va unga aloqador narsalar tashkil etadi. Hatto aytish mumkinki, adabiyot taraqqiyoti ayol mavzusining badiiy tadqiqi uning teranlasha borishi bilan chambarchas bog'liq"[1;47] bo'lishi barcha davrlar adabiyoti uchun hos bo'lgan xususiyatdir.

"Tokchadagi tumor" hikoyasida To'lqin fermer chet elga pishloq ishlab chiqarish sirlarini o'rgangani boradi. U yerdagi ishlarini bitirishganidan so'ng hamrohlari bilan vaqtini o'tkazish uchun muzeyga boradi. Aslida esa, "chala-yarim kiyingan satanglarni tomosha qilish ilinjida"[2-262] muzeyga kirishgan edi. Mana shu jumlaning o'zidayoq hikoyaning asl mohiyati ochiladi, sababi qahramon ayoliga bo'lgan muhabbatini hali anglab yetmagan edi. Muzey hodimasi eksponatlari ichida tokchadagi qurib-qovjiragan yurakdek tirishibgina yotgan tumorining tarixini so'zlab beradi. Emishkim, Saljuqiylar hukmdori bo'lmish Selem jang oldidan suyuqli rafiqasi Duygu begimga momolaridan qolgan eski bir tumorni berib ketadi. Bu tumor juftliklarning muhabbatiga muhabbat, sadoqatiga sadoqat qo'shar ekan. Lekin sulton Selem jangdan omon qaytmaydi, rafiqasi esa bunga chiday olmay aqldan ozib

dasht-u biyobonlarga bosh olib chiqib ketadi. U ham uzoq yashay olmay tumorni ko'ksida mahkam quchganicha jon taslim qiladi, qo'lidagi tumorni esa arang ajratib olishgan ekan, shu tahlid tumor sulton saroyining eng bebaho mulki, muhabbat ramzi bo'lib qolgan emish. Ushbu hikoya To'liqinni sehrab qo'yadi, ko'z oldida usha malika gavdalanaveradi va beixtiyor shu tumorni sotib olmoqchiman deydi, hamma kulib tumorni nima qilasan deyishsa, xotiningga sovg'a qilmoqchiman deb aytadi. Ushbu jumla orqali ham hikoyaning tom ma'nosi ochiladi. Sababi chala-yarim kiyingan satanglarni tomosha qilish ilinjida muzeyga kirishi va ushbu tumorni xotininga sovg'a qilmoqchi bo'lganligi ayoli bilan oralaridagi tuyg'ularning yaxshi emasligi, yoki o'zaro munosabatlaridagi anglashilmovchilikdan dalolat beradi. Safardan qaytayotib uyiga yetmasdan turib mashinadan tushib qolib, dalalarini aylanib uyiga bormoqchi bo'ladi. Uyiga yaqin adirlikda xotini ko'radi. Oldiniga ko'zlariga ishonmaydi, huddiki, necha kundan beri es-hushini o'g'irlagan malika uyi tomon kirib ketadi. Shundagina anglab yetadiki, ko'z oldida gavdalangan malika siymosi o'zining xotini ekan. Uyiga kirib dam olmoqchi bo'lganida servantdagi bir buyum e'tiborini tortadi, borib qarasaki, o'sha tumor, xotinidan so'rasa unga qaynonasi berganligi, undan ter hidi kelib turgani aytgani uchun ancha buyon taqib yurmayotganligini aytadi. Bulardan ma'lum bo'ladiki, To'liqinning boshqa ayollarga chalg'ishi, xotining uy ishlari bilan o'ziga e'tibor qarata olmagan, malika siymosida o'z xotini gavdalantirgani esa o'z xotininga butun qalbi, chin ko'ngildan muhabbat quyganligi edi. Tumorni sotib olib xotininga bermoqchi bo'lganligi esa, xotini unda ko'ngli yo'q deb hisoblashi, uyda tumorni ko'rganida xotini ham uni ardoqlashini tushinib yetadi. Tumordan ter hidining kelib turishi uzoq o'tmishdan saqlanib kelayotgan urf-odatlarimiz, ayollarning turmush o'rtoqlariga bo'lgan vafo va sadoqatlari, oila va uy-ro'zg'or deb butun borliqlaridan kechib xizmat qilib yelib yugurib, sochlari oqarishini anglatadi. Yozuvchi bu bilan nima demoqchi bo'libdi, hozirgi zamonning eng og'irli nuqtalaridan biri bo'lgan oilalarning buzilishi, juftliklarning bir-birlarini qalban tushuna olmasliklariga, zid sifatida bizning azaliy muqaddas bo'lgan oilaga bo'lgan sadoqat, vafo bilan javob qaytarayotgandek. Zero, jamiyatimizdagi bo'layotgan o'zgarishlar, oilalarni mustahkamlash yuzasidan qator islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham islohotlarni davom ettirgan holda o'z nutqlarida Birinchi Prezidentimizning fikrlarini yodga olib, –“Ayol baxtli bo'lsa, oila baxtli, oila baxtli bo'lsa, jamiyat mustahkam”[3;346] – degan chuqur ma'noli so'zlarini eslab o'tadilar. Darhaqiqat, oilalarimiz tinch va mustahkam ekan jamiyatimiz rivojlanib, yanada mutahkamlashib boraveradi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, yozuvchi hikoyada razmlardan, har xil kinoya va o'xshatishlardan, shevaga va odatlarimizga xos so'zlardan unumli foydalangan. Yozuvchi uslubiga xos takror so'zlardan “urina-urina... tez-tez... to'p-to'p... katta-katta... qarab-qarab...” [2] va juft so'zlardan sermahsul foydalanishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu esa, hikoyani mutoalla qilish jarayonida e'tiborni tortish va hikoyani yanada kuchaytirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isomiddinov Z. Ikki ayol. // Tafakkur.-2007.-№4.-47 b.
2. Luqmon Bo'rixon. Marhamatli kun. // Toshken. G'.G'ulom -2019. 262 b.
3. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent- O'zbekiston-2019. 346 b

ADABIYOT VA MUSIQA -YUKSAK SAN'AT OLAMI

**Avaz Alimov, Dilara Xudaynazarova,
magistrlar, Jizzax DPI**

T.Murod ilk hikoyalaridagi tabiat bilan bog'liq lavhalar ham bo'lajak ijodkorning san'atga qiziqish-hayrat tuyg'ulari uning tabiatida, qonida bo'lganligiga dalildir. Adibning "Ku-ku-ku" hikoyasidagi quyidagi parchani ko'zdan kechiraylik: "Uyida jurnallar dagi rasmlarni, Rembrandt, Rafael, Bottichellining nodir asarlarini tomosha qilib o'tiradi. Ayniqsa, Shishkinning "Bug'doyzor"iga uzoq tikilib qoladi. U ikki toifa odamlarga achinadi. Biri-Shishkinning rasmlari oldidan beparvo o'tgan odamga, ikkinchisi qushlar sayrayotganda so'zlashgan odamga. Shu payt daraxt shohlarida qo'nib turgan qushlarning turli nag'madagi sayrashlari eshitiladi. U "Munojot"ni tinglayotgan day boshini ma'yus egib, eshitadi. Yuzlariga tabassum yuguradi. O'rnidan turib, qo'llarini ko'ksiga qo'yadi-da, qushlarga ta'zim qiladi: "Ofarin, birodar, ofarin. Qulluq!.." Tog'ay Murod uchun chinakam san'at asari yaratishning asosiy shart-omili u yozuvchining ichki dard - tug'yoniga aylanishi kerak. Ijod jarayonining sir-sinoatli bu holatini- T.Murod "Asar ko'ngildagi kuyga tushdi" deb ta'riflaydi. T.Murodning ijod to'lg'og'i jarayonida butunlay boshqacha qiyofa kasb etishini zamondoshlari ham tasdiqlaydi. Masalan, T.Murod ning "Oydinda yurgan odamlar" qissasining yaratilish jarayoni va bu haqda bevosita adibning va Said Ahmadning guvohliklari alohida ahamiyatga ega. Bu qissasini "Tog'ay o'z tanasidan chiqib ketib, o'zini ham, atrofidagi jami narsalarni, odamlarni, bahoru kuzlarni, qishu saratonlarni, osmonni to'ldirgan turnalarni unutib, bir darvesh qiyofasiga kirib, dalli devona bo'lib yozdi. Undan, shu qissani qanday yozganingni eslay olasanmi, deb so'raganimda, u jindek iymonib, o'ngimda emas, tushimda yozgandekman, deb javob bergandi. (Men qaytib kelaman. 8-b.)

Tog'ay Murod o'zi ham bu qissaning qanday qiyinlik bilan boshlagani va ayni vaqtda, "ko'ngil kuyiga aylangandan" keyin esa adibga xos ichki bir tug'yon va jo'shqin ijodiy ilhom bilan yaratilganini shunday izohlaydi: "Qish kelishi bilan yana o'sha Surxon tog'lari oralig'ida joylashgan (tog'chor) bog'dan makon topdim. Uch oy qishda yirik asarimni yaratish bilan mashg'ul bo'ldim. Bog' qorovulini o'g'lidan magnitofonini olib keldim. Boladan bir ashulani topib kelishini iltimos qildim. Bola men aytmish ashulani topib keldi. Bu-Yunus Rajabiyning Hamid Olimjon g'azaliga bastalagan "Kuygay" ashulasi edi. Men eshikni ichkaridan qulfladim. Deraza pardalarini tushirdim... YUNUS Rajabiyning "Kuygay" ashulasini qo'ydim. Men YUNUS Rajabiyni bot-bot eshitdim, qayta-qayta eshitdim. Tong vaqti-tong vaqti eshitdim. Kun olis eshitdim. YARIM tunda eshitdim. Yuzlarim jiqqa ho'l bo'ldi. Ko'rpani burchlari jiqqa ho'l bo'ldi. Sochiqlarim jiqqa ho'l bo'ldi. Men Yunus Rajabiyni jo'r bo'ldim. "Men"Kuygay"ni dimog'imda xirgoyi qildim. Lablarimda xirgoyi qildim. Nihoyat, ko'ngil buyurdi. Ko'ngil soz chaldi. Ko'ngil qo'shiq aytdi. Men o'ynadim. Nihoyat, asar bitdi. Asarni "Oydinda yurgan odamlar" deb atadim. O'sha yillar O'zbekiston YOZUVCHILAR uyushmasi raisi bo'lgan taniqli adib va olim Sarvar Azimov T.Muroddan "Ajddodingizda biror sozanda yo xonanda o'tganmi"- deb so'raydi ham.-Siz bir surishtirib ko'ring. Ajddodingizda yo bir bastakor bor, yo bir xonanda bor. Veterinar doktorni nasl-nasabi bunaqa asar yaratolmaydi. Asar notaga solib yaratilgan bir sonataga, simfoniya o'xshaydi. Bunday asarni yaratish uchun odamni suygida bo'lishi kerak, qonida bo'lishi kerak. Men bu asarni chop ettiramani. Chunki bunday asar yaratish hech kimning qo'lidan kelmaydi. Gapning

to'g'risi, o'zbek adabiyotida shunaqa asar paydo bo'ladi, deb xayolimga ham keltirmaganman...(1.126.)

Aslida, qalb-tafakkuri uyg'oq etuk insonlar tiynatiga xos bunday fazilat ulug' mutasavvufklar tomonidan ham beqiyos qadrlanganini Sharq allomalari, xususan, Rumi, Sa'diy, Jomiy, Navoiy asarlari misolida ham tasavvur etish mumkin. Sa'diyning mashhur "Guliston" asaridagi bir hikoyatda shunday hayotiy voqea bayon etilgan; saraton issiqda eshak minib ketayotgan yo'lovchi o'zicha bir kuy-qo'shiqni xirgoyi qilib borardi. Eshagi ham shu kuy maromiga mos qadam tashlab yo'rg'alab ketayotgan emish. Bu holdan hayratga tushgan donishmand ko'nglidan shunday fikr o'tadi:

Vojab, eshakda bo'lsa agar shuncha zavq,
Zavqi yo'q odamni ne deb atamoq kerak. (2.74)

Yoki Navoiyning "Mahbub ul-qulub" dostonida ham ana shunday hayratangiz lavhaga duch kelamiz. Asarda xonanda va sozandalarga katta e'tibor ko'rsatilib, ular uchun "Ashulachi va cholg'uchilar-mutrib va mug'anniylar"ga alohida fasl ajratiladi va ular insonlarga shodlik bag'ishlovchi va g'amni tarqatuvchi deb yuksak ta'riflarga loyiq ko'riladi. Ular ning san'ati shu darajada ta'sirchan bo'ladiki, hatto arab tuyasining ham egasining xonishidan yurishini tezlatishini hayrat bilan tilga olib o'tiladi. (2.28-29-bb.) **Mumtoz adabiyotdagi bunday ilhombaxsh ijodiy an'analarning ijodiy ta'sirini T.Murodning "Ku- ku-ku" nomli dastlabki hikoyalarida va etuk qissalarida ham ko'rishimiz mumkin. Ya'ni hayot va tabiat go'zalliklaridan, qushlarning sayrashidan ta'sirlanmaydigan, mashhur rassom larning yuksak san'at asarlaridan yoki ko'ngillarga yo'l topuvchi kuy-qo'shiqdan zavqlanmay digan "to'qimtabiat" kimsalarni T.Murod ham odam qatoriga qo'shmaydi.**

ADABIYOTLAR:

1. Tog'ay Murod. Tanlangan asarlar, 3-jild, Toshkent. 2019.
2. Sa'diy. Guliston. T. G'. G'ulom nomli Adab. va san'at nashri. 1982.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Toshkent. 1983.
4. Men qaytib kelaman. Tog'ay Murod zamondoshlari xotirasida. Toshkent. 2007. .

O'ZBEK HIKOYACHILIGIDA O'KTAM USMONOVNING QAHRAMON YARATISH MAHORATI

**Zarpullayeva Xadichabonu, JDPI magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.f.d (PhD) dotsT. Qo'chqorov**

Shunday ijodkorlar bo'ladiki, ularning hayoti va ijodi, asarlari bilan yaqindan tanish bo'lmasak ham, lekin asarlariga ko'zimiz tushib o'qiganimizda katta bir adabiy olamga tushib qolgandek bo'lamiz. Ularning hikoyalarida o'zimiz va atrofimizdagi taqdirlar hayotini ko'rgandek bo'lamiz so'ngra ana shu yozuvchining ijodlariga qiziqib, asarlariga bog'lanib qolamiz. O'z mahoratlari bilan adabiyot olamiga sezilarli hissa qo'shgan bunday yozuvchilarsiz milliy adabiyotning taraqqiyot yo'lini tasavvur qilish nihoyatda qiyin. O'zbek adabiyotining taniqli namoyandasi, o'ziga xos ovoz sohibi O'ktam Usmonov ana shunday siymolardan. O'zbek adabiyoti, xususan, o'zbek hikoyachiligi haqida so'z yuritilar ekan, O'ktam Usmonov nomini alohida qayd etishimiz zarur.

“Badiiy asar – insoniyat tarixining qaysi qatlamini tasvirlamasin, uni birinchi galda inson sifatidagi o`y-fikrlari bilan yoritishi lozim”.¹ Jumladan, hikoya-o`quvchini qahramonga ruhan yaqinlashtiradigan janr sanaladi. Hikoya yaratishda hech qahon hajm ahamiyatli emas. Kichik hajmli hikoyada ham butun bir davr muammolari va davr ruhiyati yoritilishi mumkin. Shu boisdan ham hozirgi adabiy jarayonda barcha janrlar kabi hikoya ham o`z o`rnini topayotgani kunday ravshan.

O`ktam Usmonov qahramonlari oddiy odamlar; ular hayotida ro`y bergan voqea va hodisalar ham odatdan tashqari va favqulodda emas; shunga qarab yozuvchining tasviriy vositalari ham oddiy bo`lib qoladi. Biroq bu oddiylik zamirida yozuvchining katta mahorati, iste`dodi, bilimi yotadi.

O`ktam Usmonov asarlarida o`ziga tanish bo`lgan atrofdagi insonlarning hayot yo`lini, qayg`usini, dard-alamlarini ko`ra bilgan va shu hijronlarni qalamga olgan yozuvchidir. Uning “**Nomus**” hikoyasida insonning iztirobli dardlari, ularning or-nomus va g`urur masalalari qalamga olingan. Asarda hikoya qilingan voqealar tasvirida ham insonning ruhiy qiynoqlari, qalbini kemirib boradigan dardlari ishonarli tasvirlarda berilar ekan, buning mantiqiy mohiyatini hikoyaning sarlavhasida ko`rish mumkin.

Hikoya bosh qahramoni **Bozor Hamroyevich**. Bozor Hamroyevich o`z kasbining ustasi va uning barcha havas qiladigan kichkinagina oilasi bor. Muallif bir oilada sodir bo`ladigan voqealarni tasvirlar ekan shu oilaning ichki siri, o`ziga xos yutuqlari bilan birga kamchiliklari haqida ham so`z yuritadi. Bozor Hamroyevich va uning ayoli uzoq yillar bir-birini asrab, avaylab, sevib – ardoqlab kelgan. Er – xotin o`rtasidagi o`zaro hurmat atrofdagilarning havasini keltiradi. Ular shu hayotlari davomida bir-birini fikrini ardoqlab, hayotlarida sodir bo`lgan nimaiki qiyinchilik bo`lsa birga yengib o`tganlar. Butun mehrlarini yolg`iz farzandlariga berganlar. Lekin ularning mana shu bitta-yu bitta farzandlari, ko`zlarining oq-u qorasi, jigarbandi o`g`li Farrux esa asarda o`z ota-onasiga teskari qo`yiladi. U ota-onasini atrofdagilar oldida bir umrlari davomida topgan obro`sini barbod qiladi. Hamma havas qilgan oilasini parokanda qilgan farzand sifatida tasvirlanar ekan, uning tabiatidagi illatlarning ildizini topishga harakat qiladi. Bozor Hamroyevich o`zini qanchalik ovutmasin, ish bilan chalg`iyman deb harakat qilmasin baribir foydasi bo`lmaydi. Chunki o`g`li Farrux uni shuncha yillik obro`yini tuproqqa belaydi, otasini tiriklayin go`rga tiqadi. Uning rafiqasiga bo`lgan mehri bir chora o`ylab topishga, hammadan berkinib uyda yashirib o`tirgandan ko`ra, qo`ldan kelganini qilishga kirishishiga sabab bo`ladi. Nima qilsin boshqa chorasi yo`q, ota o`z farzandining qilmishi uchun ham katta boshini kichik qilib bir vaqtlar shogirdi bo`lgan Murtazobekning uyiga borishni lozim topadi. Shu harakatidan o`z sha`nini tiklash va farzandining taqdiridagi dog`ni yuvishda balki bir ish chiqar deb o`ylaydi. Yozuvchi tasvirlagan voqealarni o`qir ekan, kitobxon dunyo va odamzod haqidagi falsafiy jihatlarni o`ylab qoladi. Inson qismatidagi fojialar to`satdan, kutilmaganda kelishini mushohada qilgandek bo`ladi. Yillar davomida o`qib, ishlab turli qiyinchiliklarni boshidan o`tkazib, bir dunyo orza –havaslar qilib yurganda, endi og`zim oshga yetdi deganda, barcha orzu-havaslari barbod bo`lishi mumkinligini ogohlantirmoqchi bo`lgandek, kitobxonni tarbiya masalasida xushyorlikka chaqiradi. Qahramonning orzulari ijobat bo`lib, hamma ishlar o`z o`rnida ketayotganda ko`z ko`rib quloq eshitmagan voqeaning oyoq ostidan chiqib, Bozorboyning butun dunyosini barbod qilishi hikoyaning asosiy tuguni hisoblanadi. Inson yangi hayot qurib, farzand dunyoga keltiradi. Birdan bir orzusi ana shu farzand uchun yashaydi, mehnat qiladi,

¹ Белинский В.Г. Adabiy orzular. – T.: Adabiyot va san`at nashriyoti, 1987-yil, 11-bet.

doim harakatda bo`ladi. Ertangi suyanchim, ishonchim, vaqti soatim yetib bu dunyoni tark etganimda qabrimga tuproq qo`yuvchim shu farzandim deya uni boshiga ko`taradi. To`g`ri Bozorboy hayot uchun kurashdi, atrofdagilarga qo`lidan kelgancha yordam berdi, halol mehnati bilan ro`zg`or tebratdi, ayoliga xiyonat qilmay chin sevgisining qadriga yetdi, urush davrida qanchalik qiynalmasin hayotidan nolimadi. Kun kelib hayot yo`lida bunday chalkashliklar, dilhiraliklar bo`lishi uni hayolining bir chetiga ham kelmagan edi. U yo`lda ketar ekan, qayerda xato qilganini, qaysi gunohi uchun bu savdolar boshiga tushganini anglashga harakat qiladi. U boshida to`g`ri yo`ldan ketardi, farzand tarbiyasiga e`tibor berardi. Lekin keyinchalik yosh bolaning erkaliklari haddan oshib borardi, bunga nisbatan biror chora ko`rish o`rniga otasi uni boshiga ko`tarardi. Maktabning eng ilg`or o`quvchisi bo`lganligidanmi, yo rassomchilik bo`yicha respublikada birinchilikni olgani uchunmi otasi g`ururlanib, o`tmishdagi qiyinchiliklari, urushda oyog`idan jarohat olib, kimsasiz joylarda tirik o`likdek qolib ketganlari, sovuqda och-nahor yurganlari, oilasi va Vatanining sog`inchida yurgan vaqtlari, qishloqda ayolining qora terga botib mehnat qilganlarini bir zumda unutib yubordi. Yolg`iz farzandi, suyuqli o`g`li uchun o`zi va ayoli ko`rmagan shart-sharoitlarni qilib berdi. Ko`pchilik xatto tushida ham ko`rmagan sharoitni o`g`liga yaratib berdi. Farrux esa to`qlikka sho`xlik qildi. Balki vaqtida o`g`lini yo`ldan qaytarganda, qilmishlari uchun dashnom berganda, o`z ishlari bilan emas o`g`lining hayoti bilan qiziqqanida, unga yengil turmush yaratib bermasdan balki o`z kuchi bilan barchasiga erishishiga yo`l qo`yganida edi, hozir hammasi boshqacha bo`larmidi.

Ko`rinib turibdiki, yozuvchi asarning bosh g`oyasi sifatida farzand tarbiyasiga e`tibor qaratadi. Tarbiyadagi nuqsonlarning oxir-oqibatlarini ko`rsatib beradi. Kitobxonni esa mana shu hayot tajribalaridan saboq chiqarishga chaqiradi. Inson farzandga nisbatan adolatli va qattiqqo`l bo`lishini, farzand tarbiyasidagi ojizliklar nafaqat insonning o`z hayotidagi katta - katta fojialarga olib keladi, balki, o`zga begunoh insonlarning taqdirini ham jar yoqasiga olib kelib yangidan yangi fojialarni yuzaga kelishiga sababchi bo`lishidan ogohlantiradi.

-Men shu paytgacha tarbiya haqida qancha kitob ko`rgan bo`lsam, birontasida erka boladan tuzuk odam chiqqanini eslolmayman. Bola qiyinchiliklarga duchor bo`lib, vaqtida ozor chekib, lat yeb, vaqtida yig`lab, kulib, nafratlanib, sevib, afsuslanib voyaga yetmasa... u bamisoli parnikdagi nimjon, o`zi qip-qizilu mazasi nimtatir pomidorga o`xshab qolarkan. Bolasini kim ko`p erkalatsa, keyin u o`ziga shunchalik ko`p azob-uqubat sotib oladi. Bir o`zi sotib olsa ham mayli edi, butun jamiyat bundan aziyat chekadi... chunki o`sha bola, baribir, siz bilan bizning oramizda yashaydi-ku¹...-to`ylarda bir qo`lida qadah ko`targancha, tantana bilan mana shunday ma`ruza aytadigan Bozor Hamroevich nahotki tili boshqa dili boshqa insonga aylanganini o`zi sezmay qoldi. Hikoyada nasihat aytib, lekin amal qilmagan professor obrazi ishonarli tasvirlangan. Haqiqatdan ham yaxshi tarbiya topmagan professorning o`g`li Farrux birgina oilasi uchun emas, balki o`zi yashab turgan jamiyat uchun xavf tug`diradi. Otasi, onasi, hamda otasi tomonidan olib berilgan geolog-professorning qizi ya`ni kelini Nigina, uning ota-onalari, yaqinlari, qishloqda tug`ilib katta bo`lgan nomusi toptalgan qiz va uning oila-a`zolari mana shu sanab o`tilgan jamiyatning bir bo`g`ini, oilada bir farzandni to`g`ri tarbiya qila olmagan professor-olim tomonidan barbod bo`ldi.

Mana shu kundan professor Bozor Hamroyevichning butun umri davomida qilgan mehnatlari, yoshlar tarbiyasi bo`yicha avvaliga fan nomzodlik dissertatsiyasi, keyin esa doktorlik dissertatsiyalari, shuning orqasidan topgan barcha mol-mulki, obro`-e`tibori barcha-

¹ O`ktam Usmonov. Sirli sohil. -T.:” G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti”.1981-yil, 157-bet.

barchasi bir zumda havoga uchadi. Shu paytgacha el orasida kelajak uchun qayg`uradigan, yoshlarni mehnatkash, barkamol bo`lib yetishishi haqida maqolalar, kitoblar yozib yurgan inson hayotida bunday chigalliklar bo`lishi, bir umrlik mehnatning poymol bo`lishi yozuvchi mahorati bilan ishonarli obrazlarda ifodalangan. Adibning tasvirlashicha shahar hayotiga xos xususiyatlar, ya`ni, o`g`lining qilgan kirdikorlari va iflosligidan, bunday jirkanch mashmashalardan shahardagi yon qo`shnilarning xabari yo`q chog`ida, qishloq hayotiga xos mish-mishlar urchiydi. Ya`ni bechora nomusi toptalgan, qadri yer bilan bitta bo`lgan qiz haqida gap –so`zlar butun qishloqda shov-shuvlarga sabab bo`ladi. Chunki, qishloqdagi barcha gap-so`zlar tez tarqalishi, qizning nomini qoraga bulg`ovchi, qisqa vaqtda og`izdan-og`izga o`tib yurgan nomus masalasi adibning ishonarli tasvirlari orqali uning o`ziga xos badiiy mahoratini ko`rsatib beradi.

Bozorboyning bir paytlar o`quvchisi bo`lgan Murtazobekning uyiga o`g`lining qilgan qilmishlari uchun kechirim so`rashga borishi uni butkul qaddini bukkan, nomusini oyoq –osti qilgan edi. Chunki, u o`zini Murtazobekning o`rniga qo`yib ko`rishga ham holi yo`q edi. Birdaniga Murtazobekning ayoli tomonidan “Nima bo`lsa ham mayli-bir kunga deysizmi, qizimni o`g`lingiz nikohiga olsin”,-degan gapi Bozorboy ni batamom aqlan ozdirdi. U nima deyishini ham bilmay, tili kalimaga kelmay qoldi. Bozorboy uchun endi hammasi baribir edi, uning yo`qotadigan narsasi ham qolmadi. U barchasiga qo`l siltagan holda endi qilgan ishlariga faqat o`g`lim javob bersin degandek hovli dan tezda chiqib ketadi. Bozorboy shogirdi Murtazobek uyidan qochib chiqqandek, mashinani qizdirib xuddi kimsasiz joylarga qochib ketayotgandek, tezligini oshirib qishloqdan uzoqlashib borar ekan, quloqlari ostida “bir kun bo`lsa ham nikohiga olsin” degan so`zlar qayta-qayta takrorlanib borardi.

U o`zini juda ojiz xis etadi. Shogirdining uyidan qanchalik uzoqlashmasin, o`z ichiga kirib olgan vijdon ovo zidan qocha olmaydi. Natijada, bosib o`tgan hayot yo`li bir-bir ko`z o`ngida gavdalanib, ichki iztiroblari bilan azoblanadi.

Asar mana shu inson ichki tuyg`ularining azoblaridan hikoya qiladi. Asarda iztirob bilan birga, afsus-nadomat, orzular sarobi, umr yo`lining notekisliklari ishonarli tasvirlarda ifodalangan.

Hikoyada yozuvchi bahor faslini ko`rsatar ekan, uni qahramonlar ichidan o`tayotgan g`am-alamga to`la qahraton qish bilan kanflikt qilib oladi.

E, tavba, qancha narsalarni nazariy ishlab chiqibmanu, uni amalda ko`rsatolmabman-a! Nasihat qilish oson, uni ado etish qiyin! Qiyin! Hatto yolg`iz o`g`limga ham ko`z-quloq bo`lolmabman. Bunaqa ilmning kimga keragi bor, kimga?!.-deya o`z aybiga iqror bo`lgan Bozorboyga hozir yillab qilingan mehnatlari, topgan molu-davlati ham yordam berolmaydi. Chunki uni nomus deb atalgan kuch yengib bo`ldi. Insonda nomus deb atalgan bir narsa bor. Lekin uni pok saqlab, asrab-avaylash ham mushkul ekan. Asardagi qahramon ham o`tmishdagi qilgan xatoliklari uchun bugun shu nomusini poymol qildi. Qahramon endi atrofdagilar ko`ziga qarashga nomus qiladi. Eng achinarlisi esa shu nomusning poymol bo`lishiga Bozorboy ni yoki uning ayolini ko`ra olmaydiganlar emas, balki tug`ilganidan beri avaylab-asrab, suyub-erkalab katta qilgan o`g`li, jigarporasi sababchidir. Hikoyada o`g`li tomonidan bir bechora qizning nomusi toptalashi orqasidan o`zining ham nomusi oyoq osti bo`lgan professor Bozorboy Hamroyevich obrazi ko`rsatib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'ktam Usmonov. Sirli sohil. –T.:” G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti”.1981. 157-bet.
2. Белинский В.Г. Adabiy orzular. – T.:Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. 11-bet.
3. S.Mirvaliyev, R.Shokirova. “O’zbek adiblari”. –T.: “G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti”. 2016. 86-bet

TABIAT VA INSON YAXLITLIGI TASVIRI

Ziyoda Toshbekova, JDPI magistri

Ilmiy rahbar: f.f.d U.Qosimov

O’zbek adabiyotimizda va jahon adabiyoti tarixida ham inson hayoti hamisha tabiat bilan uzviy bog’liq holatda tasvirlanishiga guvoh bo’lamiz. Bu adabiy bir an’ana. Ona-zamin va tabiat mavzui Tog’ay Murod uchun ham qanchalar qadrli bo’lganligi uning dastlabki asarlarida ham ko’zga tashlanib turadi. Bu azaliy yaxlitlikni Tog’ay Murod shunday ta’kidlaydi: “Hayotni ushlab turadigan, hayotni olg’a olib boradigan katta bir kuch bor, o’zgaras bir qudrat bor. Bu - tabiat. Tabiatni rangi ko’k, ko’m-ko’k. SHunday ekan, hayotni rangi-da ko’m-ko’k. Yozuvchi-shoir ana shu ko’m-ko’kikka qaytadi. Asr-asrlardan buyon ana shunday bo’lib kelgan...” (1.93.)Tog’ay Murod o’z xarakteriga ko’ra tabiatga yaqin yozuvchi ekanligi, hayvonot olamini sinchiklab o’rgangani, ot va boshqa hayvonlarga xos xususiyat lar haqida keng bilimga egaligi asarlarining poetik jihatdan ta’sirchan, haqqoniy va ishonchli chiqishiga yordam bergan, albatta. Ayniqsa, E.S.Tompson, Ch.Aytmatov asarlarida hayvonlar obrazlari insoniyat dunyosini aks ettirish, tabiatni himoya qilish va avaylab-asrash borasidagi g’oyalarni tashishga xizmat qiladi. Bunday tasviriy uslub dunyo adiblari ijodiga, shu jumladan, o’zbek adiblariga ham qaysidir ma’noda o’z ta’sirini o’tkazdi. Ba’zi olimlarimiz fikricha, Ch.Aytmatov asarlaridagi inson va tabiat, inson va hayvonot olami, inson va din, muhabbat va nafrat, ezgulik va yovuzlik singari umumbashariy muammolar, ularni ifodalashga xizmat qiladigan obrazlar tasviri o’zbek adiblarining asarlarida ham muhim o’rin egallayotir. Bu fikrga e’tiroz bildirmaymiz, ammo nazazari mizda, ma’lum darajada o’ylab ko’riladigan, bahsli jihati ham borga o’xshaydi.

Eng avvalo, shuki, boy va qadimiy folklorimizda, ayniqsa, Navoiy va Boburlar, Muqimiy va Furqatlar tabiat va inson tuyg’ulari uyg’unligi tasvirining eng go’zal namuna lari necha yuz yillar ilgari yaratib berilgan. Fikrimizning dalili sifatida Abdulla Qodiriy ijodini eslaylik. O.Yoqubovlar avlodiga va ulardan so’ng O’.Hoshimov va Tog’ay Murod kabi etuk prozaiklarga ham benazir ustoz bo’lgan Qodiriydan XX asrdagi barcha turkiy xalqlar adabiyotining yirik namoyandalari badiiy mahorat bobida saboq olgan liklarini minnatdorlik bilan e’tirof etganlar. Taniqli adib Xurshid Do’stmuhammad ta’kidlaganidek, ulug’ adib mahoratining nurli bir qirrasini uning asarlaridagi tabiat va inson ruhiyatini yorqin tasvirlash san’atidir. Ta’kidlash lozimki, T.Murod jahon adabiyotidan, jumladan, E.S.Tompson, Ch.Aytmatovlar ijodi bilan birga, eng avvalo, xalq og’zaki ijodidan ko’p bahramand bo’lganligini o’zi ham minnatdorlik bilan e’tirof etgan.

Darhaqiqat, Tog‘ay Murod xalq og‘zaki ijodi, mumtoz va zamonaviy adabiyot bilan bir qatorda, jahon adabiyotini ham yaxshi bilgan, adib ijodining uchinchi ildizi jahon adabiyotidan oziqlanadi. Ma‘lumki, u 1985-1987 yillarda Moskvadagi adabiyot institutida tahsil oladi. Amerikalik adib Jek London hikoyalari va “Boyning qizi” dramasi, kanadalik adib E.Seton-Tompsonning mashhur “YOvvoyi yo‘rg‘a” kitobini mahorat bilan o‘zbek tiliga tarjima qiladi.

Folklorshunos olim akademik To‘ra Mirzaevning eslashicha, T.Murod XX asrning 70-yillarida, ya‘ni bir necha hikoyalari matbuotda bosilib chiqqan va anchagina tanilib qolgan boshlovchi yozuvchi ekanidayoq Po‘lkan shoir haqida qo‘shimcha materiallar to‘plash uchun O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti folklor bo‘li miga tez-tez kelib turgan. Folklorshunos H.T.Zarifov, M.Afzalovlarning Po‘lkan shoir haqidagi maqola va risolalarini o‘qib chiqqan, shoirning o‘g‘li Umarqul, nevarasi Amirqul shoirlar bilan tanishgan. Bu hol T.Murod ijodiga qanday ta‘sir qildi? degan haqli savol tug‘iladi. T.Murod xalqimizning o‘tmishidagi hayoti, urf-odatlarini, intilishi va orzu-umidlari, kurashlari ifodalangan dostonlar ruhiga kirib borgan. Po‘lkan shoir kuylagan 70 dan ortiq xalq dostonlarining orasida “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi “Qironxon”, “Orzigul”, shuningdek “Alpomish” turkumidagi “YODgor”, “Rustam” kabi dostonlarni eslasak, T.Murod asarlaridagi ona zaminga muhabbat va kurashchanlik motivlarining asl ildizlari milliy folklorimizga borib bog‘lanishini anglab olamiz.

Akademik T.Mirzaev Tog‘ay Murodning mehnat va marosim folklori namunalari, xususan xalq qo‘shiqlari bilan astoydil qiziqqani, bu haqda o‘zi va atoqli olim Muzayyana Alaviya bilan bir necha bor suhbatlashganini eslaydi. Agar biz adibning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasini kuzatsak, unda Surxondaryo va Qashqadaryo folklorining ohanglari va ruhining yorqin izlarini ko‘rishimiz mumkin. T.Murodning “Ot kishnagan oqshom” qissasi ham bir ildizi bilan xalq og‘zaki ijodidan suv ichgani shubhasizdir. Uni folklor asarlarida otning tasvirlanishi holatlari ham juda qiziqtirar edi. Yozuvchi atoqli folklorshunos Hodi Zarifning «O‘zbek xalq dostonlarida jangovar ot obrazi», «Ot asboblari» tadqiqotlari bilan tanishib chiqadi. Ayniqsa, jangovar ot tarbiyasi, uning turli holatlari tasvirlangan «Alpomish», «Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi va bolaligi», «Xush keldi» kabi dostonlarni qaytadan sinchiklab o‘qib chiqadi. Shundan keyin yozuvchining «Ot kishnagan oqshom» qissasi paydo bo‘ldi. Demak, o‘zbek xalq folklori yosh adibning ijodiy-uslubiy izlanishlarida badiiy-estetik omillardan biri bo‘lgan.

Tog‘ay Murodning ilk ijodiy mashqlaridan yana biri-“Kuzning bir kunida” nomli hikoyasida ham adibning “Otamdan qolgan dalalar” romaniga doir dastlabki lavha va hayotiy detallarni uchratish mumkin. Hikoyada tasvirlangan paxta terimi mavsumidagi yomg‘irli kunlardagi tund ob-havolar bilan bog‘liq ezgin kayfiyat va qahramonlar ruhiyatidagi o‘y-kechinmalar adib xayoli va tafakkurini talabalik paytlaridanoq band etib kelganini tasavvur qilish mumkin. Hikoyaning “jafokash dehqon kuzining oltin bir kuni tugayotgan edi” jumlasida ham xalqimiz va paxtakorlarimizning mahzun hayoti va qismati haqidagi armonli hamdardlik tuyg‘ulari aks etib turganligini sezgandek bo‘lamiz.

Ona-zamin va tabiat mavzui T.Murod uchun qanchalar qadrligi bo‘lgani uning suhbat va maqolalarida ham aks etgan. Bu jihatdan adibning ba‘zi soxta tabiat kuychisi va Orol “jonkuyari” bilan suhbatiga tagma‘nodorligi bilan alohida ajralib turadi: “Ajab ijod korlar borda. Bir ijodkor meni passivlikda aybladi. Adib grajdan bo‘lishi kerak, mana, Orol qurib ketayapti, deya piching qildi. Darhaqiqat, bu ijodkorning tala-to‘pi olamni buzadi. U-“otashin grajdan”, u-tirnog‘idan sochigacha qayta qurish, oshkoralik, demokratiya “yalovbardor”i.

Ekran, radio, matbuot, minbarlarni hech kimga bermay na'ra tortadi. Shu "yoniq" ijodkordan Orolning eng chuqur joyi necha metr, deya so'radim. "Otashin grajdan" elkasini qisdi. So'ng:"Orolning jami maydoni qancha?"-deb so'radim. "Jasur vatanpar var" bosh irg'ab, bilmayman, dedi. "O'zi, Orol qaerda?"-deya tag'in so'radim. "Tabiat muho fazachisi" shimol tarafga qo'l siltab:"Gde-to, Qoraqalpog'istonda", dedi. Men xaritani ochib, unga Orolni ko'rsatdim. U Orolga tikilib: "I-ya, Orolning yarmi Qozog'istonga qarar ekan-ku!" dedi. "Tabiat kuyunchagi" Orolning yuziga aqalli xaritada bo'lsayam bir qarab qo'ymagan ekan! Shu ijodkor Orol haqida she'r yozdi.(1.164) She'rdagi har bir satr oxirida "Orol" so'zi takrorlanadi. Men "Orol" so'zining o'rniga "sevgilim" so'zini qo'yib chiqdim. Hech nima o'zgarmadi!" T.Murodning "Momo er qo'shig'i" qissasidagi Pahlavon Daho va sheriklari obrazlari orqali ham tabiat va inson muammolari o'ziga xos tarzda yoritilganligi bilan kitobxonlar e'tiborini jalb etadi.

Yoki "Oydinda yurgan odamlar" qissasidagi kuyov-qayliqlar tongi tavsifini yodga olaylik. Bu tasvir, avvalo, o'zining sharqona nazokati va betakror fasohati bilan, ayol zotini beqiyos darajda e'zozlay olgan Qoplonning qalb nigohi qanchalar tiyrak va nekbin ekanligini shoirona aks ettirishi bilan asarga romantik bir joziba bag'ishlagan. "Kuyov ko'ngli tongday yorishdi jamiki olam oppoq bo'lib ko'rindi-poyidagi yo'l oppoq, choyshabdek oppoq. Uylar, devorlar, daraxtlar-da oppoq. Qushlar-da oppoq, ko'cha yoqalab oqmish suv-oppoq. Suv jildirashi-da oppoq. Tong etildi. YUlduzlar so'ndi-so'ndi. Zuhra yulduz yolg'iz qoldi. Kuyov quchoq ochdi-tongni bag'riga bosdi. Tong bepoyon osmoni, qorga belanmish tog' lari bilan, parishon adirlari, sarvqomat teraklari bilan kuyov qo'yniga kirdi. Ro'para sidan odam keldi. Kuyov odamzodni ilk bor ko'rmishday tikildi. Bu odam itidan—da yomon ko'rmish Ismat ovchi bo'ldi. Ushbu damda Ismat ovchida binoyiday odam bo'ldi. Olamda yomon yo'q, barcha-barcha yaxshi bo'ldi".(236-b.) Keltirilgan parcha ham T.Murodning xayolot ufqi kengligi va talantli musavvirlarga xos yorqin tasvirlash mahoratidan guvohlik beradi.

Tog'ay Murod asarlarini yuksak bir cho'qqi deb ta'riflagan atoqli adib Odil Yoqubov ta'kidlaganidek, "Adabiyot bor haqiqatni ayta olsa, hayotning achchiq tomonlarini ko'rsata olsagina adabiyot bo'ladi Ulug' adiblar qo'ygan talablarga Tog'ay Murod ijodi juda mos keladi." U buyuk salaflar kabi adabiyotni, ijodni muqaddas bilgan va dili bilan tili bir adib edi. U o'zi orzu qilganday, haq so'zi, haqqoniy asarlari bilan xalqimizga ma'naviy haykal qo'ya oldi. "Yurt qayg'usini kuylagan buyuklar safiga Tog'ay Murod nomi ham qo'shildi. Bu ijod hech mubolag'asiz Istiqlol davri adabiyoti va milliy tafakkurimiz rivojiga qo'shilgan munosib bir ma'naviy-ruhiy boylik sifatida tahsinga loyiqdir. T.Murod "Otamdan qolgan dalalar" romani uchun Abdulla Qodiriy nomli davlat mukofoti bilan taqdirlangan. 1999 yili adib haqli ravishda "O'zbekiston xalq yozuvchisi" degan faxrli unvonga loyiq ko'rildi.

Adabiyotlar:

- 1.Tog'ay Murod.Tanlangan asarlar,3-jild, Toshkent.2019.
- 2.Men qaytib kelaman. Tog'ay Murod zamondoshlari xotirasida. T. 2007.
- 3.XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. O'qituvchi. 1999.
- 4.Qosimov U. Adabiyotning hayotbaxsh kuchi. Toshkent. 2008.
- 5.Xidirova M. Tog'ay Murod asarlari poetikasi va yaratilishi. Fil.f.f.d.dis.avtoref.Jizzax.2022.

TANQIDCHILIKNING BA'ZI MUAMMOLARI

**Aziza Muxtorova, JDPI magistranti,
Ilmiy rahbar: U.Qosimov, fil.f.dok.**

Adabiyot rivojida tanqidchilikning ham alohida o'рни va ahamiyati bor. Masalan, Navoiy buyuk shoir bo'lish bilan birga o'z davrida tanqid va adabiyotshunoslik bo'yicha ham faol ijod qilgan va "Majoli-un-nafois" va "Nasoyim ul muhabbat" kabi muhim asarlar yaratgan. XX asrda ham bu sohada ko'plab etuk olimlar barakali ijod qilishgan. Masalan, Ozod Sharafiddinov va Matyoqub Qo'shjonovlar ibratli faoliyati, ulkan iste'dodi va yorqin shaxsi bilan adabiy-estetik tafakkur olamini boyitib, adabiy jarayon va tanqidchilik saviyasiga ijodiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini yaqqol namoyon eta oldi. Ularning tanqid saviyasi va munaqqid mahorati haqidagi teran qarashlari qanchalik asosli ekanligi va ular ko'rsatgan jiddiy kamchilik va muammolar, afsuski, hali barham topmaganini "Adabiy- badiiy tanqidchilik haqida" qaror qabul qilingan-70-80-yillarda adabiy jarayonda kechgan bahs-munozaralar misolida ham ko'rish mumkin. Bu davr tanqid-adabiyotshunosligidagi muvaffaqiyatlar va ijobiy hodisalar bilan birga kamchiliklarga ham jiddiy ahamiyat berish lozim. Zero, ular badiiy ijodga xalal berib, kitobxonni ham chalg'itishi mumkin.

Badiiy asar haqida tahlil-dalillarsiz "mavhum, mantiqsiz mulohaza yuritish 30-yillar o'zbek tanqidchiligidagi illatlardan biri" bo'lganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Bu kabi kamchiliklar natijasida tanqid va adabiyotshunosligimizda rivojlanish o'rniga depsinish va badiiy ijod tabiatini sayoz tushunishdek salbiy holatlar tez-tez ko'zga tashlanib turadi. Adabiy jarayonni chuqur tushunolmaslik va tahlil mahorati etishmasligi oqibatida ayrim tanqidchilar badiiy asarni o'rganishda unga adib g'oyaviy-badiiy niyati asosida emas, sxematizm va qolipbozlik talablari bilan yondashadi. Afsuski, XX asr adabiyotimizning to'ng'ich avlodi jabrini tortgan bunday illatlar so'nggi yillar tanqidchiligida ham uchraydi. Dalil sifatida ba'zi munaqqidlarning S.Ahmad, E.Vohidov, A.Oripov, O'.Hoshimov va Tog'ay Murodlar ijodiga bag'ishlangan ayrim asarlariga murojaat qilamiz. Ular adabiy jarayon va tanqidchilikdagi muayyan yutuqlar, ijobiy tamoyillar va kamchiliklar haqida ham kengroq tasavvur paydo qilishga imkon beradi.

1972 yidagi qarordan so'ng tanqid va adabiyotshunoslik ham ancha faollashdi, ijobiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Bu davr o'zbek tanqidchiligi rivojida, shubhasiz, O.Tog'ae, N.Xudoyberganov kabi yirik munaqqidlarning ham munosib o'рни bor. Biroq olimlar ning hozirjavoblik bilan yozgan asarlarida munozarali o'rinlar yoki biryoqlama fikrlar ham ko'plab uchraydi. SHu bois ham O.Tog'ae'nning Abdulla Oripovning "Ayol" she'ri haqidagi maqolasi va N.Xudoyberganovning aksar maqolalari adiblar va kitobxonlarning ham keskin e'tiroziga sabab bo'ldi. Haqiqatan ham, she'riyatimizda alohida o'rin tutgan "Ayol" she'rida o'zbek ayolininig vafo-sadoqati va tog'day sabr-bardoshi teran ifodalanishi bilan birga unda davrning ulkan fojeasi ham chuqur aks etgan. Bu haqiqatga ayniqsa Ikkinchi jahon urushidagi g'alabaning 75 yilligi munosabati bilan poytaxtimiz Toshkentda yaratilgan "G'alaba bog'i"dagi anjumanlar, shuningdek, "Ilhaq" nomli badiiy filmni ko'rgan millionlab yurtdoshlarimiz ham amin bo'ldilar.

Badiiy asar-san'at. Ayniqsa, she'riyat his etishni va emotsional yondashuvni ham talab etadi. O.Sharafiddinovning "Zamon Qalb Poeziya", "Talant xalq mulki" kabi adabiy jarayon va tanqidning dolzarb muammolariga bag'ishlangan asarlari teranligi, tahlil va xulosalarining haqqoniyliги bilan ajralib turadi. Ammo O.Tog'ae va, N.Xudoyberganov kabi olimlarimiz

esa she'riyatga ba'zan noo'rin talab qo'yadi. Chunonchi, N.Xudoyberganov «Badiiy kashfiyot talabi bilan» maqolasida Erkin Vohidovning: Rubobim tori ikkidur, Biri quvnoq, biri mahzun,—matla'li g'azalini ma'nisiz deb topadi:«Kim ta'riflanayapti? Qancha tirishsam ham, uning qiyofasi, taqdiri, xarakterini ko'z oldimga keltira olmadim. Nihoyatda umumiy, mavhum mulohazalar!» deb e'tiroz bildiradi tanqidchi.

Yoki Said Ahmadning mashhur «Kelinlar qo'zg'oloni», Erkin Vohidovning «Oltin devor» asarlarida ham N.Xudoyberganov umuman ma'no yo'q, deganday xulosa chiqaradi. Bu fikr ham asarni, ayniqsa, satira va yumorni chuqur his etmaslikdan kelib chiqsa kerak. Ma'lumki, satira va yumorning o'z qonun-qoidalari bor. Bunday asarlardagi voqealarni aynan hayotdagidek tushunish va shu qolipga solib xulosa chiqarish o'zini oqlamaydi. Yana N.Xudoyberganov fikricha, E.Vohidov “O'zbekim” (1968) qasidasidan so'ng bironta jiddiy asar yaratmagan ekan. Aslida esa, kitobxonlar mehriга sazovor bo'lgan “Inson”, “Qo'llar”, “Biz ishlayapmiz”, “Uchi tugik dastro'mol”, «Hozirgi yoshlar», «Ruhlar isyoni» kabi mumtoz asarlar 70-80-yillarda yaratilgan. She'riyat ixlosmandlari va hassos tanqidchilar bu dostonni “bugungi lirik tafakkurning cho'qqisi” deb ta'riflashgan.(3.4-26.) N.Xudoyberganovning ijodkorlarga bergan ta'riflari ham g'alatiroq emasmi: ”Iste'dod egasi, u dramaturgmi, prozaikmi boshi berk ko'chaga kirib ketib, o'zini yo'qotib qo'yadi...”

Adabiy tanqidchiligimizdagi Ozod Sharafiddinov kabi munaqqidlar tomonidan ko'rsatib o'tiladigan yana bir nuqsonni ta'kidlab o'tish joiz. Ayrim maqolalar saviyasi, tilini ko'ngildagidek deb bo'lmaydi. Shu munosabat bilan O.Sharafiddinovning N.Xudoyberganovning “Me'yor va tasvir” maqolasiga javoban yozgan “Ba'zi zarur mulohazalar” maqolasidan bir fikrini keltiramiz:“Biz, tanqidchilar, hamisha adiblardan, shoirlardan yuksak mahorat talab qilamiz. SHu bilan birga tanqidchi ham ijodkor. O'zining betakror uslubiga ega bo'lmog'i shart. Biror yozuvchi tilida nuqson ko'rib, bong chalsag-u, o'zimizning tilimiz g'aliz bo'lsa, jumlarimiz poyintar-soyintar, fikrimiz chala-chulpa ifodalansa, maqolamizning bir joyida bir gap aytib, boshqa joyida uning teskarisini aytsak, bir gapni hadeb takrorlayversak, kitobxon nima deydi? Har bir so'zimiz yozuvchi va kitobxon uchun zarur so'z bo'lishi kerak emasmi?” (O'zb.adabiyoti va san'ati.1983,11 fevral). Bu haqli da'vat bugun ham tanqidchi-adabiyotshunoslarimizni ogoh etib turadi. Bu jihatdan adabiyotshunoslar-U.Qosimov va O.Abdullaevning muayyan darajada bahsga sabab bo'lgan “Qahr emas, mehr kerak”(“Sharq yulduzi”,1987) nomli yirik maqolasi ham e'tiborga loyiqdir. Adabiy jarayon va tanqidchiligimizning professional saviyasi pastligi va bu holatlar, asosan, hukmron partiyaviylik prinsiplari va mafkuraning temir qoliplari bilan bog'liq bo'lganini Tog'ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” qissasi misolida ham yaqqol tasavvur qilish mumkin. Yozuvchi qissani 1980 yili tugatib, “Sharq yulduzi” jurnaliga ne orzu-umidlar bilan taqdim etadi. Asarga ichki taqrizni Ozod Sharafiddin ov yozadi va shunday boshlanadi: “Men umrimda bunday asar o'qimaganman”. Taqriz mana bunday yakunlanadi:“Bu asar haqida hali juda ko'p yaxshi-yomon gaplar bo'ladi, g'ala-g'ovurlar bo'ladi. Ammo shu asar adabiyotda qoladi.” Afsuski, asar jurnalda bosilmaydi va yana taqrizga beriladi. Asarga ulkan adiblar, professorlar, akademiklar xolis taqriz yozib, uni bir mo'jiza asar sifatida yuqori baholashadi. Ammo ana shu mo'jiza jurnal tortma sida yillab yotadi. Qissa O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida ham ko'p muhokama bo'ladi. Tog'ay Murod 70-yillardayoq millat va xalqning mash'um sovet tuzumi taqiqlab kelgan va yo'qolib borayotgan qadriyatlarini, qadimiy urf-odatlarimizni saqlab qolishga, ularni tiriltirishga astoydil bel boylagan o'ziga xos shijoatli va chinakam vatanparvar va millatparvar adib edi. YOzuvchining noyob iste'dodi va betakror asarlarini haqqoniy baholagan va uning porloq

kelajagini bashorat qilgan A.Muxtor, O.Sharafiddinov, S.Azimov, S.Ahmad, O.Yoqubov, P.Qodirovdek yirik adiblar bilan birga tadqiqotchilar ham yakdillik bilan adib ijodi adabiyotimizda yangi sahifa bo‘lganini e’tirof etishgan. Afsuski, adib asarlarining o‘ziga xos milliy ruhiyati, betakror xalqona va baxshiyona tili va uslubi ham ba’zi mafkura vakillari tomonidan qadrlanmadi. Asarlarini kommunizm g‘oyalariga zid, sovet tuzumiga qarshi ruhda yaratilgan va “feodalizm sarqit larini aks ettirgan”, butunlay yaroqsiz asarlar deb, shabko‘rlarcha rad etganlar ham bo‘lgan.(6.86.) Masalan, qator kitoblar muallifi bo‘lgan professor Hafiz Abdusamatov dek katta olim ham O.SHarafiddinov fikrlarini inobatga olmaydi. T.Murod haqqoniy tasvirlagan qadimiy va milliy urf-odatlarimizni, xususan, sumalakni tilga olgani uchun bir necha yil adib qissasini nashr qilishga keskin qarshilik qilgan. Bu ham tanqid chiligimizdagi malomatli sahifalardan bo‘lib, ulardan ham saboq chiqarishimiz lozim.

Adabiyotlar:

- 1.O‘zbek adabiy tanqidi tarixi. XX asr. Antologiya.T. 2011.
- 2.Sharafiddinov Ozod. Talant xalq mulki. T. 1979.
- 3.Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida. Toshkent. 2007.
- 4.Sharafiddinov Ozod. Iste’dod jilolari. Toshkent. 1976.
5. Sharafiddinov Ozod. Ijodni anglash baxti. Toshkent. Sharq NMAK. 2004.
- 6.Xidirova M.Tog‘ay Murod ijod jarayoni.-“Tafakkur ziyosi”, №1.2022.

ERKIN VOHIDOV PUBLISISTIKASI –DAVR KO‘ZGUSI

Eshqobilova Maftuna, magistr, JDPI.

Ilmiy rahbar: U.Qosimov, fil.f.d.

XX asr o‘z bek adabiyoti ham o‘zining ko‘plab yorqin iste’dodlari bilan alohida ajralib turadi. O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov ana shunday nodir talant sohiblaridan biridir. O‘zining betakror she’r va g‘azallari, yetuk komediya va dostonlari, beqiyos ha jviyoti va tarjimalari hamda teran maqolalari bilan xalqimiz qalbidan joy olgan Erkin Vohidov nomini bilmaydigan va uning durdona asarlari kirib bormagan biron shahar yo qishloq, bironta xonadon yo‘q desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. (Ozod Sharafiddinov) Jahon adabiyoti tarixiga nazar solsak, ko‘plab mashhur adiblar o‘zlari yaratgan betakr or so‘z san’ati namunalari bilan bir qatorda, ayni bir vaqtda, jo‘shqin ijtimoiy faoli yati va yetuk publitsistik asarlari bilan ham insoniyat tafakkuri va ma’naviyati rivojiga ulkan hissa qo‘shganlar. XX asr o‘zbek adabiyotining ta’mal toshini qo‘ygan Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho‘lponlarni yoxud adabiyotimizning to‘ng‘ich avlodi namoyandalari- G‘afur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qahhor va Hamid Olimjon kabi adiblarimiz ijodini ko‘z oldimiz ga keltiraylik. Ular, avvalo, o‘z iste’dodi va davr talabi bilan so‘z san’atining deyarli barcha janr va shaklida qanchalik sermahsul ijod qilishgan bo‘lsalar, ayni vaqtda, badiiy publitsistika, ya’ni maqolanavislikda ham samarali faoliyat ko‘rsatganlar.

Erkin Vohidov ana shu ulug‘ adiblarimizning qutlug‘ an‘analarini muvaffaqiyatli davom ettirib, ham she’riyatda, ham badiiy publitsistika sohasida samarali ijod qilib, katta shuhrat qozonganligi endilikda hech kimda shubha tug‘dirmaydi. Bunday e’tirofni ning sabab-omillari haqida o‘ylaganimizda, eng avvalo, shunday bir fikr ko‘nglimizdan kechadi:

taniqli adib va munaqqidlarimiz yakdillik bilan ta'kidlaganidek, Erkin Vohi dov ijodida xalqimiz yaqin o'tmishda boshidan kechirgan ham suronli, ham g'am-anduhli kunlarning haqqoniy manzaralari yorqin aks ettirilganligida va shubhasiz, Mustaqillik dan keyingi yillardagi yorug' kunlarimizning buyuk ne'mat ekanligi ham o'zining teran ifodasini topayotganligida deyilsa, ayni haqiqatni ifodalagan bo'lamiz.

Erkin Vohidovning "Shoiru she'ru shuur"(1987) va "Iztirob" (1992) nomli to'plamlari ham uning xalq bilan doimiy birdamlik va hamnafaslikning ibratli samaralari bo'lib maydonga keldi Ular so'nggi yillar o'zbek adabiyoti va adabiy-estetik tafakkuri rivoji ga munosib hissa bo'lib qo'shilishi bilan birga, ayni vaqtda, ma'naviyatimizni boyitib, ruhiyatimizni yuksaltirishda ham muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Muallif "Iztirob" majmuasining muqaddimasida ushbu kitobning vujudga kelishi va uning asosiy mazmuni haqida, jumladan, shunday yozadi: "El ichida yashab, elning orzu-umidlari, kurash lari, shodlik va qayg'ularidan chetda turish mumkin emas. Jamiyat hayotining mavju dolg'a lari hamma zamonlarda ham she'riyat ahli yuragida aks etgan. Bu kitobni dastalar ekanm an, bosib o'tgan hayot yo'lim ko'z oldimdan o'tdi. Unda ko'p o'nqir-cho'nqirlar, yanglishishlar, izlanishlar bor. Negaki boshimizdan kechirgan kunlarimizning o'zi notekis, murakkab, xatolarga to'la bo'lgan. Biz haq so'zni aytish qiyin bo'lgan zamonda yashadik".

Shoirning samimiyat va ichki bir armon bilan aytgan bu iqrar-so'zlari zamirida xalqi miz boshidan kechirgan, ammo oshkora aytolmagan dard-alamlari ham o'z ifodasini topgan. Masalan, Mustaqillikka erishish arafasidagi xalqimizning qiyin ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, ko'p jihatdan haq- huquqsizligi va mana shu nohaqliklarning g'oyat og'ir salbiy oqibatlarini, xususan, Farg'ona vodiysida 1989 yili ro'y bergan noxush voqea lar haqida shoir "Ota yurtning omon bo'lsa" nomli maqolasida o'zining iztirobli o'y-fikrlarini shunday yozadi: "Quvasoyda boshlanib, butun Farg'ona vodiysiga tarqalgan mudhish voqealar o'ylarimni chetga surib qo'ydi. Yuragim iztirob bilan to'ldi. Ne kunga qoldik? Sha'nimizga aytilmagan malomatlar ozmidir? O'zbekka "paxta ishi"ning dog'i yetmasmidir? Qirq besh yil hayotning achchiq-chuchugi ni birga totib kelayotgan ikki do'st, birodar millatlar o'rtasida qanday nizo bo'lishi mumkin?.. Mana shunday iztirobli savollar boshimga qalashib keladi, javob izlayman. Voqea-ho disalarga adolat ko'zi bilan qaralsa, ularning haqiqiy sabablarini ko'rish qiyin emas.

Quvasoy voqeasi Farg'onalilarning to'lgan sabr kosasiga so'nggi tomchi bo'lgan xolos. Vodiydagi iqtisodiy, sotsial ahvolning chatoqligi, nochor oilalarning ko'pligi, ishsizlikning oshib borayotganligi bugun hammaga ayon. Yakkaziroatch lik- paxta yakkahokimligi balosi ayniqsa Farg'onaga ko'p ofatlar keltirdi...Bu mehnati og'ir, ammo bahosi arzon ekin dehqonni xonavayron qildi. Dehqonning yerdan boshqa nima tirikchiligi bor? Bu yerning 80 foyizi paxta bilan majburiy band bo'lsa, u nima bilan tirikchilik qilsin? Terim mavsumida kun bo'yi paxta tergan studentning ish haqi o'zining kunlik ovqatiga bazo'r yetadi. Respublikadagi ekologik holatni, bolalar, ayollar o'limining ko'pligini, yerning zaharlanganini gapirmayoq qo'yay. Bu masalalar bir-ikki yilda yuzaga kelgan emas. Zero, ularni hal qilish uchun ham vaqt kerak...Lekin bu uzoq yillar yig'ilgan alamning birodarkushlik shaklida namoyon bo'lganligi tashvishlidir. Bu ish sabablari o'rganilar, tarix o'z hukmini chiqarar. Qirg'indan manfaatdor bo'lgan shaxslar, guruhlar adolat qoshi da javob berar..." ("Iztirob", 13-15-bb)

Erkin Vohidovning chinakam yurtparvar bir mutafakkir shoir sifatida o'ziga xos hozi rjavoblik va chuqur hamdardlik bilan yozgan bu fikrlarining qanchalik to'g'ri va asosli ekanligini nafaqat voqelar rivoji, balki Mustaqillik sharofati bilan amalga oshirilgan ulkan

ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar va so'nggi yillardagi xalqimiz hayotidagi tub burilishlar ham to'la tasdiqladi. Ya'ni Erkin Vohidov sobiq sho'ro davridagi xalqimizning komfirqa siyosatiga mutelarcha qaramligi va natijada ertayu kech chang dalalarda zaharli ximikatlarni yutib, sog'lig'ini yo'qotib kelgan paxtakoru dehqonlarimizning qullarcha qashshoq turmushini va uning dardu tashvishlarini qanchalik haqqoniy yoritganligini yana bir muhim tarixiy hujjat, ya'ni birinchi Prezidentimizning "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish- eng oliy saodatdir" nomli kitobi asosida ham dalillash mumkin. Ushbu kitobidagi maqolalari, katta hayotiy tajriba va donishmandlik bilan yo'g'rilgan nutq-ma'ruzalari, juda ta'sirchan va unutilmas xotiralari bilan Erkin Vohidovning publisistik asarlari mazmunan nechog'lik mushtarak va hamohang ekanligida ham ana shu achchiq hayotiy haqiqatning chuqur aks etganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Eng avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, bu asarda xalqimizning mustabid sovet davlatining hukmron siyosati ostida qanchalar erk-huquqsiz yashaganligi va qanday nohaqlik va adolatsizliklarni boshidan kechirganligi va Mustaqillikka erishilgandan keyingi davrdagi erkin va ozod hayotimizning asosiy sabab va omillari chuqur qiyosiy tahlillar va mantiqiy xulosalar bilan izchil yoritib berilgan. Bular O'zbekistonimizning har bir fuqarosi uchun yaqin o'tmish tariximizni anglab olishida va bugun erishayotgan olamshumul muvaffaqiyatlarimizning miqyosi va ulkan ahamiyatini tasavvur etishida ham eng zarur hayotiy saboqlar bo'la oladi. Ayni vaqtda, bu kitob millionlab hamyurtlarimiz va ayniqsa, umidli yoshlarimiz uchun ona-Vatan qadrini tushunib olishida va uning ravnaqi yo'lidagi barcha faoliyat va intilishlarimizda ham muhim bir dasturilamal bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Erkin Vohidovning turli yillarda yozilgan va bugungi kunda ham o'zining ijtimoiy-g'oyaviy qimmatini va tarbiyaviy-estetik ahamiyatini yo'qotmagan yetuk maqolalarini bevosita shoir yashab-ijod etgan davr bilan bog'lab va uning badiiy asarlari, mumtoz she'riyati va dostonlari hamda dramatik asarlari bilan yaxlit holda o'rganilishi lozim. Bizningcha, Erkin Vohidov she'rlari, yetuk dostonlari va dramatik asarlari hamda publitsistik asarlariga bunday yondoshuv ko'p jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki har qanday yirik san'atkor ijodi singari Erkin Vohidov ijodiyoti ham yaxlit bir butunlikni tashkil etadi. Ya'ni adibning turli janrlardagi badiiy asarlari bilan bir qatorda uning salmoqli publisistik asarlarini o'rganish ham ijodkor siymosini, uning adabiyot va jamiyat rivojida tutgan o'rini aniqlashda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Erkin Vohidov she'riyat muxlislarining ko'nglidagi yakdil fikrni adabiyotimiz va millatimizning yana bir faxri bo'lgan mashhur shoirimiz- O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov ham o'ziga xos samimiyat bilan ifodalagan edi: "Mana, bir necha o'n yillardirki, biz dilbar bir she'riyatning muattar havosidan ba hramand bo'lib kelayotirmiz. Bu- Erkin Vohidov she'riyatidir. Men Erkin Vohidovni she'riyatda o'ziga xos sehr sohibi deb bilaman... Goho yuksak tog'larning bo'yu-basti uzoqdan yaqqolroq ko'rinadi, deydilar. Lekin men u uzoq masofalarni kutib o'tirmasdan, hozirning o'zidayoq bir gapni ochiq-oydin aytib qo'ya qolay: Men Erkin Vohidovdek ulkan shoir bilan zamondosh bo'lganim bilan faxrlanaman" Erkin Vohidovning mumtoz she'rlari va ulardagi har bir quyma satr xalqimiz yuragining to'ridan joy olganligining asosiy bir sababi shundaki, uning har bir so'zi ona-Vatanga va xalqiga bo'lgan katta mehr va sadoqatdan tug'ilgandir. Ulkan iste'dod sohibi, yirik ijodkor va jamoat arbobi Erkin Vohidov hamisha Vatan, xalq baxt-saodati va adabiyotimiz ravnaqi yo'lida fidoyilik bilan xizmat qildi. Afsuski, beshafqat o'lim 2016 yil 30 may kuni xalqimizning asl farzandi, adabiyotimizning buyuk namoyandasi Erkin Vohidovni oramizdan olib ketdi. Bu- xalqimiz uchun, adabiyotimiz va ma'naviyatimiz uchun ham og'ir

yo‘qotish bo‘ldi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning qaroriga asosan Erkin Vohidov tavalludining 80 yilligi mustaqil yurtimiz bo‘ylab keng nishonlandi.

Farg‘onada shoirning Uy-muzeyi tashkil etilishi, Marg‘ilondagi ko‘rkam madaniyat va istirohat bog‘iga Erkin Vohidov nomi berilishi hukumatimiz va xalqimizning chinakam ijod ahliga nisbatan yuksak mehr va e‘tiqodining yorqin bir ifodasiga aylandi. Erkin Vohidov nomi abadiylashtirilib, shoirga muhtasham haykal o‘rnatilishi, shubhasiz, minnatdor xalqimizning chuqur hurmat va ehtiromi ramzi bo‘lib qolajak. Zero, e‘zozli shoirimizning el-yurtga va ona- vatanimizga mehr va sadoqatining yuksak ifodasi bo‘lgan “Iltijo” she‘ri varch amizga qoldirgan ezgu bir vasiyati hamdir:

Menga nasib etmish shunday mamlakat,
Mamlakatki, olam mulkida tanho...

Adabiyotlar:

1. Erkin Vohidov. Muhabbatnoma. T.1986.
2. Erkin Vohidov. Iztirob. T. 1992.
3. XX asr o‘zbek adabiyoti. T. 1999.
4. U. Qosimov, M. Jo‘rayev. Ijodni anglash yo‘lida. T. 2015.

ISTIQLOL BA NAVOIY IJODINING O‘RGANILISHI

**Hasan Shukurov, magistr, Jizzax DPI,
Ilmiy rahbar: f.f.d.U.Qosimov**

Mustabid sho‘ro davrida boy tariximiz va adabiyotimizni xolisona o‘rganish va ular bilan faxrlanish imkoni bo‘lmagan. Adabiyotshunos olimlar ko‘rsatishicha, 30- yillarda adabiyot tarixini, o‘tmishdagi yirik shoirlar ijodini ilmiy asosda chuqur yoritgan bironta ham tadqiqot bo‘lmagan. Bunday adolatsizliklar butun tariximizga nisbatan va ko‘plab buyuk shaxslar faoliyati va ijodiga nisbatan ham uzoq yillar davom etib kelganligini biz kabi ko‘p yoshlar endi tushunib etmoqda. Masalan, dunyo adabiyotida tengsiz bo‘lgan shoir va mutafakkirimiz Alisher Navoiy ijodi ham xolis o‘rganilgan emas. Darhaqiqat, sobiq sho‘ro davrida, xususan, 30-40- yillarda avj olgan hukmron sotsialistik mafkuraning tazyiq va taqiqlashlari natijasida mumtoz adabiyotimiz tarixiga, hatto Navoiydek daho san‘atkorlarimiz ijodi va dunyoqarashiga nisbatan ham o‘ta biryoqlama va salbiy qarashlar ustuvorlik qilar edi. Ana shunday noxolis qarashlar va salbiy munosabatlar oqibatida tariximiz, ulug‘ ajdodlarimiz merosi va milliy qadriyatlarimiz, asosan, qoralanib-kamsitib kelingan.

Mustaqilligimizga qadar xalqimiz va adabiyotimiz mustabid tuzumning hukmron siyosati tufayli ne mashaqqatlarni va nohaqliklarni boshidan kechirganligini biz yoshlar endilikda o‘qib, o‘rganmoqdamiz. Bu esa bizga tariximizni chuqur o‘rganish bilan birga, ayni vaqtda, Istiqlolimizning tengsiz ne‘mat ekanligini va endilikda adabi yotimiz rivojiga ham, shoir va adiblarimizga ham erkin ijod qilish uchun to‘la huquq va katta imkoniyatlar yaratib berilganligini tushunishimiz va ularni qadrlashimiz talab etiladi. Mustaqilligimiz eng avvalo, o‘zligimizni anglashimizga imkon va huquq berdi. Shu boisdan ham yurtimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga va ulug‘ ajdodlarimiz hayoti va merosiga bo‘lgan munosabat, ayniqsa, O‘zbek tili va adabiyotimizga bo‘lgan yuksak e‘tibor va cheksiz g‘amxo‘rlikdan har bir vatandoshimiz haqli ravishda g‘ururlanadi.

Istiqloq yillarida o'tmish adabiy merosimizni xalqimizga qaytarish ishlar qancha lar samarali bo'lganini Yassaviy, Navoiy va Boburdek buyuk bobokalonlarimiz ijodi misolida yaqqol ko'rish mumkin. Mustaqillik yillari xalqimiz Navoiyni anglash va qadrlash yo'lida yangi bir vosqichga ko'tar ilganiga barchamiz guvohmiz. {1. 24.} Masalan, 1991 yili "Navoiy yili" deb e'lon qilingani va ulug' shoir pomidagi Davlat mukofoti ta'sis etilganligi ma'rifatparvar xalqimizni cheksiz quvontirdi. Navoiyning daho san'atkorligi, ayniqsa, Istiqloq sharofati bilan yanada ulug'vorlik va olamshumul mazmun kasb etmoqdaki, bu tarixiy haqiqatni I. Karimov cheksiz g'urur bilan shunday ta'kidlagan edi: "Agar ul zotni avliyo desak, avliyolar ning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir". {2.48.} Bu yuksak ta'rifda nafaqat zakovatli xalqimizning minnatdorlik va faxr tuyg'ulari aks etgan, balki jahon ilm ahlining va millionlab adabiyot muxlislarning ham yakdil e'tirofi mujassamdir. Zero, Navoiyning ijodi-ulkan ma'naviy-ma'rifiy olam. Hayotbaxsh bu immondan qancha ko'p bahramand bo'lsak, shunchalik komil inson bo'lib boramiz.

Ko'p asrlik taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan so'z san'ati va jahon adabiyu- estetik tafakkuri nodir iste'dodlarga, ilmiy- badiiy mo'jizalar va kashfiyotlarga boy olam. Bu jihatdan, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodi va faoliyati barcha avlod larga eng yuksak namuna bo'lib xizmat qila oladi. Viuik shoir va mutafa kkir Navoiy, eng avvalo, o'zining benazir shaxsiyati va ijodining favqu lodda boy va rang-varangligi bilan ilmu fazl ahlini hamisha hayratga solishi tabiiy. Alisher Navo iy o'zining butun jo'shqin faoliyatini va serqirra ijodiyotini insoniyatning baxt-saodati uchun kurashdek olijanob va xayrli ishlarga bag'ishladi. U hamisha xalqning tinch va osoyishtaligiga, o'zaro feodal urushlarni bartaraf etishga, el-yu rtning obodligi, ilm-fan, adabiyot va san'at rivoji uchun fidokorona xizmat qildi. Bu tarixiy haqiqatga ishonch hosil qilish uchun Navoiy ijodiga, jumladan, turkiy xalqlar adabiyotida yakkayu yagona bo'lgan "Xamsa"sidagi bir gina dostonning g'oyaviy mazmunini eslashning o'zi kifoya qiladi deb o'ylaymiz. {3.88.}

"Xamsa"dagi so'nggi doston - "Saddi Iskandariy" («Iskandar devori») qahramon lik epopeyasi bo'lib, Navoiy ijtimoiy-siyosiy va tasavvufiy-falsafiy qarashlarining yorqin bir ko'zgidir. Adolatli va ma'rifatparvar hukmdor boshchiligidagi markazlash gan yirik davlat barpo etish uchun kurash "Saddi Iskandariy" dostonining asosiy g'oyaviy motivi bo'lib sanaladi. Ko'plab lirik asarlarida, "Hayratul-abror", "Farhod va Shirin" hamda "Sab'ai sayyor" dostonlarida bu dolzarb va murakkab muammoga alohida e'tibor berib, qator ijobiy va salbiy shohlar obrazini yaratgan Navoiy "Saddi Iskandariy"da adolatli va ma'rifatparvar podshoning mukammal qiyofasini ko'rsatish, o'zining butun falsafiy va ijtimoiy-g'oyaviy qarashlari va ideallarini badiiy ifodalashdek g'oyat muhim vazifani o'z oldiga qo'yadi. Bu yuksak g'oyaviy-badiiy maqsadga Navoiy to'la erishadi ham.

Ko'pincha Iskandar nomi tilga olinganida, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida Iskandari Zulqarnayn, Iskandari Rumiy yoki Iskandar Maqdon deb yuritilgan Aleksandr Makedonskiy timsoli tasavvur qilinadi.⁹⁴ Shu munosabat bilan bu obrazning xalq og'zaki ijodi namunalari va ko'plab yozma adabiy-tarixiy asarlar va manoqiblarda uchrashi va ularning turlicha g'oyaviy-badiiy talqinlari haqida ham qisqacha to'xtalib o'tish lozim.

Aleksandr nomi Sharqda shunga monandroq bo'lgan "Iskandar" so'zi bilan yuritilgan. "Rumiy" va "Maqdon" Iskandarning vatanini ifodalasa, ayrim o'xshash unsurlar bo'lsa-da, Navoiy dostonida yaratilgan Iskandar mutlaqo tarixiy Iskandar- Aleksandr Makedonskiy

obrazi emas. Iskandar Navoiy orzu qilgan adolatli va ma'rifatparvar ideal podshoning xayoldagi romantik obrazidir. "Zulqarnayn" ("Ikki shoxli") Iskandarni ilohiylashtirish zaminida unga nisbat berilgan sifatdir. SHox juda qadim zamonlarda Yaqin Sharqda ilohiy qudratni ng simvoli-ramziy timsoli bo'lib, xudolar (yoki shohlar) shoxli qilib tasavvur etilgan. "Zulqarnayn" so'zining Iskandarga nisbatan qo'llanishi haqida ham yozma va og'zaki yodgorliklarda turlicha talqinlar va har xil afsona va rivoyatlar mavjud. Navoiy bu manbalarni chuqur o'rganib, ularga ijodiy yondashgan. Natijada xamsachilikda butunlay yangi obraz bo'lgan ideal shoh obrazini yaratishga muvassar bo'ldi. {4.465.}

Navoiy badiiy ijod sohasida nechog'lik yuksak darajaga ko'tarilgan bo'lsa, jahon adabiy-estetik tafakkur olamida ham shu qadar yuksak bir mavqeni egallaydi desak, haqiqatga xilof bo'lmaydi. Bu muhim haqiqat, eng avvalo, shunda namoyon bo'ladiki, badiiy adabiyotning ijtimoiy-estetik mohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida Navoiychalik ko'p, chuqur va izchil fikr-mushohada yuritgan mutafakkir san'atkor jahon adabiyoti va madaniyati tarixida ham kamdan- kam topiladi.* Navoiyning jahon madaniyati sivilizatsiyasi, (tamadduni) oldidagi buyuk xizmatlaridan biri ham shundaki, u o'z davri adabiyoti, tanqid va adabiyotshunosligining eng dolzarb, eng muhim muammolarini g'oyat hozirjavoblik hamda o'ziga xos teranlik bilan hal etib bergap. Navoiyning ulkan ijodi va tafakkur olami shunday tengsiz bir ummonki, endilikda undan bahramand bo'lmagan, uning beqiyos, yuksak badiiy mahorati va betakror so'z san'atkorligidan ta'sirlanmagan va undan ilhom olmagan biron adib butun turkiy xalqlari adabiyotida bo'lmasa kerak. {6.14.} Bupdau faktlar Navoiy ijodi, shubhasiz, umumbashariy ahamiyat kasb etganligidan gyvohlik berib turadi. Navoiyning favqulodda nodir talanti va boy ijodiyoti boshqa xalqlar o'rtasida ham beqiyos shuhrat qozonadi va ko'plab shoirlar Navoiyni faxr bilan o'zlariga ustoz deb bilishadi. Jumladan, Lohutiy, Mirzo Tursunzoda, Mo'min Qanoat, Mirsaid Mir shakar kabi tojik shoirlari, Fuzuliy, Kishvariy, Mirza Fatali Oxundov, Ali Akbar Sobir va Samad Vurg'un kabi ozarbayjon adiblari, Maxtumquli va Zelili kabi turkman shoirlari, qozoq oqini Abay, qoraqalpoq shoiri Berdaq va Ibrayim Yusupov, tatar shoirlari- Abdulla To'qay, Qayum-Nosiriy va boshqa taniqli shoirlar Navoiyning nomini hurmat va minnatdorlik bilan tilga olib, uning daho san'atkorligiga va olam shumul ijodiga yuqori baho beradilar, ayrim asarlariga naziralar ham bitadilar. Masalan, Navoiy ijodidan saboq olgan va ilhomlangan mashhur ozarbayjon shoiri Fuzuliy Navoiyni o'ziga ustoz deb bilib, uning ko'rkam she'r-dostonlaridan ta'sirlanib, go'zal g'azalllar va "Layli va Majnun" dostonini yaratgan.

Bu kabi yuksak e'tiroflar Navoiy ijodining nafaqat shuqur insonparvarlik mazmuni va ilg'or goyalari bilan, balki ularning mukammal badiiy ifodasi bilan ham dunyo adabiyotining yuksak cho'qqisiga ko'tarilganligini hamda uning jahonshumul shuhrati va ahamiyatini ham yorqin namoyon etib turadi.

Olibmen taxti farmoning'a oson,
Cherik yubormay Xitodin to Xuroson...

Ko'ngul bermish so'zimga turk jon ham,
Ne yolg'iz turk, balkim turkmon ham... {5.16}

Auniqsa, Istiqloldan so'nggi yillarda Navoiy ijodi, yorqin shaxsiyati va ulkan ma'naviy-ma'rifiy ishlari hamda uning hayotbaxsh adabiy an'analari hozirgi zamon shoir va yozuvchilari tomonidan ijodiy davom ettirilayotganligi nafaqat o'zbek adabiyotshunosligida, balki ko'plab xorijiy mamlakatlarda ham katta qiziqish bilan o'rganilayotganligini alohida ta'kidlash lozim. Yoki Rossiya, Boku, Fransiya kabi bir necha xorijiy mamlakatlarda Navoiy

haykali oʻrnatilishi ham bu ulugʻ siymoga va xalqimizga nisbatan chuqur hurmat va ehtirom ramzidir, desak xato qilmagan boʻlamiz. Ayniqsa, muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning taklifi bilan Turkiy davlatlar tashkiloti tomonidan adabiyot va sanʼat sohasida ijodkorlar uchun xalqaro Alisher Navoiy nomidagi mukofot taʼsis etilgani nafaqat buyuk shoirimiz ning nomini ulugʻlashga, balki mustaqil vatanimiz-yangilanayotgan Oʻzbekistonimizning olam shumul obroʻsi va shuhratini oshirishga ham xizmat qiladi. Yaʼni mashhur shoirimizning

“Mir Alisher naʼrasiga aks-sado berdi jahon,

Sheʼriyat mulkida boʻldi shou sulton oʻzbekim” (E.Vohidov) degan satrlarini endilikda har bir oʻzbek kitobxonini cheksiz iftixor tuygʻusi bilan ayta olish baxtiga musharraf boʻldi.

Adabiyotlar:

- 1.Alisher Navoiy. Xamsa. Toshkent. 1960, 2010 .
- 2.Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch. T.2008.
- 3.Toʻxtasin Jalolov. Xamsa talqinlari. Toshkent. 1968.
- 4.Mallaev N. Oʻzbek adabiyoti tarixi. Toshkent.Oʻqituvchi. 1976.
- 5.Abadiyat gulshani. Toshkent. Sharq NMAK. 1916.
- 6.Qosimov U. Adabiyotning hayotbaxsh kuchi. Toshknet. 2008

OʻTKIR HOSHIMOVNING HIKOYANAVISLIK MAHORATI

Kuyliyev Shohruh, JDPI magistranti.

Ilmiy rahbar: f.f.d. (PhD) M.Joʻrayev

XX asr ikkinchi yarmi oʻzbek adabiyoti, aniqrogʻi nasri rivojida Oʻtkir Hoshimovning munosib oʻrni bor. Mustabid tuzum sharoitida u oʻzining haq soʻzi bilan el orasida eʼtibor qozondi.Yozuvchi oʻz asarlarida hamisha haq gapni aytishga intildi. Ehtimol, uning hikoya, pyesa, hikoyalarida yuzaki oʻrinlar bordir, ammo adib hech qachon yolgʻon gap aytmagan, mustabid, mafkura, siyosat nogʻorasiga oʻynab vijdonini sotmagan, murosasozlik yoʻliga kirmagan. U oʻtkinchi mayllarga berilmay, soʻz sanʼatining azaliy muammosi – shaxs jumbogʻi, ijtimoiy adolat tuygʻusi ifodasi bilan qiziqdi.

Biz mazkur maqolamizda adibning “Oʻzbeklar” hikoyalar toʻplamidagi “Oʻzbeklar” hikoyasidagi olgʻa surilgan gʻoyalar haqida toʻxtalmoqchimiz. “Oʻzbeklar” hikoyasi shunday boshlanadi.“Otinoyining hovlisi past koʻchaning etagida.Uyi ham boshqalarnikidan ajralib turadi.Ikkita derazali pastak uy. Boshqalarning derazasi oldida gilos boʻlsa, Otinoyinikida ikki tup tut bor. Boshqalarning tomi tunuka boʻlsa, Otinoyining tomi shifer. Hammaning tomida televizor antenasi bor. Otinoyinikida yoʻq.Ammo uning uyi hamisha hammanikidan gavjum boʻladi” (Hoshimov Oʻ. Oʻzbeklar.-T: Oʻqituvchi. 2006 yil. 33-bet). Adib bu yerda kambagʻal bir oilani tasvirlagandek seziladi, aslidachi fan kandidati, trest boshqaruvchisi Iskandar Vahobovichning onasining uyi, har bir xalq yoki millatning oʻz urf-odatlari, ananalari bor bunday urf-odatlarni Otinoyi va qoʻshni kelin oʻrtasidagi munosabatlarda ochib berganday nazarimizda. Shuningdek Otinoyi obrazida oʻzbek ayolining oʻz umir yoʻldoshiga, oilaga, farzandiga boʻlgan kuchli mehri va sadoqati tasvirlanadi, bundan tashqari urushga ketgan umir yoʻldoshining qaytib kelmaganida, oddiy bir oʻzbek oilasiga yetkazgan sitamlarini u haqda koʻp toʻhtalmagan holatda kitobxonlar ongiga yetkazib berganini koʻrishimiz mumkin. Kelinoyi obrazi orqali adib butun oʻzbek kelinlariga xos fazilatlarni nomoyon etgandek, yani

qo`shni kelin bo`lishiga qaramay Otinoyi unga o`z kelinidek muomila qilishida o`zbek xalqining bir-biriga mehrini ko`ramiz. Xalqimizda bir ibora bor “Yaxshisini oshirib yomonini yashiradi” bu ibora Otinoyi uchun aytilgan balki butun o`zbek onalari uchun aytilgan desak aslo adashmagan bo`lamiz.

Otinoyining yolg`iz o`g`li Iskandarni katta qilib oliy o`quv yurtida o`qitishi buning evaziga yolg`iz o`g`il Iskandarning uylangandan keyin xotini Gulandomning onasi nomiga aytilgan yomon so`zlariga ham munosib javob qaytara olmaydi.

Adib Gulandom obrazi orqali o`zbek kelinlariga xos bo`lmagan fazilatlarni aks ettirgandek hatto qaynonasining dafn marosimiga ham qo`lida oq sumkacha xuddi to`yga borganday yasanib qulog`iga brilliand ko`zli zirak taqib kelganida ko`rishimiz mumkin.

Hikoyaning eng kuliminatsion nuqtasi shundaki “Otinoyi sandiqdan birma-bir o`limliklarini olib “ko`z-ko`z” qilyapdi. - Mana bu – kafanlik, -deydi u bejirim o`ralgan dokani ko`rsatib. Muattar xola dokaning bir uchini chimchilab ko`radi.

–Yaxshi misqoli doka ekan. Iskandarim ataylab Moskovdan obkelgan. – Otinoyi kerilib qaddini rostlaydi.” (Hoshimov O`. O`zbeklar.-T: O`qituvchi. 2006 yil. 33-bet). Bir boqishda oddiy bir voqeaday tuyuladi. Adib bu bilan nima demoqchi chuqurroq taxlil qilsak o`zbek xalqi qadriyatlaridan kelib chiqsak qaysi farzand o`z onasiga kafanlik olib keladi. Kafanlik deganimizning o`zida insonning beixtiyor etlari jimirlab ketadi. Otinoyi bironta yangi ko`ylagi bilan maqtana olmaydi faqatgina 3 yil oldin o`g`li olib bergan kovushi va 3 oy oldin 8-martga olib kelgan 4 quti choyni har mehmonlar kelganda qo`shni kelinga Iskandarim olib kelgan dutor chalib turgan choydan damlang deya olardi xolos. Hikoyaning eng kuliminatsion nuqtasi Baxri xola va qo`shnilariga o`limliklarini ko`rsatib o`tirgan holda vofot etishida. Adib bu yerda o`zbek xalqidagi dafn marosimlariga bo`lgan munosabatlarni ham tasvirlaganday yani Otinoyining tobutini katta ko`chaga olib chiqqanda ko`chadagi o`tkinchi odamlarning kim bu kishi deganlarida Otinoyim bo`ladi deyishganda savobi tegsin deyishgancha tobutni ko`tarishga shoshishardi ko`cha to`la boshi ko`rinmas darajada odam to`planganligida ham o`zbek xalqiga xos urf-odat ananalarni ko`rishimiz mumkin. Adib deyarli barcha o`rinlardaxulosani kitobxonning o`ziga qoldiradi.

Adib hech qaysi bir o`rinda Iskandarni qoralab yoki uni yomonlamaydi uni koyiganda ham buni o`zining tilidan aytib o`tadi. Adib Iskandar obrazi orqali o`z orzu niyatlari, tinchligi yo`lida onasini unutib qo`ygan bir shaxs tasvirlanadi. Bu hikoyada o`zbek xalqining go`zal urf-odatlari bilan birgalikda inson manaviy olamidagi g`uborlarni ochib berishga harakat qilinganligini ko`rishimiz mumkin.

Yana shuni alohida takilashimiz lozimki Otinoyi obrazi chin o`zbek onasi ro`lida gavdalanitiriladi lekin adib hech qaysi bir o`rinda Otinoyini o`g`li tashlab ketgan uch oyda bir xabar oladigan tarzda otinoyining tilidan qoralamaydi hech qaysi o`rinda Iskandar qoralanmaydi yoki uni yomonlab kitobxonga u to`g`risida salbiy fikr uyg`otishga harakat qilmaydi biz faqat hikoyani o`qish jarayonida Iskandar va Gulandom o`rtasida voqeyalar tizimini o`qigan kitobxon o`zi Iskandar va Gulandom haqida o`zlariga yetarlicha keragidan ziyotroq xulosa chiqarib olishlari uchun Iskandarning o`zining tilidan ko`plab holatlarda ayiblarini bo`yniga olgan holda tasvirlanadi.

O`.Hoshimovning “O`zbeklar” hikoyasidagi voqeayalar tasvirini Sh.Xolmirzayevning “O`zbeklar” hikoyasidagi voqeyalar bilan toqqaslab o`rganadigan bo`lsak Sh.Xolmirzayevning “O`zbeklar” hikoyasida hamma Palvon aka deb chaqiradigan magazinchi haqida bo`lib, bunda adib o`zbek xalqining o`ziga xos urf odatlari haqida ham

shuningdek adib Palvon aka obraziga alohida tarif beradi sodda, ishonuvchan, mardinson sifatida tasvirlaydi.

O`Hoshimovning “O`zbeklar” hikoyasida bir o`zbek ayoli taqdiri batafsil yoritilsa Sh.Xolmirzayevning “O`zbeklar” hikoyasida esa bir o`zbek sodda insonining taqdiri haqida batafsil to`xtalib o`tiladi. O`Hoshimov o`z hikoyasi o`zbek ayoliga xos umumiy ajoyib fazilatlari bilan tasvirlaydi. Sh.Xolmirzayevning hikoyasida esa o`zbek insonining mardligi soddaligi va bir so`zli ekanligi haqida gapiriladi. O`Hoshimov “O`zbeklar” hikoyasida inson manaviy-axloqiy dunyosidagi yuksak fazilatlar bilan birga yomon illatlar shunday ochib beriladiki buni biz Otinoyi va kelini, Otinoyi va Iskandar Vohobovich o`rtasida bo`lib o`tgan voqealarda o`qishimiz mumkin bu voqealar shunday tasvirlanganki kitobxonga kuchli tasir qilaoladigan darajada bayon etilgan.

Adib bu hikoyada Iskandar obrazi orqali hozirgi kun adabiy muhiti doirasida kitobxonlar ongiga qanchalar dolzarb masalani ko`targanini ko`rishimiz mumkin. Hayotda aytilganidek bir yaxshining bir yomoni bor degan gap bekorga aytilmagan bu hikoyada Kelinoyi obrazida qancha yaxshi fazilatlarni tasvirlagan bo`lsa Gulandom obrazi orqali buning aksini ko`rishimiz mumkin.

Insonning manaviy-axloqiy dunyosidagi illatlarning badiiy talqinini ko`plab hikoyalarida kuzatishimiz mumkin bunday hikoyalardan yana biri “Insof” hikoyasidir bu hikoyada insof so`zining turli tillardagi aytilishiga to`xtalib o`tiladi. Bu so`z turli tillarda turli shaklda aytilishiga qaramay bir tushunchani bildiradi. Bu hikoyada hozirgi kundagi eng ko`p kundalik hayotimizda uchraydigan tushuncha bo`lib bu tushunchaga insonlar turlicha qarashlari haqida chuqur fikr yuritiladi. Bir do`kondor va shogirdi o`rtasidagi voqea keltirib o`tilgan bu shubhasiz ota-bobolarimizning insof haqida qanday dunyoqarashga ega ekanligini bilib olamiz bundan tashqari Yusuf Tovalsiyning “Hikmatlar hazinasi” kitobidan ham rivoyatdagi Hazrat Umarning davlat boyligiga hiyonat qilmaganligi bir sham misolida tasvirlanadi. Endi hozirgi kunimizga bir nazar tashlaydigan bo`lsak O`zbekiston telekanalida “Munosabat plyus” ko`rsatuvida hozirgi kun dolzarb masalalaridan biri ko`tarildi unda ommaviy madaniyat haqida video film ko`rsatilib u haqida fikrlar eshitildi. Bu haqida o`zimiz ham bir fikr yuritsak insof ho`sh hozirgi kundagi ommaviy madaniyatdagidek qorin to`yg`azishga hizmat qila oladimi insof degan tushuncha buni tahlil qilsak albatda insofni ko`rib, ushlab, yeb, bo`lmadi bundan kelib chiqadiki insof hozirgi kun insonlarida birmuncha og`riqli masala hisoblanadi.

Adib hikoyada o`zi bilan bog`liq dorixonadagi voqeani ham tasvirlaydi bunda ikkita dorixonadagi bir xil dorining deyarli ikki baravar qiymatiga sotilayotganligini egasidan so`rganida aytarli bir izoh keltira olmaganligi tasvirlanadi. Bu hozirgi kun insonining insof haqidagi tushunchasi haqida adib supermarketdagi bir galstukning bozordagi narxdan uch baravar qiymat ekanligini aytib o`tadi. Bu holatlarni adib bozor iqtisodiyotiga o`tish jarayoni bilan izohlashga harakat qiladi, yani bu jarayonni insonlar o`zlari qanday qabul qilayotganlari tahlil qilib o`tiladi. Shuningdek bu hikoyada adib Yaponiyalik mehmon bilan bo`lgan voqeani ham keltirib o`tiladi. Bunda mehmonning bog`dan egasidan so`rab olmaganligini aytib mevalarni olmaganligi tasvirlanadi. Adib bu hikoyada insof va insofsizlik o`rtasidagi chegarani ajratish qiyinligini aytib o`tadi. Yuqoridagi aytib o`tilgan voqealar misolida adib insof va insofsizlik o`rtasidagi chegarani hozirgi kun nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda tahlil qiladi.

SHUKUR XOLMIRZAYEVNING “PODACHI”, “XORUN AR-RASHID” HIKOYALARIDA SINTEZ HODISASI

**Sindorov Lutfulla Kurolovich,
O‘zMU Jizzax filiali O‘zbek tili va adabiyoti
kafedrası katta o‘qituvchisi, f.f.f.d.(PhD)**

Ijodning mohiyatini mukammal obraz yaratish tashkil etadi. Chunki ijodkor o‘quvchiga aytmoqda bo‘lgan muhim gapini obrazlar orqali yetkazadi. Taniqli yozuvchimiz A.Qahhor o‘zining “1965-yil prozasi” maqolasida badiiy mahorat masalasi haqida fikr yurita turib, “Badiiy mahorat chiroyli iboralar, chiroyli ifodalar, antiqa voqealar, kulguli yoki qayg‘uli holatlar topish emas, xalqqa aytadigan zarur so‘zimizni kitobxonning qalbiga olib kiradigan obrazlar yaratish demakdir. Yozuvchining xalqqa aytadigan gapı naqadar muhim, naqadar kuchli bo‘lishi kerak. Asarga baho berilganda uning qalin yoki yupqaligiga, uni kim yozganligiga, xatto nima haqida yozganligiga emas, undagi obrazlarga qarab baho berilsa yaxshiroq bo‘ladi” [3. 303-bet], – degan edi.

Obrazning ichki va tashqi qiyofasidagi uyg‘unlik yoki nomutanosiblikning go‘zallik qonuniyatlari asosida tasvirlanishi, uning ijodkor tasavvuridagi holatida namoyon bo‘lishi jarayonida obrazlar sintezi ro‘y beradi. Obraz real voqelikning ijodkor idealidagi voqelik bilan sintezlanishidan iborat.

Sh.Xolmirzayevning 70-yillarda yaratgan “Podachi” hikoyasining qahramoni Ostonaqul chol obrazi yozuvchi yaratgan o‘nlab timsollar ichida ruhiy dunyosi butun murakkabliklari bilan namoyon bo‘lgan pishiq obrazligi bilan alohida o‘rin tutadi. Adabiyotshunos B.Nazarov Ostonaqul chol obrazi A.Qahhorning Qobil bobosiga juda o‘xshash ekanligini aytadi [1. 24-bet]. Qobil bobo, Ostonaqul chol bular safiga Xayriddin Sultonning “G‘ulomgardish” hikoyasi qahramoni Sanoqul boboni ham qo‘yish mumkin. Sanoqul bobo va Qobil bobolardan farqli o‘laroq yuqorida ta’kidlaganimizdek, Ostonaqul cholning ichki ruhiy dunyosi tasviriga ancha keng to‘xtalgan. Hatto aytish mumkinki, Ostonaqul chol harakterida Qobil bobo va Sanoqul bobolar ruhiyatidagi qaramlik, mutelik, jaholat yo‘q. Yozuvchining ko‘pchilik hikoyalarining umumiy ruhiga xos inson va tabiat, inson va hayvonot olami munosabidida Ostonaqul chol xarakteri qirralari ochilgan. Insonning yaxshi-yomon kunlarida sherik bo‘lgan ba’zi narsalar: u buyum bo‘ladimi, daraxt bo‘ladimi, mashina bo‘ladimi, hayvonlarmi o‘shanga nisbatan odamda mehr uyg‘onib qoladi. Inson hayotidagi yaxshi, yomon xotiralarda shu narsalarning o‘chmas izi bo‘ladi. “O‘tkan yilgacha sovxoz Oqtumshuqning ustiga bug‘doy separ edi. U yer lalmikor hamda u tepaga na mashina, na kombayn chiqa olar, yerni qo‘shda haydab, donni ham ho‘kizlar tuyog‘ida yanchib olishardi. Bo‘lim idorasida majlis bo‘lib qoldi. Bo‘lim boshlig‘i: “Endi Oqtumshuqqa don ekmaymiz. Qimmatga tushib ketar ekan”, – dedi. Qancha odam halok, qancha ho‘kiz. Unisiga maosh to‘laysan, bunisi allaqancha yem yeydi. Olgan hosilimiz ketgan mehnatiniyam qoplama ekan”.

Shundan keyin ho‘kizlar bekor qoldi. Ularni semirtirib go‘shtga topshirishga qaror qilindi. Xirmonchi – qo‘shchi Ostonaqul bobo ho‘kizboqar bo‘lib qoldi.

Chol ayniqsa mana shu ola ho‘kizga o‘rgangan edi. Negaki ho‘kizlarning qarisi ham shu, cholning xizmatida ko‘p yurgani ham shu” [3. 303-bet].

Kutilmaganda birdan ana shu ola ho‘kizning tobi qochib, jon talvasasiga tushadi. Ostonaqul bobo bir necha bor taraddudlanib, pichoq hozirlab ho‘kizning oldiga boradi-yu, itoatkorlik bilan bo‘ynini cho‘zganicha boshini tuproqqa qo‘yib, olaygan ko‘zlarini podachiga

tikkan ho‘kizning o‘ziga qarab turganini ko‘rgan Ostonaqul bobo pichoqni ho‘kizga tortishga qo‘li bormasdi.

Ko‘p yillar davomida cholning og‘irini yengil qilgan, yillar davomida qancha quvonch-u qayg‘ulariga sherik bo‘lgan bu ola ho‘kiz podachi uchun qadrdon do‘stdek aziz bo‘lib qolgan, uni qonini to‘kishni hech hohlamasdi. Oxiri ho‘kiz harom o‘ladi. Idorada jamoa xo‘jaligi rahbarlari majlis qilib, Ostonaqul cholni mas‘uliyatsizlikda aybladilar. Zootexnik To‘raboy boboyni uxlab qolgan, ho‘kiz kechasi o‘lib qolgan, desa bo‘lim boshlig‘i unga “kuchdan qopsiz-da, otam, deydi, – Ho‘kizning ahvolini bilgan ekansiz, shatta so‘ymaysizmi?” – deb aql o‘rgatadi. Xullas, majlis ahli cholni ola ho‘kizning o‘limida aybdor topib, uni ho‘kizning tovonini to‘lashini aytadilar.

– Ota, gap tamom. Ho‘kizning pulini to‘laysiz! – U atrofdagi kishilarga ham bir-bir qarab oldi. – Qasddan o‘ldirgan hisoblanadi... Kelishdikmi, ota?

– Ostonaqul chol sekin boshini ko‘tardi?

– Xo‘p, o‘g‘lim, to‘laymiz”.

Ha, Ostonaqul boboning xatti-harakatlarida boshliqlarga nisbatan itoatkorlik bor, lekin bu mutelikdan farq qiladi. U o‘zining qilgan hech bir izohsiz tushunishlarini hohlaydi, o‘zini oqlash, tushunishlari uchun biror so‘z aytmaydi. Hatto ho‘kizga tavon to‘laysiz deyishganlarida ham u o‘z ishidan nadomat chekib afsuslanganini yoki bekordan bekor o‘limligiga yig‘ib yurgan pullaridan ayirib qolayotganidan afsuslanganligini ko‘rmaysiz. U o‘z ko‘ngliga quloq soldi, tinch. Pul bo‘lsa, u topiladi. Ostonaqul bobo uni o‘zi singari xokisor kampiri ham tushunishni biladi. Muhimi ko‘ngli tinch. Ostonaqul bobo bir do‘stdek hamroh bo‘lib qolgan ho‘kizning bo‘yniga pichoq tortmadi. Biz “O‘g‘ri”ni, “G‘ulomgardish”ni o‘qib Qobil boboga rahmimiz kelsa, Sanoqul cholning xatti-harakati bizga juda erish tuyulib, ijirg‘anamiz. Lekin Ostonaqul boboni ham, uni sodda, samimiy kampirini ham yaxshi ko‘rib qolamiz. Yozuvchi bu hikoya orqali har bir davrning ham o‘z Qobil bobolari, amin va pristavlari bo‘lishi mumkinligi, ularning qiyofalari, egallab turgan lavozimlari zamonaviylashishi, lekin mohiyatlari juda kam o‘zgarishni tasvirlar ekan, real hayotda ro‘y berib turadigan holat va voqealar yozuvchi ijodiy tajribasi badiiy tafakkuri mahsuli estetik idealidagi voqelikni uyg‘unlashtirib, sintez qilib ta‘sirchan bir obraz yaratdi.

Sh.Xolmirzayevning “Xorun ar-Rashid” hikoyasida xalqqa yaqin bo‘lmoqchi bo‘lgan, partiyaning obro‘cini ko‘tarmoqchi bo‘lgan rahbarning xatti-harakati, folklorda mavjud bo‘lgan motivlari asosida tasvirlangan.

Bizga ma‘lumki, xalq bir umr adolatli rahbarni, xalqning orzu-umidlarini, maqsad va intilishlarini tushunadigan rahbarni orzu qilgan.

Xalqning ana shunday orzusini ifoda etgan xalq og‘zaki ijodida, yozma adabiyotda talaygina asarlar vujudga kelgan. Bu asarlarda podshoh yoki malika oddiy, ba‘zan faqirona kiyinib o‘z qalamravidagi aholining yashash tarzini yaxshi o‘rganish, podsho va uning amaldorlarini olib borayotgan boshqaruvlari ma‘qulmi yoki yo‘qmi, bilim uchun ko‘pincha xalq orasiga chiqqanlar. Bunday asarlarga misol qilib “Ming bir kecha”dagi Xorun ar-Rashidni, “Bibixonim va madrasaning uch talabasi” haqidagi rivoyatni keltirish mumkin. Ba‘zan podsholarning niyatlarida ham farq bo‘lishi mumkin. Masalan, A.S.Pushkinning folklor motivlari asosida yaratgan “Shoh Saltan haqida ertak” asarida shoh o‘ziga munosib rafiq qidirib saroydan chiqib ketsa, Gafur G‘ulomning “Hasan Kayfiy”sida podsho bekorchilikdan zerikkandan ermak qidirib xizr qiyofasida kezinib yuradi. Har holda, ne bo‘lsa ham, amaldor rahbarlarning oddiy xalqqa yaqin bo‘lishlari, odamlarning fikrini bilishlari ular uchun juda qiziq va zarur bo‘lgan bo‘lsa kerak. Shuning natijasida qaysidir rahbar buni chin

dildan, ezguliklar va ijobiy amaliy rejalarni o‘ylab qilsa, qaysidirlari buni o‘z manfaatlari yo‘lida, shunchaki ermak uchun qiladilar.

Sh.Xolmirzayev “Xorun Ar-Rashid” hikoyasida ham ana shunday xalqqa yaqin bo‘lib, uni ichdan o‘rganmoqchi, dardini bilmoqchi bo‘lgan viloyat firqa-qo‘mitasining mafkura kotibi g‘o‘labirmiqti (portretga e‘tibor bering – S.L.) Meliboy Bo‘riyevning ajabtovur sarguzashtining tafsiloti keltiriladi.

Mafkura kotibligiga tayinlangan zahoti sobiq sekretarning ta‘mirlangan hashamatli, hamma sharoitlari muhayyo uyiga ko‘chirib kirvolgan Meleboy Bo‘riyevning bu tomondan ko‘ngli yo‘q. Endi qanday bo‘lsa-da ishini yaxshi yo‘lga quyvolishi, birinchi kotib tayinlanganidek xalq dardini o‘rganib, xalqqa yaqin bo‘lishi haqida bosh qotirardi. G‘oyatda qulay qurilgan, shohona jihozlangan uyda, yumshoq kresloda o‘tirib, faqat puldor va amaldorning pistasi ko‘taradigan “VT”dan tutatib xoyya surayotgan Meliboy Bo‘riyev bu ishni qanday yo‘sinda amalga oshirishga boshi qotardi. Institut, redaksiya, soliqni saqlash boshqarmasi boshliqlari bilan alohida-alohida gaplashib, ularning dardini bildi va o‘ziga go‘yo yaxshi ish boshladi. Ammo oddiy xalqni o‘rganish masalasi unga jumboq bo‘lib turardi. Ilgari rahbarlarning uslubidan foydalanib joylarda deputat bilan uchrashib o‘tkazsami, yoki mashinasini yo‘l chetiga to‘xtatib qo‘yib, dalada ter to‘kib yotgan terimchilar oldiga borib, ular bilan “to‘rt og‘iz” gaplashsami? Xullas, Meliboy Bo‘riyevning boshi qotib turgan paytda ko‘zi kitob javonida turgan “Ming bir kecha”ga tushadi. Kalavaning uchi topildi qabilida, Meliboy Bo‘riyevga Bag‘dod xalifasi Xorun ar-Rashid yordamga keladi: “Bag‘dod xalifasi Xorun ar-Rashidning vaqti-vaqti bilan tunlari darvish libosini egniga ilib qalandarxonalar, takyaxonalarda yurish adovati bor edi. Shu asno u fuqaroning ahvol-ruhiyatidan xabardor bo‘lar edi...”

Meleboy hayajonlanar, go‘yo izlagan-istagan narsasini topganday xovliqib nafas olar, ha-ha u chindan ham muhim bir kashfiyot yaratganday edi.

Da, voj ta-ak [4. 162-bet].

Meliboy Bo‘riyevning birinchi ishi o‘g‘lining paxtaga kiygan qalin fufaykasi, kirza etigi va eski telpagini kiyib, Xorun ar-Rashiddek odmi qiyofaga kirish bo‘ldi. Ammo ana shu birinchi qadamning o‘ziyoq oson bo‘lmadi. Chunki bu kiyimlarning kir, iflosligi, ter hidi anqib yotgani uni ancha ko‘nglini behuzur qildi. Ammo chidash kerak, axir xalqqa yaqin bo‘lishning o‘zi bo‘lmaydi-ku.

Shu tariqa bizning Xorun ar-Rashid o‘zining xizmat “Volga”sini kutmay yo‘l mashinasiga qo‘l ko‘taradi. Meliboy Bo‘riyev dastlabki harakatdayoq qovun tushira boshlaydi. Zahiran oddiy xalqqa aylangan Meleboy, botinan, ko‘ngilda hech oddiylikka moslasha olmasdi. Bu holatlar yozuvchining mohir qalami ostida, shu darajada hayotiy chizib berilganki, beixtiyor qah-qah otib kulib yuborasiz. Faqat buyurish, faqat do‘q-po‘pisa, aytgani-aytgan, degani-degan holatga o‘rgangan mafkura kotibi xalqqa yaqin bo‘lish uchun birinchi qadamini shunday tashladi:

O‘zini mexanizatorman deb tanishtirgan Meliboy Bo‘riyev o‘zini tutishda, gap-so‘zlarida Volga shofyorida shubha uyg‘ota boshlaydi. Yo‘lovchining Qaynarbuloqqacha borishini bilgan shofyor yo‘ldan yana yo‘lovchi olsak, mashinaning kira xaqi og‘irlik qilmaydi, qabilida gap qilganda, har bir so‘mi hisob-kitobli mexanizatoridan ko‘ra, dimog‘idan qurt yog‘ilib turgan puldorning javobini qiladi; Kamiga yonidan oddiy mexanizatorning tushiga ham kirmaydigan “VT” sigaretasini olib cheka boshlaydi.

Xullas kalom, Meliboy Bo‘riyev oddiy xalqqa yaqin bo‘lish sinovidan o‘tolmaydi. Nima maqsadda ko‘chaga chiqqanligini unitib, Volga shofyori bilan gap tortishib

mushtlashishgacha boradi. Zohiran mexanizator Meliboy Bo‘riyev botinan mafkura kotibligicha qolgan, o‘zi anglamagan, hohlamagan holda so‘zini zo‘r berib Volga shofyoriga o‘tkazishga harakat qilar edi. Volga shofyori esa oddiy o‘zi kabi “mexanizator”ni osmondan kelayotganini hech singdirolmasdi:

– Ana! – dedi birday Meliboy shodlanib, – Partiyaning obro‘si tushgani uchun shunday bo‘ldi! Endigi maqsad – uni ko‘tarish! Tushundingmi? Him, bunga sen ham hissa qo‘shishing mumkin... U yangi sigaret tutatib oldi. Shofyorning yondirgichga qarab qo‘yganini ko‘rib ishshaydi. – Sovg‘a ... Xo‘sh, – shiddat bilan davom etdi yana, – xaligiday pravakatorlarga qarshi turish lizim! Zavcharingni aytayapman! (167-bet).

– Ustidan ter hidi anqib turgan isqirtnamo bir “mexanizator” kuni bir o‘zi kabi o‘tib turgan bir bechoraning olifta so‘zlari, urib partiyaning obro‘sining g‘amini yeyishi shofyorning g‘azabini keltiradi:

– Tuf-e! – U yana “Volga”ni shiddat bilan haydab ketdi. – menga partiyasini maqtaydi! U qil, bu qil E, tavkangdan ketay! Men bunga tushuntiraman: osh-non kerak, ust-bosh kerak ... deb! Vot, tushunmaydi vsyo! (167-bet).

O‘zbek xalqida bir dono maqol bor:

“Qorni to‘q bola qorni och bilan o‘ynamaydi”. Darhaqiqat, Meliboy Bo‘riyev shofyorga qarab; “Sizlar faqat yeyish, ichish, kiyinish, puldan gapirasizlar”, – deya ta‘na qilganda, alamiga chidolmagan shofyor “Sen-chi, bola-chaqang bormi, uy-joying-chi?” deb baqirib yuboradi.

– Bor, bor – dedi Meliboy. Uning ko‘z oldiga uy-joyi, kutubxonasi kelmadi: firqo‘m kotibining bunday narsalarga ega bo‘lishi tabiiy hol.. (167-bet)

Meliboy Bo‘riyevning ssenariysi o‘zi kutgan natijani bermadi. U xalqqa yaqin bo‘lolmadi, xalqning ko‘ngil eshiklari Meliboy Bo‘riyev kabi ko‘zi ochiq, ammo qalbi ko‘r rahbarlar uchun taq-taq berk edi. Ular Meliboy kabi bu eshikni ochish uchun ming bor paypaslanib, tirmashib urinishmasin, ular ochilmasdi, ochilolmasdi. “Volga” shofyori Meliboy Bo‘riyevni kelishmagan gap-so‘ziga, turish-turmushiga mos kelmaydigan aljirashlariga qarab turib, bu bir ko‘zbo‘yamachi bo‘lsa kerak, deb o‘ylab, yo‘lkirani talab etganda, manzilga yetganda beraman, deydi “mexanizator”.

Shofyorning hayolida ko‘nglimdan o‘tgan gap tasdig‘ini topayotgandek edi. Xullas, tortishuv shu darajaga boradiki, do‘ppi tor kelgach Meliboy Bo‘riyev “men obkom sekretariman” deb yuboradi. Bu endi – Meliboy Bo‘riyevning mudhish xatosi edi.

Shofyor qotib qoldi.

– Nima, nima?

– Obkom sekretariman.

Shofyor jahl bilan oldga yurib qulochkashlab urdi. Meliboy Bo‘riyev – sipogina, hatto viqor bilan turgan yigit chayqalib uchib ketdi. Shag‘alga borib tushdi. Shofyor unga intilib borib tepa boshladi.

– Obkom sekretari? Obkom sekretari emish. – He onangni... seni, apirist! Boshidayam sezgan edim bir balosi bor, bu makkor, deb... Mana, senga qaynarbuloq! Mana... diligatliging uchun! Mexanizatorliging... Yo‘q, bu mexanizator ham emas... Tur endi Obkomingga bor... Enag‘ar! Voy, buning tayinli joyi ham yo‘q, otaxon! qani, mashinaga kiringlar. Xudo haqqi, aytmadi... Hozir yurtda kim ko‘paygan – reketchi apirist. (172-bet). Zamonaviy Xorun ar-Rashidning xalq ichiga yurishi ana shu tariqa tus oldi.

Sh.Xolmirzayev sobiq partiya rahbarlarining soxta, balandparvoz fikrlarni to‘qiyverib bepul ulashilayotgan yong‘oq haqidagi yolg‘oniga oxiri o‘zi ham ishonib qolgan afandidek

bo‘lib qolganlarini ustalik bilan fosh etadi. Yozuvchiga fosh etishning g‘oyat original, tesha tegmagan usulda yuzaga chiqishida xalq og‘zaki ijodida mavjud bo‘lgan motivlardan ijodiy foydalanish, ya’ni folklor sintezi qo‘l keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Adabiyotimiz faxri. Maqolalar va xotiralar. T. 2007.
2. Abdulla Qahhor. Asarlar: 5 jildlik. J.5. Haq so‘zning kuchi. T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989.
3. Sh.Xolmirzayev. Tanlangan asarlar. III jildlik. I jild. Hikoyalari. “Sharq”. T., 2003.
4. Sh.Xolmirzayev. Hikoyalari. III jildlik. II jild. “Sharq”. T., 2005.

“RISOLAYI TIR ANDOXTAN” ASARIDA ODAM ALAYHISSALOM OBRAZI

Noila Abdullaeva, JDPI Magistiranti

Ilmiy rahbar: Zuhra Mamadaliyeva

“O‘q va yoy risolasi” nomi bilan mashhur ushbu asar Alisher Navoiyga nisbat beriladi. Buning sababini esa ushbu asarni nashrga tayyorlovchilar Suyima G‘anieva va Urfon Otajon hammualliflikda yozgan maqolasida quyidagicha izohlanadi:

"1. Asar A.Navoiy qalamiga mansub ekanini E.Bertels va A.Semyonov kabi taniqli SHarqshunoslar e’tirof etgan. Xususan, Semyonov domlining risolani "yaxshi bir to‘plamda" ko‘rgani va hazrat bobomiz qalamiga mansub ekanini alohida ta’kidlab o‘tishi hech qanday gumonga yo‘l qoldirmaydi.

2. Alisher Navoiy Muhammad alayhissalom hadislarini juda yaxshi bilgan va qirq hadisni she’riy tarjima qilgan. Balki bu risola ham payg‘ambarimizning hadislaridan biriga sharh sifatida yozilgandir?...

3. Alisher Navoiyning o‘zi ham yoshlik, yigitlik yillari sipohiyalar safida bo‘lgan va shubhasiz, tiyrandozlik mashqlari bilan shug‘ullangan... Harbiy ishlarga bo‘lgan bunday aloqadorlik Navoiyda o‘sha zamonning asosiy qurollaridan bo‘lmish o‘q va yoy haqida asar yozishga mayl uyg‘otgan bo‘lsa ajab emas " [4;121]

Ushbu risolada yoydan o‘q otishning foydalari, uning ilk ajdodimizdan bizga meros bo‘lib qolgan an’ana, payg‘ambarimiz sunnati ekanligi to‘g‘risida so‘z boradi. Bizning e’tiborimizdagi asosiy masala esa ushbu asardagi Odam alayhissalom obrazi talqinidir. Chunki mazkur asarda juda kamchilik adabiyotlarda uchraydigan Odam alayhissalomning er yuzidagi hayoti va faoliyati bilan bog‘liq qimmatli ma’lumotlarni topishimiz mumkin:

"Ammo, xabarda andoq keltirurkim, chun hazrati Odam Safiy, salovatullohi alayhi, dunyoga kelgandin so‘ng xudoyi taolo aning gunohin bag‘ishladi. Ersal Jabroil alayhissalomga amr bo‘ldikim, Odamga dehqonchilikni o‘grongil ... Va Jabroil alayhissalom urug‘ olib keldi va Odam Alayhissalom sochdi va erni mola qildi." [1;294]

Xuddi shunday Odam Alayhissalom bilan bog‘liq ushbu voqeaga Navoiy o‘zining "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida ham qisqacha to‘xtalib o‘tadi:

"Va Jabroil (a.s) hububot kelturub, Odamga qo‘sh surub, ekin ekmak qoidasin o‘rgatti" [2;540]

Odam Ato erga qadab hosil olgan ushbu mahsulot "Risolai tir andoxtan" asarida bug'doy ekanligi ta'kidlansa, "Qisasi Rabg'uziy" asarida u bug'doydan arpa ham unib chiqqanligi haqida hikoya qilinadi:

"Jabroil uch uvun bug'doydan uch hissa ajratdi, uning ikki hissasini Odam, bir hissasini Havvo erga qadadilar. Odamning sepganidan bug'doy, Havvoning sepganidan arpa undi" [3;27]

Ushbu bug'doyning o'sib-unishi vaqtida esa uning atrofida qarg'alar paydo bo'ladi va ekilgan bug'doyni kovlab olib eya boshlaydi. Qilgan mehnatining zoe bo'lishidan qo'rqqan Odam Alayhissalom Allohga munoajat qiladi. Alloh esa Jabroil alayhissalom vositasida Odam Atoga yoydan o'q otmoqlikni o'rgatadi. Ushbu jarayonda ham o'ziga xos hikmat yashiringan edi.

"Bas, Odam alayhissalom otti va xato qildi. Jabroil tabassum qilib aydi:

-Yana bir o'q otg'il.

Bu kezikda otqoch, urdi. Jabroil alayhissalom shodumon bo'ldi. Odam alayhissalomtu vassalam so'radikim:

-Ey Jabroil, avval otqonimda nega tabassum qilding va so'ng otqonimda nega shodumon bo'ldung?

Jabroil alayhissalom aydi:

-Ul tabassumni aning uchun qildim va so'ng shodumon bo'ldumkim, agar avvalg'i o'qung qarg'alarga tegsa erdi, farzandlaring ilgidan qiyomatgacha hech nimarsa xalos bo'lmag'ay erdi. Va yana bilgikim, o'q otmoq xudoyi taoloning lutfi erur va Odami Safiyning mo'jizasidir"[1;294]

Huddi shunday ushbu holat zamirida odamzodning mukammal emasligi, u ham xato qilishi, adashishi mumkinligi va shu xatolarga qaramasdan odam avlodi o'z oldiga qo'ygan vazifasidan og'ishmasdan, qayta va qayta harakat qilib ko'rishi lozimligi o'z aksini topadi.

Yoydan o'q otmoqning foydalari to'g'risida esa risolada quyidagicha keltiriladi:

"Yo rasululloh, tiyrandozlik biyik savobin aytsak, xalq kasbu tijoratidan qolg'aylar. Va o'q otmoqdin o'zga ish qilmag'aylar. Ammo bir soat o'q otmoq savobi bilan ellik yilg'i toatning savobi barobar turur".[1;294]

Shunday savobli amalni bandalariga etkazish uchun Jabroil alayhissalom erga yuboriladi. Ushbu holatda bug'doyga chang solgan qarg'alar Odam Atoga tiyrandozlikni o'rgatish uchun bir vosita bo'lib xizmat qiladi. E'tibor qaratadigan bo'lsak, Odam Atoning farzandlari bo'lgan "Qobil va Hobil" qissasida ham Alloh Taolo qarg'a vositasida Qobilga o'likni dafn qilishni ko'rsatib bergan edi:

"Qobil Hobilni o'ldirganida yigirma yoshda edi. U Hobilning jasadini bir qopga solib, orqasiga ko'tarib oldi. SHu holatda bir necha fursat yurdi. SHunda Tangri farmoni bilan ikki qarg'a keldi, bir-biri bilan urishdi va biri boshqasini o'ldirdi. Tirik qolgan qarg'a tumshug'i bilan erni kavlab, o'lik qarg'ani ko'mdi. Qobil bu holni ko'rgach o'kindi:

-Meni shu qarg'achalik aqlim yo'q ekan,-deb"[3;30]

Ushbu risolada Navoiy Odam Alayhissalom obrazidan foydalanish orqali yoydan o'q otmoqlikning ilk ildizlari va sabablarini izohlashga harakat qiladi. Bu esa o'z navbatida asarning mazmundorligi va ishonchliligini oshiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. MAT.16- jild. Risolayi tiyrandoxtan. -Toshkent, 1991

2. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 8- jild. Tarixi anbiyo va hukamo. - Toshkent , 2003.

3. Rabg‘uziy N.B. "Qisasi Rabg‘uziy" Birinchi kitob.-Toshkent. Yozuvchi, 1990.

4. "Tafakkur" jurnali. 1995-yil. 3/4-son

ALISHER NAVOIY XAMSA DOSTONLARIDA O‘ZLASHGAN KIYIM-KECHAK NOMLARI

Maxammadiyev Xurshid , JDPI o‘qituvchisi

Hech qanday xalq o‘z taraqqiyoti yo‘lida boshqa xalqlar bilan madaniy, iqtisodiy, boshqa tomondan aloqa qilmasdan, ayrim holda xo‘jalik yuritishi mumkin bo‘lmaganidek, biror-bir xalqning tili, xususan, lug‘at boyligi ajralgan holda rivoj topishii mumkin emas⁹⁵. Xuddi shunday o‘zbek tili ham o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida bir qancha tillar bilan munosabatga kirishgan, ulardan so‘z olgan, so‘z bergan. Shu tariqa leksik qatlamda turli tillardan o‘zlashgan so‘zlar paydo bo‘lgan. Kiyim-kechak nomlari ham faqat o‘z qatlamga tegishli bo‘lmay, ularning orasida ham turli tillarga oid o‘zlashmalar uchraydi. Alisher Navoiy asarlarida uchragan nomlar ham bundan mustasno emas, albatta. Alisher Navoiy asarlarida turkiy nomlar bilan birgalikda boshqa tillardan, xususan arab, fors-tojik tilidan o‘zlashgan kiyim nomlari ham uchraydi. Alisher Navoiy asarlaridagi o‘zlashgan kiyim nomlarini quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Arab tilidan o‘zlashgan kiyim-kechak nomlari.

2. Fors tilidan o‘zlashgan kiyim-kechak nomlari.

Biz birinchi guruh o‘zlashmalar haqida so‘z yuritamiz.

O‘zbek tilidagi kiyim-kechaklar borasida maxsus tadqiqot ishi olib borgan M.Asomiddinova arab tilidan o‘zlashgan kiyim-kechak nomlarini o‘zbek tilida tutgan mavqeiga ko‘ra ikki qismga ajratadi:

a) eski o‘zbek tiliga xos, hozirda faqat sahna kiyimiga aylangan, tarixiy voqelikni yoritgan badiiy, tarixiy, yozma adabiyotlarda uchraydigan nomlar: *abo, qabo, qina’, dalq, jubba, xil’at, dekla / dokla / deklay / daklay, rido, xirqa, aloqa, amoma, burqa va boshqalar*.

b) eski o‘zbek tilida uchrovchi va hozirgi o‘zbek tilida keng qo‘llaniluvchi nomlar: *jubba, astar, mamug’ / mamuq, libos, lozim/lozima, baxmal/maxmal, sadaf, hoshiya* kabilar⁹⁶. Muallifning fikriga asosan qo‘shilgan holda, bu o‘rindagi ba’zi chalkashliklarni ham qayd etishimiz lozim. *Jubba* har ikki qismda ko‘rsatilgan. Bu kiyim nomi birinchi qismga xos. *Xil’at* qayd etilganidek birinchi qismga emas, hozirgi o‘zbek tilida *xalat* shaklida keng qo‘llanishi bois ikkinchi qismga mansub. Birinchi qismda qayd etilgan *dekla / dokla / deklay / daklay*, ikkinchi qismga kiritilgan *mamug’/mamuq* esa arab tilidan o‘zlashgan kiyim nomlari emas. Bular turkiy-o‘zbekcha ekanligi ko‘rinib turibdi.

Arabchadan o‘zlashgan kiyim-kechak nomlari qatorida yana *amoma, taylason, toqiya, kuloh* singari so‘zlarni ko‘rsatish mumkin⁹⁷.

⁹⁵ Абдуллаев Ф. Ўзбек тили лексикасининг баъзи бир маъсаларига доир. Пушкин номидаги Тил ва адабиёт институти асарлари тўплами. 1-китоб. -Т.: 1949, -29 бет.

⁹⁶ Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. Тошкент, 1981.-Б.14.

⁹⁷ Тоғаев Т. Навоий асарларида кийим-кечак номлари. “Филологик тадқиқотлар–VIII” илмий анжуман материаллари. –Т.: “Навоий университети” НМУ, 2018. -Б.16.

Xil'at Alisher Navoiy asarlarida bir qadar ko'p tilga olingan kiyim nomidir. Arabchadan o'zlashgan bu so'zning lug'aviy ma'nosi "Alisher Navoiy asarlari lug'ati"da shunday ko'rsatilgan: 1. Hashamatli kiyim; sarmo, umuman, kiyim; zarbaft xil'at – kimxob to'n⁹⁸.

Darhaqiqat, shoir dostonlarida, she'riyatida **xil'at** asosan shohlar, zodogonlar, boy-badavlat kishilar kiyimi sifatida ko'zga tashlanadi.

SHohlik xil'ati qading bila jo 'b,

SHohlar qaddi xam ayog 'ingga ko 'p'⁹⁹.

Ya'ni, shohlik xil'ating (to'ning) qadingga mos tushgan, boshqa shohlarning qaddi oyog'ingga egilgan.

"Sabbai sayyor" dostonida boshiga kulfat tushgan Axiy shoh Farrux mamlakatiga yo'l oladi. Bir paytlari boyligi behisob bo'lgan, misli yo'q saxiyliги, insoniyliги tufayli g'arib ahvolga tushib qolgan xoja abgor holatda, bir qora shol, eski palosga o'ranib, ochlikdan, tashnalikdan kuchdan qolib yotganda, shoh Farrux uning boshiga kelib qoladi. Shoh bu kishidan avval musofirlikda cheksiz yaxshiliklar ko'rgan edi. Bir-birini tanib, xushvaqt bo'lishadi. Shoh xojani saroyga keltirib, parvarish qiladi, behad izzat-ikrom ko'rsatib, mavqeini baland ko'tardi. Eng muhimi, Axiyga ayrilgan yorini pok saqlab, qaytarib beradi. Mana shu voqealar bayonida asarda Axiyning kecha va bugungi maqomini mulohaza qilishi, shukronasi, ichki kechinmalari kiyim-kechaklar bilan bog'liq tarzda ajoyib tasvirlangan.

Garchi zarbaft xil'at ichra mudom

SHah yonida tutar edi orom.

Uyga kirgach qaro palosi edi

Ki, safarda aning libosi edi.

Tengri shukridakim, tili edi lol,

Toat aylar edi kiyib qaro shol

Ki: «palos ichra etti chun debo,

Tashlasam oni bo 'l mag 'ay zebo»¹⁰⁰.

Yuqoridagi misralarda *xil'at*, *debo*, *palos*, *shol* kabi kiyim nomlari qayd etilganini ko'ramiz. O'zaro qarshi qo'yilayotgan bu liboslardan *xil'at* (*zarbaft xil'at*) va *debo* shohona liboslarga mansub bo'lsa, *palos* va *shol* – darveshlar, qashshog'u bechoralar kiyimi sifatida aks etadi.

"Sabbai sayyor" dostonida javonmardlik timsoli bo'lgan Axiy shahzoda Farruxni murodiga etkazib, uni mamlakatiga kuzatar ekan, esdalik uchun uning musofirchilikda kiyib yurgan libosini so'rab olgan edi:

Yodgor istadi palosin aning,

Tilab oldi qaro libosin aning¹⁰¹.

Mana shu qora palosni Axiy shoh huzurida keyinchalik yuqori martabaga ko'tarilgandan keyin ham tashlab yubormadi. Albatta, hazrat Alisher Navoiyning bitganlarida tasavvufiy mazmun yo'g'rilgan. Biz uchun bu o'rinda til faktlari muhim.

Palos, *debo* va *shol* forsiy o'zlashmalardir. *Debo* – nozik va nafis naqshlar solib to'qilgan ipak ma'toni bildirsa, *shol* va *palos* jun matodan tikilgan oddiy kiyimni anglatadi.

⁹⁸ Navoiy asarlarini lug'ati. –T.: F. Gulom nomiдаги "Адабиёт ва санъат нашриёти", 1972.. –Б.654.

⁹⁹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдди. 10-жилд. -Т.: Фан, 1992. –Б. 67.

¹⁰⁰ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдди. 10-жилд. -Т.: Фан, 1992. –Б.188-189.

¹⁰¹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдди. 10-жилд. -Т.: Фан, 1992. –Б.178-б.

Tasavvuf yo‘rig‘ida bitilgan mana bu baytda ham turli maqomdagi liboslar o‘zaro zidlantirilgan:

*SHah egnida murassa’ tugmalig xil’atqa bermasmen,
Yig‘ochlar birla ollin tevrabon kiygan fano sholin*¹⁰².

YA’ni, oldi cho‘plar bilan qadab qo‘yiladigan, fanolik yo‘lida kiyilgan sholni shohning egnidagi oltin tugmalar bilan bezalgan xil’atga, ya’ni bu dunyo moliga alishmayman.

Libos nomi zikr qilingan ushbu bayt ham g‘oyat ibratli:

*Er kishiga xil’at ila ne sharaf.
Durg‘a ne nuqson yiroq o‘lsa sadaf*¹⁰³.

Bu baytni shunday talqin etish mumkin: er kishi shohona libos – xil’at bilan sharaf topmaydi. Durning sadafdan uzoq tushgani bilan qiymati yo‘qolmagani kabi, er kishi har qanday vaziyatda ham aslini saqlab qoladi.

Xil’at o‘tmishda ham xuddi hozirgi vaqtda bo‘lgani kabi erkak ham ayollarga xos kiyim turi hisoblanadi. Bir oz fonetik o‘zgarishga uchragan bu so‘z endilikda *xalat* shaklida qo‘llanmoqda. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *xil’at* va *xalat* so‘zlarining izohlanishiga e’tibor beraylik:

XIL’AT [a. - tuhfa. in’om qilingan ust kiyim) 1 esk. kt. Odatda in’om, hadya qilinadigan qimmatbaho to‘n (398-b).

XALAT [a. - sovg‘a, in’om qilingan kiyim; mukofot] 1 s.t. O‘zi ham, engi ham uzun va keng bo‘lgan, tugma o‘rniga belbog‘ qo‘llanadigan ustki kiyim (asosan xotin-qizlar, ba’zan erkaklar ham kiyadi). Qizil xalat kiygan qiz.

2 Shunday yoki shunga o‘xshash bichimdagi maxsus (tibbiyot, savdo, kimyo va ayrim texnika sohalari xodimlari kiyadigan) ust kiyim.

Lug‘atda *xil’at* Alisher Alisher Navoiy davridagi bu so‘z anglatgan ma’noga yaqin izohlangan bo‘lsa, *xalat* izohidan bu so‘z hozirda nafaqat fonetik tomondan, balki ma’no jihatdan ham jiddiy o‘zgarganligini ko‘ramiz.

Jubba - hashamatli, keng, uzun va engil to‘n ma’nosini bildirib keladi. “Saddi Iskandariy” dostonidagi bu kiyim nomi *to‘n, dekla kabi libos nomlari birga qayd etilgan*:

*YAna uch to‘quz davlat arkonig‘a,
To‘nu jubba birla aning yonig‘a –
Iki yuzga ham deklayu to‘n berib,
YAlang to‘n alarcha yana o‘n berib*¹⁰⁴.

SHuningdek, bu so‘z o‘ziga sifatlovchini biriktirib so‘z birikmasi ham hosil qiladi. Masalan, **jubbayi sinjob** - *sinjob* (qizil tulki) terisidan tikilgan po‘stin:

*Jubbayi sinjobing ichra vasla-vasla qoqimi,
To‘g‘ri hijron shomida bir-bir saodat anjumi*¹⁰⁵.

Alisher Navoiy asarlariga oid lug‘atlarda **qabo** - erkaklarning uzun va keng ust kiyimi (jubba ostidan kiyiladi) deb qayd etilgan¹⁰⁶. Mana bu misolda *qabo* erlar libosi sifatida tasvirlangan:

Minib ustiga hinduyi nayzavar,

¹⁰² Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 1-жилд. -Т.: Фан, 1987. –Б. 444.

¹⁰³ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 7-жилд. -Т.: Фан, 1991. –Б. 235.

¹⁰⁴ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 11-жилд. -Т.: Фан, 1993. –Б.313.

¹⁰⁵ Навоий асарлари луғати. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги “Адабиёт ва санъат нашриёти”, 1972.. –Б.234.

¹⁰⁶ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV жилд. – Т.: Фан, 1985. –Б. 11.

*Zarogin qabo, balki zarrin kamar*¹⁰⁷.

Ammo shoir asarlarida bu soʻz qalamga olingan boshqa oʻrinlarda *qabo* nafaqat erkaklar, balki ayollar, goʻzallar libosi ekanligi anglashiladi. Mana bu misralarda bu hol yanada yaqqol koʻrinadi:

Turfa xolinmu deyin, qaddi niholinmu deyin,

Moviy koʻnglak uzra gulrang qabosinmu deyin?!¹⁰⁸

Quyidagi baytda ham shoirning panohi boʻlgan *oliy abolar* haqida gap ketmoqda:

Necha pashminagʻa urdumki, erur -

Ey Alisher Navoiy, panahim oliy abo¹⁰⁹.

Rido - 1. SHayxlar, darveshlar elkasiga yopib yoki tashlab yuradigan choyshab narsa. 2. Darveshlarning ustki kiyimi. Bu soʻz Alisher Navoiy asarlarida juda koʻp qoʻllaniladi. Bu soʻz Alisher Navoiyning tasavvufiy qarashlarini ifodalash uchun koʻplab gʻazallarida, jumladan, dostonlarida qoʻllangan. CHunonchi:

Dayr piri ilgidin may durdi istarmen, valek

Roziy erman ichkali zohid **ridosidin** suzub.

Alisher Navoiy asarlarida darveshlarning ustiga yopinadigan libosi **taylason** ham qayd etilgan:

Kafan bas anga, balki gardi mihan¹¹⁰.

SHoir asarlari uchun tuzilgan lugʻatlarda arab tilidan oʻzlashgan *rido* va *taylason* maʼnodosh soʻzlar kabi izohlangan. Ammo Alisher Navoiyning mana bu baytida bu kiyimlarning oʻzaro farqi borligi anglashiladi:

Oʻzi malakvash, kiyimi hullason,

Xoh rido bil ani, gar taylason¹¹¹.

Alisher Navoiy asarlarida bosh kiyimiga mansub *salla*, *dastor* leksemalariga maʼnodosh boʻlgan arabcha *amoma* kabi bosh kiyim nomi ham foydalanilgan:

Boshigʻa qoʻydilar amoma dogʻi,

Anda sandal bilan shamoma dogʻi.

Amoma - *salla*, dastor (boshga chirmalgan mato). “Layli va Majnun” dostonida Qaysni kiyintirishgan mana bu oʻrinda *amoma* soʻzini uchratamiz:

Ham toʻnigʻa etkurub shamoma,

Ham boshigʻa chirmatib amoma¹¹².

YUqorida koʻrsatilgan kiyim nomlarini bildiruvchi arabcha oʻzlashmalardan tashqari *burqa*ʻ (yuzga tutiladigan parda, niqob), *hulla* (bezakli nozik va nafis kiyim; ipakli nafis mato) kabi niqob va libos nomlari ham keng qoʻllangan. SHuningdek, bosh kiyimlardan *toqiya* (doʻppi) nomi *toqiyafurush* qoʻshma soʻzi tarkibida uchraydi.

Tarixiy kiyim nomlari esa bizga turli adiblar, yozuvchilar, tarixchilar asarlari orqali etib keladi. SHu jihatdan Alisher Navoiy asarlari ham nodir manbalardan biri hisoblanadi. Alisher Alisher Navoiy asarlarida kiyim-kechak nomlari oʻz qatlamga oid leksemalar, shuningdek, oʻzlashgan qatlamga oid birliklar bilan ham ifodalangan. Arab tilidan oʻzlashgan libos

¹⁰⁷ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 11-жилд. -Т.: Фан, 1993. -Б.333.

¹⁰⁸ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 2-жилд. -Т.: Фан, 1987. -Б. 412.

¹⁰⁹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 2-жилд. -Т.: Фан, 1987. -Б.10.

¹¹⁰ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 11-жилд. -Т.: Фан, 1993. -Б.287

¹¹¹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 7-жилд. -Т.: Фан, 1991. -Б 89.

¹¹² Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 9-жилд. -Т.: Фан, 1992. -Б. 168.

nomlari ham Alisher Navoiy asarlarida faol qoʻllangan.

Xullas, arab tilidan oʻzlashgan kiyim-kechakka oid leksemalar qatorida quyidagilarni koʻrsatish mumkin: *xilʼat, qabo, jubba, xirqa, hulla, abo, rido, taylason, toqiya, amoma, burqa*. Bular orasida boshga kiyiladigan yoki oʻraladiganlari: toqiya, amoma; ust kiyimlar: *xilʼat, hulla, qabo, xirqa, jubba, rido, taylason*; din ahliga mansub yopinchiqlar: *rido, taylason*; shayx, darvesh va qalandarlar kiyimlari: *abo, xirqa*; yuzga tutiladigan parda: *burqa*.

ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” ASARIDA QOʻLLANILGAN DAVLAT BOSHQARUVIGA OID LEKSIK BIRLIKLAR

Adilova Shoxista Tohirovna, JDPI magistranti

Navoiy asarlari mangulikka daxldor va umrboqiydir. Buning sabablari ulugʻ shoir oʻzining sheʼriy va nasriy asarlarida koinot gultoʻji boʻlgan insonni kuyladi, ulugʻladi, uning bu dunyoda baxtli yashab oʻtishi uchun qaygʻurdi. Hayotda esa tarannum etgan yuksak gʻoyalarni oʻz ish-amallari bilan tasdiqladi. Daho ijodkor qalami qudratining yana bir siri u ona tilimizning beqiyos soʻz boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun goʻzalligi, husn-u jozibasi bilan koʻrsatib, millionlab kitobxonlar qalbini zabt etdi. Oʻz ijodiy merosida 26 mingdan ortiq lugʻat boyligidan foydalangan soʻz sanʼatkori asarlarining teran falsafiy maʼno-mohiyati, umuminsoniy qarashlari, yuksak badiiyati, turkiy tilda soʻz aytish, ona tiliga cheksiz sadoqat namoyon etish bilan jahon ahlini oʻziga qaratib kelmoqda.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” asarida shunday deydi: “Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning gʻururi, shaʼn-u sharafini dunyoga tarannum qilgan oʻlmas soʻz sanʼatkoridir”. [1:34]

Oʻzbek tilining asoschisi buyuk mutafakkir alloma Alisher Navoiy asarlari hamda uning leksikasini oʻrganish biz yoshlarning asosiy vazifalarimizdan biridir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida: “Biz oʻz oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessansni barpo etishdek ulugʻ maqsadni qoʻyar ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulugʻbeklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda avvalo, taʼlim va tarbiyani rivojlantirish, sogʻlom turmush tarzini qaror toptirish ilm-fan va inovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy gʻoyamizning asosiy unsurlari boʻlib xizmat qilishi lozim”, - deya bejizga taʼkidlamaganlar. Zero, ajdodlarimiz merosini oʻrganish ilm-fan rivojini yanada oshiradi. Mutafakkirlarimizdan biri boʻlmish Alisher Navoiy asarlari, shu jumladan, “Mahbub ul-qulub” asari leksikasi ham hozirgi oʻzbek adabiy tili taraqqiyotiga juda katta taʼsir etadi. “Mahbub ul-qulub” Navoiyning eng soʻngi nasriy pandnoma yoʻnalishida yozilgan asari boʻlib, uning leksikasini oʻrganishimiz zarurdir. Bu asarni leksik tadqiq etish xalqimizning oʻsha davridagi turmush tarzini, madaniyati va qadriyatini shu qatorda davlat boshqaruvi haqida bizga maʼlumot beradi. Maʼlumki, bu asarda turli mavzuga oid leksik birliklar qoʻllanilgan. Shu jumladan, davlat boshqaruviga oid leksik birliklar ham oʻz ifodasini topgan. Masalan, podshoh, shoh, bek, sipohiy, vazir, ulamo, mufti, raoyo, usul, lashkar, raiyat kabilardir. Bu leksikalar oʻsha davr taraqqiyoti natijasida tilning ichki

imkoniyatlari va chetdan soʻz oʻzlashtirish orqali paydo boʻlgan. Bu esa tilning boyishiga sabab boʻlgan. Tabiiyki, davr oʻtishi bilan bu leksemalar oʻsha davrdagi oʻz xususiyatini yoʻqatib, eskirgan soʻzlarga aylangan “Mahbub ul-qulub” asaridagi “Odil salotin zikrida” keltirilgan “Shaharda qoʻylar posboni ul yozida qoʻylar shuboni ul. Raiyatgʻa sara va sipohigʻa kom va farogʻ andin mavfur” [2:10] parchasida bugungi kunda eskirgan davlat boshqaruviga oid leksemalarni koʻrishimiz mumkin. Bundan tashqari “Shoh ulisi oʻziga mushobih boʻlur” zikrida keltirilgan “Shohgʻa har kimki, mulozim va tobi boʻlgʻay, ishi va tavri shoh ishigʻa mushobih voqeʻ boʻlgʻay. Agar shohgʻa adolat shior, ulusi shiorida ham adolatdin osor”. [3:18] parchasida ham yuqorida keltirilgan parchadagi kabi leksemalarni uchratamiz. Bu leksemalarni ayrimlarining maʼnosiga qaraydigan boʻlsak raoyo “xalq” mazmundagi raiyat soʻzining koʻplik shakli, muttafiq “istilo, hukumronlik, mustalohat “ifoda”, ulus “el, xalq” maʼnolarini bildirib, bu soʻzlar hozirgi oʻzbek adabiy tilida nafaqat soʻz balki oʻzi ifodalangan tushunchasi ham yoʻqolib, tarixiy soʻzga aylangan leksemalar hisoblanadi.

Alisher Navoiy davlat boshqaruvida odamlarning kiygan kiyimi-yu toj-u taxtiga qarab emas, balki eng yaxshi deb bilgan fazilatlariga qarab ish tutgan va shunga yarasha murojaat qilgan. Shu oʻrinda:

Oltin, kumush etma kasb davlat kunidin,
Kim tortar adab ulusni davlat tunidin
Gar yoʻqdir adab ne sud oltin uni din,
Elning adabi xushroq erur oltundin. [4:435]

“Mahbub ul-qulub” asaridagi har bir tanbeh, bayt yoki qitʼa hayotiy hikmat darajasiga koʻtarilganki, bu tanbehlar zamiriga xalqning koʻp asrlik hayot tajribasi davomida toʻplagan maqol va matallarning mazmuni singdirilgan. [5:78]

Shu oʻrinda koʻrinadiki, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari kishilarga pandnoma usulida yozilgan asar boʻlib, har bir narsaga, har bir xatti-harakatga eʼtibor bilan qarash zarurligi haqida alohida eʼtiborga loyiq asar hisoblanadi. Bu asarda shohlarning va oddiy xalqning oʻrtasidagi munosabatlar shu darajada teran yoiritib berilganki, oʻqigan odam davlat boshqaruvida ishlaydigan har bir boʻgʻindagilar nimalarga eʼtibor berish kerakligi bugungi kunda yozgandek tushunarli boʻlib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Karimov I.A. “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” – T.: Maʼnaviyat nashriyoti, 2008.
2. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” – T.: Toshkent nashriyot uyi, 2018. 10-bet.
3. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” – T.: Toshkent nashriyot uyi, 2018. 18-bet.
4. Vohidov R., Eshonqulov H., “Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi” – T.: Oʻzbek mumtoz adabiyot jamgʻarmasi nashriyoti, 2006. 435-bet.
5. Masharipova Z. “Mahbub ul-qulub hikmatlarida xalq maqollari” // Navoiyga armugʻon 5-kitob, – T.: 2006. 78-bet

III- SHUBA. O`ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O`QITISH MASALALARI.

TA`LIMNING BARCHA BOSQICHIDA MA`RIFATPARVAR SHAXS TARBIYASI

Ya.Umarova Andijon davlat universiteti
Pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

Jadid adiblarining asarlarida insoniy taqdir, qismat fojealari, millat ozodligi, inson erki, Vatan buyukligi muammolari yorqin ranglarda aks ettiriladi. Jadidlarning vatan, millat, ozodlik yo'lida jon fido etishga chorlab bitilgan olovli asarlari samimiy, ammo yuksak darajada ijtimoiylashgan shaxslarning nidolarigina bo'lib qolmay, bu asarlarda millatning ulkan dardi ma'rifatli insonning shaxsiy fojeasi bilan birgalikda ifoda etilganligini kuzatishimiz mumkin. Shunday ekan, ta'limning qaysi bosqichida bo'lishidan qat'iy nazar, jadid namoyondalarining hayoti, ijodiy faoliyati bilan birgalikda ularning asarlarini tahlillar asosida o'rganilishiga jiddiy e'tibor qaratishimiz darkor. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida ham aynan jadid adabiyoti namoyondalarining o'rganilishi, o'qitilishi xalqimiz va yoshlarimiz uchun ahamiyatli ekanligini ta'kidlab "...biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boyligni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab¹¹³" etishlarini uqtirib o'tdi.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, insoniyat tarixida shaxs tarbiyasi hamisha muhim sanalgan. Negaki, yosh avlodning tarbiyasi, bilimi, ma'rifati jamiyat taqdirini belgilaydi. Shunday ekan, jamiyatning kelgusi istiqboli uchun ham bugungi kunda o'sib kelayotgan har bir millat farzandi etuk tarbiya va yuksak bilimga ega bo'lishi muhim sanaladi. Tarbiya – insonning ma'naviy qiyofasini, qolaversa, butun taqdirini belgilovchi omildir. Ta'lim va tarbiya masalasi har bir davr buyuklari tomonidan ta'riflangan. Ulug' mutafakkir Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" kitobida "Ollah taolo insonlarni asl hilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi bilan yomonni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan. Lekin insondagi bu qobiliyatni kamolga etkazish – tarbiya bilan bo'lur"¹¹⁴ – deb yozadi. Belinskiy esa "Tarbiya – buyuk ish, u insonning taqdirini" hal qila olishini uqtirgan. "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir"¹¹⁵ ekanligini ta'kidlagan. Shunday ekan, jamiyat istiqboli zimmasiga yuklanayotgan yosh avlodni etuk tarbiya va yuksak bilimlar bilan tarbiyalashimiz joizdir. Farzandga to'g'ri tarbiya berish oiladan boshlanadi. Oila "Avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni", jamiyatning kichik bir bo'laki ekan, har bir oilada tarbiya topayotgan farzand tabiiyki, ta'lim maskaniga boradi, ta'lim-tarbiya oladi. Maktab ta'limi esa bolaning shaxs sifatida kamol topishida muhim ahamiyat kasb etishi tabiiydir. Jadid adabiyotining yorqin namoyondasi Mahmudxo'ja Behbudiy: "boshqa millatlarga qaralsa ko'rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm

¹¹³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи, 2020 йил, 25 январь.

¹¹⁴ Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. –Т.: Ёшлар нашриёт уйи, 2018 й. 24-бет.

¹¹⁵ Ўша асар, 25-бет.

va fanlar ham o'qilur. Chunki dunyoda turmuk uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lur"¹¹⁶. Mazkur fikrlardan anglashiladiki, maktab ta'limi hamisha muhim ahamiyatga ega ekan. Yosh avlod tarbiyasi jamiyat vakillarining burchi, vazifalari hisoblansa-da, biroq har bir ota-onalar qatorida pedagoglar, tarbiyachi-murabbiylar zimmasiga ulkan ma'suliyat yuklaydi. Maktab ta'limi bilan birgalikda maktabgacha ta'lim bosqichidanoq bolalarni maktabga tayyorlash, maktab ta'limining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Pedagoglarimiz har bir mashg'ulotlarida jadid adabiyoti namoyondalarinig asarlaridagi qarashlarini singdirib borishlari darkor. Haqiqatki, har bir ota-onalar ham oila tashvishlari sababidan farzandlariga etarlicha ta'lim -tarbiya berishlikda ayrim muammolarga duch keladilar. Shuning uchun ham bugungi kunda bolalar tarbiyasiga davlat siyosati darajasida e'tibor berilmoqdaki, oilalarda yo'l qo'yilayotgan ayrim muammoli vaziyatlarni mutaxassislar tomonidan bartaraf etib borish va, albatta, farzand tarbiyasi mukammal bo'lishini ta'minlashga erishish ustuvor vazifa bo'lib bormoqda. Ta'limning har bir bosqichiga oid qarorlarning ishlab chiqilishi hamda uning ijrosini ta'minlash maqsadida olib borilayotgan islohotlarni fikrimiz isboti sifatida e'tirof etishimiz mumkin. Bugungi kunda ta'limning ikkinchi bosqichi umumta'lim maktablariga barcha oila farzandlari to'liq qamrab olingan, biroq uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limga esa umumta'lim maktablari darajasida bolalarni qamrab olish holati kuzatilmaydi. Ta'lim sifatini yuqori darajaga olib chiqish uchun ta'limning barcha bo'g'inlarida oila va pedagoglar hamkorlikda ish tashkil etishi darkor. Buning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ish-faoliyatlarida ta'lim-tarbiya ishlarini yuqori saviyada, zamon talablariga mos holatda olib borish talab etiladi. Hozirda ota-onalar oiladagi farzandlarining maktab yoshiga etishi bilanoq to'liq ma'suliyatni bo'yniga olgan holda bolaning hujjatlarini tayyorlaydi va ularning ta'lim olishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga harakat qiladilar. Haqiqatki, ushbu masalada ota-onalar hech kimning talablarisiz o'z xohishlariga ko'ra ish tutadilar, farzandi uchun barcha o'quv qurollarini bisyor qiladilar. Mazkur holat, albatta, quvonarlidir, biroq achinarlisi shundaki, kechagina ko'cha changitib yurgan erkato'y bola hech qanday tayyorgarliksiz maktabga, dars mashg'ulotiga olib kirilsa, u o'zini qanday tutadi, darsda qanday o'tira oladi, o'qituvchiga qanday munosabatda bo'ladi bu kabi savollar ayrim ota-onalar tomonidan mutloq o'ylanilmaydi! Jamiyat kelajagi vorislarining ta'lim maskanidagi datlabki qadami shunday boshlanar ekan, uning qanday davom etishini tasavvur etish mushkul emas. Ota-onalar farzandlarini maktab yoshiga to'lishi bilan, ayrimlari maktab yoshiga etar-etmas berishga oshiqadilar. Ajablanarlisi shuki, farzandlarining ta'lim olishida duch kelishi aniq bo'lgan muammolarni bartaraf etishga harakat kuzatilmaydi. Aksincha, bolaning ta'lim olishidagi oqsoqlanishlarini, qiyinchiliklarga uchrashini ko'rib, o'zlari mutaxassis bo'lmaganliklari uchun ham etarli darajada ko'mak bera olishmaydi, natijada aybdor o'qituvchi, pedagog bo'lib chiqadi! Farzandlarimizning maktab ta'limida qiynalayotgan vaziyatlarida ular bilan birga shug'ullanishda ota-onalarga qanday omillar to'sqinlik qilyapti? Aksariyat ota-onalarimiz farzandining dastlabki boshlang'ich ta'limni o'zlashtirish davrida butun ma'suliyatni faqat o'qituvchi zimmasiga yuklab qo'yishlari, shuningdek, maktabgacha ta'limni o'zlashtirmagan bolani maktab ostonasiga etaklab borishlari shu kabi muammolarni keltirib chiqarayotgani ayni haqiqatdir. Bu kabi muammolar respublikamizning barcha maktablarida farzandlarini birinchi sinfga bergan

¹¹⁶ Маҳмудхўжа бехбудий. **Эҳтиёжи миллат.** «Самарқанд» газетаси, 1913 йил, 12 июл.

oilalarda kuzatiladi. Demak, mazkur muammoni qanday echish mumkin? Javobi juda ham oddiy. Bugungi kunda ota-onalar farzandining maktab yoshiga etganda maktabga olib borish tushunchasi to'liq shakllanganidek, bolaning maktabda mashg'ulotlarni qiyinchiliklarsiz o'zlashtirib borishlari uchun, qolaversa, o'qituvchilarning dars sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasliklarini ta'minlash uchun ham oilalardagi har bir bolani maktabgacha ta'lim tashkilotlariga to'liq qamrab olish zarurdir. Nima uchun ayrim ota-onalar farzandini maktab yoshiga etganda astoydil tayyorgarliklar bilan olib boradi-yu, maktabgacha ta'lim yoshiga etganda maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'limidan bosh tortadi? Maktablardagi ta'lim samaradorligini ta'minlash uchun ham ta'limning birinchi bosqichi sanalmish maktabgacha ta'limni izchil yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Tasavvur qilaylik, birinchi sinfga qabul qilingan bolalar uchun darsni olib borish uchun o'qituvchi tayyor, sinfxona talab darajasida, o'quvchilar to'liq o'quv qurollari bilan ta'minlangan, ming afsuski, sinfda ayrim bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalangan, ayrimlari oilada, kattalarimiz ardog'ida tarbiyalanib kelgan. Mazkur sinfdagi darsning 100 % talab darajasida o'tilishini mahoratli o'qituvchi ham yo'lga qo'ya olmaydi. Sababi turli oilalardagi bolalar endigina sinfxonaga kirib, o'quv qurollarini tomosha qilyapti, tengdoshlari orasida o'zini erkin tuta olmasliklari, onasidan ajralishni xohlamasdan dilxiraliklar qilishi kabi qator muammolar ko'ngdalang turadi. Ota-onalar buni farzandini maktabga berganda, shu kabi muammolarga duch kelganda fahmlashadi, o'zini go'yoki oqlagandek bolasini "bog'chaga bormaganda" deya vaziyatini oddiy holdek tushuntirishga harakat qiladi. Bu o'rinda "bog'chaga bormaganda emas, bog'chaga bermaganman" degan haqiqatni baralla ayta olishlari kerak. Maktabgacha ta'lim tarbiyasini olgan bola ota-onasi bilan osongina xayrlashadi, darsda o'zini qanday tutishni biladi, tengdoshlari bilan oson til topisha oladi, asosiysi o'qituvchi uchun muammoli vaziyatlarni keltirib chiqarmaydi. Ta'limning birinchi bosqichida ta'lim olmagan bolajon esa nafaqat o'qituvchini, ota-onasini ham qiynaydi, qolaversa tengdoshlarining sifatli dars olishlariga ham to'sqinlik qiladi.

"Ilmiy kuzatish va tadqiqotlar inson o'z umri davomida oladigan barcha ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda faol qabul qilishini, bolaning ongi, asosan, 5-7 yoshda shakllanishini ko'rsatgan. Bu esa jamiyatga kirib kelayotgan shaxsning ma'naviy-ruhiy olami, dunyoqarashi, bilimu salohiyati uning maktab yoshigacha bo'lgan yillarda olgan ta'lim-tarbiyasiga uzviy bog'liqligidan dalolat beradi"¹¹⁷. Aytish mumkinki, har bir bolaning ta'limiy-tarbiyaviy ilk tasavvurlari nafaqat oilada, balki maktabgacha ta'lim muassasalarida shakllanadi. SHuning uchun ham bugungi kunda prezidentimizning 2016 yil 29 dekabrda qabul qilingan "2017 — 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹¹⁸gi qarori bu borada dasturilamal bo'lmoqda. Mazkur chora-tadbirlarning ijrosini yuqori darajada bajarish uchun, albatta, soha vakillari bilan birgalikda ota-onalar ham jiddiy yondashishlari maqsadga muvofiqdir. Har bir farzand oila tarbiyasi bilan birgalikda maktabgacha ta'lim tarbiyasini paralel ravishda olib borsa, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflaridagi ta'lim sifati samaradorligiga erishiladi. Ota-onalar farzandlarining yoshi maktab yoshiga etganda o'z ixtiyorlari bilan ongli ravishda olib borishlari odatiy holat darajasida qaraladi. Qachonki, bugungi kun ota-onalarimiz bolalarini

¹¹⁷ *Кенжаев Д. Узлуксиз таълимнинг муҳим бўғини. Халқ сўзи. 02.май,2017.*

¹¹⁸ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 1-сон, 11-модда, 35-сон, 923-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.07.2018 й., 06/18/5483/1594-сон; 01.01.2020 й., 07/20/4555/4257-сон

maktabgacha ta'lim yoshiga etganda ham umumta'lim maktablariga 100 % ko'rsatkichda ta'minlaganlaridek olib borsalar biz ko'zlagan maqsadga hech qanday qiyinchiliklarsiz erisha olamiz. Buyuk ma'rifatparvar A.Avloniy: "Dars ila tarbiya ... ikkisi jon ila tan"¹¹⁹ deya ta'kidlar ekan, farzandlarimizning dastlabki ta'limiy tarbiyasini kechiktirmasligimiz darkor.

Foydalangan adabiyotlar :

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. –T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018 y. 24-bet.
2. Kenjaev D. *Uzluksiz ta'limning muhim bo'g'ini. Xalq so'zi. 02.may,2017.*
3. Mahmudxo'ja behbudiy. **Ehtiyoji millat.** «Samarqand» gazetasi, 1913 yil, 12 iyul.
4. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 1-son, 11-modda, 35-son, 923-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018 y., 06/18/5483/1594-son; 01.01.2020 y., 07/20/4555/4257-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi, 2020 yil, 25 yanvar.

ONOMASTIK BIRLIKLARNI O'QITISHDA LINGVISTIK MASHQLARNING AHAMIYATI

JDPI magistranti Iroda Usmonqulova
Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) Dilnoza Abduvaliyeva

Lingvistik mashqlardan til bilimlarini o'rganish, mustahkamlash, takrorlash, tekshirish, umumlashtirish maqsadlarida foydalaniladi. Shuningdek, ular bolalarda orfoepik, orfografik, uslubiy, punktuatsion va shu kabi malakalar hosil qilishning yetakchi omili sanaladi. Maktabda tilning fonetika, leksika hamda grammatikaga oid bilimlar va ular asosida turli-tuman nutq ko'nikmalari ustida ish qilinadiki, bularni grammatik mashqlar deyish an'anaviydir. Biroq ular tilning birgina grammatika sohasiga tegishli bo'lganligi bois cheklangandir. Binobarin, bu istilohi o'rnida «lingvistik mashq» istilohini ishlatish ma'quldir. Lingvistik mashq yoshlarni hayotga tayyorlash jarayonining tarkibiy qismi, til ta'limini amalga oshirishning yetakchi yo'li hisoblanadi. Mashq ma'lum makonda (sinfda o'qituvchi rahbarligida) va zamonda (darsda) o'tkaziladi. Leksikologiya bo'limining tarkibiga kiruvchi onomastika sohasini o'rganishda ham lingvistik mashqlarning ahamiyati beqiyosdir. [Abdushukur Musayevich Shofqorov Nursulton Shayxislamov "Ona tili ta'limida lingvistik mashqlarning o'rni" 2020, 1-3-bet.]

Xo'sh, onomastika o'zi qanday soha? **Onomastika** (yun. onomastike — nomlash, nom qo'yish san'ati) — tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarni, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rganuvchi bo'limi, shuningdek, barcha atoqli nomlar yig'indisi. Ayrim tadqiqotlarda onomastika termini antroponimika ma'nosida ham qo'llangan. [Abduvahob Madvaliyev "Onomastika" "Sharq" 2018, 3-7-bet.] Atoqli nomlarning lisoniy xususiyatlariga qarab Onomastika adabiy va dialektal, odatdagi (amaliy) va poetik, zamonaviy va tarixiy, nazariy va amaliy turlarga bo'linadi. Nazariy onomastika til va nutqdagi, adabiy va dialektal sohalardagi atoqli nomlarning paydo bo'lishi, nominatsiya (nomlash) asoslari,

¹¹⁹ Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. –Т.: Ёшлар нашриёт уйи, 2018 й. 24-бет.

rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o'zgarishlari, nutqda qo'llanishi, muayyan hudud va tillarda tarqalishi hamda tarkibiy tuzilishini o'rganadi. Badiiy matnlardagi atoqli nomlarni (poetik onomastika) tadqiq etish alohida muammo hisoblanadi. Onomastika, shuningdek, tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy, struktur, genetik, areal, onomastik xaritalashtirish va boshqa usullarini qo'llagan holda, atoqli nomlarning fonetik, morfologik, so'z yasalishi, semantik, etimologik va boshqa jihatlarini o'rganadi. Amaliy onomastika xorijiy tillarga mansub nomlarning transkripsiyasi va transliteratsiyasi, an'anaviy (talaffuz va yozilishiga ko'ra), tarjima qilinadigan va qilinmaydigan nomlarni aniqlash, "begona" nomlarni o'z tilda qanday yozish bo'yicha yo'riqnomalar tayyorlash, xorijiy tillardan o'zlashgan nomlardan yangi so'zlar hosil qilish bilan, nom berish va nomlarni o'zgartirish masalalari bilan shug'ullanadi. Onomastika tarix, etnografiya., arxeologiya, genealogiya, matnshunoslik, adabiyotshunoslik, geografiya, astronomiya, geologiya, demografiya kabi fanlar bilan o'zaro aloqadordir.

Nomlar, ularning turlari, nomlanish sabablari bilan shug'ullanuvchi tilshunoslikning bo'limiga onomastika (lot. onuma — nom so'zidan olingan) deyiladi. [A. Nurmonov, A. Sobirov, Sh. Yusupova "Hozirgi o'zbek adabiy tili" 216-219-bet.]

Demak, onomastika bu atoqli otlarni, ularning nomlanish tarixi, nomlanish sabablarini o'rganuvchi soha. Onomastikaning obyekt turiga ko'ra turlari ko'p. Bu degani aynan qanday obyektни nomlayotganiga ko'ra turlarga bo'linadi. Bu haqida yuqorida fikr yuritdik. A. Nurmonov, A. Sobirov, Sh. Yusupova "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida ko'rib chiqqan asosiy 4ta turi haqida baxs yuritsak.

Atoqli otlar nomlanuvchi obyekt turiga ko'ra bir necha guruhga bo'linadi:

1. Shaxs va ularga qo'yilgan nomlar antroponimlar (lot. antropoz — shaxs, odam; onuma — nom): Ahmad, Karim va boshqalar.

2. Geografik obyektlar va ularning nomlari toponimlar (lot. topos — qishloq, shahar, maydon, ko'cha, onuma - nom): Shirmonbuloq, Qorako'l, Qarshi kabi.

3. Hayvon nomlari va ularga atab qo'yilgan nomlar zoonimlar (lot. soom — hayvon, opuna — nom): to'rtko'z, bo'ribosar kabi.

4. Suv havzalari inshootlari va ularga atab qo'yilgan nomlar (daryo, ko'l, dengiz nomlari) gidronimlar (lot. gidro — daryo, suv, onuma — nom): Orol dengizi, Balxash ko'li, Qashqadaryo kabi

O'quvchilarga onomastika haqida ma'lumot berar ekanmiz, ularga onomastikaga doir misollar keltirishimiz doir. Keltirayotgan misollarimiz o'zlari o'qigan, tanish bo'lgan roman, doston, she'r, vaholanki, xalq og'zaki ijodi namunalari hisoblangan maqol, matal, topishmoq, ertak, xalq dostonlaridan (maktab darsliklarida o'qiyotgan: "Alpomish", "Ravshan", "Go'ro'g'lining tug'ilishi" "Kuntug'mish" dostonlari) bo'lsa, o'quvchilarda o'zgacha qiziqish, ajib ruhiyat beradi desak, yanglishmagan bo'lamiz. Sababi o'zlari o'qigan kitoblardan foydalanish ularga kitob topish, sotib olish zaruriyatini tug'dirmaydi. Bundan tashqari o'quvchilar ruhiyatida o'zlari bilgan ma'lumotni qayta-qayta bo'lsa ham o'qish, hikoya qilishga moyillik mavjud. Xo'sh endi maqol va topishmoqlarga keladigan bo'lsak, maqol aytishni, izlab topishni topishmoqni javobini topishni yoqtirmaydigan o'quvchi bo'lmasa kerak O'quvchilardagi aynan shu xususiyat onomastik birliklarni puxta o'rganish imkonini beradi. Xo'sh buning uchun nima qilish kerak? Buning uchun keltirayotgan mashq va topshiriqlarni tuzishda maqollar, topishmoqlardan foydalanish kerak.


Mashqlar o'quvchilar uchun qulay tushunarli va, albatta, qiziqarli bo'lmog'i lozim. Mashq ishlash jarayonida o'quvchida mavzu yuzasidan ko'nikma hosil bo'lishi maqsadga

muvofig. Quyida keltirilgan onomastik birliklar yuzasidan mashq klaster metodi orqali yoritilgan.

Onomastik birliklar yuzasidan mashqlar:

1. Quyidagi berilgan maqollar tarkibidagi onomastik birliklarni obyekt turiga ko`ra klasterga joylashtiring va maqollarning ma`nosini izohlang!

- Fil tushida Hindistonni ko`rar.
- Ishni Ismat qiladi,
Lofni Toshmat uradi.
Ishni qiladi asbob,
Egasi uradi lof.
- Qul qutursa, Qo`ng`irotdan top.
- Ichgani oshi yoq
Itining oti Boytevvat
- Bir ko`ngil imorati,
Ming Makka ziyorati.
- Abdulhakim ovga chiqdi.
Orqasidan g`avg`o chiqdi.
- Gap desang qop-qop,
Ish desang Ashtarxondan top.
- Sulaymon o`ldi,
Devlar qutuldi.
- Zamona oxir bo`lsa,
Echkining oti- Abdukarim.
- Axmoqqa To`ytepa bir tosh.
- Eshshak Makkaga borib halol bo`lmas.
- Otasini so`rasang Ahmadi forig`
Onasini so`rasang, tovonni yorig`.



Biz bilamizki, maqollar pand-nasihat ruhida yoziladi. Maqolni butun xalq yaratadi, shu boisdan unda jamoatchilik fikri o'z ifodasini topadi. Unda xalqning hayotga bergan bahosi, xalq zakovatining kuzatilishi jo etilgan bo'ladi.

Xalq maqollarieslab qolish uchun qulay shaklga ega bo'lib, etnopedagogik vosita sifatida ular ma'nosini kuchaytiradi. Maqollar xotiraga mahkam o'rnashadi. So'z o'yinlari, so'zlarning turlicha jarangi, qofiyadoshligi, ohangdorligi, goho shu qadar jozibali bo'ladiki, kishi oson esda saqlab qoladi. Ayni holda she'riyat donolikni, tarbiya va uning hosilasi xulqni ifoda qilish faoliyati tajribasini asrash va targ'ib qilish vazifasini ado etadi. Haqiqatan ham, maqollar insonni o'ziga tortadi. Demak, mavzu yuzasidan mashqlar aynan o'quvchilar sevib o'qiydigan maqollardan tuzilsa, samaradorligi yanada ortadi. Mavzuni mustahkamlashdan tashqari, maqollar orqali ibrat va tarbiya olishadilar.

Doston o'zbek folklorining keng tarqalgan yirik janrlaridan biridir. Uning yaratilishi xalqimizning ma'naviy-maishiy qiyofasi, siyosiy qarashlari, axloqiy estetik tarbiya, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi ideallari bilan chambarchas bog'likdir. Asriy kurashlar va ideallar mavzusi g'oyaviy mazmunni, voqelikning mohiyatini belgilaydi. «Doston» so'zi qissa, hikoya, sarguzasht, ta'rif va maqtov ma'nolarida ishlatiladi. Adabiy atama sifatida u, xalq og'zaki ijodida yirik xajmli epik asardir. Dostonlarda o'tmishimizdagi kishilar, joy nomlari, tog', suv havzalari nomlari, urug' nomlari qayd etilgan bo'ladi. Xususan, "Alpomish" dostonini o'qir ekanmiz, tariximiz ko'z oldimizda gavdalanadi. Tarixda o'zbek urug'lari, ular yashagan hududlar, tog'lar, ko'llar haqida bilimga ega bo'lamiz va shu asardagi onomastik birliklarni o'quvchilar izlab topishsa, yanada dars mahsuldor bo'ladi. Darhaqiqat bu orqali fanlarni o'zaro integratsiya qilgan holda o'rgatamiz.

Mashq: Alpomish dostonidan foydalanib onomastik birliklarning quyidagi turlariga misollar yozing!

hayvon, shaxs, tog', ko'l, urug', joy nomi

Namuna:

Hayvon nomi	Shaxs nomi	Tog' nomi	Ko'l nomi	Urug' nomi	Joy nomi
Boychibor	Hakimbek	Asqar tog'i	Ko'kqamish ko'li	Qo'ngirot urug'i	Yovmit

Mashq: "Ravshan" dostonidan keltirilgan matnni o'qing. Antroponimlar va toponimlarning tagiga chizing!

Burungi o'tgan zamonda, el-yurti omonda, o'zi qibla tomonda, Buxorodan tubanda, Taka Yovmit deganda, Yovmit elida, Chambilning belida Go'ro'g'libek davrini surib o'tdi, dushmanning dodini berib o'tdi. qirq yigitni yig'ib; dovulni tuyib, oltin piyolaga maylar quyib, araqga bolni qotib, bolga araqni qotib, qirq yigitni yig'dirib, silovsin to'n kiydirib, kuniga kechkisin sergo'sht qilib, sermoqli palovga to'ydirib, semiz qo'ydan so'ydirib,

ko`pkarisin choptirib, olomonga ola sarpo yoptirib, el-xalqning ko`nglin toptirib, Yunus bilan Misqol parini Ko`hi Qofdan, Iram bog`idan keltirib, pari bilan o`ynab-kulib, davrini surib, umr o`tkarar edi. Go`ro`g`libekka xudo farzand bermadi, oti o`chmadi. Shunda Go`ro`g`libek: «Asli taqdir-qismatda bizga farzanddan taqsim bo`lgan yurt ekan» deb taqdirga tan berib, Xasanxonni Vayangandan, Avazxonni Xunxordan olib kelib ikkovini ulim deb, iskasam gulim debu jonu dilim deb, tobutimning chegasi, el-yurtimning egasi, o`lsam merosxo`rim deb, ikkovi bilan ko`nglini xush qilib, shularga bino qo`yib, «bolam-bo`tam» deb parvarish qilar edi.

Xulosa qilib ayganda, lingvistik mashqlarsiz ona tili ta`limini tasavvur etib bo`lmaydi. O`z mehnatining maqsadini tushunish, unga erishish uchun harakat qilish, intilish bola faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari bo`lib, ular mashq qilish natijasida tarkib topadi. Bunga mashqlarni yetarli darajadagi qiyinchilik va murakkablikda o`tkazish yo`li bilan erishiladi. Ammo ona tili metodikasi fanida mashqlarning qiyinligi va murakkabligi masalasi haligacha o`rganilgan emas. Lingvistik mashqlardan til bilimlarini o`rganish, mustahkamlash, takrorlash, tekshirish, umumlashtirish maqsadlarida foydalaniladi. Shuningdek, ular bolalarda orfoepik, orfografik, uslubiy, punktuatsion va shu kabi malakalar hosil qilishning yetakchi omili sanaladi. Maktabda tilning fonetika, leksika hamda grammatikaga oid bilimlar va ular asosida turli-tuman nutq ko`nikmalari ustida ish qilinadiki, bularning barchasi lingvistik mashqlar yordamida amalga oshadi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Alpomish” dostoni “Yoshlar nashriyot uyi” 2018, 15-156-bet.
2. A. Nurmonov, A. Sobirov, Sh. Yusupova “Hozirgi o`zbek adabiy tili” 216-219-bet.
3. Abdishukur Musayevich Shofqorov Nursulton Shayxislamov “Ona tili ta`limida lingvistik mashqlarning o`rni” 2020, 1-3-bet.
4. Abduvahob Madvaliyev “Onamastika” “Sharq”2018, 3-7-bet.
5. T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov “O`zbek xalq maqollari to`plami” “Sharq”-2005, 33-135-bet.
6. “Ravshan” dostoni “Yangiyo`l poligraf servis”2019, 6-7-bet.

ONA TILI DARSLARIDA UMUMDIDAKTIK TAMOYILLAR

Mamirov Ozodjon JDPI o`qituvchisi.

Hozirgi kunda maktabda tashkil qilinadigan darslarning saviyasi haqida ijtimoiy tarmoqlarda ko`plab muhokamalar bo`lmoqda. Men ham pedagog sifatida quyidagi fikrlarimni bildirmoqchiman. Avvalo darsni tashkil qilish pedagogning oldidagi eng katta maqsadi bo`lishi kerak. Ya`ni qanday qilib bo`lsada o`quvchiga bilimlarni yetkaza olishi zarur hisoblanadi. Darslarni tashkil qilishda faqatgina an`anaviy metodga emas balki noan`anaviy metodga ham tayanilsa yaxshi bo`lardi. Bugungi kun o`qituvchilari faqatgina ochiq dars tashkil qilgandagina noan`anaviy metodlardan foydalanadi. Biz faqat ochiq dars uchun ishlaymaylik, har darsimiz ochiq dars bo`lsin. Buning uchun pedagogik maxorat ustida ozroq ishlash kifoya qiladi.

Maktabda o`tiladigan hamma predmetlar uchun umumiy bo`lgan didaktik tamoyillar: ***bolaga tarbiya, ma`lumot berish va rivojlantirish; ilmiylik va tushunarlilik; tizimlilik va***

izchilik, nazariya va amaliyotning aloqadorligi; onglilik va faollik; mustaqillik; o'qitishning o'quvchilar saviyasiga mos kelishi; ko'rgazmalilik va individual munosabatda bo'lish kabilardir.

1. Ta'lim-tarbiya va rivojlantirishning uyg'unligi tamoyili. Ta'lim va tarbiya mosligi umumiy ta'lim maktablarining asosi sanaladi. *“Tarbiya ta'limdan ustun turadi. Insonni tarbiya voyaga yetkazadi”.*(A.Sent Ekzyuperi.fran.yozuvchisi, uchuvchi). Bu orqali o'quvchilar ma'naviy, g'oyaviy rivojlanishning tamoyillari belgilanadi. Chunki fonetika o'rganilganda talaffuz me'yorlarini o'zlashtirish, qofiyadosh so'zlar hosil qilish, she'riyatga qiziqtirish, badiiy tarbiya berish imkoniyatlarini yaratsa, tovushdosh, ohangdosh, qofiyadosh so'zlar topish badiiy ijodga o'rgatish usullaridan biri sanaladi.

Leksikologiyada ma'no nozikligi, so'z go'zalligi kengroq his qilinadi. Unda o'z va ko'chma ma'noli, ma'nodosh, uyadosh, shakldosh, qarama-qarshi ma'noli, paronim so'zlar ustida nazariy va amaliy ish olib boradilar. Bu orqali ona tili va uning qudratiga muhabbat hissi tarbiyalanadi.

Biror mavzu o'tilayotganda kundalik voqealarni hayot bilan bog'lash, tushunchalarni kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyatlar diqqat, fikrlash kabi psixik xususiyatlarning rivojlanishi mustaqil faoliyat ko'rsatishga o'rgatadi. Demak, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi tamoyillar ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

2. Ilmiylik va tushunarlilik tamoyili. Ona tili ta'limining yangilangan mazmuni davlat va jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlari, fan va texnikaning taraqqiyot darajasiga doimo muvofiqlashtirib borladi. Maktabda ona tilidan hozirgi tilshunoslikda qat'iy hal qilingan, ilmiy asoslangan ma'lumotlarga beriladi. Bu esa o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan og'zaki va yozma nutqda bemalol foydalanish uchun zarur bo'lgan bilimlarnigina berishni talab qiladi. O'qituvchi til hodisalarini o'zaro aloqa va taraqqiyot nuqtai nazaridan izohlaydi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da talab qilinganidek, yoshlarda ijodiylik, bir matnni turli usulda bayon eta olish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Shu bilan birga ularni Vatanga sadoqat, yuksak ahloq, ma'naviyat va ma'rifatli, mehnatga vijdonan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashga imkon yaratadi.

O'qitishning ilmiylik tamoyili o'qituvchining hamisha ziyraklik bilan fan yutuqlarini kuzatib borishni talab qiladi.

Ilmiylik va tushunarlilik bir-birini to'ldiradigan tamoyillardir. Har bir tushuncha va atamalar ma'nosini ochib berish, har bir mashg'ulotda mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgata borish zarur. Fikrni og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, aniq ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish kuzatuvchanlik va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishni talab qiladi.

3. Tizimlilik va izchillik tamoyili. Ona tili o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchilarni tilga oid bilimlar yig'indisi bilan qurollantirib qolmay, ulardagi bilim, ko'nikma va malakalar tizimini shakllantirishdan iboratdir

Tizimda tizimlilik bilan izchillik uzviy bog'lanadi. O'quv ishlarida puxta o'ylab tuzilgan rejasiz ko'ngildagidek natijaga erishib bo'lmaydi. Fan asoslari izchil o'rganilmas ekan, o'rganilgan, o'rganilayotgan va o'rganiladigan bilimlar mantiqiy bog'lanmas ekan, oldingi bilimlarni hisobga olish, nutqiy tayyorgarlikka tayanish ham bo'lmaydi. Tizimlilik va izchillik tamoyili o'zbek tili o'qitishda alohida o'rin tutadi. Bu tamoyil ona tili bilimlarini tartib bilan o'rgaishdan tashqari, o'zlashtirish jarayonini ham yengillashtiradi. Shuning uchun ham dastur va darsliklar tuzishda ushbu tamoyilga qat'iy amal qilinadi.

Maktabda ona tilini fonetika va grammatika, leksika, soʻz yasalishi, morfologiya, sinaksis vapunktatsiya tartibida oʻtqizish tizimlilik va izchilik tamoyiliga mos tushadi. Oʻquvchilar fonetika va grafika haqida maʼlumot olgach, leksikani oʻrganishadi. Soʻz haqida maʼlumot olgach, soʻz yasalishi, soʻz qurilishi haqida maʼlumot oladi. Bu soʻz turkumlari haqida bilim olishga asos boʻladi. Shu tariqa boshqa grammatik kategoriyalar davom ettiriladi. Bularning hammasi taʼlimda izchillikdir.

4. Nazariy bilim va amaliy koʻnikmalar hosil qilish. Tilning ijtimoiy hayotdagi oʻrni beqiyosdir. Chunki til boʻlmasa jamiyat ham, ijtimoiy hayot ham boʻlmaydi. Maktab jamiyatning kelgusi aʼzolarini tarbiyalab yetishtiradi: Jamiyat aʼzolarining nutqiy savodxonligini oshirish bugungi kun talabidan kelib chiqadi. Maktabni bitirgan oʻquvchi ijtimoiy hayotdan oʻrin oladi. Shuning uchun ona tili taʼlimining yangilangan mazmuni taʼlim jarayoni tuzilishining maqsadi, vazifasi, bayon etish usullarini belgilab berishi hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bilimlarning puxtaligi va ongli oʻzlashtirilganligi amaliy koʻnikmani hosil qiladi.

Oʻquvchilarning grammatika, orfografiya va punktuatsiyaga oid nazariy bilimlari bilan amaliy tayyorgarligi orasida farq boʻlishi mumkin. Tilning qonun qoidalarini bilgan holda unga amal qilmagan oʻz fikrini ona tilida mustaqil ravon, goʻzal va loʻnda ifodalay olmagan oʻquvchi (mutaxassis) ning amaliyotdan tayyorgarligi past (sust) hisoblanadi. Ijodiy fikrlash fikrni ogʻzaki va yozma shaklda ravon, chiroyli, adabiy til meʼyorlarida ifodalash vositasidir. Shuning uchun ham nutq madaniyatini rivojlantirish ona tili oʻqitishning bosh maqsadi, deb qaralmogʻi kerak.

5. Oʻqitishda koʻrgazmalilik tamoyili. Ona tili predmetining tabiati koʻrgazmalilikni koʻproq talab qiladi. Tildagi mavhumlik, umumlashtirish, uning mohiyatini anglash va ongli oʻzlashtirish koʻrgazmali vositalar yordamida jonli va qiziqarli boʻladi. Koʻrgazmali vositalar tabiiy yoki aniq buyumlardan hamda rasm, sxema, jadval, kartin kabi tasvir vositalaridan, texnik vositalaridan iborat boʻlishi mumkin. Shuningdek, rasmlari va grammatik topshiriqli tarqatmalardan barcha shakldagi darslarda, darsning barcha bosqichlarida foydalanish mumkin. Koʻrsatmalilikdan meʼyorda foydalanilgani maqsadga muvofiq boʻladi.

Ona tili oʻqitishda umumdidaktik tamoyillar dars samaradorligini oshirishni taʼminlaydi.

6. Onglilik, faollik va mustqillik tamoyili. Didaktik adabiyotlarda oʻrganilayotgan mavzuni asosli egallash, mavzu yuzasidan bilimlarni sistemali va toʻgʻri bayon qilish, oʻrganilgan bilimlardan turmushda foydalana olish, aql-idrok va tushunchaga egalik tushuniladi. Bu tamoyil til hodisalarining mohiyatini anglab, ongli oʻzlashtirishni talab qiladi. Onglilik tamoyili oʻquvchida ona tili oʻqitishning asosiy maqsadini toʻgʻri anglash bilimlarni ongli oʻrganish va oʻzlashtirish, mustahkamlash kabi xususiyatlarni tarbiyalaydi.

Xulosa qilib aytganda bu tamoyillarga agar dars jarayonida amal qilinsa juda samarali dars tashkil qilinishi aniq. Bunda oʻquvchilarning bilish, tushinish, tahlil qilish, analiz-sintez, xulosa, baholash kabi bosqichlari bosib oʻtiladi.

Adabiyotlar:

- 1.Gʻulomov A. Ona tili oʻqitish prinsiplari va metodlari. Tosh.1992.
- 2.Gʻulomov Yo. va boshqalar. Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi. Tosh. 1975.
- 3.Toʻxliyev B. va boshqalar. Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi. Tosh. 2006.

ADABIY TA'SIR MUAMMOLARINING O'RGANILISHI

Rizvon Saidova, mustaqil tadqiqotchi, JizzaxDPI

Adabiyot tarixi va tadriji muammolarini o'rganish hamisha dolzarb mavzu sanalgan. Zero, badiiy ijod va san'at sohasining ham o'ziga xos rivojlanish omillari va qonuniyatlari mavjud. O'tmishda yashab ijod etgan mumtoz san'atkorlar asarlarini o'rganish va ulardan ilhomlanib, ijodiy ta'sirlanish, ustoz-salaflarning ilg'or adabiy an'alarini ijodiy davom ettirish, ya'ni adabiyot va san'atda an'anaviylik va novatorlik badiiy ijod va san'at taraqqiyotining ob'ektiv qonuniyatlari bo'lib sanaladi. Muayyan xalqlar adabiyotida ko'p asrlar davomida shakllangan va rivojlangan adabiy an'alar badiiy ijodning keyingi taraqqiyotiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jahon adabiyoti tarixidan va hozirgi adabiy jarayondan ham bunga ko'plab misollar topiladi. Hech bir iste'dod yo'qki, ustozlar ijodi va an'anasini o'rganib, o'z ijodiy yo'lini topmagan bo'lsin. Masalan, Alisher Navoiy she'riyatdagi ilk qadamlaridanoq o'zidan oldin yashab, ijod etgan turkiy va forsiy zabon buyuk shoirlar ijodidan hamisha ruhiy madad va ilhom olgan, mahorat sirlarini qunt bilan egallagan. Navoiy buyuk so'z san'atkorlari ijodiyotidan saboq olib, qutlug' an'alarini davom ettirish bilan cheklanmasdan, balki chinakam novator shoir sifatida ular bilan ijodiy musobaqaga kirishadi va ulkan badiiy "kashfiyot"lar yaratadi. "Ani nazm etki, tarxing toza bo'lg'ay, Ulusqa mayli beandoza bo'lg'ay". Bu so'zlar Navoiyning ijodiy prinsipi bo'lgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Navoiy qanday an'anaviy janr, mavzuga murojaat qilmasin- u ustozlari nazmini takrorlamasdan, hamisha ijodiy yangilik yarata olgan. Belinskiy aytganidek, ustozlar ijodi va mahoratini o'rganish- yosh shoirga bamisoli ernaing bag'ridagi kuchni uyg'otgan quyosh nurlaridek ilhombaxsh ta'sir ko'rsatadi.

Lekin va'zi adabiyotshunoslar ijodiy ta'sir jarayonini yuzaki tushunadi va ularning xulosalari ham ko'pincha adabiy hodisalarning tashqi jihatlariga tayanib chiqarilgan bo'ladi.¹ Jumladan, rus va o'zbek adabiyoti o'rtasidagi adabiy aloqalar va ijodiy ta'sir muammolarini o'rganishda ana shunday bo'rttirish va biryoqlamalilik ko'zga tashlanadi. Masalan, adabiyotshunos M.A.Begjonovning rus tilida nashr etilgan "N.V.Gogol va Abdulla Qodiriy"² nomli risolasida bu ikki ulug' yozuvchi ijodi xususida ko'pgina qimmatli muloxazalar bayon etilgan. Ammo shu bilan birga Abdulla Qodiriyning deyarli har bir asari va undagi turli holat va epizodlardan ijodiy ta'sirning izlarini topishga ortiqcha harakat qilinganga o'xshaydi. Shu tariqa Abdulla Qodiriy asarlaridagi ayrim xayotiy voqea-hodisalar tasvirini ham adabiy ta'sirlanish natijasi sifatida talqin etish hollari uchraydiki, bular, albatta, kitobxonda haqli e'tiroz tug'diradi. Masalan, buyuk adibimiz o'zining "O'tkan kunlar" romanida "To'y. Qizlar majlisi" deb nomlangan faslida Kumush va uning yaqin dugonalarining tog'asining uyidagi o'tirishlarini xalqimizning milliy va azaliy urf-odatlariga muvofiq tarzda "gullar, lolalar, to'tilar, qumrilar majlisi" degan shoirona tashbeh-o'xshatishlar bilan g'oyat jozibador qilib tasvirlab beradi. Kumush va uning yaqin dugonalarining o'y-kechinma lari va ruhiy holatlari hayotiy va haqqoniy ifodalangan mana shu tasvirlarni tadqiqotchi M.Begjonova rus adibi Gogol ijodining ta'siri bilan bog'lab izohlaydi. Ya'ni Qodiriy Kumush va dugonalarining to'y kechasi oldidan yasanib-tusanishi kabi harakatlar ini Gogolning qahramonlaridan biri bo'lgan o'n olti yashar qiz Oksananing ko'zguga qarab o'ziga oro berishi va "rojdestvo" diniy bayramiga tayyorgarlik ko'rishi tasviridan ilhomlanib, go'yo unga taqlid qilib, unga o'xshatib tasvirlagan emish.

Xuddi shundayin, tadqiqotchi Gogolning “Taras Bulba” nomli qissasidagi bosh qahramon keksa Taras Bulba bilan Abdulla Qodiriy yaratgan Obid Ketmon obrazining polvonsifat tashqi o‘xshashliklarida ham adabiy ta’sir hodisasini “kashf” etgandek bo‘ladi. Aslida, har qanday balog‘atga etgan qiz yoki yosh kelinning, ular qaysi millatga mansub bo‘lmasin, to‘y kechasi yoki bayram arafasida yasanib-tusanishi, oynaga qarab o‘zlariga oro berishi kabi harakatlari azaldan ma’lum urf-odatlar-ku. Fikrimizning dalili sifatida Abdulla Qodiriyning o‘ziga ustoz deb bilgan yosh adiblarimizdan Tog‘ay Murodning chuqur milliy ruh bilan yo‘g‘rilgan “Oydinda yurgan odamlar” qissasidan xalq turmushi va bayramlari bilan bog‘liq bir kichik lavha tasvirini ko‘zdan kechiraylik: “Qurbon hayit bo‘ldi. Ahli mo‘minlar qurbonlik qildi. Ahli mo‘minlar hayitlik kiydi. Ahli mo‘minlar orolandi.

Xalq hayoti va ruhiyatini haqqoniy aks ettirgan bu ixcham, lekin ma’no-mazmuni keng bo‘lgan realistik tasvirni izohlashga hojat bo‘lmas kerak. Demak, bunday hayotiy va yorqin lavha va epizodlar tasviri ham Gogol va Qodiriylarning hech kimga taqlid qilmasdan, chinakam mohir yozuvchilar sifatida realistik san’atning asosiy bir talab-mezonidan kelib chiqib, o‘z qahramonlarining xatti-harakati va ichki kechinmalarining haqqoniy va ishonarli ifodalanishini ta’minlaganini yaqqol ko‘rsatib turadi. Bunday hayotiy va tabiiy holatlar tasviridan taqlidchilik belgisini izlash tuxumdan tuk qidirishdek kulgili ish bo‘lar edi. Taassufki, yuqoridagi misollarni adabiy ta’sirga bog‘lashga uringan munaqqid yozuvchi asarlarining hayotiy va milliy manbalariga ko‘proq e’tibor berish o‘rniga, Abdulla Qodiriydek buyuk iste’dod sohibining badiiy tasvirlash mahoratini va ijodkor sifatidagi o‘ziga xosligini kamsitishga yo‘l ochuvchi asossiz fikrlarni takdim qilgan. Bunday biryoqlama va sun’iy talqin va muqoyasalar, afsuski, o‘quvchilarni ham chalg‘itishi mumkin.

Yana bir shunday bahstlab misolni ko‘rib o‘taylik. O‘zining ibratimiz ma’naviy va axloqiy mavzulardagi asarlari bilan xalqimiz orasida tanilgan sermahsul yozuvchimiz Tohir Malikning «O‘zbekiston adabiyoti va sanati» ro‘znomasida hamda A.Qodiriyning “Diyori baki”⁵ nomli to‘plamiga yozgan so‘zboshisida bildirgan quyidagi fikri ham shunday biryoqlamalikning bir ko‘rinishi bo‘lib tuyuladi. Ya’ni u kishining yozishlaricha, Abdulla Qodiriy o‘z asarlarida dolzarb xayotiy muammolarni va muhim ijtimoiy masala larii ko‘tarib chiqishni rus adabiyotidan va rus shoir-yozuvchilaridan o‘rganibdi ekan. Bu xulosa ustida jiddiy o‘ylab ko‘raylik. Avvalo shuki, ko‘p asrlik adabiyotimiz tarixi, xususan, Navoiyning o‘z davrining eng murakkab va dolzarb muammolarini yoritgan yirik dostonlarini esga olaylik. YOki buyuk shoirimizning to‘rt yo ikki misradan iborat kichik manzumalarida ham qanchalar chuqur va insoniy fikr va g‘oyalar teran ifodalangani isbot talab qilmasa kerak. Ularning deyarli barchasida inson hayotining maqsad-mohiyati to‘g‘ri sida jiddiy mushohada yuritilganiga minglab kitobxonlar amin bo‘lishgan. Yoki 19-asrda Muqimiy va Furqatlarning sof ishqiy she’rlarida ham muhim ijtimoiy g‘oya-fikrlar ifodalanmaganmi va ulardan Qodiriydek ulug‘ san’atkorimiz bexabar bo‘lganmi?

Shu munosabat bilan yana bir adabiy an’anaviylikka e’tibor qaratish o‘rinli bo‘ladi. Ma’lumki, ko‘p asrli xalq og‘zaki badiiy ijodida ham, mumtoz va XX asr adabiyotimizda ham hajviy asarlar katta o‘rin tutadi. Bu holat ham avvalo, ijtimoiy hayot va davr-muhit bilan chambarchas bog‘liq hamda shoir va yozuvchilarimiz iste’dodining ser qirraligi bilan ham izohlanadi. Jumladan, Navoiy ham zulm va adolatsizlik avj olgan nobop jamiyatdagi illatlarni keskin qoralab, zolim hukmdorlar, dinu-diyonatsiz va maxluqsifat kimsalarning qabihlik va pastkashliklarini o‘tkir hajv tig‘i bilan ayovsiz fosh etganligi alohida e’tiborga loyiqdir. Yoxud ijtimoiy mazmundorligi va yuksak poetik mahorati bilan adabiyotimiz tarixida yangi sahifa ochgan Turdi, Muqimiy, Maxmur va So‘fizoda larning kuchli hajviy asarlari xalqimiz

tafakkuri va ma'na viyatini yuksal tirishda beqiyos ahamiyat kasb etganligini ta'kidlash lozim.

Bu jihatdan Qodiriy so'zlari yanada chuqur mazmun kasb etadi: "Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo'y dik, bas, biz har bir yo'sunda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va shunga o'xshash dostonchilik, ro'monchilik va hikoyachi liklarda ham yangi asarlar yaratishga, xalqimizni shu zamonning "Tohir-Zuhra" lari, "Chor darvesh"lari, "Farhod-Shirin" va "Bahromgo'r"lari bilan tanishtirishga o'zimizda majburiyat his eta miz". Yuz yil avval aytilgan bu fikrlar bugun ham yosh adiblarga muhim ijodiy bir dastur bo'la oladi.

Darhaqiqat, jahon adabiyoti tarixida yangi bir ijodiy maktab bo'lgan o'zbek roman chiligiga asos solgan Abdulla Qodiriyning yangi davr o'zbek satirasining shakllanishi va rivojida ham xizmati beqiyosdir. Ulug' adibimizning "Toshpo'lat tajang nima deydi?", "Kalvak maxzumning xotira daftaridan" va "Sharvon xola nima deydi?" kabi turkum hi koyalaridan tashqari ijodining boshlanishida yozgan "Ahvolimiz", "Millatimga" kabi she'rlarida, "Juvonboz" dramasi va qator publitsistik maqolalarida ham uning noyob iste'dodining muhim bir qirradi bo'lgan hajvchilik iqtidori yorqin namoyon bo'lgandi. Adibning mashhur romanlari kabi satirik asarlari ham ijtimoiy hayot haqiqatini haqqoniy aks ettirganligi va chuqur xalqchilligi bilan ajralib turadi va ular o'zbek adabiyoti va badiiy publitsistikasi tarixida ham munosib o'rin tutishi shubhasizdir. Mustaqillik sharofati bilan buyuk adib ijodi va uning o'lmas romanlari behad qadr lanmoqda. Ammo adibning betakror talanti va badiiy mahoratining samarasi sifatida yaratilgan satirik asarlari etarli darajada tadqiq etilgan deb aytoilmaymiz.

Mashhur so'z san'atkorining "Toshpo'lat tajang nima deydi?" satirasida qahramon hayoti va tabiatining yoritilishi va "Kalvak maxzumning xotira daftaridan" asarida satirik tiplar psixologiyasining aks etishi muammolari mazkur asarlarning nafaqat Qodiriy ijodida, balki o'zbek adabiyotining keyingi davrdagi rivojida ham muhim ahamiyat kasb etganligi chuqur tahlilga munosib.

Qodiriy hajviy asarlari bilan ham folklordagi va o'zbek adiblarining satira va yumor sohasidagi an'analarini izchillik bilan ijodiy davom etiradi. Birgina misol: Gulxaniy hajviyotida ayrim kosiblar, jumladan, no'noq po'stindo'zlar kulgi ostiga olin adi. U tikkan po'stinning tikishi orasidan musht o'tkazsa bo'larkan. Shunday obrazlarni Qodiriy ham yaratadi, ammo Gulxaniy obrazi va uslubini aynan takrorlamaydi. Bunday an'anaviylik va mushtaraklik ham A.Qodiriy satirasining ijtimoiy va g'oyaviy ildiz-manbalari milliy zaminga asoslanganidan guvohlik beradi va ularni e'tiborga olish adib ijodining o'ziga xosligi va xalqchilligini chuqur yoritishga ham yordam beradi. Adabiy ta'sir masalalarini o'rganishda sho'rolar davri va sotsialistik inqilobiy g'oya va hukmron partiyaviy mafkura bilan bog'liq biryoqlama qarashlarga ham guvoh bo'la miz. Nihoyat, Istiqloldan keyin yaratilayotgan ilmi-adabiy nashrlarda va darslik-qollanmalarda bunday biryoqlamaliklarga barham berilmoqda. Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, adabiy ta'sir adabiyot va san'at rivojining muhim bir omili va bu jarayon eng avvalo ijodiy xarakterda bo'lishi bilan ajralib turadi. Ijodda an'anaviylik va novatorlikning uzvi yligi, asosiy mohiyati va adabiyot rivojidagi ahamiyati ham ana shunda namoyon bo'ladi.

ISTIQLOL VA ADABIYOT DARSliklari

**Matluba Islom qizi, Jizzax viloyati
Yangiobod tumani 15-maktab o'qituvchisi**

Mustaqilligimizga erishganimizdan so'ng jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida chuqur islohotlar va ijobiy o'zgarishlar sodir bo'layotganligini xalqimiz katta quvonch bilan e'tirof etmoqda. Jumladan, xalqimizning ko'p asrlik tarixi va adabiyoti yangidan, ilmiy xolislik bilan o'rganilayotganligi va bu sohada qator ijobiy natijalarga erishilayotganligi endilikda barchamizga ayondir. Ayniqsa, boy ona tilimizga va adabiyotimizni chuqur o'rganishga e'tibor har qachongidan ham kuchayganligi o'zining ulkan samaralarini bermoqda. Xalqimizning o'zligini anglashida va ma'naviti yuksalishida ona tili va adabiyotimizning o'rni va ahamiyati beqiyos ekanligi isbot talab etmaydigan haqiqatdir. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning Oliy Majlis deputatlariga va xalqimizga Murojaatlarida va ijodkor-ziyolilar bilan uchrashuvlarida Adabiyotga va yoshlar ma'naviy kamolotiga alohida e'tibor berilayotgani bejiz emas. {1.8.} Quyida o'rta maktab o'quvchilari va oily o'quv yurtlari talabalari uchun nashr etilgan "Adabiyot" darsliklari yuzasidan ba'zi kuzatish va ikrflarimizni bayon etmoqchimiz.

Yangi darslik va majmualarimizda mumtoz o'zbek adabiyotimiz tarixi ham, XX asr va hozirgi davr adabiyotimiz ham xolisona o'rganila boshlanganligini alohida qayd etib o'tish lozim. Mustaqillikdan avval noxolis qarashlar va salbiy munosabatlar oqibatida tariximiz va milliy qadriyatlarimiz, asosan, qoralanib va kamsitib kelingan. Bu jihatdan atoqli shoirimiz, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning quyidagi fikrlari diqqatga molik: "Sho'rolar davrida milliy qadriyatlarimiz, moziydagi qahramonlarimiz qariyb qalamga olinmas, olinganda ham ular sinfiylik va partiya viylik nuqtai nazaridan tahlil etilar, qoralanardi, xolos. Diniy e'tiqod esa butunlay manfiy tushunchaga aylantirilgan edi. Biryoqlamalik, yuzakilik adiblarimizni bir xil ovozda, bir xil ohangda kuylashga o'rgatib qo'ygan edi. Aslida yo'q yorqin kelajakni ulug'lash odat tusiga aylangan edi." {2.24}

Mustabid sho'ro tuzumi davrida, 30-40-yillarda ham hukmron sotsialistik mafkuraning tazyiqi natijasida mumtoz adabiyotimiz tarixiga, hatto Navoiydek daho san'atkorlar ijodiga nisbatan ham o'ta biryoqlama va salbiy qarashlar ustuvorlik qilardi. Yoki Ahmad Yassaviy she'riyati va shaxsiga munosabatni olaylik. Navoiy o'zining "Nasoyim ul muhabbat" asarida bu zotni "Turkiston ahlining eng ulug' shayxul mashoyixi"-deya katta hurmat bilan tilga oladi. Allomaning she'riy hikmatlari chuqur hayotiy va falsafiy ma'no- fikrlarga boy. Afsuski, ko'p yillar davomida hukmron sinfiy mafkura Yassaviyni "o'ta reaksiya va diniy-mistik shoir" deb, "targ'ib" etib keldi. Yassaviy nasihatlari feodal-klerikal hukmronligini mustahkamlashga, ekspluatatorlarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan edi. Xullas, Ahmad Yassaviy bu "nasihat"lari bilan mehnatkash ommaning ijtimoiy adolatsizlikka qarshi norozilik harakatlarini bo'g'ib tashlashga, "u dunyo"ning qiynoqlari yoki noz-ne'matlari bilan ularning ongini zaharlashga intildi. {3.76} Bular, albatta, sobiq imperiyaning hukmron sotsialistik mafkurasi va mash'um siyosatining ta'siri bilan ham izohlansa to'g'ri bo'ladi. Darhaqiqat, taniqli adabiyotshunoslar aytganidek, Yassaviy -jamiyat farzandi. ijtimoiy muhit va ruhiy ehtiyoj tufayli Yassaviy Ollohga ishongan va sig'ingan. Yassaviylar targ'ib etgan qanoatli bo'lish, nafsni tiyish, shukronalik, kechirimlilik va xokorsorlik yoxud o'zgalarga hargiz yomonlik qilmaslik kabi g'oya va aqidalar insonlarni yaxshilikka va ezgulikka boshlovchi ijobiy xislatlardir. Bugungi kunda Yassaviy she'riyati, "Hikmatlari", "Munojotnoma" va

“Faqirnoma” kabi asarlari kitobxonlarning ma’naviy mulkiga aylandi. Mumtoz adabiyotimizni bunday xolisona o’rganish va yangi darslik va majmualar yaratilayotganligi uchun ham Mustaqilligimizdan minnatdor bo’lishimiz kerak.

So’nggi yillarda bir guruh adabiyotshunos olimlarning sa’y-harakatlari bilan umumta’lim maktablari uchun tayyorlangan “O‘zbek adabiyoti” darslik-majmualari sobiq sho‘ro davridagi darslik xrestomatiyalardan keskin farq qiladi. Jumladan, badiiy adabiyot namunalariga ilgorigidek sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan emas, balki ularga eng avvalo san’at asari sifatida yondashish va badiiylik mezonlari asosida o’rganish bu darslik majmualarimizning asosiy xususiyatidir. Ammo oliy hakam bo’lgan vaqt va amaliyot ularni ham sinovdan o’tkazmoqda.

Darslik va majmualarimizning g’oyaviy-badiiy mundarijasida bir nomutanosiblikka yo‘l qo‘yilgan. 9-sinf uchun chiqarilgan “O‘zbek adabiyoti” majmuasida Lutfiy va Atoylarning an’anviy mavzudagi, yor tavsifiyu hijron motivlarini kuylovchi ko‘plab g‘a zallari berilishi ham, nazarimizda, bir xillikka olib kelishidan tashqari, o‘quvchilarning mumtoz adabiyotimizga, ayniqsa, g‘azaliyotga bo‘lgan havas va qiziqishlarini orttirmaydi. Bizningcha, Atoyining uch-to‘rtta nafis she‘rini keltirish kifoya bo‘lar edi.

Mustaqillik yillarida yaratilgan Adabiyot darsliklarida mumtoz adabiyot namunalarini tahlil etishda ba'zan yuzakilik ko‘zga tashlanadi. Masalan, X sinf “O‘zbek adabi yoti” darsligida Navoiyning Shoh G‘oziy hikoyati mazmuni biroz o‘zgarib ketgan. Da’vogar kampir ikkita guvoh keltirdi deb aytiladi. Bu hikoya matniga mos emas. Yoki “Qaro ko‘zum” matla’li g‘azalining shohbaytlari ham, nazarimiz da, badiiy matn ma’nosidan bir oz boshqacha izohlangan. Ya’ni Navoiy bu misralaridan “o‘g‘liga murojaat qilib, ko‘zim tirikligida uy-joy solib, vatan qilib olgil deyapti” tarzida xulosa qilingan. Bu mashhur satrlarning keng ma’no-mazmuni hassos shoirimiz Erkin Vohidov talqinida juda chuqur va mantiqiylik bilan yoritilgan.

Qaro ko‘zum kelu mardumlig‘ emdi fan qilg‘il,
Ko‘zim qarosida mardum kibi vatan qilg‘il...

Biz Navoiy va Bobur, Fuzuliy va Mashrab, Nodira va Ogahiy, Muqimiy va Furqat singari o‘tmish shoirlarimiz ijodini sevib o‘rganamiz. Chunki ularning ijodiy merosi bizni ezgulikka undaydi. Ona yurtni, xalqni farzandlik mehri bilan sevishga, ruhiy poklikka, vafosadoqatga o‘rgatadi. Chunonchi, Navoiyning mazkur satrlari qanchalar vafodorlik, fidoyilik va muhabbat tuyg‘ulari bilan yo‘g‘rilgan va ularning she’riy ifodasi ham naqadar teran, jozibali va serjilo. “Mardum” so‘zining ikki ma’nosi bor. Mardum-odam, mardum-ko‘z qorachig‘i, gavhari. “Qaroko‘zum” deya murojaat etgan shoir undan “kelu mardumlig‘, ya’ni odamlilik, odamgarchilik odatini ko‘rsat, ko‘zum qarosida mardum kibi, ya’ni ko‘z gavhari kabi vatan qilishini” so‘raydi, Birgina baytda necha ma’no tovlanishlari - ham mardumning ikki ma’nosi, ham “qaroko‘zum”ga muqobil “ko‘zim qarosi” ifodasi orqali badiiy teranlik va mukammallikka erishadi. Bu g‘azal insoniy tuyg‘ularning hayotiyliigi, haqqoniyliigi, badiiy tafakkurning teranligi bilan, tashbih larning boyligi, mukammalligi bilan mumtoz she’riyatimizning eng nodir namunalar idan biri bo‘lib qoladi va hali ko‘p zamonlar she’riyat muxlislarini o‘ziga rom etadi. {4.127}

Yangi Adabiyot darsliklari ham mazmunan, ham milliy Istiqlool g‘oyalariga mos yaratilayot ganligi va ular, eng avvalo, bugungi yoshlarimizni har jihatdan komil insonlar qilib tarbiyalash dek ulug‘vor maqsadlarga qaratilganligi muhimdir. Albatta, “Adabiyot” darslik- majmuallarimiz ning har jihatdan takomillashuvi bir qator sabab-omillarga bevosita bog‘liqdir.

Avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, mavjud darslik-majmuallarning ayrimlari tuzilishi va mazmun- mundariyasi yaxlit tarzda puxta o'ylanmagan va yetarli darajada jiddiy tahrirdan o'tkazilmagan. Ular nafaqat mazkur darsliklarning umumiy saviyasiga, balki "Adabiyot" fanining o'qitilish jarayoniga ham salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Chunonchi, 5-11 sinflar uchun chiqarilgan "O'zbek adabiyoti" darslik-majmuallarida ba'zi mavzu va adabiy asarlardan olingan matn parchalarida takrorlarga yo'l qo'yilmoqda. Adabiyotshunos olimlar to'g'ri ta'kidlaganilek, shunday qaytariqlarni XX asr adabiyotimiz namoyandalari hayoti va ijodi misolida ham kuzatish mumkin. Bu esa o'quvchida haqli e'tiroz uyg'otadi. Bizningcha, darslik-majmuallarimizni mukammallashtirish uchun mana shunday qaytariqlarni bartaraf etish zarur bo'ladi.

Darslik –majmuallarning mazmun-svayyasi jihatdan ulardagi adabiy asarlar va matnlarning qanchalik to'g'ri tanlanishi, chuqur va mantiqli tahlili va qolaversa, ularning hajmiga ham bog'liq. Masalan, 5-sinf uchun chiqarilgan "O'zbek adabiyoti" darslik majmuada Asqad Muxtorning "Buxoroning jin ko'shalari" qissasiga o'ttiz sahifa, Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni miib" romanidan olingan parchaga esa darslikda ellik beti ajratilgani to'g'rimikin?

Yangi yaratilayotgan darslik-majmualarda "Jahon adabiyoti namunalari" dan bir necha asarlar berilishi har jihatdan tahsinga loyiq. Zero, milliy mahdudlik dan qutulishning va adabiy-estetik tafakkuri mizni boyitishning asosiy bir omili ham shu. Lekin yuqoridagi kabi o'rinsiz takror va mantiqsiz qaytariqlarni bartaraf etish va darslik-majmualar kompozitsiyasining ustuvor yo'nalishi va me'yorlariga muvofiq kelmagan adabiy parchalarni oqilona qisqartirish eva ziga ham o'quvchilarimiz milliy va jahon adabiyotining badiiy yetuk namunalridan ko'proq bahramand bo'lgani ma'qul. Jumladan, mashhur adiblar ijodi bilan kengroq tanishtirib borilsa-yoshlarimiz tafakkuriyanada chuqurlashib hamda ularning badiiy ijod olamining rang-barangligi va teranligi to'g'risidagi tasavvur-mushohadalari g'oyat kengayar edi.

Yaratilajak yangi darslik-majmuallar bilan bog'liq yana bir taklif-istak shuki, maktab, kollej va akademik litsey o'quvchilari uchun mo'ljallangan yoki oliy o'quv yurtlari talablari uchun chiqaraladigan darslik-majmualarda alohida bir bob "Istiqlol va o'zbek adabiyoti"ga bag'ishlansa va bu davr adabiyotining hayotbaxsh tamoyillari muxtasar bir shaklda yorqin aks etib tursa, ayni muddao bo'lardi. yilda professor H.Karimovning "Istiqlol davri adabiyoti" (2010) nomli yangi darslik nashrdan chiqdi. Bu darslik ham ko'pgina ijobiy jihatlari bilan ajralib turshini ta'kidlash kerak. Lekin shu bilan birga mazkur darslik mazmuni va mundarijasida ham ayrim bahsli o'rinlar borki, ular o'quvchi o'qituvchilarimizning haqli e'tiroziga sabab bo'lishi mumkin deb o'ylaymiz. Birinchidan, bu darslikda Mustaqilligimiz uchun kurashgan va o'z ijodida milliy ozodlik va vatanparvarlik g'oyalarini kuylagan va kerak bo'lsa Vatan ozodligi va erki yo'lida aziz jonlaridan kechgan fidoiy adiblarimiz, ya'ni Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon va Usmon Nosir kabi yorqin talant sohiblarining xizmatlari va boy ijodi tilga olinmagan. Holbuki, ular Istiqlolimiz uchun kurashgan va bugungi yangi adabiyotning ta'mal toshlarini qo'yib ketgan edilar. Qolaversa, bugungi yoshlarimiz Istiqlolga osonlik bilan erishmaganimizni va bu yo'lda qancha buyuk iste'dod sohiblari qurbon bo'lganligi va ularning betakror ijodi Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilishning va yuksak badiiy mahoratning ham yorqin namunasi ekanligini unutmasliklari lozim deb o'ylaymiz. Yangi darsliklarimizda bunday biryoqlama munosabatlarga ham barham beriladi degan umid bildirib qolamiz.

Albatta, darsliklarning saviyasi, g'oyaviy-badiiy mazmuni hqaida qayg'urishimiz, jiddiy bahslashimiz mumkin. Biroq asosiy gap-o'qituvchilarimizning kasb mahoratida ularning ijodiy izlanuvchan ligida, adabiyotni qanchalik chuqur bilishi va e'zozlashidadir. Eng muhimi, shu yuksak bilim, e'zoz va mehri o'quvchilarga singdira olishda bo'lsa kerak. {7.198}

O'zbekiston Qahramoni, yirik aloma Ozod Sharafiddinov ta'kidlaganidek, o'quvchining qalbi adabiy asar beradigan barcha ma'naviy boylik va go'zalliklarni ardoqlay oladigan kuchga ega bo'lsin. U haqiqat, adolat, vijdon, to'g'rilik degan muqaddas tushunchalarni aqlangina emas, qalban his qila oladigan kreativ fikrlay oladigan bo'lsin. Ya'ni adabiyot o'quvchining hayotida shunday o'rin olsinki, maktabni bitirib ketganidan keyin ham u biror kunini badiiy asarsiz tasavvur qilolmasin. Ya'ni aqliy mehnat va kitob mutolaasi ular uchun tabiiy va erkin bir faoliyatga, ruh-taniga huzurbaxshlik bag'ishlovchi ixtiyoriy bir yumushga-ko'ngil ishiga aylansin. Kitob uning uchun suv va havodek zarur, nondek aziz bo'lib qolsa. {6.14} SHu maqsadda yoshlarmizda kitobga ishtiyoqni kuchaytirishimiz va rag'batlantirib borishimiz lozim. Kitob, ya'ni adabiyot bu borada bizga yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qilishi kerak. Afsuski, ko'p o'quvchilarimiz mustaqil adabiyot o'qish o'rniga internet va kompyuterga berilib ketmoqda. Natijada, ko'p yoshlarimiz badiiy adabiyot beradigan ma'naviy boylikdan bebahra bo'lib, ruhan qashshoq, fikran cheklangan bo'lib qolayapti. Yurtboshimiz belgilab bergan besh muhim tashabbusning biri- bu yoshlarni kitobxonlikka qiziqishini oshirib, ularning ma'naviyati va dunyoqarashini kengaytirish asosiy vazifalardan biri qilib qo'yilgan. Darhaqiqat, yoshlarimizda yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirishda adabiyot va san'atning muhim ijtimoiy-estetik roli yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar:

1.Natan Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi. T. 1976. 4B.Qosimov va N.Jumaev. O'zbek adabiyoti. X sinf uchun darslik. T. 2001.

2.Erkin Vohidov. So'z latofati. Toshkent. O'zbekiston.2018.6Ozod Sharafiddinov. Birinchi mo'jiza.T.1979. 13-b.

3.Qosimov U. Adabiyotning hayotbaxsh kuchi. T. 2008.

BOG'LOVCHILARNI O'QITISH USULLARI

Erxonov Turg'un Borot o'g'li
Jizzax davlat pedagogika instituti magistri

Dars samaradorligini oshirish har bir o'qituvchidan o'ziga xos ijodkorlikni, malaka va tajribani talab etadi. Dars jarayonida o'qituvchi zimmasiga o'quvchilarning o'z ona tiliga mehr-muhabbatini oshirish, ularning savodxonlik darajasini yaxshilash, nutq boyligini oshirish kabi muhim vazifalar qo'yiladi.Qisqa vaqtda ko'p natijaga erishish har bir pedagog uchun muhimdir. Shu sababli o'qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars jarayonini qiziqarli va mazmunli olib borishga harakat qilishadi. Slaydlar, multimediyalar, o'yinlar asosida dars tashkil qilishga e'tibor qaratada. Bu usullar dars mavzusini yaxshi o'zlashtirish, mavzuni mustahkamlashga yordam beradi. Dars jarayonida ko'p qo'llaniladigan interfaol ta'lim metodlari quyidagilardan iborat:

1. Interfaol metodlar: "Keys-stady"(yoki o'quv keyslari), "Blits-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" va b.

2. Interfaol ta'lim strategiyalari: "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotatsiya", "Yumaloqlangan qor" va boshqalar. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalaridan ajratish guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib ularning orasida aytarlicha farq yo'q.

3. Interfaol grafik organayzerlar: "Baliq skaleti", "BBB", "Konsteptual jadval", "Ven diagrammasi", T-jadval", "Klaster", "Insert", "Nima uchun", "Qanday" va boshqalar. Bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik chizma yoki shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishga asoslanadi.

Xususan, "Bog'lovchilar" mavzusini o'tishda quyidagi usullar va o'yinlardan foydalanishni taklif etamiz.

"Eslab qol" o'yinidan foydalanish o'quvchilarni xushyorlikka chorlaydi. Magnit tasmasi yoki video-proyektor orqali o'quvchilarga ma'lum bir matn eshittiriladi. Matn, albatta, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi zarur. Chunki dars davomida ham ta'limiy maqsad, ham tarbiyaviy maqsadga erishish muhim sanaladi. Deylik, matn "Vatan" yoki "Ona" haqida bo'lib, undagi bog'lovchilarni matnni eshitish orqali yozib oladilar va jadval asosida ma'noviy guruhlariga ajratib chiqadilar. Bu metoddan mustahkamlash darslarida foydalansa ham bo'ladi.

"Sen davom ettir" o'yini. Bu o'yinda o'quvchi o'z diqqatini bir joyga to'plash, eshitganlarini yashin tezligida analiz va sintez qilish, nutqiy vaziyatga mos ravishda, tezkor va mantiqli fikrlash, fikr mahsulini to'g'ri, ravon, qiziqarli ifodalash ko'nikmalarini egallaydi. O'zgarlar fikriga tanqidiy yondashish, tahlil etish va xulosa chiqarishni, o'z fikrini himoya qilishni o'rganadi. O'yinni o'qituvchi boshqaradi. Bog'lovchilarni aytib tugatgach, o'qituvchi istagan o'quvchiga estafeta tayoqchasini (shartli) uzatishi va bog'lovchilarni davom ettirishini taklif qilishi mumkin. Bog'lovchilarni davom ettira olmagan o'quvchi yutqazadi va o'yindan chiqishi kerak. O'yin oxirigacha yetib kelgan ikki o'quvchi o'rtasida final o'yini o'tkazilib, g'olib aniqlanadi va rag'batlantiriladi.

Mavzuni o'tishda o'quvchilarning diqqati bog'lovchilarning ma'nosini uqishga qaratiladi. M.,

1. Eshik ochildi-yu, Salim kirib keldi.
2. Eshik ochildi va Salim kirib keldi.
3. Eshik ochildi-da, Salim kirib keldi.

Uchta gapda ham eshikning ochilishi va Salimning kirib kelishi haqidagi umumiy ma'nolar ifodalangan. Gap mazmuniga xos umumiy tushunchalar bog'lovchilar ifodalagan semalar asosida farqlanib turibdi. Birinchi gapda harakatlarning tezda sodir bo'lganligi ma'nosi, ikkinchi gapda harakatlarning ketma-ket sodir bo'lganligi ma'nosi, uchinchi gapda esa harakatlarning bir paytda sodir bo'lganligi ma'nosi ifodalangan. Bu esa bog'lovchilarga xos ma'nolarning gap mazmuniga ta'siri katta ekanligini bildiradi. Shu bois nutqning mantiqiy jihatdan to'g'ri bo'lishi uchun lisoniy birliklarning nutq jarayonida hosil qiladigan ma'nolaridan to'g'ri va o'rinli foydalanish talab etiladi.

Vazifadosh bog'lovchilar va sof bog'lovchilar qiyoslash usulida o'rganilsa, o'quvchining mavzuni tushunishi oson bo'ladi. M.,

1. Adham bilan dadam keldi.

2. Adham va dadam keldi.

3. Adham dadam bilan keldi.

Birinchi va ikkinchi gaplarda biriktiruv bog'lovchisi, uchunchi gapda esa ko'makchi qo'llanilgan. Bunga o'xshash misollarni keltirib o'quvchilarga farqini topishni vazifa qilib berish mumkin, bu o'quvchilarning o'z ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi. O'qituvchi vazifadosh bog'lovchilarni o'qitishda, albatta, ma'no, vazifasini to'liq tushuntirishi, so'ngra misollar asosida mavzuni mustahkamlashga erishishi mumkin.

Mashqlar va topshiriqlar bilan ishlash. Mashq va topshiriqlar o'quvchilar so'z boyligini va nutqini rivojlantirishga, o'stirishga ko'maklashadi. Topqirlikka o'rgatadi. Masalan, quyidagi mashq nuqtalar o'rniga bog'lovchilardan mosini qo'yish va bog'lovchilarga tavsif berishga mo'ljallangan.

Tuyaqush ... Qoplon ikkalalari do'st bo'libdilar. Qoplon chin so'zli, do'stga sadoqatli, g'amxo'r ... bo'lgani uchun harsillab yetib kelibdi. (Ertakdan). Buvisi... onasi ketishsa-chi to'ylarga, Uyni poylab o'tirar chiqmay ko'cha-ko'ylarga. (Ilyos Muslim).

Bu kabi mashqlar o'quvchilar nutqini rivojlantirishga yordam beradi. Shuning uchun mustaqil ish sifatida berilishi mumkin. Shu asosda o'qituvchi mavzu yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar berib, o'quvchilarning bilimini boyitishga erishadi.

QO'LLANILISHI CHEGARALANMAGAN VA CHEGARALANGAN LEKSIKANI O'QITISHDA BADIY MATNDAN FOYDALANISH

*Matyakubova Nargiza Ilxomjon qizi
JDPI magistranti*

Ma'lumki, bugungi kunda umumta'lim maktablarida fanlarni jumladan, ona tili fanini o'qitishning eskicha usullari zamon talabiga to'la javob berolmay qoldi. O'qituvchilarning o'qitish tizimidagi o'rnini belgilash hozirgi kunning muhim masalasidir. Bugungi kun o'zbek tili fani o'qituvchisi mumkin qadar mustaqil, erkin faoliyat ko'rsatish yo'lidan bormog'i lozim. Buning uchun unda chuqur bilim, tajriba, iqtidor va shu bilan birga, bolalarga bilimni yetkaza olish mahorati bo'lishi zarur. Zero, «biz o'z iste'dodli, fidoyi bolalarimizga, farzandlarimizga bilim va kasb cho'qqilarini zabt etish uchun qanot berishimiz kerak» [2;87].

Ona tili darslarida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligiga asoslangan, talabalar faolligini oshirishga yo'naltirilgan turli shakl va usuldagi darsliklardan foydalanib, ona tili ta'limi samaradorligiga erishish, o'quvchi-talabalarning bilim va tafakkurini yuksaltirish bugungi kunning, o'zbek tili o'qitish metodikasining eng muhim muammolari sirasiga kiradi. Bu jarayonda biron bir yangi mavzuni o'zlashtirishda lingvistik mashqlardan foydalanish yangi bilimlarni chuqurroq o'rganishga yordam beradi.

Leksemalarning qo'llanilishi mavzusini o'rganishda avvalo u haqida nazariy ma'lumotlaregalliamiz zarur bo'ladi. Bunda lingvistik mashqlarni bajarishda Pirmqul Qodirovning "Avlodlar dovoni" [3;63-95] asari badiiy matndan foydalanish orqali yanada ko'proq natijaga erishishimiz mumkin. Biz mazkur maqolada asarning "Ganga. Ko'rgilik" bobi ustida ish olib boramiz.

Avvalo, qo'llanilishi chegaralanmagan va chegaralangan leksika xususida to'xtalib o'tamiz.

Til egalari nutqida ishlatilishi jihatidan o'zbek tili leksikasi ikki qatlamga bo'linadi:

A) Qo'llanilishi chegaralanmagan leksika;

B) Qo'llanilishi chegaralangan leksika.

Qo'llanilishi chegaralanmagan (umumiste'mol) leksika. O'zbek tili lug'at tarkibining asosini ana shu qatlam tashkil etadi. Qo'llanilishi chegaralanmagan leksemalarni shu tilda so'zlashuvchi kishilar, qanday shevaga, qaysi hududga, qaysi kasb yoki sohaga mansub bo'lishidan qat'iy nazar, cheklanmagan darajada ishlataveradi [1;116].

Qo'llanilishi chegaralanmagan leksemabarcha so'z turkumida mavjud.

Fe'l: *aylandi (63-b.), ko'rindi(63-b.), tutib qoldi(63-b.), uyg'ondi(63-b.), yengil tortdi(63-b.), sezdi (63-b.), eshitdi (63-b.), turib ketdi (63-b.), tegdi (63-b.), k'rinmadi (63-b.), egiladi (63-b.), eshitiladi (63-b.)*

Ot: *daryo (63-b.), suv (63-b.), yomg'ir (64-b.), fasl (64-b.), qo'l-oyoq (64-b.), odam (64-b.), umr (64-b.), toat-ibodat (64-b.), qirg'oq (64-b.), irim (64-b.), kema (64-b.), hodisa (64-b.), ota (64-b.), esdalik (64-b.), qo'shin (64-b.), hafta (64-b.), g'alaba (64-b.), tajriba (64-b.), taraf(64-b.), tepalik (64-b.), dushman (64-b.), soqchi (64-b.), dovul (64-b.), voqea (64-b.), tuzoq (64-b.), yer (64-b.)*

Sifat:*tahlikali (64-b.), kalta (65-b.), kichik (65-b.), qimmatbaho (65-b.), boy (66-b.), bexato (66-b.), muhim (66-b.), go'zal (66-b.)*

Son: *bir yuz ellik (67-b.), yetti (67-b.), bir (67-b.), to'qqiz yuz ming (67-b.), ikki (67-b.), yigirma sakkiz (68-b.), uch yuz (68-b.)*

Ravish:*tinchgina (68-b.), hozir (68-b.), erta-indin (69-b.), ko'p (70-b.)*

Olmosh:*siz (71-b.), biz (71-b.), men (71-b.), kim (71-b.), o'zi (71-b.), bu (71-b.), barcha (71-b.), u (72-b.), shu (72-b.)*

So'z-gap:*balli (79-b.)*

Ko'makchi:*orqali (80-b.), uchun (80-b.), bilan (80-b.), kabi (80-b.), so'ng (80-b.), keyin (82-b.), ort (83-b.)*

Bog'lovchi:*ammo (84-b.), va (85-b.), bilan (86-b.), biroq (86-b.), lekin (86-b.)*

Yuklama:*xuddi (92-b.), faqat (95-b.)*

Qo'llanilishi chegaralanmagan leksemaning aksariyati umumturkiy va o'zbekcha, ba'zan ular o'zlashma bo'lishi ham mumkin.

Qo'llanilishi chegaralangan leksemalarni ikki turga bo'lish mumkin: *qo'llanilish davriga ko'ra chegaralangan leksika; qo'llanilish doirasi chegaralangan leksika*.

Qo'llanilish davriga ko'ra chegaralangan leksika

Davr taraqqiyoti, ijtimoiy hayotdagi o'zgarish tilning barcha sohalarida u yoki bu darajada o'zgarish bo'lishiga olib keladi. Bunday o'zgarish tilning leksik sathida ancha sezilarli kechadi.

O'zbek tili leksikasini tarixiylik nuqtayi nazaridan uchta asosiy qatlamga bo'lib o'rganish mumkin:

Betaraf leksika. Hozirgi o'zbek tili leksikasining asosini betaraf leksika tashkil etadi. Bu leksika umumiste'mol leksika, qo'llanilishi chegaralanmagan leksika, faol leksika kabi atama bilan ham yuritiladi. Ammo bulardan neytral leksika atamasini ishlatish leksemani tarixiylik belgisi asosida tasniflash nuqtayi nazaridan to'g'riroq.

Eskirgan leksika. Eski qatlamga oid leksemalar o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra ikkiga bo'linadi: *tarixiy leksema* – hozirgi o'zbek tilida qo'llanuvchi o'tmishga oid, iste'moldan chiqib ketgan narsa-hodisani bildiruvchidir. Masalan, *Xos chodir* eshigiga osilgan *kimxob parda* Humoyunning *qo'liga mayin va salqin tegdi* (P.Qodirov). *Bobur mirzo Sekridagi g'alabasi sharafiga juda katta osh bergan, unga hamma beklar sipohilari bilan taklif qilingan*

(P.Qodirov). *Arxaizm* – o‘z o‘rnini boshqa leksemaga bo‘shatib bergan leksik birlik. Ijtimoiy taraqqiyot natijasida ayrim narsa-hodisa boshqa leksema bilan atalib, avvalgilari iste‘moldan chiqib ketadi. Misollar: *ulus* (xalq), *lang* (cho‘loq), *tilmoch* (tarjimon), *dudoq* (lab), *cherik* (armiya), *sallox* (qassob), *ilik* (qo‘l) va b. Arxaik leksema o‘zining neytral leksika tarkibidagi “o‘rinbosari”ning “tarixiylik bo‘yog‘i” ifoda semasi bilan farqlanuvchi sinonimdir.

Yangi leksika tilda yangi paydo bo‘lgan va yangilik bo‘yog‘i sezilib turgan leksemalardir. Ular ilmiy terminologiyada neologizm deb yuritiladi.

Qo‘llanilish doirasi chegaralangan leksika

Qo‘llanilish doirasi chegaralangan leksikani uchga bo‘lib o‘rganish mumkin:

Dialektal leksika – ma‘lum bir hududda yashovchi kishilarnutqiga xos leksemalar.ular ilmiy terminologiyada dialektizm deb yuritiladi. Misollar: kallapo‘sh (Buxoro) – do‘ppi, g‘o‘z (Xorazm) – yong‘oq, poku (Samarqand) – ustara.

Terminologik leksika – adabiy tilga mansub va dialektal terminologik leksikani o‘z ichiga oladi.

Noadabiy leksika (argo va jargon). Kasbi, jamiyatdagi o‘rni, qiziqishi, yoshiga ko‘ra alohida sotsial guruhni tashkil etgan kishilarning, asosan, og‘zaki nutqida ishlatiladigan va ma‘nosi boshqalar ko‘p hollarda anglab yetavermaydigan birliklar *jargon* deyiladi. Masalan, programmistlar jargoni, talabalar jargoni, mahbuslar va o‘g‘rilar jargoni, artistlar jargoni va h.k. Argo bir necha til unsurlaridan iborat qorishiq va ko‘p hollarda, boshqalarga tushunarsiz nutq turida namoyon bo‘ladi. Ular nutqda kommunikatsiya predmetini sir tutish maqsadida qo‘llaniladi. Masalan, mandarin (tilla), urkagan (tajribali o‘g‘ri), shobla (qalloblar guruhi), krokodil (qaychi) va b [1;120].

Yangi mavzu haqida ma‘lumotlarga ega bo‘lganimizdan so‘ng mavzuni mustahkamlashda bir qator lingvistik mashqlardan foydalanamiz.

Lingvistik mashq yoshlarni hayotga tayyorlash jarayonining tarkibiy qismi, til ta‘limini amalga oshirishning yetakchi yo‘li hisoblanib, ma‘lum makonda (sinfda o‘qituvchi rahbarligida) va zamonda (darsda) o‘tkaziladi. U ongli hayotning alohida soniyalari, hayotning o‘zi demakdir [4;128].

Qo‘llanilishi chegaralanmagan leksikaga doir mashqlar:

1.*Quyida berilgan matndagi qo‘llanilish chegaralanmagan leksamani so‘z turkumlariga ajrating.*


Humoyun oyoq qo‘ygan yer ichiga o‘pirilib tushib, tubsiz o‘ngirga aylandi. U oyog‘ini tortib olib, orqaga tisarildi. Qorayib turgan o‘ngir labida qandaydir daraxtning ildizi ko‘rindi. Humoyun tubsiz jarga yiqilay deganda shu daraxtdan ikki qo‘llab tutib qoldi. Bir payt daraxt ham ildizi bilan sug‘urilib chiqa boshladi. Humoyun jarga qulab tushishini sezganda qichqirib, bosinqirab uyg‘ondi-yu: «Alhamdulillah, tush ekan!» deb xiyol yengil tortdi. Lekin tashqarida dovul ko‘tarilganini, tepasidagi chodirni shamol yiqitib ketgudek qattiq silkitayotganini sezdi, jala quyib, momaqaldiroq ustma-ust gumburlayotganinieshitdi-da, yana yuragi hapriqib, o‘rnidan turib ketdi. Ganga bo‘ylarida yomg‘ir fasli boshlangan, havo iliq bo‘lsa ham dim, hamma narsa namiqib ketgan. Xos chodir eshigiga osilgan kimxob parda Humoyunning qo‘liga mayin va salqin tegdi. Uni bir tomonga surib tashqariga ko‘z yugurtirdi. Qorong‘ida hech narsa ko‘rinmadi, faqat yashin chaqnaganda Ganganing qirg‘oqlariga toshib chiqqan oqish to‘lqinlari tahdidli yaltirab ko‘zga tashlandi. Daraxtlar dovuldan yerga tekkuday egiladi, ularning qattiq shovullashi orasidan momaqaldiroqning qasir qusuri xiyla past eshitiladi [3; 63]

Fe'l	Ot	Sifat	son	ravish	Olmosh	So'z-gap	Ko'makchi	Bog'lovchi	yuklama
<i>Aylandi</i>	<i>Oyoq</i>	<i>Tubsiz</i>	<i>Ikki</i>	<i>Xiyol</i>	<i>U</i>	–	<i>Bilan</i>	<i>Lekin</i>	<i>Faqat</i>
...

Pirimqul Qodirovning “Avlodlar dovoni” asarining “Ganga. Ko’rgilik” bobi matni ustida ishlashda qator topshiriqlar berishimiz mumkin.

2. Berilgan soʻzlarni soʻzlarni tarixiy leksema va arxaik leksemalarga ajrating.

Kimxob, chodir, boʻtana, qarorgoh, yov, sipoh, siyoq, man (gramm), zambarak, toʻfang, minbaʼd, sarkarda, xonumonsiz, otliq, koʻch, taxt.



Xulosa qilib aytganda, mavzuni oʻzlashtirishda darslikda puxta, tushunarli va mavzuni qamrab olgan mashqlarning kiritilishi kutilgan natijani beradi. Bundan tashqari badiiy matn orqali turlicha topshiriqlardan foydalanish oʻquvchilarga yanada tushunarliroq boʻladi va darsning qiziqarli boʻlishiga yordam beradi. Badiiy matn bilan ishlagan oʻquvchining bilim darajasi yanada rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Darslik. – T.:2020.
2. Karimov I. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. –T.: Maʼnaviyat, 2008.
3. Qodirov P. Avlodlar dovoni. –T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matba ijodiy uyi. 2018.
4. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. –T.:Yangi asr avlodi, 2005.
5. Roʻziyeva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qoʻllanilishi. Metodik qoʻllanma. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013.

ONA TILI DARSLARIDA KLASTER METODINI QO`LLASHNING AHAMIYATI

**SamDU O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 1-kurs
magistranti Sardor Yusupov
Ilmiy rahbar: f.f.d. (PhD) Sh. Normo‘minov**

Hozirgi kunda ta'lim tizimining rivojlanib borishi o'qitishning eng samarali usullarini qo'llashni talab etmoqda. O'qituvchi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida birmuncha qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy. Shunday bo'lsa-da, o'qituvchi auditoriya holatidan kelib chiqib, an'anaviy qo'llanilib kelayotgan yoki zamonaviy metodlardan foydalangan holatda darsni to'g'ri tashkil qilishi va natijaga erishishi mumkin.

Dars jarayonida natijaga erishishda klaster metodi ham yaxshi samara berishi mumkin.

Klaster (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erki, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. "Klaster" metodi aniq obyektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi.


Klaster metodi tarmoqlar metodi deb ham yuritiladi va mantiqiy fikrlash, umumiy fikrlash doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan. Biron-bir mavzuni chuqur o'rganishdan oldin o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirishga xizmat qiladi. "Klaster" metodi aniq o'ylangan rejali yo'l bo'lib, undan o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan g'oyalarni majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

O'qitish jarayonida klaster metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan klaster metodi talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri yechimini topishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Klaster metodi orqali talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari, ijodkorligini va faolligi nazariy va amaliy muammolarga bo'lgan qarashlari rivojlanadi.[M. Rejabov. "Klaster – erkin fikrlashning asosi". SCIENTIFIC PROGRESS 4-son, B 34-39]

Klaster metodi ham metod sifatida, ham texnologiya sifatida qo'llaniladi. Agar dars jarayoniga olib kelingan ko'rgazmali qurolida aks etgan klasterning tarmoqlari oldindan oldindan to'ldirilgan bo'lsa, bu holatda u metod emas, balki texnologiya sifatida yuzaga chiqadi. Agar klaster doskada, proyektor yoki birorta ko'rgazmali qurolida aks etib, o'quvchilar tomonidan to'ldiriladigan bo'lsa, metod sifatida namaoyon bo'ladi.

Tilshunoslik fanini o'qitishda ham ushbu metod yaxshi samara beradi. Chunki XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikka sistem-struktur yondashuv kuchaydi. Hozirgi paytda esa, tilning yaxlit bitta sistema ekanligi isbotlandi va tan olindi. Klaster texnologiyasining tuzilishi ham sistem-struktur ko'rinishga asoslanadi. Shuning uchun ham klaster metodi bugungi kunda o'zbek tili ta'limida katta ahamiyat kasb etadi.

TILSHUNOSLIK



Klaster metodi guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlar va o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.


"Klaster" metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:

- 1. Nimaniki o'ylagan bo'lsangiz, shuni qog'ozga yozing. Fikringizning sifati to'g'risida o'ylab o'tirmay, ularni shunchaki yozib boring.*
- 2. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha, yozishdan to'xtamang. Agar ma'lum muddat biror bir g'oyani o'ylay olmasangiz, u holda qog'ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g'oya tug'ilguncha davom ettiring.*
- 3. Yozuingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e'tibor bermang.*
- 4. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari surish hamda mazkur g'oyalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni, bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qiling. G'oyalar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishni cheklamang. [D.Ruziyeva, M.Usmonboeva, Z.Xalikova. - Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. B 36]*


Klasterni tuzilishiga ko'ra ikki turga ajratishimiz mumkin:

- 1.Sodda ko'rinishdagi klasterlar.
- 2.Murakkab ko'rinishdagi klasterlar.

Sodda ko'rinishdagi klasterlar deb, bir umumiy tushuncha va unga tutashtirilgan tarmoqlardan iborat tuzilishga ega bo'lgan klasterlarga aytiladi va u quyidagicha ko'rinishda bo'ladi.




Murakkab ko‘rinishdagi klasterlar bitta umumiy tushuncha va unga biriktirilgan tarmoqlar hamda tarmoqlardan o‘tib chiquvchi yo‘nalishlardan iborat bo‘ladi. Uning ko‘rinishi quyidagichadir:




Klasterlar shakliga ko‘ra ham bir necha xil bo‘lishi mumkin. Masalan, to‘rtburchak shaklli klasterlar:



Yumaloq shaklli klasterlar:



Qiziqarli shakllardan iborat klasterlar:



Aralash shakllarga ega bo‘lgan klasterlar:

Tilshunoslikka oid biror mavzuni o‘tishda klaster metodini qo‘llash jarayoni quyidagicha bo‘ladi:

1.Katta o‘lchamdagi qog‘oz yoki doskaning o‘rtasiga mavzuga doir so‘z yoziladi.

2.O‘quvchilar ushbu so‘z bilan bog‘liq xayolga kelgan so‘z va jumalarni uni atrofiga yoza boshlaydilar.

3.Yangi g‘oyalar paydo bo‘lishi bilan xayolga kelgan so‘zlar ham darhol yozib qo‘yiladi.

4.So‘zlarni yozish jarayoni o‘qituvchi tomonidan belgilangan vaqt tugaguncha yoki barcha so‘z va g‘oyalar tugaguncha davom etadi.

Xulosa qilib aytganda, ta‘lim tizimining maqsadi sifatida talqin etilayotgan o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda klaster metodi va shu kabi interfaol metodlarni qo‘llash hamda shu orqali ushbu maqsadga erishish nafaqat tilshunoslik sohasida, balki boshqa sohalarda ham har bir o‘qituvchi uchun muhim vazifa bo‘lishi zarurdir.

“BOBURNOMA” ASARINI O‘QITISHDA INTEGRATIV YONDASHUV

**Qulsaxatov Farruh
ToshDO‘TAU magistranti**

Har bir xalqning tarixiy, madaniy-milliy qiyofasini aniq belgilovchi ulug‘ shohlari, buyuk olimlari, yirik adib va shoirlari bo‘ladi. Insoniyatning abadiyotga mansub ana shunday buyuk farzandlari safida Zahiriddin Muhammad Bobur ham o‘z o‘rniga ega. Kishilik tarixida Boburchalik shaxsiy imkon, iqtidor va fazilatlarini beqiyos kishilar juda kam uchraydi. Bobur — buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunos, faqih, tilshunos, san‘atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni sifatida ko‘pqirrali faoliyat va ijod sohibi edi. Birgina «Boburnoma» uning yigirmadan ortiq sohalarga qiziqqanligiga yaqqol misoldir.

Zahiriddin Muhammad Bobur iste‘dodli shoir edi. U go‘zal g‘azallar yozdi. Ruboiyning tengsiz namunalarini yaratdi. Ko‘rgan-kechirgan voqealari haqida “Boburnoma” asarini yozib qoldirdi. Uning qalbi musiqaga oshno edi. U so‘zni go‘zal chalgan, ajoyib kuylar yaratgan, musiqa haqida ilmiy kitob yozgan shohlardan edi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonda tug‘ildi. Otasi temuriyzoda Umarshayx Farg‘ona viloyati hukmdori edi. Onasi Qutlug‘ Nigorxonim Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Bo‘lajak shoir 12 yoshida otasi bevaqt vafot etib, Andijonni boshqarish uning zimmasiga tushadi. 15 yoshida bobomeros Samarqandni zabt etadi. 16 yoshida bu azim shaharni tashlab chiqishga majbur bo‘ladi. Keyin ham ikki marotaba bu shaharni egallashga muvaffaq bo‘ldi. Lekin saqlab qolish nasib etmadi. Samarqandni ham, Andijonni ham qo‘ldan berib goh otliq, goh yayov yurgan paytlari ham bo‘ldi. Nihoyat, 1503-yilda Jayhun (Amu)ni kechib, Xurosonga o‘tdi. Kobul va G‘aznani qo‘lga kiritdi. So‘ng 1526-yilda esa Hindistonni zabt etib, katta saltanat o‘rnatdi. U 1530-yilning 26-dekabrda Agrada vafot etdi. Keyinroq uning xoki, vasiyatiga muvofiq, Kobulga ko‘chiriladi.

5-sinf adabiyot darsligida Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi haqida qisman to‘xtalib o‘tilgan, xolos. Biz bu darslikdagi ma‘lumotni “Zahiriddin Muhammad Bobur hayotiga kirish” deb baholash mumkin.

O'qituvchi 5-sinf darsligida berilgan ma'lumotlarni o'quvchilarga quyidagi integrativ metodlardan foydalanib mavzuni mustahkamlashni tavsiya etamiz.

Quyidagi jadval orqali o'quvchilarning xotirasida Boburning shoh sifatidagi, shaxs sifatidagi, shoir sifatidagi ma'lumotlari to'planadi va tavsiflanadi.

Shoh sifatida	Shaxs sifatida	Shoir sifatida
Yosh bo'lishiga qaramasdan adolatli hukmdor bo'ladi.	Hind xalqi qalbidan joy oldi, uning mehrini qozondi.	Ikkita devoni mavjud. 119 ta g'azali bor.
15 yoshida bobomeros Samarqandni zabt etadi	Farzandlariga g'amxo'r ota.	209 ta ruboiysi bitta masnaviy she'ri bor.
1526-yilda esa Hindistonni zabt etib, katta saltanat o'rnatadi.	Uning qalbi musiqaga oshno edi.	50dan ortiq muammo va 60dan ziyod fardlari aniqlangan.

1494-yilda Umarshayx Mirzoga qarshi uning o'z akasi – Samarqand hokimi Sulton Ahmad Mirzo hamda qaynog'asi Toshkent hokimi Mahmudxon til biriktirgan holda qo'shin tortib, Farg'onaga yurish qiladilar. Nihoyatda qaltis vaziyat vujudga keladi. Buning ustiga kutilmagan falokat yuz beradi: Andijonning g'arb tomonidagi jar yoqasida bino bo'lgan Aysi qo'rg'onida turgan Umarshayx Mirzo kabutarxonasi bilan jarga qulab, halok bo'ladi. Umarshayxdan uch o'g'il va besh qiz qolgan edi. O'g'illarining kattasi - 12 yoshga qadam qo'ygan Bobur taomil bo'yicha taxtga o'tiradi. O'ratepa, Xo'jand va Marg'ilonni qo'lga kiritib, Quvaga kirgan Sulton Ahmad qo'shni shaharni kesib o'tuvchi Qorasuv ko'prigida toshqinga uchrab, tuya

va otlari botqoq suvga cho'kib, ko'pi nobud bo'ladi. Ustiga ustak o'lat tarqaladi. Qo'shin vahimaga tushadi. Sulton Ahmad sulh tuzib, ortga qaytadi va yo'lda vafot etadi. Sulton Mahmud ham Axsini bir muddat qamal qilib ololmay, ketishga majbur bo'ladi. Sharoitdan foydalanib qolmoqchi bo'lgan Koshg'ar va Xo'tan hokimi Abobakr Do'g'latning O'zgand yaqinidagi harakatlariga chek qo'yiladi. "Boburnoma"ning aynan shu voqealarga ishora qilib "Tengri taoloning inoyati..." so'zlari bilan boshlanishi bejiz emas edi. Bobur 1497-yili 15 yoshida sohibqiron Amir Temur poytaxt qilgan Samarqand shahrini egallaydi. Lekin moddiy tanqislik, qaltis siyosiy vaziyat tufayli bu shahri azimni tashlab chiqishga majbur bo'ladi. Andijonda xiyonat yuz bergandi. Bobur ishongan beklar taxtga ukasi Jahongir mirzoni o'tqazmoqchi bo'ladilar. Ikki yil sargardonlikdan so'ng katta mashaqqatlar bilan Andijon qaytarib olinadi. 1500-yilda Bobur Samarqandni jangsiz osonlik bilan qo'lga kiritadi. Lekin Shayboniyxon yaqinlashib kelayotganligi uchun kuch to'plash maqsadida Shahrisabzga jo'naydi. Shunda Shayboniyxon Sulton Ali mirzoning onasi Zuhrabegimni unga uylanish va'dasi bilan aldab, shaharni egallaydi.

1501-yilda Bobur 240 nafar navkari bilan yetti mingga yaqin qo'shini bo'lgan tajribali shoh Shayboniydan Samarqandni tortib olishga muvaffaq bo'ladi. Ko'p o'tmay Shayboniyxon shaharni qamal qildi va u uzoq davom etdi. Bir tomondan shahar ichidagi ochlik, ikkinchi tomondan qarindoshlari bo'lmish boshqa temuriylardan madad kelmagani yosh hukmdorni og'ir bo'lsa-da, bir qarorga kelishga undadi. U yana Samarqandni tashlab ketishga, nafaqat Samarqandni, jondan aziz Vatanini ham butunlay tark etishga majbur bo'ldi. Ikki yilga yaqin sarson-sargardonlikdan so'ng 1503-yilda Kobulga yo'l oladi. Kobul va G'aznani jangsiz

egallaydi va o'zini shoh deb e'lon qiladi. 1507-yildan Hindistonni zabt etish harakatiga tushgan Bobur 1526-yili o'z maqsadiga yetadi.

Shu yilning 21-aprelida Panipat jangida Boburning 12 minglik qo'shini hind sultoni Ibrohim Lo'diyning 100 ming kishilik askari bilan to'qnashadi. Ajdodlaridan meros jang sirlari, yillar davomida to'plagan tajribasi hamda taqdirning bergan achchiq saboqlari qo'l keldi. Bobur hind yerida Yevropada keyinchalik "Buyuk mo'g'ul imperiyasi" deb atalgan ulkan saltanatga asos soldi. Bobur va boburiylarning hukmdorligi Hindiston tarixida juda katta ijobiy ahamiyat kasb etadi¹²⁰. Begona bir yurtni zabt etish hech qachon oson kechmagan. 1526-yilning 21-dekabrda Bobur dushmanlari tomonidan zaharlanib, tasodif tufayli omon qoladi. Biroq bu ahvol yigirma besh-yigirma olti kun davom etadi, xolos. Bobur 1530-yilning 26-dekabrda Agrada vafot etadi. Keyin uning xoki, vasiyatiga muvofiq, Kobulga ko'chiriladi¹²¹.

Boburdan bizga ulkan meros qoldi. Bu meros shoirning devonlari, "Boburnoma"si. U Xoja Ubaydulloning "Risolayi volidiya" sini o'zbekchalashtirdi, musulmon axloqiga oid "Mubayyin" asarini yaratdi, "Xatti Boburiy" ni ixtiro qildi.

"Boburnoma" – adabiy va tarixiy ahamiyatga molik asar. Unda o'z davrining ko'plab kishilarining turli vaziyatdagi kechinmalari, siyosiy ahvoli haqidagi ma'lumotlar jamlangan. Osiyoning ko'plab tog'lari, daryolari, o'rmon va cho'llari, iqlimi, aholisi, ijtimoiy, iqtisodiy haqida ma'lumotlar keltirilgan.

"Boburnoma" o'zbek nasrining go'zal namunasi. Bu paytgacha Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining muqaddimasida, Rabg'uziy ijodida nasr namunalari uchrar edi. Alisher Navoiy uni yuqori pog'onaga olib chiqdi. Biroq "Boburnoma" o'zbek nasrining o'ziga xos kashfiyoti sifatida yuz ko'rsatdi.

Asarda tarixning Bobur yashab o'tgan davri voqealari ifodalangan. Bu voqealar Andijon, Samarqand, Xo'jand, Hirot dan boshlab Kobul va Agragacha bo'lgan qamrovga ega. Ya'ni unda O'rta Osiyodan Hindistongacha bo'lgan o'lkalardagi deyarli 50 yillik voqealar tasvirlangan.

"Boburnoma" dagi voqealar bayoni aniq, ixcham va lo'nda, ta'sirchan, eng muhimi, hayotiy haqiqatga mos va muvofiqligi bilan e'tiborlidir¹²².

Biz 10-sinf va 11-sinf (I qism darsligi) shoir hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar darsliklarda berilgan ma'lumotlarning "Asosiy qismi" hisoblanadi. Bobur hayotidan qisman bo'lsa-da xabardor bo'lgan o'quvchilar endi uning dunyoni lol qoldirgan durdona asarlari bilan tanishadilar. Ko'rganimizdek, darsliklar izchillik bilan bir-birini to'ldirib boradi. 5-sinf adabiyot darsligida Bobur hayoti va asarlari haqida o'quvchilar keng va umumiy ma'lumot oladilar. 10-sinf adabiyot darsligi tarix fani bilan bog'liqlikda Boburiylar saltanati asoschisining ziddiyatli hayoti tasviriga qaratilgan. Ya'ni unda 12 yoshli Boburning taxtga o'tirishi voqealaridan tortib, Hindistonda buyuk davlat tuzishigacha bo'lgan voqealar qalamga olingan. "Boburnoma" asaridan keltirilgan parchadagi ma'lumotlar so'zimizning yaqqol misoli bo'la oladi.


¹²⁰ (Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangi yo'l poligraf service, 2010-yil, 80-81-betlar)

¹²¹ Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangi yo'l poligraf service, 2010-yil, 80-81-betlar

¹²² To'xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. Adabiyot (Majmua. Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o'quvchilari uchun). – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010-yil, 157-158-betlar.

11-sinf adabiyot (I qism darsligi) darsligida Bobur gʻazallari yaʼni lirikasi bilan tanishasiz.

“YULDUZ” metodi bu metod orqali oʻquvchilar Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga doir maʼlumotlarni esga oladi va boʻsh oʻrinlarni maʼlumotlar bilan toʻldiradi. Oʻquvchilarning javoblarini tinglagandan soʻng berilgan javoblarni baholaydi.



Bobur ijodi mumtoz soʻz sanʼatimizda Navoiydan keyingi alohida bosqichni tashkil etadi. Zero Amir Haydar taʼkidlaganidek, “Turkiy sheʼri Amir Alisherdan keyin hech kim Bobur yozgan darajada yozgan emas”¹²³. U adabiyotni hayotga, adabiy tilni xalq tiliga yaqinlashtirdi. Atoiy, Lutfiy sheʼrlaridagi xalqchilik Bobur asarlarida yangicha shaklda qayta tugʻildi. U oʻz asarlarining mavzusini asosan hayotdan oldi.

Zahiriddin Muhammad Bobur sohibdevon shoir boʻlsa-da, uning devoni bizgacha mukammal holda yetib kelmagan. Hozirgacha shoirning 119 gʻazal, 1 masnaviy sheʼri, 209 ruboiysi, 10 dan ortiq tuyuq va qitʼalari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibidan umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham oʻrin olgan.

Adabiyotshunos olimi Shafiqa Yorqin Boburning Turkiyadagi Istanbul universiteti kutubxonasi turkiy qoʻlyozmalar boʻlimida 3743 raqami ostida saqlanayotgan devonidagi uning hozirgacha nashr etilgan toʻplamariga kirmagan oʻzbek tilidagi 5 gʻazali, 9 qitʼasi, 5 ruboiysi, 9 masnaviy sheʼri, 10 toʻrtligi, 2 tuyugʻi, 40 dan ortiq fardlari, qator masnuʼ sheʼrlari, 1 masnuʼ tarjeʼbandi, 2 nomasi, fors-tojik tilidagi 1 gʻazali, 10 ruboiysi, 4 qitʼasi, 12 fardi va 2 nomasini eʼlon qildi¹²⁴.

¹²³ Mirzo Muhammad Haydar. Bobur podshoh (—Tarixi Rashidiyldan). Fors tilidan G_ulom Karim tarjimasi//IO_zbekiston adabiyoti va sanʼat, 2002-yil, 15-fevral

¹²⁴ Захириддин Мухаммад Бобур. Сочининг савдоси тушди. – Т.: Шарк. 2007-йил, 4-бет.

Bobur lirikasi mavzu doirasi, shakliy takomili va badiiyligi jihatidan g'oyat go'zal va mukammalligi bilan alohida e'tiborga loyiq. Shoirning she'rlarida hayotbaxsh tuyg'ular – hayotdan zavqlanish, el-yurt, diyor sevgisi, ona Vatandan uzoqda yurgan lirik qahramonning iztirobli tuyg'ulari, pand-nasihat mavzusidagi ilm-ma'rifat, odob-axloqqa chaqiruvchi mavzular yuksak mahorat bilan kuylanadi.

“Boburnoma” – ilmiy, adabiy va tarixiy ahamiyatga molik asar. Unda o'z davridagi ko'plab kishilarning turli vaziyatlardagi kechinmalari, Osiyoning ko'plab tog'lari, daryolari, o'rmon va cho'qqilari, iqlimi, aholisi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvoli haqida ma'lumotlar jamlangan. Asar “Boburiya”, “Voqeoti Bobur”, “Voqeanoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Tabaqoti Boburiy”, “Tavorixi Boburiy”¹²⁵ kabi nomlar bilan ham ma'lum. Boburning o'zi esa “Vaqoye”, “Tarix” degan nomlarni ishlatgan. Fikrimizning isboti sifatida esa Bobur qalamiga mansub bo'lgan to'rtlikni keltirib o'tamiz.

Bu olam aro ajam alamlar ko'rdum,
Olam eliding turfa sitamlar ko'rdum,
Har kim bu **vaqoye**'ni o'qir, bilgaykim,
Ne ranj-u ne mashaqqat-u ne g'amlar ko'rdum.

“Boburnoma” da XV asrning oxiridan XVI asrning 30-yillariga qadar ro'y bergan tarixiy voqealar aks ettiriladi. Asar 1494-yil voqeasi tasviri bilan, Samarqand hukmdori Sulton Ahmad mirzoning Farg'onaga hujumi, Umarshayx mirzoning halok bo'lishi va 12 yoshga qadam qo'ygan Boburning taxtga chiqishi bayoni bilan boshlanadi. Asarda voqealar doirasi kengayib, chuqurlashib, murakkablashib boradi. Bobur Movarounnahrda, keyinroq Xuroson, Afg'oniston va Hindistondagi voqealarni bayon qiladi. Biroq muallif tarixiy voqealarni sanab o'tish yoki ular haqida ma'lumot berish bilan cheklanmaydi, balki u tarixiy voqealarning manzarasini, tarixiy shaxslarning qiyofasi va xarakterini, tabiat lavhalarini chizib beradi, maroqli va jozibali badiiy uslub bilan turli xil sarguzashtlarni, rivoyat va latifalarni hikoya qiladi, xalq maqollari va she'riy parchalar bilan o'z asarini bezaydi, turli usul va til vositalaridan foydalanadi. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limiga “Boburnoma” asaridan ba'zi parchalar kiritilgan bo'lib, bu parchalar o'quvchilarga asar haqida ma'lumot berishga xizmat beradi. Amaldagi darsliklarda Husayn Boyqaro ta'rifi keltiriladi. Hozirgi umumta'lim maktablarining 10-sinf uchun mo'ljallangan adabiyot darsliklarida joy nomlaridan Farg'ona, Andijon va Samarqand, Hindiston tasviri keltiriladi:

“Boburnoma” da Alisher Navoy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod kabi ko'plab yirik ijodkorlar tavsif etilib, ularning ijodiy faoliyatiga xolis baho beriladi. Masalan, Bobur Alisher Navoiy haqida so'zlaganda uni “Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. Turkiy til bilan to she'r aytibdurlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas”, deb ta'riflaydi va fan-madaniyat homiysi ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Ahli fazl va ahli hunarg'a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay. Ustoz Qulmuhammad va Shayxi Noyi va Husayn Udiykim, sozda saromad edilar, bekning tarbiyat va taqviyati bila muncha tarqqiy va shuhrat qildilar.. Muncha binoyi xayrkim, ul qildi, kam kishi mundoqqa muvaffaq bo'lmish bo'lg'ay...”

“Boburnoma” o'zbek mumtoz nasrining namunasi, u tarix, tabiatshunoslik, jo'g'rofiya, elatshunoslik, adabiyot va san'at tarixiga oid nodir manba ekanligi. «Boburnoma» memuar

¹²⁵ Teshaboyev B. Boburning —Boburnomal asaridan foydalanish // Xalq ta'limi. 1993. №10-12, 26-bet

asar. Undagi tarixiy shaxslar (Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Xusayn Bayqaro, Shayboniyxon) tasviri;

Shoir ijodining ushbu jihatlarining o'rganilishida asosiy darslik Adabiyot 10-11-sinf maktab darsligi hisoblanadi. Qo'shimcha manbalar sifatida o'quvchilarga Boburning «Boburnoma» asari, devonlari, Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» romani kabilarni tavsiya etiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning darsga qiziqishini ortishiga va ta'lim samaradorligini yaxshilashga, o'quvchilarning yetarli darajada bilim, ko'nikma va malaka egallashiga xizmat qildi. Aynan «Tarixiy sanalar» metodi Bobur hayoti va ijodiga oid raqamlarning o'quvchi xotirasida yaxshi saqlanib qolishiga yordam berdi.

Bundan tashqari darsni mustahkamlash uchun an'anaviy metodlar "Boshqotirma", "Test", "Savol-javob" metodlaridan foydalandish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda Bobur hayoti va ijodini "Boburnoma" asarida adibning shaxsi, uning tarjimayi holi, xarakteri, qiziqishlari, kishilarga munosabati borasidagi qarashlari tegishli tarzda o'z aksini topadi. Biz asar sahifalaridan Bobur shaxsiyatidagi rostgo'ylik, mardlik, adolatparvarlik, mehribonlik, qattiqqo'llik, hassoslikning namoyon bo'lish holatlari bilan tanishamiz.

O'sib kelayotgan yoshlarga Boburni "Boburnoma" ni o'qitishimizdan asosiy maqsad shudir.

SHIRIN QOVUNLAR MAMLAKATI" ROMANINI MASOFAVIY TA'LIMDA O'QITISH METODIKASI


**Ilhomova Dilnoza, JDPI magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.d U.Qosimov**

Masofaviy o'qitish - o'zaro ma'lum bir masofada internet texnologiya yoki boshqa interaktiv usullar va barcha o'quv jarayonlari komponentlari - maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakllar va o'qitish usullariga asoslangan ta'lim oluvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat. Masofaviy ta'lim elektron ta'lim platformasiga faqatgina fayllar va video havolalarni yuklashdan iborat emasligini anglash muhimdir. Masofaviy ta'lim ijodiy yondashuvni talab qiladi. Masofaviy ta'lim - axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, masofadan turib, o'quv axborotlarining almashuvini ta'minlaydigan, o'quv jarayonini olib borish hamda boshqarish tizimini amalga oshiradigan bilim va ko'nikmalarni egallash jarayonidir.

Masofaviy ta'limni tashkil etishda yuzaga kelayotgan muammolar juda ko'p. Ularni atroflicha o'rganib, bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish mahoratli pedagog uchun ayni zamon talabidir. Dastlabki muammo o'qituvchiga bog'liq bo'lmagan internet va texnika tufayli yuzaga chiqadi. Ammo asrimizning axborot texnologiyalarining tobora rivojlanib borayotganligini hisobga olsak, bunday holatlarga kamdan-kam hollarda duch kelamiz. An'anaviy ta'limda o'quvchi dars xonasida bo'ladi va o'qituvchida imkoniyat juda ko'p: qiziqarli metodlar, interaktiv texnologiyalar orqali ta'lim oluvchining e'tibori jalb qilinadi. Onlaynda esa o'quvchi internet orqali darsga ulanar ekan, unda juda ko'p chalg'ituvchi omillar paydo bo'ladi, ya'ni u shunchaki kirib qo'yib, virtual o'yinlarni davom ettirishi mumkin yoki internet reklamalariga chalg'ishijuda oson. Ushbu omillar pedagog

uchun juda kata to'siqdir. Har bitta o'quvchini masofadan turib darsni tinglayotgani, tushunayotgani, umuman o'zlashtira olayotganini nazorat qilish, tabiiyki, qiyin. Ushbu jarayonda qo'llash uchun shunday bir metodlar va usullarni taklif qilmoqchimizki, ular ta'lim jarayonida ijobiy o'zgarishlar yasay olsa ajab emas.

Brainstorm metodi orqali ishtirokchilar o'z oldilariga qo'yilgan savollar bo'yicha har qanday mulohaza va takliflarni bildirishlari mumkin. An'anaviy ta'limda bu metod og'zaki usulda amalga oshiriladi va ishtirokchilarning fikrlari faqat o'z doiralarida qolib ketadi. Bunga sabab bir ishtirokchi o'z fikrini ifoda etayotganda, ikkinchi ishtirokchi o'z g'oyalarini yanada mukammallashtirish maqsadida, tabiiyki, diqqatini bir joyga qarata olmaydi. Garchi u aytilayotgan fikrni eshitayotgan bo'lsa-da, to'liq holatda tahlil qila olmaydi va xotirasida saqlab qola olmaydi. Ammo bu usul og'zaki nutqning rivojlanishida va mantiqiy fikrlashda g'oyatda foydali. Metod samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflanadi. Endi aynan shunday metodni maofaviy ta'limda qo'llash uchun maxsus ta'lim platformasi "Kahoot"dan foydalanish katta samara beradi. Bu platforma butun dunyoda ta'lim jarayonini sifatli va qiziqarli tashkil etish maqsadida tashkil qilingan. O'qituvchining texnikaviy bilimi ayni vaziyatda juda qo'l keladi. Barcha o'quvchilar tarmoqqa ulangan holda zoom yoki google meeting kabi dasturlar orqali darsga kirishadi. O'qituvchi ekranga dars mavzusini "Kahoot"da tayyorlangan taqdimotini ekranga ulashadi. Dars mavzusini bilib olgan o'quvchiga endi "brainstorm" metodini qo'llaydi. Ekranda quyidagi savollar paydo bo'ladi:



O'quvchilar, "Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrarlar jangi" asari topshiriq qilib berilganda, asar haqida qanday fikrda edingiz? Qanday tasavvur qilgan edingiz? Asarning sarlavhasi sizda qanday fikrlar uyg'otgandi?

Bunda barcha o'quvchilarning asarni o'qishdan oldingi fikrlari, taassurotlarini qisqa muddatda ekranga namoyon bo'lishiga erishish mumkin. Tabiiyki, o'qituvchi kim darsga e'tibor qaratyapti, kim boshqa chalg'ituvchi o'yinlar bilan bandligini darrov payqaydi. Bu har bir o'quvchiga xushyor holda darsda ishtirok etish majburiyatini yuklaydi. Ushbu savollarga har bir o'quvchi yozma javob jo'natadi, bunga jami 3 minut vaqt ajratilishi maqsadga muvofiqdir. Vaqt tugaganidan so'ng barcha javoblar ekranda namoyon bo'ladi. Bu metodning qulayligi o'quvchining fikrlashini taqozo etishi bilan birga, bir vaqtning o'zida ularga tengdoshlarining taassurotlarini bilib olishga imkon yaratadi. An'anaviy ta'limda bu usul orqali vaqt sababidan ko'pchilik ta'lim oluvchilar jalb qilib olinmasa ham, masofaviy metodikada har bir o'quvchining fikrini bilish imkoniyati tug'iladi. Mahoratli o'qituvchi fikrlarni shunchaki o'zi tahlil qilmasdan, o'quvchilarning o'ziga o'qitadi, bu esa dars jarayonini yanayam qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Bu jarayonda o'quvchi tengdoshlarining

fikrini ham o'qish, ham tinglash imkoniyatiga ega bo'ladi va shu paytda tahlil qiladi. Bu fikrlash jarayonini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shundan so'ng ushbu metoddan obrazlarga xos bo'lgan xususiyatlarni tahlilga tortishda foydalanilsa o'rinlidir. Masalan:

Akbar qovunchining qanday yaxshi va yomon xislatlari bor?

Endi o'quvchilar uzun gaplar yozmasdan o'z javoblarini qisqalikda ifodalaydilar. Barcha yaxshi va yomon fazilatlar ekranda paydo bo'lgandan so'ng, o'quvchi nima uchun shunday xulosaga kelganligini isbotlashi kerak bo'ladi. Bunda asardan misollar keltiriladi, bunday holatda ba'zi bir xislatlar o'quvchilar orasida qizg'in muhokamaga sabab bo'ladi. Qaysidir o'quvchi ayni bir vaziyat uchun qahramonning yaxshi tomonini ko'ra olsa, ikkinchisi aksincha holatda bo'ladi. Mahoratli pedagog bunday bahslarda o'quvchilarni o'ta keskinlashuvini oldini olgan holda, o'z fikrlarini berib ketishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, ushbu metoddan foydalanish orqali darsning sifatida ijobiy o'zgarish yasay olish o'qituvchining mahorati va tajribasiga bog'liq. "Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrarlar jangi" romani muhokamasiga o'quvchilarni jalb etishda, ushbu bahsning qizg'in bo'lishida "brainstorm" metodi katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. Barkamol fayz media. . T.:2008.
2. Toipov O'. Q. Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Fan. .T.:2006.
3. To'xtaboyev X., "Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrarlar jangi" .T.:Yangi asr avlodi. 2006.

O'TKIR HOSHIMOV HIKOYALARINI O'RGANISH XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR

*Sanobar Nurbekova, JDPI magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) Parizod Turopova*

"Shunday asar yozsangki, kitobxon uni o'qiganida hamma narsani unutsa. Asar qahramonlari hayoti bilan yashasa. Quvonsa, iztirob cheksa... Kitobni o'qib bo'lgan kuni kechasi bilan uxlo olmay, to'lg'anib chiqsa... Vaqti kelib, o'sha kitobni yana qo'lga olganida qaytadan hayajonga tushsa... Undan yangi ma'nolar topsa... Orzum - shu..."¹²⁶.

¹²⁶ Ўткир Ҳошимов. Танланган асарлар. –Т., Шарқ, 2009. 2-б.

Darhaqiqat, O‘tkir Hoshimov o‘zi orzulaganidek yozuvchi edi. Chunki adibning kitoblari kirmagan xonadon, uning asarlarini o‘qimagan kitobxonni yurtimizda topish mushkul. Shuning uchun O‘tkir Hoshimov ijodini o‘rganish, uning yangicha qirralarini kashf etish masalalari yana ko‘p tadqiqotlar uchun asos bo‘lib kelaveradi. Aslida bu hikoyani inson ruhiyatining lirik inkishofi sifatida baholash mumkin. Ona timsoli har bir adib izlanishlariga alohida bir mehr, chinakam ehtirom orqali kirib keladi. Bu ehtirom muallifning o‘zidagi fazilatlar bilan tutashadi. O‘.Hoshimov ijodida ona obrazi bevosita muallif avtobiografiyasi bilan uyg‘unlashib ketadi. Bu holat, birinchidan, timsolning falsafiy jihatdan kengayishiga yordam bersa, ikkinchidan, xarakter ruhiyatining batafsil yoritilishiga zamin hozirlaydi.

Darsning boshida o‘qituvchi o‘quvchilarga buni bir eslatsa, adib va uning asari haqida bilganlarini gapirib berishlarini so‘rasa, o‘quvchilar o‘z fikrlarini o‘rtaga tashlashlari, ruhan bugungi hikoyadan ham o‘shanday lazzatni tuyishga tashnalikni his qilishlari tabiiy. O‘qituvchi o‘quvchilarni shu holatga tushirishi pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘qituvchi asarni o‘rganishga kirishishdan oldin o‘qituvchi uning dasturdagi talqini bilan tanishishi, asarga qanday yondashishi lozimligini qat‘iylashtirib olishi zarur. Bu talqin: “Asarda qiyinchilik inson ma’naviyatini sinovdan o‘tkazish vositasi ekanining ko‘rsatilganligi. Hikoyada urush yillarining haqqoniy tasvirlanganligi. Yo‘qchilik onani boladan, og‘ani inidan sovutganligining ta’sirchan ifodalanganligi. Asl odam har qanday sharoitda ham ma’naviy pokligicha qolishining tasvirlanganligi. Hikoyadagi Shoikrom, Shone‘mat, Xadicha va Umri xola obrazlariga xos xususiyatlarning yorqin aks etganligi” tarzida ifodalangan.

O‘qituvchi hikoya matnini o‘zi o‘qib berishi shart va o‘qish jarayonida Shoikromning holati ifodalangan o‘rinlarni, uning fikrlarini toliqqan ovoz bilan, onaning so‘zlarini yumshoq, Xadichaning ovozini qalbakiroq ohangda, muallifning so‘zlarini qat‘iyroq, Shone‘matning ovozini dardli, siniq tarzda ifodalay olishga erishishi asarning ta’sir kuchini oshirishi tayin. Shoikromning pushtalar orasida mukka tushib yotgan onasini ko‘rgandagi holati va qichqirig‘i o‘qish jarayonida tabiiy ifodalash uchun o‘qituvchi shu holatni to‘liq his qilishi, o‘zini shunga tayyorlashi lozim.

Shunda o‘quvchilarning matndan olgan taassurotlari, ko‘ngillarida paydo bo‘lgan iztirob, achinish singari hissiyotlar asar ustida ishlash jarayonida o‘zini to‘liq namoyon etadi. Ular tahlil mobaynida ruhiyatida paydo bo‘lgan tuyg‘ularni ham qo‘shib ifodalaydilar. Bu esa, o‘z navbatida, o‘z-o‘zini taftish qilish demakdir. O‘quvchilar o‘z kechinmalarini bir-biridan yashirmay, tortinmay, uyalmay ifodalashi ularda shaxslik sifatlarining shakllanishiga ijobiy ta’sir etadi.

Ovoz chiqarib o‘zgalar uchun o‘qilayotgan asarning ta’sir kuchini boshqalar ham to‘laligicha tuyishi uchun muallifning, o‘qiyotgan kishining tuyg‘ulari ovozida ifodalanishi kerak. Bu holatni sun‘iy ravishda yasab bo‘lmaydi.

Hikoya o‘qib bo‘lingach, o‘qituvchi bir oz tin olishi, tinglovchilarni kuzatishi lozim. Ular kanday holatdaligini, hikoya qahramonlari ruhiyati, kechmishi, dard-iztiroblari o‘quvchilarga qanday ta’sir etganligini aniqlab olgani ma’qul. Shundan so‘ng o‘quvchilar dilida paydo bo‘lgan turli hislarni ularning tiliga olib chiqish uchun bir kator savollarni o‘rtaga tashlash mumkin bo‘ladi. Masalan:

– ona obrazi O‘tkir Hoshimov ijodida alohida bir “qatlam”, alohida bir miqyos, alohida bir konseptual markaz ekanini ko‘rsatish;

– asarda, baʼzan, koʻzga koʻrinmas muallif obrazi shakllanishida tasvirlanayotgan ona siyomosiga munosabatdagi badiiy-falsafiy-milliy uygʻunlikning muhim oʻrin tutishini aniqlash;

– ona mohiyatiga koʻra ijobiygina emas, muqaddas ekanidan qatʼiy nazar, badiiy asarda u barcha qahramonlar kabi – individuum, alohida shaxs sifatida badiiy tasvirlanishini va shu tasvirdagi oʻziga xoslik, uslub, mahoratni ochish. Shunga koʻra, ona obrazi yaratilishida katta yutuqlar qatori jiddiy muvaffaqiyatsizlik ham boʻlishi mumkin;

– boshqa tipdagi qahramonlar qatori ona obrazi tasvirida ham muayyan xronotopga aloqador ravishdagi evrilish, tadrij, takomilni belgilash;

– uzoq boʻlmagan oʻtmishda ayrim gʻarb “olim”lari tomonidan: sharqda ayollar oyoq osti qilingan, degan fikrlarning gʻirt uydirma, noxolis boʻlganini Oʻtkir Hoshimov asarlarida tasvirlangan ona obrazining tahlili orqali tasdiqlash;

– inson fazilatlarini borasida idealning real asoslari hayotdagi aniq onalar qiyofasida tajassum topishini ochish.

Qahramonlar haqida oʻylash, mulohaza yuritish, ularning kundalik hayoti, kechinmalari, xatti-harakatlarini taftish qilish, baholash jarayonida oʻquvchilar ham aqlan, ham ruhan faollasha boradilar. Oʻquvchilarni koʻpdan beri dam olmagan, boshi tashvishlardan chiqmaydigan, yetishmovchiliklar iskanjasida qolgan kishi koʻziga aslida gʻarib va fayzsiz boʻlgan tirikchiligi nihoyatda xunuk koʻrinishi tabiiy ekanligini anglashga undash kerak: “Roʻzgʻor jihozlarining Shoikrom koʻziga bu qadar koʻrinishlari sabablari nimada deb oʻylaysiz? Hamma roʻzgʻorda boʻladigan uy anjomlari nima uchun Shoikromning koʻziga bunday koʻrinyapti? Gap roʻzgʻor buyumlaridami yoki Shoikromning kayfiyatidami?” Hikoya matnida buning sabablari tasvirlanmagan. Lekin matn zamiridan, asardagi har bir detal tasvirida fayzsizlik sabablari koʻrinib turibdi. Oʻquvchilar roʻzgʻorning bunday tarovatsizligiga Shoikromning xotini yoki uning oʻzini aybdor deb qarashlari yoki boshqa sabab bilan izohlashlari mumkin. Muhimi, ular hikoya personajlariga befarq boʻlmasalar, oʻzgalar tashvishini chekishga, birovlarning xatti-harakatlariga baho berishga urinsalar bas.

Tahlil ishtirokchilari hikoya kahramonining bezovta oʻylarga botganligi, uning ruhiy dunyosidagi notinchlik bilan tabiatdagi holatning: “Yarim kecha boʻlib qolgan, atrof jim-jit. Faqat olislarda it uliydi. Ayvon toʻsinidagi uzun mixga iligʻliq lampochka xira nur taratadi. Chiroq atrofida oʻralashgan chivinlar bir zum tinmaydi... Qayoqdandir shamol keldi. Hovli etagidagi yongʻoq shoxlari bir guvillab qoʻydi”, singari ichki bezovtalikning sabablarini toopishga urinishlari zarur. Shoikromning ruhiy dunyosidagi notinchlik bilan itning ulishi, shamolning kelishi va yongʻoq shoxlarining guvillashi orasida qanday aloqadorlik boʻlishi mumkin? Bu toʻrt bezovtalik tongda yuz berishi mumkin boʻlgan falokatning xabarchisimikin? Bu kabi savollar oʻquvchilarda tizimli tahlil koʻnikmalarini paydo qilishi bilan xarakterlidir.

Oʻquvchilar tahlil oʻrniga asar voqealarini qayta hikoyalashga kirishib ketmasligi kerak. Oʻqituvchi asarning tahlili matndan estetik taʼsirlanish, tahlil asosida insonni, uning ruhiy olamini teran his qilish – oʻzlikni oʻrganishga olib boruvchi ilmiy-pedagogik jarayon ekanini unutmasligi va buni oʻquvchilarga ham bildirib qoʻyishi foydadan xoli boʻlmaydi.

Eʼtibor qilinsa, hikoya boshdan-oyoq mahzun ohangda bitilgan. Chunki asarda tasvirlangan taqdir, shu taqdir namoyon boʻlgan voqealar roʻy bergan davr qaygʻusiga uyqash, urush davrining ohangi esa oʻq va yigʻi ovozigacha esh edi. Maʼlumki, oʻq ovozi ham, yigʻi tovushi ham shodlikni eslatmaydi, qaygʻuni, gʻamni yodga soladi, shularni keltirib chiqaradi. Ana shu hayotiy ohang hikoyaga koʻchgan. Ayni shu sifat uning taʼsir darajasini yanada oshirgan. Hikoyaning jiddiy tahlili oʻquvchilarni hayotning nechogʻlik murakkab

ekanligiga, odam va uning amallari har qanday holatda ham to‘g‘ri bo‘lavermasligi, u haqda fikr aytish, munosabat bildirish hamisha ham ososn kechavermasligigi imon keltirishga majbur qiladi. Asardagi Xadicha obrazining tabiatini baholash uchun o‘quvchilar uning beshikda yotgan bolasiga, eriga, qaynonasiga munosabati, ro‘zg‘or tutumi haqida fikr bildirishlari lozim bo‘ladi. O‘shanda ham jizzaki, ayni vaqtda eri va farzandlariga mehribon, tinib-tinchimas, ammo baxti qaro bu ayolning yaxshi yoki yomonligi to‘g‘risida ham qat’iy xulosa aytish mushkul. Og‘ir turmush, yo‘qchilik har bir odam uchun sinov, ba’zilar uchun esa, to‘qchilik va farovonlik ham o‘ziga xos bir sinov.

Xadichaning shaxsini ochuvchi jihatlarning har biri savol-topshiriqqa aylantirilsa, uning fe‘l-atvori o‘quvchilar tomonidan ochilib, xatti-harakatlari, muomalasidagi yaxshilik va yomonlik sabablari anglashiladi.

Umuman, o‘zbek xalqiga mansub ona siymosining badiiy adabiyotda tasvirlanishini, bu tasvirdagi o‘ziga xosliklarni o‘rganish, bu obrazni badiiy yoritishdagi yozuvchi uslubi va mahoratini tahlil etish – bir jihatdan, xarakter yaratilishiga ko‘ra badiiy adabiyotimizning milliy fazilatlarini ochishda va ikkinchi jihatdan, o‘zbek xalqidagi milliylikni ko‘rsatishda o‘ziga xos ahamiyatga egadir. Mazkur darsda ona siymosiga uning ijtimoiy, yoxud tarbiyaviy mohiyatigina emas, balki, asosan, badiiy asarda obraz sifatida yaratilishini o‘rganish nuqtai nazaridan yondashiladi.

ULUG‘BEK HAMDAM HIKOYALARI TAHLILIGA YANGICHA YONDASHUV

*Umarova Shahnoza, JDPI magistiranti
Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) Parizod Turopova*

Adabiyotimiz tarixini kuzatadigan bo‘lsak, o‘tgan asrda Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon, Oybek kabi iste‘dod sohiblari ham shoir, ham nosir, ham dramaturg, ham tarjimon sifatida o‘zlarining adabiy shaxsiyatlarini namoyon etishgan. Bugun biz bilan hamnafas yashayotgan Ulug‘bek Hamdamov ham olim, shoir, romannavis, hikoyanavis, tarjimon sifatida adabiy jamoatchilikka yaxshi ma‘lum. Haqiqatan ham u Fitrat, Cho‘lpon, Oybek kabi yetuk ziyolilarimizning munosib izdoshi.

Ulug‘bek Hamdam asarlarini mutolaa qilgan o‘quvchi o‘zbek adabiyotida shakl va ma‘nodagi yangilanishlardan yaxshi xabardor bo‘ladi. Chunki uning asarlarida hozirgi nasrimizda kechayotgan tub o‘zgarishlarning barcha qirralari o‘z aksini topgan. “Ulug‘bek Hamdam asar shakli va ma‘nosini o‘z ichidan izlab topadi. Uning yozganlarini o‘qiyotganda jahonga mashhur qaysidir yozuvchining qandaydir asari yodingizga tushmaydi. Asar yaratish uslubi, ramzlari, iztirob va ruhiy izlanishlari o‘zinikidir”¹²⁷.

“Uzoqdagi Dilnura” kitobiga oltita hikoya kiritilgan. Hikoyalarni uslub jihatidan ikkiga ajratish mumkin: an‘anaviy realistik uslubdagi hikoyalar (“Uzoqdagi Dilnura”, “Yaxshi odamlar”) va noan‘anaviy modernistik uslubdagi hikoyalar (“Tosh”, “Lola”, “Qaytish”, “Otash”)

“Uzoqdagi Dilnura”da boshqa hikoyalardan farqli ravishda yozuvchi qahramon ruhiyatini ochishda dialogdan unumli foydalangan. Hikoya qahramoni Kozim olis qishloqdan

¹²⁷ Rahmat R. “Vatan haqida qo‘shiq” ni tinglab...// Kitob dunyosi gazetasi N 16 (187) 2014-yil 27-avgust 7-bet

shaharga kelib, o‘z mavqeini tiklab olgan tadbirkor, uchar yigitlardan hisoblanadi. Ulug‘bek Hamdamning barcha nasriy asarlarida ma‘lum ma‘noda avtobiografik detallar yetakchilik qiladi, Yozuvchining shaxsiy hayotiy tajribalari, qarindosh-urug‘lari, do‘stlari hayoti va qismatiga doir real voqealar birinchidan, adibga badiiy asar uchun xom-ashyo vazifasini o‘tasa, ikkinchidan, betakror va original taqdir egalari, ruhiyat talqinlarini kashf etishga imkon bergan. Xususan, “Uzoqdagi Dilnura” hikoyasi qahramoni Yunus amaki obrazi yozuvchining tog‘asi. Demak, bu obrazning hayotiy prototipi mavjud. Adibning tog‘asi bilan bog‘liq bolalik xotiralari badiiy to‘qima haqiqatga aylantirilgan. Hikoyada Kozim hayoti misolida juda muhim ijtimoiy, ma‘naviy-axloqiy muammolar o‘rtaga tashlangan.

U.Hamdam inson ruhiyatining sirli, ko‘p qirrali, keng olamini badiiy talqin etishda ham realizm, ham modernizm uslubi an‘analaridan unumli foydalanib, turfa dunyoqarashga ega zamondoshlarimizning ichki ruhiy dunyosini kashf etadi. Yozuvchi jamiyatimizdagi turfa xil saviyadagi ijtimoiy qatlamlarni juda yaqindan bilishi hikoyada yorqin sezilib turibdi.

Adib asarlarida qahramon ruhiyatini ochishda, asosan, qarama-qarshi tuyg‘ular kolliziyasi yetakchilik qiladi. Natijada ruhiy tasvirda har tomonlama ishonarli, yorqin obrazlar va xarakterlar yaratilgan¹²⁸.

Yozuvchining “Qaytish” hikoyasi ommabop, biroz yengil planda yozilgan “Uzoqdagi Dilnura” hikoyasidan tubdan farq etadi. Chunki “Uzoqdagi Dilnura”da muayyan voqealar, qahramonlar, shuningdek, dialog singari badiiy tasviriy vositalar yetakchilik qilgan bo‘lsa, “Qaytish” hikoyasi avtor bayoni va qahramonning ichki monologi asosiga qurilgan. Hatto qahramonning ismi ham noma‘lum, shunchaki “U” deyiladi. Hikoyaga xos tasvir uslubi “Yolg‘izlik” qissasini esga soladi. “Yolg‘izlik”dagi o‘zini-o‘zi taftish etish ohangi mazkur hikoyaga ham birdek tegishli. Asar qahramoni qirq yil xizmat qilgan ishxonasidan ketadi. Ma‘lumki, inson jamiyatda sevgan kasbi, kundalik faoliyati, oilasi, do‘stlari bilan tirik. Shu tariqa uning hayoti ma‘lum ma‘noda mazmun kasb etadi. “Qaytish” hikoyasi qahramoni oltmish yoshdan oshgan erkak. Xotini vafot etgan, bolachaqasi o‘z-o‘zi bilan ovora bo‘lib ketgan. Ko‘rinadiki, Yozuvchi “nima sababdan ishdan ketishi” ahamiyatsiz bo‘lgan yolg‘iz erkak ruhiyatini tahlil etadi. Yanada aniqrog‘i qirq yil davomida uyoq-buyog‘iga qaramasdan, bosh ko‘tarmasdan ishlagan erkakning ruhiyatini ochib beradi. Albatta, qirq yil davomida inson hech narsani his qilmasdan mehnat qilishi bo‘rttirilgan bo‘lsa-da, bunday tasvirda Yozuvchining aniq badiiy niyati, maqsadi borligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yozuvchi hikoyani “Qaytish” deb nomlar ekan, mazkur so‘zda ham qahramon ruhiyatiga daxldor ramziy-majoziy ma‘no aks etgan. Ya‘ni “U” qirq yillik xizmatdan so‘ng, o‘z ko‘ngli bilan yolg‘iz qoladi. U qachonlardir quyosh taftini, gullar iforini, qushlar chug‘ur-chug‘urini his etar edi. “U” qirq yillik mashaqqatli mehnat faoliyati davomida his etishdan mahrum bo‘lgan. Uzoq vaqtdan so‘ng “ishdan ketgan erkak” hissizlik olamidani yana insoniy hislarni qalbida tuya bilish holatiga qaytadi. Yig‘lash, kulish, nafratlanish, zavq olish bular insonga xos bo‘lgan insoniy xislatlar. Shu ma‘noda, hikoya “Qaytish” deb nomlanadi. Ko‘rinib turibdiki, mazkur hikoyada bugungi shiddatkor va tezkor zamonning fojeasi, ishga ko‘milib qolgan zamondoshimizning ma‘naviy tragik holati talqin egilgan. “Otash” hikoyasida qalamga olingan qahramon taqdiri va uning hayoti bilan bog‘liq voqealar “Qaytish” va “Uzoqdagi Dilnura” asarlaridan ham mutlaqo o‘zgacha. Hikoyada bir qator badiiy tasvirlar, jumladan, tush, peyzaj, qahramon tomonidan chizilgan suratlar, telefon kabi barcha detallar yaxlit holda

¹²⁸ Қўчқорова М. Бадий сўз ва рухият манзаралари. Тошкент. Мухаррир. 2011. Б.-162

birlashib, asar kahramoni Otash (Otabek)ning ruhiy dunyosini kashf etishga qaratilganini his etish mumkin. Otash sevgida omadsizlikka uchragan baxtsiz erkak timsoli. Yana asarda muvaffaqiyatli chiqqan o‘rinlardan biri surat bilan bog‘liq tasvirlar deyish mumkin. Otash umri davomida rassom bo‘lib, ikki xil surat chizadi, bittasi daraxt, ikkinchisi sevgilisi Soliyaning surati. U shu darajada ko‘p suratlar chizadiki, uning to‘rt fasldagi barcha ko‘rgshishlari ijodida barq uradi. Bora-bora rassom yigit chizgan daraxtlarda sevgilisining qiyofasi o‘zi sezmaganda holda chizilaveradi. “Yolg‘izlik” esse-qissasida daraxt va daraxtzor tasviriga ko‘p o‘rinlar ajratilgan, jumladan: “Tashqariga ko‘z soldim — daraxtzor. U ham o‘z harakatiga munosib ravishda yoqimli shovullardi”¹²⁹. “Otash”da daraxt obrazi yanada badiiylashtiriladi: “Sirasi, u daraxtni turli ko‘rinishlarda chizgan edi: hamma fasllardagi, hamma ko‘rinishlardagi daraxt rasmlarini solgandi. Nazarida, daraxt inson ko‘nglidagi keraksiz ho-yu havaslarni tashqariga quvib haydardi. Dunyoning o‘tkinchiligi va umrining omonatligi to‘g‘risidagi eng go‘zal, eng ta‘sirli qo‘shiq daraxtga tegishli edi. Shoxlarida xoh yaproq bo‘lsin, xoh bo‘lmasin, qat‘iy nazar, tinglay bilgich –qalb qulog‘i ochiq odamlar uchun daraxtlar hamma vaqt — qishinyozin hikmat aytadilar, ha...”¹³⁰.

Umuman, daraxt obrazi U.Hamdami ijodida juda ko‘p bora murojaat qilingan ramziy obraz. Daraxt va daraxtzor Yozuvchiga ilhom beruvchi tabiat manzarasi sanaladi. Xullas, “Otash” hikoyasida muhabbat bilan nafrat o‘rtasidagi bir qadam yo‘l Otabek hayoti misolida ishonarli ko‘rsatib berilgan.

HOZIRGI O‘ZBEK LIRIKASIDA HAJVIY OBRAZ (ERKIN VOHIDOV IJODI MISOLIDA)

Sherzod Rahmataliyev, JDPI magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.d. (PhD) M.Jo‘rayev

Ozod Sharafiddinov Erkin Vohidov hajviyotini tadqiq etar ekan, shunday yozadi: “... Erkin she‘rlarida yumorning ko‘lami ham, vazifasi ham ancha o‘zgargan. Agar avvalgi she‘rlarida yumor ko‘proq tasvirni bezovchi poetik detal vazifasini o‘tagan bo‘lsa, yoki shoirona lutf oqibatida tug‘ilgan go‘zal so‘z o‘yini bo‘lgan bo‘lsa, bugun u Erkin she‘rlarida voqelikni badiiy ifodalashning asosiy vositalaridan biri bo‘lib qolgan. Ko‘pgina she‘rlarida Erkinning voqelikka munosabati zamirida yumor yotadi.”¹³¹

Erkin Vohidov yaratgan “Donishqishloq latifalari” va bu turkumning bosh qahramoni Matmusa misolida she‘riyat muxlislari yana bir bor badiiy ijodda baribir mahorat birlamchi ekanligiga ishonch hosil qiladilar. Erkin Vohidov o‘zidagi mahorat kuchi bilan uncha-muncha nigohlar ilg‘amaydigan komik vaziyatlarni kashf etadi, uni mohirona hajviy yo‘sinda talqin etadi, kuldiradi va o‘ylatadi. Shoir hajviyotining gulto‘ji bo‘lmish “Donishqishloq latifalari”ni o‘qimagan, undan yod olib davralarda odamlarga xursandchilik ulashish uchun aytib yurmagan insonlar bo‘lmasa kerak.


¹²⁹ Хамдам У. Ёлғизлик. / Узоқдаги Дилнура. Т: Академнашр, 2010. - Б. 10

¹³⁰ Хамдам У. Оташ. / Узоқдаги Дилнура. Т: Академнашр, 2010. - Б. 136

¹³¹ Sharafiddinov Ozod. Izlanish yo‘llarida. Erkin Vohidov saboqlari – Т.:O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. 2016, 68-b.

Bugungi kunda millatdoshlarimizning har biri Matmusaning ajib hangomalaridan xabardor. Donishqishloqliklarning ajabtovur fe'l-atvorlari barchani qoyil qoldiradi. Qishloqning nomi ham ahliga mos-Donishlar qishlog'i. Ular atrof-olamni o'zlaricha qabul qiladilar. Mushohadalari-yu mulohazalari, xulosalari-yu to'xtamlari ham boshqalarnikidan farq qiladi.

“Donishqishloq latifalari” turkumiga bir-biridan alohida, bir-biriga bog'lanmaydigan o'nta she'riy hangoma kirgan. Demak, bu turkum uchun yaxlit sujet yo'q. Ammo bu o'nta alohida hangomani bir-biriga bog'lab turuvchi obraz borki, bu Matmusa va donishqishloqliklardir. O'nta hangomaning asosiy qahramoni esa Matmusa hisoblanadi.



Ko'rib turganimizdek, Matmusa hangomalarimizning sarlavhasiga ko'tarilgan.

“Donishqishloq latifalari” turkumi “Matmusaning qishlog'i” latifasi bilan boshlanadi. Donishqishloqliklar va Donishqishloq ta'rifi beriladi: ularning biri poyezdga chiqayotib, kovushini perronga yechib ketadi, biri soqolli echkisini sartaroshga olib boradi, biri agar temir yo'l tikka qilinsa, oyga bemalol chiqish mumkinligini aytsa, boshqa biri minoralarni “teskari turib qolgan quduqlar-ku”, deydi. Muallif “Bu donishqishloqliklar qiziq xalq ekan-ku, ularni qanday uchratsa bo'ladi?” degan savolga shunday javob qaytaradi:

Donishqishloq qayerda?
 O'zimizning tomonda.
 O'sha qishloq ahlidek,
 Dono xalq yo'q jahonda.
 Aql ko'plik qilsa, bosh
 Yoriladi, deb halak.
 Boshlariga donishlar
 Kiyib yurar chambarak.
 Sodda demang ularni,
 Ular sodda bo'lmaydi.
 Kuldirsa ham sizlarni,
 O'zlari hech kulmaydi.¹³²

¹³²Vohidov Erkin. Saylanma. 2jildlik: 2-jild. Sadoqatnoma. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1986, 195-bet (Ushbu nashrdan olinadigan ko'chirmalar bundan keyin sahifa ichida ko'rsatiladi).

Aqlimiz ko‘pligidan boshimiz u yoqqa, bu yoqqa og‘ib ketadi, deb chamberak taqib yuradigan bu ahli donishlar o‘ta jiddiy. Ularni sodda deb ham bo‘lmaydi. Birovlarni rosa kuldirishlari mumkin, lekin o‘zlari sira kulmaydi. Axir, aqlli, donishmand odamlar jiddiy bo‘lishlari kerak-da.

Xullas, shoir asarining lirik qahramoni shu Donishqishloqdan chiqqan Matmusa. Uni biz asar davomida birinchi marotaba qalpoq olganda uchratamiz. Latifa boshlanib, Matmusa qalpoq oldi. Qalpoqmisan qalpoq! Uni kiygan Matmusa ham chaqmoqdek yigit bo‘ldi. To‘g‘rida, chiroyli, bejirim qalpoq kimlarga yarashmaydi, deysiz. Matmusaga qo‘shilib, o‘quvchi ham xursand bo‘ladi. Lekin, eng qizig‘i endi boshlanadi. Bunday savlatli, bunday ko‘rkam qalpoqni indamay kiyib ketaverish-koni gunoh. Qalpoqni albatta yuvish kerak.

Xullas:

Kirdilar, o‘tirdilar,
Buyurdilar aroqni.
Dono Matmusa uchun,
Ichdilar bosh qadahni.
Qalpoqqa teri bergan,
Suvsar uchun ichdilar.
Shunday qalpoqni sotgan,
Ovsar uchun ichdilar.
Eslanmagan qishloqning,
Itigacha qolmadi.
Maqtalmagan qalpoqning,
Ipigacha qolmadi.[196-bet]

Aroq bo‘lsa bo‘ldi, uni ichish uchun hamma vaqt sabab topiladi. Sabab bepul, garchi aroq pulli bo‘lsa-da. Tekin narsa esa hamma vaqt serob, ko‘p. Xo‘sh, natija nima bilan tugadi?

Ko‘p ichdilar o‘ylamay,
Hisob-kitob qilmoqni.
Oxirida pul yetmay,
Topshirdilar qalpoqni.[196-bet]

“Matmusaning lagani” hangomasi asli sujet jihatidan Afandi latifalarini eslatadi. Afandining xotini kichkina qizchasini bag‘riga bosib yig‘layveribdi. Afandi xotinidan yig‘lashi sababini so‘rasa, xotini “mana shu qizimiz katta bo‘lsa, turmushga bersak, bolasi bo‘lsa, biznikiga mehmonga kelsa, bolasi o‘ynab borib, anavi hovuzga tushib ketsa nima bo‘ladi, deb yig‘layapman”, degan ekan.

Latifada Afandi xotining bashoratchiligidan, podadan oldin chang chiqarishidan kulinsa, “Matmusaning lagani” da ham shunday bir holat qalamga olinadi. Bunda: Matmusa shaharga tushganda lagan sotib oladi. Laganni uyiga olib ketaturib, birdan kallasiga “dono” fikr kelib qoladi. Axir, u donishqishloqdan-ku!

Bu laganni ko‘tarib,
Olib borsam qishloqqa.
Xotin uni albatta,
Idish qilar pishloqqa.
Tiyib bo‘lmas hech qachon,
Bola-chaqa deganni.
Ular pishloq talashib,

Sindirishar laganni.
Shunda izlab chegachi,
Men notavon bechora.
Qayta kelib shaharga,
Bo‘ladirman ovvora. [197-bet]

Matmusa anoyilardan emas. Hozir u shaharda, qo‘lida lagan, imkoni bo‘lsa bor. Ertangi kunda lagan sinib qolsa, yana o‘shandan shu yoqqa lagan chegalatib ketish uchun kelib o‘tiradigan ahmoq yo‘q. Ishni bir yo‘la pishiq-puxta bajarish kerak.

Mashoyixlar gapi bor:
Ish ko‘zini bil, degan.
Har yumushda ertaning,
Hisobini qil, degan.
Nima qilsam ekan deb,
Bir dam o‘yga toldi u.
So‘ng laganni sindirib,
Chegalatib oldi u. [197-b]

Bunday topqirlikni donishqishloqliklar qanday qabul qildilar? Matmusaning chegalangan laganini ular qanday tushundilar:

Shunday qilib, uyiga
Qaytdi og‘zi quloqda.
Hamma uning aqliga,
Qoyil qoldi qishloqda. [197-b]

Donishqishloqliklar ham xursandlar, axir Matmusadek bilag‘on, tadbirkor, uzoqni ko‘ra biladigan, kelajakni oldindan bashorat qilib, shunga yarasha taraddud ko‘radigan yigit ularning qishloqdoshi-da.

Shu o‘rinda “Matmusa - rassom” hajvijasini tahlil etaylik. Hajviyada aytilishicha, Matmusalar qishlog‘iga ko‘chma muzey kelibdi. Matmusa ham san‘at ixlosmandi emasmi?! Darrov muzeyga tashrif buyuribdi.

Umuman olganda, to Matmusaga qadar ham badiiy adabiyotda, xususan, o‘zbek adabiyotida chalasavod, adabiyot va san‘at sohasining mutlaqo tasodifiy vakillari obrazi yaratilgan (Boqijon Baqoyev. “Adabiyot muallimi”, San‘atkor. “San‘atkor”) va ular ham pishiq yaratilgan xarakterlar sifatida o‘quvchi esida qolgan. Abdulla Qahhor yaratgan tiplar: Boqijon Baqoyevni ham, San‘atkorni ham jamiyat, muhit inkor etib turibdi (Boqijon Baqoyevni qaynsinglisi, San‘atkorning xizmatkori). Matmusaning bulardan farqli jihati shundaki, uning xatti-harakatini hech kim inkor etmaydi. Matmusaga o‘xshaganlarni qabul qiladigan, bag‘ridan joy bergan Donishqishloq bor. Hattoki, London, Parij muzeylari ham Matmusalarni targ‘ib qilish bilan ovora.

ADABIYOT O'QITISH SAMARADORLIGIGA ERISHISHDA FANLARARO INTEGRATSIYANING AHAMIYATI

Mahmado'stov Abdulla, ToshDO'AU magistranti

Ilm-u fan taraqqiyoti ko'z ilg'amas darajada tezlashgan davrda fanlararo integratsiya uzluksiz ta'limni yo'lga qo'yishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Integratsiya atamasi lotincha *integratio* so'zidan olingan bo'lib qo'shilish, birlashish ma'nolarini anglatadi. Ma'lumotlarni integratsiyalashning mohiyati har xil manbalarda mavjud bo'lgan materiallarni ma'lum maqsad asosida birlashtirib taqdim etishni nazarda tutadi.

Integratsiya jarayonida o'quvchilar tahsil olayotgan o'quv yili mobaynida barcha fanlardan beriladigan bilimlarning aloqadorligi, ahamiyati muhim rol o'ynaydi. Masalan, tarix darsligida o'rganilgan ma'lumot, tarixiy shaxs yoki tarixiy jarayonni tasvirlagan badiiy adabiyot namunasi bo'lmish asarlar ham ushbu sinf adabiyot darsligida beriladi va bu o'quvchilarning diqqatli bo'lishiga, hamma fanlarning ahamiyatiga e'tibor qaratib, barcha fanlarni muntazam o'rganishiga turtki bo'ladi.

Integrativ ta'limni tashkil etishda bir qancha yondashuvlardan foydalanish mumkin. Bulardan eng samaradori yangi mavzuni boshlashdan oldin o'quvchilarning boshqa fanda olgan bilimlarini takrorlash uchun bir nechta qisqa savollar berish va o'sha savollar orqali yangi mavzuga qisqacha ishora berish. Bunday metodlarni ingliz tilida "Brainstorming", "Warm-up questions", "Mind map" kabi bir nechta nomlari bor. Integrativ ta'lim va fanlararo aloqa bir-birini to'ldiradigan ikki xil tushuncha hisoblanadi. Fanlararo aloqada o'quvchining ma'lum bilimlarni o'zlashtirish jarayonida u yoki bu muammoni imkon qadar chuqur anglash hamda olingan bilimlarni amaliyotga samarali joriy etishiga imkon berish maqsadida o'quv fanlari orasida o'rnatiladigan aloqa nazarda tutiladi. Integratsiya esa fanlararo aloqaga, ya'ni umuman fanlar, o'quv fanlari, ularning bo'lim va mavzulari bo'yicha olingan bilimlarga tayanilgan holda o'rganilgan masalaga xos bo'lgan yetakchi g'oyalar hamda hodisalarning izchil, har jihatdan chuqur hamda serqirra ochilishi demakdir.

Kelajakda adabiyot o'qitish ishi bilan shug'ullanadigan talabalarning adabiy ta'lim bo'yicha olgan bilimlari o'qitish amaliyotida ona tili, adabiyotshunoslik, tarix, pedagogika, san'atshunoslik fanlari bo'yicha bilimlari bilan bevosita, ruhshunoslik, tabiatshunoslik, biologiya va boshqa bir qator fanlar bilan esa bilvosita integratsiyalashadi.

Masalan, 6-sinf «Adabiyot» darsligidan o'rin olgan asarlar haqida to'xtaladigan bo'lsak, quyidagi asarlar orqali adabiyot fani qaysi fanlar bilan tom ma'noda birlasha olishini bilishingiz mumkin. Janni Rodarining «Hurishni eplolmagan kuchukcha» hikoyasini o'rganishda zoologiya; Abdulla Qahhorning «Bemor», Odil Yoqubovning «Muzqaymoq» hikoyalari, Erkin Vohidovning «Nido»

Dostonlarini o'rganishda tarix; Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari, Chingiz Aytmatovning «Oq kema» qissasi singari adabiy materiallarning mohiyatiga kirishda zoologiya fanlararo aloqadorlikka tayanish, ya'ni shu o'quv fanlarini o'rganish jarayonida o'zlashtirilgan bilimlarni integratsiyalagan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiy ta'limni tashkil etishda o'qituvchi va o'quvchilarning boshqa o'quv fanlarini o'zlashtirish davomida olgan bilimlari ham ma'lum darajada asqotadi. Bunday integratsiya o'quvchini o'quv yili davomida barcha fanlarni yaxshi

o‘zlashtirishga undaydi va tom ma’noda adabiyot fani darslarini ham samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://dic.academic.ru/>
2. 6-sinf Adabiyot darsligi Toshkent
3. Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Barkamol fayz media, 2018, 28-29 b.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM TIZIMIDA ONA TILI TA’LIMIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI O‘QITISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Sobirova Mohilaroyim Adham qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
universiteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
1-kurs magistranti

Dunyoda mavjud tillarning xilma-xilligi sababli, borliqdagi tushunchalarni shu til egalari tomonidan turlicha tasavvur qilinishiga olib keladi. Jamiyatda turmush tarzining, ijtimoiy qadriyatlarining madaniy kommunikatsiyaga asoslanganligi tillarni lingvokulturologik jihatdan o‘rganishning dolzarbligini ta’minlaydi. Ma’lum bir tilni ona tili sifatida o‘qitishning ilmiy asoslarini dunyo ta’lim standartlariga hamda tajribalariga tayanib, tilning o‘z ichki imkoniyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqish zarur. Bu jarayonda til bilan bir qatorda madaniyat ham o‘rganish obyekti bo‘lishi kerak

Ayniqsa, uning “turli tillar, o‘z xususiyatlari, fikrlash va his-tuyg‘uga ta’siriga ko‘ra amalda turlicha dunyoqarashni ifodalaydi”, “tilning o‘ziga xos xususiyatlari millatning o‘zligiga ta’sir qiladi, shuning uchun tilni chuqur o‘rganish tarix va falsafa insonning ichki dunyosi bilan bog‘lab tushuntiradigan barcha narsani qamrab olishi kerak” kabi fikrlari keng tarqalgan [4;223].

Tilni birinchi til yoki ikkinchi til sifatida o‘qitishda millat madaniyati ham hisobga olinishi zarur. Ma’lum bir millatga xos o‘ziga xosliklar, an’ana va qadriyatlar, ayniqsa, tilshunoslikning leksikologiya bo‘limida yaqqol namoyon bo‘ladi. Inson tug‘ilgandan boshlab, atrofini o‘rab turgan muhitni ona tilida anglay boshlaydi va bu tilni ongida odamlar bilan o‘zaro muloqot jarayoni orqali boyitib, rivojlantirib boradi. Bola nutqi, ko‘pincha, bir tomonlama rivojlanib borayotganligi uchun borliqni qanday bo‘lsa, shundayligicha tushunib, so‘zlarni ham faqat o‘zi anglatgan ma’nosinigina idrok etib boradi. Vaholanki, uning ongida so‘zlarning o‘zi anglatgan ma’nodan tashqari, ko‘chma ma’noda ham qo‘llanilishi mumkinligi, turli ma’no nozikliklariga ega ekanligi haqida axborot shakllanmagan bo‘ladi. Ona tilida gapirishda tajriba orttirib borgan sari undagi kamchiliklar kamaya boshlaydi.

Lingvokulturologik birliklar (muqobilsiz leksika va lakunalar, mifologiyalashtirilgan til birliklari, tilning paremiologik fondi, tilning frazeologik fondi va boshqalar), ya’ni lingvokulturemalar so‘z va leksemalardan farqli ravishda ikki ma’no qatlamiga ega hisoblanadi: lisoniy ma’no hamda uning madaniy mazmuni. Aynan shu jihat umumiy o‘rta ta’lim tizimida ona tili o‘qitishda lingvokulturologik yondashuvning e’tiborga molikligini ko‘rsatadi.. Xususan, tilshunoslikning leksikologiya bo‘limida frazeologik birliklarni o‘qitish

nafaqat o'quvchilar nutqini o'stiruvchi vosita, balki ularni xalq madaniyatiga yaqindan tanishtiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Lingvokulturologiyaning asosiy vazifalaridan biri biror tilga mansub xalq madaniyatining lisoniy imkoniyatlarini ko'rsatishdir.

Tilning frazeologik fondi xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma'lumotlar manbai sanaladi. Frazeologizmlarda muayyan xalqning miflari, udumlari, rivoyatlari, taomillari, urf-odatlar, ma'naviyati, axloqi va boshqalar haqidagi tasavvurlar mujassamlashgan bo'ladi.

Mashhur rus tilshunosi B.A. Larinning ta'kidlashicha, "frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o'z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi". [7;90-91]

Ona tili darsliklarida frazeologik birliklarni o'qitishda bir nechta zamonaviy til o'qitish usullari va yondashuvlaridan amaliy tarzda foydalanish mumkin. Ularga tabiiy yondashuv, kognitiv kod yondashuvi, kommunikativ yondashuv kabilarni misol qilib keltirsak bo'ladi.

Quyida ona tili darsliklarida iboralarni o'qitishda samarali bo'lishi mumkin bo'lgan bir nechta usullar bilan tanishib chiqamiz:

1. Behaviorizm nazariyasiga asoslangan barchamiz uchun tanish bo'lgan audio-lingual usul. Bu metoddan foydalanish jarayonida o'quvchilar kontekst orqali frazeologik birliklarni tushunadilar. O'rganilgan birliklarni og'zaki nutqda to'g'ri talaffuz qilishlari uchun ular ishtirokida jumlar tuzadilar. Bunda o'quvchilar to'g'ridan to'g'ri kontekst orqali yangi lug'aviy birliklar bilan tanishadilar.

2. Kognitiv kod yondashuvi. Bunda o'quvchilar dastlab misol bilan tanishadilar va bu orqali grammatik qoidani ongida ishlab chiqadilar. Masalan, frazeologik birliklar haqida qisqacha ma'lumot keltirilib, o'quvchilarga ushbu birliklar qatnashgan biror matn berilishi mumkin.

3. Jismoniy harakatlar orqali tushunish usuli. Ushbu usulda o'quvchilar o'rganilishi kerak bo'lgan mavzuni jismoniy misollar orqali o'zlashtiradilar. Misol uchun *tepa sochi tikka bo'ldi, tarvuzi qo'ltig'idan tushdi, og'zi qulog'iga yetdi, tomdan tarasha tushganday* va boshqalarni keltirsak bo'ladi.

4. O'quvchilarga frazeologik birliklarni matnda qanday kelishini o'rgatish tabiiy yondashuv bo'lishi mumkin. Bu birliklar kontekstda berilganda o'zining murakkabligini yo'qotadi va tushunilishi osonlashadi, shuningdek, o'quvchi ongida yangi tushuncha paydo bo'lib, uni nutqiy vaziyatda qay holda qo'llay olish ko'nikmasi shakllanadi.

Yuqoridagi o'qitish usullari dars jarayonida bir-birini to'ldiradi va ularni bir dars davomida qo'llash mumkin. Albatta, maqsad o'quvchiga frazeologik birliklarni o'z nutqida qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish. Dars jarayonida lingvistik bilim berishni yanada samaraliroq qilishda yana boshqa usullardan ham foydalanish mumkin.

Tildagi madaniy belgilarni o'rganish tilshunoslikning shu bugunga qadar erishgan yutuqli samarasidir. Lingvokulturologiyaga qiziqishning ortib borayotganligi fanning kelajagini belgilaydi. Shu bilan birga, fanning nazariy-metodik asosi endi shakllanmoqda. Frazeologizmlar va paremiyalar tilda madaniy belgilarni aks ettiruvchi asosiy birliklar sifatda tadqiq qilinmoqda [4;225].

Tilni ikkinchi til sifatida o'qitishda yuqoridagi usullardan foydalangan holda, keltirilgan frazeologik birliklarning o'quvchilarning o'z ona tilida muqobili bor yoki yo'q ekanligi aniqlanib, ular o'rtasidagi o'zaro o'xshash va farqli jihatlar taqqoslansa, bundan tashqari, bir-biriga o'xshash frazemalarning har ikkala tilda qo'llanilish vaziyatiga ko'ra vazifasi aniqlansa, dars jarayonini yanada tushunarliroq tashkil etilishiga yordam beradi. Chunki ikkinchi til ona tiliga yaqinroq bo'ladi [1;363]. Shu bilan birgalikda, taqqoslanayotgan

tillarning ichki imkoniyatlari, lisoniy boyligi va eng muhimi, bir madaniyatning ikkinchi madaniyat bilan yaqindan madaniy muloqot oʻrnatilishiga yoʻl ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.Jalolov. Chet tili oʻqitish metodikasi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2012. –363-b.
2. L.E.Holmuradova. lingvokulturologiya yangi filologiya fanining muhim qismi sifatida. // Oʻzbekistonda xorijiy tillar ilmiy-metodik electron jurnal, –№3, 2018. 52-57-b.
3. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. – Moskva, 2001.
4. N.Z.Shayxislamov. Lingvokulturologiyaning fanlar sistemasidagi maqomi va uning etnolingvistika, sotsiolingvistika va etnopsixolingvistika bilan bogʻliqligi. Academic research in educational sciences. - №2, 2020. 221-231-b.
5. Qosimova K., Matchonov S., Gʻulomova X. va boshqalar. Ona tili oʻqitish metodikasi. – Toshkent: Nosir, 2009.
6. Shayxislamov N. Ona tili fanini oʻqitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. // Oʻzbekistonda ilm-fan va taʼlim masalalari: muammo va yechimlar. 2020.(3), 71-73-b.
7. Sh. Usmanova. Lingvokulturologiya.Toshkent. 2019. 90-91- betlar.

MUNDARIJA

1	KIRISH SO‘ZI	3
2	OZOD SHARAFIDDINOV, O‘ZBEKISTON QAHRAMONI SO‘NGGI JADID QISSASI (<i>Begali Qosimov</i>)	5
3	<i>D.Quronov</i> JADID ADABIYOTI NAMUNALARINING QAYTA NASHRLARI MASALASIGA DOIR.....	6
4	<i>U.Qosimov</i> JADID ADABIYOTIDA VATANPARVARLIK VA MILLATPARVARLIK G‘OYALARI.....	9
5	<i>I.Yoqubov</i> HIKOYA – IJTIMOYIY-TARIXIY DAVR TALABI VA IJODIY ZARURAT MAHSULI.....	13
6	<i>A.Nasirov</i> O‘ZBEK ROMANLARIDA JADID OBRAZI TAQINI VA BADIY FUNKSIYASI.....	17
7	<i>M.Tojiboyeva</i> MUMTOZ NASR VA JADID HIKOYACHILIGI XUSUSIYATLARINING SINTEZLASHUVI.....	19
	I. JADID ADABIYOTINING ASOSIY GO‘YAVIY-BADIY XUSUSIYATLARI	
8	<i>Z.Rahimov</i> O‘ZBEK ROMANCHILIGINING SHAKLLANISHIDA JADID ADIBLARINING O‘RNI.....	23
9	<i>T.Matyoqubova</i> FIKR VA TAFAKKUR UYG‘UNLIGI.....	26
10	<i>M.Hoshimxonov</i> MASHRAB IJODIDA MA‘NAVIY FIKRLAR.....	30
11	<i>N.Matmusayeva</i> ABDULLA AVLONIY SHE‘RIYATIDA POETIK OBRAZLAR VA ULARNING YANGILANISHI.....	36
12	<i>X.Tog‘aev</i> CHIN ZIYOKORLIK HAQIDA O‘YLAR.....	38
13	<i>D.Aliyeva</i> JAHON SHE‘RIYATINING YORQIN SAHIFAIARI.....	40
14	<i>M.Jo‘rayev</i> KOMEDIYA JANRINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI XUSUSIDA BA‘ZI MULOHAZALAR.....	43
15	<i>Yu. Karimova, T.Umirov</i> TARIXIY VOQELIK VA BADIY TALQIN.....	45
16	<i>N.Samandarova</i> “AFLOTUN” ROMANIDA POETIK MUSHOHADA KENGLIKLARI.....	48
17	<i>S.Yoqubova</i> JADID SHE‘RIYATIDA RANG BILAN BOG‘LIQ RAMZIYLIK.....	52
18	<i>G.Bektasheva</i> BEGALI QOSIMOV JADIDSHUNOS OLIM.....	54
19	<i>A.Maxmudova</i> BEHBUDIYNING O‘ZBEK ADABIY TILI TARAQQIYOTIDA TUTGAN O‘RNI.....	57
20	<i>M.Sobirova</i> ZIYOLI OBRAZIGA CHIZGILAR (A.Qahhor va O‘.Hoshimov ijodi misolida)	60
21	<i>S.Yo‘ldosheva</i> ADABIYOTIMIZNING YORQIN YULDUZI (<i>U.Nosir tavalludining 110 yilligiga</i>).....	62
	II. UMUMFILOLOGIK TADQIQOTLAR: TALQIN VA TAHLIL MUAMMOLARI.	
22	<i>N.Kilichov</i> OLTUN YORUG‘” ASARIDAGI QIPCHOQ DIALEKTIGA XOS BA‘ZI LUG‘AVIY BIRLIKLER SEMANTIKASI.....	65
23	<i>E.Orazbaev</i> TURKIY TILLARDAGI ARABCHA O‘ZLASHMALARDA UNLILAR ALMASHUNUVI (o‘zbek, qoraqalpoq, turkman tillari misolida).....	67

24	<i>F.Jumayeva</i> SINONIMIYA VA UNGA YONDOSH HODISALAR.....	68
25	<i>Z.Jumayeva</i> BADIY ADABIYOT MILLIY MADANIYATIMIZ IFTIXORI.....	70
26	<i>O.Xidirov</i> JAHON TILSHUNOSLIGIDA SINTAKTIK TEGLASH (IZOHLASH) NAZARIYASI.....	73
27	<i>I.Madramova</i> O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA BA‘ZI ZONIM KOMPONENTLI FRAZELOGIZMLARNING SEMANTIKASI.....	75
28	<i>D.Fayzullaeva</i> DOSTONLAR TILIGA XOSLANGAN KIYIM-KECHAK NOMLARINI BILDIRUVCHI LINGVOMADANIY BIRLIKLAR.....	77
29	<i>F.Abduljalilova</i> ANTROPOSENTIRIK FRAZELOGIZMLARNING OMONIM,SINONIM, ANTONIM VA PARONIM TURLARI.....	82
30	<i>S.Ne`matova</i> BOBUR MIRZONING MANGULIK KARVONI.....	85
31	<i>Sh.Jo`rayev</i> ERKIN VOHIDOV IJODINING O`ZIGA XOS QIRRALARI.....	87
32	<i>M.Xidirova</i> SO‘Z ZARGARI – TOG‘AY MUROD IJODIGA BIR NAZAR.....	90
33	<i>D.Qushmurodova</i> BARQAROR BIRIKMALARNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI (Erkin Vohidov asarlari misolida).....	93
34	<i>N.Kiryigitova</i> “O‘ZBEKISTON” SHE‘RIDA FALSAFIY TAFAKKUR VA BADIY TALQIN.....	95
35	<i>G.Tulishova</i> OZOD SHARAFIDDINOV TADQIQOTLARINING ADABIY TANQIDCHILIGIMIZ RIVOJIDAGI O`RNI.....	97
36	<i>U.Farmonova</i> DAVR VA ADABIYOTGA MUNOSABAT MUAMMOLARI.....	99
37	<i>S.Soyipov, V.Sultonova</i> BADIY TIL SABOQLARI.....	102
38	<i>N.Eshqulova</i> KORPUS LINGVISTIKASI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	104
39	<i>M.Abdullayeva</i> “OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ASARIDA SOMATIZMLAR ISHTIROK ETGAN FRAZEMALAR VA ULARNING TAHLILI.....	106
40	<i>M.Asrorova</i> QO‘SHMA GAPLARNING TILSHUNOSLIKDA O‘RGANILISHI.....	109
41	<i>M.Abdug‘aniyev</i> ETNONIM VA ETNOTOPONIMLAR TARIXIGA BIR NAZAR...	111
42	<i>M.Salohiddinova</i> ADABIYOTSHUNOSLIK RIVOJIDA XOTIRA- MEMUARLARNING O`RNI.....	114
43	<i>Sh.Karimova</i> ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA SAFAR MOTIVI.....	117
44	<i>N.Shuxratjonova</i> SHARQ ADABIYOTIDA PANDNOMA ASARLARINING QIYOSIY TAHLILI (S.Sheroziy, A.Jomiy, J.Rumiy asarlari misolida).....	120
45	<i>N.Umarova, S.Rahmonova</i> ADABIYOTDA DAVR MUAMMOLARI AKS ETISHI (Abdulla Oripov va Tog‘ay Murod ijodi misolida).....	122
46	<i>N.Turdiyeva</i> IJODIY TA‘SIR VA ADABIYOT RIVOJI MUAMMOLARI HAQIDA.....	125
47	<i>D. Usanov</i> OTAMDAN QOLGAN DALALAR ASARIDA DAVR VA SHAXS RUHIYATI.....	128
48	<i>S.Xamroyeva</i> “JAZIRAMADAGI ODAMLAR”DA SAMAD OBRAZI TASVIRI.....	131
49	<i>D.Xidirova</i> ALISHER NAVOIY--BUYUK ADABIYOTSHUNOS.....	132
50	<i>G.Ochilova</i> FE‘LNING SHART MAYLI SHAKLI VA ASIMMETRIYA.....	135

51	<i>N.Narbayeva</i> FORS VA O'ZBEK TILLARIDAGI MUSHTARAK SOMATIK FRAZELOGIZMLARNING QIYOSIY TAHLILI.....	136
52	<i>N.Abralova</i> KO'MAKCHILARNI TARJIMA QILISHDA SEMIK TAHLIL USULI.....	139
53	<i>M.Hamraqulova</i> NUTQNING TA'SIRCHANLIGINI OSHIRVCHI EMOTSIONAL-EKSPRESSIV FRAZELOGIZMLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	142
54	<i>Z.Abdullayeva</i> O'ZBEK TILI VA ADABIYOTIMIZ YALOV BARDORI.....	144
55	<i>S.Aliyeva</i> HIKOYALARIDA KO'NGILDAGI YASHIRIN ISHQ MASALASI (Luqmon Bo'rixonning "Tokchadagi tumor" hikoyasi misolida)	146
56	<i>A.Alimov, D.Xudaynazarova</i> ADABIYOT VA MUSIQA -YUKSAK SAN'AT OLAMI.....	148
57	<i>X.Zarpullayeva</i> O'ZBEK HIKOYACHILIGIDA O'KTAM USMONOVNING QAHRAMON YARATISH MAHORATI.....	149
58	<i>Z.Toshbekova</i> TABIAT VA INSON YAXLITLIGI TASVIRI.....	153
59	<i>A.Muxtorova</i> TANQIDCHILIKNING BA'ZI MUAMMOLARI.....	156
60	<i>M.Eshqobilova</i> ERKIN VOHIDOV PUBLISISTIKASI –DAVR KO'ZGUSI.....	158
61	<i>H.Shukurov</i> ISTIQLOL BA NAVOIY IJODINING O'RGANILISHI.....	161
62	<i>Sh.Kuyliyev</i> O'TKIR HOSHIMOVNING HIKOYANAVISLIK MAHORATI.....	164
63	<i>L.Sindorov</i> SHUKUR XOLMIRZAYEVNING "PODACHI", "XORUN AR-RASHID" HIKOYALARIDA SINTEZ HODISASI.....	167
64	<i>N.Abdullaeva</i> "RISOLAYI TIR ANDOXTAN" ASARIDA ODAM ALAYHISSALOM OBRAZI.....	171
65	<i>X.Maxammadiyev</i> ALISHER NAVOIY XAMSA DOSTONLARIDA O'ZLASHGAN KIYIM-KECHAK NOMLARI.....	173
66	<i>Sh.Adilova</i> ALISHER NAVOIYNING "MAHBUB UL-QULUB" ASARIDA QO'LLANILGAN DAVLAT BOSHQARUVIGA OID LEKSIK BIRLIKLAR.....	177
III. O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISH MASALALARI		
67	<i>Ya.Umarova</i> TA'LIMNING BARCHA BOSQICHIDA MA'RIFATPARVAR SHAXS TARBIYASI.....	179
68	<i>I.Usmonqulova</i> ONOMASTIK BIRLIKLARNI O'QITISHDA LINGVISTIK MASHQLARNING AHAMIYATI.....	182
69	<i>O.Mamirov</i> ONA TILI DARSLARIDA UMUMDIDAKTIK TAMOYILLAR.....	186
70	<i>R.Saidova</i> ADABIY TA'SIR MUAMMOLARINING O'RGANILISHI.....	189
71	<i>Matluba Islom qizi</i> ISTIQLOL VA ADABIYOT DARSLIKLARI.....	192
72	<i>T.Erxonov</i> BOG'LOVCHILARNI O'QITISH USULLARI.....	195
73	<i>N.Matyakubova</i> QO'LLANILISHI CHEGARALANMAGAN VA CHEGARALANGAN LEKSIKANI O'QITISHDA BADIY MATNDAN FOYDALANISH.....	197
74	<i>S.Yusupov</i> ONA TILI DARSLARIDA KLASTER METODINI QO'LLASHNING AHAMIYATI.....	201
75	<i>F.Qulsaxatov</i> "BOBURNOMA" ASARINI O'QITISHDA INTEGRATIV YONDASHUV.....	204

76	D.Ilhomova SHIRIN QOVUNLAR MAMLAKATI” ROMANINI MASOFAVIY TA’LIMDA O’QITISH METODIKASI.....	209
77	S.Nurbekova O’TKIR HOSHIMOV HIKOYALARINI O’RGANISH XUSUSIDA BA’ZI MULOHAZALAR.....	211
78	Sh.Umarova ULUG’BEK HAMDAM HIKOYALARI TAHLILIGA YANGICHA YONDASHUV.....	214
79	Sh.Rahmataliyev HOZIRGI O`ZBEK LIRIKASIDA HAJVIY OBRAZ (ERKIN VOHIDOV IJODI MISOLIDA).....	216
80	A.Mahmado’stov ADABIYOT O’QITISH SAMARADORLIGIGA ERISHISHDA FANLARARO INTEGRATSIYANING AHAMIYATI.....	220
81	M.Sobirova UMUMIY O’RTA TA’LIM TIZIMIDA ONA TILI TA’LIMIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI O’QITISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	221

**“O`ZBEK TILI VA ADABIYOTI RIVOJIDA JADID ADIBLARI
IJODINING O`RNI VA AHAMIYATI”**

Respublika ilmiy – amaliy anjumani materiallari

Jizzax 2022- yil 30-mart

Muharrir: M.Jo`raboyev
Musahhih: J.Murtozayev
Sahifalovchi: S.Normuhammedov

Guvohnoma № 14-0003, 30.04.2020
Ofset qog`ozi. Bosishga ruhsat etildi 28.03.2022.
Format A4. Garnitura «Times New Roman».
Shartli bosma taboq 14,25
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 01

JDPI tahririy-nashriyot bo`limida chop etildi.
130100, Sh.Rashidov shox ko`chasi, 4-uy
Tel./faks: (+99872) 226-02-93
(+99893) 305-85-00